

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GWARDIYASI
HARBIY-TEXNIK INSTITUTI**

M.X. RUSTAMBAYEV

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JINOYAT HUQUQI
K U R S I**

IV TOM

**MAXSUS QISM
IQTISODIYOT SOHASIDAGI JINOYATLAR.
EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLAR.
HOKIMIYAT, BOSHQARUV VA JAMOAT
BIRLASHMALARI ORGANLARINING
FAOLIYAT TARTIBIGA QARSHI
JINOYATLAR**

Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik
(2-nashr, to’ldirilgan va qayta ishlangan)

TOSHKENT

UO‘K -343.46(575.1)

KBK - 67.408(50‘)

R-92

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti kengashida ma‘qullangan. 2018 yil 29 iyundagi 9-sonli bayonnoma

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. 2018 yil 15 avgustdagi 718-sonli buyrug‘i

Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 529 bet.

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 2018 yil 1 noyabrgacha kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartishlar inobatga olingan holda tayyorlangan. Unda amaldagi qonun hujjatlari, tergov va sud amaliyoti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari asosida jinoyat huquqining Umumiy va Maxsus qismi masalalari yoritilgan.

Darslik besh tomdan iborat. Birinchi va ikkinchi tomlar JKning Umumiy qismiga bag‘ishlangan. Birinchi tomida jinoyat qonuni va jinoyat to‘g‘risidagi ta‘limot masalalari yoritilgan. Ikkinchisida jazo, javobgarlik va jazodan ozod qilish, jinoyat-huquqiy ta‘sirning boshqa choralari yoritilgan. Uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi tomlar JKning Maxsus qismi normalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlik masalalariga bag‘ishlangan. Muallif tomonidan barcha jinoyatlar tarkibining belgilari tahlil qilingan, ularni kvalifikatsiya qilish masalalari, o‘xshash jinoyatlar tarkiblarini farqlash muammolari ko‘rib chiqilgan.

Darslik yuridik oliy o‘quv muassasalari bakalavr va magistr lari, Bosh prokuratura Akademiyasi tinglovchilari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti kursantlari, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi tinglovchilari, o‘qituvchilarga mo‘ljallangan, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va jinoyat huquqi muammolari bilan qiziquvchi shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin.

Taqrizchilar:

Abdurasulova K.R.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi “Kriminologiya” kafedrasi boshlig‘i, yu.f.d., professor

Mirazov D.M.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik Instituti “Sohaviy huquqiy fanlar” kafedrasi boshlig‘i, yu.f.d., dotsent

ISBN 978-9943-5559-4-5

© Rustambayev M.X., 2018

© O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik Instituti, 2018

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| I BOB. O‘ZGALAR MULKINI TALON-TAROJ QILISH..... | 10 |
| 1-§. O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish tushunchasi va turlari | 10 |
| 2-§. Bosqinchilik (JK 164-moddasi)..... | 20 |
| 3-§. Tovlamachilik (JK 165-moddasi)..... | 40 |
| 4-§. Talonchilik (JK 166-moddasi)..... | 48 |
| 5-§. O‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish (JK 167-moddasi).. | 52 |
| 6-§. Firibgarlik (JK 168-moddasi)..... | 62 |
| 7-§. O‘g‘rilik (JK 169-moddasi)..... | 67 |
| «O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar | 74 |
| Qo‘shimcha adabiyotlar | 75 |
| Rahbariy adabiyotlar | 75 |
| O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar | 76 |
| Ilmiy maqolalar..... | 79 |
| II BOB. O‘ZGALAR MULKINI TALON-TOROJ QILISH BILAN BOG‘LIQ BO‘LMAGAN JINOYATLAR..... | 83 |
| 1-§. Aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan mulkiy zarar yetkazish (JK 170-moddasi)..... | 83 |
| 2-§. Jinoiy yo‘l bilan topilgan mulkni olish yoki o‘tkazish (JK 171-moddasi)..... | 86 |
| 3-§. Mulknı qo‘riqlashga vijdotsiz munosabatda bo‘lish (JK 172-moddasi)..... | 90 |
| 4-§. Mulknı qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (JK 173-moddasi).. | 91 |
| «O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar | 93 |
| Qo‘shimcha adabiyotlar | 94 |
| O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar | 94 |
| Ilmiy maqolalar..... | 94 |
| III BOB. IQTISODIYOT ASOSLARIGA QARSHI JINOYATLAR..... | 95 |
| 1-§. O‘zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish (JK 175-moddasi) | 95 |
| 2-§. Qalbaki pul, Aksiz markasi yoki qimmatli qog‘ozlar yasash, ularni o‘tkazish (JK 176-moddasi)..... | 100 |
| 3-§. Valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish (JK 177-moddasi)..... | 105 |

| | |
|--|------------|
| 4-§. Chet el valutasini yashirish (JK 178-moddasi)..... | 117 |
| 5-§. Soxta tadbirkorlik (JK 179-moddasi) | 125 |
| 6-§. Soxta bankrotlik (JK 180-moddasi)..... | 128 |
| 7-§. Bankrotlikni yashirish (JK 181-moddasi) | 131 |
| 8-§. Qasddan bankrotlikka olib kelish (JK 181 ¹ -modda) | 134 |
| 9-§. Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 182-moddasi)..... | 140 |
| 10-§. Raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini va tabiiy monopoliyalar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 183-moddasi) | 151 |
| 11-§. Soliqlar va boshqa majburiy tulovlarni tulashdan buyin tovlash (JK 184-moddasi)..... | 160 |
| 12-§. Budget va smeta-shtat intizomini buzish (JK 184 ¹ -moddasi)..... | 169 |
| 13-§. Qimmatbaho metallar yoki toshlarni topshirish qoidalarini buzish (JK 185-moddasi)..... | 176 |
| 14-§. Rangli metallar, ularning parcha va rezgi-chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda ularni o‘tkazish qoidalarini buzish (JK 185 ¹ -moddasi) | 179 |
| 15-§. Elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish (JK 185 ² -moddasi) | 180 |
| «Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar..... | 183 |
| Qo‘shimcha adabiyotlar | 185 |
| O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar | 185 |
| Ilmiy maqolalar..... | 187 |
| IV BOB. XO‘JALIK FAOLIYATI SOHASIDAGI JINOYATLAR | 190 |
| 1-§. Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o‘tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish (JK 186-moddasi)..... | 191 |
| 2-§. Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish (JK 186 ¹ -moddasi)..... | 198 |
| 3-§. Chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish (JK 186 ² -moddasi) | 206 |
| 4-§. Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini yoxud tibbiy buyumlarni o‘tkazish maqsadida ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o‘tkazish shuningdek dori vositalarini dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilish (JK 186 ³ -moddasi)..... | 211 |
| 5-§. Noqonuniy tadbirkorlik faoliyati (JK 188-moddasi)..... | 218 |
| 6-§. Pul mablag‘larini va (yoki) boshqa mol-mulkni jalb etishga doir noqonuniy | |

| | |
|---|------------|
| faoliyat (JK 188 ¹ -moddasi) | 222 |
| 7-§. Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish (JK 189-moddasi) | 225 |
| 8-§. Faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish (JK 190-moddasi) | 227 |
| 9-§. Qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor kilish yoki undan foydalanish (JK 191-moddasi)..... | 230 |
| 10-§. Raqobatchini obro'sizlantirish (JK 192-moddasi) | 235 |
| «Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar | 236 |
| Qo'shimcha adabiyotlar | 237 |
| O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar | 237 |
| Ilmiy maqolalar..... | 238 |
| IV¹ BOB. TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA TO'SQINLIK QILISH, QONUNGA XILOF RAVISHDA ARALASHISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR HAMDA XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING HUQUQLARI VA QONUNYIY MANFAATLARIGA TAJOVUZ QILADIGAN BOSHQA JINOYATLAR..... | 240 |
| 1-§. Xususiy mulk huquqini buzish (JK 192 ¹ -moddasi)..... | 241 |
| 2-§. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilish tartibini buzish (JK 192 ² -moddasi)..... | 248 |
| 3-§. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini va (yoki) ularning banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni qonunga xilof ravishda to'xtatib turish (JK 192 ³ -moddasi) | 252 |
| 4-§. Tadbirkorlik subyektlarini homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish (JK 192 ⁴ -moddasi)..... | 253 |
| 5-§. Litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlarini va ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 192 ⁵ -moddasi) | 254 |
| 6-§. Imtiyozlar va preferentsiyalarni qo'llashni g'ayri-qonuniy ravishda rad etish, qo'llamaslik yoki qo'llashga to'sqinlik qilish (JK 192 ⁶ -moddasi)..... | 256 |
| 7-§. Xo'jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa tashkilotlarga pul mablag'lari berishni asossiz ravishda kechiktirish (JK 192 ⁷ -moddasi) | 259 |
| 8-§. Tadbirkorlik subyektlarining hisobvaraqlarida pul mablag'lari mavjudligi to'g'risidagi axborotni qonunga xilof ravishda talab qilib olish (JK 192 ⁸ -moddasi) | 264 |
| 9-§. Tijoratda pora evaziga og'dirib olish (JK 192 ⁹ -moddasi)..... | 267 |
| 10-§. Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish (JK 192 ¹⁰ -moddasi) | 274 |
| 11-§. Nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish (JK 192 ¹¹ -moddasi) | 278 |

| | |
|--|------------|
| Qo‘shimcha adabiyotlar | 284 |
| O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar | 284 |
| Ilmiy maqolalar..... | 285 |
| V BOB. ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA TABIATDAN | |
| FOYDALANISH SOHASIDAGI JINOYATLAR | 287 |
| 1-§. Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (JK 193-moddasi) | 287 |
| 2-§. Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko‘rsatish (JK 194-moddasi) | 292 |
| 3-§. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko‘rmaslik (JK 195-moddasi) | 298 |
| 4-§. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish (JK 196-moddasi)..... | 299 |
| 5-§. Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish (JK 197-moddasi)..... | 303 |
| 6-§. Ekinzor, o‘rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish (JK 198-moddasi)..... | 305 |
| 7-§. O‘simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish (JK 199-moddasi)..... | 309 |
| 8-§. Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini buzish (JK 200-moddasi)..... | 311 |
| 9-§. Zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish (JK 201-moddasi) | 314 |
| 10-§. Hayvonot yoki o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish (JK 202-moddasi)..... | 317 |
| 11-§. Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish (JK 203-moddasi) | 327 |
| 12-§. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzish (JK 204-moddasi) | 330 |
| «Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar..... | 334 |
| Qo‘shimcha adabiyotlar | 335 |
| O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar | 335 |
| Ilmiy maqolalar..... | 336 |
| VI BOB. BOSHQARUV TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR..... | 337 |
| 1-§. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste‘mol qilish (JK 205-moddasi)..... | 338 |
| 2-§. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (JK 206-moddasi) | |

| | |
|---|-----|
| | 348 |
| 3-§. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash (JK 207-moddasi) | 351 |
| 4-§. Hokimiyat harakatsizligi (JK 208-moddasi) | 354 |
| 5-§. Mansab soxtakorligi (JK 209-moddasi) | 356 |
| 6-§. Pora olish (JK 210-moddasi) | 359 |
| 7-§. Pora berish (JK 211-moddasi) | 365 |
| 8-§. Pora olish-berishda vositachilik qilish (JK 212-moddasi) | 368 |
| 9-§. Davlat organlarining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish (JK 213-moddasi) | 370 |
| 10-§. Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi (JK 214-moddasi) | 374 |
| 11-§. Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish (JK 215-moddasi) | 377 |
| 12-§. Jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish (JK 216-moddasi)..... | 381 |
| 13-§. G‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida katnashishga undash (JK 216 ¹ -moddasi) | 386 |
| 14-§. Diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun xujjatlarini buzish (JK 216 ² -moddasi) | 389 |
| 15-§. Yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o‘tkazish tartibini buzish (JK 217-moddasi)..... | 393 |
| 16-§. Taqiqlangan ish tashlashga rahbarlik qilish yoki favqulodda holat sharoitida korxonaga, muassasa yoxud tashkilotlar ishiga to‘sqinlik qilish (JK 218-moddasi) | 398 |
| 17-§. Hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko‘rsatish (JK 219-moddasi)..... | 401 |
| 18-§. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar (JK 220-moddasi)..... | 406 |
| 19-§. Jazoni ijro etish muassasasi ma‘muriyatining qonuniy talablariga bo‘ysunmaslik (JK 221-moddasi)..... | 410 |
| 20-§. Qamoqdan yoki qo‘riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish (JK 222-moddasi)..... | 412 |
| 21-§. Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish (JK 223-moddasi) | 415 |
| 21-§. O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzish (JK 224-moddasi) | 420 |
| 22-§. Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo‘yin tovlash (JK 225-moddasi)..... | 426 |

| | |
|---|------------|
| 23-§. Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish (JK 226-moddasi) | 434 |
| 24-§. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni, avtomototransport vositalarining va ular tirkamalarining (yarim tirkamalarining) davlat raqam belgilarini egallash, nobud qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirish (JK 227-moddasi) ... | 438 |
| 25-§. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish (JK 228-moddasi) | 444 |
| 26-§. Davlat proba tamg'alarini tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalarini buzish (JK 228 ¹ -moddasi)..... | 447 |
| 27-§. O'zboshimchalik (JK 229-moddasi)..... | 449 |
| 28-§. Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish (JK 229 ¹ -moddasi) | 452 |
| 29-§. Diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish (JK 229 ² -moddasi)..... | 453 |
| 30-§. Belgilangan taqiqlarni (cheklovlarni) buzgan holda binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash (JK 229 ³ -moddasi) | 454 |
| «Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar | 455 |
| Qo'shimcha adabiyotlar | 458 |
| O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar | 458 |
| Ilmiy maqolalar..... | 459 |
| VII BOB. ODIL SUDLOVGA QARSHI JINOYATLAR..... | 463 |
| 1-§. Aybsiz kishini javobgarlikka tortish (JK 230-moddasi) | 463 |
| 2-§. Dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) (JK 230 ¹ -moddasi)..... | 467 |
| 3-§. Tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirish (qalbakilashtirish) (JK 230 ² -moddasi) | 473 |
| 4-§. Adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish (JK 231-moddasi) | 475 |
| 4-§. Sud hujjatini ijro etmaslik (JK 232-moddasi) | 480 |
| 5-§. Band solingan mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etish (JK 233-moddasi) | 482 |
| 6-§. Qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish (JK 234-moddasi) . | 486 |
| 7-§. Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash (JK 235-moddasi)..... | 494 |
| 8-§. Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish (JK 236-moddasi) | 504 |
| 9-§. Yolg'on xabar berish (JK 237-moddasi) | 509 |
| 10-§. Yolg'on guvohlik berish (JK 238-moddasi)..... | 510 |
| 11-§. Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilish (JK 239- | |


| | |
|--|-----|
| moddasi)..... | 514 |
| 12-§. Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o‘z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo‘yin tovlashi (JK 240-moddasi)..... | 516 |
| 13-§. Jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish (JK 241-moddasi) | 518 |
| 14-§. Jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirish (JK 241 ¹ -moddasi) | 522 |
| «Odil sudlovga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha nazorat savollari..... | 526 |
| Qo‘shimcha adabiyotlar | 527 |
| O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar | 527 |
| Ilmiy maqolalar..... | 528 |

* JKning 174-moddasi O‘zbekiston Respublikasining 2007 yil 25 dekabrda gi «Axborotlashtirish va ma’lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-137-son Qonuni bilan bekor qilingan (1-moddaning 1-bandi).


** JKning 187-moddasi O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrda gi «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrimlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida»gi 175-P-son Qonuni bilan bekor qilingan (9-band).

I BOB. O'ZGALAR MULKINI TALON-TAROJ QILISH

1-sxema



2-sxema



1-§. O'zgar mulkini talon-taroj qilish tushunchasi va turlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga muvofiq, mamlakatimiz iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Mulq daxlsizdir va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi, unga

qilingan har qanday tajovuz qonunga xilof deb hisoblanadi¹.

NOTA BENE !

Talon-toroj qilish — o‘zganing mulkini o‘zining yoki boshqa shaxslarning foydasi uchun, mulkdorga yoki ushbu mulkning boshqa egasiga zarar keltirib, qonunga xilof tarzda va haq to‘lamay olib qo‘yishdir.

Talon-toroj qilish turdosh tushuncha bo‘lib, mulkka qarshi jinoyatlarning muayyan bir guruhini, ya’ni bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish, firibgarlik hamda o‘g‘rilikni o‘z ichiga qamrab oladi.

Talon-toroj qilishning **obyekti** o‘zgalar mulkidir.

NOTA BENE !

Mulk — mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bo‘yicha mulk egasi va jamiyatning boshqa a‘zolari (mulkdor bo‘lmaganlar) o‘rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatdir.

Fuqarolik kodeksining 167-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida mulkning **xususiy va ommaviy shakllari mavjud.**

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 18-б.

Fuqarolar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va boshqa nodavlat shaxslar **xususiy mulk** huquqining subyektlari hisoblanadilar.

Ommaviy mulk — bu respublika mulki va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo'lgan davlat mulkidir.

Respublika mulkiga yer, yer osti boyliklari, suv, havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar, respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan madaniy va tarixiy boyliklar, respublika Budjetining mablag'lari, oltin zaxirasi, davlatning valuta va boshqa fondlari, shuningdek, korxonalar va boshqa moddiy boylikka ega bo'lgan komplekslar, o'quv, ilmiy, ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, davlatning Budjet mablag'lari va boshqa mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan intellektual faoliyat natijalari, boshqa mol-mulklar ham kiradi (FK 214-moddasi).

Munitsipal mulk tarkibida davlat hokimiyati mahalliy organlarining mulki, mahalliy Budjet mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jalik, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, boshqa mulklar bo'ladi.

JKning X bobida nazarda tutilgan «O'zgarar mulkini talon-toroj qilishning» **maxsus obyekt** fuqarolik huquqining mulk huquqi instituti doirasiga kiruvchi shaxsning o'z mulkiga egalik qilishi, undan foydalanishi va tasarruf etishi bilan bog'liq mulkiy munosabatlar hisoblanadi. Mulkiy munosabatlar doirasiga, shuningdek, mol-mulknii qonunga muvofiq qo'lga kiritish huquqini ham kiritish lozim.

Talon-toroj qilishning **predmeti** mulk (ko'char va ko'chmas) va mulknii olish huquqini beruvchi predmetlar, ya'ni inson mehnati singgan moddiy dunyo predmetlari, muayyan ashyolar, shuningdek, uy hayvonlari bo'lishi mumkin.

Talon-toroj qilish predmeti **moddiy borliq predmeti singari** aniq **xususiyatlarga**, belgilarga (og'irligi, sifati, hajmi va hokazolarga) ega bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan elektr energiyasi, gaz kabilar talon-

toroj qilish jinoyatlarining predmeti bo'lishi mumkin emas. Biroq bunday harakatlar boshqa jinoyat tarkibini: elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish (JK 185²-moddasi) jinoyatini keltirib chiqarishda aybli bo'lishi mumkin. Shuningdek, intellektual mehnatni o'zlashtirish (plagiat) talon-toroj qilishning predmeti bo'la olmaydi, bunday harakatlar mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish (JK 149-moddasi) jinoyati tarkibini tashkil qiladi.

Talon-toroj qilishning predmeti bo'lib faqatgina inson mehnati singgan va ma'lum **iqtisodiy qiymatga** ega bo'lgan mol-mulk, ashyolar hisoblanishi mumkin.

Mol-mulkning qiymati deganda, odatda, uning pul bilan o'lchangan narxi tushuniladi. Shuning uchun, pul, pul birliklari, muomala almashinuvi ekvivalenti bo'lgan qimmatli qog'ozlar talon-torojning predmeti bo'lishi mumkin.

Ma'lum bir qiymatga ega bo'lmagan narsalar, masalan, shaxsiy yozishmalar, shaxsiy kundalik, kimningdir fotosurati talon-toroj predmeti bo'lishi mumkin emas. Bu yerda auksion savdosiga qo'yilgan va oldi-sotdi qilish mumkin bo'lgan mashhur shaxslarning rasmlari (ayniqsa, avtograf qo'yilgan), shaxsiy kundaligi, xat yozishmalari istisno etuvchi holatlardan biri sanaladi.

O'z xo'jalik qiymatini yo'qotgan narsa buyumlar yoki inson mehnati singmagan tabiat obyektlari talon-toroj qilish predmeti hisoblanmaydi. Ikkinchi holat o'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan ekologiya sohasidagi jinoyatlarni farqlash imkoniyatini yaratadi. Davlat mulkining obyektlari bo'lgan yer, yer osti boyliklari, o'rmonlar talon-torojning predmeti bo'lishi mumkin emas. Biroq, yer, yer osti boyliklaridan foydalanish qoidalari buzilganda, aybdor yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish uchun javobgarlik belgilangan JK 197-moddasiga (Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish) ko'ra jazolanadi.

Agar o'rmondagi daraxtlar g'ayriqonuniy kesilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi — ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast

yetkazganlik, ularni nobud qilganlik uchun javobgarlik belgilangan JK 198-moddasi (Ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish) bilan kvalifikatsiya qilinadi. Ov qilish, baliq tutish qoidalarini yoki hayvonlarning boshqa turlarini ushlab qoidalarini buzish, noyob hayvonlarni tutish yoxud dori-darmon, oziq-ovqat va manzarali o'simlik turlarini yig'ish yoki tayyorlash to'g'risidagi belgilangan tartib yoki shartlar buzilganda, aybdor shaxsning harakatlari hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish, deb topiladi hamda JK 202-moddasiga (Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish) ko'ra javobgarlikni vujudga keltiradi.

Shu obyektlarga tajovuz qilish talon-toroj qilishdan farqlanadi, chunki faqat inson mehnati sarflangan, almashuv qiymatiga, ya'ni moddiy qimmatiga ega bo'lgan mol-mulkkina talon-torojning predmeti bo'lishi mumkin. Masalan, tayyorlab qo'yilgan yog'ochni o'g'irlash, qo'riqxonada o'stirilgan hayvonlarni talon-toroj qilish, maxsus moslashtirilgan hovuzlarda yetishtirilgan baliqlarni tutish, baliqchilik xo'jaliklari ovlagan baliqlarni egallab olish talon-toroj qilish tariqasida kvalifikatsiya qilinadi.

Qimmatbaho metallar yoki toshlarni o'zboshimchalik bilan qazib olish talon-toroj qilish hisoblanmaydi, balki qimmatbaho metallar yoki toshlarni topshirish qoidalarini buzish JK 185-moddasida (Qimmatbaho metallar yoki toshlarni topshirish qoidalarini buzish) nazarda tutilgan mustaqil jinoyat hisoblanadi. Agar qimmatbaho metallar yoki toshlar ularni qazib oluvchi korxonalarining hududidan topib olingan bo'lsa, bunday harakatlar ham talon-toroj sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunday korxonalarining hududi, qazish ishlari olib borilayotgan maydon, tayyorlangan maydonchalar, xandaqlar, ya'ni qimmatbaho metallar yoki toshlarni qazib olish, ular bor joylarda qidiruv ishlarini olib borish uchun tayyorlangan joylar korxonalarining hududi deb qaraladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, talon-torojning predmeti **ko'char** va **ko'chmas mulklar** bo'lishi mumkin. Uy, kvartira, yer uchastkasi va boshqalar o'z obyektiv xususiyatlariga ko'ra yashirin ravishda o'g'irlab ketish mumkin bo'lmagan mol-mulklar sanalsa-da, ular aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan (firibgarlik) yoxud zo'rlik ishlatish

bilan tahdid qilish orqali (tovlamachilik) talon-toroj qilinishi mumkin. Alohida hollarda ko‘chmas mulk ko‘char mulkka «aylantirilishi» mumkin. Masalan, aloqa liniyasini demontaj qilish, individual turar joyni yig‘ish, tashish va boshqa shu kabilar.

Pul birligidan tashqari, **qimmatli qog‘ozlar** ham talon-torojning predmeti bo‘lib hisoblanadi. FK 96-moddasiga muvofiq, mulkiy huquqlarni belgilangan shaklda va zaruriy rekvizitlarda rasmiylashtirilgan va mulkka bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi va ular taqdim etilgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin. Obligatsiyalar, veksellar, cheklar, depozit va jamg‘arma sertifikatlar, bankning taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg‘arma daftarchasi, aksiyalar va qonunda qimmatli qog‘ozlar deb belgilangan qog‘ozlar qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi.

Taqdim qiluvchiga pul beriladigan qimmatli qog‘ozlarga talon-torojning predmeti bo‘lishi mumkin. Taqdim qiluvchiga pul berilmaydigan qimmatli qog‘ozlar talon-toroj predmeti bo‘la olmaydi, chunki ular aybdorga qimmatli qog‘ozda mavjud bo‘lgan mulkiy huquqni olish imkoniyatini bermaydi.

Lotereya biletlari, pochta markalari, otkritkalar, konvertlar, yonilg‘i-moylash materiallari uchun talonlar, metroda yurish jetonlari ham talon-torojning predmeti bo‘lishi mumkin. Biroq poyezd, samolyot chiptalari talon-toroj qilish predmeti bo‘la olmaydi. Chunki ular o‘zicha moddiy boylik hisoblanmaydi, qo‘shimcha hujjatlar (masalan, pasport) taqdim etilgandagina moddiy boylikka aylanishi mumkin. Shunga o‘xshash ashyolarni egallab olish, hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni egallash, nobud qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirganlik JK 227-moddasi (Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni egallash, nobud qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirish) bilan kvalifikatsiya qilinadi. Agar shaxs shu hujjatlardan foydalanishga qasd qilgan bo‘lsa, uning qilmishi jinoyatlar jamiga ko‘ra aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan mulkiy zarar yetkazishga (JK 170-moddasi) tayyorgarlik ko‘rish deb hisoblanadi.

Talon-torojning predmeti bo‘lib, faqatgina **muomaladagi**, maxsus

ruxsatnoma talab qilmaydigan mol-mulklar va narsalar hisoblanishi mumkin. Agar jinoyat predmeti fuqarolik muomalasidan chiqarilgan alohida turdagi narsalar (masalan, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar, o‘qotar qurollar, portlovchi moddalar, kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalar va hokazolar) bo‘lsa, aybdorning harakatlari talon-toroj qilish emas, balki maxsus jinoyatlar tarkibi (JKning «Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» (XVII) bobi tarkibidagi maxsus moddalar) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish zarurki, talon-torojning predmeti **faqatgina o‘zganing mulki, ya’ni aybdor tomonidan egallanayotgan mulkning egasi bo‘lmasligi yoki uning qonuniy egaligida bo‘lmagan mulk bo‘ladi.** Shaxs mol-mulkka egalik huquqiga ega bo‘la turib, belgilangan tartibni buzib uni qo‘lga kiritgan hollarda, talon-torojning tarkibi mavjud bo‘lmaydi. Uning harakatlari boshqa jinoyat — o‘zboshimchalik (JK 229-moddasi) deb hisoblanishi mumkin. Shuningdek, umumiy ulushdagi shaxsning sherikchilik asosidagi mulkni noqonuniy egallashida ham talon-toroj qilish belgilari mavjud bo‘lmaydi.

Tasodifiy ravishda topib olingan mol-mulk (topilma) talon-torojning predmeti bo‘lishi mumkin emas. FK 192-moddasiga muvofiq, yo‘qolgan ashyni topib olgan shaxs bu haqda uni yo‘qotgan yoki egalik huquqiga ega bo‘lgan, o‘ziga ma’lum shaxslarga darhol xabar berishi hamda topilgan ashyni shu shaxsga qaytarishi shart.

Agar ashyo bino ichida yoki transportda topilgan bo‘lsa, u shu binoning yoki transport vositasining egasiga topshirilishi lozim. Topilma topshirilgan shaxs uni topib olgan shaxsning huquq va majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi.

Topilgan ashyo qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxs noma’lum bo‘lsa yoki uning manzili ma’lum bo‘lmasa, ashyni topib olgan shaxs topilma to‘g‘risida militsiyaga, tegishli davlat organlariga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga ma’lum qilishi shart.

Ashyni topib olgan shaxs uni o‘zida saqlab turishga yoki saqlash uchun militsiya yoki tegishli davlat organi yoxud fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga yo ular ko‘rsatgan shaxsga topshirishga haqlidir.

Xazina ham talon-toroj qilish jinoyatining predmeti bo‘la olmaydi.

NOTA BENE !

Xazina — yerga ko‘milgan yoki boshqa usullarda yashirilgan pul yoki qimmatbaho narsalar. Ularning egasini aniqlash mumkin bo‘lmaydi yoki u qonunga muvofiq ravishda mulkka egalik qilish huquqini yo‘qotgan bo‘ladi va bu mulk xazina yashirilgan joy (yer maydoni, uy-joy va h.k.) egasining egaligiga o‘tadi.

Xazinaga bo‘lgan mulk huquqini tartibga solishga oid masalalar fuqarolik huquqiy normalariga asoslanib hal qilinadi. Xazina, ushbu xazina topilgan joy (yer uchastkasi, qurilish va shu kabilar) egasi bo‘lgan shaxs yoki uni topgan shaxs mulkiga, agar ular o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, teng ulushlarda o‘tadi.

Obyektiv tomondan talon-toroj o‘zganing mol-mulkini o‘z foydasiga yoki boshqa shaxslar foydasiga qonunga xilof ravishda, bepul olib qo‘yishda ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida talon-toroj qanday usulda sodir etilganiga qarab uning uchun javobgarlik differentsiatsiya qilingan.

Jinoyat kodeksida **talon-torojning** quyidagi **shakllari** nazarda tutilgan:

- 1) bosqinchilik (JK 164-moddasi);
- 2) tovlamachilik (JK 165-moddasi);
- 3) talonchilik (JK 166-moddasi);
- 4) o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish (JK 167-moddasi);
- 5) firibgarlik (JK 168-moddasi);
- 6) o‘g‘rilik (JK 169-moddasi).

Qonunga xiloflik har qanday talon-torojning zaruriy belgisi hisoblanadi.

NOTA BENE !

Qonunga xiloflik deganda, aybdor shaxs tomonidan bunga hech qanday huquqi bo‘lmay turib, o‘zganing mol-mulkini olib qo‘yish tushuniladi.

Talon-torojning mazkur belgisi nafaqat qonun bilan taqiqlangan jinoyat sodir etishning usulini (obyektiv huquqqa xiloflikni), shu bilan birga aybdorning mazkur mol-mulkka nisbatan mulkiy huquqlarining (subyektiv huquqqa xiloflikni) ham mavjud emasligini anglatadi. Shaxs mol-mulkka egalik huquqiga ega bo‘la turib, belgilangan tartibni buzib, JK 164—169-moddalarida nazarda tutilgan talon-torojning biror-bir usuli asosida uni qo‘lga kiritgan hollarda ham talon-torojning tarkibi mavjud bo‘lmaydi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, uning harakatlari boshqa jinoyat — o‘zboshimchalik (JK 229-moddasi) deb hisoblanishi mumkin.

Talon-torojning ikkinchi zaruriy belgisi **haqini to‘lamasdan (bepul) olinganligi** hisoblanadi.

Mulk, ashyoning haqini to‘lamaslik (tekinga olish) talon-toroj qilingan mol-mulk evaziga muayyan ekvivalent bermasdan o‘zganing mol-mulkini olib qo‘yishni bildiradi.

Agar shaxs talon-toroj qilish vaqtida talon-toroj qilingan mulk o‘rniga talon-toroj qilingan mulk qiymatini, narxini to‘liq qoplagan bo‘lsa, jinoyat tarkibi mavjud bo‘lmaydi. Bu harakatlar natijasida mulkiy zarar yetkazilmaydi. Shuni nazarda tutish lozimki, shaxsni o‘zganing mulkini talon-toroj qilishda aybdor deb topish uchun, ushbu mulkni aybdor o‘z foydasiga yoki boshqa shaxslar foydasiga o‘tganligi haqida guvohlik beruvchi muayyan dalillarni aniqlash lozim bo‘ladi. Qonunga xilof tarzda olib qo‘yilgan mulkning qiymatini qisman to‘lash ham qilmishda talon-toroj tarkibining yo‘qligini anglatmaydi, biroq ushbu holat talon-toroj natijasida yetkazilgan zarar miqdorini hisoblashda inobatga olinishi mumkin.

O‘zganing mulkini **olib qo‘yish** deganda, ushbu mulkni aybdorning o‘zi yoki boshqa shaxs foydasiga qaratilishi tushuniladi.

Bu holatda aybdor talon-toroj qilingan mulkka nisbatan go‘yoki o‘z egaligini o‘rnatadi. U mazkur mulkdan, xuddi o‘z mulkidek, foydalanish va tasarruf etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ammo qonuniy nuqtai nazardan aybdor jinoiy yo‘l bilan topilgan mulkka nisbatan egalik huquqiga ega bo‘la olmaydi. Ayni chog‘da, jabrlanuvchi talon-toroj qilingan mulkka nisbatan o‘z egalik huquqini yo‘qotmaydi.

O'zganing mulkini talon-toroj qilishning **tugallangan** vaqti talon-toroj qilishning shakliga bog'liq bo'ladi. Ko'p hollarda talon-toroj qilish aybdor o'zganing mulkini egallagan va ushbu talon-toroj qilingan mulkni o'zining xohishicha haqiqiy tasarruf etish (sotish, almashtirish, yashirish va h.k.) imkoniyati paydo bo'lgan vaqtdan boshlab tugallangan hisoblanadi. Shuning uchun, agar aybdor o'zganing mol-mulkini qo'lga kiritgan bo'lsa-yu, biroq hali uni o'z mulki sifatida tasarruf etish imkoniyatiga ega bo'lmasa, qilmish talon-toroj qilishga suiqasd tariqasida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bosqinchilik va tovlamachilik hollari bundan mustasno bo'lib, bu jinoyatlarning tugallanish vaqti boshqa tartibda hal qilinib, bu haqda quyida ma'lumot berib o'tamiz.

Ta'kidlash o'rinliki, amaliyotda **qo'riqlanuvchi obyekt**dan mol-mulk talon-toroj qilinishining tugallangan vaqtini aniqlashda biroz qiyinchilik kelib chiqmoqda. Bizningcha, mazkur obyekt dan mol-mulk talon-toroj qilinganda, mol-mulk qo'riqlanayotgan hudud chegarasidan tashqariga olib chiqilishi jinoyatni **tugallangan** deb hisoblash uchun asos bo'ladi.

Subyektiv tomondan talon-toroj g'araz maqsadlarda **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Jinoyatning subyekti o'z harakatlarining g'ayriqonuniyligini anglaydi, o'z galar mulkini tekinga qo'lga kiritishni xohlaydi va istaydi. Bu holatda jinoyat sodir etgan shaxsning talon-toroj qilinayotgan mulkning egasi haqidagi noto'g'ri tasavvuri kvalifikatsiyaga ta'sir qilmaydi.

G'araz maqsad talon-toroj qilishning zaruriy belgisi hisoblanib, bu aybdorning o'zi uchun yoki boshqa shaxslar uchun moddiy manfaat undirishga bo'lgan urinishidir. Bu holatda beg'araz maqsadda, masalan, o'zganing mulkini kelgusida qaytarib berish maqsadida vaqtincha foydalanish yoki faraz qilingan huquqlar doirasida o'zganing mol-mulkini egallashga qaratilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar o'g'rilik yoki talonchilik jinoyati tarkibini tashkil etmaydi. Bunday harakatlar ish holatlariga ko'ra o'zboshimchalik (JK 229-moddasi) yoki JK Maxsus qismining boshqa moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Jinoyatning **subyekti** qonunda belgilangan yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxs hisoblanadi. Jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan jinoyat sodir etishning yoshi turli shakldagi talon-toroj jinoyatlari uchun

bir xil emas.

2-§. Bosqinchilik (JK 164-moddasi)

Bosqinchilik o'zganing mol-mulkiga qarshi qaratilgan eng xavfli jinoyatlardan biri bo'lib, uni sodir etganlik uchun javobgarlik **JK 164-moddasida** nazarda tutilgan.

Bosqinchilik **ijtimoiy xavfliligining** yuqoriligi, avvalo, shu bilan bog'liqki, bu jinoyat natijasida o'zganing mol-mulki egallab olinayotganda jabrlanuvchilarning hayoti yoki sog'lig'iga ham ziyon yetkaziladi yoxud bunday ziyon yetkazilishi uchun real xavf vujudga keladi.

Bosqinchilikning **bevosita asosiy obyekti** sifatida o'zganing mol-mulkini muhofaza qilishni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, **bevosita qo'shimcha obyekti** sifatida esa, fuqarolarning hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar namoyon bo'ladi.

Obyektiv tomondan bosqinchilik o'zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida shu mulkning egallanishiga qarshilik ko'rsatgan shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib hujum qilishda ifodalanadi.

Bosqinchilik sodir etishdagi **hujum** qonunga xilof ravishda ochiqdan-ochiq yoki yashirin ravishda to'satdan jabrlanuvchiga, ya'ni mulkdorga, mol-mulkka qonuniy ravishda egalik qiluvchi mulk egasiga, shuningdek, talon-toroj qilishga qarshilik ko'rsatayotgan boshqa uchinchi shaxslarga zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishda ifodalanadi.

Aksariyat hollarda, bosqinchilik vaqtida shaxsga ochiqdan-ochiq hujum qilinadi, ba'zan esa jabrlanuvchiga sezdirmasdan yashirincha (masalan, orqadan o'q uzib, panadan pichoq urib) sodir etilishi ham mumkin. Hujum jabrlanuvchiga nisbatan zaharlovchi yoki falaj qilishga qaratilgan vositalar va moddalar orqali ochiqdan-ochiq yoki yashirin ravishda sodir etilishi mumkin.

Bosqinchilikda ishlatiladigan **zo'rlik** jismoniy yoki ruhiy bo'lishi mumkin. Odatda, bosqinchilikda zo'rlik ishlatish hujum bilan ayni bir vaqtda sodir bo'ladi, ammo bevosita hujumdan keyin kuch ishlatilishi

hollari ham uchraydi. Hujum boshqa bir shaxsga qaratilib, mol-mulkni egallashga to'sqinlik qilmoqchi bo'lgan boshqa shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatilgan hollar ham uchraydi.

Hayot uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish deganda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qaroriga ko'ra, «uning ishlatilishi jabrlanuvchining hayoti uchun aniq bo'lgan xavfni vujudga keltiruvchi holat (masalan, jabrlanuvchini bo'g'ish, boshini suv ostida ushlab turish va h.k.) tushuniladi. (Hayot uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish — *M.X. Rustambayev.*)

Sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish deganda, jabrlanuvchiga sog'lig'ining buzilishiga sabab bo'lgan tan jarohati yetkazish yoki shunday tan jarohatini yetkazish xavfini tug'diruvchi harakatlar (chakkaga, quyosh chigaliga urish va h.k.) tushuniladi»¹.

O'zganing mol-mulkini talon-toraj qilish maqsadida shu mulkning egallanishiga qarshilik ko'rsatgan shaxsning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilgan hujum **JK 164-moddasi 1-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Qonun zo'rlik ishlatishni bosqinchilikning belgisi sifatida uni umumiy holda «hayot yoki sog'liq uchun xavfli» deb belgilaydi. Biroq jabrlanuvchining unga zo'rlik ishlatishi natijasida o'lim holati kelib chiqsa, bosqinchilik jinoyatining tarkibiga kirmaydi, shuning uchun ham bu belgi faqatgina qasddan badanga shikast yetkazishnigina qamrab oladi. Bosqinchilik jarayonida badanga og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlik JK 164-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan. JK 164-moddasining

1- qismi jabrlanuvchi sog'lig'iga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 105-moddasi) yoki yengil shikast yetkazish (JK 109-moddasi)

2- qismi) oqibatlarini ham qamrab oladi va JK 105- yoki 109-moddalari

¹ *Қаранг:* Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкни ўғирлик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш[^]жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўз- гартириш ва қўшимчалар билан) // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991—2006, 1-жилд. — Т.: «О'қитuvchi» НМИУ, 2007. — 222-б. (кейинги ўринларда — Тўплам, 1-жилд).

bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi.

Aldash yo‘li bilan tanasiga kuchli ta‘sir ko‘rsatuvchi, zaharli, uxlatadigan yoki boshqa karaxt qiladigan moddalar jabrlanuvchiga berilganida, qilmish qanday kvalifikatsiya qilinadi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Albatta, agar bunday moddalarning berilishi jabrlanuvchining hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirgan bo‘lsa, aybdorning harakatlarini **JK 164-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilish zarur.

Jabrlanuvchining hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi kuchli ta‘sir qiluvchi, zaharli, uxlatadigan (masalan, kuchli spirtli ichimliklar bilan birga klofelinni qo‘shib berish) va boshqa karaxt qiladigan vositalarni berish orqali uni hushsiz ahvolga keltirib mulkini talon-toroj qilish ham bosqinchilik deb hisoblanishi lozim.

Agar qonunga xilof ravishda o‘zganing mol-mulkini egallash jarayonida jabrlanuvchi qonunga xilof ravishda zo‘rlik harakatlari natijasida ozodlikdan mahrum qilinsa, bu harakatlarni bosqinchilik yoki talonchilik sifatida baholashda amalga oshirilgan zo‘rlik harakatlarining shaxs hayoti va sog‘lig‘iga yetkazishi mumkin bo‘lgan zarari, shuningdek, bu kabi harakatlar natijasida yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo‘lgan oqibatlarining xavflilik darajasi va xususiyatlari inobatga olinishi lozim (misol uchun oyoq-qo‘li bog‘langan va yordamga chaqirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan shaxsni sovuq havoda yoki joyda qoldirish).

Bosqinchilikda ishlatiladigan zo‘rlik jabrlanuvchidan tortib olingan mol-mulknini egallash yoki o‘zida saqlab qolish usuli hisoblanadi. Bosqinchilikni kvalifikatsiya qilish uchun aybdor tomonidan zo‘rlikning mol-mulk egasi yoki uni qo‘riqlayotgan shaxs yoxud mulk tasarrufida bo‘lgan shaxs yoxud o‘zganing mulkini egallashga to‘sqinlik qilgan shaxslarga nisbatan ishlatilganligining ahamiyati yo‘q. O‘zganing mol-mulkini egallash yoki saqlab qolish maqsadida zo‘rlikning ishlatilishi jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi. Agar zo‘rlik boshqa maqsadda, masalan, sodir etilgan o‘g‘irlikdan keyin qo‘lga tushishdan qutulib qolish maqsadida ishlatilgan bo‘lsa, bunday qilmishni bosqinchilik deb hisoblash mumkin emas, aybdorning harakatlari o‘g‘irlik (JK 169-moddasi) va shaxsga yoki boshqaruv tartibiga qarshi jinoyat deb hisoblanadi.

Aybdor qachonki shaxs hayoti yoki sog'lig'iga zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilgan taqdirdagina, hujumni bosqinchilik deb kvalifikatsiya qilish mumkin.

Bunday **zo'rlik ishlatish tahdidi** jabrlanuvchiga ruhiy zo'rlik orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Zo'rlikning xususiyatini og'zaki, qurolni ko'rsatish, imo-ishora (masalan, «o'ldiraman», «mayib qilaman», «ko'zingni o'yib olaman» deyish) qilish, jabrlanuvchining hayotiga yoki sog'lig'iga og'ir tan jarohati yetkazishi mumkin bo'lgan qurol, to'pponchani, pichoqni yoxud shu maqsadlarda foydalanish mumkin bo'lgan boshqa predmetlarni jabrlanuvchiga ko'rsatish, shuningdek, hujum harakatlarini amalga oshirish (og'ir predmet bilan boshiga urishga harakat qilish, o'qotar qurol yoki pichoqni o'qtalish va h.k.) orqali ham ifodalash mumkin. Zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilishni amalga oshirish usuli: og'zaki, qo'l harakatlari va boshqalar **JKning 164-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

Bosqinchilik hujumi vaqtidagi tahdid quyidagi belgilarga ega bo'lishi zarur:

1) jismoniy zo'rlik darhol qo'llanilishi mumkinligi xavfini o'z ichiga olgan, ya'ni **real (haqiqiy)** bo'lishi;

2) kelgusida emas, aynan hujum paytida **haqiqatda mavjud** bo'lishi.

Bosqinchilik amalga oshirilayotgan paytdagi qo'rqitish aniq yoki noaniq bo'lishi mumkin.

Aniq qo'rqitishga qurol yoki qurol sifatida ishlatiladigan narsalar bilan qo'rqitish, shaxsni o'ldirish yoki uning sog'lig'iga zarar yetkazish niyatini og'zaki aytish, shunday niyati borligini imo-ishoralar bilan ifodalash kiradi.

Noaniq xususiyatdagi qo'rqitish niqoblangan shaklda ifodalanadi. Masalan, jabrlanuvchiga ko'rinmaydigan narsalar, muayyan imo-ishoralar (qurolni qo'ldan-qo'lga olish) bilan qo'rqitish va h.k. ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Bosqinchilik vositasi sifatida tahdidning maqsadi mulkning talon-toroj qilinishini yengillashtirish uchun jabrlanuvchining irodasini susaytirishdan iboratdir. Tahdidning jinoyat tarkibi belgisi bo'lishi mumkinligi masalasini

hal etish uchun sudlar bosqinchilik va o'g'rilik vositasi sifatida muayyan ish holatlarini, birinchi navbatda, bosqinchilik sodir etilgan joy va vaqtni, jinoyatchilar soni, shakli bo'yicha noaniq bo'lgan tahdidni mustahkamlash maqsadida ishlatilgan ashyolar va vositalarni inobatga olgan holda, tahdidning mazmuni va yo'naltirilganligini o'rganishlari lozim.

Faqat sud har bir alohida holda, sodir etilgan jinoyat holatlarini hisobga olgan holda, tahdidning realligi va haqiqatda mavjud bo'lganligiga baho beradi. Bunday hollarda sud jabrlanuvchining real tahdid mavjud bo'lganligi to'g'risidagi subyektiv fikriga emas, balki aniq faktlarga tayanishi kerak.

Masalan, jinoyatchi yarim tunda jabrlanuvchining orqasidan kelib: «qimirlama, aks holda yomon bo'ladi» degan so'zlar bilan orqasiga barmog'ini tiradi. Sudda jabrlanuvchi o'z hayoti xavf ostida qolganligini da'vo qilgan, biroq sud bunday holatlarda jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'i uchun real xavf bo'lmagan deb hisoblashni lozim topgan.

Shu bilan birga, o'g'rilik, talonchilik (shuningdek, zo'rlik ishlatilgan talonchilik) jinoyatlari sifatida boshlangan, ammo keyinchalik sodir etish jarayonida hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish yo'li bilan sodir etilgan talon-torojga aylangan jinoyatlar JK 164-moddasida nazarda tutilgan tajovuz sifatida ko'riladi.

Bosqinchilik hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlikni ishlatish bilan qo'rqitib hujum qilingan paytdan e'tiboran, aybdor o'zganing mol-mulkini egallagan yoki egallamaganidan qat'i nazar, **tugallangan** jinoyat deb hisoblanadi.

Ko'rinib turganidek, nafaqat mol-mulkni olganlik fakti, balki shaxs hayotiga yetkazilgan zararining real holati ham jinoyat tugallanishining zaruriy belgisi emas. Shuning uchun, qoida tariqasida bosqinchilikka suiqasd qilish holati yuz bermaydi. Hujum harakatlarigacha bo'lgan holatlarda faqatgina bosqinchilikka tayyorgarlik ko'rish haqida so'z yuritish mumkin. Birinchi hujum harakatlari amalga oshirilgan vaqtdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi (kesik tarkibli jinoyat).

Bosqinchilik **subyektiv tomondan to'g'ri qasd va g'arazli maqsadlarda** ifodalanadi. Aybdor jinoyat sodir etishda uning tomonidan

sodir etilayotgan zoʻrlikning jabrlanuvchi hayoti yoki sogʻligʻi uchun xavfliligini va ushbu zoʻrlik oʻzganing mulkini oʻzi va oʻzga shaxslar foydasiga egallash vositasi sifatida ishlatilayotganligini tushunadi va shuni xohlaydi.

Jinoyatning **subyekt**i 14 yoshga toʻlgan, aqli raso jismoniy shaxsdir.

JK 164-moddasi 2-qismida javobgarlikni ogʻirlashtiruvchi bir necha holatlarda sodir etiladigan bosqinchilik uchun javobgarlik belgilangan, jumladan:

a) qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin boʻlgan boshqa narsalarni ishlatib;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) ancha miqdordagi mulkni talon-toroj qilish bilan bogʻliq holda sodir etilishi.

Bosqinchilikda **qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin boʻlgan boshqa narsalarni qoʻllash** jinoyatning ijtimoiy xavfliligini oshiradi. Chunki bu jabrlanuvchining qarshiligini sindirish, jinoyat qurbonining aybdorning jinoiy rejasini amalga oshirishiga qarshilik koʻrsatishi imkoniyatidan mahrum qilish, hujum qiluvchiga koʻp kuch sarflamasdan jabrlanuvchining qarshiligini yengish imkonini beradi.

Bosqinchilik paytida aybdor tomonidan ishlatiladigan **qurol** oʻqotar yoki sovuq qurolni, shuningdek, barcha turdagi portlovchi moslamalar — granata, dinamit patroni, shashka va boshqalarni oʻz ichiga oladi. **JK 164-moddasi 2-qismi «a» bandi** bilan kvalifikatsiya qilishga bosqinchilik jinoyatida qurolning maxsus ruxsatnoma bilan olib yuriladigan qurollar yoki ruxsat etilgan qurollar (masalan, ov quroli) turiga kirishi ahamiyatga ega emas.

NOTA BENE !

Oʻqotar qurollar deganda, xoʻjalik-maishiy maqsadlarda ishlatilmaydigan va faqat jonli nishonni urish yoki sport tadbirlarini oʻtkazish uchun moʻljallangan, snaryad, oʻq otishda porox gazlari kuchidan foydalaniladigan barcha turdagi qurollar tushunilishi kerak.

Portlatish qurilmalari deganda, portlovchi moddalar bilan to'ldirilgan va portlashni amalga oshirish uchun mo'ljallangan yig'ilgan holdagi qurilmalar tushunilishi lozim. Bunda **portlovchi moddalar** deganda, porox, dinamit, trotil, nitroglitserin va kislorodli havo etishmagan vaziyatda portlash xususiyatiga ega bo'lgan kimyoviy moddalar va aralashmalar tushuniladi.

NOTA BENE !

Jabrlanuvchining bevosita badaniga odam mushak kuchi yordamida tegishi natijasida jonli nishonni jarohatlash uchun maxsus mo'ljallangan buyumlar **sovuq qurol** hisoblanishi lozim. O'tmishda zarba berishning usuli va xususiyatiga qarab sovuq qurollarning har xil turlari yasalgan va ular muayyan shaklga ega bo'lgan. Ularning sanchuvchi (stilet — kichkina ensiz xanjarcha, kortik — dengiz va havo floti ofitserlarining qisqa xanjari, sanchuvchi turdagi nayzalar va hokazo), sanchib kesuvchi (uzun, og'ir qilich va hokazo), kesuvchi (shamshir, qilich va hokazo), maydalovchi (kastet, gurzi, cho'qmor va hokazo) hamda uruvchi turlari mavjuddir. Shuningdek, ma'lum masofadan inson muskul kuchi yordamida obyektga zarar yetkazish mumkin bo'lgan qurollar (bolta, nayzalar) hamda mexanik vositalar (kamon, arbalet va boshqalar) ham kiradi.

Buyumni sovuq qurol deb topishning asosiy mezonini uning jonli nishonni jarohatlash uchun mo'ljallanganligidir. Qator hollarda, mazkur buyumlardan faqat jangovar qurol sifatida foydalaniladi, masalan, xanjar, miltiq nayzalari, qilichlar, shamshirlar, cho'qmorlar, gurzilar va h.k. Mazkur buyumlar o'z tabiatiga ko'ra faqat fuqarolarning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Sovuq qurollar kriminalistik belgilariga ko'ra turli xil toifalarga bo'linadi:

Mo'ljallangan maqsadiga ko'ra, sovuq qurollar jangovar (harbiy, politsiya, maxsus), fuqaroviy (sport, ovchilik), jinoiy sovuq qurollarga bo'linadi.

Tayyorlanish usuliga ko'ra, sovuq qurollar zavodda tayyorlangan,

hunarmandchilik sovuq qurollari va qo‘lbola turlariga ajratiladi. Alohida guruh sifatida ham zavodda tayyorlangan, ham hunarmandchilik asosida tayyorlanish belgilarini o‘z ichiga olgan o‘zlashtirilgan qurollar ajratib ko‘rsatiladi.

Sovuq qurollarning **tayyorlanish joyiga qarab** mahalliy va xorijda tayyorlangan sovuq qurollar guruhlari ajratib ko‘rsatiladi.

Tuzilishining o‘ziga xosligiga ko‘ra, sovuq qurollar tig‘li, zarbali-majaqlovchi, kombinatsiyalashtirilgan (turli qurollarning birlashtirilgani) va niqoblangan bo‘ladi.

Aniq bir qurolning sovuq qurol jumlasiga kirish yoki kirmasligi masalasini hal qilish uchun sud ekspertizasi tayinlanishi lozim.

NOTA BENE !

Qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan boshqa narsalar — bu ishlatilganda jabrlanuvchining hayoti yoki sog‘lig‘iga obyektiv zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday ashyolar (otvyortka, zanjir, skalpel, katta tosh, armatura bo‘lagi, to‘qmoq va boshqalar), shuningdek, jabrlanuvchiga vaqtinchalik shikast yetkazishga yo‘naltirilgan ashyolar (ko‘zdan yosh oqizuvchi vositalar, vaqtinchalik hushsizlantiruvchi vositalar va boshqalar).

Qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan narsalarning oldindan tayyorlab qo‘yilganligi yoki jinoyat sodir etilgan joydan olinganligining bosqinchilikni kvalifikatsiya qilishda ahamiyati yo‘q.

O‘zganing mulkini qo‘lga kiritish maqsadida inson hayoti va sog‘lig‘iga xavf solishi mumkin bo‘lgan it yoki boshqa hayvonlardan foydalanish yoki foydalanish tahdidini **JKning 164-moddasi 2-qismi «a» bandining** qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan boshqa narsalardan foydalangan holda bosqinchilik sodir etish sifatida baholash lozim.

Bosqinchilikda **qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan boshqa buyumlarni ishlatish** deganda, amalda ulardan belgilangan maqsadda foydalanilishi tushunilishi lozim.

Bosqinchilikni sodir etishda ishlatishga yaroqsiz qurol yoki qurolga

o‘xshatib yasalgan buyumlarning qo‘llanilganligi bosqinchilikni og‘irlashtiruvchi holat hisoblanmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi yuqorida qayd etilgan qarorida: «Bila turib yaroqsiz quoldan yoki yolg‘ondakam quoldan (masalan, to‘pponcha yoki start to‘pponchasi maketlaridan) badanga shikast yetkazishni niyat qilmagan holda foydalanilganda, hayot va sog‘liq uchun xavfli bo‘lmaganda qurolli bosqinchilik sifatida baholash mumkin emas»¹. Bunday harakatlar **JK 164-moddasi 1-qismi** bo‘yicha oddiy bosqinchilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Biroq, agar qurolga o‘xshatib yasalgan narsalardan qurol sifatida foydalanilgan va ular bilan jabrlanuvchining hayoti yoki sog‘lig‘iga xavfli ziyon yetkazilgan bo‘lsa, aybdorning harakatlarini qurol sifatida ishlatish mumkin bo‘lgan boshqa buyumlardan foydalanib jinoyat sodir etish deb hisoblash mumkin.

Bosqinchilikda gaz quollarining qo‘llanilishi muhim masalalardan biridir.

NOTA BENE !

Gaz to‘pponchalari, gaz ballonchalari, ko‘zdan yosh oqizuvchi, bezovta qiluvchi yoki zaharli moddalar to‘ldirilgan purkagich va boshqa har qanday qurilmalar **gazli quollar** sirasiga kiritilishi lozim.

Fikrimizcha, shaxs bosqinchilikni sodir etishda hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan modda to‘ldirilgan gazli qurolni ishlatsa, aybdorning qilmishi qurolli bosqinchilik deb hisoblanishi kerak. Agar gazli quoldagi modda shaxsning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lmasa, uning ishlatilishi aybdorning harakatlarini qurolli bosqinchilik deb kvalifikatsiya qilish uchun asos bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Konunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti

¹ *Қаранг:* Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкани ўғирлик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарorigа асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991—2006, 1-жилд. — Т.: «О‘қитuvchi» НМИУ, 2007. — 222-б. (кейинги ўринларда — Тўплам, 1-жилд).

haqida»gi 1996 yil 27 fevraldagi 3-sonli qaroriga muvofiq, «pnevmatik miltiq, signal, start, gaz pistoletlari yoki gaz ballonlari, raketnitsalar va boshqa imitatsiya-pirotexnik va yoritgich vositalari qurol jumlasiga kirmaydi»¹.

Qurolli bosqinchilik hujumi sodir etilganida harakatlar jinoyatlar jami, ya'ni bosqinchilik **JK 164-moddasi 2-qismi «a» bandi** va qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish (JK 248-moddasi) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bosqinchilik hujumida qurol sifatida portlovchi, zaharli moddalar va h.k.lar ishlatilgan taqdirda, aybdorning qilmishlari jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Bosqinchilikni **JK 164-moddasi 2-qismi «b» bandita** ko'ra kvalifikatsiya qilish uchun bosqinchilik hujumida bu haqida **oldindan kelishib olgan ikki yoki undan ortiq shaxslar** ishtirok etgan bo'lishlari lozim. Aybdor shaxslar bosqinchilikni sodir etishda qanday zo'rlik ishlatish haqida aniq kelishib olmagan bo'lishlari ham mumkin.

Oldindan til biriktirgan shaxslar guruhi tarkibiga bosqinchilikni sodir etishga maslahatlari, yo'l-yo'riqlari, jinoyatni sodir etish qurollari va voeitalarini berib turish bilan ko'maklashgan shaxslar emas, balki hujumda bevosita ishtirok etgan bajaruvchilargina kiradilar. Bunday shaxslar JK 28-moddasiga ko'ra bosqinchilikning ishtirokchilari deb hisoblanishi mumkin.

Bosqinchilikni bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilish uchun har bir ishtirokchining 14 yoshga to'lganligi va aqli rasoligini va bu jinoyatni sodir etish uchun oldindan til biriktirganliklarini aniqlash lozim.

Agar bir guruh shaxslar tarkibidagi bir shaxs jinoyat subyekti hisoblanib, qolganlari muomalaga layoqatsiz yoki jinoyat sodir etish yoshiga yetmagan bo'lsa, ular faktik jihatdan bosqinchilikda bevosita ishtirok etgan bo'lsalar-da, yuridik jihatdan, ya'ni jinoyat qonunchiligi talablari

¹ *Қаранг:* Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги «Қонунга хилоф равишда қуролга эгаллик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 3-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли ва 2003 йил 19 декабрдаги 20-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 46-б.

nuqtai nazaridan guruh tarkibiga kirmaydilar. Boshqa og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lsa, yoshi katta jinoyatchi **JK 164-moddasi 1-qismi** bilan va qo'shimcha jinoyatlar majmui tariqasida JK 127-moddasi 3-qismi bo'yicha javobgarlikka tortiladi. Bu holatda shuni unutmaslik lozimki, agar voyaga yetgan shaxs bosqinchilik jinoyatini sodir etishda o'zi bevosita qatnashmasdan, voyaga yetmagan yoki aqli noraso shaxsdan jinoyatni sodir etishda foydalangan bo'lsa, voyaga yetgan shaxsni voyaga yetmagan shaxs yoki aqli noraso shaxsdan jinoyat quroli sifatida foydalangan shaxsni bevosita jinoyatni bajaruvchisi sifatida javobgarlikka tortish lozim.

Agar bir guruh shaxslar o'g'rilik yoki talonchilik sodir etish haqida kelishib olgan bo'lsalar va shu jinoyatlarni sodir etish jarayonida ishtirokchilardan biri boshqa jinoyatchilar bilan kelishib olmasdan mol-mulkni egallash maqsadida jabrlanuvchilarga nisbatan hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlikni ishlatga, qilmish ekspress bajaruvchi tomonidan sodir etilgan deb hisoblanadi, shuning uchun qilmishni bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bosqinchilik (**JK 164-moddasi 2-qismi «b» bandi**) sifatida kvalifikatsiya kilinishi mumkin emas. Bunda hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlikni ishlatgan shaxs bosqinchilik (JK 164-moddasi 1-qismi) uchun javobgar bo'ladi, jinoyatning qolgan ishtirokchilari esa o'g'rilik (JK 169-moddasi) yoki talonchilik (JK 166-moddasi) uchun javobgar bo'ladi.

Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bosqinchilik qatnashchisining harakatlari jinoyatning qolgan ishtirokchilari qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra (vafot etishi va h.k. munosabati bilan) jinoiy javobgarlikka tortilmaganliklaridan qat'i nazar, guruh bo'lib sodir etilgan jinoyat deb kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Talon-toroj qilingan mol-mulkning miqdori eng kam oylik ish haqining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo'lsa, **ancha miqdorda** sodir etilgan bosqinchilik deb hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan qat'iy narx belgilash imkoniyati yo'qligi sababli talon-toroj qilingan narsalarning qiymatini aniqlashda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shuni nazarda tutish

kerakki, o‘zganing talon-toraj qilingan mol-mulkingning qiymati shu qilmish sodir etilgan paytda mazkur mintaqadagi o‘rtacha bozor narxlari bo‘yicha belgilanishi lozim. Talon-toraj qilingan narsalarning qiymatini belgilashda ularning holatini, ishlab chiqarilgan vaqtini, eskirganligini, tovar ko‘rinishini, shu narsalardan foydalanish imkoniyatlari darajasi va h.k.larni e‘tiborga olish to‘g‘ri va zarurdir. Ya‘ni tovarshunoslik ekspertizasini tayinlash va vakolatli ekspertlar xulosasi asosida talon-toraj qilingan mol-mulkning qiymati masalasini hal etish zarur.

«Agar shaxsning harakatlari davomli jinoyat xususiyatiga ega bo‘lmasdan bir necha mustaqil epizodlardan, misol uchun, o‘g‘irlik, talonchilik, bosqinchilik va boshqalardan iborat bo‘lsa, bu harakatlar talon-toraj qilingan umumiy summadan kelib chiqqan holda tavsiflanishi mumkin emas. Bunday hollarda jinoyatni o‘zganing mulkini talon-toraj qilganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari dispozitsiyasiga muvofiq, jumladan, takroriylik belgisi bilan tavsiflash lozim»¹. Takroran sodir etilgan talon-torajni kvalifikatsiya qilishda barcha epizodlar bo‘yicha aniqlangan umumiy talon-toraj summasi emas, balki zarar miqdori eng ko‘p bo‘lgan epizod bo‘yicha talon-toraj summasi asos qilib olinadi².

JK 164-moddasi 3-qismida:

a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari JK 242-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ko‘p miqdorda;

v) uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa binolarga g‘ayriqonuniy ravishda kirgan holda;

g) badanga og‘ir shikast yetkazgan holda sodir etilgan bosqinchilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Takroran bosqinchilik sodir etish deganda, shaxsning ikki yoki undan ko‘p marta bosqinchilikni sodir etganligi, ammo ularning birortasi uchun

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкани ўғрилик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сон қарори, 8-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. – 223-б.

² Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 21 майдаги «Жазоларни либераллаштириш тўғрисидаги қонунни иқтисодиёт соҳасидаги жиноятларга нисбатан қўллашнинг айрим масалалари ҳақида»ги 4-сон қарори, 6-банд, 5-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 171-б.

ham sudlanmaganligi tushuniladi. Birinchi bosqinchilik hujumi tamom bo'lgan yoxud jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki suiqasd qilish bosqichida to'xtatilgan yoki ishtirokchilikda sodir etilgan bo'lsa, bosqinchilik takroran sodir etilgan deb hisoblanadi.

Agar ilgari sodir etilgan bosqinchilik uchun shaxs qonunda belgilangan tartibda jinoiy javobgarlik yoki jazodan ozod qilingan bo'lsa, bosqinchilik takroran sodir etilgan deb hisoblanmaydi. Agar yangi bosqinchilik sodir etilgan paytgacha aybdordan sudlanganligi qonunda belgilangan tartibda olib tashlangan yoki bekor bo'lgan aybdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tgan yoki ilgari sodir etilgan bosqinchilik uchun javobgarlik amnistiya akti yoki afv etish asosida olib tashlangan bo'lsa, takroriylik bo'lmaydi.

Agar bosqinchilikni sodir etgan shaxs ilgari bosqinchilik sodir etganligi uchun sudlangan bo'lsa, qilmish **xavfli retsdivist** tomonidan sodir etilgan deb hisoblanadi.

Bosqinchilik hujumini sodir etgan shaxs ilgari JK 242-moddasi (jinoiy uyushma tashkil etish)da javobgarlik nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan bo'lsa, uning qilmishi **JK 164-moddasi 3-qismi «a» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Talon-toroj qilingan mol-mulk miqdori eng kam oylik ish haqining yuz barobaridan uch yuz barobarigacha bo'lsa, **ko'p miqdorda (JK 164-moddasi 3-qismi «b» bandi)** bosqinchilik sodir etilgan deb hisoblanadi.

JK 164-moddasi 3-qismining «v» bandida uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa binolarga g'ayriqonuniy ravishda kirish **orqali sodir etilgan bosqinchilik jinoyati uchun javobgarlik belgilangan.**

Aybdor qilmishlarida uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa binolarga g'ayriqonuniy ravishda kirish kvalifikatsiya belgisi mavjud deb hisoblash uchun quyidagi belgilarga ega bo'lishi kerak: 1) g'ayriqonuniylik; 2) kirish; 3) uy-joy, omborxonaga yoki boshqa binolar. Bularning barchasi qonun to'g'ri qo'llanilishi uchun tahlil qilishni talab qiladi.

NOTA BENE !

Uy-joy deganda, kishilarning doimiy yoki vaqtinchalik turishiga

mo'ljallangan (shaxsiy uy, xonadon, mehmonxonadagi, sanatoriyadagi xona, dala hovli, bog' hovli va boshqalar) bino, shuningdek, uning tarkibiga kiruvchi dam olish uchun, mulkni saqlash uchun yoxud insonning boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun (balkonlar, oynaband ayvonlar, omborlar va boshqalar) mo'ljallangan binolar tushuniladi¹.

Odamlarning doimiy yoki vaqtincha yashashi uchun mo'ljallanmagan va moslashtirilmagan binolar (masalan, uy-joy imoratlaridan alohida turgan yerto'lalar, omborlar, garajlar va boshqa xo'jalik binolari)ning uy-joy deb hisoblanishi mumkin emas.

Poezd transport vositasi bo'lsa ham, poyezd kupesi vaqtinchalik uy-joy deb hisoblanishi mumkin. Chunki u odamlarning vaqtincha yashashi uchun mo'ljallangan. Palatkalar, vagonchalar, kema kayutalarini ham vaqtinchalik uy-joy deb hisoblash zarur.

Shuningdek, turar joy binosiga bevosita tutash qurilgan, u bilan yaxlit birlikni tashkil etuvchi balkonlar va peshayvonlar, chordoqlar, yerto'lalar ham «uy-joy» deb tushuniladi. Ko'p qavatli uylarning yerto'lalari, chordoqlari, transport vositalari uy-joy hisoblanmaydi.

NOTA BENE !

Omborxona deganda, tovar-moddiy boyliklarning talon-toraj qilinishi, buzilishi yoki yo'q qilinishidan, tabiat hodisalari va boshqa shu kabilardan ehtiyot qilib doimiy yoki vaqtincha saqlash uchun maxsus jihozlangan, moslashtirilgan yoki mo'ljallangan alohida qurilma yoki joy (masalan, seyflar, temir shkaflar, konteynerlar, avtorefrijeratorlar, sovitkichlar, qo'riqlanadigan platformalar, molxonalar, atrofi o'ralgan don omborlari, avtofurgonlarning usti yopiq kuzovlari va boshqa shu kabi)lar tushuniladi².

Shuningdek, sud-tergov amaliyotida tovar-moddiy boyliklarini doimiy

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкани ўғирлик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 224-б.

² Ўзбекистон Республикаси Олий суди... // Тўплам, 1-жилд. — 224-б.

yoki vaqtinchalik saqlash uchun mo'ljallangan hududlar ham «omborxon» deb qabul qilinadi. Masalan, temir yo'l stansiyalarining, daryo va dengiz portlarining, aeroportlarning qo'riqlanadigan hovlilari, elevator, mol uchun o'rab olingan molxonalar va boshqalar.

NOTA BENE !

Bino deganda, odamlarni joylashtirish yoki moddiy boyliklarni vaqtincha qo'yish uchun mo'ljallangan imorat, inshoot tushuniladi.

U doimiy, vaqtinchalik, ko'chmas va ko'char bo'lishi mumkin. Tovar-moddiy boyliklarni saqlash uchun qurilgan har qanday inshoot yoki bunday maqsadlar uchun mo'ljallanmagan, ammo zarurat tufayli, tovar-moddiy boyliklar saqlanadigan inshootlar (omborlar, do'konlar, sexlar, do'konchalar va h.k.lar)ga aylantirilgan «binolar» shular jumlasiga kiradi.

NOTA BENE !

G'ayriqonuniy kirish deganda, o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik qilish maqsadida uy-joyga, omborxon» yoki boshqa binoga kirish tushuniladi. G'ayriqonuniy kirish nafaqat yashirin, balki ochiqdan-ochiq, to'siqlar, odamlarning, shuningdek, qo'riqlovchi xodimlarning qarshiligini yyengib sodir etilishi mumkin. Aldash yo'li bilan, shuningdek, qalbaki ruxsatnomalardan foydalanib, masalan, santexnik, aloqa bo'limi xodimi, gaz, elektr energiya va yong'indan nazorat qiluvchi xodimlar va boshqalar tariqasida binoda paydo bo'lishi g'ayriqonuniy kirish deb baholanishi kerak¹.

Uy-joy, omborxon» yoki boshqa binoga kirib olish usullari turlicha bo'lib, qanday usuldan foydalanib kirilganligi (masalan, aybdorning eshik, derazalarni buzishi, devor, shiftdan tuynuklar ochish, yasama kalitlardan foydalanish yo'li bilan binoga kirib olishi) bosqinchilikning

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди... // Тўплам, 1-жилд. — 223-б.

kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Kirish uy-joy, omborxonona yoki boshqa binoga yashirin yoki oshkora bostirib kirish, mol-mulkni talon-toroj qilish niyatida g'ayriqonuniy binoning ichida paydo bo'lishdir. Bunday kirish to'siqlarni yoki odamlar qarshiligini yyengib o'tib yoki bularsiz ham sodir etilishi mumkin.

Mulkdorning, turar joy egasining yoki binodan xabardor bo'lib turgan boshqa shaxsning roziligisiz yoxud qalbaki hujjatlar yordamida uy-joy, omborxonona yoki boshqa binoga kirish g'ayriqonuniy deb topiladi.

Agar shaxs belgilangan vaqtda binoda bo'lish huquqiga ega bo'lsa (misol uchun, tsexda ish vaqtida bo'lish huquqi, savdo markazi ichida — savdo qilish vaqtida va h.k.), bundan boshqa vaqtda binoga kirishni ham g'ayriqonuniy kirish sifatida baholash lozim.

Misol uchun, agar shaxs bankning ish vaqtida yoki savdo markazi ish olib borish vaqtida yashirinib olib, ish vaqti tugaganidan so'ng qo'riqchilarga hujum qilish orqali pul yoki boshqa moddiy boyliklarni qo'lga kiritishini **JK 164-moddasi 3-qismi «v» bandi** bilan kvalifikatsiya qilish lozim. Aks holda, binoning ish vaqtida sodir etilgan bosqinchilik harakatlarini qonunga xilof ravishda kirib sodir etilgan bosqinchilik sifatida tavsiflash mumkin emas.

Aybdorning qilmishini JK 164-moddasi 3-qismi «v» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun uning binoga kirib olganligining o'zi yetarli bo'lmay, balki o'zganing mol-mulkini talon-toroj qilishga qasd qilgan yoki qilmaganini ham aniqlash zarur. Bunda qasd binoga kirib olgunga qadar yuzaga kelgan bo'lishi kerak. Aybdor talon-toroj sodir etish niyatisiz uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa binoga kirgan va moddiy boyliklarni ko'rganidan so'ng hayot yoki sog'liq uchun xavfli zo'rlik ishlatsa, bunday harakatlarda g'ayriqonuniy kirish belgilari mavjud bo'lmaydi va qilmishni **JK 164-moddasi 3-qismi «v» bandi** bilan kvalifikatsiya qilish mumkin emas, aybdorning qilmishida boshqa og'irlashtiruvchi holatlar bo'lmasa, u **JK 164-moddasi 1-qismi** bo'yicha javobgar bo'ladi.

Binoga kirishda uy-joy, omborxonona yoki boshqa binoga kirish huquqiga ega bo'lgan yoki shu obyektlarni qo'riqlovchi, ammo kirib olish paytida kirish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan bo'lsa, bu ham

kirish deb hisoblanadi.

Kirishning usullari turli xil bo'lishi mumkin (bino eshigi, oynasi, devorini buzish orqali, tayyorlangan kalitlardan foydalangan holda va boshqa tarzda), lekin bu jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi. Bu holatda kirish to'siqlarni bartaraf etish yoki shaxslar qarshiligini yengish tarzida sodir etilishi mumkin.

Tegishli uy-joy, omborxonona yoki boshqa binoga kirmasdan maxsus moslamalar (ilgaklar, qarmoqlar, magnitlar, so'rib oluvchi rezinka ichaklar, qisqichlar va hokazolar) yordamida o'zganing mol-mulkini talon-toroj qilish, uy-joyga, omborxonaga kirib talon-toroj sodir etish deb kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, aybdor bosqinchilik jinoyatini sodir qilish maqsadi bilan uy-joy, omborxonona yoki binoga kirganda, ushbu inshootning butunligiga putur yetkazsa va shu bilan birga jinoyat predmeti bo'lmagan jabrlanuvchining boshqa mol-mulklariga ancha miqdorda moddiy zarar keltirsa, uning harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha kirib olish bilan sodir etilgan bosqinchilik va JK 173-moddasi 1-qismi — o'zganing mulkini qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar bosqinchilik sodir etish paytida jabrlanuvchining badaniga og'ir shikast yetkazilgan bo'lsa, bunday bosqinchilik **JK 164-moddasi 3-qismining «g» bandida** nazarda tutilgan kvalifikatsiya qilish belgisi bo'yicha (badanga og'ir shikast yetkazgan holda sodir etilgan) javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Badanga qasddan og'ir shikast yetkazish belgilari JK 104-moddasi va ushbu moddaga sharhlarda berilgan. Bosqinchilik vaqtida badanga og'ir shikast yetkazish **JK 164-moddasi 3-qismining «g» bandi** bilan qamrab olinadi va JK 104-moddasi bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi.

Agar bosqinchilik vaqtida badanga og'ir shikast yetkazish natijasida jabrlanuvchining o'limi kelib chiqqan bo'lsa, u holda bosqinchilik bilan qasddan odam o'ldirishni o'zaro farqlash zarurati yuzaga keladi. Odam o'ldirishda odam o'ldirishga to'g'ri yoki egri qasdning mavjud bo'lishi

zarur, badanga og'ir shikast yetkazish natijasida odam o'ldirishda esa, aybdorning jabrlanuvchi o'limiga munosabati aybning ehtiyotsizlik shaklida ifodalanadi. Bosqinchilik jinoyatida odam o'ldirilishi **JK 164-moddasi 3-qismining «g» bandi** chegarasidan chiqib ketadi, shuning uchun kvalifikatsiya qilishda ayb shaklidan kelib chiqqan holda jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish talab qilinadi. Bunda bosqinchilik jinoyati sodir etishda ehtiyotsizlikdan odam o'ldirish jinoyati jinoyatlar majmui bo'yicha JK 102-moddasi 1-qismi va **JK 164-moddasi 3-qismi «g» bandi** bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak. Bosqinchilik jarayonida og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lmagan holda qasddan odam o'ldirish jinoyati esa, JK 97-moddasi 2-qismining «i» bandi — tamagirlik niyatida odam o'ldirish va JK 164-moddasining 1-qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak.

JK 164-moddasi 4-qismida:

a) juda ko'p miqdorda;

b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bosqinchilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Agar talon-toroj qilingan mol-mulk miqdori eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan ortiq bo'lsa, juda ko'p miqdorda (**JK 164-moddasi 4-qismi «a» bandi**) sodir etilgan deb hisoblanadi.

Ushbu holatda yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash qoidalari ko'p miqdorda talon-toroj qilish miqdorini aniqlash qoidalari bilan bir xil, ya'ni zarar miqdori tovarshunoslik ekspertizasi yordamida aniqlanishi kerak.

Qilmishni **JK 164-moddasi 4-qismining «b» bandi** bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun quyidagi belgilar bo'lishi zarur: a) bosqinchilik jinoyatini sodir etishdan oldin shaxsni **o'ta xavfli retsivist** deb topish to'g'risida sud hukmi; b) ushbu hukmning qonuniy kuchga kirganligi. Yuqoridagi belgilardan birining mavjud emasligi shaxsning qilmishini o'ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilish imkonini bermaydi.

Uyushgan guruh — bu jinoyatdagi ishtirokchilikning eng xavfli shakllaridan biri. Uyushgan guruh tushunchasining umumiy mazmuni JK

29-moddasida o‘z aksini topgan. JK 30-moddasida esa uyushgan guruh tashkil etgan yoki unga rahbarlik qilgan, shuningdek, bunday guruh a‘zolarining mazkur ishtirokchilik shaklida sodir etgan jinoyati uchun javobgarlik asoslari, shartlari va hajmi aniq ifodalangan. Shu bilan birga qonunda belgilanishicha, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan asoslarda va chegarada uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyat og‘irroq jazoga sazovordir. Bosqinchilik jinoyatiga nisbatan bunday asos va chegaralar **JK 164- moddasi 4-qismining «v» bandi** dispozitsiyasida va og‘irlashtirilgan jazosida ifodalangan.

Bosqinchilik jinoyatini sodir etishda uyushgan guruhning barqarorlik belgisi ko‘pincha guruh jinoiy faoliyatining davomiyligida, uni jinoiy ixtisoslashtirilganligida, faoliyat sohasining boshqa shu kabi guruhlar bilan taqsimlanishida, har bir a‘zosining vazifalari aniq bo‘linganligida (tashkilotchi, boshliq), qattiq ichki intizom, jinoiy faoliyatni ma‘lum bir vaqt doirasida rejalashtirishda ifodalanadi. Ushbu sanab o‘tilgan xususiyatlar har bir uyushgan guruh tomonidan bosqinchilik jinoyati sodir etilganda u yoki bu ma‘noda mavjud bo‘ladi. Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan jinoyatga ko‘ra, uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatda ichki tashkillashtirilganlik darajasi yuqoriroq bo‘ladi. Shuning uchun ham JK 29-moddasi qoidalariga ko‘ra, uyushgan guruh a‘zolari tomonidan o‘zganing mol-mulkini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik masalasida asos, shartlar va jinoiy javobgarlik darajasiga talablar qattiqroqdir. Xususan, uyushgan guruh tashkilotchisi yoki boshlig‘i, agar guruh tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlar uning qasdi bilan qamrab olingan bo‘lsa, barcha bosqinchilik jinoyatlari uchun bajaruvchi sifatida javobgarlikka tortiladi. Bunda uning bevosita jinoyatlarni sodir etishda qatnashganligi masalasi ahamiyat kasb etmaydi. Uyushgan guruhning boshqa a‘zolari ham o‘zganing mol-mulkini talon-toroj qilishda ishtirok etgan yoki tayyorlagan bo‘lsalar, xuddi shunday darajada javobgarlikka tortiladilar. Uyushgan guruhning oddiy a‘zosi bevosita mulkni talon-toroj qilishda ishtirok etmagan bo‘lsa, uning uyushgan guruhning ushbu harakatlaridan xabardor bo‘lishi uni ayblash uchun yetarli bo‘lmaydi. Bosqinchilik jinoyatini sodir etishda uyushgan

guruhning barcha a'zolari qatnashgan yoki ishtirok etishgan bo'lsagina, u uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan bosqinchilik deb hisoblanishi mumkin. Aks holda, qilmishni uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilish kerak.

Uyushgan guruhni u yoki bu ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish yoxud ularning amalga oshishi uchun qulay sharoit yaratuvchi holatlarni **uyushgan guruh manfaatlari** belgisi sifatida tushunish lozim. Guruh manfatlari, masalan, tovar-moddiy boyliklar saqlanayotgan joy haqida ma'lumot, u yoki bu odamni yo'q qilish yoki bosqinchilik jinoyatini sodir etish kabilar bo'lishi mumkin.

Qilmishni uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan deb topish uchun sud tergov organlari quyidagi ikkita belgining mavjudligiga ahamiyat berishi zarur:

a) aybdor o'zi tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar guruh manfaatlarini, so'ng aybdorning subyektiv manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish uchun sodir etilayotganligini tushunishi lozim;

b) uyushgan guruh a'zolari yoki uning tashkilotchisi harakatlari guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilayotganligini tushunishi lozim.

Yuqoridagi belgilardan birining mavjud bo'lmasligi bosqinchilik jinoyatini uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilishga imkon bermaydi.

Uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bosqinchilik shunday guruh a'zosi tomonidan, shuningdek, unga kirmagan shaxs tomonidan ham sodir etilishi mumkin. Ammo bu hol qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi.

Shu bilan birga, shuni ham aytib o'tish kerakki, guruh a'zosi bo'lmagan shaxs tomonidan uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab bosqinchilik jinoyatini sodir etishda g'arazli maqsad mavjud bo'lishi shart emas. Chunki bunda jinoyatchi boshqa maqsadlarni ko'zlagan, masalan, o'zining jinoyat sodir etishi mumkinligini ko'rsatib guruhga kirishi va hokazo bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaroriga muvofiq, o'zganing mulkini talon-toroj qilishdan iborat bo'lgan aybdorning

harakatlariga huquqiy baho berishda uning sodir etilish usulidan (o'g'irlik, talonchilik, bosqinchilik va h.k.) qat'i nazar, jinoyat Jinoyat kodeksi tegishli moddasining og'irroq jazoni ko'zda tutuvchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi va ushbu moddaning boshqa qismlari bilan qo'shimcha kvalifikatsiya kilinishi talab etilmasligi sudlarga tushuntirilsin. Masalan, jinoyat juda ko'p miqdorda talon-toraj qilish belgisi bo'yicha **JK 164-moddasining 4-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinganda JK ushbu moddasi 1, 2 yoki 3-qismlari bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi¹.

Xuddi shunday qoida JKning 33-moddasi 2-qismida quyidagicha nazarda tutilgan:

«Agar shaxs sodir etgan qilmishda ushbu Kodeks Maxsus qismi ayni bir moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlarning alomatlari mavjud bo'lsa, u moddaning og'irroq jazo belgilangan qismi bo'yicha javobgarlikka tortiladi».

3-§. Tovlamachilik (JK 165-moddasi)

Tovlamachilikning **bevosita asosiy obyekt**i talon-toraj qilinayotgan mol-mulkni tartibga solishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Bevosita qo'shimcha obyekt**i tovlamachilik natijasida tajovuz qaratilgan jabrlanuvchining qonun bilan qo'riqlanadigan shaxsiy huquqlari hisoblanadi.

Tovlamachilikning qo'shimcha obyekti aybdor tomonidan qo'llaniladigan ruhiy zo'rlikning xarakteri bilan tavsiflanadi. Masalan, zo'rlik ishlatishda qo'llaniladigan tahdidda fuqaroning sog'lig'ini ta'minlashga qaratilgan, jabrlanuvchi sir saqlanishini xohlaydigan shaxsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini tahqirlaydigan ma'lumotlarni oshkor etish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar namoyon bo'lishi mumkin.

Tovlamachilikning **predmeti** bo'lib, nafaqat mol-mulklar, balki unga

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жинойий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 115-116-б. Бунга ўхшаш қоида Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкини ўғирлик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарорининг 8-бандида ҳам мустақамланган.

bo'lgan mulkiy huquqlar (tovlamachining yoki boshqa aybdor deb ko'rsatilgan shaxsning qarzi borligini tasdiqlovchi tilxat, shartnoma yoki boshqa hujjat yoxud muayyan mulkiy huquqlar tovlamachiga yoki u ko'rsatgan shaxsga o'tishiga asos bo'ladigan boshqa hujjat), boshqa turdagi mulkiy harakatlar (ishni bajarish, xizmatlar taklif etish va tovarni past narxda yoxud tekinga berish va boshqalar) va mulkiy ko'rinishdagi foydalar ham bo'lishi mumkin.

Aybdor tovlamachilikni sodir etayotib mulkka bo'lgan huquqni talab qilmay, o'zganing mol-mulkidan foydalanish yoki uni tasarruf etish huquqini talab qilishi ham mumkin.

Mulk — muayyan jismoniy shaklga ega, sezish mumkin bo'lgan moddiy dunyo predmetlaridir. Tovlamachilik tarkibida mulk deganda ko'char va ko'chmas mulk tushuniladi.

Mol-mulkka bo'lgan huquq — shaxsning o'ziga tegishli mol-mulkka egalik qilish, undan o'z xohishiga ko'ra hamda o'z manfaatlarini ko'zlab foydalanishi va uni tasarruf etishi, shuningdek, o'zining mulkiy huquqi kim tomonidan buzilishidan qat'i nazar, o'z mulkiy huquqlari buzilishini bartaraf etilishini talab qilish huquqidir. Tovlamachilikning predmeti bo'lib ko'char va ko'chmas mulkka bo'lgan huquq namoyon bo'ladi.

Mulkiy yo'sindagi harakatlar deganda, haqi to'lanishi lozim bo'lgan har qanday ishlarni tekinga bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish (imoratlar qurish, ularni ta'mirlash, avtomobillarni ta'mirlash, tovar-moddiy boyliklarni tashib berish va h.k.) tushuniladi.

Bundan tashqari, mulkiy yo'sindagi harakatlar jumlasiga aybdorga **mulkiy manfaatlar keltirishi** mumkin bo'lgan boshqa harakatlarni (umumiy ulush, merosdan voz kechish va boshqa) ham kiritish mumkin.

Tovlamachilikning predmeti bo'lib, faqatgina o'zganing mulki yoki mulkiy huquqi namoyon bo'ladi.

Jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatib, uning mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi sir saqlanishini xohlagan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib yoxud jabrlanuvchining manfaatlariga xavf soladigan sharoitni yaratish yo'li bilan jabrlanuvchi shaxsni unda turgan (masalan, qarzga, kreditga olgan,

jinoyat sodir etishi natijasida vaqtincha saqlanib turgan va hokazo) o'zining mol-mulkini berishga majbur etganida, u o'zganing mulkini tovlamachilik yo'li bilan talon-toroj qilganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Bunday qilmish, qonunda nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo'lsa, o'zboshimchalik deb hisoblanadi. Qarzdordan qarzni talab qilish Jinoyat kodeksining **165-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas, lekin ayrim hollarda o'zboshimchalik (JK 229-moddasi) tariqasida baholanishi lozim.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumida quyidagilar alohida ta'kidlab o'tilgan: «...qarzdordan qarzni talab qilish Jinoyat kodeksining 165-moddasi bilan tavsiflanishi mumkin emas, lekin ayrim hollarda o'zboshimchalik (JKning 229-moddasi) tariqasida baholanishi lozim. Qarzdor va qarz beruvchi o'rtasida foizlar to'lash bo'yicha oldindan kelishuv bo'lmagan bo'lsa berilgan qarz uchun foiz talab qilish tovlamachilik jinoyati tarkibini tashkil qiladi»¹.

Obyektiv tomondan tovlamachilik jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib o'zgan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o'z mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yishda ifodalanadi.

JK 165-moddasi 1-qismida ko'rib o'tilganidek, tovlamachilik murakkab tarkibli jinoyat bo'lib, bir tomondan aybdor mulkdordan bila turib, g'ayriqonuniy ravishda o'ziga yoki u ko'rsatgan shaxslarga muayyan mulkni, mulkka bo'lgan huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud ular foydasiga muayyan mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilsa, boshqa tomondan tahdidga asoslangan ruhiy zo'rlik ishlatadi.

Mulkni berish talabi tovlamachining jabrlanuvchidan ko'char va ko'chmas mulkni yoki mulkdan o'z mulkidek foydalanish huquqini beruvchi hujjatlarni taqdim etishini talab qilishni anglatadi. Talab rad

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди... // Тўплам, 1-жилд, — 119 б.

etilsa, o‘ch olish bilan qo‘rqitishda ifodalangan bo‘lishi kerak. Qo‘rqitish bilan mustahkamlanmagan talablar tovlamachilikni hosil qilmaydi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, fuqarolik muomalasidan chiqarilgan mol-mulk (predmet)larni tovlamachilik yo‘li bilan talab qilish maxsus jinoyat tarkibi bo‘lgan JKning 247-moddasi (O‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash), 251-moddasi (Kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda egallash), 271-moddasi (Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash) bilan kvalifikatsiya qilishga olib keladi.

Tovlamachining talabi, albatta, jabrlanuvchining mulkiga zarar yetkazish yoki uning yaqin kishilariga zo‘rlik ishlatish yoxud ular uchun sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilish tarzidagi qo‘rqitish bilan birgalikda sodir qilinishi lozim. Qo‘rqitish bilan amalga oshirilmagan talablar jinoyatning tovlamachilik tarkibini vujudga keltirmaydi. Mulk huquqini talab qilishda aybdor mazkur mulkni unga mulk sifatida butunligicha berishni talab qilmaydan bir vaqtning o‘zida unga bir yoki bir necha mulk huquqi vakolatlarini (egallik qilish, foydalanish va tasarruf qilish) berishni talab qilishi mumkin.

Mulkiy yo‘sindagi harakatlar qilish yoki mulkiy manfaatlar berishni talab qilish deganda, aybdor foydasiga yoki u ko‘rstgan shaxs foydasiga mulkiy yo‘sindagi moddiy manfaatlar berish yoki aniq moddiy xizmatlar qilish «taklifi» nazarda tutiladi.

Barcha holatlarda talab to‘g‘ridan-to‘g‘ri aybdor tomonidan amalga oshirilishi bilan birga, vositachi orqali, shuningdek, og‘zaki, telefon, faks, xat orqali va boshqa usullarda amalga oshirilishi mumkin.

Tovlamachi tomonidan qo‘yiladigan talablar ruhiy zo‘rlik — **qo‘rqitish** bilan doimo bog‘liq bo‘lishi kerak. Ko‘rqitish bilan amalga oshirilmagan talab tovlamachilik jinoyati tarkibini tashkil etmaydi.

Tovlamachilikdagi qo‘rqitishga quyidagi belgilar xos:

1) o‘z mazmuniga ko‘ra unda jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo‘rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud ular sir saqlashi lozim deb topgan ma’lumotlarni oshkor qilish niyati

bildirilgan bo'lishi, ya'ni jabrlanuvchini **qo'rqitish**, irodasini so'ndirish **vositasi** bo'lishi kerak;

2) qo'rqitish **real**, ya'ni agar jabrlanuvchi tovlamachining talablarini bajarmasa, tahdid amalga oshirilishi mumkinligidan xavotir bo'lishi lozim. Qo'rqitishning xususiyati, usuli, joyi va vaqti, tovlamachining shaxsi, uning oldingi xulq-atvori qo'rqitishning realligidan dalolat beradi. Jinoyat tarkibining mavjudligini aniqlash uchun qo'rqitishni kim amalga oshirganligi: bevosita tovlamachining o'zimi yoki uning ishtirokchilarimi, bu ahamiyat kasb etmaydi;

3) qo'rqitish **kelajakda** (darhol yoki talabni bajarishdan bosh tortganlik uchun) **amalga oshirilishga qaratilgan** bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu jinoyatning tarkibi uchun aybdorning haqiqatdan ham o'z niyatini amalga oshirmoqchi bo'lgan bo'lmaganligi ahamiyat kasb etmaydi.

Tovlamachilikni kvalifikatsiya qilishda tahdidning bevosita mol-mulk egasiga yo'naltirilganligi yoki uning yaqin qarindoshlariga qaratilganligining ahamiyati yo'q.

Jabrlanuvchi tomonidan qo'rqitishning xususiyati va jadalligi, qanday qabul qilinganligi jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

Jadalligi bir xil bo'lgan tahdid, jabrlanuvchilarning ruhiy holati, tarbiyasi, fe'l-atvori, jismoniy xususiyatlaridagi farqlar tufayli, ular tomonidan turlicha qabul qilinadi. Jabrlanuvchi qanday qabul qilganligidan qat'i nazar, tahdidning kuchi oshmaydi va kamaymaydi, uning o'zi qanday bo'lsa, shundayligicha qolaveradi. Agar aybdorning aytganlari obyektiv tomondan tahdidni o'z ichiga olmagan bo'lsa, qilmish tovlamachilik deb baholanishi mumkin emas.

Sud-tergov amaliyotida tovlamachilikni bosqinchilik (JK 164-moddasi) va talonchilikdan (JK 166-moddasi) farqlashda ko'p muammolar mavjud.

Shuni nazarda tutish kerakki, bosqinchilik va talonchilikda zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish mulkni egallab olish yoki talon-toroj qilinganidan so'ng uni ushlab qolish vositasi bo'lib xizmat qilsa, tovlamachilikda ushbu qo'rqitish jabrlanuvchining irodasini so'ndirish va uni tovlamachining talablarini bajarishga majbur etish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, bosqinchilik va talonchilikda o'zganing mulkini egallab olish qo'rqitish bilan bir vaqtda sodir bo'ladi, tovlamachilikda esa, aybdor jabrlanuvchining mulkini kelajakda qo'lga kiritadi.

Agar tovlamachilikni sodir etishda qo'rqitish jabrlanuvchiga hech qanday ta'sir ko'rsatmagan bo'lib, tovlamachi o'sha vaqtdayoq o'zganing mulkini talon-toroj qilgan bo'lsa, uning harakatlari o'zganing mulkini tovlamachilik (**JK 165-moddasi**) qilish va qo'rqitishning xususiyatiga qarab, bosqinchilik (JK 164-moddasi) yoki talonchilik (JK 166-moddasi) sifatida jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Tovlamachilikni sodir etishda **zo'rlik ishlatish bilan qurqitish** deganda, urish, zarba berish, badanga yengil, o'rtacha og'ir va og'ir shikast yetkazish tahdidi bilan qo'rqitish, agar aybdorning talabi bajarilmasa, shunday zo'rlik ishlatish xavfi mavjud bo'lishi tushunilishi kerak. **JK 165-moddasining** dispozitsiyasida ularning hammasi ko'rsatilgan va bunday qilmish sodir etilganida shaxsga qarshi jinoyatlar bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya talab qilinmaydi. Tovlamachilikni sodir etishda o'ldirish bilan qo'rqitishni ham JK 165-moddasi o'z ichiga oladi.

Mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish bilan qo'rqitish harakatlari moddiy qimmatliklarga zarar yetkazishga qaratilgandir.

Mulkka shikast yetkazish deganda, mulkka zarar yetkazilishi tufayli, ashyoning o'z sifatini shunchalik yo'qotishi, ya'ni undan o'z vazifasiga ko'ra foydalanish uchun vaqtincha yoki qisman yaroqsiz bo'lib qolishi va uni tiklashga muayyan mehnat yoki mablag' sarflanganidan keyin avvalgi qimmatiga ega bo'lishi tushuniladi.

Mulkni nobud qilish deganda, uni qayta tiklab bo'lmaydigan va undan vazifasiga ko'ra foydalanib bo'lmaydigan holatga keltirilganligi tushuniladi.

Shaxs yoki uning yaqin qarindoshlari sir saqlashni xohlayotgan ma'lumotlarni oshkor etish bilan qo'rqitish **shantaj ham deb ataladi**.

Shaxs uchun sir saqlanishi lozim bulgan (shaxs sir saqlanishini xohlayotgan) **ma'lumotlar** deganda, o'zining shaxsiy hayoti, ish faoliyati,

yaqin kishilari, qarindosh-urug'lari haqidagi va shu kabi har qanday axborotlar tushunilishi kerak.

Shaxsning ma'lumotlarni sir saqlashni xohlagan yoki xohlamaganligi har bir alohida holda sud tomonidan aniqlanadi. Odatda, sud bunday shantaj jabrlanuvchining irodasiga ta'sir qilgan yoki qilmaganligiga qarab, jabrlanuvchining ma'lumotlarini sir saqlanishini xohlagan yoki xohlamaganligini aniqlaydi.

Agar jabrlanuvchi ma'lumotlar **oshkor kilinishidan** qo'rqib tovlamachining talablarini bajargan bo'lsa, demak jabrlanuvchi ushbu ma'lumotlarning sir saqlanishini xohlagan bo'ladi. Ma'lumotlarni oshkor qilish deganda, jabrlanuvchining fikricha, oshkor qilinishi noma'qul bo'lgan (masalan, farzandlikka olish, kasallik, sudlanganlik to'g'risidagi va h.k.) axborotlarni boshqa shaxslarga ma'lum qilish tushuniladi. Aybdor shaxs ma'lumotlarni og'zaki, xat, telefon, faks orqali va boshqa tarzda oshkor qilishi mumkin. Ma'lumotlarni oshkor qilish usuli tovlamachilikning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi.

Jabrlanuvchini o'z mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish deganda, aybdorning jabrlanuvchini noilojlik tufayli, o'z xohishiga qarshi tovlamachining talablarini bajarish (masalan, elektr energiyasini uzib qo'yish, gazni o'chirib qo'yish, transport vositasini bermaslik, neft mahsulotlari bilan ta'minlamaslik va h.k.)ga majbur qiladigan har qanday harakatlarni sodir etishi tushunilishi lozim.

Tovlamachilik o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini topshirish, mulkiy manfaatlar berish yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlarni sodir etish talab qilingan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb hisoblanadi.

Tovlamachilikni bosqinchilik va talonchilikdan farqlashda tovlamachilikda zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish mulkni zo'rlik ishlatayotgan vaqtda emas, balki kelajakda qo'lga kiritishga qaratilishiga e'tibor berish lozim. Agar qo'rqitish amalga oshirilsa, qilmish JKning tovlamachilik uchun javobgarlik belgilangan moddasi va asoslar bo'lganda, qo'rqitish amalga oshirilayotganda sodir etilgan harakat uchun

javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan ham tavsiflanishi lozim.

Tovlamachilikni tugallangan deb topish uchun aybdorga mulk yoki mulkka bo'lgan huquqning topshirilganligi ahamiyatga ega emas. Tovlamachilik o'zganing mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini topshirish, mulkiy manfaatlar berish yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlarni sodir etishni talab qilingan paytdan e'tiboran tugallangan hisoblanadi. Bunda ushbu talablarning bajarilganligi ahamiyat kasb etmaydi. Ammo, tovlamachiga mulk yoki mulkiy huquqni bergan jabrlanuvchi mulkning mulkdori, egasi bo'lmay, unga mazkur mulk ishonib topshirilgan (sotuvchi, kassir) yoki uning muhofazasida (qorovul, maxsus qo'riqlov xizmati) bo'lsa, bu holda tovlamachi talabini qondirishga qaratilgan harakatlar bilan qonunga xilof ravishda o'zganing mulkini egallash o'rtasida bog'liklik, aloqadorlik mavjud bo'ladi. Talon-toroj qilingan mulkka nisbatan jabrlanuvchi vakolatlarining mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko'ra uning qilmishi o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish (agar mulk shaxsga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lsa) yoki o'g'rilik (agar mulk shaxsga ishonib topshirilmagan yoki uning ixtiyorida bo'lmagan bo'lsa) jinoyati tarkibini beradi. Bu holda jabrlanuvchining harakatlarida ham jinoyat alomatlari bo'lishi mumkin. Ammo, shaxs oxirgi zarurat holatida harakat qilgan bo'lsa (tovlamachi jismoniy zo'rlik ishlatgan bo'lsa), mulk ishonib topshirilgan shaxs javobgarlikka tortilmaydi.

Subyektiv tomondan tovlamachilik **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Bunda aybdor jabrlanuvchidan mol-mulkni yoki mulkka bo'lgan huquqni o'ziga yoki boshqa shaxsga berishni qo'rqitish bilan talab qilishi asoslanmaganligini va g'ayriqonuniyligini biladi. Aybdor g'arazli motivlarga amal qiladi va ashyoni noqonuniy ravishda qo'lga kiritish maqsadini ko'zlaydi.

Jinoyatni sodir etishdan maqsad — **g'arazdir**.

Jinoyatning **subyekt** 14 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxsdir.

Og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilgan tovlamachilik **JK 165-moddasi 2-qismida** nazarda tutilgan hamda u quyidagi kvalifikatsiya qilish belgilarini qamrab oladi:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan tovlamachilik sodir etilishi;
- b) ko‘p miqdorda sodir etilishi;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilishi.

Ushbu belgilar JK 164-moddasining sharhida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, tovlamachilik boshqa hech qanday alohida xususiyatlarga ega emas. Faqatgina shuni ta’kidlash o‘rinliki, qilmishni **JK 165-moddasi 2-qismi «v» bandi** bilan kvalifikatsiya qilishda, tahdidni amalga oshirgan shaxsgina tovlamachilikning bajaruvchisi hisoblanadi.

Tovlamachilikning maxsus kvalifikatsiya qilingan turi **JK 165-moddasi 3-qismida** o‘z aksini topgan va quyidagi belgilardan loqal bittasining mavjud bo‘lishi bilan tavsiflanadi:

- a) juda ko‘p miqdorda;
- b) o‘ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan jinoyat.

Ko‘rsatilgan belgilar bosqinchilik jinoyatining tarkibi tahlil qilinganida ko‘rib chiqilgan edi va tovlamachilikka nisbatan ortiqcha farqlarga ega emas.

4-§. Talonchilik (JK 166-moddasi)

Talonchilikning **bevosita obyekt** o‘zganing mol-mulkini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar va shu mulkka bo‘lgan mulk huquqi hisoblanadi.

Ammo, qonunchilikda belgilanishicha, talonchilik hayot va sog‘liq uchun xavfli bo‘lmagan zo‘rluk bilan yoki shunday zo‘rlukni ishlatish bilan qo‘rqitish yordamida amalga oshirilishi mumkin bo‘lib, alohida jinoiy-huquqiy muhofaza hollarda fakultativ obyekt jabrlanuvchining sog‘lig‘i va daxlsizligi ham bo‘lishi mumkin.

Talonchilikning **predmeti** bo‘lib, aybdor haqiqiy va faraz qilingan huquqlar asosida ham egalik qilishi mumkin bo‘lmagan o‘zganing mulki hisoblanadi.

Obyektiv tomondan talonchilik o‘zganing mol-mulkini ochiqdan-ochiq talon-toroj qilishda ifodalanadi. Mulkni ochiqdan-ochiq talon-toroj qilish

usuli ikkita: obyektiv va subyektiv xususiyatlarga ega.

Ochiqdan-ochiq talon-toroj qilishning **obyektiv xususiyati** aybdor tomonidan o'zganing mulkini mol-mulk egasi yoki mol-mulk ixtiyorida yoxud muhofazasida bo'lgan shaxslarning, o'zganing mulki talon-toroj qilinayotganligini anglab turgan begona kishilarning ko'zi oldida talon-toroj qilishda namoyon bo'ladi.

Ochiqdan-ochiq talon-toroj qilishning **subyektiv xususiyati** shundaki, talonchi o'zganing mulkini ochiq-oydin talon-toroj qilayotgan vaqtda o'zining xatti-harakatlari mulk egasi tomonidan yoxud mol-mulk tasarrufida bo'lgan yoki begona shaxslar tomonidan kuzatib turilganligini anglaydi.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, qilmishni talonchilik sifatida kvalifikatsiya qilishda yuqoridagi ikkita xususiyatning birgalikda mavjud bo'lishi talab etilmaydi. Talonchilikning obyektiv xususiyati yordamchi vazifani bajaradi hamda qator holatlarda umuman hisobga olinmasligi ham mumkin.

Obyektiv belgilar sharoitga qarab o'zgaruvchanlik xususiyatini o'zida kasb etadi. Agar aybdor tomonidan o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish mol-mulk egasi yoki begona shaxslar tomonidan bilib qilingan bo'lsa, ammo shunga qaramay, jinoyatchi o'zganing mulkini tortib olish yoki qo'ldan bermaslik uchun hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitsa yoxud shunday zo'rlik ishlatib, aybdorning o'g'rilik sifatida boshlangan harakatlari talonchilikka aylanadi va qilmish **JK 166-moddasi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Biroq, aybdor qo'lga tushib qolishdan qo'rqib, talon-toroj qilingan narsani tashlab, hodisa joyidan qochib yashirinsa, uning harakatlari o'zganing mulkini o'g'irlashga suiqasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Agar ochiqdan-ochiq o'zganing mulkini talon-toroj qilish harakatlari boshqa jinoiy harakatlar, nomusga tegish, bezorilik va boshqa jinoyatlar sodir etish bilan bog'liq ravishda sodir etilgan bo'lsa, bu holda harakatlarni jinoyatlarning jami tariqasida tegishli jinoyatlar bilan tavsiflash lozim.

Ta'kidlaganimizdek, talonchilik ikki xil ko'rinishda bo'ladi: zo'rlik ishlatmasdan sodir etiladigan (**JK 166-moddasi 1-qismi**) va zo'rlik

ishlatib sodir etiladigan (**JK 166-moddasi 2-qismi «a» bandi**).

Zoʻrlik ishlatmasdan sodir etilgan talonchilik uchun javobgarlik JK 166-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan. Shaxs mulkni «yulib» olib ketsa, uning harakatlari JK 166-moddasining 1-qismi boʻyicha kvalifikatsiya qilinadi. Masalan, ashyolar solingan sumkani jabrlanuvchining qoʻlidan tortib olish, boʻynidan zanjirni uzib qochish, boshidan telpakni yulib olish, peshtaxtadan tovarni changallab olib qochish va h.k. Bunda aybdor tomonidan mol-mulkni talon-toroj qilish uchun hech qanday zoʻrlik ishlatilmaydi.

Oʻzganing mol-mulki talon-toroj qilingan va aybdorda talon-toroj qilingan mol-mulkni oʻz ixtiyoriga koʻra tasarruf etish imkoniyati paydo boʻlgan paytdan eʼtiboran talonchilik **tugallangan** jinoyat deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan talonchilik toʻgʻri qasd bilan gʻarazli maqsadda sodir etiladi. Jinoyatchi talonchilikni sodir eta turib, oʻzganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-toroj qilish harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglaydi hamda ushbu qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlarini oldindan biladi va shunday oqibat kelib chiqishini xohlaydi.

Koʻrib chiqilayotgan jinoyatning **subyeksi** 14 yoshga toʻlgan, aqli raso har qanday jismoniy shaxs boʻlishi mumkin.

JK 166-moddasining 2-qismida:

a) hayot va sogʻligʻi uchun xavfli boʻlmagan zoʻrlik ishlatib yoxud shunday zoʻrlik ishlatish bilan qoʻrqitib;

b) ancha miqdorda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan talonchilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Jabrlanuvchining **hayoti yoki sogʻligʻi uchun xavfli boʻlmagan zoʻrlik ishlatish** deganda, badanga yengil shikast yetkazish tushunilishi lozim. Bunday zoʻrlik jabrlanuvchiga jismoniy azob beruvchi yoki uning erkinligini cheklab qoʻyuvchi harakatlarda ifodalanishi mumkin¹.

Jabrlanuvchini zoʻrlik ishlatib xonaga qamab, bogʻlab qoʻyish, ogʻziga

¹ *Қаранг:* Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкни ўғирлик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарoriga асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 221-б.

latta tiqib qo'yish va h.k. shular jumlasidandir.

O'zganing mulki talon-toraj qilinaotgan vaqtda zo'rlik ishlatib, shaxs erkinlikdan mahrum qilingan bo'lsa, aybdorning qilmishi zo'rlik ishlatib sodir qilingan talonchilik hisoblanadi (JK 166-moddasi 2-qismi). Aybdor jabrlanuvchi bilan to'qnashmaslik, uning mol-mulkni tortib olinishiga to'sqinlik qilishining oldini olish maqsadida zo'rlik ishlatmasdan erkinlikdan mahrum etsa (aybdor turgan xona eshigini qulflab qo'ysa), aybdorning harakatlari zo'rlik ishlatmasdan sodir etilgan talonchilikni vujudga keltiradi (**JK 166-moddasi 1-qismi**).

Jabrlanuvchining **hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish** jabrlanuvchini mol-mulkni berishga yoki uning talon-toraj qilinishiga to'sqinlik qilmaslikka majbur qilish maqsadida unga ruhiy ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Qo'rqitish mol-mulk egasiga yoxud mol-mulk ixtiyorida yoki muhofazasida bo'lgan shaxsga nisbatan yoxud mol-mulkni talon-toraj qilish begona shaxslar ko'zi oldida sodir etilayotgan bo'lsa, o'sha shaxslarga qaratilgan bo'lishi mumkin. Talonchilikda qo'rqitish haqiqatda mavjud va real bo'lishi kerak.

(Talon-torajni ancha miqdorda yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etish to'g'risida JK 164- moddasi 2-qismi «b» va «v» bandlari tahliliga qarang.)

JK 166-moddasi 3-qismida:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib;
- v) ko'p miqdorda sodir etilgan talonchilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 166-moddasi 4-qismida:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan talonchilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Ushbu javobgarlikni og'irlashtiruvchi barcha holatlar JK 164-moddasi tahlilida o'rganilgan edi va ko'rib chiqilayotgan jinoyat bo'yicha hech

qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega emas.

5-§. O‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish (JK 167-moddasi)

O‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish jinoyatining **bevosita obyekti** aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo‘lgan o‘zganing mulkini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Har qanday mulk, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar ham o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish jinoyati **predmeti** hisoblanadi va aybdor mulkka nisbatan alohida huquqiy munosabatda bo‘ladi, ya’ni mulk aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo‘ladi va vujudga kelgan imkoniyatdan foydalanib, uni talon-toroj qiladi.

Aybdorga ishonib topshirib qo‘yilgan yoki uning ixtiyorida turgan mulk — mansab vazifalari yoki shartnomaviy munosabatlarga ko‘ra yoxud maxsus topshiriq munosabati bilan o‘zganing mulkini tasarruf qilish, boshqarish, yetkazib berish yoki saqlash bo‘yicha qonuniy vakolatlarni amalga oshiruvchi shaxsning (masalan, ombor mudiri, ekspeditor, ta’minotchi, sotuvchi, kassir va boshqa shaxslar) egaligida bo‘lgan mulk.

Obyektiv tomondan jinoyat aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning egaligida bo‘lgan o‘zganing mulkini o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilishda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida»gi qarorida belgilab o‘tilganidek, «Mansab vazifalari yoxud shartnomaviy munosabatlarga ko‘ra, o‘zganing mulkini tasarruf qilish, boshqarish, yetkazib berish yoki saqlash bo‘yicha qonuniy vakolatlarni amalga oshiruvchi shaxsning mazkur mulkni qonunga xilof ravishda tekinga o‘zining mulkiga yoki boshqa shaxsning mulkiga aylantirishi aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo‘lgan o‘zganing mulkini o‘zlashtirish yoki rastrata qilish deb (JK 167-moddasi) tavsiflanishi lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan qonuniy vakolatlarga ega bo'lmagan, ammo topshirilgan ishni yoxud xizmat vazifalarini bajarishi tufayli mulk saqlanadigan joyga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan o'zgaralar mulkining talon-toroj qilinishi o'g'irlik deb tavsiflanishi kerak»¹.

NOTA BENE !

O'zlashtirish aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulkini huquqqa xilof, bepul ushlab qolish va keyinchalik mulkdorga yoki bu mulkning boshqa egasiga mulkiy zarar yetkazgan holda o'z foydasiga yoki boshqa shaxslarning foydasiga qaratishda ifodalanuvchi, agar aybdor mazkur mulkni hali sarflamagan yoki begonalashtirishni amalga oshirmagan bo'lsa, talon-torojning bir shakli hisoblanadi.

Mulkni **ushlab qolish** uni qonuniy egasiga qaytarish to'g'risida talablarni bajarmaslikda, shu mulkni taftish vaqtida taqdim etmaslikda ifodalanadi. Shaxs bunday hollarda undan o'z mulkiday foydalanadi.

Talon-torojning o'zlashtirish shakli mulk ushlab qolingani paytdan e'tiboran, ya'ni o'zganing mulkiga g'ayriqonuniy ravishda o'zinikidek egalik qilingani paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb hisoblanadi.

NOTA BENE !

Rastrata aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulkini mulkdor yoki mulkning boshqa egalariga zarar yetkazgani holda, agar aybdor talon-toroj hodisasi aniqlangan paytga qadar ko'rsatilgan mulkni begonalashtirishni amalga oshirib bo'lgan bo'lsa, o'zining foydasiga yoki boshqa shaxslarning foydasiga g'ayriqonuniy ravishda, tekinga qaratishida ifodalanuvchi talon-torojning bir shakli hisoblanadi.

¹ *Qarang:* Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 115-б.

Rastrata aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida turgan mulk begonalashtirilgan (masalan, sarflab yuborilgan, sotilgan, hadya qilingan, iste'mol qilingan va h.k.) paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb hisoblanadi.

Talon-torojning rastrata shakli o'zlashtirishdan shu bilan farq qiladiki, o'zlashtirishda talon-toroj qilingan mulk qonuniy egasiga qaytarilishi mumkin, rastratada talon-toroj qilingan mulk aybdorda bo'lmaydi, u sotilgan, hadya qilingan, iste'mol qilingan bo'lishi mumkin, ya'ni mulk egasiga talon-toroj qilingan mulkning faqat qiymatini qaytarish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Rastrata mulk ixtiyorida bo'lgan yoki o'ziga ishonib topshirilgan shaxs mulkni taftish chog'ida yoki mulk egasining talabiga binoan tekshirish chog'ida uni taqdim eta olmagan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan jinoyat deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat faqat **to'g'ri qasd** bilan va **g'araz maqsadlarda** sodir etiladi. Ya'ni, aybdor o'z harakatlarining noqonuniyligini anglaydi va ular amalga oshirilishini xohlaydi. Aybdorning ushbu jinoyatni sodir etishdagi g'arazli maqsadi subyektiv tomonning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan, aqli raso shaxslardir. Mulk ishonib topshirib qo'yilgan yoki ixtiyorida mulk turgan shaxsgina, ya'ni xizmat burchi, shartnoma munosabatlari yoki maxsus topshiriq munosabati bilan shu mulkni tasarruf etish, boshqarish, yetkazib berish, saqlash bo'yicha vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs (masalan, omborchi, ekspeditor, ta'minlovchi, sotuvchi, kassir va boshqa shaxslar) o'zlashtirish yoki rastrata jinoyatining subyeksi bo'lishi mumkin.

Qoidaga ko'ra, mulk ishonib topshirilgan yoxud ixtiyorida mulk turgan shaxslar moddiy javobgar shaxslar hisoblanadilar, ammo bunday bo'lmasligi ham mumkin.

Mulk har qanday shaxsga ishonib topshirilishi mumkin bo'lib, unga turli bitimlar asosida (masalan, ijara, kira, saqlash, tashish shartnomalari va h.k. asosida) shu mulkni tasarruf etish, boshqarish, eltib qo'yish yoki saqlash bo'yicha huquqlar, vakolatlar berilishi mumkin. Shu sababli, aybdor

shaxslar o'zlariga ishonib topshirilgan mulkni o'zlashtirsalar yoki rastrata qilsalar, ularning harakatlari **JK 167-moddasi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Sud-tergov amaliyotida o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilishni o'zganing mol-mulkini o'g'irlashdan farqlashda muayyan qiyinchiliklar mavjud. Bu jinoyatlarni farqlashda jinoyat subyekting talon-toroj qilgan mol-mulkka nisbatan huquqiy vakolatini to'g'ri aniqlash zarur.

Shuni nazarda tutish kerakki, o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilishda, mulk aybdorga ishonib topshirilgan bo'lib, uning ixtiyorida turadi va aybdor shaxs mol-mulkni tarqatish, boshqarish, tashish yoki saqlash bo'yicha huquqiy vakolatlarga ega bo'ladi.

O'g'rilik yo'li bilan talon-torojni sodir etishda esa, shaxsning talon-toroj qilingan mol-mulkka hech qanday aloqasi bo'lmaydi yoxud ishlab chiqarish zarurati, topshirilgan ish munosabati bilan undan foydalanish huquqiga ega bo'ladi, xolos (masalan, bug'doy o'rayotgan kombaynchi, korxonalaridagi yukchilar, haydovchilar va h.k.).

Shunga e'tibor berish lozimki, o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish orqali talon-toroj qilishda, mulk shaxsga qonuniy asoslarda ishonib topshirilgan yoki aybdor shaxsga boshqarish, yetkazib berish yoxud saqlash vakolatlari bilan berilgan bo'ladi. «Yuqorida ko'rsatilgan qonuniy vakolatlarga ega bo'lmagan, ammo topshirilgan ishni yoxud xizmat vazifalarini bajarishi tufayli mulk saqlanadigan binoga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan o'zgalar mulkining talon-toroj qilinishi o'g'rilik deb kvalifikatsiya qilinishi kerak».

Shartnoma bo'yicha o'z vaqtida qaytarish sharti bilan kimdandir muayyan miqdorda pul summasi olgan qarzdorgina o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyatining subyekti bo'lmaydi. Qarzdorda kimdandir qarzga olingan pullarni talon-toroj qilish va egasiga qaytarib bermaslik niyatining mavjud emasligi kreditor va qarzdor o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradi. Bu munosabatlar kreditorlar tomonidan sudlarga da'vo kiritish orqali hal etiladi. Shu bilan birga,

qaysidir fuqaro pul «qarz» ola turib, uni boshidan egasiga qaytarmaslik va qoplamaslik niyatida o'zining foydasiga qasddan aylantirmoqchi bo'lganligi isbotlansa, uning harakatlarini firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilish lozim.

JK 167-moddasi 2-qismida:

a) ancha miqdorda;

b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldin til biriktirib;

g) mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan sodir etilgan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

(Bu belgilar bilan kvalifikatsiya qilish tartibi va xususiyatlari haqida JK 164-moddasi tahliliga qarang.)

Sud-tergov amaliyotida o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish orqali talon-toroj qilishni takroran sodir etishni kvalifikatsiya qilishda ba'zi bir qiyinchiliklar vujudga keladi.

Takroriylikni yagona jinoyat hisoblanuvchi davomli talon-toroj qilishdan farqlash lozim.

Umumiy maqsadga ega bo'lgan va talon-toroj qilayotgan shaxsning yagona qasdi bilan qamrab olingan, bir-biriga o'xshash jinoiy qilmishlardan iborat bo'lgan o'zganing mulkini bir necha harakat bilan olinishi **davomli** talon-toroj qilish deb topiladi. Shunday qilib, aybdor shaxs qasdining yagonaligi, talon-toroj qilinayotgan manbaning yagonaligi, talon-toroj usulining bir xil ekanligi davomli talon-toroj qilishning alomatlari hisoblanadi.

Aybdor shaxslarni **JK 167-moddasi 2-qismi «v» bandi** bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun jinoyatning barcha ishtirokchilari mulk ishonib topshirilgan yoki ixtiyoriga berilgan shaxslar bo'lishi lozim. Agar talon-toroj qilishning ishtirokchilaridan bittasi mulk ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan shaxs bo'lib, qolganlari bunday vakolatlarga ega bo'lmagan shaxslar bo'lsa, unda jinoyatchilarning harakatlarini JK 167-moddasi 2-qismining «v» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi. Bunday holatlarda mulk ishonib topshirilgan yoki uni boshqaruvchi shaxs

qilmishi **JK 167-moddasi 1-qismi** bo'yicha, qolgan ishtirokchilarning jinoiy harakatlari esa JK 28-moddasining tegishli qismiga havola qilgan holda JK 167-moddasi 1-qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zlashtirish yoki rastrata qilish deganda, mansabdor shaxs yoki mas'ul mansabdor shaxs tomonidan o'zganing mulkini egallashda o'z mansab vakolatlaridan foydalanishini tushunish kerak. Shunday qilib, **JK 167- moddasi 2-qismi «g» bandi** jinoyatining subyekti mansabdor shaxs hisoblanadi.

(«Mansabdor shaxs» tushunchasiga JK 205-moddasi tahliliga qarang.)

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaroriga ko'ra, «Mansabdor shaxsning o'zganing mulkini qonunga xilof ravishda qaytarib bermaslik sharti bilan g'araz niyatda tekinga o'zining mulkiga yoki boshqa shaxslarning mulkiga aylantirishida ifodalanuvchi mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishi talon-toroj qilish deb qaralishi va Jinoyat kodeksi 167-moddasi 2-qismining «g» bandi bilan tavsiflanishi lozim bo'ladi.

Bu o'rinda shuni nazarda tutish lozimki, agar o'zgalar mulkining g'ayriqonuniy ravishda tekinga aybdorning mulkiga aylantirish maqsadi bilan olib qo'yilganligi aniqlanmagan bo'lib, lekin boshqa g'ayriqonuniy harakatlar mavjud bo'lgan taqdirda bunday harakatlar (masalan, tovar-moddiy boyliklarining kamomadi yoki uni yashirish holatining o'zigina; o'zganing mulkidan o'zinikiga aylantirib olish maqsadisiz vaqtincha foydalanish, o'zganing mulkini qarzga berib yuborish va h.k.) talon-toroj qilish deb tavsiflanishi mumkin emas. Yetarli asoslar mavjud bo'lganda, ko'rsatilgan harakatlar mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish deb tavsiflanishi kerak»¹.

Sud-tergov amaliyotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatini suiiste'mol qilish orqali sodir etiladigan talon-toroj qilishning bir necha turlari mavjud.

Ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1) mansabdor shaxsga ishonib topshirilgan mulkni o'zlashtirish yoki

¹ *Qarang:* Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 115-б.

rastrata qilish; 2) bo'ysunuvchi shaxslarga ishonib topshirilgan yoki ularning boshqaruvida bo'lgan mulkni egallash yoki uchinchi shaxslarga topshirib yuborish; 3) mansabdor shaxsga ishonib topshirilmagan va uning boshqaruvida bo'lmagan mulkni egallab olish.

Yuqorida ko'rsatilgan talon-toroj turlaridan ikkitasi o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan sodir etiladi, shuning uchun **JK 167-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinadi. Uchinchi turi esa o'zganing mulkini olish usuliga bog'liq ravishda talon-toroj qilishning boshqa shakllari uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Mansab mavqeini suiiste'mol qilgan holda o'zlashtirish yoki rastrata tariqasida talon-toroj qilish jinoyatining tamom bo'lish payti suiiste'mollikni amalga oshirish vaqti emas, balki jinoiy yo'l bilan talon-toroj qilingan mulkni egallagan yoki uni boshqa shaxslarga qasd maqsadlarida o'tkazgan vaqti hisoblanadi.

Mansab mavqeini suiiste'mol qilgan holda o'zlashtirish yoki rastrata turlaridan yana biri qilingan ishlarning hajmini oshirib ko'rsatish orqali ular tomonidan qo'shimcha olingan pul mablag'larini ishchilardan olish. Bunday harakatlar **JK 167-moddasi 2-qismining «g» bandida** nazarda tutilgan jinoyatlar tarkibini to'liq qamrab oladi va JK 205-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish) bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi.

Agar mansabdor shaxs o'zi sodir etgan talon-toroj jinoyatini yengillashtirish yoki yashirish maqsadida rasmiy hujjatlarga bila turib yolg'on ma'lumotlar va yozuvlar kiritgan bo'lsa, uning qilmishi **JK 167-** va 209-moddalarida (Mansab soxtakorligi) nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Mansab mavqeini suiiste'mol qilgan holda o'zlashtirish yoki rastrata turlaridan yana biri qilingan ishlarning hajmini oshirib ko'rsatish orqali ular tomonidan qo'shimcha olingan pul mablag'larini ishchilardan olish. Bunday harakatlar **JK 167-moddasi 2-qismining «g» bandida** nazarda tutilgan jinoyatlar tarkibini to'liq qamrab oladi va JK 205-moddasi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi.

O'zganing mulkini mansab vakolatini suiiste'mol qilgan holda

o'zlashtirgan yoki rastrata qilgan shaxsning harakatlarini xom ashyo xarajatlari normalarini buzib ko'rsatish orqali, ishlab chiqarish texnologiyalarini buzish va tabiiy xarajat normalarini oshirib ko'rsatish orqali to'plagan mulkni o'zining foydasiga o'zlashtirishga qaratilgan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilish lozim. Shu o'rinda, agar mansab holatini suiiste'mol qilish o'ch olish motivlarida sodir etilsa ham, o'zganing mol-mulkini qoplamasdan olish bilan bog'liq bo'lmasa, mansabdor shaxsning harakatlarini ushbu modda bo'yicha kvalifikatsiya qilish mumkin emas.

Mansabdor shaxsning soliqni to'lashdan bo'yin tovlash, ishchi kuchidan yoki davlat yoxud jamoat transportidan foydalanish harakatlari orqali moddiy foyda to'plashi, agar mansabdor shaxs harakatlari o'zganing mulkini o'zining foydasiga aylantirish bilan bog'liq bo'lmasa, o'zlashtirish yoki rastrata sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas. Davlat yoki jamoat mablag'lari o'zining jamoasi uchun turli xil «tadbirlar» o'tkazish yoki turli xil komissiya, «mehmon»larni kutib olish uchun g'ayriqonuniy ravishda sarflanganligi holatlari ham yuqoridagidek hal etiladi. Bunday harakatlarni jinoyatlarni sodir etish holatiga qarab JK 205- yoki 206-moddalari bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

JK 167-moddasi 3-qismida:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab;
- g) kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilgan o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik ko'zda tutiladi.

(Og'irlashtiruvchi holatlarda jinoyatni kvalifikatsiya qilishning **JK 167-moddasi 3-qismi «a», «b», «v»** belgilari haqida JK 164-moddasi tahliliga qarang.)

JK 167-moddasi 3-qismidagi talon-toroj qilishni kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etish o'zlashtirish yoki rastrata orqali sodir etishning kvalifikatsiya qilish turidir.

Kompyuter vositalari insoniyat tomonidan erishilgan eng ulkan

yutuqlardan biri bo‘lib, hozir hech qaysi tashkilot, muassasa va korxonalar ularsiz faoliyat yuritmaydi. Kompyuter vositalari hozirgi vaqtda ilmiy-texnik jarayonda eng keng rivojlanayotgan sohadir. JK 167-moddasi 3-qismining «g» bandida barcha kompyuter vositalari emas, balki ulardan foydalanish jinoyatchiga o‘zining qasd maqsadlariga erishishiga yordam beradigan qismigina nazarda tutilgan.

Kompyuter texnikasi vositalarini ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

Apparat vositalari — bu ma’lumotlarni qayta ishlash uchun foydalaniladigan texnik vositalar. Ularga: shaxsiy kompyuter (sanoq va axborot masalalarini yechish jarayonida ma’lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan texnik vositalarning yig‘indisi), periferiya uskunalari (markaziy protsessorning bevosita boshqaruviga kirmaydigan EHMning tashqi vositalari yig‘indisidir) va mashina axborotlarining moddiy tashuvchilari (disketlar, kassetalar, lazer disklar va boshqalar) kiradi.

Dastur vositalari — bu muayyan natijaga erishish maqsadida, kompyuter va apparat vositalarini boshqarishga mo‘ljallangan ma’lumotlar hamda buyruqlar yig‘indisini ifoda etuvchi obyektiv shakl, shuningdek, ularni qayta ishlash va ular yordamida shakllantiriladigan audio-vizual tasvirlarni qayd etgan moddiy tashuvchi materiallardir.

Ularga quyidagilar kiradi:

— **sistema dasturlaridan** iborat (operatsion sistema va texnik xizmat ko‘rsatish dasturlari) **dasturiy ta’minotlar** (boshqaruvchi va qayta ishlovchi dasturlar yig‘indisi), **qo‘shimcha dasturlar** (muayyan turdagi masalalarni yechishga mo‘ljallangan dasturlar, masalan, matn muharrirlari, antivirus dasturlari va hokazo), shuningdek, jihoz dasturlari (dasturlash tillaridan iborat dasturlash sistemalari: Turbo C, Microsoft Basic va boshqalar) hamda **tarjimonlar** (algoritmik va belgili tillardan mashina kodlariga avtomatik tarjimoni ta’minlaydigan dasturlar yig‘indisi);

— foydalanuvchi va kompyuter egasining mashina ma’lumotlari.

Kompyuter texnikasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular bir vaqtda foydalaniladi va alohida ishlatilib bo‘lmaydi, chunki ular maxsus

yaratilgan va bir-birini to'ldirib turadi.

Kompyuter texnika vositalaridan foydalanish, mulkni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan (masalan, tovar-transport yuk xati) qalbaki hujjatlarni tayyorlash, tashkilot hisob raqamidan aybdorning hisobiga pul o'tkazish uchun tarmoq kompyuter vositalaridan foydalanish shaklida ifodalanadi.

Kompyuter texnikasi vositalaridan qalbaki hujjatlarni yoki boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etishda foydalanilsa, unda bu harakatlar **JK 167-moddasi 3-qismining «g» bandi** tarkibini to'liq qamrab olmaydi va jinoyatlarning majmui qoidasi bo'yicha Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilinadi.

Agar mansabdor shaxs o'zi sodir etgan o'zlashtirish yoki rastratani yengillashtirish yoki yashirish maqsadida kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib rasmiy hujjatlarga yolg'on ma'lumotlar kiritgan bo'lsa, unda qilmish, boshqa og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lmasa, **JK 167-moddasi 3-qismining «g» bandi** hamda JK 209-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Shuni qayd etish lozimki, guruh tomonidan sodir etilgan talon-toroj qilishlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Chunki ushbu jinoyat maxsus subyekt (mansabdor shaxs yoki mas'ul mansabdor shaxs) tomonidan sodir etilishi mumkin, mansabdor hisoblanmaydigan, shuningdek, mulk ishonib topshirilmagan yoki ixtiyoriga berilmagan, lekin talon-toroj qilishda ishtirok etgan shaxslar **JK 167-moddasi 3-qismining «g» bandi** (jinoyat mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan yoki etilmaganligiga bog'liq ravishda) JK 28-moddasiga havola etish orqali kvalifikatsiya qilinadi. Biroq, mansabdor shaxs (mas'ul mansabdor shaxs) tomonidan jinoyat uyushgan guruh tarkibida yoki uning manfaatlari yo'lida sodir etilgan bo'lsa, mansabdor shaxs (mas'ul mansabdor shaxs) bilan birga bunday guruhning barcha ishtirokchilari Jinoyat kodeksining ancha og'irroq javobgarlikni nazarda tutuvchi **167-moddasi 3-qismining «g» bandi** bilan javobgarlikka tortilishi lozim. Hukmning bayon qismida har bir ayblanuvchiga nisbatan barcha moddalar va barcha belgilar bo'yicha qilmish to'liq kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Agar jinoyat tufayli keltirilgan moddiy zarar to'liq ravishda qoplansa,

aybdorga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi (**JK 167-moddasi 4-qismi**).

6-§. Firibgarlik (JK 168-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** — o‘zganing mulki yoki mulkiy huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar.

Firibgarlikning **predmeti** mulkdan tashqari yuridik kategoriya sifatida o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquq, mulkka bo‘lgan alohida vakolatlar (masalan, aybdor uyda yashash huquqini qo‘lga kiritishi mumkin) hisoblanadi.

Bu huquqlar turli xil hujjatlarda, masalan, vasiyatnoma, sug‘urta polisi, muayyan boyliklarni olish uchun ishonchnoma, turli xil qimmatli qog‘ozlarda mustahkamlangan bo‘lishi mumkin. Nomi yozilgan qimmatli qog‘ozlarda tasdiqlangan mulkiy huquqlar talab qilinganda, talablar (tsessiya)ni qondirishning belgilangan tartibi asosida beriladi. Order bo‘yicha huquq, ya’ni shaxsga yoki uning topshirig‘iga ko‘ra ushbu hujjat bo‘yicha o‘zga shaxsga berilgan huquq xususidagi o‘tkazish yozuvi — indossament kiritilib, ijro amalga oshirilishi mumkin. Qimmatli qog‘ozda amalga oshirilayotgan indossament ushbu hujjat o‘tkazilayotgan shaxsga unga egalik qilishga bo‘lgan barcha huquqlarni o‘tkazadi.

Talon-torojning predmeti va qimmatli qog‘ozlar xususida yuqorida batafsil tahlil qilindi.

Obyektiv tomondan firibgarlik aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiy huquqini egallashdan iborat.

Ushbu jinoyatning o‘ziga xosligi shundaki, tashqi tarafdin mulkdor tomonidan mulkni «ixtiyoriy» ravishda berish yoki begonalashtirish va jinoyatchiga o‘tkazish kuzatiladi. Aynan aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish mulkdorda yoki mulkning boshqa qonuniy egasida mulkni yoxud mulkiy huquqlarni jinoyatchiga o‘tkazish fikrini tug‘diradi. Shu usulda jabrlanuvchining ongi va ixtiyoriga ta’sir etish yoki uning ishonchini suiiste’mol qilish orqali firibgar mulkni o‘z foydasiga yoki boshqa shaxslar foydasiga o‘tkazish maqsadiga erishadi. Bu erda aldash yoki

ishonchni suiiste'mol qilish talon-toroj qilishning zaruriy usuli sifatida gavdalanadi.

NOTA BENE !

Aldash deganda, mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan shaxsning o'zi uni firibgarga ixtiyoriy ravishda, o'z xohishi bilan berishiga erishish maqsadida, jabrlanuvchini chalg'itish uchun aybdor shaxs tomonidan har qanday fakni buzib ko'rsatish yoki haqiqatni yashirish yoxud bila turib yolg'on ma'lumotlarni xabar qilish tushuniladi.

Aldash birinchi navbatda shaxsning ongli ravishda o'zgaga noto'g'ri ma'lumotlarni tarqatishida ifodalanadi. Aldash firibgarlik bilan talon-toroj qilish usuli sifatida aybdorning haqiqiy maqsadlariga (masalan, mulkni qaytarib bermaslik maqsadida qarzga olish); predmetga, uning narxi, miqdori va sifatiga (rangli metallardan foydalangan holda tilla buyumlar sifatida har xil narsalar ishlab chiqarish, to'liq bo'lmagan tovarni to'liq narxida sotish) taalluqli bo'lishi mumkin. Aldash, shuningdek, firibgarning shaxsi, uning mansabi va ijtimoiy mavqei, kasbiga ham bog'liq bo'lishi mumkin (masalan, shaxs o'zini soliq inspeksiyasi xodimi sifatida tanishtiradi va soliq to'lovlari sifatida pul mablag'larini oladi).

Aldash tarkibiga, shuningdek, bevosita mulkni topshirish uchun asos hisoblanmaydigan, lekin jabrlanuvchi tomonidan mulkni topshirayotgan vaqtda hisobga olinadigan boshqa holatlar ham kirishi mumkin. Bunday holatlar sifatida qalbaki guvohnomani taqdim etish, «kvitantsiya» yozish, qalbaki sertifikat ko'rsatishni misol qilib keltirish mumkin.

Aybdor firibgarlikni sodir etishda soxta hujjatlardan foydalansa, uning qilmishi firibgarlik tarkibi bilan qamrab olinadi va u JK 209-moddasi (Mansab soxtakorligi) yoki 228-moddasi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi. Biroq, firibgarlik harakatlarini sodir etish maqsadida aybdor shaxsning o'zi hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlasa, ularni qalbakilashtirsa, uning qilmishlari jinoyatlar jami bo'yicha **JK 168** va 228-moddalari (Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish)

bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Shunga e'tibor berish lozimki, agar soxta hujjat (kasallik varaqasi, haydovchilik guvohnomasi, ma'lumotnoma va hokazo) firibgar tomonidan tayyorlanmagan bo'lib, u boshqa shaxs tomonidan tayyorlanib, ushbu shaxs hujjatdan talon-toroj qilishda foydalanishini bilgan bo'lsa, unda bu shaxs nafaqat hujjatlarni qalbakilashtirganlik uchun, balki firibgarlik orqali talon-toroj qilishda yordamchi sifatida javobgarlikka tortiladi.

Firibgarlik harakatlarini sodir etishda aybdor o'zini boshqa shaxs sifatida (davlat hokimiyat organi rasmiy vakili kiyimini kiyish yoki hokimiyat vakilining guvohnomasini qalbakilashtirish) namoyon qilish orqali o'zganing mulkini qo'lga kiritishi mumkin.

Amaliyotda firibgarlikni iqtisodiyot asoslariga qarshi qaratilgan aldov yo'li bilan sodir etiladigan soxta tadbirkorlik (JKning 179-moddasi) va soxta bankrotlik (JKning 180-moddasi) kabi jinoyatlar bilan farqlash zaruriyati yuzaga keladi. Bu kabi chegara va farqlarni jinoyatlar obyektlari orqali aniqlash mumkin. Demak, firibgarlik faqatgina o'zganing mulkiga qarshi qaratilgan bir obyektli jinoyat hisoblansa, iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar bir vaqtning o'zida ikkita obyekt, ya'ni o'zganing mulki bilan bir qatorda xo'jalik yurituvchi subyektlarning normal faoliyat olib borishi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarga ham zarar yetkazishga qaratilgan bo'ladi.

NOTA BENE !

Ishonchni suiiste'mol qilish deganda, aybdor shaxs tomonidan o'zganing mulkini qonunga xilof ravishda o'z foydasiga olish uchun o'zi va mulk egasi yoxud mulk egaligi ixtiyorida turgan shaxs o'rtasidagi alohida, o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlardan qonunga xilof ravishda mulkni o'z foydasiga olish uchun foydalanishi tushunilishi lozim.

Odatda, ishonchga asoslangan munosabatlar firibgar va jabrlanuvchi shaxs o'rtasida prokat, ijara, oldi-sotdi, topshiriq shartnomasi va h.k.larda vujudga kelishi mumkin.

Firibgar niyatiga erishish uchun xizmat, qarindoshchilik, do'stlik

munosabatlaridan ham foydalanishi mumkin.

Sud-tergov amaliyotini o'rganish firibgarlik ko'proq ijara shartnomasini tuzish orqali sodir etilishini ko'rsatadi. Shaxsda ijara shartnomasini tegishli rasmiylashtirgani holda ijara olingan narsani qaytarish niyati bo'lmaydi; zayom shartnomasini rasmiylashtirishda aybdor oldindan zayom narsasini qaytarmaslik niyatida bo'lib shartnoma tuzadi; oldi-sotdi shartnomasi tuzish va oldindan to'lanadigan haqni olishda aybdor shartnomada ko'rsatilgan tovarni berish niyatida bo'lmaydi. Kaytarib berish niyatisiz narsalarni olish eng ko'p tarqalgan usullardan hisoblanadi.

Firibgarlik o'zganing mulki qo'lga kiritilgan va aybdorda o'z ixtiyoriga ko'ra talon-toroj qilingan mulkni tasarruf etish imkoniyati paydo bo'lgan paytdan boshlab **tugallangan** jinoyat hisoblanadi.

Agar shaxs aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan aqli noraso shaxsning yoxud o'ziga nisbatan sodir etilgan harakatlarning xususiyatini tushunmaydigan yosh bolaning mulkini qo'lga kiritib olsa, aybdor firibgarlik uchun emas, balki o'g'rilik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak.

Oliy sud Plenumining «O'zgalar mulkini o'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorida «aybdor tomonidan sodir etilayotgan voqeani tushunib etish qobiliyatiga ega bo'lmagan (masalan, yoshi juda kichiklar, ruhiy jihatdan aqli norasolar, alkogoldan yoki narkotik moddalardan kuchli mastlik darajasida bo'lgan yoki uxlab qolgan) shaxslarning mulkini o'g'irlash o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish deb tavsiflanishi kerak»¹.

Subyektiv tomondan firibgarlik to'g'ri qasddan g'araz maqsadda sodir etiladi, g'araz maqsadning mavjudligi firibgarlikning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Aybdor o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadida jabrlanuvchini

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкни ўғирлик, талончилик ва боқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарorigа асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991—2006, 1-жилд. — Т.: «О'qituvchi» НМИУ, 2007. — 221-б. (кейинги ўринларда — Тўплам, 1-жилд).

chalg'itayotganligini yoki bila turib ishonchini suiiste'mol qilayotganligini anglab etadi va buning sodir etilishini xohlaydi. Shuningdek, ushbu jinoiy qilmishni aybdor mulkiy foyda olish va boyib ketish maqsadida sodir etadi. G'araz maqsadning mavjudligi firibgarlikning zaruriy alomati hisoblanadi, shu bilan birga, agar mulkni aldash yo'li bilan g'arazli maqsadlarsiz egallagan bo'lsa (masalan, boshqa shaxsning nomidan oylik ish haqini unga berib qo'yish maqsadida olish), qilmishni firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi.

«Bu o'rinda o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadi nafaqat mulkiy bitimlarni amalga oshirishdan oldin, balki ularni bajarish jarayonida ham paydo bo'lishi mumkinligi e'tiborga olinishi lozim. Bayon qilinganlardan kelib chiqib, uzrli sabablarga ko'ra qarzni o'z vaqtida qaytarmagan va o'zganing mulkini tekinga qo'lga kiritish maqsadi bo'lmagan shaxsning harakatini firibgarlik deb baholab bo'lmaydi»¹.

Firibgarlik jinoyatining **subyekt** 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'la oladi.

Sud-tergov amaliyotida firibgarlikni o'g'irlikdan farqlashda ayrim qiyinchiliklar mavjud. Firibgarlikni sodir etishda aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish o'zganing mulkini qo'lga kiritish usuli bo'lib xizmat qiladi, o'g'irlik sodir etishda aldashni qo'llash o'g'irlanadigan narsani qo'lga tushirishni yengillashtirish vositasi hisoblanadi. Firibgarlik sodir etilganda jabrlanuvchi shaxs mulkni yoki mulkiy huquqni firibgarga o'z ixtiyori bilan topshiradi, o'g'irlikda esa aybdor shaxs uni mulk egasining yoki mulk kimning ixtiyorida turgan bo'lsa, o'sha shaxsning ruxsatisiz yashirin ravishda talon-toroj qiladi. Faqat o'zganing mulkigina o'g'irlik predmeti bo'lishi mumkin, firibgarlik predmeti esa o'zganing mulki yoki mulkka bo'lgan huquqi ham bo'lishi mumkin.

JKning 168-moddasi 2-qismida firibgarlik sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan:

a) ancha miqdorda;

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жинойий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгар-тириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 119-б.

- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilgan bo'lsa.

Sharhlanayotgan moddaning **3-qismida** firibgarlik sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan:

- a) ko'p miqdorda;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- v) xizmat mavqeidan foydalanib sodir etilgan bo'lsa.

Sharhlanayotgan moddaning **4-qismida** firibgarlik sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa.

Yuqorida sanab o'tilgan javobgarlikni og'irlashtiruvchi barcha holatlar avvalgi paragraflarda tahlil qilinganligi uchun ularga to'xtalishni lozim topmadik.

JKning **168-moddasi 5-qismida** rag'batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, agar ayblanuvchi yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan taqdirda, ozodlikni cheklash hamda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar qo'llanilmaydi.

Jinoyat kodeksida moddiy zarar qancha miqdorda qoplanishi lozimligi ko'rsatilmagan, biroq mohiyatidan moddiy zarar to'la hajmda qoplanishi kelib chiqadi.

7-§. O'g'irlik (JK 169-moddasi)

O'g'irlik talon-torojning eng ko'p tarqalgan shaklidir. Bunga sabab, avvalo, tergov amaliyotida o'g'irlikni ochish foizlarining unchalik katta emasligi bo'lsa kerak, chunki o'g'irlik yashirin ravishda sodir etiladi, bu esa jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini ancha oshiradi, uning ochilishini qiyinlashtiradi.

Jinoyatning **bevosita obyekti** o'zganing mol-mulkini muhofaza qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomotsdan o'g'irlik o'zganing mulkini yashirin ravishda

talon-toroj qilishda ifodalanadi.

NOTA BENE !

Talon-toroj qilitning yashirin usuli deganda, mulk egasi yoki mulk ishonib topshirilgan yoki ixtiyorida turgan shaxsga sezdirmasdan, ular yo‘q vaqtda yoxud mulkdor yoki boshqa shaxslar mulkning talon-toroj qilinayotganini tushunmagan vaqtda sodir etilishi tushuniladi.

Agar mulk egasi yoki mulk ixtiyorida bo‘lgan yoki u ishonib topshirilgan shaxs talon-toroj qilish chog‘ida hozir bo‘lsayu, ammo talon-toroj sodir bo‘layotganini tushunib yetmasa, shaxsning qilmishi (masalan, mulk egasi, qorovul uxlayotgan bo‘ladi yoxud alkogol yoki narkotik mastlik holatida bo‘lib, mulk talon-toroj qilinayotganini anglab yetmaydi) o‘g‘irlik deb kvalifikatsiya qilinadi.

Mulknı ochiqdan-ochiq talon-toroj qilish atrofdagi shaxslarning ko‘zi oldida sodir etilgan bo‘lsa-yu, atrofdagilar buni anglamasa (masalan, aybdor birovning chamadonini egasi yo‘qligidan foydalanib atrofdagilarning ko‘zi oldida o‘g‘irlyaydi, bunda jinoyatchi atrofdagilar u o‘z chamadonini olib ketyapti, deb o‘ylashlariga ishonadi va hokazo hollarda) ham qilmish o‘zganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish deb hisoblanmog‘i lozim. Shaxs o‘zganing mulkini egallashga qaratilgan harakatlari boshqalarga ma‘lum bo‘lganligini bilib, o‘z xatti-harakatini to‘xtatsa va jinoyat joyidan qochib, yashirinsa, uning qilmishi o‘g‘irlikka suiqasd bo‘ladi.

Biroq barcha holatlarda talon-toroj qilishni yashirin deb hisoblash uchun, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkita: obyektiv va subyektiv mezonni tahlil qilish va baholash lozim.

Talon-toroj qilish usulini baholashning obyektiv mezoni shundan iboratki, mol-mulknı ochiqdan-ochiq talon-toroj qilish atrofdagi shaxslarning ko‘zi oldida sodir etilgan bo‘lsayu, atrofdagilar buni anglamasa, bu holda qilmish o‘zganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish deb hisoblanishi lozim. Jinoyatni sodir etish obyektiv mezonlari bahosiga asoslanib, bu yerda talon-torojlikni yashirin deb

topishning bir necha usullari mavjuddir. Ulardan birinchisi, amaliyotda ko‘proq uchraydigan shakli, ya’ni umuman guvohlar mavjud bo‘lmaganda, masalan, qo‘riqlanmayotgan tovar-moddiy qimmatliklari ulgurji bazasi omboridan kechasi yoki egasi uyda bo‘lmaganda o‘g‘rining qulfni buzib o‘g‘irlashidir. Ikkinchisi, egasi yoki boshqa shaxslar bo‘lsa ham, ularga bildirmasdan, yashirin ravishda molmulkni talon-toroj qilish, masalan, cho‘ntak o‘g‘irliklari va hokazo. Bunday holatlarda o‘g‘irlik kamdan-kam holatlarda adashib mulkni oshkora talon-toroj qilish, talonchilik deb topilishi mumkin.

Yashirinlik belgisi o‘g‘irlik jinoyatining muhim belgisi bo‘lib, bu jinoyatning zo‘rlik ishlatmay sodir etiladigan jinoyatlar toifasiga kirishini anglatadi. Bu belgilar o‘g‘irlik jinoyatini bosqichilik va talonchilik jinoyatlaridan farqlash imkoniyatini beradi.

«O‘zganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish bilan boshlangan, lekin jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslar tomonidan sezib qolinganiga qaramasdan, aybdor tomonidan mulkka egalik qilish maqsadida ularning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lmagan zo‘rlik ishlatib yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib qilingan harakatlar talonchilik deb, hujum qilib hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatganda yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitganda esa bosqinchilik deb tavsiflanadi»¹.

Ushbu qilmishni kvalifikatsiya qilishda katta ahamiyat kasb etadigan belgilardan biri uning talon-toroj qilishning zo‘rlik ishlatmaydigan usuli ekanligidir. Bundan yashirin ravishda mulkni olish zo‘rlik ishlatish bilan amalga oshirilsa yoki zo‘rlik mulkni olishga sabab bo‘lgan bo‘lsa, qilmishni o‘g‘irlik tariqasida kvalifikatsiya qilish mumkin emas, degan xulosa kelib chiqadi. Shuningdek, ushbu holatga, mulkni yashirin ravishda olish, zo‘rlik ishlatish yo‘li bilan jabrlanuvchini aybdorning jinoiy harakatlarini kuzatishdan mahrum qilishi (qamab qo‘yish, boshqa joyga

¹Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкни ўғирлик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991—2006, 1-жилд. — Т.: «О‘қитувчи» НМИУ, 2007. — 221-б. (кейинги ўринларда — Тўплам, 1-жилд).

olib borish) ham kiradi. Ushbu harakatlarni zo‘ravonlik ishlatish xarakteriga qarab JK 164-yoki 166-moddalari bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

O‘zganing mulki olib qo‘yilgan va aybdor shaxsda o‘g‘irlangan mulkni o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf etishning real imkoniyati, ya’ni aybdorda o‘zi o‘g‘irlangan mulkni yashirish, sotish, berish, hadya qilish, belgilangan maqsadda foydalanish imkoniyati paydo bo‘lgan paytdan e’tiboran o‘g‘irlik **tugallangan** jinoyat deb hisoblanadi.

Agar aybdor o‘g‘irlangan mulkni tasarruf etish yoki undan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan bo‘lsa, uning harakatlari o‘g‘irlikka suiqasd hisoblanadi. Masalan, shaxs zavodning kirish-chiqish joyida o‘g‘irlangan narsalar bilan ushlendi, deylik, bu holda aybdor shaxs mulkni qo‘lga kiritgan, ammo hali uni o‘z ixtiyoricha tasarruf etish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Biroq, agar aybdor shaxs tayyor mahsulot tsexidan tovarni o‘g‘irlangan bo‘lsa va zavod hududidan chiqmasdan shu mahsulotdan o‘z maqsadida foydalangan (iste’mol qilgan) bo‘lsa, aybdorning harakatlari tugallangan o‘g‘irlikning tarkibini tashkil qiladi.

Basharti qo‘riqlash xodimi bila turib, o‘g‘irlikni sodir etayotgan shaxsga mulkni o‘zi qo‘riqlayotgan hududdan olib chiqishga ko‘maklashsa yoki o‘g‘irlikning sodir etilishiga xalaqit beruvchi to‘siqlarni bartaraf etsa, u o‘zganing mulkini talon-toroj qilishda ishtirok etganlik uchun javobgar bo‘ladi.

Subyektiv tomondan o‘g‘irlik to‘g‘ri qasd bilan va g‘araz maqsadlarda sodir etiladi. Aybdor olingan o‘zganing mulkining nafaqat g‘ayriqonuniyligini va qaytarib berilmasligini, balki o‘z harakatlarining yashirin usullarini ham tushunib etadi.

Ushbu jinoyatning **subyekt**i 14 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

Shuni ta’kidlash lozimki, mulkni yashirin talon-toroj qilish o‘g‘irlanayotgan mulkka nisbatan uni tasarruf etish, boshqarish, yetkazib berish yoki saqlash bo‘yicha muayyan vakolatlarga ega bo‘lgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, unda qilmishni JK 167-moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

JK 169-moddasi 2-qismida:

- a) jabrlanuvchining kiyimi, sumkasi yoki boshqa qo‘l yukidagi ashyoga nisbatan (kissavurlik);
- b) ancha miqdorda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- g) uy-joy, omborxonasi yoki boshqa xonaga g‘ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan o‘g‘irlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Jabrlanuvchining kiyimi, sumkasi yoki boshqa qo‘l yukidagi ashyoga nisbatan sodir etilgan o‘g‘irlik (kissavurlik) respublikamizning jinoyat qonuniga yangi kiritilgan og‘irlashtiruvchi holatdir. Kissavurlikning ijtimoiy xavfliligi: birinchidan, uning ancha ko‘p tarqalganligi bilan; ikkinchidan, aybdor bevosita jabrlanuvchining o‘zida turgan mulkni tortib olishi, bu esa jabrlanuvchi o‘z mulkiga suiqasd qilinayotganini payqab qolsa, jabrlanuvchiga nisbatan zo‘rluk ishlatilishi xavfi tug‘ilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Qo‘l yuki deganda, jabrlanuvchi shaxsan olib o‘tuvchi, shakli va tuzilishidan qat’i nazar, yengil olib o‘tiluvchi buyum va ashyolar tushuniladi¹.

Ushbu buyumlar, odatda, jabrlanuvchining o‘zida bo‘ladi, ya’ni uning qo‘lida, yelkasida, yonboshida yoki ustida joylashgan yoxud sudrab, itarib ketayotgan bo‘ladi. Shu o‘rinda ushbu buyumlarni jabrlanuvchi jismoniy kuch ishlatib bevosita o‘zi olib yurishiga alohida e’tibor berish lozim. Shuning uchun turli xil transport vositalarida (ularning miqdori va shaklidan qat’i nazar) olib o‘tiladigan buyum va ashyolar qo‘l yuki ashyosi sifatida tahlil etilishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «O‘zganing mulkini o‘g‘irlash, talonchilik va bosqinchilik yo‘li bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi qarorida: «Jabrlanuvchining yegnida bo‘lgan kiyim-kechagi, qo‘lidagi yoki bevosita yonida bo‘lgan sumka, chamadon va boshqa anjomlaridan sodir etilgan yashirin talon-toroj qilish kissavurlik deb hisoblanadi va JKning 169-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan tavsiflanadi»¹, deb ko‘rsatilgan.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкни

Har bir alohida ishda sud barcha holatlarni hisobga olgan holda, sumka yoki boshqa qo‘l yukining jabrlanuvchining yonida bo‘lganligi faktini aniqlashi kerak.

Qo‘l yuki tushunchasiga kiruvchi buyum va ashyolar jinoyat sodir etilgan shaxsning tasarrufida bo‘lgandagina qo‘l yuki ashyosini **jabrlanuvchining bevosita o‘zida joylashgan** deb hisoblash mumkin. Boshqacha aytganda, jabrlanuvchi bu ashyolarga nisbatan maxsus texnik nazorat vositalaridan foydalanmasdan, ularni kuzatish yoki boshqa usullarda subyektiv nazoratni amalga oshiradi. Qo‘l yuki vositalarining bevosita jabrlanuvchi yonidaligini quyidagi holatlar ko‘rsatib turadi: jabrlanuvchi yonida ayollar sumkachasining yotishi; o‘g‘irlik sodir etilganda katmonning shaxs cho‘ntagida bo‘lishi va boshqalar. Agar qo‘l yuki buyum va ashyolari jabrlanuvchining subyektiv nazorat doirasidan (masalan, katmonni qulflanmaydigan shkafda saqlash) tashqarida yoki qandaydir joyga yashirib qo‘yilgan bo‘lsa, talon-toroj qilishni kissavurlik sifatida baholash mumkin emas. Bunday holatda ayblanuvchining harakatlari boshqa og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lmasa, **JK 169-moddasining 1-qismi** bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

JK 169-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan o‘g‘irlikni boshqa og‘irlashtiruvchi holatlarda kvalifikatsiya qilish belgilarini JK 164-(Bosqinchilik) yoki 166-moddalari (Talonchilik) tahlilida batafsil bayon etib o‘tilgan.

JK 169-moddasining 3-qismida o‘zganing mulkini yashirin talon-toroj etishning quyidagi kvalifikatsiya qilish belgilari nazarda tutilgan:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirib;
- v) ko‘p miqdorda sodir etilgan o‘g‘irlik;
- g) neft quvurlarida, gaz quvurlarida, neft va gaz mahsulotlari quvurlarida o‘g‘irlik sodir etilishi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Aybdor kompyuter tizimidan foydalanish huquqiga ega bo‘lmagani

Ўғирлик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991—2006, 1-жилд. — Т.: «О‘қитuvchi» НМИУ, 2007. — 221-б. (кейинги ўринларда — Тўплам, 1-жилд).

holda unga kirgan va o‘zganing hisobidan o‘zining hisobiga pul o‘tkazgan hollarda o‘g‘irlik **JK 169-moddasi 3-qismining «b» bandi** bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunday o‘g‘irlik kompyuter orqali aybdor shaxsning hisobiga pul mablag‘i o‘tkazilgan paytdan e‘tiboran tugallangan jinoyat deb hisoblanadi.

Neft quvurlarida, gaz quvurlarida, neft va gaz mahsulotlari quvurlarida o‘g‘irlik sodir etilgandan boshlab JKning **169-moddasi 3-qismi «g» bandi** bo‘yicha javobgarlik vujudga keladi.

Neft quvurlari – Magistral neft quvurlari va neft mahsulotlarini oqizma holda yetkazib beradigan quvurlar.

Gaz quvurlari – quvuri, maydoncha ichidagi gaz quvuri, maydoncha tashqarisidan o‘tkazilgan gaz quvuri, taqsimlovchi gaz quvuri, shuningdek, tashqi gaz quvurlari tushuniladi.

Kirish gaz quvuri – taqsimlovchi gaz tarmog‘iga ulanish joyidagi kiruvchi gaz quvuridan o‘chiruvchi moslamagacha yoki binoning kirish joyidagi yer ostidan o‘tkazilgan g‘ilofgacha bo‘lgan gaz quvuri.

Kiruvchi gaz quvuri – binoning kirish joyidagi o‘chirish moslamasining tashqarisida, shu jumladan, ichki gaz quvurigacha, bino devori orqali tashqaridan g‘ilofda o‘rnatiladigan gaz quvuri bo‘lagi.

Qishloqlararo gaz quvuri – gaz tarmoqlarining aholi yashash joylaridan tashqarida o‘tkazilgan gaz quvuri.

Maydoncha ichidagi gaz quvuri – korxonaning ishlab chiqarish hududi ichkarisidagi sanoat iste‘molchisiga gaz ta‘minoti manбайдan gaz uzatishni ta‘minlaydigan taqsimlovchi gaz quvuri bo‘lagi (kirish qismi).

Maydoncha tashqarisidan o‘tkazilgan gaz quvuri – korxonaning ishlab chiqarish hududidan tashqaridagi sanoat iste‘molchisiga gaz ta‘minoti manбайдan gaz uzatishni ta‘minlaydigan taqsimlovchi gaz quvuri.

Taqsimlovchi gaz quvuri – gaz taqsimlash tarmog‘idagi gaz manбайдan kiruvchi gaz quvurigacha gaz iste‘molchilariga gaz yetkazib beruvchi gaz quvuri.

Tashqi gaz quvuri – kiruvchi gaz quvuridan oldinda o‘rnatilgan o‘chiruvchi moslamagacha bo‘lgan yer osti va yer ustidan yoki binoning

kirish joyidagi g'ilofgacha bo'lgan yer ostidan o'tkazilgan gaz quvuri¹.

JK 169-moddasi 4-qismida:

a) juda ko'p miqdorda;

b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan o'g'irlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Mazkur og'irlashtiruvchi holatlarda o'g'irlik sodir etganlik uchun javobgarlik holatlarini yuqorida tahlil qilib o'tganmiz.

**«O'zgaralar mulkini talon-toroj qilish» mavzusi
bo'yicha yakuniy savollar**

1. Talon-torojning barcha shakllariga xos bo'lgan xususiyatlar va og'irlashtiruvchi belgilarini tavsiflab bering. Talon-toroj qilishning javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarini tushuntirib bering.

2. Bosqinchilik tushunchasini, uning zaruriy belgilarini va javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarini tushuntirib bering.

3. Badanga og'ir shikast yetkazib sodir etilgan bosqinchilikni tamagirlik niyatida badanga og'ir shikast yetkazishdan farqini ko'rsatib bering.

4. Tovlamachilikning tarkibiga tavsif bering. Tovlamachilikda zo'rlikning qanday shakllari ishlatilishi mumkin?

5. Tovlamachilikning talonchilikdan qanday farqi bor? Talonchilikda qo'llaniladigan zo'rlikning xususiyatlari qanday?

6. Talonchilikning bosqinchilikdan qanday farqi bor?

7. O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish harakatlarini kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Rastrata va o'zlashtirishning farqlari.

8. Mansabdor shaxslar tomonidan o'z mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish yo'li bilan talon-toroj qilishning qanday turlari mavjud? Ularning yuridik tahlili va o'ziga xos xususiyatlari.

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ер қаърини геологик ўрганиш, саноатда, кончиликда ва коммунал-маиший секторда ишларнинг бехатар олиб борилишини назорат қилиш давлат инспекцияси бошлиғининг 2011 йил 10 августдаги 181-сон буйруғига ИЛОВА. [Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги билан келишилган ҳолда техник ҳужжат деб топилган. 2011 йил 16 август, 6-24/13-8885/6-сон].

9. Firibgarlik tushunchasi, uning belgilari va firibgarlikning o'g'irlik va talonchilikdan farqi. Firibgarlikni sodir etish usullari deganda nima tushuniladi?

10. Talon-toroj qilishning shakli sifatida o'g'irlik tushunchasi.

11. Ancha miqdor, ko'p miqdor va juda ko'p miqdor deganda nima tushuniladi?

12. O'zbekiston Respublikasi JKning 169-moddasi bo'yicha ayblanuvchining harakatlarini kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari qanday?

Qo'shimcha adabiyotlar

Rahbariy adabiyotlar

Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2016.– 48 b.

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2017.– 32 b.

Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilingan kunning 25-yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan tantanali marosimdagi "Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" nomli nutqidan // Xalq so'zi. 2017 yil 7 dekabr. 247 (6741)-son.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. 2017 yil 23 dekabr. 258 (6952)-

son.

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Абдурасулова К.Р. Квалификация вымогательства, совершенного повторно // Ж. Научные труды Академии финансовой полиции. Астана. 2003. № 1. — 104—114-б.

Абдурасулова К.Р. Ответственность за мошенничество и получение кредита путем обмана // Мустакил Ўзбекистонда фалсафа ва ҳуқуқ фанларининг долзарб муаммолари. — Т.: «Фан», 199. — 48-52-б.

Абдусаломов М., Каракетов Ю. Ответственность за вымогательство. Учебное пособие. — Т.: «Адолат», 1997. — 387 Б.

Абдухаликов М.А. Конструкция статьи об ответственности за вымогательство // Новые Кодексы Республики Ўзбекистон: теория и практика. Терроризмга қарши кураш: назария ва амалиёт. Конференция материаллари. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ, Олий мактаб, 1994. — 121—123-б.

Абдухаликов М.А. О некоторых квалифицирующих обстоятельствах вымогательства // Конституция — ҳуқуқий давлат куриш-нинг асоси. Илмий-амалий анжуман материаллари. — Т.: ТДЮИ, 1996. — 45-50-б.

Абдухаликов М.А. Психическое насилие как средство завладения имуществом в вымогательстве, грабеже и разбое // Ўзбекистоннинг

Абдуқодиров Ш.Ё., Мирзаев У.М. Мулкни талон-тороғ қилганлик учун жиноий жавобгарлик. Ўқув қўлланма. — Тошкент: ТДЮИ, 2009. — 156 Б.

Бойцов А.И. Преступления против собственности. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. — 775 Б.

Волженкин Б.В. Мошенничество: Серия «Современные стандарты в уголовном праве и уголовном процессе». — СПб.: «Юридический центр Пресс», 1998.

Зарипов З.С., Кабулов Р. Квалификация краж, грабежей, разбоев, совершенных путем проникновения в помещение или иное хранилище. Лекция. — Т.: 1981.

Илмий мақолалар

Кабулов Р. Имущество как предмет хищения // Ж. Экономика и статистика. 1997. № 2. — 38—40-б.

Кабулов Р. Особенности квалификации грабежа // Ж. Экономика и статистика. 1997. J№ 7—8. — 64—65-б.

Кабулов Р. Понятие хищения чужого имущества и его отграничение от смежных составов преступлений. Учебное пособие. — Т.: Академия МВД Республики Ўзбекистон, 1997. — 133 Б.

Кабулов Р. Разграничение кражи и мошенничества // Ж. Именем закона. 1997. J№ 3. — 73—74-б.

Кабулов Р. Разграничение хищения транспортного средства от угона // Конституция ҳуқуқий давлат қуришнинг асоси. Илмий-амалий конференция материаллари. — Т.: ТДЮИ, 1996. — 203-207-б.

Кабулов Р. Совершенствование уголовного законодательства за хищение имущества // Ўзбекистон Республикасининг янги кодекслари: назария ва амалиёт. Илмий-амалий конференция материаллари. — Т.: ТДЮИ, 1994. — 110-113-б.

Кабулов Р. Уголовно-правовое значение форм хищения чужого имущества // Мустақиллик ва Ўзбекистон Республикасида ҳуқуқий демократик давлатни ва фуқаролар жамиятини шакллантириш муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари. — Т.: ТДЮИ, 1996. — 203-207-б.

Кабулов Р. Хищение как разновидность экономической преступности // Ж. Экономика и статистика. 1997. J№1. — 46-48-б.

Каракетов Ю.М. Ответственность за разбой по уголовному законодательству УзССР. — Нукус: «Каракалпакстан», 1990.

Каракетов Ю.М., Абдусаломов Е. О. Ответственность за вымогательство. — Т.: «Адолат», 1997. — 89 Б.

Каракетов Ю.М., Алауов Е.О. Повторность как обстоятельство, отягчающее ответственность за вымогательство. — Алма-Аты: «Поиск», 1997. — 120—129-б.

Клепицкий И.А. Имущественные преступления (сравнительно-правовой аспект) // Ж. Законодательство. 2000. J№ 1.

Кочои С.М. Ответственность за корыстные преступления против собственности. — М.: 2000.

Матмуратов Б.Ж. Квалификация имущественных преступлений // Ж. Вести Каракалпакстана. 1993. J№ 6. — 38-40-б.

Мирзаев У.М. «Талон-торож»нинг умумий тушунчаси ва юридик таҳлили // Ж. ТДЮИ Ахборотномаси. — Тошкент: 2006. J№ 6. — 89-91-б.

Мирзаев У.М. Бир гуруҳ шахслар томонидан содир этилган ўзлаштириш, растрата қилиш жиноятини квалификация қилиш масаласи // ТДЮИ Ахборотномаси. — Тошкент: 2009. J№ 2. — 99—101-б.

Мирзаев У.М. Етказилган зарар микдорининг талон-торожни квалификация қилишга таъсири // ТДЮИ Ахборотномаси. — Тошкент: 2008. № 8. — 84-86-б. *Мирзаев У.М.* Компьютер техникаси воситаларидан фойдаланиб талон-торож қилишни квалификация қилиш // Фан ва ёшлар. — Тошкент: 2009. № 2. — 85—88-б.

Мирзаев У.М. Жиноят ҳуқуқида ўзлаштириш ва растрата тушунчаси // ТДЮИ Ахборотномаси. — Тошкент: 2008. J№ 3. — 7073-б.

Мирзаев У.М. Мансаб мавқеини суистеъмол қилган ҳолда талон-торож қилганлик учун жиноий жавобгарлик // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Ахборотномаси. — Тошкент: 2008. J№ 6. — 31-34-б.

Мирзаев У.М. Ўзлаштириш ёки растрата қилиш йўли билан талон-торож қилиш жиноятига умумий тавсиф // ТДЮИ Ахборотномаси. — Тошкент: 2008. J№ 4. 59-61-б.

мустақил ҳуқуқий йўли: тажриба ва муаммолар. Илмий-амалий конференция материаллари. — Т.: «Камалак», 1994. — 124—126-б.

Очилов Ҳ.Р. Ўзгалар мулкини компьютер воситаларидан фойдаланиб талон-торож қилганлик учун жавобгарлик. Монография // — Тошкент: ТДЮУ нашриёти, 2017. — 225 бет.

Рустамбаев М.Х. в соавторстве. Криминальная экономика и насильственные преступления против собственности граждан. // Ж.

Давлат ва ҳуқуқ. 2003. № 4. — 36—40-б.

Рустамбаев М.Х. Насилие как отягчающее обстоятельство корыстно-насильственных преступлений // Сборник научных трудов. — Т.: «Адолат», 1993.

Рустамбаев М.Х., Пинхасова Э.Б. Внимание, ракет! // Ж. Диалог. 1992. № 1.

Северюков А.П. Хищение имущества: криминологические и уголовно-правовые аспекты. — М.: «Экзамен», 2004. — 352 Б.

Скляр С. Уголовная ответственность за хищение недвижимого имущества // Ж. Российская юстиция. 2001. № 6.

Утанов М.А. Уголовно-правовая ответственность за вымогательство. Учебное пособие. — Петропавловск: 2005.

Ilmiy maqolalar

Ochilov H.R. Computer devices have changed the concept of the crime of property larceny - International journal of law - India, 2017. - № 1. - P.7-9.

Ochilov H.R. Theoretical and legal bases of qualification of robbery of the property of other persons using computer equipment // Journal of Law Research. 2017, № 10. – P.27-38.

Mirzayev U.M. Kredit mablag‘ini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik // Sud-huquq islohotlari ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan jinoyat huquqiy sohalarni takomillashtirishda yosh olimlarning tutgan o‘rni. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Т.: TDYuU nashriyoti, 2014. – B.51-57.

Mirzayev U.M. Firibgarlikka qarshi kurash – dolzarb vazifa // //Fan va yoshlar. Nauka i molodyoj. – 2013. №1.– B.108-113.

Ochilov H.R. Ayrim xorijiy mamlakatlarda o‘zgar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toroj qilishga oid jinoyat huquqiy normalar tahlili yuzasidan mulohazalar // Jinoyat-huquqiy fanlarning dolzarb muammolari mavzusidagi Konferensiya materiallari. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2012. – B. 13-20.

Ochilov H.R. Kompyuter jinoyatchiligi: mulohaza va tahlil // Huquq va burch - Toshkent, 2009. - № 1 (39). – B.56-57. (12.00.00; №2)

Ochilov H.R. Kompyuter firibgarligi jinoyati tushunchasi va mohiyati // Toshkent davlat yuridik instituti Axborotnomasi. – Toshkent, 2009. - № 3. – B.103-105.

Ochilov H.R. Kompyuter firibgarligi: o‘zgalar mulkini kompyuterdan foydalanib, firibgarlik bilan talon-toraj qilish // Huquq va burch jurnali – Toshkent, 2016. - № 1 (39). – B.56-57.

Ochilov H.R. O‘zgalar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toraj qilish jinoyatining obyekti // O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Jinoyat protsessual qonunining huquqiy asoslari sifatida. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2009. – B. 337-340.

Ochilov H.R. O‘zgalar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toraj qilish jinoyatining subyektiv tomoni // Toshkent davlat yuridik instituti Axborotnomasi. – Toshkent, 2010. - № 2. – B.121-124.

Ochilov H.R. O‘zgalar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toraj qilish jinoyatining subyekti.// Jinoyat qonunchiligini takomillashtirish muammolari. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2010. – B. 303-313.

Ochilov H.R. O‘zgalar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon toraj qilish jinoyatlarining sabablari to‘g‘risida ayrim mulohazalar // Toshkent davlat yuridik instituti Axborotnomasi. – Toshkent, 2012. - № 6. – B.87-90.

Ochilov H.R. O‘zgalar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toraj qilish jinoyatlarining sabablari to‘g‘risida ayrim mulohazalar // Fan va yoshlar. – Toshkent, 2012. - № 1. – B.98-102.

Ochilov H.R. O‘zgalar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toraj qilish jinoyatlarining tushunchasi va ijtimoiy xavfliligi // Xalqaro munosabatlar/Международные отношения/International relations // – Toshkent, 2015. - № 3. – B.48-55.

Ochilov H.R. O‘zgalar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toraj qilish jinoyatining obyekti // O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining Axborotnomasi - Toshkent, 2016. - № 2. - B.92-96.

Ochilov H.R. O‘zgalar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib

talon-toraj qilishda aybning ahamiyati - O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Oliy o'quv kurslari Axbortnomasi - Toshkent, 2017. - № 1.- B.39-44.

Ochilov H.R. O'zgarar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toraj qilish tushunchasi va uning ijtimoiy xavfliligi // Yosh olimlar to'plami №1. – Toshkent, 2012. – B. 165-175.

Ochilov H.R. O'zgarar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati obyektiv tushunchasi va ahamiyati // XXI asr kriminalistikasi: erishilgan yutuqlar va kelajak istiqbollari. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2012. – B. 168-177.

Ochilov H.R. O'zgarar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib o'zlashtirish yoki rastrata qilish jinoyati obyektiv belgilari tushunchasi va ahamiyati // O'zbekiston qonunchiligi tahlili. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана.- Toshkent, 2015. - № 3. – B.56-59.

Ochilov H.R. O'zgarar mulkini talon-toraj qilish jinoyat predmeti va o'ziga xos xususiyatlari // Toshkent davlat yuridik instituti Axborotnomasi. – Toshkent, 2009. - № 7. – B.96-97.

Ochilov H.R. O'zgarar mulkini talon-toraj qilishda jinoyat sodir etish vositasi tushunchasi // Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish masalalari: milliy va xorijiy tajriba. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, TDYuU, 2014. – B. 289-294.

Ochilov H.R. O'zgarar mulkini talon-toraj qilishda jinoyat sodir etish vositasi tushunchasi // The science advanced journal. - USA, 2015. - № 6. - B.39-41.

Ochilov H.R. Xorijiy mamlakatlarda o'zgarar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toraj qilganlik uchun javobgarlik masalalari // Huquqiy informatika va axborot xavfsizligi sohalarini takomillashtirishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2010. – B. 256-262.

Ochilov H.R. Hozirgi sud-huquq islohotlari davrida o'zgarar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toraj qilishni kvalifikatsiya qilish muammolari yuzasidan ayrim mulohazalar // Sud-huquq islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida jinoyat kodeksini unifikatsiya

qilishning nazariy va amaliy jihatlari. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. - Toshkent, 2015. – B. 117-128.

Turg‘unboyev E.O. Baholanuvchi mezonlarni sharhlashning o‘ziga xos xususiyatlari, turlari va usullari // Sud-huquq islohotlari ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan jinoyat-huquqiy sohalarni takomillashtirishda yosh olimlarning tutgan o‘rni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: 2014. – B.68-75.

Turg‘unboyev E.O. Jinoyat qonunida baholanuvchi mezonlar tushunchasi va mohiyati // Tergov jarayonida ekspertiza tadqiqotlaridan foydalanishning nazariy va amaliy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallari to‘plami. – Toshkent: 2014. – B. 96-99.

Xasanov T. O‘g‘rilik jinoyatining subyekti // Jinoyat qonunchiligining liberallashtirishi sharoitida ayrim jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish masalalari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: TDYuU, 2014. – B 71-76

Xasanov T. O‘g‘rilik sababi va oldini olish masalalari // Kriminologiyaning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – B. 46-50.


Xasanov T. O‘g‘rilikka tayyorgarlik ko‘rish yoki suiqasd deb baholanishning ayrim shartlari.// Jinoyat huquqining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami (2014 yil 22 fevral). – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – B.112-115.

Xasanov T.X. Jinoyat qonunini takomillashtirish masalalari (JK 169-modda misolida) // Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish masalalari: milliy va xorijiy tajriba. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, TDYuU, 2014. – B. 118-124.

Xasanov T.X. O‘g‘rilik jinoyatining subyekti // Jinoyat qonunchiligining liberallashtirilishi sharoitida ayrim jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: TDYuU, 2014. –B. 24-39.

II BOB. O‘ZGALAR MULKINI TALON-TOROJ QILISH BILAN BOG‘LIQ BO‘LMAGAN JINOYATLAR

3-sxema



1-§. Aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan mulkiy zarar yetkazish (JK 170-moddasi)

Jinoyatning bevosita obyekti har xil shartnomaviy va boshqa majburiyatlardan kelib chiquvchi mulkiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyatning **predmeti** mulk shaklidan qat‘i nazar, har qanday mulk bo‘lishi mumkin.

Obyektiv tomondan jinoyat talon-toroj alomatlari bo‘lmagani holda, aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan mulkdorga ancha miqdorda zarar yetkazishdan iborat.

(Bu moddada ko‘zda tutilgan «aldash» va «ishonchni suiiste‘mol qilish» tushunchalari haqida JK 168-moddasi (Firibgarlik) tahliliga qarang.)

Ushbu moddada ko‘rsatilgan jinoyat bir qator belgilari bo‘yicha firibgarlik bilan o‘xshashdir. Aybdor tahlil qilinayotgan jinoyatni sodir etishda o‘z maqsadiga erishish uchun firibgarlik jinoyatidagi kabi aldash va ishonchni suiiste‘mol qilishdan foydalanadi, biroq firibgarlikdan aybdorning mulkiy foydani g‘ayriqonuniy ravishda qo‘lga kiritish mexanizmi bilan ajralib turadi. Agar firibgarlikda talon-toroj qilishning boshqa shakllari kabi mulkdordan mulkni qo‘lga kiritish va uni aybdorning yoki boshqa shaxslarning foydasiga g‘ayriqonuniy o‘tkazish sodir etilsa,

aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazishda mulk qo'lga kiritilmaydi. Ushbu jinoyatda talon-toroj qilishning u yoki bu mulkdorning mulkini shaxsiy fondidan qo'lga kiritish kabi belgisi mavjud emas, ya'ni mulkdorga tegishli yoki boshqa qonuniy egasi qo'lida bo'lgan mulkning mavjud massasi kamayishi sodir bo'lmaydi. Odatda aybdor mulkiy foydani o'zganing mulkini egallab olish orqali emas, balki lozim bo'lgan summani to'lamaslik orqali qo'lga kiritadi.

Talon-toroj qilishning o'ziga xosligini belgilovchi xususiyat mol-mulknini qonuniy egalikdan aybdorning egaligiga o'tish jarayonidir. O'zganing mulkini ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish jinoyatida mulk egasi yoki qonuniy mulkka egalik qilayotgan shaxsning mol-mulki hisobining kamayishi orqali aybdor yoxud mulkiy manfaatlar ko'rishi mumkin bo'lgan shaxsning mulkiy holati oshib boradi¹.

Sud-tergov amaliyotida ushbu jinoyatni sodir etishning turli shakllari uchraydi. Masalan, kassir yoki provodnikning chiptasiz yurganligi uchun yo'lovchilardan pul olishi; bajarilgan ish uchun mijozlar to'lagan pulning turli xizmat ko'rsatish xodimlari tomonidan o'zlashtirilishi va h.k.

Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish shakllari turli xil bo'lishi mumkin. Masalan, qonunda belgilangan tartibda xizmat yoki topshiriq asosida foydalanish uchun berilgan transport vositasidan o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanish shaklida aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan ishonib topshirilgan mulknini belgilanmagan tartibda foydalanishda ko'rinadi. Ushbu holatda shunga e'tibor berish lozimki, korxonaga tegishli bo'lgan materiallar, moddiy, qurilish mollaridan o'zining manfaatlari yo'lida foydalanish sharhlanayotgan jinoyat tarkibiga kirmaydi va tegishli shaklda o'zganing mulkini talon-toroj qilish (rastrata yoki o'g'rilik) sifatida qo'shimcha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish respublika yoki mahalliy Budjetlarga boj yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaslikda (yoki ularning hajmini kamaytirishda)

¹ *Қаранг:* Уголовное право: Учебник. Т.2: Особенная часть / Под ред. Игнатова А.Н. и Красикова Ю.А. - М.: НОРМА - ИНФРА*М, 1998. - 215-б.

ifodalanishi mumkin. Masalan, oldi-sotdi shartnomasini yashirish maqsadida mulkdan haqini to‘lamasdan foydalanib turish to‘g‘risida shartnoma tuzish orqali; yer uchastkasi yoki ko‘chmas mulkni sotib olishda shartnoma tuzayotganda uning haqiqiy narxini kamaytirib ko‘rsatish orqali; soliq yukini kamaytirish maqsadida qalbaki hujjatlarni taqdim etish va daromad solig‘i hajmini kamaytirish orqali, agar bunda JK 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyat belgilari mavjud bo‘lmasa va boshqalar. Shuni nazarda tutish lozimki, tahlil qilinayotgan jinoyatni sodir etishda faqat soxta hujjat (uning qalbakilashtirilgani emas) taqdim etilgan bo‘lishi lozim (u aldash vositasi va ushbu jinoyatning belgisi hisoblanadi), shuning uchun aybdor o‘zi tomonidan tayyorlangan qalbaki hujjatlarni taqdim etish orqali aldasa, uning harakatlari jinoyatlar majmui bo‘yicha **JK 170-moddasi** va 228-moddasi birinchi qismlari bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Tahlil etilayotgan jinoyat moddiy tarkibli hisoblanadi va mulkdorga yoki mulk egasiga ancha miqdorda zarar yetkazilgan paytdan e‘tiboran **tugallangan** deb hisoblanadi.

Bu holatda shuni ta‘kidlash lozimki, «moddiy zarar yetkazish» baholovchi tushuncha hisoblanadi. Tergovchi, surishtiruvchi, shuningdek, sudya har bir aniq holatda zarar miqdori va hajmini hal qilishi lozim.

Ancha miqdordagi zarar deganda, eng kam oylik ish haqining o‘ttiz barobaridan yuz barobarigacha bo‘lgan miqdordagi zarar tushuniladi.

Agar eng kam oylik ish haqining o‘ttiz barobaridan kam bo‘lgan miqdorda zarar yetkazilsa, JK 170-moddasida javobgarlik nazarda tutilgan jinoyat tarkibi mavjud bo‘lmaydi.

Subyektiv tomondan jinoyat bila turib, to‘g‘ri qasd bilan g‘araz maqsadda sodir etiladi. Aybdor yolg‘on xabar berayotib yoki mavjud dalillarni yashirayotib mulkdorni yoxud mulkning qonuniy egasini aldayotganligini tushunib yetadi va ushbu harakati orqali jabrlanuvchiga mulkiy zarar yetkazilishini ko‘ra biladi hamda ushbu zararni yetkazishni xohlaydi.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyat **subyektiv** 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin. Mansabdor shaxs mazkur jinoyatni

sodir etganligi uchun boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar bo'yicha javobgarlikka tortiladi. Mansabdor shaxslar o'z xizmat mavqeidan foydalanib jinoiy harakatlar sodir etganlarida, ularning qilmishlari xizmat mavqeini suiiste'mol qilish yoki pora olish deb kvalifikatsiya qilinadi.

JK 170-moddasi 2-qismida:

- a) takroran yoki xavfli retsividist tomonidan;
- b) moddiy javobgar shaxs tomonidan;
- v) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan.

JK 170-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan kvalifikatsiya qilish belgilari yuqorida ko'rib chiqilgan.

JK 170-moddasi 2-qismi «b» bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun maxsus subyekt — moddiy javobgar shaxsning mavjudligi zaruriy belgidir.

NOTA BENE !

Mulk ishonib topshirilgan yoki shartnoma, bitim, topshiriqqa muvofiq yoki faoliyati turiga ko'ra mulkdorning jamg'armasi uchun pul mablag'larini yig'ish topshirilgan shaxs **moddiy javobgar shaxs** deyiladi.

Ko'p miqdordagi zarar deganda, eng kam oylik ish haqining yuz barobaridan uch yuz barobarigacha bo'lgan miqdordagi zarar tushuniladi.

2-§. Jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish (JK 171-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obykti** mulk huquqi va boshqa mulkiy huquqlar, shuningdek, jamiyatda shakllangan va qonunchilikda aks ettirilgan mulkni tasarruf etish bo'yicha munosabatlar hisoblanadi.

Faqat **jinoiy yo'l bilan**, ya'ni jinoiy faoliyat natijasida topilgan mulk jinoyatning **predmeti** bo'lishi mumkin. Masalan, har qanday shakldagi talon-toroj qilish natijasida topilgan, bojxona qonun hujjatlarini buzish natijasida va h.k. tarzida olingan mulk. Fuqarolik muomalasidan

chiqarilgan predmetlar (o'qotar qurollar, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari) jinoyatning predmeti bo'lishi mumkin emas. Bunday qilmish uchun aybdor Jinoyat kodeksining boshqa moddalari bilan javobgarlikka tortiladi.

Jinoiy javobgarlik subyeksi bo'lolmaydigan yosh bolalar yoki boshqa shaxslar tomonidan jabrlanuvchidan yashirin ravishda qo'lga kiritilgan mulklar jinoiy yo'l bilan topilgan deb hisoblanmaydi. Shunday qilib, mazkur jinoyat predmetining zaruriy belgisi mulkni olishning jinoiy xarakteri hisoblanadi (masalan, ma'muriy javobgarlikka tortiladigan mayda talon-toroj qilish sodir etish natijasida qo'lga kiritiladigan mulk jinoyat predmeti hisoblanmaydi).

Shu bilan birga, uni ishlab chiqarish jinoyat hisoblansa ham, ishlab chiqarilayotgan mulkni qo'lga kiritish jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan mulk sifatida tan olinishi mumkin emas (masalan, qalbaki hujjatlar, pullar). Biroq, ushbu ashyolar o'g'rilik, talonchilik hujumi orqali qo'lga kiritilgan bo'lsa yoki o'zgacha talon-toroj qilish yoxud boshqa g'ayriqonuniy jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilsa va qo'lga kiritilishi ishlab chiqarish natijasi hisoblanmasa, ularni jinoiy yo'l bilan topilgan deb tan olish lozim.

Bunday mulkni sotib olish yoki o'tkazishda aybdor harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish va o'tkazish sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Shuningdek, uni tarqatish ijtimoiy xavfli hisoblangani holda, bunday mulkni tarqatish ushbu modda bilan kvalifikatsiya qilinadi (masalan, pornografik materiallarni o'g'rilik yo'li bilan qo'lga kiritish va keyinchalik tarqatishni shunday kvalifikatsiya qilish kerak).

Shuningdek, jinoiy yo'l bilan topilgan mablag'larga sotib olingan mulklar ushbu jinoyat predmeti sifatida e'tirof etilishi mumkin emas.

Obyektiv tomondan JK 171-moddasida nazarda tutilgan jinoyat jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazishda ifodalanadi.

Jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni **olish** deganda, mulkni jinoiy yo'l bilan topgan shaxsdan o'sha mulkni o'z egaligiga va tasarrufiga o'tkazishga qaratilgan har qanday (haq evaziga yoki bepul) bitim tuzilishi tushuniladi.

Jinoiy yo‘l bilan topilgan mulkni bila turib olish turli usullarda (arzon narxda sotib olish, boshqa buyumga ayirboshlash, hadya tariqasida olish, qarzga olish yoki berish va h.k.) amalga oshirilishi mumkin.

Jinoiy yo‘l bilan topilgan mulkni olgan shaxs uning egasi bo‘la olmaydi.

Jinoiy yo‘l bilan topilgan mulkni **o‘tkazish** deganda, mazkur mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishning barcha usullari (sotish, hadya qilish, qimorda yutqazish, ayirboshlash va h.k.) tushunilishi lozim.

Ushbu qilmish jinoiy yo‘l bilan topilgan mulk olingan yoki o‘tkazilgan paytdan **tugallangan** deb hisoblanadi.

Jinoyat **subyektiv tomondan to‘g‘ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor bila turib jinoiy yo‘l bilan topilgan mulkni olayotganligini yoki o‘tkazayotganligini anglaydi yoki ishning obyektiv holatlariga ko‘ra anglashi lozim bo‘ladi va bunday harakatlar sodir etilishini xohlaydi yoki imkoniyat yaratib beradi. Shu bilan birga, mazkur mulk qaysi jinoiy yo‘l bilan topilganligi, kim, qachon va qaysi holatlarda ushbu jinoyatni sodir etganligini aniqlash majburiy ahamiyat kasb etmaydi. Agar mulk bunday muayyan jinoyatni sodir etish orqali qo‘lga kiritilganligini shaxs bilganligi aniqlanadigan bo‘lsa, unda uning harakatlari jinoiy yo‘l bilan topilgan mulkni olish yoki o‘tkazish sifatida, shuningdek, aybdorning harakatlarida JK 241-moddasida nazarda tutilgan jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish kabi belgilar mavjud bo‘lganda, jinoyatlar jami bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Odatda, jinoyat **motivi** g‘arazli, shuningdek, o‘zgacha ham bo‘lishi mumkin, biroq ular jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta‘sir ko‘rsatmaydi. Masalan, shaxsiy xarakterdagi motivlarga tayanib, shaxs bila turib jinoiy yo‘l bilan topilgan mulkni o‘tkazishi mumkin.

Mulkni jinoiy yo‘l bilan topgan shaxsga uni avvaldan sotib olish yoki o‘tkazishga va‘da berilmaganligi ham jinoyatni kvalifikatsiya qilishda zaruriy shart hisoblanadi.

NOTA BENE !

Jinoiy yo‘l bilan topilgan mulkni **oldindan va‘da bermagan holda** olish yoki o‘tkazish deganda, agar subyekt bunday harakatlarni sodir

etishga, jinoyat sodir etish yo'li bilan mulk topuvchi shaxslarga avvaldan va'da (rozilik) bermagan bo'lsa, shuningdek, ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlardan oldin yoki o'sha vaqtda va'da bermagan (masalan, doimiy ravishda bila turib aynan bir shaxslardan jinoiy yo'l bilan topilgan mulklarni olish) hamda ularga uning yordamiga ishonishiga imkoniyat beradigan harakat qilmagan holatlar tushuniladi.

Agar aybdor jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olishni avvaldan, ya'ni talon-toroj yoki boshqa jinoyat sodir etilishidan ilgari va'da qilgan bo'lsa, aybdor shaxs sodir etgan jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Shuningdek, shaxs o'g'irlangan narsalarni muntazam ravishda sotib olgan va o'g'rini jinoiy yo'l bilan topilgan har qanday mulkni olishga ishontirgan bo'lsa, bunday shaxs o'zganing mulkini talon-toroj qilishning ishtirokchisi deb hisoblanadi.

Jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish jinoyatining **subyekt**i 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Mansabdor shaxs o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olsa yoki o'tkazsa, uning qilmishi jinoyatlar jami bo'yicha **JK 171-moddasi** va Jinoyat kodeksida hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilganlik uchun javobgarlik belgilangan 205-modda bilan kvalifikatsiya qilinadi.

JK 171-moddasi 2-qismida javobgarlikni og'irlashtiruvchi quyidagi holatlar belgilangan:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa.

JK 171-moddasi 3-qismida:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab mulkning jinoiy yo'l bilan topilganligini bila turib, uni oldindan va'da bermagan holda olish yoki o'tkazish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Mazkur holatlarni biz yuqorida ko'rib chiqqanligimiz sababli ularga to'xtalmaymiz.

3-§. Mulkni qo‘riqlashga vijdotsiz munosabatda bo‘lish (JK 172-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** aybdor shaxsga ishonib topshirilgan yoki uning muhofazasida turgan o‘zganing mulkini xavfsizligini, saqlanishini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat shaxsning mulkni qo‘riqlashga vijdotsiz munosabatda bo‘lishi natijasida mulkning talon-toroj qilinishi, unga shikast yetkazilishida yoki uning nobud bo‘lishi sababli mulk egasiga ko‘p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lishida va bu qilmishda mansabdorlik jinoyatlarining alomatlari yo‘qligida ifodalanadi.

Vijdotsizlarcha munosabatda bo‘lish — bu mulkni qo‘riqlash bo‘yicha vazifalarni bajarmaslik (masalan, qorovulning o‘z qo‘riqlash navbatiga kelmasligi yoki qo‘riqlanayotgan mulkni tashlab ketishi) yoki mulkni qo‘riqlash bo‘yicha tegishli bo‘lmagan majburiyatlarni bajarishdir.

Shaxsning harakatlarini tahlil qilinayotgan modda bo‘yicha kvalifikatsiya qilish uchun shaxsning mulkni qo‘riqlash yuzasidan o‘z majburiyatlarini bajarishga vijdotsiz munosabatda bo‘lishi va uning talon-toroj qilinishi, ko‘p miqdorda zarar yetkazilishi natijasida unga shikast yetkazilishi yoki uning nobud qilinishi o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish mavjudligini aniqlash zarur. Agar sababiy bog‘lanish bo‘lmasa, shaxsni **JK 172-moddasi** bo‘yicha javobgar qilib bo‘lmaydi.

Ishonib topshirilgan mulkning **talon-toroj qilinishi** deganda, mulkning bir qismini tashkil etuvchi alohida predmetlar (masalan, ehtiyot qism va motor) yoki muhofazada turgan mulkni tashkil etuvchi predmetlarning butun majmuasi talon-toroj qilinganligini tushunish lozim.

Nobud qilinishi moddiy predmetga tashqi ta’sirning shunday usuliki, buning natijasida mulk o‘zining jismoniy mavjudligini yo‘qotadi yoki to‘liq ravishda maqsadli yo‘naltirilganligi bo‘yicha ishlatib bo‘lmaydigan holatga kelib qoladi. Nobud qilish — yoqib yuborish, kislotada eritib yuborish, buzish kabi mulkni to‘liq yo‘q qilishda ifodalanadi yoki mulkni shunday holatga keltirish tushuniladiki, buning natijasida u o‘zining sifat va foydalilik xususiyatlarini to‘liq yo‘qotadi. Nobud qilishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, mulk tiklash yoki ta’mirlash orqali qayta tiklanmaydi

va xo‘jalik muomalasidan to‘liq chiqib ketadi.

Agar mulkni qo‘riqlash majburiyatini bajarayotgan vaqtda yengib bo‘lmas kuch (masalan, to‘satdan og‘ir kasal bo‘lish, yong‘in, suv toshqini, zilzila) mavjud bo‘lib, buning natijasida shaxs mulkning talon-toraj qilinishiga, zarar yetkazilishiga va yo‘q qilinishiga to‘sqinlik qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lsa, aybdor **JK 172-moddasi** bo‘yicha javobgarlikka tortilmaydi.

Subyektiv tomondan jinoyat **ehtiyotsizlikdan** sodir etiladi. Aybdor o‘z majburiyatlariga vijdotsizlarcha munosabatda bo‘lishi natijasida mulk talon-toraj qilinishi, shikast yetkazilishi yoki nobud qilinishi kabi oqibat kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko‘ra biladi va bila turib o‘z majburiyatlarini bajarmaydi yoki bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga ishonib, to‘liq ravishda bajarmaydi yoxud oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini ko‘ra bilmaydi.

Jinoyatning **motiv** va **maqsadi** kvalifikatsiyaga ta’sir qilmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy, mulkni qo‘riqlash vazifalarini bajarayotgan shaxs hisoblanadi.

Mansabdor shaxs mulkni muhofaza qilish bo‘yicha o‘z vazifalariga loqaydlik yoki vijdotsizlarcha munosabatda bo‘lib, ularni bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi natijasida ko‘p miqdorda zarar yetkazilgan bo‘lsa, ish holatlariga qarab uning qilmishi JK 207-moddasi (Mansabga sovuqqonlik bilan qarash) yoki JK 208-moddasi (Hokimiyat harakatsizligi) bilan kvalifikatsiya qilinadi.

4-§. Mulknı qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (JK 173-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyeksi** o‘zganing mulkini muhofaza qilish va xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Ushbu jinoyat **predmeti** ko‘chmas (binolar, inshootlar) va ko‘char mulklar bo‘lishi mumkin.

Obyektiv tomondan jinoyat o‘zganing mulkini qasddan nobud qilish yoki unga ancha miqdorda zarar yetkazishda ifodalanadi.

(«O‘zganing mulkini nobud qilish», «mulkka zarar yetkazish» tushunchalari haqida JK 172-moddasi tahliliga qarang.)

Mulknı qasddan nobud qilganlıgı yoki unga zarar yetkazganlıgı uchun shaxsni jinoiy javobgarlıkka tortıshda sodır etilgan harakat va ko‘rilgan zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlikning mavjudlıgını aniqlash zarur.

Mulknı qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish mulk ancha miqdorda nobud qilingan yoki unga zarar yetkazilgan paytdan e‘tiboran **tamom bo‘lgan** jinoyat deb hisoblanadi.

Ancha miqdordagi zarar deganda, eng kam oylik ish haqining o‘ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo‘lgan miqdordagi zarar tushuniladi.

Subyektiv tomotdan jinoyat **to‘g‘ri qasd** bilan ham, **egri qasd** bilan ham sodır etiladi. Uni kvalifikatsiya qilish uchun jinoyatni sodır etish **motivi** va **maqsadining** ahamiyati yo‘q, lekin o‘xshash jinoyatlardan (terrorizm, qo‘poruvchilik, bezorilik va boshqalar) farqlash imkoniyatini beradi.

Jinoyatning **subyektı JK 173-moddasi 1-qismi** bo‘yicha 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs bo‘ladi. **JK 173-moddasi 2, 3-qismlarida** ko‘rsatilgan jinoyatning kvalifikatsiya qilingan tarkibi bo‘yicha jinoiy javobgarlik 14 yoshdan kelib chiqadi.

Agar mulknı qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish:

- a) millatlararo yoki irqiy adovat yoxud diniy taassublar zamirida;
- b) atrofdagilar uchun xavfli usulda;

v) ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda sodır etilgan bo‘lsa, aybdorning qilmishlari **JK 173-moddasi 2-qismi** bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Shuni ta‘kidlash zarurki, millatlararo yoki irqiy adovatni nafaqat shaxsning muayyan millat yoki irqqa tegishliligi bilan, shuningdek, insoniyat faoliyatining turli sohalarida aks etuvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan turli xil madaniyat, ijtimoiy va boshqa guruhlariga (qabila, urug‘) tegishliligi bilan ham ifodalash mumkin.

Diniy taassublar — bu shaxsning muayyan guruh, diniy yo‘nalish, konfessiya vakillarining norasoligi, cheklanganligi, zararliligi to‘g‘risidagi obyektiv asosga ega bo‘lmagan ichki tasavvuri. Odatda, ushbu tasavvurlar diniy fanatizm, diniy g‘oyalarni noto‘g‘ri tushunish, zarur diniy madaniyatning mavjud emasligi bilan asoslanadi.

Atrofdagilar uchun xavfli usulda deganda, mol-mulknı nobud qilish yoki unga zarar yetkazishga qaratilgan harakatlarni sodır etishda katta tabiiy ofat va vayronalik yuz berishi xavfini keltirib chiqarish va

insonlarning qurbon bo'lishi, inson sog'lig'i uchun xavfli holatning vujudga kelishiga sabab bo'luvchi usullardan foydalanish tushuniladi. Ularga mulkka o't qo'yish, uni portlatish, cho'ktirib yuborish, hayvonlarni zaharlash, transport halokatlarini uyushtirish va hokazo usullarni qo'llash kiradi.

Masalan, jinoyatchi ovloq joyda jabrlanuvchining mashinasini yondirib yuboradi va bunda atrofdagilar uchun xavfni vujudga keltirmaydi.

Agar aybdorning qasddan o'zganing mulkini nobud qilish yoki unga zarar yetkazish bilan bog'liq harakatlari natijasida fuqarolarning sog'lig'i yoki hayotiga zarar yetkaziladigan bo'lsa, aybdorning harakatlarini **JK 173-moddasi 2-qismining «b» bandi** va JKning Maxsus qismi alohida moddalari bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilish lozim.

JK 173-moddasi 3-qismida:

a) xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsning yoki uning yaqin qarindoshlarining mulkiga nisbatan;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab mulkni nobud qilganlik yoki zarar yetkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Bu kvalifikatsiya qilish belgilarini biz yuqorida ko'rib chiq- qanmiz.

Agar o'zganing mulkini nobud qilish yoki unga zarar yetkazish talon-toroj qilish jarayonida sodir etilgan bo'lsa, mazkur harakatlarni talon-toroj uchun o'rnatilgan maxsus javobgarlik normasi bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinadi.

JK 173-moddasining 4-qismida rag'batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo'lib, unga muvofiq «yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi».

«O'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

Mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish deganda nima tushuniladi? Bu jinoyat obyektiv va subyektiv tomonining o'ziga xos xususiyatlari.

1. Mulkni nobud qilish yoki unga zarar yetkazish deganda nima tushuniladi?

2. Mulknı qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazganlık uchun jinoiy javobgarlıkka tortishning zaruriy shartlari.

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Вайнер Л. Уголовная ответственность за причинение ущерба государству или общественной организации путем обмана или злоупотребления доверием при отсутствии признаков хищения: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. — М.: 1977.

Иваник Н. Ответственность за приобретение или сбыт имущества, заведомо добытого преступным путем. — М.: 1977.

Кабулов Р. Понятие хищения чужого имущества и его отграничение от смежных составов преступлений. Учебное пособие.— Т.: Академия МВД Республики Ўзбекистон, 1997. — 133 Б.

Колышкина В.Ф. Уголовная ответственность за уничтожение или повреждение имущества: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. — М.: 1977.

Колышкина В.Ф. Формы вины квалифицированного уничтожения и повреждения имущества // Пути повышения эффективности борьбы с преступностью. — Барнаул: Алтайский университет, 1983.


Ilmiy maqolalar

Иваник Н. Объект приобретения или сбыта имущества, заведомо добытого преступным путем. — Ученые записки Сар. ЮИ, 1965, № 12.

Salayev N.S. Penitentsiar tizimning profilaktik funksiyasi samaradorligini oshirishda rag‘batlantiruvchi normalarning ahamiyati (milliy va xorijiy mamlakatlar tajribasining qiyosiy tahlili) // O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiyasining axborotnomasi. – 2017. № 1. – B. 60-65.

III BOB. IQTISODIYOT ASOSLARIGA QARSHI JINOYATLAR

4-sxema



1-§. O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzish (JK 175-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asoslari, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy tizimini bir maromda faoliyat olib borishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar.

Obyektiv tomondan jinoyat respublika manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan, naf keltirmasligi ayon bo'lgan bitimning tuzilishida ifodalanadi.

Bitim deb, fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytiladi.

Tuzilgan bitimning shakli qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi, ammo aybdorga jazo tayinlashda sud tomonidan inobatga olinishi lozim.

Bitim tuzish — bu bitimning barcha shartlari bo'yicha shaxs (taraf)ning o'z erkini qonunda nazarda tutilgan tarzda ifodalashidir.

Kuyidagi ikki shartga rioya qilgandagina bitim tuzilgan hisoblanadi:

1) bitimning barcha shartlari bo'yicha erk-iroda ifodalangan bo'lishi kerak;

2) erkning ifoda etilish shakli bitimlarga qo'yilgan barcha talablarga javob berishi kerak.

Ko'yilgan talablarga rioya qilinganda bitim tuzilgan hisoblanadi, aks holda bitim haqida gapirishga hojat ham yo'q. Agar erk qonunda nazarda tutilganidan boshqacha shaklda ifodalansa va bitimni ro'yxatdan o'tkazish (masalan, ko'chmas mulk oldi-sotdisi bilan bog'liq shartnomalar) talabiga rioya etilmagan bo'lsa, uni tuzilgan deb bo'lmaydi, chunki u haqiqiy hisoblanmaydi, ya'ni fuqarolik huquq va majburiyatlarini yuzaga keltirmaydi, o'zgartirmaydi va tugashiga olib kelmaydi. Bunday holda aybdorning harakatlarini JK 25-moddasi 2-qismi va 175-moddasi 1-qismi (javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar bo'lmaganda) bo'yicha JK 175-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishga suiqasd qilish deb kvalifikatsiya qilinadi.

Naf keltirmaydigan bitim deganda, shartlari davlat manfaatlariga zid keluvchi bitimni tushunish zarur (masalan, mahsulot yetkazib berish bahosining aniq pasaytirilganligi yoki mahsulotni olish, uni transportda tashish narxlarini aniq oshirib ko'rsatish; davlat mulkini tasarruf qilishda past narxlash, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sanksiya qo'llagan rezidentlar bilan savdo operatsiyalarini amalga oshirish va hokazolar)¹.

O'zbekiston Respublikasi manfaatlari deganda, samarali bozor

iqtisodiyotini yaratish, mulkiy va ashyoviy munosabatlarni, umummilliy qadriyatlarni himoya qilish, tovar mustaqilligiga erishish va shu kabilar tushuniladi. Ko'rsatib o'tilgan manfaatlar bitimlarni tuzishga alohida talablar belgilangan qonunchilikda aks ettirilgan va mustahkamlangan, shu jumladan bu savdo operatsiyalarini o'tkazish va tuziladigan tashqi iqtisodiy bitimlarga ham taalluqli.

Jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga xilof ravishda bitim tuzilishi natijasida ko'p miqdorda zarar yetkazilishi hisoblanadi.

Ko'p miqdordagi zararni aniqlashda «zarar» tushunchasi jinoiy qilmishdan ko'rilgan zararnigina o'z ichiga olishini nazarda tutish lozim.

Zarar miqdorini aniqlashda O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitim tuzish sababli boy berilgan naf e'tiborga olinmaydi.

Agar bitim tuzilishi natijasida respublika manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yetkazilgan bo'lsa, jinoyat **tugallangan** deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat faqat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Mansabdor shaxs bitim tuzilgunga qadar uning Respublika manfaatlari uchun naf keltirmasligini bilishi kerak.

Bitimning O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga zid tuzilganligi ishga tegishli mutaxassislar jalb qilinib aniqlanishi lozim¹.

Agar mansabdor shaxs o'zining xizmat vazifasiga sovuqqonligi natijasida shunday bitim tuzsa, uning xatti-harakati JK 207-moddasiga binoan (mansabga sovuqqonlik bilan qarash) kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyatning **motiv** va **maqsadi** har xil bo'lishi mumkin, ammo u kvalifikatsiyaga ta'sir qilmaydi. Agar jinoyat sodir etilishiga aybdorda g'araz yoki boshqa past niyatlar bo'lganligi aniqlansa, bunday jinoyatni kvalifikatsiya qilishda Jinoyat kodeksining hokimiyat va mansab mavqeidan foydalanib sodir etiladigan tegishli jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilovchi moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi. Masalan, agar sharhlanayotgan jinoyat pora olish evaziga sodir etilgan bo'lsa,

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жинойий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 118-б.

aybdorning harakatlari jinoyatlar majmui tariqasida **JK 175** va 210-modda (Pora olish)lari bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Agar aybdor bitim tuzishi bilan O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligiga putur yetkazmoqchi ekanligi aniqlansa, uning harakatlari JK 157-moddasi bilan davlatga xoinlik qilish sifatida qo'shimcha kvalifikatsiya qilinadi.

Sharhlanayotgan jinoyatning **subyekt** JK 175-moddasida ko'rsatilgan davlat organi, mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar, muassasa, tashkilot yoki jamoat birlashmasining faqat mansabdor shaxslari bo'lishi mumkin.

(«Mansabdor shaxs» tushunchasi haqida JK 205-moddasi tahliliga qarang.)

Davlat organi deganda, davlatning jamiyat ustidan rahbarlik qilishida vujudga kelgan masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan hokimiyat vakolatlari va vositalari bilan ta'minlangan davlat mexanizmining tashkillashgan qismini tushunish zarur. Davlat organi sifatida bitta mansabdor shaxs yoki mansabdor shaxslarning tashkillashgan guruhi bo'lishi mumkin.

Korxonalar — yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan, mulkchilik huquqi yoki xo'jalikni to'la yuritish huquqi bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan yoki mahsulotni ayirboshlaydigan, ishlarni bajaradigan, xizmat ko'rsatadigan, mulkchilikning barcha shakllarida teng huquqlilik asosida amaldagi qonunlarga muvofiq o'z faoliyatini amalga oshiradigan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi¹.

Muassasa boshqaruv, ijtimoiy-madaniy yoki boshqa notijorat vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilot hisoblanadi².

Tashkilot deganda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil qilingan har qanday tijorat yuridik shaxs, shuningdek, xorijiy

¹Мазкур таъриф-тушунча ҳозирги кунда ўз кучини йўқотган Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 15 февралдаги «Ўзбекистон Республикасидаги корхоналар тўғрисида»ги 229-ХП-сон Қонунининг 1-моддасидан олинган. Фикримизча, кўрсатилган норматив ҳужжатнинг бекор қилинишига қарамасдан, таъриф ўзининг долзарблигини йўқотмади.

²Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 76-моддаси.

yuridik shaxslar, kompaniyalar hamda fuqarolik huquq layoqatiga ega va xorijiy davlatlar qonunchiligiga muvofiq tuzilgan boshqa korporativ uyushmalar tushuniladi.

Jamoat birlashmalari ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalari hisoblanadi. Bunga o'smirlar, yoshlar, nogironlar, ilmiy, texnikaviy, madaniy, sport va boshqa fuqarolar birlashmalari misol bo'la oladi. Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, o'smirlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi¹.

Shaxsga bitimlarni tuzish bo'yicha qonunda belgilangan tartibda vakolat berilgandagina uni javobgarlikka tortish mumkin. Aks holda uning harakatlarini **JK 175-moddasi** bo'yicha kvalifikatsiya qilish mumkin emas. Agar etarli dalillar bo'lsa, aybdor shaxs bu bitimdan manfaatdor bo'lsa, uning harakatlari firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

JK 175-moddasi 2-qismida O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitim tuzishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxs qilmishni:

- a) takroran;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

JK 175-moddasining 2-qismi «a» va «b» bandlarida ko'rsatilgan alohida kvalifikatsiya qilinadigan belgilar oldin sharhlangan bosqinchilik belgilarini takrorlaydi va ushbu jinoyatga nisbatan hech qanday maxsus o'ziga xos xususiyatlarga ega emas.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1991 йил 15 февралдаги «Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида»ги 223-ХП-сон Қонуни, 1-модда //Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1991 й., 4-сон, 76-модда; 1992 й., 9-сон, 363-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 4—5-сон, 126-модда; 1998 й., 3-сон, 38-модда; 2004 й., 1—2-сон, 18-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 51-сон, 514-модда; 2008 й., 52-сон, 513-модда; 2009 й., 37-сон, 403-модда.

Sharhlanayotgan moddaning 3-qismiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitim tuzish:

a) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa javobgarlik yuzaga keladi.

Sharhlanayotgan moddaning 4-qismiga muvofiq, yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, shaxs jazodan ozod etiladi.

2-§. Qalbaki pul, Aksiz markasi yoki qimmatli qog‘ozlar yasash, ularni o‘tkazish (JK 176-moddasi)

Qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlar yasash, ularni o‘tkazishning **ijtimoiy xavfiligi** qog‘oz pul yoki qimmatli qog‘ozlar ko‘payib ketishiga, ya’ni pul va tovar massasi o‘zaro mutanosibligining buzilishiga sabab bo‘ladi. Muomalada tovar bilan ta’minlanmagan qog‘oz pullar paydo bo‘ladi, bu esa pulning qadsizlanishiga, iqtisodiy beqarorlikka sabab bo‘ladi, davlat iqtisodiyotining asoslariga putur yetkazadi.

Jinoyatning **bevosita obyekti** davlatning pul va kredit tizimi hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning normal faoliyat olib borishini ta’minlovchi munosabatlar.

Jinoyatning **predmeti** bank biletlari (banknotlar), ya’ni puldir. O‘zbekiston Respublikasining pul birligi so‘m, shuningdek, metall tangadir. Jinoyatning predmeti O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank biletlari (banknotlar), shuningdek, metall tangalar, Aksiz markalar, O‘zbekiston Respublikasi valutasidagi qimmatli qog‘ozlar, chet el valutasida, chet el valutasidagi qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»¹ 154-1-son Qonunining 32-moddasiga ko‘ra bank bileti hisoblangan so‘m pullar (so‘mlar) — 1 so‘mdan 1000 so‘mgacha bo‘lgan shaklda muomalaga kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasining har qanday **metall tangalari**, shu

¹Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й., 12-сон, 247-модда; 1998 й., 9-сон, 181-модда; 1999 й., 5-сон, 124-модда; 2001 й., 1-2-сон, 23-модда; 2003 й., 1-сон, 8-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 51-сон, 514-модда; 2006 й., 37-38-сон, 373-модда; 2007 й., 52-сон, 533-модда; 2009 й., 15-сон, 176-модда, 37-сон, 403-модда, 39-сон, 423-модда.

jumladan oltin, kumush va platina tangalar (bu tangalar soni cheklanganligi tufayli, asosan, to'lov vositasidan ko'ra ko'proq, kolleksiya buyumi sifatida foydalaniladi).

Bank biletlari (banknotlar) O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan emissiya qilinadi.

Aksiz markalari markirovkalanishi shart bo'lgan mahsulotni ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning talabnomalari bo'yicha Aksiz markalari uchun haq to'lanib, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining hududiy organlarida ro'yxatdan o'tilganidan keyin «Agrobank»ning mintaqaviy bo'limlari tomonidan beriladi. Aksiz markasi Aksiz solig'i to'langaniga dalildir. Aksiz markalari qat'iy hisobda turadigan blanklar hisoblanadi.

FK 96-moddasiga muvofiq, «mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar **qimmatli qog'ozlar** hisoblanib, ular taqdim etilgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo'ladi».

Qimmatli qog'ozlar jumlasiga: obligatsiyalar, veksellar, cheklar, depozit va jamg'arma sertifikatlari, bankning taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg'arma daftarchasi, konosament, aksiya hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qog'ozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 7 mayda qabul qilingan «Valutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, **chet el valutasini** jumlasiga tegishli xorijiy davlatda muomalada bo'lgan va qonuniy to'lov vositasi hisoblangan banknot ko'rinishdagi chet el pullari, shuningdek, muomaladan chiqarilgan yoki muomaladagi, ammo O'zbekiston Respublikasi pul belgilariga almashtirilishi lozim bo'lgan chet el pullari; hisobvaraqlarda va omonatlarda bo'lgan xorijiy davlatlarning pul birliklaridagi va xalqaro hisob-kitob birliklaridagi mablag'lar kiradi.

Chet el valutasidagi qimmatli qog'ozlar — chet el valutasidagi fond boyliklari (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar), chet el valutasidagi to'lov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditivlar va boshqalar), shu jumladan yo'l cheklaridir.

Obyektiv tomondan jinoyat o'tkazish maqsadida qalbaki bank biletlari

(banknotlar), metall tangalar, Aksiz markalar, qimmatli qog‘ozlar yoxud chet el valutasida yoki chet el valutasidagi qimmatli qog‘ozlar yasashda va ularni o‘tkazishda ifodalanadi.

NOTA BENE !

Qalbaki biletlar yoki qimmatli qog‘ozlar **yasash** (soxta pul yasash) deganda, mazkur narsalarni to‘la yasash yoxud haqiqiy qog‘oz pullar yoki qimmatli qog‘ozlarga qisman o‘zgartirishlar kiritish (shu narsalarning raqamlarini yoki boshqa zaruriy qismlarini o‘zgartirish) tushuniladi.

Qalbaki biletlar yoki qimmatli qog‘ozlarni yasash usullari har xil bo‘lishi mumkin. Bu fotosuratlar, kompyuter texnikasidan foydalanish, chizish, matbaa yo‘li bilan pul yoki qimmatli¹ qog‘ozlarni bosma usulda chiqarish va h.k. usullari bo‘lishi mumkin. Jinoyatning kvalifikatsiyasi uchun uni sodir etish usullarining ahamiyati yo‘q.

Biroq, qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlarning barcha o‘lchamlari, zaruriy belgilari, ya‘ni rekvizitlari haqiqiysiga chindan ham o‘xshash bo‘lishi jinoyatni kvalifikatsiya qilishning zaruriy sharti hisoblanadi. Aks holda, aybdorning harakatlarini ko‘rib chiqilayotgan modda bo‘yicha kvalifikatsiya qilish mumkin emas. Masalan, shaxsning jurnaldan yangi pulning namuna nusxalarini qirqib olib, ularni yopishtirib sotishga urinishini qalbaki pul yasash yoki ularni o‘tkazish deb bo‘lmaydi.

Bunday qilmish muayyan sharoitda firibgarlik deb baholanishi mumkin. Chunki bunday pullar muomalada bo‘la olmaydi va davlatning pul-kredit tizimi asoslariga putur yetkazmaydi.

Pul birliklari, Aksiz markalari, qimmatli qog‘ozlarni to‘la yoki qisman qalbakilashtirish (nominalini o‘zgartirish, Aksiz marka va qimmatli qog‘ozlarning rekvizitlarini o‘zgartirish) mumkin. Qalbakilashtirish shakli kvalifikatsiyaga ta‘sir etmaydi, ammo jazo tayinlashda sud tomonidan inobatga olinishi mumkin.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 7 майдаги «Валютани тартибга солиш тўғрисида»ги 841-ХП-сон Қонуни (Янги тахрири) (Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги 556-11-сон Қонуни билан тасдиқланган), 3-модданинг 2-қисми // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 5-сон, 225-модда; 1994 й., 11-12-сон, 285-модда.

Qalbaki pul yoki qimmatli qog'ozlar yasash, agar ularni o'tkazish maqsadi borligi aniqlansa, loaqal bir nusxa yasalgan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat hisoblanadi.

O'tkazish deganda, ularni muomalaga kiritish, ya'ni ulardan to'lov, ayirboshlash, hadya qilish vositasi sifatida foydalanish va shu narsalarning muomalada bo'lishiga imkon beradigan boshqa harakatlarni sodir etish tushuniladi. Aybdorning qalbaki pullar yoki qimmatli qog'ozlarga jismoniy, yuridik shaxslar yoki davlatga tegishli bo'lgan mulkni sotib olishini jinoyatning qalbaki predmetlarini o'tkazish deb hisoblash lozim. Qalbakilashtirilganligi oldindan ma'lum bo'lgan predmetlarni keyinchalik haqiqatda o'tkazish uchun olish **JK 176-moddasida** ko'zda tutilgan jinoyatni sodir etishga jinoiy jazolanadigan tayyorgarlik ko'rishni vujudga keltiradi (JK 25-moddasi 2-qismi).

Bir dona bo'lsada, qalbaki predmet qabul qilingan yoki haqiqiy pul belgisi, Aksiz marka yoki qimmatli qog'oz sifatida foydalanilgan vaqtdan boshlab jinoyat **tugallangan** hisoblanadi. O'tkazilgan paytida qalbakilashtiruvchi shaxsning aldovi fosh etilishi (basharti bu shaxs uni tayyorlash bilan shug'ullanmagan bo'lsa) jinoyat sodir etishga suiqasdni tashkil etadi.

Qalbaki pul birliklarining muomalaga kiritilishi natijasida nafaqat davlatning pul-kredit tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatiladi, balki o'zgalarning mulkiga (berilgan tovar va ko'rsatilgan xizmat uchun haq sifatida, ayirboshlashda, qarz berishda, oldi-sotdida va boshqalar) ham zarar yetkaziladi. Bunday hollarda, jinoyatni faqatgina **JK 176-moddasi** bilan javobgar qilish yetarli, o'zganing mulkini talon-toroj qilish uchun javobgarlik belgilangan moddalar bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi.

Agar qalbakiligi aybdorga ayon bo'lgan valuta qimmatliklari ko'rinishidagi, pul muomalasida qo'llanishini istisno qiladigan darajada haqiqiysiga ro'y-rost o'xshamaydigan kupyuralar o'tkazilgan bo'lsa, shuningdek, aybdorda jabrlanuvchini qo'pol ravishda aldash niyati bo'lganligidan guvohlik beruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa bunday qilmish Jinoyat kodeksi 176-moddasining tegishli qismi bo'yicha

kvalifikatsiya qilinib, Jinoyat kodeksining 168-moddasi (Firibgarlik) bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi. Pul-buyum lotereya biletlari va boshqa hujjatlarni ishlab chiqarish, qalbakilashtirish yoki ularni o‘tkazish **JK 176-moddasi** bilan javobgarlikni yuzaga keltirmaydi. Pul-buyum lotereya biletlari va boshqa hujjatlarni qalbakilashtirish yoki ularni o‘tkazganlik uchun JK 168-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortilishi kerak.

Subyektiv tomondan jinoyat **to‘g‘ri qasd** bilan sodir etiladi. O‘tkazish maqsadining borligi qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlar yasashning zaruriy belgisidir.

O‘tkazish **maqsadining** borligi qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlar yasashning zaruriy belgisidir. Shaxs qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlarni o‘tkazish maqsadida emas, aytaylik, o‘zi uchun, masalan, o‘z qobiliyati mahoratini ko‘rsatish va h.k. uchun yasagan hollarda uning harakatlari jinoiy qilmish hisoblanmaydi.

Qalbaki pullar yoki qimmatli qog‘ozlarni o‘tkazish faqat to‘g‘ri qasd bilan sodir etilishi mumkin. Aybdor shaxs qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlarni o‘tkazayotganini oldindan bilgan bo‘lishi kerak, agar u soxta pul yoki qimmatli qog‘ozlarni o‘tkazayotganligini bilmagan bo‘lsa, uning harakatlarida jinoyat tarkibi bo‘lmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to‘lgan, har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

JK 176-moddasi 2-qismida:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) ko‘p miqdorda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan, o‘tkazish maqsadida qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlar yasaganlik yoki ularni o‘tkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

JK 176-moddasi 3-qismida:

- a) juda ko‘p miqdorda;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

3-§. Valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish (JK 177-moddasi)

JK 177-moddasi 4-qismida rag'batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra tayyorgarlik ko'rilayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyat haqida o'z ixtiyori bilan arz qilgan va jinoyatni ochishga faol yordam bergan shaxs javobgarlikka tortilmaydi.

Tahlil qilinayotgan jinoyatning **ijtimoiy xavfliligi** shundaki, valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish bilan aybdor milliy valutaning barqarorligiga ta'sir qilib, inflyatsiya jarayonining keskinlashuvi uchun shart-sharoit yaratadi. Bundan tashqari, «valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish va o'tkazish O'zbekiston Respublikasining valuta yakka hukmronligiga putur yetkazadi, ular ko'pincha talon-toroj qilish, poraxo'rlik, bojxona qonunchiligini buzish kabi jinoyatlar bilan bog'liq bo'ladi».

Jinoyatning **bevosita obyekti** davlatning iqtisodiyot asoslarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyatning **predmeti** «valuta qimmatligidir».

O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda qabul qilingan «Valutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonuni (Yangi tahriri) 3-moddasiga binoan quyidagilar **valuta qimmatliklariga kiritiladi: chet el valutasini** — muomalada bo'lgan hamda xorijiy davlatda qonuniy to'lov vositasi hisoblangan banknotlar, xazina biletleri va tangalar ko'rinishidagi chet el pul belgilari, muomaladan chiqarilgan yoki chiqarilayotgan hamda xuddi shu xorijiy davlatning pul belgilariga almashtirilishi lozim bo'lgan chet el pul belgilari, shuningdek, hisobvaraqlarda va omonatlarda bo'lgan xorijiy davlatlarning pul birliklaridagi hamda xalqaro pul yoki hisobkitob birliklaridagi mablag'lardir;

chet el valutasidagi qimmatli qog'ozlar — qiymati chet el valutasida ifodalangan pul hujjatlaridir (aksiyalar, obligatsiyalar va hokazolar);

chet el valutasidagi to'lov hujjatlari (chek, veksell, akkreditiv va boshqalar), shuningdek, ularga yo'l cheklari ham kiradi.

sof quyma oltin — sanoat usulida tozalangan va ishlov berilgan, tarkibida boshqa elementlar aralashmasi bo'lmagan yoki qabul qilingan

me'yorlarga muvofiq kam miqdorda bo'lishiga yo'l qo'yiladigan oltindir. O'zbekiston Respublikasi davlat standartlari yoki xorijiy davlat standartlariga muvofiq quyma shakl berilgan tozalangan oltingina jinoyat predmeti bo'la oladi.

Oltindan yasalgan zargarlik va maishiy buyumlar, shu bilan birga oltin lom va ularning parchasi jinoyat predmeti bo'la olmaydi. Shuningdek, ko'rinishi va holatidan qat'i nazar, boshqa qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar (shu jumladan sun'iy toshlar ham) sharhlanayotgan qilmish predmeti bo'la olmaydi.

Oltin, kumush, platina va platina guruhiga kiruvchi metallardan (palladiy, iridiy, rodiy, ruteniy va osmiydan) yasalgan, asillik darajasiga ega bo'lgan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tamg'alanishi lozim bo'lgan buyumlar **qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik buyumlari** hisoblanadi¹.

Olmos, la'l, sapfir, zumrad, aleksandrit va dur ishlatib yasalgan bezak predmeti qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik buyumlari hisoblanadi. Qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik buyumlari amaldagi qonunchilikka muvofiq tamg'alanishi shart emas.

Qimmatbaho metal (tosh)lardan yasalgan ro'zgor buyumlari — bu kundalik faoliyatda uchraydigan metall (tosh)dan yasalgan va doimiy ishlatiladigan buyumlar. Bularga soat, portsigar, yozuv qurollari va boshqalar kiradi.

Davlat tamg'asi bor yoki yo'qligidan qat'i nazar sanoat yoki hunarmandchilik uslubi bilan qimmatbaho metallardan va tabiiy qimmatbaho toshlardan tayyorlangan buyumlarni qimmatbaho metallardan va tabiiy toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa ro'zg'or buyumlari qatoriga kiritish lozim².

«Valutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonun tahlili shuni ko'rsatib

¹ Qarant: Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 7 декабрдаги «Қимматбаҳо металлдан ясалган буюмларнинг асиллик даражаси ва тамғаланиши тўғрисида»ги 317-11-сон Қонуни, 4-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 й., 1-сон, 17-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳуж- жатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 2005 й., 37-38-сон, 277-модда.

² Qarant: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 28 апрел- даги «Валюта қимматликларини қонунга ҳилоф равишда олиш ёки ўтказишга доир ишлар юзасидан суд амалиёти тўғрисида»ги 8-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 2-жилд. — 19-б.

turibdiki, ishlab chiqarish va laboratoriyalarga mo'ljallangan har qanday ashyolar, yarimfabrikatlar va shunga o'xshash qismlar, ishlab chiqarish chiqindilari (opilkalar, qirindilar, shlamlar va boshqalar), shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida muomalada bo'lgan qimmatli metallardan tanga shaklida ishlangan «so'm» pul birligidan tashqari qimmatli metallardan tayyorlangan tangalar valuta qimmatliklariga kiradi¹.

Ishlab chiqarishga mo'ljallangan buyumlar deb, tegishli qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan tayyorlangan yoki ulardan foydalanilgan holda tayyorlangan buyumlarga, masalan, ayrim zargarlik asboblariga aytiladi.

Laboratoriyaga mo'ljallangan ashyolarga tegishli metallar yoki toshlardan yasalgan va faqat laboratoriya tadqiqotlarida ishlatiladigan asbob-uskunalar va boshqa buyumlar kiradi.

Qimmatbaho metallar va toshlardan yasalgan buyumlarning yarimfabrikatlari — bu keyinchalik yuqoridagi buyumlarni yasash uchun kerak bo'lgan qimmatbaho metallar va toshlardan iborat materiallar hisoblanadi. Xomashyodan farqli o'laroq, yarimfabrikatga bir marta ishlov berilgan bo'ladi, ya'ni alohida ishlab chiqarish operatsiyalari amalga oshirilgan bo'ladi. Yarim fabrikatlarni to'yintirilgan xom ashyodan farqlash lozim. To'yintirilgan xomashyo ishlab chiqarish operatsiyalariga tegishli bo'lmay, rudani qimmatbaho metall yoki toshlardan tozalash imkoniyatini beruvchi texnologiya mahsulidir. Yarimfabrikatlarga, masalan, jihozlar ishlab chiqarilishida sarf bo'ladigan elementlar kiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan buyumlar uchun **detallar** o'sha buyumlardan samarali foydalanishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, detallar ishlov berilgan yarimfabrikat sifatida o'tmaydi.

Ishlab chiqarish chiqindilari (opilkalar, qirindilar, shlamlar va boshqalar) — bu ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish jarayonida qimmatbaho metallar va toshlardan olingan chiqindilar bo'lib, keyinchalik ishlov bermasdan ulardan foydalanib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida muomalada bo'lgan qimmatli metallardan tanga shaklida ishlangan «so'm» pul birligi valuta qimmatligi

¹Ўша жойда.

sanalmaydi. Shuningdek, purkalgan oltin va kumush, tish protezlarini yasashda ishlatiladigan qoliplar valuta qimmatliklariga kirmaydi.

Qimmatbaho metall va toshlardan yasalgan qurol, orden, nishonlar mazkur jinoyat predmeti deb baholanmaydi.

Ilmiy-texnikaviy rivojlanish natijasida alohida turdagi sun'iy qimmatbaho toshlarni ko'p miqdorda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish imkoni yuzaga keladi. **Sun'iy qimmatbaho tosh** — bu birorta qimmatbaho toshga yaqin, unga o'xshaydigan minerallardan inson ishlov berishi natijasida («o'stirilgan», «eritmadan tortib olingan» yoki boshqa usulda) yaratilgan toshdir. Bunday toshlar sifat jihatdan haqiqiy toshdan ham chiroyli ko'rinib, juda ko'p miqdorda ishlab chiqariladi. **Obyektiv tomondan** jinoyat shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin fuqarolarning qonunga xilof ravishda ancha miqdorda valuta qimmatliklarini olishi yoki o'tkazishida ifodalanadi.

NOTA BENE !

Qonunga xilof ravishda **olish** deganda, valuta qimmatliklarini banklarni chetlab (masalan, chet el valutasini chayqov bozoridan) sotib olishni tushunish lozim. Bunday qimmatliklarni vaqtinchalik saqlash, sovg'a qilish yoki boshqa beg'araz usullar orqali valuta qimmatliklarini olish (masalan, meros olish natijasida) mazkur modda mazmunini tashkil qilmaydi.

Agar aybdor valuta qimmatliklarini tovlamachilik, talonchilik, o'zlashtirish yoki rastrata, firibgarlik, o'g'irlik, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan, pora olish, pora olib berishda vositachilik qilish, pora evaziga og'dirish, qimmatbaho valuta bilan rag'batlantirishdan qo'lga kiritgan bo'lsa, tergov va sud organlari ularning xatti-harakatlarini Jinoyat kodeksining ana shunday jinoyatlar uchun javobgarlikni ko'zda tutuvchi moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilishi lozim va JK 177-moddasi bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi.

NOTA BENE !

Qonunga xilof ravishda o‘tkazish deganda, valuta qimmatliklarini bank muassasalaridan chetda sotish yoki almashtirishni tushunish kerak.

Valuta qimmatliklarini sotish, almashtirish, u orqali xizmatlar uchun haq to‘lash, mehnat shartnomasi bo‘yicha haq to‘lash ham o‘tkazish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Valuta qimmatliklari bilan bog‘liq boshqa bitimlar (meros qoldirish, omonat saqlash, qarzga, qarz o‘rniga berish) **JK 177-moddasi** nazarda tutuvchi javobgarlikni vujudga keltirmaydi. Agar yuqoridagi harakatlar valuta qimmatliklarini olish uchun amalga oshirilgan bo‘lsa, aybdorning qilmishi **JK 177-moddasi** bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi. Valuta qimmatliklarni pora sifatida berish ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish deb topilmaydi.

Valuta qimmatliklarini konunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish deganda, O‘zbekiston Respublikasi hududida ushbu harakatlar sodir etilgan vaqtda valuta qimmatliklarini o‘rnatilgan tartiblarni buzgan holda sotib olish, sotish yoki almashtirish tushuniladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga naqd so‘mlarga naqd xorijiy valutani sotib olish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining valuta operatsiyalarini o‘tkazish bo‘yicha Bosh litsenziyasiga ega bo‘lgan tijorat banklarining pul almashtirish shaxobchalari orqali amalga oshiriladi¹. Shu bilan birga, qonunchilik tomonidan chet el valuta qimmatliklarini sotib olishga cheklov berilmagan, buni buzish esa, o‘z navbatida, valuta qimmatliklarini noqonuniy olish deb baholanishi mumkin.

Barcha mulk shaklidagi yuridik shaxslarning valuta almashtirish operatsiyalari ularning vakolatli banklari orqali amalga oshiriladi, banklar xo‘jalik yurituvchi subyektlar nomidan birjadan tashqari bozorda xorijiy

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 28 апрел- даги «Валюта қимматликларини қонунга хилоф равишда олиш ёки ўтказишга доир ишлар юзасидан суд амалиёти тўғрисида»ги 8-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 2-жилд. — 20-б.

valutani sotib olish bo'yicha operatsiyalar o'tkazish vakolatiga ega¹. Yuridik shaxs manfaati uchun chet el valutasini xarid qilish va sotishda belgilangan tartibga rioya qilmaslik valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish deb baholanib, qilmish **JK 177-moddasi** va mansabdorlik jinoyati bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilinadi.

Valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish sifatida O'zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan harakatlar, ya'ni tovarlar, xizmatlar, ishlar uchun chet el valutasida haq to'lash javobgarlikni vujudga keltiradi. Bunday to'lovlarni faqat qonunda belgilangan tartibda tegishli joylarda amalga oshirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida harakatlanishi taqiqlangan qimmatli qog'ozlarni olish yoki o'tkazish yoxud O'zbekiston Respublikasi hududida tegishli valuta qimmatliklarini qonun talablarini buzgan holda joylashtirish qimmatli qog'ozlarni qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi respublika sarhadlaridan tashqaridagi emitentlar chiqargan qimmatli qog'ozlarni O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga kiritishning umumiy qoidalari, har yilgi me'yorlari va tartibini belgilab qo'yadi. Bunday holda emitent hukumatning Umumiqtisodiy bo'limiga tegishli hujjatlarni yo'llashi darkor.

O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar Vazirlar Mahkamasining kvotasi bilan muayyan summada joylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi hududida emitentlar chiqargan qimmatli qog'ozlarni investitsion institutlar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari yoki ularning o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tgan va litsenziyaga ega filiallari O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi qoshidagi qimmatbaho qog'ozlar bozori Koordinatsiya va nazorat markazi orqali joylashtiradi. Qimmatbaho qog'ozlarni joylashtirishda qimmatbaho

¹ Қаранг: Биржадан ташқари валюта бозорида хорижий валютани харид қилиш ва сотиш операцияларини ўтказиш тартиби тўғрисидаги Низом (Вазирлар Маҳка- масининг 2001 йил 10 июлдаги 294-сон қарорига 2-илова) // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2001 й., 13-сон, 90-модда; 2001 й., 20-сон, 142-модда; 2002 й., 1-сон, 7-модда; 19-сон, 150-модда; 2003 й., 1-2-сон, 6-модда; 4-сон, 42-модда; 14-сон, 115-модда; 15-16-сон, 129-модда; 19-сон, 178-модда; 19-сон, 181-модда; 2004 й., 16-сон, 187-модда; 2005 й., 8-9-сон, 69-модда; 2006 й., 30-сон, 294-модда.

qog'ozlarning yagona davlat reyestridan ro'yxatdan o'tkazish lozim.

Purkaladigan oltinni qazib olish va uni quyma shaklga keltirish (qazib olingan rudadan ajratish, oltin moddasi bor boshqa metallardan ajratish, chiqindilardan ajratish) ishlari davlat ro'yxatidan o'tmasdan va tegishli ruxsatnomasiz amalga oshirilsa, jinoyat hisoblanadi.

Bo'ysunuvi, mulkchilik shakli, ilmiy, harbiy, ijtimoiy-madaniy, o'quv maqsadidan, ko'rsatadigan faoliyat turidan qat'i nazar, oltin qazib chiqaruvchi, qayta ishlovchi barcha korxonalar, tashkilot, muassasa, harbiy qurollardan qimmatbaho metallar, toshlarni ajratib oluvchi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligiga qarashli harbiy qismlar va harbiy-texnikaviy utilizatsiya (chiqindilarni qayta ishlash) ishlari bilan shug'ullanuvchi boshqa vazirlik va qo'mitalar davlat ro'yxatidan o'tishi shart. Qimmatbaho metallar va toshlar bilan operatsiyalarni yakka tartibda mehnat va yakka tartibda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham albatta davlat ro'yxatidan o'tishi shart.

Analizlar uchun kerak bo'ladigan azotkislotali kumush, tarkibida kumush bo'lgan yorug'lik sezuvchi materiallar (kinonusxa qiluvchi tashkilot va kinostudiyalardan tashqari), elektr texnikasi jihozlari, avtomatika, yig'uvchi mahsulotlar yoki detallar tarkibida mavjud qimmatbaho metallar bilan shug'ullanuvchi korxonalar va jismoniy shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi¹.

Qimmatbaho metallar va toshlarni sotish, sotib olish bilan bir martalik fuqarolik huquqiy munosabatga kiruvchi shaxslar davlat ro'yxatidan o'tmaydi. Agar ro'yxatdan o'tmasdan va ruxsatnoma olmay turib qimmatbaho metallar va toshlar oldi-sotdisi bilan shug'ullanilsa, aybdorning xatti-harakatlari jinoyatlar majmui tariqasida **JK 177-moddasi** va faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanganligi uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi JK 190-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

¹Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan operatsiyalar bajaruvchi korxonalar, muassasa, tashkilotlarni, jismoniy shaxslarni ruyxatdan utkazish tartibi tufarisidagi Iyuriknoma (Uzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1995 yil 22 mayda 144-son bilan davlat ruyxatidan utkazilgan, Uzbekiston Respublikasi Moлия vazirligi tomonidan 1995 yil 22 mayda 58-son bilan tasdiqlangan), 2-band.

Valuta qimmatliklarini, xususan, sof oltinni quyma holda, qonunga xilof ravishda xazina va topilmalarni o'zlashtirish natijasida olish noqonuniy hisoblanishi lozim.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, quyidagi tartibga rioya qilmasdan o'zlashtirilgan ashyo noqonuniy o'zlashtirilgan hisoblanadi, ya'ni yo'qolgan ashyoni topib olgan shaxs bu haqda uni yo'qotgan shaxsni yoki ashyo egasini yoxud uni olish huquqiga ega bo'lgan o'zga ma'lum shaxslardan birontasini darhol xabardor etishi hamda topilgan ashyoni shu shaxsga qaytarishi shart. Basharti, ashyo binoda yoki transportda topilgan bo'lsa, u shu binoning yoki transport vositasining egasi bo'lmish shaxsga topshirilmog'i lozim. Topilma topshirilgan shaxs ashyoni topib olgan shaxsning huquqlarini qo'lga kiritadi va uning majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi. Basharti, topilgan ashyo qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs noma'lum bo'lsa yoki uning manzili ma'lum bo'lmasa, ashyoni topib olgan shaxs topilma to'g'risida militsiyaga, tegishli davlat organlariga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga ma'lum qilishi shart. Ashyoni topib olgan shaxs uni o'zida saqlab turishga yoki saqlash uchun militsiya, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga yoxud ular ko'rsatgan shaxsga topshirishga haqlidir. Topilma to'g'risida ichki ishlar organlariga yoki tegishli davlat organiga xabar qilingan paytdan e'tiboran olti oy mobaynida yo'qolgan ashyoni olishga haqli bo'lgan shaxs aniqlanmasa hamda ashyoni topgan shaxsga yoxud ichki ishlar organlariga, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga ana shu ashyoga bo'lgan o'z huquqi to'g'risida arz qilmasa, ashyoni topib olgan shaxs unga egalik huquqini oladi.

Xazina borasida fikr yuritilganda, xazina u yashirib qo'yilgan yer uchastkasi yoki boshqa mol-mulk egasining roziligisiz qazilma ishlarini olib borgan yoki boylik qidirgan shaxs tomonidan topilgan taqdirda, bu xazina joylashgan yerdagi mol-mulkni o'zlashtirish g'ayriqonuniy bo'ladi.

Tarix va madaniyat yodgorliklari jumlasiga kiradigan, valuta qimmatliklari hisoblanadigan ashyolardan iborat xazina topilgan taqdirda, ular davlat mulkiga topshirilishi kerak. Bunda xazina yashirib qo'yilgan

yer uchastkasi yoki boshqa mol-mulkning egasi va xazinani topgan shaxs birgalikda xazina qiymatining ellik foizi miqdorida mukofot olish huquqiga egadirlar. Agar ular o'rtasidagi kelishuvda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, mukofot bu shaxslar o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

Valuta qimmatliklarni saqlash yoki jo'natish qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish deb hisoblanmaydi.

Tayyorlovchi yoki buyurtmachiga qonuniy ravishda tegishli bo'lgan, valuta qiymatligi hisoblanuvchi qimmatbaho metallar va toshlardan zargarlik buyumlarining, yasama tishlar va boshqa maishiy buyumlarning tayyorlanishi, shu jumladan bunday narsalarning qimmatbaho metallar va toshlardan hamda ularning rezgilaridan iborat boshqa zargarlik va boshqa maishiy buyumlardan tayyorlanishi valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish sifatida baholanishi mumkin emas.

Qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin fuqarolar qonunga xilof ravishda **ancha miqdorda** valuta qimmatliklarini olgan yoki o'tkazgan paytdan e'tiboran jinoyat sodir etilgan deb topiladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, chet el valutasining ancha, ko'p va juda ko'p miqdorda ekanligini belgilash masalasini hal etish tergov va sud organlari vakolatiga kiradi. Ular bu masalani bitimlar amalga oshirilgan kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan chet el valutasining O'zbekiston Respublikasi so'm birligiga nisbatan kursidan kelib chiqib hal etadilar¹.

Birinchi marotaba sodir etilgan ancha miqdordan oshmaydigan miqdordagi valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi 170-moddasida belgilangan ma'muriy javobgarlikka asos bo'luvchi ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanadi. Ammo bunday holda tergov va sud organi aybdorning maqsadiga e'tibor berishi kerak, chunki u valuta qimmatliklarini qismlab olishni o'ziga maqsad qilishi mumkin va

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 28 апрелдаги «Валюта қимматликларини қонунга хилоф равишда олиш ёки ўтказишга доир ишлар юзасидан суд амалиёти тўғрисида»ги 8-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 2-жилд. — 20-б.

qilmish kvalifikatsiyam maqsadga bog‘liqligi sabab aybdor Jinoyat kodeksining 177-moddasi bilan javobgarlikka tortiladi¹.

«Agar qalbakiligi aybdorga ayon bo‘lgan valuta qimmatliklari ko‘rinishidagi, pul muomalasida qo‘llanishini istisno qiladigan darajada haqiqiysiga ro‘y-rost o‘xshamaydigan kupyuralar o‘tkazilgan bo‘lsa, shuningdek, aybdorda jabrlanuvchini qo‘pol ravishda aldash niyati bo‘lganligidan guvohlik beruvchi boshqa holatlar mavjud bo‘lsa bunday qilmish Jinoyat kodeksi 176-moddasining tegishli qismi bo‘yicha tavsiflanib Jinoyat kodeksining 168-moddasi (Firibgarlik) bilan qo‘shimcha tavsiflash talab qilinmaydi. Qalbaki pul yoki qimmatli qog‘ozlarni olgan shaxsning qilmishi esa valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olishga suiqasd sifatida tavsiflanishi lozim.

Qalbakiligini bilmagani holda qalbaki valuta qimmatliklarini olgan va keyinchalik ularni o‘tkazgan shaxsning qilmishi valuta qimmatliklarni qonunga xilof ravishda o‘tkazish sifatida tavsiflanishi lozim»².

Bu holatda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida berilgan jinoyatni kvalifikatsiya qilish tartibi noto‘g‘ri.

Birinchidan, agar qalbakiligi aybdorga ayon bo‘lgan valuta qimmatliklari ko‘rinishidagi, pul muomalasida qo‘llanishini istisno qiladigan darajada haqiqiysiga ro‘y-rost o‘xshamaydigan kupyuralar o‘tkazilgan taqdirda aybdor aynan firibgarlik (JK 168-moddasi) jinoyati uchun javobgarlikka tortilishi lozim. Bu holatda haqiqiysiga ro‘y-rost o‘xshamaydigan kupyuralar keng ko‘lamda muomalaga kirib ketmaydi va davlatning moliya-kredit tizimiga zarar yetkazilmaydi.

Ikkinchidan, qalbakiligini bilmagani holda qalbaki valuta qimmatliklarini olgan va keyinchalik ularni o‘tkazgan shaxsning qilmishi valuta qimmatliklardan qonunga xilof ravishda o‘tkazish sifatida tavsiflanishi mumkin emas. Chunki, bu holatda shaxsning harakatlarida jinoyatning subyektiv tomoni mavjud emas hamda bu harakatlarni **JK 177-moddasi** bilan tavsiflab bo‘lmaydi.

¹ *Қаранг:* Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 28 апрел- даги «Валюта қимматликларини қонунга хилоф равишда олиш ёки ўтказишга доир ишлар юзасидан суд амалиёти тўғрисида»ги 8-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 2-жилд. — 20-б.

²Ўша жойда. — 21-22-б.

Aybdorning qilmishini **JK 177-moddasi 1-qismi** bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun qonunga xilof ravishda olingan yoki o'tkazilgan valuta qimmatliklarining miqdorini va ilgari shunday harakatlar sodir etgani uchun aybdorga nisbatan ma'muriy jazo choralari qo'llanganligini aniqlash zarur. Xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin fuqarolarning qonunga xilof ravishda ancha miqdorda valuta qimmatliklarini olgan yoki o'tkazgan vaqtdan e'tiboran jinoyat **tugallangan** deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Bunda aybdor valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olayotganligi yoki o'tkazayotganligiga hamda bu xatti-harakatlarni amalga oshirishni xohlaganligiga iqrор bo'ladi. **Maqsad** va **motiv** mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. Odatda, bunday jinoyat g'arazgo'ylik maqsadida sodir qilinadi.

Jinoyatning **subyektiv** 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

JK 177-moddasi 2-qismida:

- a) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- b) ko'p miqdorda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib qonunga xilof ravishda valuta qimmatliklarini olganlik yoki o'tkazganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Mazkur kvalifikatsiya qilish belgilari yuqorida tahlil qilib o'tilgan.

JK 177-moddasi 3-qismida:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab qonunga xilof ravishda valuta qimmatliklarini olganlik yoki o'tkazganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Bu jinoyatlarning kvalifikatsiya qilish belgilari tushunchasi va o'ziga xosligi yuqorida tahlil qilib o'tilgan.

«Qilmishni Jinoyat kodeksining 177-moddasi ikkinchi va uchinchi qismi bilan tavsiflashda jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qarorda, ayblov xulosasi va hukmda aybdorning qilmishi aynan qanday belgisiga ko'ra javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat

sifatida qaralayotganligi albatta, ifodalangan bo‘lishi lozim. Bu o‘rinda shuni inobatga olish kerakki, valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazishning takroran yoki xavfli retsivist tomonidan ko‘p miqdorda, bir guruh shaxslar tomonidan, oldindan til biriktirib, juda ko‘p miqdorda, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilganligi jinoiy javobgarlikka, ya’ni qilmishni Jinoyat kodeksining **177-moddasi** tegishli qismi bilan tavsiflashga asos bo‘ladi va shunday harakatlar uchun muqaddam ma’muriy jazo qo‘llanilgan bo‘lishi talab etilmaydi.

Valuta qimmatliklarini bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o‘zlashtirish yoki rastrata qilish, firibgarlik, o‘g‘irlik yo‘li bilan talon-toroj qilish, shuningdek, valuta qimmatliklarida pora olish, pora berish, pora olibberishda vositachilik qilish, xizmatchini pora evaziga og‘dirish, tovlamachilik yo‘li bilan haq berishni talab qilish Jinoyat kodeksining faqat ana shunday jinoyatlar uchun javobgarlikni ko‘zda tutuvchi moddasi bilan tavsiflanishi lozim va Jinoyat kodeksining **177-moddasi** bilan qo‘shimcha tavsiflash talab qilinmaydi.

Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxonadan yashirib yoxud bojxona hujjatlari va vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, ko‘p miqdorda, juda ko‘p miqdorda, xizmat lavozimidan foydalangan holda, chegarani buzib o‘tish yo‘li bilan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab valuta qimmatliklarini O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish, keyinchalik ular bilan O‘zbekiston Respublikasi hududida bitimlar (sotish, almashtirish) amalga oshirilganda bojxona qonunlarini buzish va valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda o‘tkazish sifatida baholanishi va shu jinoyatlar majmui bo‘yicha tavsiflanishi lozim»¹.

JKning **177-moddasi 4-qismida** rag‘batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra, tayyorgarlik ko‘rilayotgan yoki sodir

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 28 апрел- даги «Валюта қимматликларини қонунга хилоф равишда олиш ёки ўтказишга доир ишлар юзасидан суд амалиёти тўғрисида»ги 8-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 2-жилд. — 21-б.

etilayotgan jinoyat haqida o'z ixtiyori bilan arz qilgan va jinoyatni ochishga faol yordam bergan shaxs javobgarlikka tortilmaydi.

4-§. Chet el valutasini yashirish (JK 178-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obykti** iqtisodiy resurslarni shakllantirishning respublikada belgilab qo'yilgan tartibidir. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasida vakolatli banklar hisobvaraqlaridan ro'yxatdan o'tishi kerak bo'lgan chet el valutasini belgilangan subyektlar tomonidan o'tkazish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar va iqtisodiy resurslarni shakllantirishning respublikada belgilab qo'yilgan tartibidir.

Jinoyat predmeti O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga ko'ra, vakolatli banklar hisobvaraqlariga o'tkazilishi shart bo'lgan chet el valutasini, ya'ni:

- chet el davlatida erkin muomalada bo'lgan va to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan banknot shaklidagi chet el valutasini;
- chet eldagi hisob raqamida turgan chet el valutasini yoki xalq-aro pul birliklari hisoblanadi.

Vakolatli banklar deganda, chet el valutasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun belgilangan tartib asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bosh, ichki litsenziyasini olgan holda bank faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, xorijiy banklar vakolatxonalarini yoki filiallari tushuniladi¹.

Valuta qimmatliklarini ushbu jinoyat predmeti deb topish uchun yana bir asos — bu ularning xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobvarag'iga O'zbekiston Respublikasi vakolatli banklari tomonidan o'tkazilishi shartligidir.

O'zbekiston Respublikasi «Valutani tartibga solish to'g'risida»gi

¹ *Қаранг:* Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 7 майдаги «Валютани тартибга солиш тўғрисида»ги 841-ХП-сон Қонуни (Янги тахрири) (Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги 556-11-сон «Валютани тартибга солиш тўғри-сида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги Қонуни билан тасдиқланган), 11-модда; Тижорат банкларига чет эл валютасида операцияларни амалга ошириш учун лицензиялар бериш қоидалари (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 1998 йил 3 августда 463-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган, Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан 1998 йил 28 мартда 31-сон билан тасдиқланган), 2-банд // Ўзбекистон Республикаси вазирликлари, давлат қўмиталари ва идораларининг меъёрий ҳужжатлари ахборотномаси, 2001 й., 16-сон, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 13-сон, 162-модда.

Qonunining 16-moddasiga muvofiq, «Rezident yuridik shaxslar tomonidan olinadigan chet el valutasida, shu jumladan, tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportidan olingan valuta tushumi, agar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqacha qoida belgilagan bo‘lmasa, ularning vakolatli banklardagi hisobvaraqlariga o‘tkazilishi shart.

Rezident yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi banklarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda milliy valutada va chet el valutasida hisobvaraqlar ochishga hamda ulardan foydalanishga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasining rezident jismoniy shaxslari, diplomatiya va boshqa vakolatxonalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi tashkilotlarining chet eldagi, xo‘jalik yoki boshqa tijorat faoliyati bilan shug‘ullanmaydigan vakolatxonalari O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida hisobvaraqlar ochishiga hamda bu hisobvaraqlardan foydalanishiga ularning faqat xorijda bo‘lishi va faoliyat ko‘rsatishi davrida yo‘l qo‘yiladi. Ularning chet elda bo‘lishi yoki faoliyat ko‘rsatishi tugagach, hisobvaraqlar yopilishi lozim, hisobvaraqlardagi mablag‘larning qoldiqlari esa O‘zbekiston Respublikasiga o‘tkaziladi».

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, **korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning valuta hisobvaraqlariga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan chet el valutasida** deganda, quyidagilarni tushunish kerak:

– O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi norezidentlar tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqiga o‘tkazgan pullar, shuningdek, ularning ustav fondidagi ulushlari;

– hisobvaraqlar egalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi valuta bozorida sotib olingan mablag‘;

– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ruxsat etgan hollarda tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqiga olingan naqd xorijiy valuta;

– chet el valutasidagi foizlar va dividendlar;

– qonunchilikda ko‘zda tutilgan hollarda — naqd chet el valutasida;

– hisobvaraqlar egasiga O‘zbekiston Respublikasining boshqa banklarida ochilgan o‘z hisobvaraqlaridan o‘tkazilgan pullar, shuningdek, amaldagi

qonunlarda koʻzda tutilgan boshqa mablagʻ tushumlari.

Mulkchilik shaklidan qatʼi nazar, barcha xoʻjalik yurituvchi subyektlar (keyingi oʻrinlarda korxonalar deb ataladi) chet el valutasidagi tushumni majburiy tartibda sotadilar. Korxonalar majburiy sotishni tovarlar va xizmatlar eksportidan olingan chet el valutasidagi tushumdan amalga oshiradi.

Bunda eksport qilingan tovarlar va xizmatlar uchun **chet el valutasidagi tushum** deganda, korxonalarining vakolatli banklardagi hisob raqamlariga va kassalariga tovarlar va xizmatlarni eksport qilishdan tushgan chet el valutasidagi pul mablagʻlari (keyingi oʻrinlarda tushum deb ataladi) tushuniladi. Bunda:

– vositachilik faoliyatidan daromad oluvchi korxonalar uchun majburiy sotish maqsadlari uchun chet el valutasidagi tushum deganda, bajarilgan bitishuvlar boʻyicha olingan vositachilik haqi (foizlar) miqdori tushuniladi;

– banklar boʻyicha chet el valutasidagi tushum deganda, vositachilik haqi koʻrinishida olingan mablagʻlar, vakolatli banklarning xorijiy banklardagi hisob raqamlari boʻyicha qoʻshilgan foizlar, shuningdek, banklar tomonidan norezidentlardan olingan xorijiy valutadagi boshqa daromadlar (maslahat xizmatlari koʻrsatishdan olingan daromadlar, olingan jarimalar, penya va hokazolar) tushuniladi;

– chet elda loyiha-qidiruv, qurilish-montaj, ishga tushirish-sozlash va otaliq-montaj ishlarini, shuningdek, qurilgan obyektlarni mukammal tuzatish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik tekshirish ishlarini amalga oshiruvchi, qurilgan obyektlardan foydalanish va kadrlar tayyorlash boʻyicha xizmatlar koʻrsatuvchi korxonalar boʻyicha chet el valutasida ishlarni bajarish, xizmatlar koʻrsatish loyiha qiymati miqdorining mazkur kontraktlar boʻyicha valuta xarajatlaridan ortiq boʻlishi tushuniladi. Bunda chet el valutasidagi tushumni majburiy sotish boʻyicha hisobkitoblar kontraktlar boʻyicha ishlar (ishlarning bosqichlari) tamom boʻlgandan keyin amalga oshiriladi, bu tegishli hujjatlar va toʻlov hujjatlari bilan tasdiqlanadi;

– sugʻurtalovchilar boʻyicha chet el valutasidagi tushum deganda, sugʻurta (qayta sugʻurta) muddati tamom boʻlgandan keyin sugʻurta toʻvoni

to'lovi, vositachilik va agentlik to'lovlari chiqarib tashlangan holda hisoblab chiqilgan sug'urtalanuvchilar (qayta sug'urtalanuvchilar)ning to'lovlarini sug'urta qilish sifatida olingan mablag'lar, shuningdek, faoliyatning boshqa turlaridan olingan xorijiy valutadagi boshqa tushumlar tushuniladi. Xorijiy sug'urta kompaniyalari bilan operatsiyalar amalga oshirilgan taq- dirda chet el valutasidagi tushum deganda, sug'urta (qayta sug'urta) muddati tamom bo'lgandan keyin xorijiy qayta sug'urtalovchiga o'tkazilishi kerak bo'lgan mablag'; sug'urta to'lovi; vositachilik va agentlik to'lovlari chiqarib tashlangan holda hisoblab chiqilgan sug'urtalanuvchilarning sug'urta to'lovlari sifatida olingan mablag'lar tushuniladi;

– O'zbekiston Respublikasi bojxonasi hududida olib kelinadigan xom ashyoni qayta ishlash yoxud bojxona nazorati ostida qayta ishlash yuzasidan kontraktlar bo'yicha xorijiy valutadagi tushum deganda, rezidentlar tomonidan xom ashyoni qayta ishlash bo'yicha norezidentlarga ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati tushuniladi¹.

Ichki valuta bozorida sotib olingan chet el valutasini — **bu** O'zbekiston Respublikasi valuta birjasida sotib olingan chet el valutasidagi pul mablag'laridir. Qonunchilikka muvofiq, sotib olingan valuta ushbu mablag'larni sotib olgan shaxsning vakil bankidagi maxsus hisob raqamiga o'tkazilishi kerak. Ushbu mablag'lar chet el valutasini sotib olishda ko'rsatilgan maqsadlarga ishlatiladi.

Birjadan tashkari valuta bozorida operatsiyalar o'tkazish uchun kafolatli banklar o'z mijozlariga maxsus valuta hisob raqamlari ochadi, ushbu hisob raqamlariga valuta bozorida sotib olingan xorijiy valuta o'tkaziladi. Maxsus valuta hisob raqami ochmasdan bank mijozi tomonidan chet el valutasini xarid qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Maxsus valuta hisob raqamiga, shuningdek, mazkur hisob raqamidan ilgari chiqarilgan va

¹Қаранг: Хўжалик юритувчи субъектлар томонидан хорижий валютадаги тушумни мажбурий сотиш тартиби (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 29 июндаги «Биржадан ташқари валюта бозорини янада ривожлан- тириш ва мустаҳкамлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 245-сон қарорига 1-илова), 2-банд // Ўзбекистон Республикаси Хукумати қарорлари тўплами, й., 6-сон, 33-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, й., 6-сон, 31-модда, 12-сон, 78-модда, 13-сон, 90-модда; 2002 й., 1-сон, 7-модда, 19-сон, 150-модда, 22-сон, 180-модда; 2003 й., 1-2-сон, 11-модда, 12-сон, 95-модда, 14-сон, 115-модда, 15-16-сон, 129-модда, 19-сон, 178-модда, 19-сон, 181-модда; 2004 й., 3-сон, 31-модда; 2005 й., 32-33-сон, 246-модда, 32-33-сон, 252-модда; 2006 й., 46-47-сон, 458-модда; 2007 й., 37-38-сон, 385-мод- да; 2008 й., 52-сон, 515-модда; 2009 й., 7-сон, 69-модда, 10-11-сон, 115-модда.

foydalanilmagan yoki qaytarilgan valuta ham o‘tkaziladi.

Maxsus valuta hisob raqamlariga qo‘shib qo‘yilgan mablag‘lar korxonalar va tashkilotlar tomonidan tuzilgan shartnomalarga muvofiq qat’iyan maqsadli ravishda sarflanadi¹.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, quyidagi hollarda **naqd chet el valutasini** vakolatli banklardagi hisobvaraqaqlarga olinadi:

— naqd valuta mablag‘i tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni eksport qilishdan tushgan bo‘lsa, kichik va o‘rta biznes korxonalari — hisob raqami bo‘yicha²;

— xizmat safariga jo‘nayotgan shaxsga yo‘l xarajatlari, uy-joy ijarasi, ish va ko‘zda tutilmagan xarajatlari uchun berilgan chet el valutasini to‘liq yoki qisman sarflanmagan bo‘lsa — qoldiq qismi bo‘yicha;

— butun operatsion kun davomida kelib tushgan chet el valutasidagi pul mablag‘lari o‘sha ish kunining o‘zidayoq tegishli hisob varaqaqa kiritilishi kerak;

— xo‘jalik sudining qarori bilan naqd chet el valutasini olib qo‘yilgan bo‘lsa — o‘sha kunning o‘zidayoq xo‘jalik sudining depozit hisob raqamiga o‘tkazilishi, buning iloji bo‘lmasa — harakat eng yaqin bank ish kunida amalga oshirilishi kerak³;

— korxonalar, muassasa, tashkilot kassasidagi naqd pul qoldig‘i limitining ko‘payishi vujudga kelsa — limitning ko‘paygan summasi korxonalar, muassasa, tashkilotning hisob raqamiga o‘tkazilishi uchun bankka topshirilishi kerak⁴.

Jinoyat obyektiv tomondan respublikaning vakolatli banklaridagi

¹ Qarang: Биржадан ташқари валюта бозорида хорижий валютани харид қилиш ва сотиш операцияларини ўтказиш тартиби тўғрисидаги Низом (Вазирлар Маҳкама-сининг 2001 йил 10 июлдаги 294-сон қарорига 2-илова) 27-, 44—45-бандлар.

² Qarang: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 22 июндаги «Валюта бозорини янада эркинлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 263-сонли қарори, 5-банд // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2001 й., 12-сон, 78-модда; 2002 й., 11-12-сон, 96-модда; 2003 й., 1-2-сон, 11-модда, 4-сон, 42-модда, 19-сон, 178-модда; 2004 й., 3-сон, 31-модда, 16-сон, 187-модда; 2005 й., 8-9-сон, 69-модда; 2009 й., 7-сон, 69-модда, 25-сон, 288-модда.

³ Qarang: Ўзбекистон Республикаси хўжалик судларининг қарорларини ижро этиш тартиби тўғрисидаги Йўриқнома (Ўзбекистон Республикаси Олий хўжалик суди Раиси томонидан 1997 йил 12 февралда тасдиқланган), 33-бобнинг 3-банди.

⁴ Мазкур хулоса Ўзбекистон Республикаси ҳудудида чет эл valutasini билан касса операцияларини юритиш тартиби 2-бандининг таҳлилидан келиб чиқади (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 1999 йил 22 январда 611-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган, Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан 1998 йил 28 мартда 35-сон билан тасдиқланган) // Ўзбекистон Республикаси вазирликлари, давлат кўмиталари ва идораларининг меъёрий ҳужжатлари ахборотномаси, 1999 й., 1-сон, 2000 й., 16-сон.

hisobvaraqlarga o'tkazilishi lozim bo'lgan chet el valutasini yashirib qolishga qaratilgan faol harakat yoki harakatsizlikda ifodalanadi.

Chet el valutasini yashirish — bu chet el valutasidagi mablag'larni O'zbekiston Respublikasining vakolatli bankida yoki boshqa vakolatli subyektida¹ saqlash majburiyatini bajarmaslikdan iborat bo'lib, oddiy harakatsizlik, chet el valutasini xorijdan O'zbekiston Respublikasining vakolatli bankiga o'tkazish to'g'risida ko'rsatma bermaslik, bank hujjatlarini imzolamaslik, xorij valutasini xorijiy bankdagi hisob raqamida saqlash kabi yo'llar bilan sodir etiladi².

Shuningdek, xorijiy valutani yashirish faol harakatlar, masalan, uni boshqaga o'tkazish, kelib tushgan foydani pasaytirib ko'rsatish, mablag'larni boshqa hisob raqamga o'tkazish, yashirish kabilar orqali sodir etilishi mumkin³.

Naqd chet el valutasini **yashirish** deganda, olingan naqd mablag'larni belgilangan muddatda xizmat ko'rsatuvchi bankka topshirmaslik, tovar va mahsulot sotish joylarida tegishli tarzda buxgalterlik va boshqa hujjatlar bilan rasmiylashtirilmagan mablag'lar mavjudligi tushuniladi.

Xorijiy valutani yashirish mablag'larni bankdagi hisob raqamiga o'z vaqtida o'tkazmaslik yoki to'liq o'tkazmaslikda ifodalanishi mumkin.

Bankdagi hisob raqamiga o'z vaqtida o'tkazmaslik deganda, amalga oshirilgan operatsiyalar natijasida olingan chet el valutasini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarga rioya qilmagan holda o'tkazilishi tushuniladi.

Bankdagi hisob raqamiga to'liq o'tkazmaslik deganda, amalga oshirilgan xo'jalik faoliyati va boshqa operatsiyalar natijasida kelib tushgan xorijiy valutaning foizlar, dividendlar va boshqa daromad ko'rinishida amalda olingan valuta mablag'lariga muvofiq bo'lmagan

¹ Masalan, xoriжий bankda — Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан чет элда ҳисобварақлар очиш учун рухсатнома берилган ҳолда.

² Чет элда ҳисобварақлар очиш учун рухсатнома йўқлигида.

³ Қаранг: Хўжалик юритувчи субъектлар томонидан хорижий валютадаги тушумни мажбурий сотиш тартиби (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 29 июндаги 245-сон қарорига 1-илова), 20-банд // Ўзбекистон Республикаси ҳукумати қарорлари тўплами, 2000 й., 6-сон, 33-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2001 й., 6-сон, 31-модда, 12-сон, 78-модда, 13-сон, 90-модда; 2002 й., 1-сон, 7-модда, 19-сон, 150-модда, 22-сон, 180-модда; 2003 й., 1-2-сон, 11-модда, 12-сон, 95-модда, 14-сон, 115-модда, 15-16-сон, 129-модда, 19-сон, 178-модда, 19-сон, 181-модда; 2004 й., 3-сон, 31-модда; 2005 й., 32-33-сон, 246-модда, 32-33-сон, 252-модда; 2006 й., 46-47-сон, 458-модда; 2007 й., 37-38-сон, 385-модда; 2008 й., 52-сон, 515-модда; 2009 й., 7-сон, 69-модда, 10-11-сон, 115-модда.

hajmda o'tkazilishi tushuniladi.

Jinoyatni baholash uchun aybdor valuta mablag'larini vakolatli bankdagi hisob raqamiga o'tkazish majburiyatini qaysi yo'l bilan bajarmaganligi ahamiyatga ega.

Chet el valutasini yashirish jinoyati soliq va boshqa to'lovlarni to'lashdan bosh tortish bilan amalga oshirilsa, shaxsning xattharakatlari Jinoyat kodeksining **178-** va 184-moddalari bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat chet el valutasini yashirib qolingani, ya'ni uni vakolat berilgan banklardagi hisobvaraqlarga o'tkazish uchun belgilangan muddat tugagan yoxud chet el valutasini qisman o'tkazilgan va qolgan summa yashirib qolingani paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasddan** sodir etiladi. Agar korxonasi, muassasa yoki tashkilotda valuta operatsiyalarini amalga oshiruvchi shaxs o'z vazifasini lozim darajada bajarmaganligi tufayli chet el valutasini yashirib qolingani bo'lsa, u muayyan holatlarda mansabiga sovuqqonlik bilan qaraganligi uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

Hisobga o'tkazish, uni to'la o'tkazmaslik, inson erkiga bog'liq bo'lmagan hollarda — hisob-kitob texnikasining ishlamay qolishi, shaxsning aldashi va boshqalar chet el valutasini yashirish hisoblanmaydi, chunki bunday vaziyatda ayb shakli mavjud emas. Biroq har bir holat bo'yicha shaxsning irodasiga bog'liq bo'lgan bo'lmagan faktlar aniqlanishi kerak.

Valutani bank hisobiga o'tkazish muddatlarini ehtiyotsizlik oqibatida o'tkazib yuborgan shaxsni ham javobgarlikka tortib bo'lmaydi. Ehtiyotsizlik valutani o'tkazish muddatini juda qisqa muddatga buzganligi, valuta bilan ahamiyati kam operatsiyalarni bajarganligi bilan ifodalanadi. Bunday hollarda qilmishni mansabga sovuqqonlik bilan qarash sifatida tavsiflash mumkin.

Motiv va **maqsad** jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi, lekin jazo tayinlashda inobatga olinishi mumkin.

Jinoyat **subyekt** 16 yoshga to'lgan, qonunchilik va shartnoma bilan tashkilot, korxonasi va muassasalarda valuta operatsiyalarini amalga

oshirish vazifasi yuklatilgan har qanday shaxs hisoblanadi.

JK 178-moddasi 2-qismida chet el valutasini yashirishning quyidagi kvalifikatsiya qilish belgilari ko'rsatilgan:

- a) g'arazgo'ylik bilan;
- b) takroran;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilganda.

G'arazgo'ylik bilan deganda, shaxsning chet el valutasini yashirish natijasida biron-bir moddiy naf chiqarib olishga intilishi (masalan, valutani daromadga aylantirish, qarzni to'lash va hokazolar) tushuniladi. Chet el valutasini yashirish faktini g'arazgo'ylik tufayli sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilish uchun aybdorda g'arazli intilish **JK 178-moddasida** ko'zda tutilgan jinoyat sodir etilishidan oldin yuzaga kelganligini aniqlash zarur. Basharti aybdor valutani yashirgach, uni noqonuniy o'zlashtirgan bo'lsa, uning harakatini chet el valutasini yashirish sifatida (boshqa og'irlashtiruvchi holatlar bo'lmasa) jinoyatlar majmui tariqasida **JK 178-moddasining 1-qismi** hamda JK 167-moddasi (O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish) bo'yicha kvalifikatsiya qilish zarur.

Agar chet el valutasini yashirish uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, jinoyatchi **JK 178-moddasining 3-qismi** bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Ko'rsatilgan og'irlashtiruvchi va alohida og'irlashtiruvchi holatlarda jinoyatni kvalifikatsiya qilish belgilari yuqorida tahlil qilingan va ulardan alohida xususiyatlarga ega emas.

«Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»¹gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 178-moddasi rag'batlantiruvchi norma bilan to'ldirilgan bo'lib, unga muvofiq ushbu moddaning birinchi qismida, ikkinchi qismining «a» va «v» bandlarida nazarda tutilgan jinoyatni birinchi marta

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017., № 1, Б.1.

sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda yashirilgan chet el valutasini O'zbekiston Respublikasining vakolat berilgan banklari hisobiga ixtiyoriy ravishda o'tkazilishini ta'minlagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi **178-moddasining 4-qismiga** muvofiq aybdor shaxs sodir etgan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod bo'lishi uchun quyidagi shartlarni bajarishi zarur:

1. Shaxs ushbu moddaning birinchi qismida, ikkinchi qismining «a» va «v» bandlarida nazarda tutilgan jinoyatni birinchi marta sodir etgan bo'lishi kerak.

2. Jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda yashirilgan chet el valutasini O'zbekiston Respublikasining vakolat berilgan banklari hisobiga ixtiyoriy ravishda o'tkazilishini ta'minlagan bo'lishi kerak.

5-§. Soxta tadbirkorlik (JK 179-moddasi)

Jinoyatning **obyekti** korxonalar yoki boshqa tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi tuzilmalarning qonunda, o'z ustavida belgilangan faoliyatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, davlat, jamiyat va fuqaroning tadbirkorlik faoliyati sohasidagi iqqisodiy manfaatlari hisoblanadi.

Jinoyatning **obyektiv tomoni** ustavda ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko'zlamasdan, qarz, kredit olish, foyda (daromad)ni soliqlardan ozod qilish yoki boshqa mulkiy manfaat ko'rish maqsadida korxonalar va boshqa tadbirkorlik tashkilotlarini tuzishda ifodalanadi.

FK 40-moddasiga muvofiq, foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni shunday maqsad qilib olmagan (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxonalar va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi,

ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin.

FK 41-moddasida yuridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqaroviy huquq layoqatiga ega bo'ladi. Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning nizomi yoki qonun hujjatlarida belgilangan bo'ladi.

Tijoratchi tashkilotni tuzish deganda, tuziladigan tijoratchi tashkilotning kerakli ta'sis hujjati va uni vakolatli organlardan ro'yxatdan o'tkazish uchun kerak bo'lgan hujjatlarni yig'ish bilan bog'liq bo'lgan tashkilotchilik jarayoni (masalan, bozor tashkil etish uchun hokimiyatning roziligi talab etiladi) tushuniladi. Tijoratchi tashkilot davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

Agar tashkilot aybdorga bog'liq bo'lmagan holda davlat ro'yxatidan o'tmagan bo'lsa, uning harakatlarini JK 25-moddasi 2-bandi va **JK 179-moddasi** bilan ustavda ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirmaslik maqsadida tashkilot tuzish (Soxta tadbirkorlik) jinoyatiga suiqasd deb kvalifikatsiya qilinadi. Biroq bunda aybdorning ustav faoliyatini amalga oshirmaslik qasdini aniqlash zarur, aks holda uning harakatlari Jinoyat kodeksining ushbu moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

Ustav faoliyati deganda, faoliyatning shunday turi tushuniladiki, tadbirkorlik tashkiloti tomonidan uni amalga oshirish uchun barpo etiladi va bu uning ta'sis hujjatlarida qayd etiladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ta'sis hujjatining turi va shaklidan qat'i nazar, unda qayd etilgan faoliyat turlari ustavga oid hisoblanadi. Niyat yo'qligini, sodir etilgan harakatlar haqiqiy emasligini aniqlashning o'ziga xosligi va murakkabligi fuqarolik-huquqiy bitimning haqiqiy emasligini baholashda yuzaga keladigan shu kabi tegishli masalalarga monand bo'lib, ustav faoliyatini amalga oshirishni ko'zlamay yuridik shaxsni tashkil etishni ham amalda xuddi shunday deb atash mumkin. Bu kabi niyat mavjudligidan yuridik shaxsning ta'sis hujjatlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni O'zbekiston Respublikasi FK 6-moddasida tartibga solingan ish muomalasi odatlariga muvofiq, zarur va yetarli bo'lgan vaqt mobaynida bajarmaslik ham dalolat

beradi.

Soxta tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi tashkilot davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab jinoyat **tugallangan** hisoblanadi. Mulkiy zarar keltirish yoki mulkiy foyda ko'rganlik jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanmaydi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** shaklidagi ayb bilan tavsiflanadi. Aybdor ustav faoliyatini amalga oshirmaydigan tadbirkorlik tashkilotini tuzayotganligini anglaydi va ana shunday tashkilot tuzishni istaydi.

Jinoyatni sodir etishdagi **motiv** jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi. Krida tariqasida jinoyat subyektlari bu vaqtda tamagirlik niyatida harakat qiladi.

Soxta tadbirkorlikning zaruriy belgisi uning **maqsadi** — ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirmay turib noqonuniy kreditlar olish, soliqlardan ozod bo'lish, egallashga huquqi bo'lmagan boshqa mulkiy foyda ko'rish maqsadini ko'zlaganligi hisoblanadi.

Jinoyatning birinchi maqsadi — noqonuniy **kreditlar, ssudalar olish** juda sodda tarzda amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun, bankdan muddatli, qaytarib berish va foiz shartlari asosida imtiyozli kreditlar olinishi mumkin.

Foyda (daromad)ni soliqlardan ozod qilish yoki kamaytirish deganda, qonunga muvofiq tuzilgan vaqtdan boshlab ma'lum muddat yoki butunlay ayrim soliqlardan ozod qilingan yoki imtiyozli tarzda soliq olinishi mumkin bo'lgan tijorat tashkilotini (masalan, nogironlar jamiyati, turli xil shakllardagi notijorat tashkilotlari) tuzish sifatida tushunish kerak.

Boshqa mulkiy foyda ko'rish maqsadi deganda, belgilangan tashkiliy-huquqiy shakllardagi tijorat tashkilotini tuzish va u orqali imtiyozli kreditlar olish, soliq imtiyozlarini qo'lga kiritish, imtiyozli tarzda pul mablag'larini faoliyatiga jalb qilish kabi operatsiyalarni amalga oshirishni tushunish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi quyidagicha tushuntirish beradi: «Soxta tadbirkorlik to'g'risidagi ishlarni ko'rishda shaxsning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirmay turib noqonuniy

kreditlar olish, soliqlardan ozod bo'lish, egallashga huquqi bo'lmagan boshqa mulkiy foyda ko'rish maqsadini ko'zlaganligi hisobga olinishi lozim. Bunday maqsadning aniqlanishi shaxsning xatti-harakatlarini Jinoyat kodeksining 179-moddasi hamda talon-toroj etishga suiqasd qilish va soliq to'lovlari to'lashdan bo'yin tovlash va h.k. uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari majmui bilan tavsiflashga asos bo'lishi mumkin»¹¹.

Agar soxta tadbirkorlik jamiyatini tuzishdan maqsad taqiqlangan faoliyatni (diniy ta'limotlar berish, orden va medal, muhr va shtamplar, giyohvand, qattiq ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni tayyorlash va boshqalarni) amalga oshirish bo'lsa, aybdor shaxs jinoyatlar majmui tariqasida JK 179-moddasi va tegishli jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar bilan javobgarlikka tortiladi.

Soxta tadbirkorlik tashkiloti aybdor foydasiga g'ayriqonuniy mol-mulkni egallash, aldash va ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mol-mulkni tortib olish harakatlarini amalga oshirish uchun tuzilgan bo'lsa, aybdor JK 168-moddasi bilan javobgarlikka tortiladi, chunki bu firibgarlik hisoblanadi.

Soxta tadbirkorlikning **subyekt**i har qanday 16 yoshga to'lgan, soxta tashkilot aqli raso ta'sischisi yoki ta'sischilari bo'lgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

6-§. Soxta bankrotlik (JK 180-moddasi)

O'zbekiston Respublikasining amaldagi «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra, **bankrot deb**, «xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi»² tushuniladi.

¹ *Қаранг:* Ўзбекистон Республикаси Олий суди ва Ўзбекистон Республикаси Олий хўжалик суди қўшма Пленумининг 2000 йил 28 апрелдаги «Тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ қонунчиликни қўллаш суд амалиёти тўғрисида»ги 2/84-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди ва Олий хўжалик суди қўшма Пленумининг 2002 йил 25 октябрдаги 21/108-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 2-жилд. — 10-б.

²Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1994 й. 5 майдаги «Банкротлик тўғриси- да»ги 1054-ХП-сон Қонуни (Ўзбекистон Республикаси 2003 й. 24 апрелдаги 474- II -сон Қонунининг тахририда), 3-модданинг 2-қисми // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 5-сон, 63-модда; Ўзбекистон Респуб-

Qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lovlar majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, uning bankrotlik alomatlari deb e'tirof etiladi. («Bankrotlik to'g'risida»gi qonunning 4-moddasi)

Jinoyatning **obyekti** tadbirkorlik tuzilmalarining normal faoliyat ko'rsatishini, xo'jalik yurituvchi subyektlarning manfaatlarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Obyektiv tomondan jinoyat xo'jalik yurituvchi subyektning o'z majburiyatlarini iqtisodiy jihatdan bajara olmasligi haqida bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan e'lon berishi natijasida kreditorlarga ko'p miqdorda zarar yetkazilishida namoyon bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt haqiqatda kreditorlar oldidagi o'z majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lgani holda, ularni bajarishdan ataylab bo'yin tovlab, o'zini bankrot deb e'lon berishi **ataylab haqiqatga to'g'ri kelmaydigan e'lon berish** hisoblanadi.

Xo'jalik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) istalgan tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxs yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, **bankrotlikni e'lon qilish** qonunchilikda belgilangan doirada quyidagi harakatlardan birini sodir etgandan so'nggina amalga oshirilishi mumkin:

— bankrotlik alomatlari yuzaga kelgan taqdirda, qarzdor yuridik shaxsning rahbari, yakka tartibdagi tadbirkor qarzdori bu haqda qarzdorning muassislariga (ishtirokchilariga), boshqaruv organlariga yoki qarzdorning mol-mulki egasiga sudgacha sanatsiya o'tkazish maqsadida bankrotlik belgilari haqida yozma shaklda xabar qilishi shart;

— lozim darajada xabardor etish deganda, kreditorga, vakolatli organga,

ликаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й., 51-сон, 375-модда; 2008 й., 52-сон, 513-модда; 2009 й., 3-сон, 9-модда, 15-сон, 176-модда, 37-сон, 403-модда.

shuningdek, ushbu Qonunning 10-moddasiga muvofiq, kreditorlar yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega boshqa shaxsga kreditorlar yig'ilishi o'tkazilishi haqidagi xabarni kreditorlar yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin pochta aloqasi orqali yoki bunday xabar kreditorlar yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida besh kun oldin olinishini ta'minlovchi boshqa usul bilan yuborish tushuniladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt qonunda belgilangan tartibni buzib, o'zining iqtisodiy nochorligini e'lon qilgan hollarda, aybdorning qilmishi muayyan holatlar mavjud bo'lganida firibgarlikni (JK 168-moddasi) vujudga keltiradi.

Jinoyat kreditorlarga ko'p miqdordagi zarar yetkazish tarzidagi ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqqan paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi.

(«Ko'p miqdordagi» zarar tushunchasiga JKning 8-bo'limiga qarang.) Mazkur modda tahlilida nazarda tutilayotgan ko'p miqdordagi zarar yetkazilgan haqiqiy (real) zarar bilan birga boy berilgan foydani ham o'z ichiga oladi.

Ko'p miqdorda zarar yetkazilmagan taqdirda ish fuqarolik tartibida hal qilinadi.

Agar aybdorning harakatlari kreditorga ko'p miqdorda zarar yetkazishga qaratilgan bo'lsada, aybdorga bog'liq bo'lmagan hollarda zarar kelib chiqmagan taqdirda, aybdorning harakatini **JK 180- moddasida** nazarda tutilgan jinoyatga suiqasd (JK 25-moddasi 2-qismi) sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Agar mansabdor shaxs soxta hujjatlar taqdim etib, bankrotlik to'g'risida e'lon bersa, uning qilmishlari jinoyatlarning jami bo'yicha JK 209-moddasi (Mansab soxtakorligi) bilan ham kvalifikatsiya qilinadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri yoki egri **qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor o'zini yoki tijorat tashkilotini bila turib yolg'on ravishda bankrot deb e'lon qilayotganligini anglab etadi, kreditorlarning manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yetkazayotganligini biladi va shuni xohlaydi yoki bila turib shunga yo'l qo'yadi.

Qoida bo'yicha, sharhlanayotgan ushbu jinoyat g'arazli **motiv** bo'yicha sodir etiladi, lekin boshqa **maqsadlar** ham mavjud bo'lishi mumkin. Lekin

bu kvalifikatsiyaga ta'sir qilmaydi.

Jinoyatning **subyekt**i 16 yoshga to'lgan har qanday shaxs va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi, xo'jalik subyektini nomidan harakat qiladigan, ya'ni xo'jalik sudiga bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atish lozimligi to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin bo'lgan shaxs hisoblanadi. Bundan tashqari, har bir alohida holatda, shaxsni jinoyat subyektini sifatida javobgarlikka tortishda uning vakolatli davlat organlariga yoki real va potentsial kontragentlarga ma'lumotlarni topshirish uchun mas'ulligini aniqlash lozim, aks holda, uning harakatlarini **JK 180-moddasi** bilan tavsiflash mumkin emas.

Jinoyat kodeksining **180-moddasi 2-qismiga** ko'ra, «Yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi».

Sharhlanayotgan moddaning 3-qismiga muvofiq, shaxs javobgarlikdan ozod etiladi, agarda u:

- 1) soxta bankrotlikni birinchi marta sodir etgan bo'lsa;
- 2) agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa¹.

7-§. Bankrotlikni yashirish (JK 181-moddasi)

Tahlil etilayotgan jinoyatning **bevosita obyekt**i bozor iqtisodiyoti sharoitida bankrotlikni amalga oshirishning belgilab qo'yilgan tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar va kreditorlarning manfaatlaridir.

(«Bankrotlik» tushunchasi uchun JK 180-moddasi tahliliga qarang.)

Obyektiv tomondan jinoyat xo'jalik yurituvchi subyektning haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumot yoki hujjatlarni taqdim etishi, buxgalteriya hisobotlarini buzib ko'rsatish yo'li bilan iqtisodiy jihatdan o'zining to'lovga qodir emasligini yoki iqtisodiy nochorligini boshqacha tarzda qasddan yashirishi kreditorlarga ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lishda ifodalanadi.

Iqtisodiy nochorlikni yashirish — bu bir martalik harakatlarni sodir etish, shuningdek, choralar majmuasi bo'lib, vakolatli davlat organiga, real

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., №1, Б. 1.

yoki potentsial kontragentga uzaytirilgan qarzdorlik majburiyatlarini amalga oshirishning imkoniyati yo'qligi bilan bog'liq ma'lumotlarni yoki yolg'on ma'lumotlarni taqdim etish bilan bog'liq faoliyat. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, yashirish faqatgina faktik vujudga kelgan holatlar bo'yicha yuzaga kelgan munosabatlarga xosdir. Shuning uchun xo'jalik subyektining kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan qarzlarini to'lay olmasligi bilan bog'liq ma'lumotlarni taqdim etmasligi bankrotlikning yashirilishi deb qaralishi mumkin emas.

Bu o'rinda shunga alohida e'tibor berish lozimki, xo'jalik subyektining to'lovga qobiliyatsizligi faktini belgilashda faqatgina uzaytirilgan qarzdorlik majburiyatlari inobatga olinishi lozim, chunki to'lash muddati yetib kelmagan majburiyatlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyekt qarzdor deb topilmaydi¹. Shuningdek, to'lovga qobiliyatsizlikni belgilashda alohida e'tiborni xo'jalik subyektida mavjud (balansida ro'yxatda bo'lgan) mulkning tahliliga qaratmoq lozim, chunki bankrotlik naqd pul yoki naqd pulsiz shakldagi yuqori likvidli aktivlarga emas, balki faqatgina qarzdorlik bo'yicha to'lovga butun mol-mulki yetmaganda yuzaga keladi.

Ma'lumotlar va hujjatlarni pochta orqali jo'natish bilan, bevosita vakolatli shaxs tomonidan yoki xo'jalik subyektining boshqa vakili orqali taqdim etish orqali taqdim etish mumkin — ushbu holatlar qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumot va hujjatlarni taqdim etish ular shunday ma'lumotlarni taqdim etishga vakolatli yoki javobgar shaxs tomonidan rasmiy ravishda taqdim etilgandagina ijtimoiy xavfli qilmishni vujudga keltiradi. Haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar norasmiy ravishda taqdim etilganda bankrotlikni yashirish deb qaralmasligi lozim.

Bankrotlikni yashirish buxgalteriya hisobotlarini buzib ko'rsatish orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Buxgalteriya hisobotlarini buzib ko'rsatish deganda, xo'jalik subyektini moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqqoniy holatini aks ettirmaydigan har qanday harakatlar natijasida kelib chiqadigan ushbu oqibatlarni tushunmoq lozim. Ushbu harakatlar ma'lumotlarni to'liq yoki qisman taqdim etmaslik,

¹ Бу хулоса Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 242—243- моддалари таҳлилидан келиб чиқади.

balansni shakllantirishda ayrim usullardan foydalanish, buxgalteriya hisobotlarini buzib ko'rsatishning aniq usullari va hokazo — jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi.

Buxgalteriya hisoboti deganda, tashkilotning mulkiy va moliyaviy holati hamda uning hisobot davri (oy, kvartal, yil) mobaynida buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida belgilangan shaklda tuziladigan ma'lumotlarning yagona tizimi tushuniladi¹.

Xo'jalik subyekting iqtisodiy nochorligini boshqacha yashirish belgisi bo'yicha tadbirkorlik subyekti faoliyatining bankrotlik belgilarini aniqlash imkonini beradigan ma'lumotlarni davlatning vakolatli organlari tomonidan etarlicha olinmasligiga qaratilgan harakatlari natijalarini kvalifikatsiya qilish lozim. Bu usullar qatoriga, masalan, bank hisob raqamini yop-masligi va bu haqda vakolatli davlat organlariga xabar bermaganligi uchun hisob raqamida kam ahamiyatli operatsiyalarni amalga oshirib qo'yish, buxgalteriya hisobotlarini, boshqa hujjat va ma'lumotlarni turli bahonalar bilan taqdim etmaslikni kiritish mumkin.

Shuni e'tiborga olish lozimki, bankrotlikni yashirish ham, iqtisodiy nochorlikni yashirish kabi, davlat vakolatli organlariga ma'lumotlarni topshirmaslik, ya'ni xo'jalik subyekti tomonidan hisobot berishi lozim bo'lgan va ushbu organlarning Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari bo'yicha qo'mitaga kerakli ma'lumotlarni taqdim eta olmasligidir², bundan tashqari, xo'jalik subyekting bankrotlikni real va potentsial kontragentlaridan yashirishidir.

Jinoyat ko'p miqdordagi zarar yetkazish tarzidagi ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqqan paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi. Zarar kreditorlarga, shuningdek, davlatga majburiy to'lovlarni va yig'implarni to'lash bo'yicha yetkaziladi. Shuni alohida e'tiborga olish lozimki, qarzdor

¹ Қаранг: Большой юридический словарь / Под ред. А.Я. Сухарева, В.Е. Крутских. — 66-б.

² Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилигига мувофиқ ушбу органлар қаторига солиқ органлари, иқтисодиёт ва статистика органлари, айрим ҳолатларда, шунингдек, Иқтисодий ночор корхоналар ишлари бўйича қўмига ва унинг жойлардаги бўлинмалари кириши мумкин. Қаранг: Иқтисодий ночор корхоналар ишлари бўйича қўмигага хўжалик юритувчи субъектларнинг молия хўжалик фаолияти тўғрисида ахборот тақдим этиш ва маъмурий жаримани қўллаш тартиби (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2000 йил 9 февралда 894-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган, Ўзбекистон Республикаси Макроиқтисодиёт ва статистика вазирлиги ҳузуридаги Иқтисодий ночор корхоналар ишлари бўйича қўмига томонидан 1999 йил 29 декабрда 13-сон билан тасдиқланган), 2.1- ва 2.3-бандлар // Ўзбекистон Республикаси вазирликлари, давлат қўмиталари ва идораларининг меъёрий ҳужжатлари ахборотномаси. 2000 й., 3-сон.

qaysi fuqaroning hayoti yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligi uchun mulkiy javobgar bo‘lsa, ayni shu fuqaro, shuningdek, o‘z ishtirokidan kelib chiqadigan majburiyatlar bo‘yicha qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) kreditorlar hisoblanishmaydi.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri yoki egri kasd bilan sodir etilishi mumkin. Shaxs qarzdor tashkilot yoki yakka tartibdagi tadbirkor bankrot holatidagiligi va uning sodir etgan harakatlari huquqqa xilofligini anglab etadi, ko‘p miqdorda zarar yetkazishi mumkinligini ko‘ra biladi va buni xohlaydi yoki anglagan holda sodir etilishiga yo‘l qo‘yadi yoxud uning oqibatiga befarq qaraydi.

Jinoyat motivlari g‘arazli, ba‘zida boshqacha bo‘lishi mumkin, lekin jinoiy qilmish kvalifikatsiyasiga ta‘sir etmaydi. Bankrotlikni yashirganligi uchun mansabdor shaxs mukofotlangan bo‘lsa, uning qilmishi jinoyatlar majmui tariqasida **JK 181**-va 210-moddasi (Pora olish) bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to‘lgan, aqli raso har qanday jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

Jinoyat kodeksining **181-moddasi 2-kismiga** ko‘ra, «Yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi».

Sharhlanayotgan moddaning 3-qismiga muvofiq, shaxs javobgarlikdan ozod etiladi, agarda u:

- 1) bankrotlikni yashirish birinchi marta sodir etgan bo‘lsa;
- 2) agar u jinoyat aniqlangan kundan e‘tiboran o‘ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararining o‘rnini qoplagan bo‘lsa¹.

8-§.Qasddan bankrotlikka olib kelish (JK 181¹-modda)

Mazkur modda JKga O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 4 sentyabrdagi O‘RQ–373-sonli Qonuniga² asosan kiritilgan.

Mamlakatimizda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, bu yo‘nalishdagi huquqbuzarliklarning oldini

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., №1, Б. 1.

² Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 36-сон, 452-модда.

olish, xususan, qasddan bankrotlikka olib kelish holatlarini aniqlash bo'yicha huquqiy choralarni kuchaytirishga e'tibor qaratilmoqda.

Qonunchilikka muvofiq, qarzdor pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga yoki majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir bo'lmasa, bunday korxonalar bankrot, deb e'tirof etiladi.

Korxonaning bankrot deb e'tirof etilishi natijasida ushbu korxonalar bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan bir qator xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlari va moliyaviy xo'jalik faoliyatiga jiddiy zarar etadi. Shu bois, mazkur normaning asosiy maqsadi bankrot deb e'lon qilingan korxonalar bilan munosabatlarga kirishgan kreditorlarning manfaatlari himoya qilishga qaratilgan.

Ushbu jinoyatning asosiy **bevosita obyekt**i mamlakatdagi xo'jalik munosabatlari, davlat, tashkilotlarning iqtisodiy manfaatlari hamda kreditorlarning manfaatlari muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyat **obyektiv tomondan** qasddan bankrotlikka olib kelish, ya'ni to'lovga qobiliyatsizlikni qasddan yuzaga keltirish yoki oshirish orqali sodir etiladi.

Qasddan bankrotlikka olib kelish deganda, shaxsiy manfaatlari yoki boshqa shaxslarning manfaatlari uchun yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxsning boshqaruv organi, kuzatuv kengashi tarkibiga kiradigan shaxs, muassis (ishtirokchi) yoxud yuridik shaxsning mulkdori tomonidan qasddan to'lovga qobiliyatsizligini yuzaga keltirish yoki oshirish sodir etilishi, ushbu yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yuridik shaxsning iqtisodiy nochorlikka (bankrotlikka) olib kelishi tushuniladi.

To'lovga qobiliyatsizlikni qasddan yuzaga keltirish yoki oshirish deganda, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlarning talablarini qasddan qondirmasligi va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir bo'la turib bajarmasligi shuningdek, qarzdor tomonidan majburiyatning boshlangan kunidan uch oy muddatda, shaharni tashkil etuvchi va unga tenglashtiriladigan korxonalar uchun esa – olti oy mobaynida tegishli majburiyatlar va (yoki) vazifalarni qasddan bajarmasligi tushuniladi.

Qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash xo‘jalik sudi tomonidan qarzdor bankrot deb e’tirof etilgan hamda tugatishga doir ish yuritish boshlangandan keyin, qarzdor uchun majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan yoxud uning xatti-harakatlarini boshqacha tarzda alomatlash imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxslarning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari asosida bankrotlik keltirib chiqarilishini taxmin qilish asoslari mavjud bo‘lganda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxsning bankrotligi yuridik shaxs uchun majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan ushbu yuridik shaxsning muassisi (qatnashchisi) yoki mulkdori tomonidan faqat, agar u ko‘rsatib o‘tilgan huquqdan yuridik shaxs tomonidan buning oqibatida yuridik shaxsning bankrotligi boshlanishini oldindan bilgan holda yuzaga keltirilgan xatti-harakatlar sodir etish maqsadida foydalangan bo‘lsa, qasddan bankrotlikka olib kelish deb hisoblanadi¹.

Qarzdorning qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlari buning natijasida qarzdorning bankrotligi yuzaga kelishini oldindan bilgan holda quyidagi xatti-harakatlarni sodir etishida ifodalanadi:

- 1) pul mablag‘laridan va boshqa mol-mulkdan qarzdorga qasddan ziyon yoki zarar yetkazgan holda jinoiy tarzda foydalanish;
- 2) to‘lov intizomini buzish va shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik;
- 3) mol-mulkni balans qiymatidan past narxda sotish yoki uni tekin berish;
- 4) muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik qarzlarni undirish bo‘yicha belgilangan muddatlarda chora-tadbirlar ko‘rmaslik;
- 5) asosiy faoliyatga (ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishga) jalb etilgan qarzdor aktivlarining 50 foizdan ortig‘ini boshqa shaxslarga berish;
- 6) ijro etuvchi organ va/yoki kuzatuv kengashi tomonidan tegishli ravishda ularning vakolatiga kirmaydigan yirik bitimlar tuzish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 14 avgustdagi 224-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Soxta bankrotlik, bankrotlikni

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib keliish alomatlarini aniqlash qoidalarini tasdiqlash tўғрисида»ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 33-сон, 441-модда.

yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash qoidalarini»ning 28-bandiga asosan, qarzdorni qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash maqsadida tahlil o'tkaziladi, u ikki bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqichda ushbu Qoidalarning 13 va 17-bandlarida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar bo'yicha qarzdorning to'lov qobiliyati tahlil qilinadi va qarzdorning o'z kreditorlari oldidagi majburiyatlari ta'minlanganligidagi o'rganilayotgan davrda yuz bergan o'zgarishlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi.

Ikkinchi bosqichda majburiyatlar ta'minlanganligi ko'rsatkichlarida jiddiy yomonlashish aniqlangan taqdirda, ikkinchi bosqichda shu davrning o'zida qarzdorning o'z kreditorlari oldidagi majburiyatlari ta'minlanganligi ko'rsatkichlaridagi jiddiy o'zgarishlarga olib kelgan bitimlarni sodir etish shart-sharoitlari tahlil qilinadi.

Ko'rsatkichlarning jiddiy yomonlashishi deganda, biror-bir choraklik davrda ularning pasayishi sur'ati o'rganilayotgan davrda ushbu ko'rsatkichlar qiymatlari pasayishining o'rtacha sur'atidan oshgandagi pasayish tushuniladi.

Qarzdorning bitimlarini tahlil qilish davomida bitimlar va qarzdorning boshqaruv organlari harakatlarining (harakatsizligining) qonun hujjatlariga muvofiqligi, shuningdek bozor shartlariga muvofiq bo'lmagan shartlarda tuzilgan yoki bajarilgan, qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelishiga yoki ko'payishiga sabab bo'lgan va unga aniq ziyon yetkazgan bitimlar aniqlanadi.

Bozor shartlariga muvofiq bo'lmagan shartlarda tuzilgan bitimlarga quyidagilar kiradi:

a) qarzdorning oldi-sotdi bitimlari hisoblanmagan, qarzdorning aktivlarini kamroq likvidli aktivlarga almashtirishga yo'naltirilgan mol-mulkni o'zgaga berish bo'yicha bitimlari;

b) qarzdorning mol-mulki bilan amalga oshiriladigan, qasddan qarzdor uchun foyda keltirmaydigan shartlarda tuzilgan yoki qarzdorning xo'jalik faoliyati to'xtab qolishiga sabab bo'lgan oldi-sotdi bitimlari;

v) qarzdorning mol-mulk bilan ta'minlanmagan majburiyatlari paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek likvidli bo'lmagan mol-mulk sotib olinishiga sabab bo'lgan bitimlar;

g) ba'zi majburiyatlarni qasddan foyda bermaydigan shartlarda boshqa majburiyatlar bilan almashtirish bo'yicha bitimlar.

Qarzdor uchun oldindan ma'lum bo'lgan foyda bermaydigan shartlardagi bitimlarga quyidagilar kiritilishi mumkin:

a) vujudga kelgan bozor konyunkturasiga nisbatan yetkazib beriladigan (sotib olinadigan) tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) narxlarning pasaytirilishi yoki oshirilishi;

b) to'lovning qarzdor uchun noqulay muddatlari va (yoki) usullari;

v) qarzdor mol-mulking o'zgaga berilishi yoki mol-mulkka majburiyatlar yuklanishining har qanday shakllari, agar ular qarzdorlik teng darajada qisqarishi bilan birga kechmasa.

JKning 181¹-moddasida nazarda tutilgan qilmish moddiy tarkibli jinoyat bo'lib, qilmish natijasida jinoiy oqibat yuzaga kelsagina sodir etilgan qilmish jinoyat sifatida baholanadi.

Qilmish natijasida quyidagi oqibatlarning yuzaga kelishi uni JKning 181¹-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishga asos bo'ladi:

1) yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yuridik shaxsning barqaror iqtisodiy nochorligiga (bankrotligiga) olib kelish;

2) kreditorlarga ko'p miqdorda zarar yetkazilishi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yuridik shaxsning **barqaror iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)** deganda, yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxsning xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilib, ularning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, **kreditorlar** – qarzdor pul majburiyatlari bo'yicha va (yoki) majburiy to'lovlar majburiyatini bajarish bo'yicha qaysi yuridik yoki jismoniy shaxs oldida javobgar bo'lsa, ayni shu yuridik yoki jismoniy shaxslar (qarzdor qaysi fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganligi uchun javobgar bo'lsa, ayni shu fuqaro, shuningdek o'z ishtirokidan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) bundan mustasno).

Kreditorlarga ko‘p miqdorda zarar yetkazilishi deganda, sodir etilgan qilmish natijasida kreditorlarga eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo‘lgan miqdorda zarar yetkazilishi tushuniladi.

Mazkur jinoyat obyektiv tomonining yana bir zaruriy elementi sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning natijasida kelib chiqqan jinoiy oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishdir. Ya’ni, jinoiy oqibatlar aynan sodir etilgan mazkur ijtimoiy xavfli qilmish natijasida yuzaga kelishi lozim. Aks holda, qilmishni JKning 181¹-moddasi bilan kvalifikatsiya qilib bo‘lmaydi.

JKning 181¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyat yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yuridik shaxsning barqaror iqtisodiy nochorligiga (bankrotligiga) olib kelgan yoki kreditorlarga ko‘p miqdorda zarar yetkazilgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

JKning 181¹-moddasida nazarda tutilgan Jinoyat **subyektiv tomondan** qasddan, to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Ya’ni, shaxs ushbu qilmishning jinoiyligini, yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yuridik shaxsning barqaror iqtisodiy nochorligiga (bankrotligiga) olib kelishi yoki kreditorlarga zarar yetkazilishini bila turib, uning oqibatlari kelib chiqishini xohlab sodir etadi.

Shuningdek, mazkur Jinoyatning subyektiv tomonining yana bir zaruriy belgisi uning motividir. Ya’ni, jinoyat yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yoki yuridik shaxs mansabdor shaxsi, muassisi (ishtirokchisi) yoxud mol-mulkinging mulkdori tomonidan shaxsiy manfaatlarini yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab sodir etiladi.

Mazkur jinoyatning **subyekti** maxsus subyektdir. Ya’ni, Jinoyatning subyektining jismoniy shaxs ekanligi, aqli raso ekanligi hamda 16 yoshga to‘lganligini talab etuvchi umumiy asoslardan tashqari, jinoyat sodir etuvchi shaxs yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs mansabdor shaxsi, muassisi (ishtirokchisi) yoxud mol-mulkinging mulkdori bo‘lishi lozim.

Yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan jismoniy shaxsdir.

Fuqarolik kodeksining 42-moddasiga muvofiq, mulkdorlar, xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi subyektlari yoxud ular vakil qilgan shaxslar yuridik shaxslarning muassislari hisoblanadi.

Mol-mulkning mulkdori tegishli mol-mulkni tasarruf etish huquqiga ega bo‘lgan shaxsdir.

Qonunda mazkur jinoyatga nisbatan rag‘batlantiruvchi normalar ham nazarda tutilgan, ya’ni, qasddan bankrotlikka olib kelgan shaxs yetkazilgan moddiy zararining o‘rnini qoplagan taqdirda, unga nisbatan ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo‘llanilmaydi.

Sharhlanayotgan 181¹-moddaning 3-qismiga muvofiq, shaxs javobgarlikdan ozod etiladi, agarda u:

- 1) qasddan bankrotlikka olib kelishni birinchi marta sodir etgan bo‘lsa;
- 2) agar u jinoyat aniqlangan kundan e‘tiboran o‘ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararining o‘rnini qoplagan bo‘lsa¹

9-§. Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 182-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** tovar yoki boshqa qimmatliklarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o‘tkazishning belgilab qo‘yilgan tartibi va shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asoslari hisoblanadi.

Jinoyatning **predmeti** fuqarolik muomalasidagi har qanday tovarlar (masalan, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, mebel, hayvonlar va hokazo) yoki moddiy qimmatliklar bo‘lishi mumkin.

Tovarlar «har qanday ko‘char mol-mulk, shu jumladan, valuta va valuta boyliklari, elektr, issiqlik energiyalari va energiyaning boshqa turlari, transport vositalari, intellektual mulk obyektlari» bo‘lishi mumkin (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 7-moddasi). Tovar sifatida, shuningdek, uy va yovvoyi hayvonlar ham hisoblanadi. Sanab o‘tilganlardan quyidagilar tovar hisoblanmaydi: yo‘lovchilar va tovarlarni tashish uchun foydalaniladigan vositalar, shu jumladan konteynerlar va boshqa transport uskunalari.

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., №1, Б. 1.

Shunga alohida e'tibor berish lozimki, ko'rsatilgan ashyolar ushbu jinoyatning predmeti bo'lishi uchun erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan yoki ularning muomalada bo'lishi cheklab qo'yilmagan bo'lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishini va muayyan muomala ishtirokchilarigagina qarashli bo'la oladigan yoki muomalada bo'lishiga maxsus ruxsatnoma bilan yo'l qo'yiladigan fuqarolik huquqlari obyektlarining (chet el valutasini, dori-darmon) turlari qonunda ko'rsatilgan tartibda belgilanadi. Muayyan ashyoning muomala munosabatlarida mavjud emasligi ushbu ashyo mazkur jinoyat predmeti bo'la olmasligidan dalolat beradi (masalan, bojxona qonunchiligini buzishga litsenziya, shtamp, muhrga oid munosabatlarni kiritib bo'lmaydi).

Boshqa qimmatliklarga shunday ashyo va buyumlar kiradiki, ular o'zining turi, holati va qiymatidan qat'i nazar, alohida tarixiy, badiiy, ilmiy yoki madaniy ahamiyat kasb etadi¹. Bunday qimmatliklarga numizmatika, qadimiy buyumlar, san'at asarlari, paleontologik qoldiqlar va boshqalar kiradi. Ushbu ashyo va buyumlar muomala vositasi bo'la oladi, lekin ularning farqli jihati alohida tarixiy, badiiy, ilmiy yoki madaniy ahamiyatidir. Qimmatliklarning ushbu jihatlarini belgilash uchun tergov organlari va sudlar tegishli ekspertizalarni tayinlashlari lozim.

Ushbu modda doirasida ashyo va buyumlarning tovar yoki qimmatliklar ekanligini belgilashda aybdor tomonidan ulardan qanday maqsadlarda foydalanilishi ahamiyat kasb etmaydi. Ular tadbirkorlik yoki shaxsiy iste'mol maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Quyidagilar ushbu jinoyatning predmeti bo'la olmaydi: kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, radioaktiv, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog', o'qotar qurollar, o'q-dorilar, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar, diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizmni targ'ib qiluvchi materiallar, yadroviy, kimyoviy,

¹Мазкур маданий бойликлар сонига, хусусан, уларга нисбатан Ўзбекистон Республикаси Маданий бойликларнинг олиб чиқилиши ва олиб кирилиши тар-тиби тўғрисида Низом қўлланиладиган бойликлар қиради (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 23 мартдаги 131-сон қарорига 1-илова) // Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами, 1999 й., 3-сон, 15-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 2223-сон, 267-модда.

biologik va ommaviy qirg'in quollarining boshqa turlari, ommaviy qirg'in quollarini yaratishda foydalanilishi mumkin bo'lgan material va moslamalar. Chunki sharhlanayotgan ijtimoiy xavfli qilmishni ushbu predmetlar bilan sodir etish JK tegishli moddalarida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli faoliyat nazarda tutilgan javobgarlikni keltirib chiqaradi¹.

Bojxona qonunchiligini buzishning **obyektiv tomoni** ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalangan holda yoki deklaratsiyasiz yoxud boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni ko'p miqdorda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazishda ifodalanadi.

NOTA BENE !

Bojxona hududi sarhaddari, shuningdek, erkin bojxona zonalari va erkin omborlarning tegralari O'zbekiston Respublikasining **bojxona chegarasi** hisoblanadi. (Bojxona kodeksi 3-moddasi).

O'zbekiston Respublikasining **bojxona chegarasi** mamlakatning davlat chegarasiga mos kelmaydi, chunki u nafaqat O'zbekiston Respublikasi chegarasi bilan (O'zbekiston Respublikasining quruqlikdagi hududi, hududiy va ichki suvlari hamda ular ustidagi havo bo'shlig'i bojxona hududini tashkil etadi), balki O'zbekiston hududidagi erkin bojxona zonalari va erkin omborlar bilan ham belgilanadi. Yuqoridagi hududlar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi, bojxona hududi sarhaddari, shuningdek, erkin bojxona zonalari va erkin omborlarning tegralari bojxona chegarasi hisoblanadi.

¹ЖК ушбу моддаси ЖК 182-моддасига қараганда жамият учун кўпроқ хавф туғдирадиган жиноят учун жиноий жавобгарликни назарда тутати, шу сабабли Жиноят кодексининг 182-моддаси билан қўшимча таснифлашни талаб қилмас-лигини судларга тушунтирилсин — қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 28 декабрдаги «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси томонидан 1997 йил 26 декабрда тасдиқланган Божхона кодексининг қабул қилиниши муносабати билан суд амалиётида вужудга келган айрим масалалар туғри-сида»ги 30-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли ва 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгариш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 210-б.

NOTA BENE !

O‘zbekiston Respublikasining quruqlikdagi hududi, hududiy va ichki suvlari hamda ular ustidagi havo bo‘shlig‘i **bojxona hududini** tashkil etadi.

Bojxona chegarasidan olib o‘tish — tovarlar yoki transport vositalarini har qanday usulda, shu jumladan xalqaro pochta jo‘natmalarini yuborish, quvur transportidan hamda elektr uzatish tarmog‘idan foydalanish yo‘li bilan bojxona hududiga olib kirish yoki olib chiqish harakatlarini amalga oshirish. Shunday harakatlar jumlasiga quyidagilar kiradi: tovarlar yoki transport vositalari bojxona hududiga olib kirilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududidan olib kirilganda — bojxona chegarasidan amalda o‘tish; tovarlar yoki transport vositalari bojxona hududidan olib chiqilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududiga olib chiqilganda — bojxona deklaratsiyasini taqdim etish yoki tovar yoxud transport vositalarini olib chiqish maqsadini amalga oshirishga bevosita qaratilgan o‘zga harakatni bajarish (Bojxona kodeksi 7-moddasi).

NOTA BENE !

Erkin bojxona zonasi va erkin ombor shunday rejimlarki, bunda chet el tovarlari muayyan hududlar va joylarda boj, soliqlar hamda iqtisodiy siyosat choralari qo‘llanilmasdan joylashtiriladi va ishlatiladi, O‘zbekiston tovarlari esa eksport rejimiga muvofiq olib chiqishda qo‘llaniladigan shartlarga ko‘ra joylashtiriladi va ishlatiladi (Bojxona kodeksi 27-moddasi).

Tovarlar yoki boshqa qimmatliklarni bojxona nazoratini chetlab olib o‘tish ularni bojxona organlari mavjud bo‘lmagan joydan yoki bojxona rasmiylashtiruvi va nazorati amalga oshiriladigan vaqtdan tashqari olib o‘tkazishni anglatadi.

NOTA BENE !

Bojxona nazorati — iqtisodiy xavfsizlikni, qonun va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmuidir (Bojxona kodeksi 27-moddasi).

NOTA BENE !

Bojxona rasmiylashtiruvi — tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash maqsadida bojxona organlarining mansabdor shaxslari amalga oshiradigan operatsiyalar majmui.

Bojxona nazoratidan yashirish deganda, shaxsning bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlarning yoki boshqa qimmatliklarni xufiya joylarda va topishni qiyinlashtiradigan usullardan foydalanib yoxud bir tUSDagi ashyoga boshqa ikkinchisining ko'rinishini berib o'tkazishni tushunish lozim. Mulknı maxsus saqlash joylariga yashirib olib o'tish usuliga alohida e'tibor berish kerak, bunday joylarga xufiya joylarni, shuningdek, kontrabanda maqsadlarida transport vositalariga oldindan qayta ishlanib, yig'ilib va shunga o'xshash yo'llar bilan jihozlangan va moslashtirilgan konstruktiv sig'imli idishlarni va boshqa ashyolarni kiritish mumkin.

Hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanish deganda, ashyolarni, tovar va boshqa qimmatliklarni bojxona chegarasidan olib o'tish uchun asos tariqasida qalbaki hujjatlarni, qonunga xilof yo'llar bilan olingan hujjatlarni yoxud yolg'on ma'lumotlar yozilgan hujjatlarni bojxona nazoratiga taqdim etishni tushunish lozim¹.

Qonunga xilof yo'llar bilan olingan hujjat deganda, aybdor tasarrufiga o'rnatilgan tartibni buzgan holda yoki yolg'on ma'lumotlarni taqdim etish orqali yoxud qandaydir qonunga xilof harakatni (masalan, pora olish natijasida) sodir etishi natijasida kelib tushgan hujjat tushuniladi.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 фев-ралдаги «Контрабанда ва бојхона қонунларини бузиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 2-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарoriga асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 43-б.

Boshqacha aytganda, ko‘rib chiqilayotgan modda mazmunida hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanish bojxona organlarining mansabdor shaxslarini ular tovarlar va boshqa predmetlarni chiqarish yuzasidan qonunga xilof qarorlar qabul qilishi uchun chalg‘itish maqsadida sodir etiladigan qilmish bo‘lib, u bojxona nazoratiga haqiqiy emasligi ayon bo‘lgan hujjatlarni, chunonchi:

1) qalbaki hujjatlarni, ya‘ni butunlay soxta bo‘lgan — asl nusxaga ko‘p jihatdan o‘xshatib tayyorlangan yoki haqiqiy bo‘lgan, lekin matnga tuzatish kiritish yoki uning bir qismini yo‘q qilib tashlash yoxud unta qo‘shimcha ma‘lumotlar kiritish nuli bilan kiritilgan buzib ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni o‘z ichita oltan hujjatlarni yoki qalbaki shtamp yoki muhr bosilgan haqiqiy hujjatlarni;

2) noqonuniy yo‘l bilan (masalan, pora olish, soxtakorlik natijasida) olingan yoki tuzilgan hujjatlarni yoxud berish uchun asos sifatida yolg‘on ma‘lumotlar yoki boshqa qalbaki (soxta) hujjatlar taqdim etilishi natijasida yoki o‘zga shaxslarning g‘ayriqonuniy harakatlari orqali olingan hujjatlarni;

3) amalda haqiqiy hisoblangan va lozim tarzda rasmiylashtirilgan, lekin yolg‘on ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatlarni;

4) belgilangan talablarga javob beradigan, lekin O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan boshqa tovarlar va o‘zga boyliklarni o‘tkazish uchun asos hisoblanadigan, tovarlarni bunday o‘tkazishni niqoblash uchun tuzilgan hujjatlarni taqdim etishdan iborat.

Ushbu holatni qo‘llash uchun bojxona organiga taqdim etilayotgan hujjatning yolg‘onligini aybdor bilganligini va bilmasligi mumkin emasligini isbotlash lozim. Aks holda, sharhlanayotgan moddani unga qo‘llash mumkin emas, chunki uni sodir etishdan maqsad mavjud emas.

Agar qalbaki hujjat bojxona qonunchiligini buzgan holda tayyorlangan bo‘lsa, uning qilmishini jinoyatlar majmui bo‘yicha **JK 182** va ish holatiga qarab JK 209- yoki 228-moddalari bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

Bojxona qonunchiligiga ko‘ra, **bojxona identifikatsiya vositalari** deganda, so‘rg‘ichlash, muhrlash, raqamli, harfli va boshqacha tamg‘alar, identifikatsiya belgilarini qo‘yish, shtamplash, namuna va nusxalar olish,

tovarlarni, boshqa qimmatliklarni xatlash, chizmalar tuzish, miqyosini tasvirlash, fotosuratlar, rasmlar tayyorlash, tovarlar bilan birga yuboriladigan va boshqa hujjatlardan foydalanish va hokazolar tushuniladi. Identifikatsiya vositalari, agar mavjud tovarlar yoki transport vositalari yo‘qolishiga yoxud qayta tiklab bo‘lmas darajaga kelshiga real xavf mavjud bo‘lgan holatlardan tashqari, barcha hollarda bojxona organlari tomonidan yoki ularning ruxsati bilan o‘zgartirilishi, bekor qilinishi yoki yo‘qotilishi mumkin.

Bojxona identifikatsiya vositalaridan aldash yo‘li bilan foydalanish deganda, shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi yoki boshqa davlat bojxona organlari tomonidan tatbiq etilgan identifikatsiya vositalarini o‘zgartirishi, yo‘q qilishi, buzishi yoxud yo‘qotishi bilan bog‘liq harakatlari tushunilishi lozim.

Bojxona identifikatsiya vositalari faqatgina bojxona organlari tomonidan o‘zgartirilishi yoki yo‘q qilinishi mumkin. Tovarlar yoki transport vositalarining buzilishi yoki qayta tiklanmaydigan darajada shikast etishi yoxud yo‘qotilishiga real xavf mavjud bo‘lgan holatlar bundan mustasno.

Bojxona identifikatsiya vositalarining noqonuniy o‘zgartirilishi ularni soxtalashtirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

NOTA BENE !

Deklaratsiyalash deganda, tovarlar yoki transport vositalari to‘g‘risidagi, ular joylashtiriladigan bojxona rejimlari haqidagi aniq ma‘lumotlarni, bojxona maqsadlari uchun zarur bo‘lgan boshqa ma‘lumotlarni belgilangan shaklda bayon etish orqali amalga oshirish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan olib o‘tiluvchi tovar va qimmatliklar yoki o‘zining bojxona rejimini yangilayotganlar (masalan, bojxona omborlari rejimidan erkin omborlar rejimiga o‘tayotganlar) deklaratsiyalanadi. Biroq tahlil qilinayotgan modda mohiyatidan kelib chiqib, ko‘rsatilgan usullarni bojxona qonunchiligini buzish deb hisoblash uchun bojxona chegarasidan olib o‘tilayotgan tovar yoki qimmatliklarni

deklaratsiya qilmaslik yoki boshqa nomda deklaratsiya qilinishi qayd etiladi.

Deklaratsiyalash O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida o‘rnatilgan tartib va shakllarda ariza berish orqali amalga oshiriladi. Shunga alohida e’tibor berish lozimki, Bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganligi rasmiylashtirilgan paytdan boshlab, u yuridik ahamiyatga molik faktlardan dalolat beruvchi hujjatga aylanadi.

Deklaratsiyalash yuritilmaydigan va tovarlarni olib o‘tishning huquqiy rejimiga bog‘liq predmetlarning alohida turlariga nisbatan qonun bilan maxsus qoidalar o‘rnatilgan.

Tovarlarni yoki boshqa qimmatliklarni deklaratsiyaga kiritmaslik yoxud o‘zgacha nom bilan deklaratsiyaga kiritish deganda, shaxslarning chegaradan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan kontrabanda ashyolarini yoxud tovar yoki boshqa qimmatliklarni deklaratsiya qilish tartibini buzishi bilan bog‘liq harakatlari, ya’ni bojxona qonunlari tomonidan o‘rnatilgan deklaratsiya qilish shakli va joyi to‘g‘risidagi, uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi, deklaratsiya va boshqa qo‘shimcha hujjatlar taqdim etish muddatlari to‘g‘risidagi talablarga rioya etmaslik, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan yoki uning hududidan olib chiqilayotgan kontrabanda ashyolari, tovar yoki boshqa qimmatliklarning turi, soni xususida deklaratsiyaga soxta ma’lumotlar kiritish tushuniladi¹.

JK 182-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan qilmish uchun jinoiy javobgarlik xuddi shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilgandan so‘ng, bir yil davomida **ko‘p miqdorda** sodir etilganda kelib chiqadi.

Huquqbuzarlik predmeti bo‘lgan tovarlarning qiymati 1998 yil 1 yanvardan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Bojxona tarifi haqida»gi Qonuni, shuningdek, Bojxona kodeksining 179-moddasi bilan belgilangan tartibda bozor bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi¹.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 фев-ралдаги «Контрабанда ва бојхона қонунларини бузиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 2-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарoriga асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 43-б.

Tovarlar g'ayriqonuniy ravishda O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali amalda olib o'tilgan vaqtdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi. «Ana shunday olib o'tishga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan harakatlar jinoyatga suiqasd deb tasniflanishi lozim»¹. Tovarlar yoki boshqa qimmatliklarni bojxona chegarasidan g'ayriqonuniy olib o'tganlik uchun jinoiy javobgarlik, tovar yoki boshqa qimmatliklarni olib o'tish usulidan qat'i nazar, ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa va aybdor shaxsga nisbatan shunday harakatlari uchun ma'muriy choralar qo'llanilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tkazilgandan so'ng qo'llaniladi.

«Tovarlar yoki boshqa qimmatliklarni g'ayriqonuniy ravishda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tish g'ayriqonuniy ravishda chegaradan tashqariga chiqish, O'zbekiston Respublikasiga kirish yoki belgilangan tartiblarni buzib, chegaradan o'tish bilan bog'liq bo'lsa, bunday harakatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 182-va 223-moddalarida ko'zda tutilgan jinoyatlarning yig'indisi sifatida tavsiflanishi lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri kasddan** sodir etiladi. Aybdor shaxs tovar yoki qimmatliklarni bojxona chegarasidan g'ayriqonuniy olib o'tayotganligini anglab etadi va o'zining jinoiy maqsadini amalga oshirishni xohlaydi. **Motiv** va **maqsad** jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatmaydi.

Jinoyat **subyekt**i 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Tahlil qilinayotgan jinoyatni **JK 182-moddasi 2-kismiga** muvofiq kvalifikatsiya qilish belgilari quyidagilar:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) chegarani buzib o'tish, ya'ni bojxona xizmatining roziligini olmasdan turib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan ochiqdan-ochiq o'tkazish yo'li bilan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab;
- g) xizmat lavozimidan foydalangan holda sodir etilganligi hisoblanadi.

Buzib o'tish deganda, tovar yoki boshqa qimmatliklarni bojxona

¹Ўша жойда.

xizmatining roziligini olmasdan ochiqchasiga olib o'tish tushuniladi.

Ushbu modda bo'yicha **bojxona xizmati** deganda, O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari va bojxona organlarining mansabdor shaxslarini tushunmoq lozim.

Buzib o'tishni quyidagi holatlar yig'indisi tashkil etadi: a) tovar va qimmatliklarni ochiqcha olib o'tish; b) bojxona xizmati vakolatli shaxsining ruxsatisiz olib o'tish. Ko'rsatilgan holatlardan birortasining mavjud bo'lmasligi shaxsning harakatida sharhlanayotgan **JK 182-moddasidagi** kvalifikatsiya belgilari mavjud deb topilishiga yo'l qo'ymaydi.

Ochiqchasiga olib o'tish deganda, bojxona xizmati xodimlarining tovarlar olib o'tilishi haqida xabardorligi tushuniladi. Bojxona xizmatining xabardorligi qonunchilik qoidalariga zid sodir etilayotgan ma'lumotlar taqdim etilishidan va bojxona organining olib o'tishni bevosita nazorat qilishidan kelib chiqadi. Jinoyatchi subyektga kvalifikatsiya qilinayotgan ushbu belgilar bo'yicha aybni qo'llash uchun shaxsga tovar yoki qimmatliklarni g'ayriqonuniy olib o'tishayotganligi haqida bojxona organlari xabardorligini bilganligini va bilmasligi mumkin emasligini aniqlash lozim. Agar aybdor tovar yoki qimmatliklarni noqonuniy olib o'tayotganligidan bojxona xizmatining xabardorligini (masalan, bojxona chegarasidan tovarlarni olib o'tayotgan shaxsning harakatlari videokameraga olinayotganligini) bilmasa, qilmish ochiqchasiga olib o'tish deb topilmaydi.

Tovarlarni ochiqcha olib o'tish ham bojxona xizmatining ruxsatini olmasdan turib amalga oshirilishi kerak, ya'ni bunday harakatni amalga oshirishga rasmiy ruxsatnoma bo'lmasligi lozim. Tovarlarni olib o'tishga ruxsatnomaning mavjud emasligi to'g'risida, shuningdek, bunday harakatlarni sanktsiyalash vakolati mavjud bo'lgan mansabdor shaxsning to'g'ridan-to'g'ri taqiq qo'yishi ham dalolat beradi¹.

¹Ushbu mazmunda ruxsatnomasiz utkazish tushunchasi Bojxona organlari tomonidan maxsus vositalarni kullash tartibi tufarisidagi Yuriknoma (Uzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 9 noyabrda 835-son bilan davlat ruyxatidan utkazilgan, Uzbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasininng raиси tomonidan 1999 yil 6 avgustda tasdiqlangan) 2-bandida va Mустақил Davlatlar Hamdustligiga a'zo bulgan davlatlarning Bojxona konunchiligininng asoslari (MDXga a'zo bulgan davlatlar rahbarlari Kenqashininng qaroriga ilova), 217-moddasida tushuniladi.

Tovarlarni ochiqcha olib o'tish, zo'rlik ishlatmasdan, shuningdek, zo'rlik ishlatish orqali yoki mol-mulkka zarar yetkazish tarzida amalga oshirilishi mumkin. Bu holatda jinoyatni JKning Maxsus qismi shaxsga qarshi jinoyatlar yoki o'zgarar mulkiga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun belgilangan javobgarlik moddalari bilan jinoyatlar jami tariqasida tavsiflash lozim.

Bojxona qonunchiligini buzishga doir munosabatlarda sharhlanayotgan belgilar shundan iboratki, **JK 182-moddasi** bo'yicha javobgarlikka nafaqat bojxona chegarasidan tovar yoki boshqa qimmatliklarni bevosita olib o'tayotgan shaxslar, balki uyushgan guruhning barcha ishtirokchilari (masalan, bojxona chegarasidan g'ayriqonuniy olib o'tish maqsadida xarid qilganlar yoki olib o'tilgandan so'ng qonunga xilof ravishda olib o'tilganligini oldindan bila turib xarid qilganlar, bunda ularga bojxona nazorat punktida yoki undan tashqarida noqonuniy olib o'tishga yordam berganlar) kiradi.

Uyushgan guruh a'zosi bo'lmagan shaxs tomonidan chet eldan olib kelingan tovar yoki qimmatlikni oldindan va'da berib xarid qilish sharhlanayotgan belgining ikkinchi qismini — jinoyat uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilishini tashkil etadi.

Bojxona qoidalarini buzish orqali O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgan mol-mulklarning jinoiy yo'l bilan topilganini bila turib, oldindan va'da bermagan holda olish yoki o'tkazish harakatlariga nisbatan JKning 171-moddasi bilan javobgarlik kelib chiqadi.

JK 182-moddasi 2-qismida yetkazilgan zararning miqdoridan qat'i nazar **xizmat vakolatidan foydalangan** holda bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik o'rnatilgan. Xizmat vakolatidan foydalangan holda bojxona qonunchiligini buzish — bojxona organlarining mansabdor shaxsi, ya'ni vakolat doirasiga nazorat funksiyasi va bojxona qonunchiligida belgilangan boshqa majburiyatlar yuklatilgan shaxs tomonidan o'z vakolatlarini suiiste'mol qilgan holda tovar va boshqa qimmatliklarni bojxona chegarasidan olib o'tishidir. Ushbu jinoyatni sodir etishda mansab vakolatidan foydalanish deganda, shuningdek, bojxona qonunchiligini buzish boshqa davlat organlari mansabdor shaxslarining o'z

vakolatini suiiste'mol qilishi orqali sodir etilishini ham tushunish lozim.

«O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 182-moddasi 2-qismining «g» bandida nazarda tutilgan jinoyatning subyekti chegarada nazorat funksiyasini amalga oshirayotgan mansabdor va boshqa shaxslar, shuningdek, tovar va boshqa qimmatliklarni O‘zbekiston Respublikasi chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazish maqsadida hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilgan shaxslar hisoblanadi»¹.

Xizmat vakolatidan foydalanish bojxona qonunchiligini bevosita buzishda, ya'ni tegishli mansabdor shaxs tovar yoki boshqa qimmatliklarni mustaqil ravishda bojxona chegarasini buzgan holda olib o‘tishda ham ifodalanadi. Bunday holatda u sharhlanayotgan jinoyatning ijrochisi yoki bajaruvchisi hisoblanadi. Mansabdor shaxsning harakatlari JK 205 yoki 206-moddalari bo‘yicha qo‘shimcha kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi, chunki ular **JK 182-moddasi 2-qismida** nazarda tutilgan tarkibni to‘liq qamrab oladi. Agar tovar va boshqa qimmatliklarni olib o‘tish mansab vakolatiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan, mansabdor shaxs yordamida sodir etilsa, unda uning harakatlari jinoyatlar majmui bo‘yicha JK 28-moddasi va 182-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatlar bilan, shuningdek, sodir etilgan jinoyatning aniq holatlariga bog‘liq ravishda JK 205- yoki 206-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

10-§. Raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini va tabiiy monopoliyalar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 183-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida»gi 355-1-son Qonuni tovar bozorlarida monopolistik faoliyat va insofsiz raqobatning oldini olish, uni cheklash, to‘xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilab beradi, raqobat munosabatlarning shakllanishi va samarali amal qilishi uchun sharoitlar ta'minlashga qaratilgan.

Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzishning ijtimoiy xavfliligi

¹Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 2-сон, 54-модда; 1999 й., 9-сон, 229-модда; 2001 й., 1-2-сон, 23-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 41-сон, 405-модда.

shundaki, ushbu jinoyat sodir etilishi natijasida bozorning eng muhim elementi, ya'ni alohida shaxslar, jamiyat va davlat manfaatlariga putur etadi.

Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzish jinoyatining **bevosita obyekti** o'rnatilgan tartib va bozorni samarali boshqarish qoidalari shaklidagi O'zbekiston iqtisodiyotining asoslari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z huquq va imkoniyatlarini amalga oshirishlariga to'sqinlik qiluvchi monopolistik faoliyatni amalga oshirishning oldini oluvchi munosabatlar hisoblanadi. **Fakultativ obyekti** xo'jalik subyekti sifatida faoliyat ko'rsatmaydigan alohida fuqarolar va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarini bo'lishi mumkin.

NOTA BENE !

Raqobat xo'jalik yurituvchi subyektlarning musobaqalashuvi bo'lib, ularning mustaqil harakatlari har bir subyekt tomonidan tegishli tovar bozorida tovarlar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini cheklaydi.

NOTA BENE !

Monopolistik faoliyat — xo'jalik yurituvchi subyektlarning, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining monopoliyaga qarshi kurash haqidagi qonun hujjatlariga xilof bo'lgan, raqobatga yo'l qo'ymaslikka, uni cheklash yoki bartaraf etishga qaratilgan harakatlari yoki harakatsizligi.

Obyektiv tomondan JK 183-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan harakatlar monopoliyaga qarshi faoliyat olib borish vakolat doirasiga kiruvchi organga axborot bermaslikdan yoki bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni taqdim qilishdan, xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan so'ng sodir etilishida ifodalanadi.

O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga ko'ra, «Tovar bozorlarida raqobatni rivojlantirishga ko'maklashish, xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining

monopolistik faoliyatini va insofsiz raqobatini cheklash hamda to‘xtatib qo‘yish sohasida davlat siyosatini monopoliyaga qarshi davlat organi olib boradi»¹. Bularga O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi², shuningdek, uning hududiy organlari kiradi. Aynan qo‘mita bo‘linmalari va qo‘mitaning o‘zi bir butunlikda monopoliyaga qarshi faoliyat olib borishga vakolatli organ sifatida qabul qilinadi. Shu sababli axborot bermaslik yoki haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlarni, bila turib, boshqa davlat organlariga taqdim qilish monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzish sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida»gi amaldagi Qonuniga asosan, davlat monopoliyaga qarshi organi so‘rov asosida uning turi va sifat xususiyati hamda xo‘jalik subyekti uchun ahamiyatliligidan qat’i nazar istalgan axborotni olish huquqiga ega³. Mas’ul shaxslar davlat qo‘mitasiga har qanday axborotni, ya’ni:

— xo‘jalik yurituvchi subyektning ustav jamg‘armasidagi aksiyalarning o‘ttiz beshdan ortiq ulushini har qanday usulda (xarid qilish, almashtirish, hadyaga olish, ishonchli boshqaruv va hokazo) olishi to‘g‘risida;

— xo‘jalik yurituvchi subyektning tadbirkorlik faoliyatini olib borish yoxud uning ijroiya organi vazifalarini amalga oshirish shartlarini belgilash imkonini beruvchi huquqlarni har qanday usulda (saylash, kelishuv, topshiriq va boshqalar orqali) olishi to‘g‘risida;

— bitimlar to‘g‘risida, ya’ni uning natijasida tabiiy monopoliya subyekti tovar ishlab chiqarish (realizatsiya) uchun mo‘ljallanmagan, davlat tomonidan tartibga solinadigan, asosiy vositalarga mulk huquqini qo‘lga kiritishi yoki asosiy vositalardan foydalanish huquqini olishi, agar ushbu asosiy vositalarning balans qiymati tabiiy monopoliya subyekti

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 27-декабрдаги «Товар бозорларида монополистик фаолиятни чеклаш ва ракобат тўғрисида»ги 355-1-сон Қонуни, 9-модданинг 1-қисми.

² Qarang: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 30-апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси монополиядан чиқариш, ракобат ва тadbirkorlikni қўллаб-қувватлаш Давлат қўмитасини ташкил этиш тўғрисида»ги ПФ-3602-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й., 1718-сон, 127-модда.

³Qarang: Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 27 декабрдаги «Товар бозорларида монополистик фаолиятни чеклаш ва ракобат тўғрисида»ги 355-1-сон Қонуни, 11—12-моддалар.

mablag'ining o'n foizidan ortig'ini tashkil etsa;

— tabiiy monopoliya subyekti boshqa xo'jalik subyektiga egalik huquqini yoki tabiiy monopoliya¹ to'g'risidagi qonunchilik bilan tartibga solinadigan asosiy vositalarning bir qismidan foydalanish huquqini beradigan bitimlar to'g'risida, agar ushbu asosiy vositalarning balans qiymati tabiiy monopoliya subyekti mablag'ining o'n foizidan ortig'ini tashkil etsa;

— xolding tashkil etish, ya'ni aktivlari qatoriga boshqa tashkilotlarning nazorat paketi aksiyalari kiradigan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini tuzish to'g'risida;²

— muayyan xo'jalik subyektining tovar bozoridagi, savdo-sotiq hajmi va bozordagi ulushi chegarasini belgilovchi ma'lumotlarni. Bunday ma'lumotlar qatoriga, masalan, tovarlarni realizatsiya qilish, ularni muayyan hududlarga olib kirish va ulardan olib chiqish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish mumkin;

— O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi Komissiyasi yoki ularning hududiy organlari tomonidan monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzganlik to'g'risidagi ishlarni tayyorlash va ko'rish uchun talab etiladigan, shuningdek, uning qaror va yo'riqnomalarini ijro etish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlar. Javobgar shaxslar nafaqat kerakli hujjatlarni taqdim etishi, balki zarur hollarda o'zlari suhbatlarga kelib, yozma tushuntirish berishlari lozim;

— monopol mahsulotga qat'iy va tartibga soluvchi narxlarni (tariflarni) shakllantirish, asoslash va qo'llashga doir;

— tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan tovarlar hajmi bo'yicha shartnomalariga rioya qilinishiga doir;

— tabiiy monopoliya subyektlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 24 апрелдаги «Табиий монополиялар тўғрисида»ги 398-1-сон Қонуни (Ўзбекистон Республикаси 1999 й. 19 август- даги 815-1-сон Қонунининг таҳририда) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 9-сон, 212-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 41-сон, 405-модда; 2007 й., 50-51-сон, 499-модда.

²Қаранг: Холдинглар тўғрисидаги Низом (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳ- камасининг 1995 йил 12 октябрдаги 398-сон қарори билан тасдиқланган) // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2001 й., 15-16-сон, 106- модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2002 й., 17-18-сон, 135-модда.

tugatishga doir;

– qonunchilikda belgilangan holatlarda moliyaviy ishlab chiqarish guruhlarini tashkil etishga doir ma'lumotlarni berishlari shart.

Ma'muriy organlarning talabi bilan yoki talabisiz taqdim etilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati yuqoridagilar bilan chegaralanmasdan, Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi talabi bilan javobgar shaxslar boshqa ma'lumotlarni ham taqdim etishlari lozim. Shu o'rinda quyidagilarga alohida e'tibor berish zarurki, monopoliyaga qarshi organlar tomonidan talab qilinadigan hujjatlar faqat monopoliya faoliyatini amalga oshirish yoki monopoliya faoliyatini amalga oshirish ehtimoli mavjudligi bilan bog'liq masalalarga tegishli bo'ladi, bunday masalalarga tegishli bo'lmagan hujjatlarni ushbu organlar talab qilishi mumkin emas. Aks holda hokimiyat vakolatlarini ochiqchasiga suiiste'mol qilish sifatida aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish lozim bo'ladi.

Amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda mas'ul shaxsning mustaqil ravishda yoki monopoliyaga qarshi kurashuvchi organning talabi bilan taqdim etishi lozim bo'lgan hujjatlarni monopoliyaga qarshi kurashuvchi organlarga taqdim etmasligi **ma'lumotlarni taqdim etmaslik deb tan olinishi** lozim.

Ma'lumotlarni taqdim etmaslik monopoliyaga qarshi faoliyatni amalga oshirishga vakolatli organga berishdan bosh tortishda yoki turli xil bahonalar bilan belgilangan muddatda topshirmaslikda namoyon bo'lishi mumkin. Ma'lumotlarni taqdim etmaslik, shuningdek, yuklatilgan majburiyatlarga mas'uliyatsizlarcha munosabatda bo'lish yoki esdan chiqarib yuborishda ham namoyon bo'lishi mumkin.

Davlat monopoliyaga qarshi organiga ma'lumotlarni taqdim etmaslik formal tarkibli jinoyat hisoblanadi, ya'ni muayyan bir oqibat kelib chiqishidan qat'i nazar, majburiyat yuklatilgan shaxs ushbu ma'lumotlarni taqdim etishi lozim bo'lgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi. Jinoyatni qachondan boshlab tugallangan deb topish vaqti, har bir alohida holatda uni taqdim etishga mas'ul shaxs va ma'lumotning xususiyatidan kelib chiqib belgilanishi lozim. Masalan, xo'jalik subyektining 35 foizdan

ko'proq aksiyasi sotib olinganda, bunday shartnoma haqidagi ma'lumot quyidagilar tomonidan taqdim etiladi:

1) aksiyalarni sotib olgan shaxs tomonidan shartnoma tuzilguncha. Shuning uchun bunday ma'lumotning shartnoma tuzilgandan so'ng taqdim etilishi monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzish sifatida ko'riladi;

2) investitsiya institutlari va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazuvchi boshqa shaxslar tomonidan bunday shartnomalar (masalan, davlat monopoliyaga qarshi kurash organining ruxsati bo'lmaganda) tuzilishida qoidabuzarliklar mavjudligi aniqlanganda — 3 kun ichida.

Ma'lumotlarni taqdim etish deganda, ularning monopoliyaga qarshi kurashuvchi organlarning vakolatli shaxslariga rasmiy ravishda xabar berishlari tushuniladi.

Rasmiy ravishda xabar berish — ko'rsatilgan ma'lumot monopoliyaga qarshi organga ma'lumotni taqdim etish vakolati yuklatilgan shaxs yoki ushbu organning bevosita so'rovi yuborilgan mansabdor shaxs tomonidan taqdim etilishidir, ushbu xabarda kim tomonidan (qaysi yuridik shaxs, davlat organi, vakolatli shaxs) yuborilayotganligi to'la-to'kis aks ettirilgan bo'ladi. Agar monopoliyaga qarshi organga ushbu talablarga rioya qilmagan holda ma'lumot, xabar berilgan bo'lsa, u rasmiy xabar berish deb hisoblanishi mumkin emas.

Ushbu modda doirasidagi **ma'lumotlarga** bevosita monopolistik faoliyatni amalga oshirish yoki amalga oshirish ehtimolini nazarda tutuvchi axborotlar kiradi. O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi vakolatlariga kirmaydigan masalalarni qamrab olgan ma'lumotlar **JK 183-moddasida** nazarda tutilgan ma'lumot bo'la olmaydi.

Haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar — monopolistik faoliyatni belgilovchi muhim dalillarni to'liq yoki qisman buzib ko'rsatadigan hujjatdir.

Haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarga, shuningdek, dalillarni buzib ko'rsatmasada, ularni o'zida ifodalamaydigan yoki yashirib ko'rsatadigan axborotlar kiradi. Bunda vujudga kelgan holatni noto'g'ri

baholash uchun real xavf tug'iladi. Masalan, bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni, ularning bir qismini yashirib ko'rsatish monopoliyaga qarshi organga tashkilot ustav fondining 5 foizi miqdoridagi aksiyasini sotib olganligi to'g'risidagi ma'lumot bilan birga, sotib oluvchida boshqa shartnomalar asosida oldindan 32 foiz aksiyalar mavjudligi haqida xabar berilmasligidir.

Xo'jalik subyektining bir qismi iqtisodiyotning ma'lum sohalarida monopolistligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar haqiqatga to'g'ri kelmaydigan deb hisoblanishi mumkin emas. Xabar muayyan sub'ekkgga yoki aniq belgilangan subyektlar guruhiga taalluqli bo'lishi kerak. Masalan, muayyan bozor subyekti boshqa tadbirkorlarning bozorga kirishiga to'sqinlik qilayotganligi to'g'risida xabar haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Bunday xabarlar yetarli shartlar mavjud bo'lganda, JK 139-moddasi (Tuhmat) yoki 192-moddasi (Raqobatchini obro'sizlantirish) bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atish uchun asos bo'lishi mumkin.

Haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni xabar berish orqali monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzishning zaruriy belgisi aybdor tomonidan bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar taqdim etilishidir.

Bila turib deganda, monopoliyaga qarshi organga ma'lumotni xabar qilgan javobgar shaxs, ishning obyektiv holatlaridan kelib chiqib, ushbu ma'lumotlar haqiqatga to'g'ri kelmasligini, ular yolg'onligini bilgan bo'lishidir. Agar javobgar shaxs ishni obyektiv holatlardan kelib chiqib bilmagan yoki bilishi lozim bo'lmagan bo'lsa, monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzish deb kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotni monopoliyaga qarshi organga taqdim etish, ushbu ma'lumot O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining vakolatli shaxsi tomonidan olingan vaqtdan boshlab jinoyat **tugallangan** deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan JK 183-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat **qasddan** sodir etilishi mumkin. Shunga alohida e'tibor berish

lozimki, bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotni taqdim etish faqatgina **to'g'ri qasd** bilan sodir etilishi mumkin.

Ushbu jinoyatni sodir etish **maqsad** va **motivlari** turli xil bo'lishi mumkin. Bu nafaqat bozorda monopolistik holatni o'rnatish, balki shaxsiy boyishga qaratilgan qasd manfaatlari ham bo'lishi mumkin. Biroq qilmishni sodir etish maqsad va motivlari jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi, lekin jazo tayinlashda sud tomonidan inobatga olinishi lozim.

JK 183-moddasi 2-qismining obyektiv tomoni monopoliyaga qarshi faoliyat olib borish vakolati berilgan organning talablarini yoxud boshqa qonuniy ko'rsatmalarini bajarishdan bo'yin tovlash yoki ularni o'z vaqtida bajarmaslik, xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy javobgarlik qo'llanilganidan so'ng sodir etilishi bilan tavsiflanadi.

Agar tekshirish chog'ida qonun hujjatlari buzilishlari bartaraf etilmaganligi yoki bartaraf etish chora tadbirlari ko'rilmaganligi aniqlansa, **ko'rsatma bajarilmagan** hisoblanadi.

Ko'rsatma quyidagi hollarda **qisman bajarilmagan** hisoblanadi:

1) ko'rsatmaga muvofiq bartaraf etilishi kerak bo'lgan barcha qonun hujjatlari buzilishlari bartaraf etilmaganda;

2) ko'rsatmada nazarda tutilgan barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar va organlarga nisbatan qonun hujjatlari buzilishlari bartaraf etilmaganda.

Ko'rsatmalar o'z vaqtida bajarilmagan deganda, ko'rsatmaning unda ko'rsatilgan muddatni buzgan holda bajarilishi tushuniladi.

Ko'rsatmalarni bajarishdan bosh tortish deganda, ko'rsatmaning subyekt tomonidan bajarilmaganligi yoki qisman bajarilmaganligi tushuniladi¹.

Ko'rsatmalarni bajarmaslik ko'rsatmalarni bajarishdan bosh tortishdan quyidagilar bilan farq qiladi. Birinchisi, faqat ehtiyotsizlik orqasidan sodir etiladi, ikkinchisi esa, to'g'ri qasd bilan sodir etishda ifodalanadigan harakatsizlikdir. Shuni ta'kidlash lozimki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, agar qonun bilan belgilangan ijro etish muddati o'tib ketgan

¹Монополияга қарши қонун ҳужжатларини, табиий монополиялар, истеъмолчи-ларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари ва реклама тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун иш кўзга тиш ва уларни кўриб чиқиш тартиби тўғрисидаги Низом (Ўзбекистон Респуб-ликаси Вазирлар Маҳкамасининг 2005 йил 12 октябрдаги 225-сон қарорига илова), IV бўлимнинг 28-банди // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й., 41-42-сон, 317-модда.

bo'lsada, ko'rsatilgan talablardan birortasi ham bajarilmayotgan taqdirda ko'rsatmalarni bajarishdan bosh tortish deb topishi lozim.

Monopoliyaga qarshi kurashuvchi organning talablari va boshqa qonuniy ko'rsatmalarini bajarmaslik yoki bajarishdan bosh tortish aktiv shakl (ko'rsatmani qabul qilmaslik, adresini o'zgartirish va hokazo)da yoxud passiv shakl (ko'rsatmada ko'rsatilgan qonunbuzarliklarni bartaraf etish choralarini ko'rmaslik)da ifodalanishi mumkin. Biroq bajarmaslik va bajarishdan bosh tortish shakllari qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi.

JK 183-moddasi 2-qismiga ko'ra, subyekt tomonidan qaror (ko'rsatma)ning muddatida bajarilmasligi jinoyatni **tugallangan** deb topishga olib keladi. Bu muddatga, shuningdek, subyektning arizasi bo'yicha unga berilgan qo'shimcha muddatlar ham kiradi.

Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini monopoliyaga qarshi organning qaror (ko'rsatma)larini bajarmaslik yoki bajarishdan bo'yin tovlash shaklida buzish harakatlari ma'muriy preyuditsiya mavjud bo'lganda ijtimoiy xavfli hisoblanadi.

Subyektiv tomondan JK 183-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat ham **qasddan** (bo'yin tovlash) sodir etilishi mumkin. Ushbu qilmishning **maqsad** va **motivlari** turlicha bo'lsa ham, uning kvalifikatsiya qilinishiga ta'sir etmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasiga tegishli ma'lumotlarni taqdim etish majburiyati yuklatilgan 16 yoshga to'lgan shaxs hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tijorat va notijorat tashkilotlarining rahbarlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, xo'jalik subyektlari bilan kelishib yoki mustaqil ravishda harakat qila oladigan ijro va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari subyekt bo'lishi mumkin.

Agar monopoliyaga qarshi qonunchilikni buzish davlat organining mansabdor shaxsi tomonidan sodir etilgan bo'lsa (masalan, ustav fondining 35 foiz aksiyasini (ulushini) sotib olganligi haqidagi ma'lumotni taqdim etmaslik), ishning mavjud holatlaridan kelib chiqib uning

harakatlari jinoyatlar majmui tariqasida **JK 183-moddasi** va 205-, 207-moddalari yoki JK 208-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

11-§. Soliqlar va boshqa majburiy tulovlarni tulashdan buyin tovlash (JK 184-moddasi)

2007 yil 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasida soliq tizimi, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari, soliq solishning tartibi, shuningdek, soliq majburiyatini ijro etish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan yangi Soliq kodeksi qabul qilindi.

Jinoyatning **bevosita obyekti** har bir jismoniy va yuridik shaxs tomonidan qonun bilan belgilangan soliq va boshqa to'lovlarni to'lashdek konstitutsiyaviy burchlarni bajarish bo'yicha davlatning moliyaviy sohadagi faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlardir.

JK 184-moddasida javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyatning **predmeti** — soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar hisoblanadi.

Bu tushunchalarning mazmunini aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga, shuningdek, amaldagi soliq qonunchiligida qo'llanilgan ta'riflarga murojaat etish lozim¹. Soliq kodeksining 12-moddasiga ko'ra, **soliq** deganda, Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, Budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi. **Boshqa majburiy to'lovlar** deganda, ushbu Kodeksda belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek, vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududida umumdavlat soliqlari, mahalliy soliqlar va yig'imlar amal qiladi.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2003 йил 6 июндаги «Солиқ ва бошқа мажбурий тўловларни тўлашдан бўйин товлаганлик учун жа- вобгарлик тўғрисидаги қонунларнинг судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 6-сонли қарори // Тўплам, 2-жилд. — 131-б.

Umumdavlat soliqlariga yuridik shaxslar daromad (foyda) solig‘i; jismoniy shaxslar daromad solig‘i; qo‘shilgan qiymat solig‘i; Aksiz solig‘i; yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq; ekologiya solig‘i; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar kiradi. Boshqa majburiy to‘lovlarga ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar (yagona ijtimoiy to‘lov; fuqarolarning Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari; Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar), Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar (Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar; Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar), davlat boji, bojxona to‘lovlari, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘imlar kiradi.

Mahalliy soliqlar va yig‘imlarga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig‘i; yer solig‘i; obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i; jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq; savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig‘im, shu jumladan ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig‘imlari; yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olganlik uchun yig‘imlar kiradi.

Davlat umummilliy dasturlarini amalga oshirish davrida tegishli jamg‘armalar tashkil etilishi mumkin bo‘lib, ularga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to‘lovlar belgilanadi (Soliq kodeksining 23-moddasi). Shu bilan bog‘liq ravishda har bir alohida holatlarda aybdor aniq qaysi soliqni to‘lashdan bo‘yin tovlayotganini aniqlash lozim.

Obyektiv tomondan soliq yoki boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash daromad yoxud boshqa to‘lovlarni yoki soliq solishning boshqa obyektlarini yashirish, kamaytirib ko‘rsatish, ancha miqdordagi soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun ma‘muriy choralar ko‘rilgandan so‘ng, ancha miqdorda sodir etilishi bilan tavsiflanadi.

Soliq kodeksining 25-moddasiga ko‘ra, **soliq solish obyekti** soliq to‘lovchida soliq yoki boshqa majburiy to‘lov hisoblab chiqarilishi va

(yoki) to‘lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasi bo‘lishi mumkin.

Foyda (daromad) — mazkur modda ma’nosida — jami daromad bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan chegirmalar o‘rtasidagi farq hisoblanadi.

Jami daromadga jo‘natilgan tovar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar va boshqa operatsiyalar uchun yuridik shaxs olishi lozim bo‘lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshqa mablag‘lar kiradi.

Chegirmalar qonunda nazarda tutilgan hollarda soliq solinadigan bazaning kamayishiga olib keluvchi soliq to‘lovchining xarajatlari hisoblanadi.

Soliq solishning boshqa obyektlari deganda, mazkur modda doirasida shunday predmet va huquqlarni (daromaddan tashqari) tushunish joizki, ular mavjud bo‘lganda soliq majburiyati paydo bo‘ladi va ularning sifati soliq miqdorini belgilaydi¹.

Amaldagi Soliq kodeksiga muvofiq soliq solishning boshqa obyektlariga quyidagilar kiradi: tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti va tovarlar importi, Aksiz to‘lanadigan tovarlar, tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxi, jismoniy va yuridik shaxslar egaligidagi mulk, yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslarining hajmi².

Foydani, daromadni yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni yashirish — bu soliq organlariga taqdim etiladigan tegishli hisobot hujjatlarida ularni olganlik to‘g‘risida haqiqiy ma’lumotlarni qasddan ko‘rsatmaslik, shuningdek, ularning mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotni yashirib qolish maqsadida ularning kelib tushishini hisobga olish tartibini buzganlikdir. Masalan, taqdim etilgan mahsulotlarga to‘lovni uchinchi shaxsga berish, xo‘jalik oborotidagi veksellardan foydalanish, barter asosida kontraktlar tuzish — daromadlarni yashirish hisoblanadi.

«Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 174-moddasi va Jinoyat

¹ Қаранг: Большой юридический словарь / Под ред. А.Я. Сухарева, В.Е. Крутских. - 386-б.

² Шуни қайд этиш лозимки, солиқ солиш объекларининг келтирилган рўйхати тавсифий ҳисобланади ва Солиқ кодексида ҳар бир муайян ҳолда солиқ солиш объектини аниқлаш бўйича бир қанча қоидалар ва имтиёзлар назарда тутилган.

kodeksining 184-moddasi bo'yicha javobgarlik kelib chiqishining zarur sharti — soliq yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlashga nisbatan qasdning mavjudligi bo'lib, u ham harakat, ham harakatsizlikda namoyon bo'lishi mumkin.

Foyda (daromad)ni qasddan yashirishning belgilari:

- hujjatlarni soxtalashtirish (o'chirish, g'ayriqonuniy tuzatish);
- qalbaki boshlang'ich buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish;
- foydalanilmagan moddiy xarajatlarni ishlab chiqarish hisobiga qo'shib hisobdan chiqarish;
- korxonada ishlamaydigan, lekin hisobda turadigan xodimlarga ish haqi yozish yo'li bilan mehnatga haq to'lash xarajatlarini oshirish;
- sotishdan olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o'tkazish (sotish hajmini va daromad(foйда)ni qasddan kamaytirish);
- moddiy, yoqilg'i-energetika resurslari xarajatlarini va amortizatsiya (eskirish) miqdorini sun'iy ravishda oshirish yoki normativ (limit)larni noto'g'ri qo'llash;
- hujjatlarni yo'q qilish yoki ularni taqdim etishni rad etish;
- buxgalteriya hujjatlari va boshqa hujjatlar bilan tegishli ravishda rasmiylashtirilmagan mahsulot (tovar)larni sotish;
- davlat ro'yxatidan o'tmasdan va soliq organlarida hisobda turmasdan xo'jalik faoliyatini yuritish;
- davlat soliq xizmati organining yozma bildirishnomasi mavjud bo'lgani holda ikki va undan ortiq manbalardan daromad oluvchi jismoniy shaxslar tomonidan barcha daromadlari haqida deklaratsiya taqdim etmaslik va boshqalardir.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 174-moddasi va Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklarga doir ishlar bo'yicha aybdorning qilmishida soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlashning yuqorida qayd etilgan yoxud boshqa biror-bir belgisi mavjudligi isbotlangan bo'lishi shart»¹.

¹Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2003 йил 6 июндаги «Солиқ ва бошқа мажбурий тўловларни тўлашдан бўйин товлаганлик учун жавобгарлик тўғрисидаги қонунларнинг судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 6-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991—2006. 2-жилд. —Т.: «О'qituvchi», 2007. — 132-б.

Foydani, daromadni yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni kamaytirib ko'rsatish soliq organlariga taqdim qilinadigan hisobot hujjatlariga bila turib soliqning miqdori to'g'risida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, balki uni pasaytirish va kamaytirish tomoniga ma'lumotlar kiritishda ifodalanadi.

Shuni nazarda tutish lozimki, daromad (foyda) yoki soliq solishning boshqa obyektlarini yashirish yoxud kamaytirib ko'rsatish — soliq yoki boshqa to'lovlardan bo'yin tovlash uslubidir. Boshqacha aytganda, soliq to'lashdan bo'yin tovlash turli uslublarni o'z ichiga olgan kengroq tushunchadir, uni davlat yoxud mahalliy Budget hisobiga majburiy to'lovlarning olinadigan hajmini pasaytirish maqsadida soliq organlarini aldash deb tushunish lozim.

Soliq to'lashdan boshqacha usulda bo'yin tovlash deganda, narsalar haqiqiy holatini qasddan o'zgartirish, soliq organlariga bila turib noto'g'ri axborot berishning turli uslublarini qo'llash, to'lanadigan soliq hajmini kamaytirish maqsadida ma'lum fakt, holat, hodisalar borasida yanglishtirish tushuniladi. Soliq yoxud boshqa majburiy to'lovlardan bo'yin tovlash usublari turlicha va aksariyat hollarda to'lanayotgan soliq turiga bog'liq, xususan, bularga soliq organlariga soliq to'lash obyektlari haqida hisobot hujjatlarini bermaslik, imkoniyat mavjudligida majburiy to'lovlarni to'lamaslik, soliq organlariga ro'yxatga qo'ymaslik kabi holatlar kiradi. Mazkur jinoyatni sodir etish usublari uni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi. Biroq shuni nazarda tutish lozimki, izohlanayotgan jinoyatning sodir etilishining alohida usublari mustaqil qilmish deb tan olinishi va mustaqil kvalifikatsiya qilishni talab qilishi mumkin. Masalan, Aksiz solig'i to'lamasdan savdo faoliyatini amalga oshirishda, ustav faoliyatini amalga oshirmaslikda, ro'yxatdan o'tmasdan savdo qilishda yoxud vositachilik faoliyati bilan shug'ullanishda va boshqa holatlarda qilmishni jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim¹.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 120-б.

Jinoyat soliq qonunchiligida o‘rnatilgan soliq solish to‘lashining tegishli muddatida soliq to‘lanmagan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi. Shuning uchun avvalgi harakatlar (buxgalteriya hisoboti hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish, soliq organlariga yolg‘on hisobot berish va hokazolar)ning hammasi jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rishdir. Agar to‘lov haqiqatda kam to‘langan bo‘lmasa, aybdor harakatida haqiqiy jinoyat tarkibi mavjudligini tasdiqlash mumkin emas.

Soliq va boshqa to‘lovlardan bo‘yin tovlash quyidagi majburiy shartlar mavjud bo‘lgandagina jinoyat deb tan olinadi: to‘lanmagan to‘lovning ancha miqdordaligi va ma‘muriy preyuditsiyaning mavjudligi.

To‘lanmagan soliq soliqning avval to‘langan qismi bilan qo‘shimcha to‘lanishi kerak bo‘lgan soliq o‘rtasidagi farqdir. Agar soliq majburiy tartibda undirilsa, to‘lanmagan deb topiladi, soliq to‘lash ixtiyoriy ravishda jinoyat sodir etishga qaratilgan harakatsizlikni to‘xtatadi va jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb tan olinishi lozim.

To‘lanmagan soliqning miqdorini aniqlashda shuni nazarda tutish lozimki, bunda soliq solish obyektining yashirilgan yoki kamaytirib ko‘rsatilgan miqdori emas, balki aybdor tomonidan yashirilgan yoki kamaytirilgan soliq obyektidan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi tushuniladi. «Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, foydani, daromadni va soliq to‘lanadigan boshqa obyektlarni yashirish, kamaytirib ko‘rsatish davomli jinoyat hisoblanadi. Shu sababli zarar miqdori soliq to‘lanmagan barcha muddat uchun kam to‘langan summalar yig‘indisi bilan belgilanishi kerak.

Tergov organlari va sudlar to‘lanmagan soliq, daromad va soliq to‘lanadigan boshqa obyektlarning miqdorini aniqlashda Soliq kodeksining oltinchi bobi (chegirmalar va zararlar) talablarini hisobga olishga majburdirlar, ya‘ni bunga binoan foydani (daromadni) aniqlashda, masalan, xodimlarning ish haqi, asosiy fondlarni ta‘mirlash, ijara to‘lovi bo‘yicha va boshqa xarajatlar chegirilib tashlanadi»¹.

Soliq yoki boshqa to‘lovlardan bo‘yin tovlash oqibatida yetkazilgan

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 123-б.

zarar miqdorini aniqlashda jinoyat tugallangan davrdagi eng kam oylik ish haqi miqdoridan kelib chiqish lozim.

«Jinoyat kodeksining **184-moddasi** dispozitsiyasiga binoan soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash harakatda, xuddi shuningdek, harakatsizlikda ham ifodalanishi mumkinligidan, ammo faqat qasddan sodir etilishidan kelib chiqib tergov organlari va sudlar har bir ish bo‘yicha soliq to‘lashdan bo‘yin tovlayotgan shaxsning maqsadini va haqiqiy niyatini aniqlashga majburdirlar. Xizmat vazifalariga sovuqqonlik bilan munosabatda bo‘lish oqibatida hisobni yoki hisobotni chalkashtirib yuborish, foydani hisoblashda xatoga yo‘l qo‘yish holatlarining o‘zinigina Jinoyat kodeksining 184-moddasi bilan tavsiflash mumkin emas, lekin tegishli asoslar bo‘lgan taqdirda Jinoyat kodeksining 207-moddasida ko‘zda tutilgan mansab sovuqqonligi jinoyatining tarkibini tashkil etadi»¹.

«Agarda hisobot kichik va o‘rta korxonalar, mikrofirmalar tomonidan soliq organlariga har chorakda taqdim etilishi lozim bo‘lsa, oylik soliqlarni yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashda bo‘yin tovlash, misol uchun mansabga sovuqqonlik bilan qarash oqibatida, hisobot davri kelgunga qadar moliyaviy sanktsiyani hisobga olgan holda keyinchalik ularni to‘lagan taqdirda ham Jinoyat kodeksining 184-moddasi bilan tavsiflanishi mumkin emas»².

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor o‘z harakatlari ijtimoiy xavfliligini anglaydi va soliqlar yoxud boshqa to‘lovlarni ancha miqdorda to‘lamaslik oqibatini keltirib chiqarishni xohlaydi yoxud bunga ongli ravishda yo‘l qo‘yadi. Ijtimoiy xavfli oqibatlarning vujudga kelishi imkoniyatlarini bilmaslik jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi. Mazkur jinoyat ehtiyotsizlik yuzasidan sodir etilishi nazarda tutilmagan.

¹ *Қаранг:* Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 121-122-б.

² *Қаранг:* Ўзбекистон Республикаси Олий суди ва Ўзбекистон Республикаси Олий хўжалик суди қўшма Пленумининг 2000 йил 28 апрелдаги «Гадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ қонунчиликни қўллаш суд амалиёти тўғрисида»ги 2/84-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди ва Олий хўжалик суди қўшма Пленумининг 2002 йил 25 октябрдаги 21/108-сонли қарoriga асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 2-жилд. — 11-б.

Motiv va **maqsad** qoida tariqasida g‘arazli bo‘ladi.

Jinoyat **subyekti** 16 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi. Bunday subyekt deb, qonunga muvofiq daromad, foyda va soliq solishning boshqa obyektlari haqida to‘liq axborot berish hamda davlat foydasiga belgilangan to‘lovlarni kiritish vazifasi yuklatilgan shaxslar tan olinishi mumkin. Bular qatoriga, mulk shaklidan qat’i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash bilan bog‘liq buxgalteriya hisobotini olib borish, hujjatlar taqdim qilish zimmasiga yuklatilgan mansabdor shaxslar (korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari, ularning o‘rinbosarlari, bosh hisobchilari va hisobxonaning mansabdor shaxslari) kiradi.

Qonunga binoan belgilangan hisobot shaklida hujjatlar taqdim etishga va soliq to‘lashga majbur bo‘lgan jismoniy shaxslar (soliq to‘lovchilar) ham ushbu jinoyatning subyektlari bo‘lishi mumkin¹.

JK 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning sodir etilishini tashkil qilgan yoki unga rahbarlik qilgan yoxud o‘zlarining harakatlari bilan foydani (daromadni) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarning kamaytirilishida ishtirok etishga rahbar, bosh hisobchi, soliq to‘lovchini da’vat etgan yoxud bu jinoyatning sodir etilishiga maslahat, ko‘rsatma bilan ko‘maklashgan boshqa shaxslar JK 30-moddasiga muvofiq va **JK 184-moddasining** tegishli qismi bo‘yicha jinoyatning ishtirokchilari (tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchilar) sifatida javobgarlikka tortiladilar².

Agarda mazkur jinoyatni sodir etishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining ishtiroki bo‘lsa va ular tahlil qilinayotgan qilmishning sodir etilishiga qasddan yordam berishsa, ularning harakatini tegishli belgilar mavjud bo‘lganda jinoyatlar majmui tariqasida JK 205-, 209-, 210-moddalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иктисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 122-б.

²Ўша жойда.

JK 184-moddasi 2-qismi sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish uchun jinoyat tarkibining kvalifikatsiya qilingan quyidagi belgilari mavjud bo‘lganda javobgarlikni nazarda tutadi:

- a) takroran;
- b) ko‘p miqdorda.

Bunda shuni nazarda tutish lozimki, mazkur jinoyatning takroran sodir etilishi soliq to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun

JK 184-moddasining qaysi qismi bilan javobgarlik nazarda tutilishidan qat’i nazar, qayd etilishi lozim. Agar shaxsning harakatlari davomli jinoyat xususiyatiga ega bo‘lmasdan bir necha mustaqil epizodlardan iborat bo‘lsa, bu harakatlarning takroriyligini ko‘rsatadi¹. Shunday qilib, soliq yoki boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash ko‘rinishidagi har bir tugallangan jinoyat mustaqil kvalifikatsiya qilinishi lozim, bunda javobgarlik shu moddaning og‘irroq jazo nazarda tutilgan qismi bo‘yicha yuzaga keladi.

«Agar foyda va daromad to‘g‘risida ko‘rinib turgan yolg‘on ma’lumotli tegishli hisobot hujjatlarini soliq organiga taqdim qilish hamda soliqlarni ko‘p yoki juda ko‘p miqdorda (bitta, bir necha yoki barcha soliqlar bo‘yicha) haqiqatdan kam to‘laganlik holati mavjud bo‘lsa, soliq va boshqa to‘lovlarni ko‘p yoki juda ko‘p miqdorda to‘lashdan bo‘yin tovlash tugallangan jinoyat hisoblanadi.

Sudlar moddiy zararining miqdori aybdor tomonidan yashirilgan yoki kamaytirilgan soliq to‘lanadigan obyektning butun miqdoridan emas, balki uning mazkur soliq to‘lanadigan obyektidan to‘lashi lozim bo‘lgan soliq summasidan kelib chiqib belgilanishini inobatga olgan holda sinchiklab aniqlashga majburdirlar.

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, foydani, daromadni va soliq to‘lanadigan boshqa obyektlarni yashirish, kamaytirib ko‘rsatish davomli jinoyat hisoblanadi. Shu sababli zarar miqdori soliq to‘lanmagan barcha muddat uchun kam to‘langan summalar yig‘indisi bilan belgilanishi

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 116-б.

kerak»¹.

JK 184-moddasi 3-qismida juda ko'p miqdorda soliq va boshqa to'lovlardan bo'yin tovlash jinoyati sodir etilganligi uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

JK 184-moddasining 4-qismida rag'batlantiruvchi norma mustahkamlangan, unga muvofiq, «qasddan yashirilgan, kamaytirib ko'rsatilgan foyda (daromad) bo'yicha soliqlar va boshqa to'lovlar to'liq to'langan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi», deyiladi.

JKning **184-moddasi 5-qismiga ko'ra** birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u soliq tekshiruv materiallarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha davlat soliq xizmati organining qarorini olgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararining o'rnini to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

12-§. Budjet va smeta-shtat intizomini buzish (JK 184¹-moddasi)

Moliya yilida Budjet va smeta-shtat intizomini buzishning **ijtimoiy xavfiligi** mazkur jinoyat sodir etilishi natijasida Budjetda asossiz taqchillik paydo bo'lishida, yordamga muhtoj muassasa va tashkilotlarni talab qilingan vositalar, mablag'lar bilan ta'minlamaslik uchun haqiqiy asos paydo bo'lishida ifodalanadi. Sharhlanayotgan jinoyatning sodir etilishi davlat mablag'larini samarali, to'liq natija bilan va o'z o'rnida ishlatishga yo'l bermaydi. Buning natijasida aholining alohida qatlamlari orasida boqimandalik, norozilik kayfiyati shakllanadi, bu esa O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlarning jamiyat tomonidan idrok qilinishiga salbiy ta'sir o'tkazadi, ularni obro'sizlantiradi.

Jinoyatning **bevosita obykti** xarajatlar limitiga rioya qilish, Budjet mablag'larini qonuniy va maqsadli sarf etishning o'rnatilgan tartibiga rioya qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlardir.

Budjet va smeta-shtat intizomini buzish **predmeti** deb, Budjet mablag'lari, ya'ni davlat Budjetiga kirgan va qonunda o'rnatilgan tartibda

¹Ўша жойда. — 122-123-бет.

bu mablag'larni oluvchiga ajratilgan moddiy va pul mablag'lari tan olinishi lozim.

Budjet mablag'larini ajratish deganda, oluvchiga moddiy va pul mablag'larini bevosita yo'naltirish hamda unga tegishli bo'lgan vositalarni maqsadli ishlatish sharti bilan Budjetga o'tkazishga ruxsat tushuniladi¹.

Jinoyat kodeksi **184¹-moddasining 1-qismida** sodir etilgan jinoyat uchun nazarda tutilgan javobgarlik jinoyati **obyektiv tomondan** quyidagi harakatlardan biri sodir etilganidan iborat bo'lishi mumkin:

— Budjetda nazarda tutilmagan yoxud Budjetdan moliyalashtiriladigan muassasa va tashkilotlar Budjeti va smetasida nazarda tutilmagan chiqimlarga Budjet vositalarini yo'naltirish;

— chiqimlar bo'yicha Budjet mablag'lari limitida oshib ketish;

— Budjet muassasa va tashkilotlarida shtat-smeta tartibini buzish va boshqa Budjet va shtat-smeta intizomini ko'p miqdorda buzish.

Budjetda yoki Budjetdan moliyalashtiriladigan muassasa yoki **tashkilotlar smetasida nazarda tutilmagan chiqimlarga mablag'larni yo'naltirish** Budjet mablag'larini sarflash navbatining o'rnatilgan tartibini buzish yoxud ularni maqsadga muvofiq bo'lmagan tarzda iste'mol qilish (masalan, past narxli va maishiy predmetlarni ishlab chiqarish uchun ajratilgan mashinasozlik asbob-uskunalarini ishlatish yoxud quyi tashkilotlar ehtiyoji uchun ajratilgan orgtexnikani boshqaruv tashkilotlari uchun yo'naltirish) dir.

Shuni qayd etish lozimki, O'zbekistonda qonunchilik tomonidan xarajatlarning quyidagi to'rt guruhi davlat Budjetidan mablag' bilan ta'minlanadi:

I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lov (bolalik oilalarga nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar);

II. Ish haqiga qo'shimchalar;

¹ Masalan, бюджет маблағлари сифатида «Ўзбектеатр» бирлашмаси ва унинг таркибидаги муассасаларнинг солиқдан озод этилиши натижасида йиғилган маблағ-ларни эътироф этиш лозим, чунки мазкур маблағлар «мамлакатимизда театртомоша санъатини, илмий-тадқиқот ва нашр ишларини янада ривожлантиришга, бирлашманинг моддий-техник негизини мустаҳкамлашга, ижодкорларни ижтимоий муҳофаза қилиш ишларига сарфланиши» керак. (Қаранг: Ўзбекистон Респуб-ликаси Президентининг 1998 й. 26 мартдаги «Ўзбекистон театр санъатини ривож-лантириш тўғрисида»ги ПФ-1980-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 4-сон, 61-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2005 й., 28-29-сон, 203-модда.

III. Kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro'yxatlarga muvofiq);

IV. Boshqa xarajatlar.

Xarajatlarning I va II guruhlariga kiritilgan Budget tashkilotlari birinchi navbatda mablag' bilan ta'minlanadi. Xarajatlarning III guruhi Budget tashkilotlari tomonidan Respublika investitsiya dasturida joriy moliya yili uchun belgilangan limitlar doirasida mablag' bilan ta'minlanadi. «Boshqa xarajatlar» guruhi bo'yicha mablag'lar belgilangan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda sarflanadi: ovqatlantirish, dori-darmonlar; kommunal xizmatlar, boshqa xarajatlar.

Budget tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yoki uning hududiy moliya organlari bilan kelishgan holda mavsumiy yoki shoshilinch tadbirlar (birinchi sinf o'quvchilari uchun maktab anjomlari, kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun qishki kiyimlar xarid qilish, epidemiyaga qarshi, yuqumli kasalliklarga qarshi tadbirlar va boshqa tadbirlar)ni mablag' bilan ta'minlash uchun mablag'larni IV guruh mablag'lari hisobiga tezkorlik bilan xarajat qilishlari mumkin.

IV guruh hisobiga avtomobillar va boshqa avtotransport vositalarini (maxsus avtotransport bundan mustasno), uyali telefonlar va ortiqcha dabdabali buyumlar (import ofis mebeli, audiovideo texnika (o'quv, ilmiy va tibbiy jarayonlarda foydalaniladiganlardan tashqari) ofislar uchun gilamlar va boshqalar) xarid qilishga faqat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda yo'l qo'yiladi¹.

Nafaqat pul mablag'laridan maqsadsiz foydalanish, balki Budgetning boshqa mablag'laridan maqsadsiz foydalanish (masalan, xizmatda foydalaniladigan turar joy binosidan savdo nuqtasi sifatida foydalanish; quyi tashkilot uchun Budgetdan ajratilgan mulkni yuqori turuvchi tashkilot uchun ajratish va hokazo)ni ham Budget mablag'larini nazarda tutilmagan xarajatlarga yo'naltirish deb kvalifikatsiya qilish zarur. **Foydalanish**

¹Қаранг: Бюджет ташкилотларининг харажатларини молиялаштириш (тўлаш) тартиби (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 3 сентябрдаги 414-сон қарорига илова) // Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами. 1999 й., 9-сон, 51-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2001 й., 22-24-сон, 159-модда; 2002 й., 24-сон, 200-модда; 2004 й., 52-сон, 523-модда; 2005 й., 51-сон, 380-модда; 2006 й., 51-52-сон, 507-модда; 2007 й., 29-30-сон, 306-модда, 52-сон, 534-модда; 2009 й., 24-сон, 270-модда.

deganda, bu mablag‘larni har qanday usulda iste‘mol qilish tushuniladi (mulkni ekspluatatsiya qilish, undan kelgan foyda va daromadni olish).

Budjet mablag‘laridan shaxsiy boylik orttirish yoxud boshqa g‘arazli maqsadlardan kelib chiqib, Budjetda yoki smetada nazarda tutilmagan xarajatlarga yo‘naltirilganda, qilmish jinoyatlar majmui bo‘yicha **JK 184¹-moddasining 1-qismi** va tegishli modda (masalan, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Budjet mablag‘lari Budjetda yoki Budjetdan moliyalanadigan muassasalar va tashkilotlarning smetalarida nazarda tutilmagan xarajatlarga yo‘llanganda va tezkor tadbirlar sababli yuzaga kelmagan yo‘nalishda sarflansa, Budjet mablag‘laridan **maqsadsiz** foydalanish deb tan olinadi.

Budjet — davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Budjet respublika Budjetiga va mahalliy Budjetga bo‘linadi.

Smeta — bu tashkilotlarni ta‘minlash hamda xo‘jalik va madaniy qurilish bo‘yicha markazlashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun Budjetdan beriladigan mablag‘larning miqdori, maqsadli yo‘nalishi va choraklar bo‘yicha taqsimlanishini belgilab beruvchi asosiy reja hujjati¹.

Budjet mablag‘larini Budjetda yoki Budjetdan moliyalanadigan muassasalar va tashkilotlarning smetalarida nazarda tutilmagan xarajatlarga yo‘llash amalda maqsadsiz foydalanilgan yoki xarajat qilingan paytdan boshlab **tugallangan** jinoyat deb tan olinishi lozim. Bu mablag‘larni keyinchalik maqsadsiz foydalanish yoki yo‘naltirish maqsadida taqsimlash esa, ishning muayyan holatlaridan kelib chiqib, sharhlanayotgan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoxud uni amalga

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси, Қорақалпоғистон Республикаси республика бюджети қарамоғида бўлган, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси вилоятлари, шаҳар ва туманларининг маҳаллий бюджети қарамоғида бўлган муассасаларнинг харажатлар сметасини тузиш, кўриб чиқиш ва тасдиқлаш тўғрисидаги Йўриқнома (Ўзбекистон Республикаси Ддлия вазирлиги томонидан 2000 йил 3 февралда 888-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган, Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан 1999 йил 28 декабрда 101-сон билан тасдиқланган), 3-банд // Ўзбекистон Республикаси вазирликлари, давлат қўмиталари ва идораларининг меъёрий ҳужжатлари ахборотномаси, 2000 й., 3-сон.

oshirishga suiqasd qilish deb kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Jinoyat **predmeti** sifatida Budjet mablag‘larining alohida turlari **Budjetdan mablag‘ ajratish** hisoblanib, ularning tushunchasi qonunchilikda beriladi. Xususan, «qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat Budjetidan tashkilotlariga hamda boshqa Budjet mablag‘lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag‘lari»¹ Budjetdan mablag‘ ajratish deb topiladi.

Chiqim moddalari bo‘yicha Budjetdan mablag‘ ajratish limitidan oshib ketishi jinoyat subyektining faol harakatlarida ifodalanadi, ular ajratilgan Budjet mablag‘laridan maqsadli foydalanishda, ya’ni ulardan belgilangan navbat doirasida foydalanadi, lekin xarajatlarning bir guruhi doirasida rejalashtirilgan (limit) va amalda qilingan xarajatlar o‘rtasidagi manfiy farqni shaklantirishda ifodalanadi.

Budjetdan mablag‘ ajratish xarajatlari limiti deganda, tegishli Budjet yoki smetada nazarda tutilgan Budjetdan ajratilgan mablag‘larning bir turi, obykti va obyektosti xarajatlar bo‘yicha foydalanish miqdori tushuniladi. Rejalashtirilgan va amalda qilingan xarajatlar o‘rtasidagi manfiy farq Budjet muassasasi yoki tashkiloti ichki hisoblari, masalan, Budjet tashkiloti rivojlanish fondi mablag‘lari hisobidan qoplanganda ham Budjetdan mablag‘ ajratish limitlarini oshirish deb topiladi. Agar xarajatlarning butun tegishli guruhi doirasida limitdan oshirish bo‘lmasa, ya’ni bitta tur, obyekt va obyektosti xarajatlar bo‘yicha Budjet pul mablag‘larini sarflashda smetada nazarda tutilgan hajmlar boshqa turdagi obyekt va obyektosti xarajatlarga ajratilgan rejali pul mablag‘lari hisobidan qoplanganda ham xarajatlarning o‘sha guruhi bo‘yicha kreditorlik qarzi hamda xarajatlar limiti oshirilgan deb hisoblanmaydi.

Budjetdan mablag‘ ajratish xarajatlari limitini oshirishni tegishli guruhda rejalashtirilgan va amalda qilingan xarajatlar o‘rtasida manfiy farq paydo bo‘lgan paytdan **tugallangan** jinoyat deb hisoblanadi.

Budjet mablag‘larini Budjet yoki smetada nazarda tutilmagan

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2000 й. 14 декабрдаги «Бюджет тизими тўғрисида»ги 158-11-сон Қонуни, 3-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 й., 1-2-сон, 6-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й., 21-сон, 148-модда; 51-сон, 374-модда; 52-сон, 385-модда; 2007 й., 17-18-сон, 173-модда; 39-сон, 399-модда; 50-51-сон, 509-модда; 2008 й., 52-сон, 513-модда.

xarajatlarga yo‘naltirishni Budjetdan mablag‘ ajratish limitini oshirishdan farqlash lozim. Budjet mablag‘larini yo‘naltirish — bu tegishli Budjet yoki smetada nazarda tutilmagan xarajatlarni mablag‘ bilan ta‘minlashdir, Budjet mablag‘larini oshirish esa, tegishli Budjet yoki smetada nazarda tutilgan rejalashtirilgan va amalda qilingan xarajatlar o‘rtasida manfiy farq paydo bo‘lishini nazarda tutadi. Bundan tashqari, Budjet mablag‘larini yo‘naltirishda mazkur mablag‘lar nafaqat pul mablag‘larida, balki moddiy qadriyatlarda ham ifodalanishi mumkin, biroq Budjetdan mablag‘ ajratishni amalga oshirishda jinoyat predmeti faqat pul mablag‘lari bo‘lishi mumkin.

Shtat-smeta intizomi — bu O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan o‘rnatilgan smetalarni hamda Budjet tashkilot va muassasalarining xodimlari shtat jadvali va tarifikatsiya ro‘yxatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, o‘zgartirish va ro‘yxatga olish tartibidir.

Shtat jadvali — mulk egasi, tashkilot rahbari yoxud yuqori organ tasdiqlaydigan doimiy xodimlar mansablari nomi ro‘yxatidir, bunda bir nomli mansablar (bosh o‘rinlar) soni hamda mansab maoshlari miqdori ko‘rsatiladi.

Tarifikatsiya ro‘yxati — bu Budjet tashkilot shtatida ma‘lum mansablarni egallovchi muayyan shaxslarning tarifikatsiyasini ko‘rsatib, ya‘ni ushbu xodimlarda attestatsiya natijalariga ko‘ra, ularning ish vaqti asl hajmiga ko‘ra berilgan tegishli malakaviy kategoriyasi mavjudligini hamda ularning mansab maoshi miqdorini ko‘rsatgan holda tuzilgan ro‘yxat.

Smeta-shtat intizomi buzilishi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan belgilangan smetalarni hamda Budjet tashkilotlari va muassasalari xodimlarining shtat jadvali va tarifikatsiya ro‘yxatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, o‘zgartirish va ro‘yxatga olish tartibiga rioya qilmaslikdir¹. Har bir holatlarda shtat-smeta intizomi buzilishida aynan qaysi qonun hujjati buzilganligini har bir aniq holatlarda aniqlash lozim.

Agarda moliya yilida Budjet va smeta-shtat intizomi ko‘p miqdorda buzilsa shaxsning harakatlarini JKning **184¹-moddasi 1-qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish lozim.**

Budjet va smeta-shtat intizomini buzish qonunda formal tarkibli qilmish sifatida ifodalangan, ya'ni Budjet intizomini buzish ijtimoiy xavfli qilmish deb tan olinishi uchun majburiy belgi sifatida oqibatning mavjudligi talab qilinmaydi. Biroq bu oqibatlar sud tomonidan har bir alohida holatda jazo tayinlashda hisobga olinadi.

Moliya yilida Budjet va smeta-shtat intizomini ko'p miqdorda buzish sodir etilgan paytdan boshlab jinoyat **tugallangan** deb hisoblanadi.

JK 184¹-moddasi 1-qismi dispozitsiyasida nazarda tutilgan qilmishlardan biri sodir etilgan paytdan boshlab jinoyat **tugallangan** deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan tahlil sharhlanayotgan jinoyat to'g'ri qasd shaklidagi ayb bilan tavsiflanadi. Aybdor o'z qilmishlarining ijtimoiy xavfliligini anglaydi va uni sodir etishni xohlaydi.

Jinoyat **subyekta** 16 yoshga to'lgan va Budjet mablag'larini taqsimlash hamda sarflash, shuningdek, shtat-smeta intizomiga rioya etilishi uchun mas'ul bo'lgan shaxsdir. Qonunchilikka muvofiq bunday shaxslar — Budjet tashkilotlarining rahbarlari va bosh buxgalterlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimining vakolatli xodimlari, shu jumladan Moliya vazirligi rahbarlari va markaziy apparati xodimlari hisoblanadi.

Budjet tashkiloti deganda, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat Budjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkilotini tushunish lozim¹.

Agarda Budjet va smeta-shtat intizomini buzish o'zganing mulkini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lsa, aybdorning harakatlarini JK 167 va **184¹-moddalari** bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

Javobgarlik **JK 184¹-moddasi 2-qismida** nazarda tutilgan Budjet va smeta-shtat intizomini buzishning kvalifikatsiya qilingan tarkibi uni ko'p miqdorda sodir etilganligi hisoblanadi.

Budjet va smeta-shtat intizomini buzish natijasida yetkazilgan zarar hajmini baholash Budjet tashkilotining Budjeti yoxud smetasida nazarda

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 14 декабрдаги «Бюджет тизими тўғрисида»ги 158-11-сон Қонуни, 3-модда.

tutilmagan xarajatlarga yoʻnaltirilgan Budget mablagʻlarini, Budgetdan mablagʻ ajratishni oshirishni yoki bir moliyaviy yil chegarasida shtat-smeta intizomini buzish natijasida olingan umumiy summa asosida amalga oshiriladi. Miqdorni aniqlashda boshqa moliyaviy yil davrida asossiz sarflangan mablagʻlar hisobga olinmasligi lozim (masalan, ikki yil ichida asossiz sarflangan vositalarning umumiy summasini juda koʻp miqdor sifatida tan olish mumkin emas — har bir moliyaviy yil uchun avvalgi yoki keyingi yil bilan qoʻshilmaydigan oʻz miqdori belgilanishi lozim). **Moliyaviy yil** deganda, 1 yanvardan 31 dekabr kuni oxirigacha boʻlgan vaqtni oʻz ichiga oluvchi davrni tushunish lozim¹.

Shuni ham qayd etish lozimki, tashkilot Budgeti yoki smeta- sida nazarda tutilmagan xarajatlarga yoʻnaltirilgan pul mablagʻlarida emas, balki mulk shaklida ifodalangan Budget mablagʻlari miqdorini aniqlashda tegishli smeta yoxud Budgetda koʻrsatilgan mulkning narxidan kelib chiqish lozim.

13-§. Qimmatbaho metallar yoki toshlarni topshirish qoidalarini buzish (JK 185-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** — qimmatbaho metall yoki qimmatbaho toshlar aylanishi (muomalada boʻlishi) davlat tomonidan tartibga solinishi sohasidagi ijtimoiy munosabatlardir.

Yer ostidan qazib olinadigan qimmatbaho metallar (oltin, kumush, platina, radiy, iridiy, osmiy, palladiy va h.k.) yoki qimmatbaho toshlar (olmos, zumrad, marvarid, ametist, feruza va h.k.) jinoyatning predmeti hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat er ostidan qazib olinadigan qimmatbaho metallar yoki toshlarni davlatga topshirish qoidalarini buzish natijasida koʻp miqdorda zarar keltirishda ifodalanadi. Yer ostidan qazib olingan qimmatbaho metall yoki qimmatbaho toshlar davlatga topshirilishi shart.

Qimmatbaho metall yoki qimmatbaho toshlarni topshirish qoidalarini buzish, asosan, shaxs tomonidan affinajga majburiy topshirish yoki yer ostidan qazib olingan yoxud ikkilamchi xom ashyodan olingan

¹Ўша жойда.

qimmatbaho toshlarni davlatga majburiy sotishdan hamda topilgan va ko'tarilgan qimmatbaho metall yoki qimmatbaho toshlarni topshirishdan har qanday yo'llar bilan bo'yin tovlashda yoxud bu predmetlarni qisman topshirishda ifodalanishi mumkin. Tahlil qilinayotgan modda dispozitsiyasi blanket xarakterga ega.

NOTA BENE !

Affinaj — qimmatbaho metallarni mavjud aralashmalardan tozalash natijasida oliy sifatli (yuqori probali) metall paydo bo'lishi.

Qimmatbaho metallar affinajini amalga oshirish huquqiga ega korxonalar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadi.

Affinajga majburiy topshirishdan bo'yin tovlash aybdor shaxs qimmatbaho metallar affinaji bo'yicha harakatni mustaqil amalga oshirayotganligini anglatadi.

Majburiy sotishdan bo'yin tovlash vakolatli organlarga qimmatbaho metallar yoki qimmatbaho toshlarni sotish bo'yicha harakatlarning amalga oshirilmaganligidadir.

Yer osti boyliklaridan foydalanuvchi, oltin yoki kumush quymasini qabul qilib oluvchi nafaqat davlat himoyasi, balki Markaziy bankning faoliyatini xavf ostiga soladilar.

Qimmatbaho metall va toshlarning chiqindilari va parchalari bunday parchalar yuzaga keladigan barcha tashkilotlar, shuningdek, harbiy qism va harbiy tuzilmalar tomonidan to'planishi zarur. Yig'ilgan chiqindi va parchalar ularni to'plagan tashkilotlar, shuningdek, harbiy qism va tuzilmalar tomonidan majburiy tartibda hisobga qo'yilishi va qayta ishlanishi, shuningdek, qayta foydalanish yoki realizatsiya uchun tegishli qonun hujjatlari asosida keyinchalik ishlab chiqarish, qimmatbaho metallar affinaji va qimmatbaho toshlar rekuperatsiyasi amalga oshiriladi.

NOTA BENE !

Qimmatbaho toshlarning **rekuperatsiyasi** — qayta ishlangan yoki ba'zi

bir sabablarga ko‘ra ekspluatatsiyadan chiqarilgan instrument va texnik maqsadlar uchun mo‘ljallangan mahsulotdan qimmatbaho toshlarni ajratish, shuningdek, olmos klassifikatori yoki belgilangan texnik shartlar asnosida qimmatbaho toshlarning qoldiqlari bo‘lgan chiqindilarni qayta ishlab sifat darajasigacha ko‘tarish.

Tabiiy qimmatbaho toshlarni davlatga majburiy sotish bo‘yicha majburiyatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Qazib oluvchi tashkilotlar tabiiy qimmatbaho toshlarni saralash va bahosini belgilash, shuningdek, davlat xazinasini davlat organlari belgilagan hajmda to‘ldirish maqsadida tabiiy toshlarni davlatga sotishning qoidalariga rioya etishga majburdirlar.

Affinajga topshirish yoki ko‘rsatilgan predmetlarni majburiy sotish majburiyatidan bo‘yin tovlash jinoyati, keyinchalik, mustaqil ravishda qimmatbaho metallarni affinaj yoki qimmatbaho metallarni qo‘shimcha qayta ishlash yoxud qimmatbaho metallar yoki toshlar bilan boshqa ishlarni bajarish yoxud qimmatbaho metall va toshlarni topshirishni oldindan yashirish kabi qilmishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Agar qimmatbaho metallarni yoxud qimmatbaho toshlarni topshirish qoidasi buzilishi natijasida davlatga ko‘p miqdorda zarar yetkazilsa, bu jinoyat tarkibini hosil qiladi. Ko‘p miqdordagi zarar jinoyatning shartli belgisidir.

Moddiy tarkibli sharhlanayotgan jinoyat davlatga **ko‘p miqdorda** zarar yetkazilgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri qasd bilan amalga oshiriladi. Aybdor o‘z qilmishining ijtimoiy xavfliligini anglaydi, davlatga ko‘p miqdorda zarar etishini oldindan ko‘ra biladi va buni xohlaydi. **Motiv** va **maqsad** qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Mazkur jinoyat **subyekti** 16 yoshga to‘lgan, qimmatbaho metallar yoki qimmatbaho toshlar topshirish qoidalarini buzgan aqli raso jismoniy shaxsdir.

**14-§. Rangli metallar, ularning parcha va rezgi-chiqitlarini
tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda ularni o‘tkazish
qoidalarini buzish
(JK 185¹-moddasi)**

Jinoyatning **bevosita obyekti** — rangli metallar, ularning parcha, rezgichiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda o‘tkazishning qonunchilikda belgilangan tartibi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar.

Jinoyat **predmeti** — rangli metallar, ularning parchasi va rezgichiqitlari.

Jinoyatning **obyektiv tomoni** ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan so‘ng sodir etilgan, qimmatbaho metallarga mansub bo‘lmagan rangli metallarni, ularning parcha, rezgi-chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda o‘tkazish qoidalarini buzishdan iboratdir.

NOTA BENE !

Rangli metallarni noqonuniy tayyorlash — bu amaldagi qonunni buzib rangli metallar, uning parcha, rezgi-chiqitlarini olishga qaratilgan harakatlardir.

Jinoyat mazkur modda dispozitsiyasida aytib o‘tilgan harakatlardan (tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda o‘tkazish) birontasi sodir etilgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi. Agar aybdor oldin shunday harakatlari uchun ma‘muriy javobgarlikka tortilgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlik kelib chiqadi.

Qimmatbaho metallarga mansub bo‘lmagan rangli metallar, uning parcha, rezgi-chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda o‘tkazish o‘zga mulkka zarar yetkazish yoki xizmat vakolatlarini suiiste‘mol qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, aybdorning harakatlarini jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri kasddan sodir etiladi. Aybdor o‘z harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglaydi va uni sodir etishni xohlaydi.

Jinoyatning **motiv** va **maksadlari** qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Jinoyat **subyekt**i 16 yoshga to'lgan, aqli raso har qanday shaxs bo'lishi mumkin.

Qimmatbaho metallarga mansub bo'lmagan rangli metallar, ularning parcha, rezgi-chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda o'tkazish qoidalarini mansabdor shaxs sodir etsa, uning harakatlarini tegishli holatlar mavjud bo'lganda jinoyatlar majmui tariqasida JK 205-moddasi yoki 206-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

JK 185¹-moddasi 2-kismi:

- a) takroran yoki xavfli retsdivist tomonidan;
- b) ko'p miqdorda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilganligi uchun javobgarlikni o'rnatadi.

Alohida kvalifikatsiya kilish belgilariga ega bo'lgan JK **185¹- moddasi 3-kismi:**

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan qilmish uchun javobgarlikni o'rnatadi.

Bu kvalifikatsiya qilish belgilari yuqorida tahlil qilingan moddalarda bayon qilingan va o'xshashdir.

15-§. Elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish (JK 185²-moddasi)

Jinoyat kodeksiga ushbu moddaning kiritilishi milliy qonunchiligimizning rivojlanish mahsuli bo'lib, davlatning energiya tashuvchi qurilmalariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni o'zida ifoda etadi.

Tahlil qilinayotgan jinoyatning **bevosita obyekt**i energiya tashuvchi qurilmalardan oqilona foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar bo'lib, u strategii ahamiyatga molik moddiy texnik resurslar hisoblanadi. Ko'shimcha obyekt sifatida hisoblash qurilmalariga ega bo'lish, shaxs, davlat va jamiyat xavfsizligi bo'lishi mumkin¹.

¹Табийий газ ва электр энергияси моддий-техника ресурсларининг стратегик турлари ҳисобланади (Қаранг: Моддий-техника ресурслари стратегик турларини сотишнинг махсус тартиби тўғрисидаги Низом (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 5 февралдаги 57-сон қарорига 3-илова) // Ўзбекистон

Ushbu jinoyat **obyektiv tomondan** quyidagicha sodir etilishi mumkin:
a) o‘zboshimchalik bilan elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga ulanish; b) elektr, issiqlik energiyasi, tabiiy gaz, issiq yoki sovuq suvni hisoblovchi qurilmalarni, shu jumladan ularning plombalarini buzish; v) ushbu hisoblash asboblariga ularning ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish maqsadida ta’sir ko‘rsatish.

Suv va gaz qurilmalari tarmog‘i deganda, gaz yoki suvni ishlab chiqaruvchidan (sotuvchidan) iste’molchiga (sotib oluvchiga) yetkazish va uning uzluksizligi hamda texnologik birligi (masalan, kompressor qurilmalari, ulagich quvurlar) tushuniladi. Ushbu holatda gaz va suv qurilmalari tarmog‘idagi mavjud texnik uzilishlar (ya’ni, mazkur tarmoqqa mos keladigan shartli loyihalar, masalan, quvur o‘rniga avtomobil transportidan foydalanish) mazkur moddadagi nazarda tutilgan tarmoq mazmuniga mos kelmaydi.

Elektr, issiqlik, **gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga o‘zboshimchalik** bilan, ya’ni qonunda o‘rnatilgan tartib asosida vakolatli organ ruxsatisiz ulanish ijtimoiy xavfli hisoblanadi.

Ayniqsa, kommunal tizimda suv ta’minotining yangi obyektlariga ulanish va uning miqdorini oshirishda buyurtmachi (abonent) SXX tashkilotidan ruxsat olishi kerak. Suv quvurlari va ularga ulanishga ruxsat berish va texnik shartlar idoraviy tegishliligidan qat’i nazar, barcha uchun majburiydir¹. Gaz quvurlarga ulanish tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan, maxsus qurilish montaj tashkiloti tomonidan tashish, almashtirish, qo‘shimcha vositalarni o‘rnatish (ikkitagacha qurilma o‘rnatish) ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan gaz xo‘jaligi tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘rnatilgan tartibni buzib, gaz yoki suv tarmoqlariga ulanish gaz yoki suv resurslaridan nazoratsiz foydalanish maqsadida amalga oshirilgan taqdirdagina ushbu modda bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 5-сон, 57-модда, 17-сон, 200- модда; 2005 й., 3-4-сон, 26-модда, 8-9-сон, 69-модда, 21-сон, 151-модда; 2006 й., 41-сон, 414-модда, 46-47-сон, 458-модда, 48-50-сон, 481-модда; 2007 й., 43-сон, 429-модда; 2008 й., 10-11-сон, 63-модда).

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси сув таъминоти ва сувоқава коммунал тизимидан фойдаланиш қоидалари (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 1994 йил 22 апрелда 44-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган), 2.1-банд.

Elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga ulanish elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod suvini amalda sarflangan sarflanmaganligidan qat'i nazar, tarmoqqa ulangan vaqtdan boshlab jinoyat tugallangan deb hisoblanadi.

Hisoblash asboblari deganda, bevosita suv, issiqlik yoki elektro energiyaning haqiqiy hajmini miqdoriy hisoblovchi, ikki tomon (iste'molchi va yetkazib beruvchi)ni aniq qanoatlantiruvchi barqaror o'lchash-hisoblagich qurilmalari tushuniladi¹.

Hisoblash asboblari O'zbekistonda qabul qilingan o'lchov birliklarida ifodalanadi, ular turli oqimlarni o'lchash uchun zarur va etarli bo'lgan gradatsiyalar bo'yicha ishlab chiqiladi va texnika, foydalanish xavfsizligi talablariga javob berishi, ta'mirga yaroqli bo'lishi, bir-birini almashtira olishi, indikator qurilmalariga oson kirish kabi shartlarga javob berishi lozim².

Hisoblash asboblarini buzish deganda, hisoblash asboblarining qisman yoki to'liq buzilishi tushuniladi. Asbob hisoblash xususiyatlarining to'liq yoki qisman yo'qotilishi, uning xo'jalik qiymatining pasayishi, hisoblash asbobidan butunlay maqsadga muvofiq ravishda foydalanish imkoniyatining yo'qotilishiga sabab bo'ladi.

Hisoblash asboblaridagi ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatish, aralashish deganda, asbobning butunligiga putur yetkazmasdan uning ishlash qobiliyati va ko'rsatikichlari to'g'riligining buzilishini tushunish kerak. Ta'sir ko'rsatish turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin: elektron magnit qurilmalaridan, issiqlik yoki yorug'lik va h.k. foydalanish; ta'sir ko'rsatish usullari qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Mazkur moddaga ko'ra, hisoblash asboblariga ta'sir ko'rsatish deb tavsiflanadigan jinoyatning maqsadi — hisoblash asboblari ko'rsatkichlarini o'zgartirishdir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, a)

¹Масалан, қаранг: Уй-жой фондида ва ижтимоий-маданий мақсадлардаги объектларда сув ва газни ҳисобга олиш асбобларини ўрнатиш ва улардан фойдаланиш ҳақида Низом (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 26 май- даги 185-сон қарорига илова), II бўлим // Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами, 1995 й., 5-сон, 18-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2001 й., 3-4-сон, 13-модда; 2006 й., 45-сон, 443-модда.

²Ўша жойда.

agar bunday ta'sir boshqa maqsadlarda amalga oshirilgan bo'lsa, (qiziquvchanlik, ta'mirlash va b) shaxs ushbu modda bo'yicha javobgarlikka tortilmaydi.

O'zboshimchalik bilan umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga ulanish, hisobga olish asboblarini buzish yoki ularga ta'sir ko'rsatish ushbu harakatlar uchun ma'muriy preyuditsiya mavjud bo'lsagina, jinoyat deb topiladi va JKning **185²-moddasi 1-qismi** bilan javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat **subyektiv tomondan** hamma vaqt **qasddan** sodir etiladi, aybdor o'z harakatlarining qonunga xilof ekanligini anglaydi, jinoiy oqibatlarining kelib chiqishini xohlaydi va bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin. Aybdorning sharhlanayotgan moddaning **2, 3, 4-qismlari** bo'yicha javobgarligi o'sha harakatlar tufayli ancha miqdorda, ko'p yoki juda ko'p miqdorda zarar yetkazilganidan vujudga keladi.

(Ancha, ko'p va juda ko'p miqdor tushunchasi JKning 8-bo'limida berilgan.)

JKning **185²-moddasi 5-qismida** rag'batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, agar ayblanuvchi yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan taqdirda, ozodlikni cheklash hamda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar qo'llanilmaydi.

JKning **185²-moddasi 6-qismida** rag'batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

«Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

1. Naf keltirmaydigan bitim tuzish deganda nima tushuniladi? «O'zbekiston Respublikasi manfaatlari» tushunchasiga ta'rif bering.
2. Qalbaki pul, Aksiz markalar yoki qimmatli qog'ozlar yasash yoki o'tkazganlik uchun javobgarlikning kelib chiqish shartlari qanday? JKning 176-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning shakllari qanday?

3. Qalbaki pul yoki qimmatli qog'oz yasash yoki ularni o'tkazish va qonunga xilof ravishda valuta qimmatliklarini olish yoki o'tkazishning qanday umumiy tomonlari va farqlari mavjud?

4. Valuta qimmatliklarini g'ayriqonuniy olish va o'tkazish deganda nima tushuniladi?

5. Valuta qimmatliklarini g'ayriqonuniy olish yoki sotganlik uchun javobgarlik shartlari qanday?

6. Chet el valutasini qasddan yashirish nimalarda ifodalanadi?

7. Chet el valutalarini yashirish o'zlashtirish yo'li bilan talon-toroj qilishdan qanday farq qiladi?

8. Soxta tadbirkorlik deganda nima tushuniladi?

9. Soxta tadbirkorlik o'zgarar mulkini aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan egallab olishdan qanday farq qiladi?

10. Soxta bankrotlik deganda nima tushuniladi?

11. Soxta bankrotlik uchun javobgarlik shartlari qanday? Bu jinoyat o'zlashtirish yoki firibgarlik jinoyatlaridan qanday farq qiladi?

12. Soxta bankrotlik va bankrotlikni yashirishning qanday umumiyligi mavjud?

13. Bankrotlikni yashirish deganda nima tushuniladi? Bu jinoyatning talon-torojdan qanday farqi mavjud?

14. Bojxona to'g'risidagi qonunlarni buzish qanday harakatlarda ifodalanishi mumkin?

15. Bojxona to'g'risidagi qonunlarni buzish jinoyatining javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

16. Bojxona to'g'risidagi qonunlarni buzishning jinoiy javobgarlik asosi sifatida qanday shartlar e'tirof etiladi?

17. Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzish qanday harakatlarda ifodalanadi?

18. Monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzishning ijtimoiy xavfliligi nimalarda ifodalanadi?

19. Soliq yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan bosh tortishning belgilarini aytib bering.

20. Foydani (daromadni) va soliq to'lash obyektlarini yashirish,

kamaytirib ko'rsatish belgilarini tushuntirib bering.

21. Qimmatbaho metallar yoki toshlarni topshirish qoidalarini buzish nimalarda ifodalanadi?

22. Budjet intizomini buzishning belgilari.

23. Qimmatbaho metallar va toshlarni topshirish qoidalarini buzishning valuta qonunchiligini buzish va o'zgarar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlaridan farqlarini ko'rsatib bering.

24. Yer osti boyliklari, qimmatbaho metall va toshlarni o'zlashtirib olishning talon-toroj qilishdan farqini aniqlab bering.

25. Rangli metallar, ularning parcha va rezgi-chiqitlarini tayyorlash, olish, foydalanish va o'tkazish qoidalarini buzish deganda nimalar tushuniladi?

26. Davlat proba tamg'alarini tayyorlash va foydalanish qoidalarini buzishni yuridik tahlil qilib bering.

27. Elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish qanday harakatlardan iborat? Mazkur jinoyatning aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazishdan farqi nimada?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Abdurasulova Q.R., Salaev N.S., Karaketova D.Yu. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish muammolari. Monografiya. —T.: Noshir, 2014. — 152 b.

Аустова Л.С. Незаконное предпринимательство. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. — 281 Б.

Александров И.В. Налоговые преступления: Криминалистические проблемы расследования. — СПб.: «Юридический центр Пресс»,— 245 Б.

Александров И.В. Основы налоговых расследований. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. — 374 Б.

Арзамасцев М.В. Государственно-правовое регулирование и уголовно-правовая охрана оборота драгоценных металлов и драгоценных

камней. — Челябинск: 2001.

Волженкин Б.В. Преступления в сфере экономической деятельности (экономические преступления). — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. — 641 Б.

Волженкин Б.В. Экономические преступления. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 1999. — 312 Б.

Гаухман Л.Д., Максимов С.В. Преступления в сфере экономической деятельности. — М.: Учебно-консультационный центр «ЮрИнфоР», 1998. — 296 Б.

Горелик А.С., Шишко И.В., Хаупина Г.Н. Преступления в сфере экономической деятельности и против интересов службы в коммерческих и иных организациях. — Красноярск: 1998.

Досюкова Т.В. Лжепредпринимательство: проблемы квалификации и ответственности. — Саратов: 1999.

Лопашенко Н.А. Преступления в сфере экономической деятельности: понятие, система, проблемы квалификации и наказания. — Саратов: 1997.

Махкатов О. М. Soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari. Monografiya. —Т.: TDYuU, 2015. — 240 б.

Михайлов В.И, Фёдоров А.В. Таможенные преступления. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 1999. — 336 Б.

Михалев И.Ю. Криминальное банкротство / Под ред. д.ю.н., проф. И.Э. Звечаровского. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. — 250 Б.

Новое об экономических преступлениях. Уголовно-правовой анализ: Научно-практическое пособие / Н.М. Андреев, Б.Д. Завидов, П.В. Зотов, В.Б. Липатенков / Под общ. ред. проф. Курцева Н.П. — М.: «Приор-издат», 2003. — 128 Б.

Сапожков А.А. Кредитные преступления. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. — 240 Б.

Соловьёв И.Н. Уголовная ответственность за уклонение от уплаты налогов и сборов. — М.: 2000.

Струкова И.И. Невозвращение из-за границы средств в иностранной валюте. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. — 224 Б.

Талан М.В. Преступления в сфере экономической деятельности: вопросы теории и законодательного регулирования. — Казань: 2002. — 296 Б.

Тюнин В.И. Некоторые аспекты толкования, применения и совершенствования уголовного законодательства, охраняющего отношения в сфере экономической деятельности. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2000.

Тюнин В.И. Уголовная ответственность за банкротство. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2000.

Тюнин В.И. Уголовное законодательство и экономическая деятельность (история и современность). — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2000.

Ilmiy maqolalar

Абдукодиров Ш.Ё., Мирзаев Ш.М. Валютные преступления: Пленум Верховного суда и вопросы квалификации // Даствлабки терговда суд назоратини ташкил қилиш муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари. — Т.: ТДЮИ, 2005. — 115—122-б.

Абдухаликов М.А. Ответственность за сокрытие доходов с целью уклонения от налогов и других платежей // Ж. Хозяйство и право. 2001. №3. — 8—9-б.

Абдухаликов М.А., Холикулов У.Ш. Проблемные вопросы квалификации некоторых преступлений против основ экономики и преступлений, связанных с хозяйственной деятельностью. // Иқтисодий асослари ва хўжалик фаолияти билан боғлиқ жиноятчиликка қарши кураш муаммолари (жиноий-ҳуқуқий ва криминалогик жиҳатлар). Илмий-амалий конференция материаллари. — Т.: ТДЮИ, — 27-32-б.

Altiev R.S. O‘zbekiston respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzganlik uchun jinoiy javobgarlikning ayrim jihatlari // O‘zbekiston qonunchiligi tahlili. Uzbek Law Review. Obzor

zakonodatelstva O‘zbekistona. –2017. № 2. – В.62-66.

Гарифулина Р. Ответственность за преступления в сфере финансово-кредитных отношений // Ж. Российская юстиция. 1997. № 2.

Махкамов О.М. Responsibility for tax crimes on example of Criminal Code of Uzbekistan // The Korea Post. Vol. 28. No 4, April 2015. P. 43-44.

Махкамов О.М. MDHga a’zo mamlakatlar jinoyat qonunchiigida soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikning o‘ziga xos xususiyatlari // Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish masalalari: milliy va xorijiy tajriba. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, TDYuU, 2014. – В. 176-183.

Махкамов О.М. Некоторые аспекты уголовной ответственности за налоговые преступления по законодательству Республики Ўзбекистон // “Вопросы современной юриспруденции” сборник статей по материалам XLVII международной научно-практической конференции. 2015 год № 3 (45). С. 86-92

Махкамов О.М. Некоторые вопросы назначения наказания за уклонения от уплаты налогов и других обязательных платежей // Независимый научно-популярный журнал “Право и жизнь” 2015/201 (3. С. 132-138)

Махкамов О.М. Определение объекты и предметы преступления при квалификации уклонения от уплаты налогов и других обязательных платежей // Журнал Налоги ИГ «Юрист». 2015/1-сон. – С. 39-41.

Махкамов О.М. Soliq sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashning ayrim jihatlari // Inson huquqlari va manfaatlarini ishonchli himoyasini ta’minlash-qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotining muhim yo‘nalish: Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami (2014 yil 10 dekabr). –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. –В. 299-301.

Махкамов О.М. Soliq sohasidagi korrupsiyaviy jinoyatchilikning

kriminologik tavsifi // Korrupsiyaga qarshi kurashning dolzarb muammolari. Ilmiy-maqolalar to‘plami Актуальные проблемы борьбы с коррупцией. Сборник научных статей. – Т.: TDYuU, 2016. – В.

Махкамов О.М. Soliq sohasidagi huquqbuzarliklar: ularning oldini olish ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omilidir // “Huquq va burch” ijtimoiy huquqiy jurnal. – 2016.№2 (122) – В. 56-58.

Махкамов О.М., Salaev N.S. Jinoyat-huquqiy siyosat: dekriminalizatsiya, unifikatsiya va ma’muriy preyuditsiyaga oid ayrim mulohazalar (JK 184-moddasi misolida). Jinoyat qonunchiligining liberallashtirishi sharoitida ayrim jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish masalalari. // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2014. – В.15-24.

Рустамбаев М.Х. Социальная обусловленность и вопросы уголовной ответственности за спекуляцию в условиях перехода к рыночной экономике // — Народное слово. 25 сентября — 1994.

Скорилкина Н, Дадонов С., Анненков А. Разграничение лжепредпринимательства и мошенничества // Ж. Законность. 2000. № 10.


Тотьёв К. Уголовная ответственность за монополистическую деятельность // Ж. Хозяйство и право. 1998. J№ 5.

Эрматов Г. О. Некоторые вопросы квалификации преступлений, связанных с лжепредпринимательством // Ж. Хўжалик ва ҳуқуқ. № 4. 78-79-б.

Яковлев А.М. Законодательное определение преступлений в сфере экономической деятельности // Ж. Государство и право. 1999. № 11.

IV BOB. XO‘JALIK FAOLIYATI SOHASIDAGI JINOYATLAR

5-sxema



1-§. Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o‘tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish (JK 186-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** qonun bilan mahsulotlarni sertifikatlashtirishning belgilangan tartibi, shuningdek, xo‘jalik faoliyati sohasidagi iste‘molchilarning manfaatlari, ularning xavfsiz tovar, ish va xizmatlarni olishga bo‘lgan huquqlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar.

Qo‘shimcha bevosita obyekti esa, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar (**JKning 186- moddasi, 2, 3- va 4-qismlari**).

Tovarlarni (ish, xizmat) iste‘mol qilish, shuningdek, ularning shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirmasligini nazorat qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiy huquqlari va atrof tabiiy muhit bilan bog‘liq masalalar O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan 221-1-son «Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»¹, shuningdek, 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan 1006-XP-son «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi² va 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi³ 1002-XP-son qonunlari bilan tartibga solinadi.

Jinoyatning **predmeti** iste‘molchilarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlar (ish, xizmat) hisoblanadi.

Tovar, O‘zbekiston Respublikasi «Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunining 1-moddasiga ko‘ra, ishlab chiqaruvchi faoliyatining iste‘molchiga shartnoma bo‘yicha sotish uchun mo‘ljallangan mahsuli, shu jumladan import mahsuloti hisoblanadi.

Ish — bu bir narsani qayta ishlash yoki ishlab chiqarishga qaratilgan

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 5-6-сон, 59-модда; 2002 й., 4-5-сон, 74-модда; 2003 й., 5-сон, 67-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й., 51-сон, 374-модда; 2006 й., 41-сон, 405-модда; 2008 й., 14-15-сон, 90-модда.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 2-сон, 50-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 7-8-сон, 217-модда; 2003 й., 5-сон, 67-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 14-сон, 113-модда; 2006 й., 41-сон, 405-модда.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 2-сон, 46-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 5-6-сон, 153-модда; 2003 й., 5-сон, 67-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 41-сон, 405-модда; 2009 й., 15-сон, 172-модда.

faoliyatni nazarda tutadi.

Xizmat — bu biror bir shaxsga yordam ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat.

Ish va xizmatlar iste‘molchi bilan tuzilgan maishiy, uy-joy, qurilish ta‘mirlash, transport va xizmat ko‘rsatishning boshqa sohalaridagi shartnomalarga asosan amalga oshirilishi mumkin.

NOTA BENE !

Iste‘molchilarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlar, ishlar, xizmatlar deganda, odatdagi sharoitlarda iste‘mol qilish, foydalanish, saqlash, tashish yoki o‘tkazish, utilizatsiya qilish, shuningdek, ish yoki xizmatlar natijasidan foydalanish natijasida iste‘molchilarning hayoti, sog‘lig‘iga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan tovar, ish yoki xizmat tushuniladi.

Tovarlarning (ish, xizmat) sifati va xavfsizligiga qo‘yiladigan majburiy talablar quyidagi **normativ hujjatlarda** belgilanadi: standartlar va shunga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar (qurilish normalari va qoidalari), texnik shartlar, texnik tavsiflar va boshqa hujjatlar.

Mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun tovarlar (ish, xizmat)ni **sertifikatlashtirishdan** o‘tkaziladi. O‘tkazilgan sifat bo‘yicha sertifikatlashtirishdan so‘ng tegishli organlar tomonidan **muvofiqlik sertifikati** beriladi.

Muvofiqlik sertifikati — sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat.

Sertifikatlashtirish majburiy va ixtiyoriy tusda bo‘ladi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlab chiqarishni tekshirishni, mahsulot xususiyati normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash uchun uni sinashni, nazorat yo‘sinidagi tekshiruvni va sertifikatlangan mahsulot ustidan nazoratni o‘z ichiga oladi («Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi Qonunning 11-moddasi). Sertifikatlashtirilishi shart bo‘lgan mahsulotlarning ro‘yxatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi («Mahsulotlar va

xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi Qonunning 10-moddasi).

«Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi Qonunning 12-moddasiga ko'ra: «Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar quyidagi hollarda: sertifikatlashtirishga taqdim etilmagan bo'lsa; sertifikatlashtirish talablariga muvofiq emasligi sababli sertifikatlashtirishdan o'tmagan bo'lsa;

agar sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoki uning amal qilishi to'xtatib qo'yilgan (bekor qilingan) bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinishi mumkin emas.

Qonunga xilof tarzda muvofiqlik belgisi bosilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish man etiladi».

O'zbekiston Respublikasi «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi Qonuning 17-moddasiga ko'ra, har qanday mahsulot normativ hujjatlarning talablariga muvofiq ekanligini tasdiqlash uchun u yuridik va jismoniy shaxsning tashabbusi bilan **ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan** o'tkazilishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tovarlarga qonunga muvofiq majburiy ravishda **yaroqlilik muddati** o'rnatiladi. Yaroqlilik (saqlash) muddati muayyan davr bo'lib, bu davrda tovar foydalanishga yaroqli bo'ladi va u tamom bo'lgach, tovar odamlar hayoti hamda sog'lig'i uchun xavf tug'dirishi mumkin.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tovar (ish, xizmat)ning xizmat muddati yoki yaroqlilik muddati mobaynida, agar bunday muddat belgilanmagan bo'lsa, tovar iste'molchiga sotilgan (ish bajarilgan) kundan e'tiboran o'n yil mobaynida uning xavfsiz bo'lishini ta'minlashi shart.

«Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 12-moddasiga ko'ra: «Agar tovar (ish, xizmat)dan xavfsiz foydalanish yoki uni shu tarzda tashish va saqlash uchun maxsus qoidalarga rioya etish zarur bo'lsa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi) bunday qoidalarni ishlab chiqishi, sotuvchi (ijrochi) esa, ularni iste'molchilar e'tiboriga yetkazishi shart.

Agar tovardan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilish, ish (xizmat) natijalari iste'molchining hayoti, sog'lig'i, mol-mulkiga yoki atrof muhitga zarar yetkazayotganligi yoxud zarar yetkazishi mumkinligi

aniqlansa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) zarar keltiruvchi sabablar bartaraf etilgunga qadar ularni ishlab chiqarishni (bajarishni, uni realizatsiya qilishni) darhol to'xtatishi, muomaladan chiqarish va iste'molchilardan qaytarib olish choralari ko'rish shart.

Zarar yetkazilishining sabablarini bartaraf etish mumkin bo'lmagan taqdirda, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) bunday tovarni ishlab chiqarishdan olib tashlashi, ishni bajarish va xizmat ko'rsatishni tugatishi shart, bunda oziq-ovqatga mo'ljallangan tovarlar va maishiy kimyo tovarlari sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan utilizatsiya qilinishi shart. Bu majburiyatlar sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tomonidan bajarilmagan taqdirda, tovarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, ishni bajarish va xizmat ko'rsatishni to'xtatish, ularni muomaladan chiqarish va iste'molchilardan qaytarib olish tovarning (ishning, xizmatning) xavfsiz bo'lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari ko'rsatmasiga binoan amalga oshiriladi».

JK 186-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **jabrlanuvchisi** iste'molchi hisoblanadi, «iste'molchi — foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs)» («Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 1-moddasi 2-qismi).

Jinoyat **obyektiv tomondan** iste'molchilarning hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishda namoyon bo'ladi.

Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlar ishlab chiqarish kelgusida iste'molga chiqarish uchun bevosita ishlab chiqarish tayyorlash faoliyatini amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Tahlil qilinayotgan normada **tovarlarni saqlash** kelgusida realizatsiya qilishga mo'ljallangan iste'molchilar xavfsizligi talablariga javob bermaydigan mahsulotlarni vaqtinchalik maxsus saqlash uchun mo'ljallagan joylarga joylashtirishdan iborat.

Tovarlarni tashish deganda, iste'molchilarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'diruvchi va realizatsiya qilishga tayyor bo'lgan mahsulotlarni har qanday usullar bilan transportirovka qilishni tushunish lozim.

Iste'molchilarning hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlarni o'tkazish **ushbu tovarlarni bozorga chiqarish yoki bevosita iste'molchilarga sotishda namoyon bo'ladi**.

Bunda tovarlarni bozorga chiqarish deganda, ishlab chiqaruvchi — tayyorlovchi tomonidan buyurtmachi (iste'molchi)ga tayyor tovarlarni jo'natish (o'tkazish)ni, iste'molchilarga sotish deganda esa, ushbu tovarlarni chakana va ulgurji savdo tashkilotlari xodimlari tomonidan sotilishini tushunish lozim.

Ishlarni bajarish o'zida u yoki bu narsani ishlab chiqarish, qayta ishlash yoki ishlov berishdagi ijro faoliyatini namoyon qiladi.

Xizmatlar ko'rsatish — bu natijasi moddiy hayot narsa-buyumlari bo'lmagan (kommunal va boshqa xizmatlar) aniq bir ishni bajarishga qaratilgan ijro faoliyatidir.

JK 186-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat aybdor tomonidan qanday ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishidan qat'i nazar, mazkur norma dispozitsiyasida qamrab olingan harakatlarning loaqal bittasining sodir etilishi bilan **tugallangan** hisoblanadi.

Jinoyat **subyektiv tomondan to'g'ri qasddan** sodir etiladi. Aybdor iste'molchilarning hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlarni ishlab chiqarayotganligi, saqlayotganligi, tashiyotganligi yoxud o'tkazayotganligini anglaydi, shunga o'xshash xarakterdagi ishlarni bajaradi yoki shunga o'xshash xarakterdagi xizmatlarni ko'rsatadi hamda bu harakatlarni sodir etishni xohlaydi.

Bunday hollarda, tahlil qilinayotgan modda bo'yicha javobgarlik kelib chiqishi uchun iste'molchilarning hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish **o'tkazish maqsadida** (tovarlarni buyurtmaga asosan bozorga chiqarish yoki bevosita iste'molchilarga sotishda namoyon bo'ladi) sodir etilgan bo'lishi lozim. Mazkur maqsadning mavjud emasligi JKning 186-moddasi bilan

javobgarlikni istisno qiladi.

Jinoyatning **motivi** turli bo'lishi mumkin, lekin u jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

Jinoyatning **subyekt**i iste'molchilarning hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish, shuningdek, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishga javobgar bo'lgan **16 yoshga** to'lgan shaxslar, ya'ni sotuvchi, tayyorlovchi yoki ish (xizmat)ni bajaruvchi bo'lishi mumkin.

Iste'molchilarning hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat)larni normativ hujjatlarini tasdiqlovchi yoki unga muvofiqlik sertifikatini bergan shaxs mazkur jinoyat ishtirokchisi va ish holatlariga ko'ra JKning 205-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish) yoxud JKning 206-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish) yoki JKning 207-moddasi (Mansabga sovuqqonlik bilan qarash) bilan javobgar qilinishi mumkin.

JK 186-moddasi 2-qismi bilan javobgarlik iste'molchilarning hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish natijasida badanga o'rtacha og'ir yoxud og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lgan hollarda yuzaga keladi.

Bu holatda qilmishni JKning 104-moddasi va 105-moddalari bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi.

JK 186-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat qonunda belgilangan oqibatlar yuzaga kelgan vaqtdan boshlab tugallangan hisoblanadi. Agar bu oqibatlar kelib chiqmasa shaxs JKning 186-moddasi 2-qismi bo'yicha javobgarlikka tortilmaydi.

JK 186-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatda jinoiy qilmish (ishlab chiqarish, saqlash, tashish va boshqalar)ga nisbatan subyektiv munosabat **to'g'ri qasd** shaklida, qonunda ko'rsatilgan oqibatlarga nisbatan subyektiv munosabat esa **ehtiyotsizlik** shaklida namoyon bo'ladi.

Boshqa so'z bilan aytganda, mazkur jinoyat tarkibi o'zida aybning

murakkab shaklini namoyon qiladi.

Agar sifatsiz, iste'mol talablariga javob bermaydigan tovarlarni ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish inson o'limiga olib kelsa, qilmishni **JK 186-moddasi 3-qismi** bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

Tahlil qilinayotgan moddaning alohida kvalifikatsiya qilish belgilari **JK 186-moddasi 4-qismida** nazarda tutilgan bo'lib, unda iste'molchilarning hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish natijasida:

a) odamlar o'limiga;

b) boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lgan qilmish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 186-moddasi 4-qismi «a» bandida nazarda tutilgan insonlar o'limi deganda, ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'limiga olib kelgan ijtimoiy xavfli oqibatni tushunish lozim.

Boshqa og'ir oqibatlar deganda, ikki yoki undan ortiq shaxsning badaniga o'rtacha og'ir yoxud og'ir shikast yetkazilishi, insonlarning ommaviy kasallanishi va boshqa oqibatlarni tushunish lozim.

«Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 20-moddasiga ko'ra, «Tovar (ish, xizmat)ning tuzilishiga, ishlab chiqarilishiga, tarkibiga bog'liq bo'lgan va boshqa nuqsonlari, shuningdek, iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkinging xavfsizligini ta'min eta olmaydigan materiallar, uskunalar, asbob anjomlar, moslamalar yoki boshqa vositalar qo'llanilishi oqibatida iste'molchining hayotiga, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnoma munosabatlariga kirishgan-kirishmaganidan qat'i nazar, har qanday iste'molchi tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni tufayli yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

Iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, agar u normativ hujjatlarda nazarda tutilgan tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati mobaynida, bunday muddat belgilanmagan taqdirda esa, tovar

ishlab chiqarilgan (ish, xizmat qabul qilingan) paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida yuzaga kelgan bo'lsa, qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) zarar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch yoki foydalanish, saqlash yoxud tashishning belgilangan qoidalari iste'molchi tomonidan buzilishi tufayli yetkazilganligini isbotlasa, u javobgarlikdan ozod qilinadi».

2-§. Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish (JK 186¹-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatdagi manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoyatning **fakultativ obyekti** sifatida bu yerda fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar namoyon bo'ladi.

Jinoyat **predmeti** etil spirti, alkogolli va tamaki mahsulotlari hisoblanadi.

Etil spirti va alkogolli mahsulot deganda, tarkibida vino, vino moddalari, aroq, likyor-arq mahsulotlari, konyak, balzam, konyak spirti, oziq-ovqat spirti, xamir spirti kabilar bo'lgan spirtli ichimliklar nazarda tutiladi.

Tamaki mahsulotlari o'z ichiga har qanday tamaki mahsulotlarini, ya'ni sigaret, papiros, sigara va boshqalarni qamrab oladi.

Obyektiv tomondan jinoyat ancha miqdorda etil spirti, alkogolli yoki tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish, agar shunday qilmishi uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilishida ifodalanadi.

Mazkur norma **blanket** xarakterga ega bo'lganligi bois, yuqoridagi mahsulotlarni **qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish** faktini aniqlash uchun mazkur faoliyatni tartibga solishga qaratilgan amaldagi qonunchilikka murojaat etish lozim bo'ladi.

Alkogolli va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va muomalaga kiritishga nisbatan davlat monopoliyasi o'rnatilgan.

Qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish **deganda, xususan:**

— ixtisoslashmagan korxonalar (maishiy yoki kichik tsexlar sharoitida) tomonidan qonunda belgilangan tartibda tegishli ravishda ro'yxatdan o'tmasdan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan beriladigan tegishli litsenziyasiz alkogolli va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish tushuniladi¹.

Alkogolli va tamaki mahsulotlari O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy ravishda ishlab chiqarilganligini tasdiqlash maqsadida qoida tariqasida maxsus Aksiz markalari bilan markalanadi.

NOTA BENE !

Aksiz — tovarning bahosi tarkibiga kiritiladigan va sotib oluvchi tomonidan to'lanadigan egri soliq. Aksiz solig'i bilan talab ko'p bo'lgan tovarlar, xususan etil spirti, alkogolli va tamaki mahsulotlari qoplanadi.

«Ishlab chiqaruvchi korxonalar va importchilar O'zbekiston Respublikasi hududida sotilayotgan va uning hududiga olib kelinayotgan Aksiz tovarlarni majburiy markalashni ta'minlashlari shart»².

Aksiz tovarlari va mahsulotlarini markalash bilan bog'liq huquqiy munosabatlar amaldagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilayotgan hamda uning hududiga kiritilayotgan majburiy Aksiz markalarini qo'llash lozim bo'lgan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga Aksiz markalarini qo'llashni nazorat qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 14 avgustdagi 285-sonli «O'zbekiston Respublikasi hududida tamaki mahsulotlariga va spirtli ichimliklarga

¹ *Qarang:* Фаолиятнинг айрим турларини лицензияловчи органлар рўйхати (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 28 июндаги 236-сон қарорига 1-илова) // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2002 й., 11-12-сон, 97-модда; 2003 й., 14-сон, 114-модда; 2004 й., 9-сон, 105-модда; 2006 й., 20-21-сон, 181-модда, 22-сон, 195-модда, 36-сон, 362-модда; 2007 й., 78-сон, 68-модда, 33-34-сон, 344-модда, 44-сон, 446-модда; 46-47-сон, 471-модда; 2008 й., 40-41-сон, 412-модда.

² Ўзбекистон Республикасида тамаки маҳсулотлари ва алкоғолли ичимликларга акциз маркаларини қўллаш тартиби тўғрисидаги Йўриқнома (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 1999 йил 7 январда 589-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган, Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан 1998 йил 10 декабрда 04-02-05/809-сон, Давлат солиқ қўмитаси томонидан 1998 йил 10 декабрда 98-156-сон ва Давлат божхона қўмитаси томонидан 1998 йил 6 декабрда 02/8-42-сон билан тасдиқланган), 46-банд // Ўзбекистон Республикаси вазирликлари, давлат қўмиталари ва идораларининг меъёрий ҳужжатлари ахборот- номаси, 1999 й., 2-сон, 2000 й., 16-сон, 2003 й., 21-22-сон.

Aksiz markalarini joriy etish tartibi to'g'risida»gi qarori asosida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga Aksiz markalarini qo'llash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma bilan belgilanadi.

Ushbu yo'riqnomaga muvofiq, «1996 yilning 1 oktyabridan boshlab O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan va uning hududiga olib kelinayotgan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni, pivodan tashqari (keyingi o'rinlarda Aksiz tovarlar deb yuritiladi), belgilangan namunadagi Aksiz markalari bilan majburiy markalash joriy etildi va ularni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, Aksiz markalarini yopishtirmagan holda tashish (xalqaro tranzitdan tashqari), saqlash va sotish taqiqlab qo'yildi»¹.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, mahsulotlarning aniq turlari uchun belgilangan standartlarga muvofiq barcha alkogolli va tamaki mahsulotlarini majburiy ravishda sertifikatlashtirish va markalashtirish lozim. Shuningdek, alkogolli va tamaki mahsulotlarini sifati va xavfsizligini nazorat qilish, qalbakilashtirishdan muhofaza qilishni ta'minlash maqsadida muvofiqlik belgisi bilan markalanadi.

NOTA BENE !

Muvofiqlik belgisi — qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan, alkogolli va tamaki mahsulotlarini aniq standartlarga muvofiqligini ko'rsatuvchi belgi.

Aksiz markalar va muvofiqlik belgilari bilan markalash amaldagi standartlar talablari va «O'zstandart» tomonidan ma'qullangan O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan alkogolli mahsulotlarini muvofiqlik belgisi bilan markalash tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

Aksiz markalari va muvofiqlik belgisi bilan markalash alkogolli mahsulotda (davlat soliq xizmatining hududiy organlari tomonidan

¹ Ўзбекистон Республикасида тамаки маҳсулотлари... 3-банд.

beriladigan) identifikatsiyalash nomeri mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Muvofiqlik belgisini qo'yish joylari, uning shakli, hajmi va boshqa parametrlari standartlar bilan belgilanadi.

Xususan, alkogolli mahsulotning tashqi o'ram belgisida: tegishli raqamlangan muvofiqlik belgisi, «O'zstandart»ning Davlat reyestridan ro'yxatdan olinganlik belgisi va korxonaning kodi, Aksiz markaga mos keluvchi kod, shuningdek, amaldagi normativ hujjatlar talablariga mos keluvchi boshqa ma'lumotlar bo'lishi zarur¹.

Mahsulotni idishlarga quyish, tiqinlash, yorliqlash va Aksiz markalari hamda muvofiqlik belgisi bilan markalash amaldagi Standart talablariga muvofiq va «O'zstandart» agentligi tomonidan tasdiqlangan Alkogolli mahsulotlarni muvofiqlik belgisi bilan markalash tartibiga muvofiq amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish tashkilotlari, import qiluvchilar, savdo tashkilotlari va yakka tadbirkorlik subyektlari tovarlar va mahsulotlarni muvofiqlik belgilari bilan markalashtirish bo'yicha javobgar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi tashkilotlar agar tovar va mahsulotlar ularning ishlab chiqarish jarayonida markalashtirilgan bo'lsa, qo'shimcha ravishda markalashga haqli emaslar.

Chet el oziq-ovqat va tamaki mahsulotlaridan ishlab chiqarilgan alkogolli va tamaki mahsulotlarini Vazirlar Mahkamasining ruxsatisiz olib kirish taqiqlanadi.

— «Vino-arog mahsulotlari va boshqa alkogolli mahsulotni idishlarga quyish tsexlarida har oyning birinchi kunida alkogolli mahsulotlar qoldiqlarini chiqarib olish, idishlarning, Aksiz markalarining, yorliqlarning, tiqinlarning va ishlab chiqariladigan mahsulotlarni tayyorlashga taalluqli boshqa moddiy boyliklarning holatini aniqlash yo'li bilan hisobga olish amalga oshiriladi. Ushbu moddiy resurslarning tezkor hisobi har kuni olib boriladi»².

¹ Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги корхоналар томонидан чиқарилаётган алкоғолли маҳсулотларни Мувофиқлик белгиси билан маркалаш тартиби (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 1998 йил 24 августда 480-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган, Ўзбекистон Республикаси «Ўздавстандарт» томонидан 1998 йил 10 июнда тасдиқланган), 2.6-банд.

²Қаранг: Спирт ва алкоғолли маҳсулотларни ишлаб чиқариш, идишларга қуйиш, сақлаш ва улгуржи сотишни ҳисобга олиш ҳамда назорат қилишга оид Низом (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 2 июлдаги 275-сон қарори билан тасдиқланган), 11-банд.

Amaldagi qonun hujjatlari talablarini buzgan holda etil spirti, alkogolli mahsulotlari yoki tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish taqiqlanadi.

Agar etil spirti, alkogolli mahsulotlar yoki tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar belgilangan texnik talablarga rioya etmasa va iste'molchilarning xavfsizlik talablariga javob bermaydigan mahsulotlar ishlab chiqargan taqdirda, qilmishni JK 186-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish lozim. Agar bu holatda ishlab chiqarishning o'zi ham noqonuniy bo'lgan taqdirda qilmishni JK 186-moddasi va **186¹-moddalari** bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilish lozim.

Noqonuniy muomalaga kiritish deganda, mazkur mahsulotlarni qonunga xilof ravishda saqlash, tashish hamda o'tkazishni (ulgurji va chakana savdo, eksport va import operatsiyalari ham shular jumlasidandir) tushunish lozim.

(«Saqlash», «tashish», «o'tkazish» tushunchalari haqida batafsil JKning 186-moddasi tahliliga qarang.)

O'zbekiston Respublikasi hududida Aksizlanishi lozim bo'lgan tovarlarning Aksiz markalarsiz muomalasi taqiqlangan.

Shu bilan bog'liq ravishda alkogolli va tamaki mahsulotlarining muomalasi quyidagi holatlarda noqonuniy deb e'tirof etilishi mumkin:

– alkogol ichimliklar yoki tamaki mahsulotlarini Aksiz markasiz saqlash yoki transport vositalarida tashish (ishlab chiqaruvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish maqsadida alkogolli yoki tamaki mahsulotlarini texnik jarayonlarga muvofiq ravishda saqlash yoki jo'natish bundan mustasno);

– «Savdo tarmog'ida sotish uchun tayyorlab qo'yilgan alkogolli mahsulot standartlar talablariga javob berishi, markirovka, Aksiz markalari, muvofiqlik belgisiga ega bo'lishi va normativ talablarga javob beradigan xonalarda saqlanishi kerak. Mahsulot korxonalar laboratoriyasi xulosasi bilan chiqariladi va muvofiqlik sertifikatini bilan jo'natiladi»;

– Aksiz markalar bilan markalanmagan alkogolli yoki tamaki mahsulotlarini tovar bozorlariga chiqarish yoki savdo tarmog'iga realizatsiya qilish;

– yuridik shaxslar yoki ishlab chiqaruvchi korxonalarning qonunda

belgilangan tartibda ushbu faoliyat uchun litsenziyaga ega bo'lmagan holda alkogolli yoki tamaki mahsulotlari ulgurji savdosini amalga oshirishi;

– jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan import qilingan spirtli ichimliklar yoki tamaki mahsulotlarining mazkur turdagi mahsulotlarga nisbatan maxsus ruxsatnomalarsiz yoki maxsus ko'chmas savdo shaxobchalaridan tashqarida, nazorat kassa mashinalarsiz chakana savdo tariqasida sotilishi;

– alkogolli mahsulotlarning mayda chakana savdo shaxobchalarida (gazeta do'konlari, ko'char chodirlar, savdo zaliga ega bo'lmagan boshqa joylar) sotilishi. Alkogolli mahsulotlar faqat yuridik shaxslar tomonidan turg'un savdo tarmog'i orqali sotiladi;

– alkogolli mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan alkogolli mahsulotlarni muvofiqlik belgisi bilan markalash tartibiga rioya qilinmagan holda muvofiqlik belgilarisiz ishlab chiqarish va realizatsiya qilish;

– hisobga olinmagan mahsulotlarni realizatsiya qilish;

– mazkur sohada mavjud bo'lgan amaldagi qonun hujjatlarini boshqacha tarzda buzish.

Agar alkogolli yoki tamaki mahsulotlarini o'rnatilgan standartlarga rioya qilmagan holda va iste'molchilar hayoti va sog'lig'i talablariga javob bermaydigan tarzda ishlab chiqarilsa yoki muomalaga kiritilsa, bu harakatlarni JKning 186-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

Agar bu jinoiy harakatlarni aniqlash vaqtida u yoki bu faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanilgani aniqlansa, bu qilmishni **JK 186¹-moddasi** va 190-moddalari (Faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish) bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilish lozim.

Jinoyat etil spirti, alkogolli mahsulot yoki tamaki mahsulotining qonunga xilof ravishda ancha miqdorda ishlab chiqarilishi yoki muomalaga kiritilishi paytidan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** asosida sodir etiladi. Aybdor o'z qilmishining ijtimoiy xavfli ekanligini anglaydi va uni sodir etishni xohlaydi.

Jinoyat **motivi** va **maqsadi** qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Subyekt 16 yoshga to'lgan va etil spirti, alkogolli mahsulot yoki tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish bilan shug'ullanadigan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'ladi.

Aybdorning harakatlari:

a) ko'p miqdorda;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

g) xizmat lavozimini suiiste'mol qilish yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa,

JK 186¹-moddasi 2-qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Etil spirti, alkogolli yoki tamaki mahsulotining qonunga xilof ravishda ishlab chiqarilishi yoki muomalaga kiritilishi:

a) juda ko'p miqdorda;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, **JK 186¹-moddasi 3-qismi** bo'yicha javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Mazkur jinoyatni og'irlashtiruvchi holatlarda kvalifikatsiya qilish va alohida kvalifikatsiya qilish belgilari boshqa jinoyatlarni tahlil qilishda batafsil ko'rib chiqilgan va takrorlashga hojat yo'q (etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini ko'p miqdorda yoki juda ko'p miqdorda qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoxud muomalaga kiritishga hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish yo'li bilan homiylik qilish).

JK 186¹-moddasi 4-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini ko'p miqdorda yoki juda ko'p miqdorda qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoxud muomalaga kiritishga hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish yo'li bilan homiylik qilishda namoyon bo'ladi.

Ko'rsatilgan qonunga xilof faoliyatga **homylik qilish**, yashirish vakolatli organlarning ularni bartaraf etish, qo'llab-quvvatlash yoki mansab vakolatlarini suiiste'mol qilgan holda ularning faoliyat yuritishi uchun yetarli shart-sharoit yaratish kabi harakatlarda ifodalanadi.

Ko'rsatib o'tilgan mahsulotlarni noqonuniy ravishda ishlab chiqarayotgan yoki muomala qilayotgan xususiy korxonalar, firmalar, korxonalarni nazorat qiluvchi organlar (soliq inspeksiyasi) tomonidan tekshirishga yo'l qo'ymasligi; spirt mahsulotlarini Respublika chegarasidan to'sqinliklarsiz kirib kelishi va boshqalar homiylik qilishga misol bo'ladi.

Bu holatda qilmishni JKning 205-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish) bilan qo'shimcha ravishda kvalifikatsiya qilish talab qilinmaydi. Jinoyatlarning real jami (agar hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish nafaqat bevosita homiylik qilishda, balki subyektning boshqa turdagi harakatlari orqali ham yuzaga kelganda) bundan mustasno.

(Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish haqida batafsil JKning 205-moddasi tahliliga qarang.)

Mazkur jinoyat etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini ko'p miqdorda yoki juda ko'p miqdorda qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoxud muomalaga kiritishga homiylik qilishga qaratilgan har qanday harakatlarni sodir etish bilan **tugallangan** hisoblanadi.

Ko'rsatilgan faoliyatga homiylik qilish **subyektiv tomondan to'g'ri kasddan** sodir etiladi. Aybdor hokimiyat yoki mansab vakolatidan foydalanishi etil spirti, alkogolli va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va muomalaga kiritishga yaxshi shart-sharoit yaratishini anglaydi va bu harakatlarni sodir etishni xohlaydi.

Motiv va **maqsad** qoida tariqasida g'arazdir. Ammo bu jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

JK 186¹-moddasining 4-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **subyektiv** faqatgina o'z hokimiyat yoki mansab vakolatlari orqali etil spirti, alkogolli va tamaki mahsulotlarining qonuniy ishlab chiqarilishi yoki muomalaga kiritilishi ustidan nazorat qiluvchi organlar faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki bu nazoratlarning oldini olish imkoniyatiga ega bo'lgan mansabdor shaxs bo'lishi mumkin.

(«Mansabdor shaxs» tushunchasi va belgilari haqida batafsil JKning 205-moddasi tahliliga qarang.)

3-§. Chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish (JK 186²-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekt** xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatlaridagi manfaatlari, xususan, tovar ishlab chiqaruvchilar o‘z tovarlarini soxtalashining oldini olish va iste‘molchilarning sifatli mahsulotlarga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar. **Fakultativ obyekt** sifatida fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar namoyon bo‘ladi.

Jinoyatning **predmeti** chigitdan olinadigan mahsulotlar, xususan, paxta-chigit mahsulotlarini qayta ishlash va texnik ishlovdan o‘tkazish natijasida olingan chigit yog‘i, kunjara, sheluxa va boshqalar.

JK 186²-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritilishida namoyon bo‘ladi.

Tahlil qilinayotgan modda blanket xarakteriga ega bo‘lib, chigitdan olinadigan mahsulotni ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritilishi qonunga xilofligini aniqlashda har bir holatlarda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga murojaat qilish lozim.

Yuqoridagilar asosida chigitdan olinadigan mahsulotlarni **qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish** deganda, bunday mahsulotlarni o‘tkazish yoki muomalaga kiritish maqsadida qonunda belgilangan tartibda ruxsatnoma olmasdan ishlab chiqarish tushuniladi; chigitdan olinadigan mahsulotlarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish deganda esa, chigitdan olinadigan mahsulotlarni sotish, ayirboshlash, qarz uchun to‘lash, garovga berish va h.k. shakllarda fuqarolik muomalaga kiritish tushuniladi.

Chigitdan olinadigan mahsulotlarni qonunga xilof ravishda o‘tkazish deganda, ularni har xil usulda tarqatish (o‘zgaga berish, hadya etish va h.k.lar)ni tushunish lozim.

Bunda ushbu jinoyat obyektiv tomonining sodir etilish usullaridan biri — chigitdan olinadigan mahsulotlarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning tarkibiga to‘xtalib o‘tsak. Xususan, bunda **qonunga xilof ravishda olingan chigit mahsulotlarini sotish** deganda, ushbu

mahsulotlarni muayyan haq evaziga boshqa shaxsga o'tkazish tushuniladi; ayirboshlash deganda esa, chigitdan noqonuniy olinadigan mahsulotlarni naqd pul vositasisiz boshqa moddiy qimmatlikka ega bo'lgan tovar bilan almashtirish tushuniladi. Bunda naqd pul vositasi deyarli ishlatilmaydi, basharti ishlatilgan taqdirda ham yordamchi fakultativ ahamiyat kasb etadi, ya'ni almashtirilayotgan mahsulotlarning qiymatidagi farqlarni qoplash uchun xizmat qiladi.

Tahlil qilinayotgan moddada chigitdan olinadigan mahsulotlarni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish deganda, paxta chigitini texnik qayta ishlash va yog' mahsulotlarini qonunda belgilangan tartiblarini buzgan holda ishlab chiqarish nazarda tutiladi. **Xususan:**

— paxta yog'ini maishiy sharoitlarda va belgilangan talablarga mos sharoitlarga ega bo'lmagan kichik tsexlarda ishlab chiqarish. «Texnik chigit O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan har yili tasdiqlanadigan yog'-moy zavodlari va paxta tozalash zavodlarining joylashishi asosida, faqat yog'ning normativga muvofiq chiqishini ta'minlayotgan yog'-ekstraksiya korxonalariga ajratiladi»¹;

— paxta yog'ini sertifikatlanmagan chigit mahsulotlaridan ishlab chiqarish. Paxta tozalash korxonasida paxta chigiti turkumidan namuna olish yog'-moy korxonalarini tomonidan, mahsulot qabul qilib olingan kunda, ishonchnoma asosida birkirilgan paxta tozalash va yog'-moy korxonalarini vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Sinash uchun olingan texnik chigitni «Sifat» markazi vakili qopqog'i zich yopilgan bankaga yoxud qalin polietilen paketga joylaydi va unga namunani identifikatsiya qiluvchi maxsus etiketka qo'yadi. Namuna oluvchi imzolagan etiketkada paxta zavodining, paxta chigiti turkumining tartib raqami, namuna olingan sana, namuna oluvchining familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatiladi.

Namuna «Sifat» markazining urug'lik laboratoriyasiga beriladi, bu yerda undan 2 kg miqdorida o'rtacha namuna ajratiladi. O'rtacha namuna

¹ *Qarang:* Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2006 й. 18 сентябрдаги «Пaxта чигитини етказиб бериш ва ундан фойдаланиш механизмини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 199-сонли қарори, 2-банд // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 37-38-сон, 381-модда.

taxminan teng bo'lgan ikki qismga — sinash uchun va nazorat namunasiga ajratiladi. Olingan namuna sinovdan o'tkaziladi.

Namunaning nazorat qismi idishga joylanadi, unga barcha namuna oluvchilar vakillarining familiyalari va imzolari bilan yozilgan yorliqcha joylanadi, so'ngra u idishning ochilgani bilinmaydigan rasmiy tartib raqamli plomba yoki yorliq bilan bekitiladi.

Namunaning nazorat qismi «Sifat» markazining urug'lik laboratoriyasida 15 kun mobaynida saqlanadi.

Texnik chigitning har qaysi turkumini sinash «Sifat» markazi mutaxassislari tomonidan, paxta tozalash korxonalari hududlarida joylashgan va «Sifat» markazining akkreditatsiya qilingan mintaqaviy laboratoriyalari filiallari hisoblanadigan urug'lik laboratoriyalarida O'z DSt 596 «Texnik paxta chigiti. Texnik shartlar» talablariga muvofiq o'tkaziladi.

«Sifat» markazining urug'lik laboratoriyalarida paxtaning texnik chigiti sinovlarini o'tkazishda paxta tozalash va yog'-moy korxonalari vakillari ishtirok etadilar¹.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, paxta yog'i yoki kunjara ishlab chiqarish Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxatiga kirmaydi²;

— paxta yog'i, kunjara va sheluxani hisobga olinmagan chigitdan ishlab chiqarish;

— chigitdan olinadigan mahsulotlarning amaldagi qonun hujjatlarini buzgan holda ishlab chiqarish.

Agar chigit mahsulotlarini qayta ishlash yog' ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun o'rnatilgan texnik va sanitar normalarni buzgan holda amalga oshirilishi natijasida iste'molchilarning hayoti va sog'lig'i talablariga javob bermaydigan mahsulotlar ishlab chiqarilsa, qilmishni JK

¹ *Қаранг:* Paxta tozalash va ёғ-мой корхоналарида пaxта чигитини ишлаб чиқариш, ҳаракати, сақлаш ҳамда қайта ишлашда дастлабки ҳисобга олишни ташкил этиш тартиби тўғрисидаги Низом (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2006 йил 18 сентябрдаги 199-сон қарорига илова), II бўлим.

² *Қаранг:* Амалга оширилиши учун лицензиялар талаб қилинадиган фаолият турларининг рўйхати (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2001 йил 12 майдаги 222-11-сон қарорига 1 илова) // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2002 й., 2-сон, 14-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 1-сон, 8-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 14-сон, 110-модда; 2007 й., 29-30-сон, 295-модда, 37-38-сон, 377-модда; 2009 й., 37-сон, 403-модда.

186-moddasining tegishli qismlari bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

Tahlil qilinayotgan modda mazmunida keltirilgan **noqonuniy muomalada bo'lish** deganda, chigitdan olingan mahsulotlarni saqlash, o'tkazish va sotish (realizatsiya, import-eksport operatsiyalari)ning normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibini buzishni tushunish lozim.

(«Saqlash», «o'tkazish» va «sotish» tushunchalari haqida batafsil JKning 186-moddasi tahliliga qarang.)

Chigitdan olinadigan mahsulotlarning qonuniy tartibi quyidagilardan chetga chiqilgan hollarda normativ-huquqiy hujjatlar buzilgan hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublika tovar xom ashyo birjasidagi ochiq birja savdolari orqali — savdo tashkilotlariga hamda sanoatda qayta ishlashga;
- to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar va tartibga solinadigan narxlar bo'yicha — Budget tashkilotlari hamda maxsus iste'molchilarga sotiladi;
- birja savdolari orqali va respublikaning tashqi savdo kompaniyalari bilan tuzilgan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha eksport qilinadi.

Belgilansinki, aholiga o'simlik yog'ini sotish faqat yuridik shaxs maqomiga ega chakana savdo tashkilotlari tomonidan nazoratkassa apparatlari bilan jihozlangan muqim savdo shoxobchalari orqali amalga oshiriladi.

Kunjara va chigitdan olingan sheluxa quyidagi tartiblarda realizatsiya qilinishi mumkin:

- paxta yetishtiruvchi xo'jaliklarga shrot va paxta sheluxasi faqat yog'moy sanoati korxonalarini tomonidan, qishloq joylarda tashkil etiladigan shrot va sheluxa sotish bo'yicha ixtisoslashtirilgan punktlar orqali ulgurji savdo narxlarida sotiladi;
- ulgurji savdo narxlariga mazkur mahsulotlarni ixtisoslashtirilgan punktlargacha yetkazib berish xarajatlari, shuningdek, ushbu punktlarning moddiy ta'minotiga sarflanadigan xarajatlar kiritilmaydi, bu sarf-xarajatlar yog'moy korxonalarini tomonidan birja savdolari orqali o'simlik yog'ini sotishdan olinadigan qo'shimcha daromadlar hisobiga qoplanadi;
- shrot va sheluxa resurslari birja savdolari orqali chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanadigan paxtachilik qishloq

xo‘jaligi korxonalariga emas, balki shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida chorva mol yetishtirish bilan band bo‘lgan aholiga qishloq hududlarida tashkil etiladigan shrot va sheluxa sotishga ixtisoslashtirilgan punktlar orqali 2-ilovadagi sxemaga muvofiq sotiladi¹.

JKning 186²-moddasida nazarda tutilgan jinoyat chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritilishi bilan **tugallangan** hisoblanadi.

Jinoyat **subyektiv tomondan to‘g‘ri qasddan** sodir etiladi. Aybdor o‘z harakatlarning ijtimoiy xavfliligini anglaydi va uni sodir etishni istaydi.

Motiv va **maqsad** jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta’sir qilmaydi.

Jinoyatning **subyektiv** chigitdan olinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish bilan shug‘ullanuvchi har qanday 16 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

Aybdorning chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish bilan bog‘liq harakatlari quyidagi holatlarda **JK 186²-moddasi 2-qismiga** ko‘ra kvalifikatsiya qilinadi:

- a) ko‘p miqdorda;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;
- g) mansab mavqeini suiiste’mol qilish yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa.

Aybdorning chigitdan olinadigan mahsulotni qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish bilan bog‘liq harakatlari quyidagi holatlarda **JK 186²-moddasi 3-qismiga** ko‘ra kvalifikatsiya qilinadi:

- a) juda ko‘p miqdorda;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilsa.

Mazkur kvalifikatsiya qilish belgilari yuqorida tahlil qilingan jinoyatlar tahlili bilan bir xil.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 31 майдаги «Чигит етказиб бериш механизмини ҳамда ўсимлик ёғи ва ёғ-мой маҳсулотлари сотишни тартибга солиш тўғрисида»ги ПҚ 001-360-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 23-сон, 203-модда; 2008 й., 17-сон, 130-модда.

4-§. Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini yoxud tibbiy buyumlarni o‘tkazish maqsadida ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki o‘tkazish shuningdek dori vositalarini dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilish (JK 186³-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** sifatida dori vositalari va tibbiy buyumlarning sifati ustidan nazorat qilishning qonun bilan o‘rnatilgan tartibini, xo‘jalik faoliyati sohasida iste‘molchilarning manfaatlarini, ular tomonidan sotib olinayotgan dori vositalari va tibbiy buyumlarning **xavfsizligini, shuningdek, ko‘rsatilgan tovarlarni ishlab chiqaruvchilarning mahsulotini soxtalashtirishdan muhofaza qilishni ta‘minlaydigan munosabatlar** tushuniladi.

Qo‘shimcha bevosita obyekti fuqarolarning hayotini va sog‘lig‘ini ta‘minlaydigan munosabatlardir (**JK 186³-moddasi 2, 3- va 4-qismlari**).

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish, ularni tayyorlash, markalash, **sotish, eksport va import qilish, ularni reklama qilish**, shuningdek, farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashga **oid huquqiy masalalar O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 apreldagi «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi 415-1-son Qonuni¹**, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 25 maydagi «Dorivor vositalar, tibbiy buyumlar va davolash-profilaktika oziq-ovqatlari sifati ustidan davlat nazoratini tashkil etish to‘g‘risida»gi 181-son, 2000 yil 5 avgustdagi «Ichki bozorni dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 307-son, 2003 yil 31 oktyabrdagi «Tibbiy faoliyatni va farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi 477-son² qarorlari hamda ko‘plab idoraviy me‘yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

JK 186³-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning **predmeti** sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari va tibbiy buyumlardir.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 4-5-сон, 120-модда; 1999 й., 5-сон, 124-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 41-сон, 405-модда.

² Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2003 й., 20-сон, 201-модда; 2006 й., 20-21-сон, 181-модда; 46-47-сон, 458-модда; 2007 й., 21-сон, 214-модда; 2008 й., 14-15-сон, 102-модда.

NOTA BENE !

Dori vositalari — kelib chiqishi tabiiy va sun'iy bo'lgan bir yoki bir necha dori moddalari (substansiyalari) hamda yordamchi moddalar asosida hosil qilingan, kasallikning oldini olish, tashxis qo'yish va davolash uchun qo'llashga ruxsat etilgan vositalar. Ular jumlasiga immunobiologik, radio farmatsevtik va parafarmatsevtik preparatlar, gomeopatik, tashxis qo'yish va sterilizatsiya vositalari kiradi¹.

NOTA BENE !

Tibbiy buyumlar — kasallikning oldini olish, tashxis qo'yish va davolash uchun tibbiyotda qo'llaniladigan buyumlar. Ular jumlasiga bog'lash va tikish materiallari, shpritslar, qon va infuzion eritmalarni quyishga mo'ljallangan sistemalar, bemorlarni parvarishlashda qo'llaniladigan ashyolar va materiallar kiradi².

Qonunga ko'ra, dori vositalari sifatini, ularni tayyorlash, sifat-miqdor jihatidan nazorat qilishni, saqlash shart-sharoitlarini va nomlanishini «**farmakopeya**» deb nomlanadigan davlat standartlari to'plami belgilaydi. Dori vositalari, tibbiy buyumlar sifatiga va ularni nazorat qilish usullariga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan normativ-texnik hujjatlarni rasmiy ekspert organi hisoblanadigan **farmakopeya qo'mitasi** tasdiqlaydi. Ta'kidlash joizki, har bir dori vositasi uchun farmakopeya qo'mitasi tomonidan tegishli normativ-texnik hujjat (**farmakopeya maqolasi**) tasdiqlanadi. Milliy farmakopeyani tasdiqlash hamda dori vositalari va tibbiy buyumlarning sifati nazorat qilinishini, ular ro'yxatdan o'tkazilishi, standartlashtirilishi va sertifikatsiyalanishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish taqiqlanadi. «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasiga

¹ Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 25 апрелдаги «Дори воситалари ва фармацевтика фаолияти тўғрисида»ги 415-1-сон қонуни.

²Ўша жойда.

binoan quyidagilar majburiy tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi shart:

- davolash, kasallikning oldini olish, tashxis qo'yish vositalari, shifobaxsh oziq-ovqat va parafarmatsiya mahsulotlari;
- dorilarni tayyorlashda qo'llaniladigan dori vositalari (substansiyalari) va biologik faol yordamchi moddalar;
- ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining yangi kombinatsiyalari;
- yangicha qadoqlangan, yangi shakl va tarkiblardagi yoki yangi texnologiya bo'yicha tayyorlanayotgan dori vositalari;
- generik dori vositalari (generiklar);
- tibbiy buyumlar.

Shu bilan birga, retseptlar va standart yozuvlar bo'yicha dorixonalarda tayyorlanadigan dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish talab etilmaydi.

Retsept shifokorning farmatsevtga dori tayyorlash va berish haqidagi yozma ko'rsatmasi bo'lib, unda dorini qo'llash usuli qayd etilgan bo'ladi.

Standart yozuv — dori preparatlarining davolash xususiyatlari samaradorligi tekshirilganidan so'ng tuzilgan tarkibi.

Qonunning 13-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining qalbakisi yoki g'ayriqonuniy nusxasi bo'lgan dori vositalarini realizatsiya qilish, shuningdek, muddati o'tgan dori vositalarini sotish va ulardan foydalanish taqiqlanadi.

NOTA BENE !

Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar — milliy farmakopeya, farmakopeya maqolasi, retseptlar va standart yozuvlarda aks ettirilgan sifat va xavfsizlikka qo'yiladigan talablarga javob bermaydigan yoki O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan yoxud O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalari va tibbiy buyumlarning qalbakisi yoki g'ayriqonuniy nusxasi bo'lgan yoxud muddati o'tgan dori vositalari va tibbiy buyumlar.

Obyektiv tomonidan tahlil qilinayotgan jinoyat sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish

yoxud o‘tkazishshuningdek dori vositalarini dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilishdan iborat.

Ishlab chiqarish — sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini (tibbiy buyumlarni) ko‘plab hosil qilish, shu jumladan to‘liq texnologik turkum yoki uning ayrim bosqichlari, xususan, dori vositalarini sintez (biosintez) qilish, ekstraksiyalash, tozalash, ularga ishlov berish, ularni qadoqlash, idishga joylash-o‘rash va ularni markalash bosqichlari bo‘yicha hosil qilish.

O‘zbekiston Respublikasida **dori vositalarining, tibbiy buyumlarning davlat reyestri** mavjud. U rasmiy hujjat bo‘lib, tibbiyot amaliyotida qo‘llashga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar ro‘yxatidan iborat. Davlat reyestridan chiqarilgan dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish taqiqlanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan modda nuqtai nazaridan **tayyorlash** deganda, sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalarini dori substansiyalaridan (kelib chiqishi tabiiy va sun‘iy bo‘lgan biologik faol moddalar) va yordamchi moddlardan tayyorlashga, shuningdek, sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan bog‘lash va tikish materiallari, shprintslar yoxud boshqa tibbiy buyumlarni tegishli ashyo va materiallardan tayyorlashga yo‘naltirilgan aybdor shaxsning barcha xatti-harakatlari tushuniladi.

«Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunning 8-moddasiga muvofiq, dori vositalari dorixonalarda, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan qo‘llashga ruxsat etilgan dori vositalaridan (substansiyalaridan) va yordamchi moddalardan tayyorlanadi. Aks holda, tayyorlangan dori vositasi sifatsiz (qalbakilashtirilgan), deb e‘tirof etilishi lozim.

Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni olish deganda, mazkur predmetlarni sotib olish, boshqa narsa va buyumlarga almashtirish, qarzga yoki hadyaga olish, qarzi evaziga olish, topib olingan sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni o‘zlashtirish tushuniladi.

Saqlash deganda, sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarning maxsus mo‘ljallangan joyda (tayyor mahsulot ombori

va boshqalar) vaqtincha joylashtirilishiga qaratilgan aybdor shaxsning har qanday qasddan qilingan harakatlari tushunilishi lozim.

Aksariyat hollarda, sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlar dorixonalar muassasalarida saqlanadi. Qonunga ko'ra, **dorixona** — dori vositalarini tayyorlash, qadoqlash, ularning sifatini nazorat qilish, shuningdek, davolash hamda kasallikning oldini olishga mo'ljallangan dori vositalari, tibbiy buyumlar, sanitariya va gigiyena ashyolari, shifobaxsh oziq-ovqatlar, ma'danli suvlar, davolash-kosmetika mahsulotlarini xarid qilish, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi tibbiyot muassasasi.

Tashish — sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni har qanday usulda bir joydan ikkinchi joyga (masalan, ishlab chiqaruvchi korxonadan dorixonaga) transportda tashishdir.

Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni o'tkazish ularni tovar bozoriga chiqarish yoki iste'molchilarga bevosita realizatsiya qilish (sotish) orqali amalga oshirilishi mumkin.

Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni tovar bozoriga chiqarish ularning ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga sotilishini nazarda tutadi. Ta'kidlash lozim, «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 12-moddasiga muvofiq, ulgurji savdo korxonalarini va tashkilotlari dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ularni tayyorlash huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan dori-darmonlarni yetkazib beruvchi boshqa ulgurji savdo korxonalarini va tashkilotlardan, shuningdek, xorijiy firmalardan sotib olish huquqiga ega.

Ko'rsatilgan tovarlarni iste'molchilarga realizatsiya qilish ularning dorixona muassasalari, ulgurji yoki chakana savdo tashkilotlari orqali sotilishini yoki sotishga taklifni nazarda tutadi. Ta'kidlash lozimki, qonunning qat'iy ko'rsatmasiga binoan, dori vositalari faqat dorixona muassasalari orqali sotiladi. Dorixonalar ishini boshqarish esa oliy

farmatsevtika ma'lumotiga ega shaxslargagina ruxsat etiladi.

JK 186³-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat mazkur normaning dispozitsiyasida belgilangan harakatlardan biri sodir etilgan vaqtdan boshlab, ijtimoiy xavfli oqibatlar ro'y berishidan qat'i nazar, **tugallangan** deb topiladi.

Jinoyat qonunining talablariga asosan aybdor shaxsga yuqorida tahlil qilingan harakatlari uchun ma'muriy jazo ko'rilganidan so'ng u jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Subyektiv tomonidan jinoyat **to'g'ri qasddan** sodir etiladi. Aybdor sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni ishlab chiqarishini, tayyorlashini, olishini, saqlashini, tashishni yoxud o'tkazishini shuningdek dori vositalarini dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilishni anglaydi va mazkur harakatlarni sodir etishni istaydi. Shaxsning ko'rib chiqilayotgan modda bo'yicha javobgarlikka tortilishi uchun sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarning ishlab chiqarilishi, tayyorlanishi, olinishi, saqlanishi, tashilishi mazkur mahsulotni o'tkazish, shuningdek dori vositalarini dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilish ya'ni uni buyurtmachiga yetkazib berish yoki bevosita iste'molchiga realizatsiya qilish maqsadini ko'zlagan holda amalga oshirilishi kerak. Ko'rsatilgan hollarda jinoyat maxsus maqsadining yo'qligi **JK 186³-moddasi** bo'yicha javobgarlikni istisno qiladi.

Jinoyatning **subyekta** sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish shuningdek dori vositalarini dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilishga mas'ul bo'lgan **16 yoshga** to'lgan shaxs hisoblanadi.

Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish shuningdek dori vositalarini dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilish bo'yicha shaxsning harakatlari:

- a) ko'p miqdorda;

- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;
- g) mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa;
- d) badanga o'rtacha og'ir yoxud og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa;

e) dori vositalari yoki tibbiy buyumlarning sifati va davlat ro'yxatidan o'tganligini tasdiqlovchi hujjatlarni qalbakilashtirish yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa **JK 186³-moddasi 2-qismi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Dori vositalari yoki tibbiy buyumlarning sifati va davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi tasdiqlaydi. «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 2-moddasiga asosan ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi — dori vositalarini tibbiy qo'llanish huquqi uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ruxsatini tasdiqlovchi hujjatdir. Qonunga ko'ra, ro'yxatdan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnoma egasi ushbu guvohnomani bergan muassasani dori vositasining farmakologik samaradorligi va xavfsizligiga doir yangi ma'lumotlardan xabardor qilib turishi shart.

Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish shuningdek dori vositalarini dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilish bo'yicha shaxsning harakatlari:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa;
- v) odam o'limiga sabab bo'lsa **JK 186³-moddasi 3-qismi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni o'tkazish maqsadini ko'zlab ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoxud o'tkazish shuningdek dori vositalarini dorixonalardan va ularning filiallaridan tashqarida realizatsiya qilish bo'yicha shaxsning harakatlari:

- a) odamlar o'limiga sabab bo'lsa;

b) boshqacha og‘ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lsa **JK 186³-moddasi 4-qismi** bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Mazkur kvalifikatsiyalovchi (alohida kvalifikatsiyalovchi) belgilar o‘z mazmuni bo‘yicha yuqorida boshqa jinoyatlarning tahlili doirasida ko‘rib chiqilgan belgilardan farq qilmaydi.

5-§. Noqonuniy tadbirkorlik faoliyati (JK 188-moddasi)

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri subyektlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunida tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir, deb ta’rif beriladi.

Amaldagi tartibga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tegishli davlat organi tomonidan «bir darcha» prinsipi bo‘yicha va, qoida tariqasida, xabardor qilish asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar ariza beruvchini tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni uni tashkil etish maqsadga muvofiq emas, degan vajlar bilan rad etishga yoki unga qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan qo‘shimcha talablarni belgilashga haqli emas. Ariza beruvchini tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etganlik, shuningdek davlat ro‘yxatidan o‘tkazish muddatlarini buzganlik ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning qarori, shuningdek mazkur organ mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) sud tomonidan qonunga xilof deb topilgan taqdirda, ular ariza beruvchiga ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etganlik yoki ro‘yxatdan o‘tkazish muddatini buzganlik tufayli yetkazilgan zararning o‘rnini qoplaydi va ma’naviy zarar uchun kompensatsiya to‘laydi.

Qonunga xilof tadbirkorlik ba’zan boshqa jinoyatlar, shu jumladan, soliq jinoyatlari bilan birga sodir etiladi. Bunda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxs, avvalo, tadbirkorlik uchun asosiy bo‘lgan

fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishadi, qonun bilan qo‘riqlanadigan huquqiy munosabatlar sifatidagi qonunga xilof tadbirkorlikning jinoyat-huquqiy qoidalari fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadi. Ayni vaqtda shu fuqarolik-huquqiy munosabatlardan jinoyat-huquqiy munosabatlar, nafaqat qonunga xilof tadbirkorlikda, balki soliqlar to‘lashdan bo‘yin tovlashda ham bo‘lishi mumkin. Shu sababli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning asosi hisoblanadigan jinoyat obyektini aniqlash zarur.

Jinoyatning **bevosita obyekti** – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar. Fakultativ obyekti soliq to‘lash, savdo qoidalari rioya qilish tartibi va hokazolar bo‘lishi mumkin.

Obyektiv tomondan jinoyat tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan juda ko‘p miqdordagi nazorat qilinmaydigan daromad olgan holda amalga oshirishda ifodalanadi.

Qonunga ko‘ra, **belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tish** deganda, tadbirkorlik subyektlarining vakolatli davlat organlari (hokimlik va adliya idoralari)da davlat ro‘yxatiga olinishi tushuniladi. Davlat soliq inspeksiyalari tomonidan beriladigan «Qayd guvohnomasi» ularning ichki idoraviy hujjati bo‘lib, uning mavjud emasligi yoki muddati o‘tganligi faktining o‘zi tadbirkorlik subyektlarini JKning 188-moddasi bilan javobgarlikka tortish uchun asos bo‘la olmaydi.

Jinoyat tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi subyektning qonun talab qilgan ro‘yxatdan o‘tishdan bo‘yin tovlashga yo‘naltirilgan faol harakatlarida ifodalanadi.

Mazkur modda ma’nosida davlat ro‘yxatidan o‘tmaslik – bu amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga ko‘ra, vakolatli organga faoliyatini ro‘yxatdan o‘tkazish yoxud uni tiklash yoki o‘zgartirishni so‘rab murojaat etishga majbur bo‘lsa-da, lekin qasddan buni bajarmaslik yoinki bila turib o‘zining murojaatini ko‘rib chiqishni imkonsiz qilib qo‘yishda ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, tadbirkorlik doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat majburiy davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim. Qonun fuqarolik huquqiy xususiyatga ega bo‘lgan bir marotabali bitimlarni tuzish uchun tadbirkor sifatida davlat

ro'yxatidan o'tishni talab qilmaydi. Qonunchilik yoki huquqiy an'analarga muvofiq, kasbiy (xususiy) amaliyotning ba'zi bir turlari maxsus ro'yxatdan o'tishni talab qilmaydigan deb tan olinadi. Masalan, xususiy amaliyotga ega advokat va hokazolardan qo'shimcha ro'yxatdan o'tish talab qilinmaydi. Shu bilan birga, ba'zi tovarlar, ishlar va xizmatlarga nisbatan (masalan, ta'lim bo'yicha, tibbiyot bo'yicha xizmatlar) amalga oshiriladigan savdo yoki vositachilik faoliyati ro'yxatdan o'tkazilishi shart. O'z mazmuni bo'yicha g'ayriqonuniy bo'lgan faoliyat (fohishalik, narkotik moddalar savdosi va h.k) ro'yxatga olinmaydi va savdo yoki vositachilik faoliyati hisoblanmaydi. Ularning amalga oshirilganligi uchun Jinoyat kodeksida boshqa moddalar bo'yicha javobgarlik nazarda tutilgan.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan shaxslarni qonunchilikka muvofiq ro'yxatga olishga vakolatli organ hamda sud ro'yxatga olinganlikni to'xtatib qo'yishi yoki umuman bekor qilishi mumkin. Bunday holatlarda tadbirkorlik faoliyatini davom ettirish faoliyatni g'ayriqonuniy amalga oshirish deb ko'rilishi lozim. Ro'yxatga olingan boshqa shaxs uchun yoxud boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish uchun ro'yxatdan o'tib, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarning harakatlarini JKning 188-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

Ro'yxatdan o'tganlikni tiklash – ro'yxatdan o'tish maqsadlarini o'zgartirmasdan ro'yxatga olish hujjatini uzaytirish yoki almashtirishga yo'naltirilgan harakatlar majmui, ya'ni qayta tiklashda shaxs hozir qayta ro'yxatga olinayotgan faoliyat sohasi bo'yicha avval ro'yxatdan o'tgan bo'lishi lozim. Xususan, ro'yxatdan o'tishni tiklash chakana savdo huquqi uchun ruxsatnoma muddati tugaganda amalga oshirilishi mumkin.

Agar subyekt quyidagi shartlarga mos kelsa, ro'yxatdan o'tganlikni tiklash mumkin:

- a) u avval ro'yxatdan o'tgan bo'lishi lozim;
- b) avvalgi ro'yxatdan o'tganligi haqiqiy bo'lishi kerak;

v) subyektning yangidan ro'yxatdan o'tishi avvalgi ro'yxatdan o'tishi uchun asos bo'lgan holatlarni o'zgartirmagan holda amalga oshirilishi lozim.

Ro'yxatdan o'tishni tiklash ko'rsatilgan elementlar birligini tashkil etadi va ulardan birining mavjud emasligi uni tan olish mumkin emasligini bildiradi.

Ro'yxatdan o'tishni o'zgartirish deganda, avvalgi ro'yxatdan o'tish asoslari (masalan, subyekt manzili, faoliyati sohasi va hokazolar) o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan yangi ro'yxatdan o'tish jarayonini tushunish lozim.

Ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovlash – subyektning ro'yxatdan o'tish to'g'risidagi murojaatini ko'rib chiqishni imkonsiz qilib qo'yadigan harakatlarni amalga oshirishida ifodalanishi mumkin. Bu subyekt shunday harakatlarni amalga oshiradiki, natijada murojaatni ko'rib chiqish mumkin bo'lmay qoladi.

Murojaatni ko'rib chiqishning imkonsizligi deganda, kelib tushgan ariza bo'yicha vakolatli organning tegishli qarorni qabul qila olmaganligiga sabab bo'lgan obyektiv mavjud vaziyatni tushunish lozim. Ko'rib chiqishning imkonsizligi murojaatni yo'qotish, unda noto'g'ri ma'lumotlar berish, belgilangan davlat bojini to'lamaslik, murojaatni tushunish qiyin bo'lgan shaklda bayon etish va hokazo harakatlar bo'lishi mumkin. Shuni nazarda tutish lozimki, murojaatni ko'rib chiqishning imkonsizligi faqat subyekt ongida mavjudligi bilan emas, balki obyektiv holatlar bilan ham tavsiflangan bo'lishi lozim.

Ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovlash aybdor savdo yoki vositachilik faoliyatini qonun bilan belgilangan tartibni buzgan holda amalga oshirishni boshlagan paytdan **tugallangan** hisoblanadi.

«Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»¹gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **188-moddasi 2-qism** bilan to'ldirilgan bo'lib, unga muvofiq

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017., № 1, с.1.

shaxs quyidagi talablarni bajargan taqdirda javobgarlikdan ozod etilishi mumkin:

a) shaxs, birinchi marta noqonuniy tadbirkorlik faoliyatini sodir etganda;

b) jinoyat aniqlangan kundan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tarzida davlatga yetkazilgan zararining o'rnini ixtiyoriy ravishda qoplaganda;

v) tadbirkorlik subyektining ro'yxatdan o'tishi ta'minlanganda;

g) zarur bo'lgan ruxsat beruvchi xujjatlarni rasmiylashtirganda.

Shu bilan birga, qilmish aybdor shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tmasdan juda ko'p miqdordagi nazorat qilinmaydigan daromad olgan holatda jinoiy jazolanishi taqazo etiladi. Bunda shuni qayd etish lozimki, miqdorni subyekt ro'yxatdan o'tmasdan savdo yoki vositachilik faoliyati natijasida olgan foydaning haqiqiy summasiga asosan belgilash zarur, biroq bunda uning mazkur faoliyatni amalga oshirishida qilgan xarajatlarini ham hisobga olish lozim.

Subyektiv tomondan JKning 188-moddasida nazarda tutilgan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli ekanligini biladi va shunday harakat qilishni xohlaydi.

Jinoyatni sodir etish maqsadi – nazorat qilinmaydigan foyda (daromad) olish sharhlanayotgan jinoyat tarkibining zaruriy belgisi hisoblanadi. Jinoyatning motivi, qoida tariqasida, g'araz bo'ladi.

Sharhlanayotgan jinoyatning **subyekt** o'n olti yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

6-§. Pul mablag'larini va (yoki) boshqa mol-mulkni jalb etishga doir noqonuniy faoliyat (JK 188¹-moddasi)

Sharhlanayotgan modda Jinoyat kodeksiga O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 22 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni bilan kiritilgan.

Jinoyatning ijtimoiy xavfi juda yuqori, chunki juda ko'plab odamlar aldanishi natijasida ijtimoiy muhit o'ta keskinlashib ketadi, odamlarning

hokimiyatga, davlatning pul-kredit tizimiga ishonchi yo‘qoladi, ular mol-mulki, qimmatliklari va pullarini yo‘qotadi.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning **obyekti** fuqarolarning mulkiy munosabatlarini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlardan iborat.

Obyektiv tomondan jinoyat quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag‘larini va (yoki) boshqa mol-mulkini mulkiy naf berish bo‘yicha majburiyatlarni qabul qilish yo‘li bilan qonunga xilof ravishda jalb etishga doir faoliyatni amalga oshirish va bunda ilgari qabul qilingan majburiyatlarni jismoniy va yuridik shaxslarning yangi jalb etilgan pul mablag‘lari va (yoki) boshqa mol-mulki hisobidan bajarish;

ikkinchidan, bunday faoliyatga rahbarlik qilish hamda ta‘minlash;

uchinchidan, mazkur faoliyatda ishtirok etishga jalb qilish maqsadida ushbu faoliyatni reklama qilish, shu jumladan ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda reklama qilish.

Ko‘rib chiqilayotgan modda mazmuniga ko‘ra, faoliyatni amalga oshirish tomonlar o‘rtasidagi bitimda kelishilgan muddatda muayyan mulkiy naf berish bo‘yicha majburiyatlarni zimmasiga olish yo‘li bilan pul mablag‘larini, mol-mulkni (uy-joy, mashina, qoramol va h.k.) qabul qilishda ifodalanadi. Shubhasiz, bu kabi bitimlar apriori qonunga xilof hisoblanadi. Har qanday xo‘jalik, tijorat, savdo va boshqa faoliyat «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi, «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»gi qonunlar va boshqalar asosida amalga oshirilishi lozim.

JKning 188¹-moddasi 1-qismida ko‘zda tutilgan faoliyatni amalga oshirishda aybdor shaxs hech qanday litsenziyaga ega bo‘lmaydi, ro‘yxatdan o‘tmaydi, ya‘ni o‘z faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshiradi.

Jinoyat, jabrlanuvchi mulkiy naf olgan yoki olmaganidan qat‘i nazar, ushbu faoliyat amalga oshirilishi boshlangan vaqtdan **tamomlangan** hisoblanadi.

Bunday faoliyatga rahbarlik qilish hamda uni ta‘minlash o‘ziga xos «moliyaviy piramida» faoliyat yuritishi uchun o‘zgalarning pul

mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkini jalb etish uchun yangi mijozlarni izlab topish, «moliyaviy piramida» mijozlaridan mablag‘larni yig‘ish, joylashtirish, mablag‘larni tarqatishni tashkil etish, ushbu mablag‘lar qabul qilinishi va to‘lanishini nazorat qilishdan iborat.

Pul mablag‘larini va (yoki) boshqa mol-mulkni qonunga xilof ravishda jalb etish bo‘yicha faoliyatga rahbarlik qilish hamda uni ta‘minlash «moliyaviy piramida» faoliyatini tashkil etish yuzasidan har qanday harakatlar sodir etilishi vaqtidan **tamomlangan** hisoblanadi.

Mazkur faoliyatda ishtirok etishga jalb qilish maqsadida ushbu faoliyatni reklama qilish, shu jumladan ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda reklama qilish «moliyaviy piramida» faoliyati haqida bukletlar tayyorlash, katta auditoriyalarda televideniye, gazetalar, radio, Internet tarmog‘i va boshqalarda chiqish yo‘li bilan «moliyaviy piramida» faoliyati haqidagi ma‘lumotlarni respublikaning butun hududida keng doirada tarqatishdan iborat.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun reklama tadbirlarini o‘tkazish joyi va vaqti ahamiyatga ega emas.

«Moliyaviy piramida» faoliyatini reklama qilish yo‘li bilan sodir etilgan jinoyatni tamomlangan deb tan olish uchun ushbu faoliyatda ishtirok etishga boshqa fuqarolar jalb qilinganligi ahamiyatli emas. Jinoyat reklama qilish boshlangan vaqtdan **tamomlangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Motiv va maqsad kvalifikatsiyaga ta‘sir qilmaydi. Shubhasiz, ko‘rib chiqilayotgan jinoyat moddiy naf ko‘rish maqsadida sodir etiladi.

Jinoyatning **subyekt**i 16 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

JKning **188¹-moddasi 2-qismida** jismoniy va yuridik shaxslarning pul mablag‘larini va (yoki) boshqa mol-mulkini mulkiy naf berish bo‘yicha majburiyatlarni qabul qilish yo‘li bilan qonunga xilof ravishda jalb etishga doir faoliyatni amalga oshirish va bunda ilgari qabul qilingan majburiyatlarni jismoniy va yuridik shaxslarning yangi jalb etilgan pul mablag‘lari va (yoki)

boshqa mol-mulki hisobidan bajarish, shuningdek, bunday faoliyatga rahbarlik qilish va shunday faoliyat ko'rsatilishini ta'minlash:

- a) ko'p miqdorda;
- b) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- g) ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilgani uchun javobgarlik ko'zda tutilgan.

Ushbu kvalifikatsiyalovchi holatlar avvalroq ko'rib chiqilgan edi.

JKning 188¹-moddasi 3-qismida ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlar:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgani uchun javobgarlik ko'zda tutilgan.

Ushbu kvalifikatsiyalovchi holatlar avvalroq ko'rib chiqilgan edi.

JKning 188¹-moddasida ko'zda tutilgan jinoyatni firibgarlikdan farqlash zarur, boisi unda aybdor aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki unga bo'lgan huquqni qo'lga kiritib, tabiiyki, jabrlanuvchiga hech qanday foizlar to'lamaydi.

JKning 188¹-moddasida ko'zda tutilgan jinoyatni sodir etishda aybdor shaxs «bitim» muddati tugaganidan so'ng kelishilgan pulni to'laydi. Basharti aybdor shaxs kelishilgan daromadni to'lash niyati bo'lmasa va keyinchalik shunday harakat qilsa, unig harakatlarini firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilish lozim.

7-§. Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish (JK 189-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekt**i fuqaro manfaatlarini, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarini, umumiy ovqatlanish korxonalarining me'yoriy faoliyati hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llangandan so'ng savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini ancha

miqdordagi qiymatda buzishda ifodalanadi.

Savdo yoki xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzish deganda, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining buzilishi tushunilmog‘i lozim. Bunda sud aybdor tomonidan aynan qaysi savdo qoidasi buzilganligini ko‘rsatishi shart»¹.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda qaysi qoida, mazkur qoidalarning qaysi bandi buzilganini aniqlash talab etiladi. JKning 189-moddasi bilan mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, aholiga tovarlar sotishni amalga oshirayotgan yoki xizmatlar ko‘rsatayotgan korxonalarda o‘lchovdan, tarozidan, puldan urib qolish yoxud xaridorni yoki buyurtmachini o‘zgacha tarzda aldash singari qilmishlar ham qamrab olinadi.

Tovarlar navini qayta belgilashda aldash, ularni boshqa nom bilan sotish, tovar navi, miqdori va hokazolarda aldash ham savdo yoki xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzish hisoblanadi.

Subyektiv tomondan savdo yoki xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzish to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaydi va uni sodir etishni xohlaydi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda **motiv** va **maqsad** ahamiyatga ega emas.

Jinoyat **subyekt** savdo yoki xizmat ko‘rsatish sohasida ishlayotgan va 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

Agarda savdo yoki xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzish tovlamachilik yo‘li bilan haq berishni talab qilish (JK 214-moddasi) bilan bog‘liq bo‘lsa, aybdor harakatlari jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

JKning **189-moddasi 2-qismida** javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi nazarda tutilgan, agarda u:

- a) birinchi marta savdo yoki xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzganda;
- b) jinoyat aniqlangan kundan e‘tiboran o‘ttiz kunlik muddatda savdo yoki xizmat ko‘rsatish qoidalari buzilishining oqibatlarini bartaraf etganda;
- v) yetkazilgan moddiy zarar qoplanganda.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 15 мартдаги «Савдо соҳасидаги жиноятлар ва бошқа ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 9-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарoriga асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 52-б.

8-§. Faoliyat bilan litsenziyasiz shug‘ullanish (JK 190-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 41-moddasi 4-qismiga muvofiq, yuridik shaxs qonunda ro‘yxati belgilab qo‘yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug‘ullanishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi jismoniy shaxslardan ham faoliyatning ba’zi turlarini amalga oshirishda litsenziya olishni talab qiladi. Amalga oshirilishi maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qiladigan faoliyatlar turi ro‘yxatini va litsenziyalash tartibini belgilovchi asosiy me‘yoriy hujjat — O‘zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»¹ Qonuni hisoblanadi. Biroq shuni nazarda tutish lozimki, faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash zarurati va tartibi qonunchilikning boshqa hujjatlari bilan ham belgilanishi mumkin (masalan, narkotik moddalar aylanishi, transport sohasidagi faoliyat va hokazolarga tegishli).

Litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, u olingan paytdan boshlab vujudga keladi. Shuni nazarda tutish lozimki, litsenziya faoliyatning litsenziyalanadigan har bir turiga olinishi lozim. Bunda faoliyatning bir necha turini amalga oshirishga ruxsat bitta yoxud bir necha hujjatda ifodalanganligi muhim emas. Faoliyat xususiyatlariga qarab uni amalga oshirishning turli shartlari belgilanishi mumkin.

Jinoyatning **bevosita obyekti** iqtisodiyotning normal rivojlanishini ta‘minlovchi xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishning o‘rnatilgan tartibi va xususiy tadbirkorlik hamda yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar, shuningdek, litsenziyani ko‘rib chiqish va berish uchun to‘lovni, ro‘yxat bojini olmayotgan davlatning moliyaviy manfaatlarini hisoblanadi. Bundan tashqari, faoliyat bilan litsenziyasiz shug‘ullanish uni tegishli nazorat ostidan chiqaradi va fuqaro hamda tashkilotlarga ziyon, fuqarolar sog‘lig‘iga, ijtimoiy axloq manfaatlariga zarar, mamlakat mudofaasi va

¹Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 56-сон, 142-модда; 2003 й., 1-сон, 8-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 14-сон, 110-модда; 2006 й., 41-сон, 405-модда.

davlat xavfsizligiga putur yetkazishi mumkin.

Obyektiv tomondan jinoyat litsenziya olinishi shart bo'lgan faoliyat bilan maxsus ruxsatnoma olmasdan shug'ullanish ko'p miqdorda daromad olish bilan bog'liq bo'lishi bilan ifodalanadi.

“Amaldagi qonunchikka muvofiq savdo faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanishga maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qilinadi. Bunday ruxsatnomaning yo'qligi JKning 190-moddasida ko'rsatilgan javobgarlikni yuzaga keltiradi, agarda aybdor ko'p miqdorda daromad olgan bo'lsa.

Agar bunda aybdor savdo faoliyatini nafaqat ruxsatnoma (litsenziya)siz amalga oshiribgina qolmay, balki ro'yxatdan o'tishdan ham bo'yin tovlanligi aniqlansa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining 188 va 190-moddalari majmui bilan kvalifikatsiya qilinmog'i lozim»¹.

Faoliyatning litsenziyalanadigan turlari jumlasiga amalga oshirilishi fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, sog'lig'iga, jamoat xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hamda tartibga solib turilishi litsenziyalashdan tashqari usullar bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyat turlari kiradi.

Amalga oshirilishi uchun litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlari qonunlar bilan belgilanadi.

Litsenziyalar namunaviy (oddiy) va yakka tartibdagi bo'lishi mumkin.

Namunaviy (oddiy) litsenziyalar jumlasiga cheklanmagan doiradagi yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan litsenziyalar kiradi, agar ushbu shaxslar tegishli faoliyat turini amalga oshirishga nisbatan qo'yiladigan yagona shartlar va talablarga javob bersalar.

Yakka tartibdagi litsenziyalar jumlasiga yuridik va jismoniy shaxslarga alohida talablar va shartlar asosida beriladigan, litsenziatlarga faoliyatning mazkur turini amalga oshirishda mutlaq huquqlar beruvchi, miqdoriy cheklangan litsenziyalar kiradi. Yakka tartibdagi litsenziyalar amal qilish hududi, faoliyat obyekti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan boshqa asoslarga ko'ra miqdoriy cheklanadi.

Yakka tartibdagi litsenziyalarni berish, qoida tariqasida, tanlov (tender)

¹ Қаранг: “Савдо соҳасидаги жиноятлар ва бошқа қоидабузарликлар ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Олий суд пленумининг 1996 йил 15 март кунидаги № 9, п. 5. // Тўплам, Т.1. – Б. 300.

asosida amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi litsenziyalarni berish tartibi va shartlari, shu jumladan tanlovlarni (tenderlarni) o‘tkazish shartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Litsenziyaning amal qilish muddati, qoida tariqasida, cheklanmaydi.

Litsenziya qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda litsenziya da’vogarining arizasida ko‘rsatilgan muddatga beriladi. Qonun hujjatlarida litsenziyaning cheklangan amal qilish muddati belgilanishi mumkin, lekin bu muddat besh yildan kam bo‘lmasligi lozim.

NOTA BENE !

Litsenziya — rasmiy hujjat. Litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so‘zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq). Litsenziyalanishi lozim bo‘lgan faoliyatning har bir turi uchun alohida litsenziya olinishi zarur.

Aybdor ko‘p miqdorda daromad olgan bo‘lsa jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat aybning **to‘g‘ri kasd** shaklida ifodalanadi. Shaxs faoliyat bilan g‘ayriqonuniy shug‘ullanayotganligini hamda u bilan shug‘ullanish uchun maxsus ruxsatnoma olinishi talab qilinishini biladi va buni xohlaydi. Shaxs bunday harakat taqiqlanganligini bilishi to‘g‘risida uning avval bunday harakati uchun ma‘muriy javobgarlikka tortilgani dalolat beradi.

Jinoyatning **motiv** va **maksadi** turli xil bo‘lishi mumkin. Lekin ular qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Jinoyat **subyekt**i 16 yoshga to‘lgan, har qanday aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

JK 190-moddasi 2-kismi quyidagi kvalifikatsiya qilish belgilarini:

- a) juda ko‘p miqdorda;
- b) xavfli retsivist tomonidan sodir etilishi;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilishi.

JKning **190-moddasi 3-qismida** rag‘batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin, agarda:

- birinchidan, shaxs birinchi marta jinoyat sodir qilganda;
- ikkinchidan, jinoyat aniqlangan kundan e‘tiboran o‘ttiz kunlik muddatda faoliyat bilan litsenziyasiz shug‘ullanish oqibatlarini bartaraf etgan va yetkazilgan moddiy zararining o‘rnini qoplagan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

Mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishda shuni inobatga olish lozimki, agar faoliyat bilan litsenziyasiz shug‘ullunayotgan shaxs soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlasa, uning harakatlari jinoyatlar majmui bo‘yicha JKning 190 va 184-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

9-§. Qonunga xilof ravishda axborot to‘plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish (JK 191-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** — fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdo va shu kabi boshqa sohalarga oid sir tutilishi lozim bo‘lgan axborotlarning daxlsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar.

Jinoyat **predmeti** sir tutiladigan fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdoga oid yoki boshqa shu kabi axborotdir.

NOTA BENE !

Sir tutiladigan axborot deganda, egasining ruxsatisiz oshkor qilinishi mumkin bo‘lmagan turli xususiyatdagi axborotlar tushuniladi.

Agar axborot uchinchi shaxslarga ma‘lum bo‘lmaganligi sababli haqiqiy yoki potentsial tijorat qiymatiga ega bo‘lsa, qonuniy asosda undan erkin foydalana olish mumkin bo‘lmasa hamda axborotning egasi uning maxfiylikini muhofaza qilish choralarini ko‘rgan bo‘lsa, uning ko‘rinishi, shaklidan qat’i nazar, sir tutiladigan axborot deb tan olinishi lozim. Bunda axborot, agar u ijtimoiy rivojlanishning mavjud bosqichida daromad olish uchun ishlatilsa yoki ishlatilishi mumkin bo‘lsa (potentsial qadr), haqiqiy

yoki potentsial tijorat qiymatiga ega deb tan olinadi. Ochiq olish mumkin bo'lgan axborot, ya'ni qonunda o'rnatilgan har qanday shaxs olishi mumkin bo'lgan axborot sir tutiladigan axborot bo'lmaydi, masalan, tarixiy manba mazmuni haqidagi axborot arxivga murojaat qilinganda olinadi va hokazo.

Hammaga ma'lum bo'lgan axborot ham 'sir tutilayotgan axborot hisoblanmaydi, ya'ni bunday axborotni olish qandaydir shartlarni bajarish bilan bog'liq emas, masalan, ommaviy axborot vositalaridan, qonun hujjatlaridan (maxfiylaridan tashqari) olinadigan ma'lumotlar.

Bayon etilganlardan tashqari, qonunga muvofiq, xizmat yoki tijorat siri bo'la olmaydigan ma'lumotlar jumlasiga davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak bo'lgan yuridik shaxslar to'g'risidagi, mol-mulkka bo'lgan huquqlar hamda mol-mulk xususida tuzilgan bitimlar haqidagi ma'lumotlar, davlat statistika hisoboti tariqasida taqdim etilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar kiradi¹. Davlat siriga tegishli axborotlar ham sir tutiladigan hisoblanmaydi — ularga nisbatan maxsus huquqiy tartib belgilangan, ularning buzilishi, ishning muayyan holatlaridan kelib chiqib, JK 160-, 162-, 163-moddalari bo'yicha jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Axborotni sir tutiladigan deb tan olish uchun uning egasi muhofaza qilish choralarini ko'rayotganligini aniqlash lozim, aks holda mazkur axborotlarni sir tutiladigan deb tan olish mumkin emas. Ma'lumotlarni muhofaza qilish turli choralar bilan amalga oshiriladi: undan faqat ma'lum shaxslar foydalanadi, uni ma'lum hududdan olib chiqish mumkin emas, bunday axborotdan foydalanadigan shaxslarning uni tarqatish huquqi chegaralanadi va hokazo. Odatda, axborotni muhofaza qilish uchun axborotni himoyalashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmui amalga oshiriladi.

Sir tutiladigan axborot turli xususiyatlarga ega:

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2000 й. 25 майдаги «Тадбиркорлик фао- лияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида»ги 69-161-сон Қонуни, 37-модданинг 3-қисми // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Аxborot- номаси, 2000 й., 5-6-сон, 140-модда; 2001 й., 5-сон, 89-модда; 2003 й., 5-сон, 67-модда; 2004 й., 1-2-сон, 18-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 51-сон, 514-модда; 2006 й., 12-13-сон, 100-модда; 37-38-сон, 371-модда; 41-сон, 405-модда; 2007 й., 52-сон, 533-модда; 2008 й., 52-сон, 513-модда.

fan-texnika — texnologik, muhandislik, ijtimoiy, gumanitar va boshqa muammolarni hal qiladigan, fan, texnika va ishlab chiqarishning yagona tizim sifatida faoliyat yuritishini ta'minlaydigan bilimlar;

ishlab chiqarish — bir turdagi texnologiyalarni ishlatib, kerakli natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan muayyan texnologiyalar faoliyati uchun ishlatilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar. Bunday ma'lumotlarga qadimgi Sharq tibbiyotining turli dori-darmonlarni tayyorlash retsepti misol bo'la oladi. Fan-texnika ma'lumotlaridan farqli ravishda, ishlab chiqarish ma'lumotlari yangilik xususiyatiga ega emas, ular mahsulotni ishlab chiqarish uchun muayyan vaqt davomida qo'llanib kelinmoqda;

iqtisodiy — korxonada faoliyatini samarali boshqarishni tashkil qilish uchun, unumdorligini oshirish uchun foydalaniladigan axborot;

savdo — ko'proq turli tovarlar, ishlar, xizmatlar oldi-sotdisi, ularni yetkazib berish sohasida ishlatiladigan ma'lumotlar. Bu ma'lumotlar yetkazib beriladigan tovarlar, o'tkazish bozorlari, o'tkazishni qo'llayotgan texnologiyalarga tegishli bo'lishi mumkin.

JK 191-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan qilmish **obyektiv tomondan** sir tutiladigan fan-texnika, iqtisodiyot, savdoga oid yoki boshqa shu kabi axborotni egasining roziligisiz oshkor qilish yoki undan foydalanish maqsadida har qanday usulda to'plash bilan sodir etiladi.

To'plash deganda, erkin, qonuniy yo'l bilan olish mumkin bo'lmagan axborotni qo'lga kiritishga, egallab olishga qaratilgan har qanday g'ayriqonuniy (masalan, talon-toroj qilish, pora berish, qo'rqitish, kseronusxa olish va h.k.) harakatlar tushuniladi.

Bunday ma'lumotlarni to'plash erkin olish mumkin bo'lmagan va sir tutishni ta'minlashning maxsus tartibi belgilangan ma'lumotlarni topish va ularga egalik qilishga ma'lum harakatlarni har qanday usulda amalga oshirishdir. Bu usullarga hujjat va axborotning boshqa moddiy manbalarini o'g'irlash, sir tutilayotgan axborotga ega shaxslar yoxud ularning qarindoshlariga pora berib, ularga turli tahdid va qo'rqitish bilan ega bo'lish (yoki ega bo'lishga harakat qilish), aloqaning turli vositalaridan axborot olish, hujjatlar bilan qonunga xilof ravishda tanishish yoki undan boshqa usullar bilan nusxa olish, tinglash uskunalari va boshqa maxsus

vositalarni ishlatish va hokazolar kiradi. Xususan, axborot to'plashni axborot tarmog'iga kirish yo'li bilan amalga oshirish mumkin, bunda aybdor harakatini axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar tegishli moddasi va **JK 191-moddasida** keltirilgan jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

JK 191-moddasi 1-qismi dispozitsiyasida nazarda tutilgan axborot har qanday usulda to'plangan paytdan e'tiboran jinoyat **tugallangan** deb topiladi.

Jinoyat tarkibi formal: qandaydir oqibatlar paydo bo'lishidan qat'i nazar, sir tutilayotgan axborotni to'plash bo'yicha harakatlarning o'zi jazoga sazovor.

Subyektiv tomondan sir tutiladigan axborotlarni to'plash — bu **to'g'ri kasddan** sodir etiladigan jinoyatdir. Aybdor u to'playotgan axborot uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lmaganligi sababli haqiqiy yoki potentsial tijorat qiymatiga egaligini, qonuniy asosda undan erkin foydalana olish mumkin emasligini hamda axborotning egasi uning maxfiylikini muhofaza qilish choralarini ko'rganligini biladi.

Subyektiv tomonning zaruriy elementi mazkur jinoyatni sodir etish **maqsadi** — sir tutiladigan axborotni oshkor etish yoxud mazkur axborotdan qonunga xilof ravishda foydalanish hisoblanadi.

Jinoyat **motivlari** turlichadir. Bu axborot egasiga zarar yetkazish istagi bilan bog'liq bo'lgan g'araz, hasad yoki o'ch olish bo'lishi mumkin.

Tahlil qilinayotgan **moddaning 2-kismi** qonunga xilof ravishda sir tutiladigan axborotni egasining roziligisiz qasddan oshkor qilish yoki undan foydalanish natijasida ko'p miqdorda zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni belgilaydi.

NOTA BENE !

Sir tutiladigan axborotni **oshkor etish** deganda, ma'lumotlarning e'lon qilinishi natijasida o'zga shaxslarga ma'lum bo'lishi yoxud sir tutiladigan axborotni tashkil qiluvchi ma'lumotlar bilan tanishish huquqi bo'lmagan shaxsga berilishi tushuniladi.

Mazkur axborotlardan qonunga xilof ravishda **foydalanish** deganda, axborot bevosita va yaqin aloqador bo'lgan faoliyatni amalga oshirish uchun axborotni qo'llash tushuniladi. Shuning uchun, masalan, ilmiy ishni illyustratsiya qilganda alohida korxonaning menejmentining yangi tuzilmasini ishlatishni sir tutiladigan axborotni qo'llash deb bo'lmaydi, bunday holatda tegishli belgilar mavjud bo'lganda, mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlikka tortish mumkin.

Qonunga xilof ravishda foydalanish aybdorning o'zga shaxslarga ma'lumotlarni haq evaziga yoki boshqa maqsadni ko'zlab berish yo'li bilan yoxud o'zi to'plagan axborot asosida turli qarorlarni qabul qilish va harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan yoki boshqa maqsadda amalga oshirilishi mumkin.

JK 191-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan qilmishdan farqli o'laroq, sharhlanayotgan jinoyat zaruriy belgiga ega — o'zgalarning sir tutiladigan axborotini e'lon qilish yoxud undan foydalanit bilan bog'liq ravishda ko'p miqdorda zarar yetkazish. Bu ishlab chiqarishning pasayishi, uning qayta yo'naltirilishi, mijozlari kamayishi tufayli raqobat kurashida xo'jalik subyekti ko'rgan yirik moddiy zararining yuzaga kelgani bo'lishi mumkin.

Jinoyat **ko'p miqdorda** zarar yetkazilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Subyektiv tomondan JK 191-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat to'g'ri yoki egri qasd asosida sodir etilishi mumkin. Aybdor shaxs sir tutilayotgan axborotni oshkora qilishi yoki undan foydalanishi natijasida, sir tutiladigan axborot egasiga ko'p miqdorda zarar yetkazishini biladi, shuni xohlaydi yoxud bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi.

Sir tutiladigan axborotni oshkor qilish yoki undan foydalanishning **motiv** va **maqsadlari** g'arazli bo'lishi, bundan moddiy foyda olishga intilish bilan bog'liq bo'lishi yoxud aybdorning bu harakatlarni amalga oshirishida va ko'p miqdorda zarar yetkazishida shaxsiy manfaatlari borligidan guvohlik berishi mumkin: o'ch olish, hasad, xafalik, qarindoshlik va do'stlik hissi, yaqin insonga yoqish istagi va hokazolar.

Jinoyat **subyekti** — sir tutiladigan axborotga qonuniy (kasbiy yoki xizmat faoliyati bilan bog'liq) yoxud qonunga xilof ravishda egalik

qilayotgan 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar hisoblanadi. So'nggi holatda tergov organlari va sud aybdor bu axborotni olishga qanday erishganini aniqlashi lozim va tegishli belgilar mavjud bo'lganda aybdorning harakatini **JK 191-moddasi 1-qismi** bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

Agar sir tutiladigan axborotni mansabdor shaxs yoxud bu ma'lumotlarni bajarayotgan vazifasi tufayli oladigan mas'ul mansabdor shaxs oshkor qilsa yoxud undan foydalansa, sodir etilgan qilmish jinoyatlar majmui bo'yicha hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish alomatlari mavjud bo'lgani holda JKning 206- va **191-moddasi 2-qismidagi** belgilar bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

10-§. Raqobatchini obro'sizlantirish (JK 192-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obykti** tovar bozorida xo'jalik subyektlarining qonuniy raqobatini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlardir.

Obyektiv tomondan jinoyat bosma yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnlarda yoki ommaviy axborot vositalari orqali xo'jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazish maqsadida bila turib yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatishda ifodalanadi.

Bila turib yolg'on ma'lumotlarni **tarqatish** deganda, ommaviy bosma yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnlarda yoxud ommaviy axborot vositalari orqali yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni oshkor qilishni tushunish lozim.

Agar ma'lumotlar haqiqatga to'liq mos kelmasa, **yolg'on** ma'lumotlar hisoblanadi.

Noaniqlik ma'lumotlarning haqiqatga qisman muvofiqligini bildiradi.

Buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar amaldagi ma'lumotlarga mos bo'lmagan ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

Bosma usulda ko'paytirish deganda, bosmaxona usuli bilan ko'paytirilgan ma'lumotlarni tushunish lozim.

Boshqacha usulda ko'paytirish deganda, ma'lumotlarni boshqacha har qanday usulda ko'paytirishni (kserokopiya orqali, fotosuratga olish orqali,

turli matn yozish mashinalaridan, kompyuterlardan foydalanish orqali, qo‘l bilan yozish orqali va hokazolarni) tushunish lozim.

Jinoyat bila turib yolg‘on, noaniq, buzib ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni bosma yoki boshqacha uslubda ko‘paytirilgan matnlarda yoki ommaviy axborot vositalari orqali oshkor qilingan paytdan, ya‘ni o‘zga shaxslarga ma‘lum bo‘lgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to‘g‘ri kasddan** sodir etiladi. Aybdor yolg‘on, noaniq, buzib ko‘rsatilgan axborotni tarqatayotganini **oldindan** bilishi lozim.

Subyektiv tomonning zaruriy belgisi — jinoyatni sodir etish **maqsadi** xo‘jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazish hisoblanadi. Bunday ma‘lumotlarni tarqatgan shaxsda xo‘jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazish maqsadi bo‘lmasa, uning harakatida mazkur jinoyat tarkibi bo‘lmaydi.

Agar shaxs xo‘jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazuvchi haqiqiy ma‘lumotlarni oshkor etsa, uning harakatida jinoyat tarkibi bo‘lmaydi.

Jinoyat **subyeksi** 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

«Xo‘jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlar, ishlar va xizmatlar deganda nimani tushunish lozim?

2. Iste‘molchilarning hayoti yoki sog‘lig‘i xavfsizligi talablariga javob bermaydigan tovarlarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoxud o‘tkazish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jinoyati qanday belgilarga ega va uning boshqa o‘xshash jinoyatlardan farq qiluvchi xususiyatlarini aytib bering.

3. Sifatsiz yoki soxtalashtirilgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab ishlab chiqarish, tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoxud o‘tkazish deganda nimani tushunish lozim?

4. Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof

ravishda ishlab chiqarish deganda nimani tushunasiz?

5. Noqonuniy tadbirkorlik faoliyati deganda nimani tushunasiz? Ushbu jinoyat uchun javobgarlik shartlari nimalardan iborat?

6. Noqonuniy tadbirkorlik faoliyati jinoyati bilan savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish jinoyati o'rtasidagi farq va o'xshash tomonlarini ayting.

7. Faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish jinoyati qachon tamom bo'lgan jinoyat hisoblanadi?

8. Noqonuniy tadbirkorlik faoliyati jinoyati hamda faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish jinoyati o'rtasida qanday farq bor?

9. Qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish deganda nimani tushunasiz?

10. Qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish jinoyati bilan axborot olish va berish qoidalarini buzish o'rtasida qanday farqlar bor?

11. Raqobatchini obro'sizlantirish jinoyati nimada ifodalanadi?

12. Raqobatchini obro'sizlantirish bilan tuhmat jinoyatlari o'rtasida qanday o'xshashlik va farqli tomonlari bor?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Бекташев А.А. Законодательство о государственном регулировании производства и оборота этилового спирта, алкогольной и спиртосодержащей продукции. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2004. — 409 В.

Белахов А.Л. Ответственность за выпуск недоброкачественной, нестандартной или некомплектной продукции / Отв. ред. В.А. Тверденко — М.: «Юридическая литература», 1979.

Гаухман Л.Д. Хозяйственные преступления. — М.: 1995.

Гладышев Ю.Л., Головлев Ю.В. Ответственность за преступления в сфере предпринимательства. — Новгород: 1995.

Емельянов Ю.П. Лицензирование в новых условиях хозяйствования. — М.: 1999.

Коржанский Н.И. Квалификация хозяйственных преступлений. — Волгоград: 1984.

Кузнецов А.П., Устинов В.С. Ответственность за обман потребителей. — Новгород: 2000.

Рустамбаев М.Х. Ответственность за обман покупателей и заказчиков получения незаконного вознаграждения от граждан за выполнение работ. — Т.: ТашГУ, 1988. — 21 В.

Самилык Г.М. Уголовная ответственность за обман заказчиков. Автореф. дисс. канд. юрид. наук. — Киев: 1979.

Тацкий В.Я. Ответственность за хозяйственные преступления. — Харьков: ХарЮИ, 1979.

Тацкий В.Я. Понятие, система и общие виды хозяйственных преступлений. — Харьков: ХарЮИ, 1974.

Тацкий В.Я. Уголовная ответственность за выпуск недоброкачественной продукции. — Харьков: ХарЮИ, 1978.

Ilmiy maqolalar

Абдурасулова К.Р. Ответственность за недобросовестную конкуренцию // Новые кодексы Республики Ўзбекистон. Теория и практика. — Т.: IV Oliy maktabi, 1994. — 48—52-b.

Абдухаликов М.А. Уголовная ответственность за незаконную торговлю или посредническую деятельность // Ж. Вестник. O‘zbekiston Respublikasi Qoraqalpog‘iston akademiyasi. 2002. № 5—6. — 69—72-b.

Абдухаликов М.А., Холикулов У.Ш. Проблемные вопросы квалификации некоторых преступлений против основ экономики и преступлений, связанных с хозяйственной деятельностью // Iqtisodiyot asoslari va xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari (jinoiy huquqiy va kriminologik jihatlari). Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Т.: TDYuI, 2003. — 27-32-b.

Abduqodirov Sh.Yo. Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug‘ullanish jinoyatini kvalifikatsiya qilishning ayrim masalalari. O‘zbekiston qonunchiligi tahlili. Toshkent, 2008. J№3—4. 71—74-b.

Abdutsodirov Sh.Yo. Tadbirkorlik kafolatlari va savdo qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik asoslari. Toshkent davlat yuridik instituta axborotnomasi. Toshkent, 2008. J№6. 89—91 -b.

Abduqodirov Sh.Yo. Xavfsizlik talablariga javob bermaydigan tovarlarni ishlab chiqarganlik uchun jinoiy javobgarlik asoslari. Toshkent davlat yuridik instituta axborotnomasi. Toshkent, 2008. J№7. 81—85-b.

Abduqodirov Sh.Yo. Etil spirti, alkogolli mahsulot va tamaki mahsulotini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish yoki muomalaga kiritish jinoyatining obyektiv tomoni. Toshkent davlat yuridik instituti axborotnomasi. Toshkent, 2008. №8. 75—77-b.


Abduqodirov Sh.Yo. Qonunga xilof tadbirkorlik uchun jinoiy javobgarlik. Monografiya. Toshkent: TDYuI, 2008 yil. — 154 B.

Абдуқодиров Ш.Ё. Объективная сторона преступления в виде незаконного производства или оборота этилового спирта, алкогольной и табачной продукции // Актуальные проблемы борьбы с преступностью на современном этапе: материалы международной научно-практической конференции. Алматы: Қазак университету 2008. 259-263-b.

Абдуқодиров Ш.Ё. Уголовная ответственность за выпуск продукции, не отвечающей требованиям безопасности // Актуальные проблемы борьбы с преступностью на современном этапе: материалы международной научно-практической конференции. Алматы: Қазак университету 2008. 263—269-b.

IV¹ BOB. TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA TO‘SQINLIK QILISH, QONUNGA XILOF RAVISHDA ARALASHISH BILAN BOG‘LIQ JINOYATLAR HAMDA XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘EKTLARNING HUQUQLARI VA QONUNYIY MANFAATLARIGA TAJOVUZ QILADIGAN BOSHQA JINOYATLAR¹

6-sxema



¹ XIII¹ bob Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 20 августдаги ЎРҚ–391-сонли Қонуни билан киритилган. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2015 й., 8-сон, 312-модда.

1-§. Xususiy mulk huquqini buzish (JK 192¹-moddasi)

O‘zbekistonda xususiy mulk daxlsizligi, davlat tomonidan himoya qilinishiga alohida e’tibor qaratilayapti. Konstitutsiyamizda xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekani, mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda hamda tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkinligi qat’iy mustahkamlangan. Ta’kidlash joizki, o‘tgan yillar davomida mamlakatimizda ushbu konstitutsiyaviy qoida asosida xususiy mulk va mulkdorlarni himoyalashga qaratilgan ishonchli me’yoriy-huquqiy asos hamda kafolatlarni, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka zarur sharoit hamda imtiyozlarni yaratish bo‘yicha ko‘pgina ishlar bajarildi va bajarilmoqda. Chunonchi, 2012 yilda O‘zbekiston Respublikasining «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 may sanasida chiqargan «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni aynan mazkur sohadagi muhim hujjatlardan biri bo‘ldi. Mazkur farmon asosida respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning o‘rni va rolini tubdan oshirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirish asosiy vazifa etib belgilandi. Shuningdek, xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

Mazkur dasturning 2-bandi birinchi va uchinchi xatboshilariga ko‘ra, «Huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat qiluvchi va boshqa organlarning mansabdor shaxslarining javobgarligini oshirish maqsadida:

qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilganlik, xususan tadbirkorlik faoliyati erkinligini himoya qilish sohasidagi qonunchilikni bir necha bor buzganlik uchun xattoki jinoiy javobgarlikni qo‘llash;

xususiy mulkdorlarning huquqlarini buzish, ularga zarar yetkazish, ya'ni mulk huquqini qonunga xilof ravishda cheklash va (yoki) undan mahrum etish, xususiy mulkka tajovuz qilish, nomaqbulligi oldindan ayon bo'lgan shartlarni mulkdorga majburan qabul qildirish, shu jumladan mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni topshirishni asossiz ravishda talab qilish, shuningdek mulkdorning mulkini olib qo'yish yoxud uni o'z mol-mulkiga bo'lgan huquqidan voz kyechishga majburlaganlik uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga hamda Jinoyat kodeksiga qo'shimchalar kiritish nazarda tutildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd etilgan Qarori asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish to'g'risida»gi Qonuni ushbu yo'nalishdagi muhim qadam hisoblanadi, zero u xususiy mulkni qo'llab-quvvatlash va daxlsizligini ishonchli ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur qonun qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik, Uy-joy, Soliq, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga hamda «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlarga bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Shuningdek, JKning 192¹-192¹¹-moddalarini o'zida jamlagan Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar deb nomlanuvchi XIII¹ bob ham ushbu qonun asosida kiritilgan.

Xususan, Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga xususiy mulkni himoya qilish va xususiy tadbirkorlik huquqlarini himoyalashning kafolatlarni ta'minlash uchun mulkdorning manfaatlariga ancha miqdorda zarar yetkazgan holda mulk huquqini

qonunga xilof ravishda cheklash va undan mahrum qilishga qaratilgan harakatlarni sodir etish, nomaqbulligi oldindan ma'lum bo'lgan shartlarni mulkdorga majburan qabul qildirish, shu jumladan, uning mol-mulkini tortib olib qo'yishda aybdor shaxslarning, jumladan, mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirish maqsadida kiritilayotgan qo'shimcha xususiy mulk huquqini buzish haqidagi yangi moddada o'z aksini topdi.

Sharhlanayotgan 192¹-modda aynan xususiy mulk huquqini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Biroq, mazkur normaning qo'llanilishida ma'muriy preyuditsiya mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, xususiy mulk huquqini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish uchun nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi xususiy mulk huquqini buzganligi uchun ilgari MJtKning 241¹-moddasi bilan ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lishi lozim hisoblanadi.

Mazkur normaning MJtKning 241¹-moddasidan farqli jihati shundaki, nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisiga nisbatan jarima ma'muriy jazosi qo'llanilgan bo'lishidir.

Jinoyatning **bevosita obykti** mulkdorlar huquqlarining kafolatlari sohasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlardan iborat. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunining 7-moddasiga asosan mulkdorning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarida mulkdor huquqlarining ustuvorligi prinsipi amal qiladi, unga muvofiq, qonun hujjatlaridagi xususiy mulk huquqini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar mulkdorning foydasiga talqin etiladi. Shuningdek, ushbu qonunning 13-moddasida belgilanishicha, xususiy mulkka tajovuz qilishga yo'l qo'yilmaydi. Qonunga xilof ravishda xususiy mulk huquqini cheklashga va (yoki) undan mahrum qilishga bevosita yoki bilvosita qaratilgan harakatlarga yo'l qo'yilmaydi. Nomaqbulligi oldindan ma'lum bo'lgan shartlarni mulkdorga majburan qabul qildirish, shu jumladan undan mol-mulkni, moliyaviy mablag'larni

yoki boshqa mulkiy huquqlarni topshirishni asossiz ravishda talab qilish taqiqlanadi. Mulkdorning xo‘jalik faoliyatiga pirovard natijada uning mol-mulki tortib olinishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan yoxud mulkdorni o‘z mulkiga bo‘lgan huquqidan voz kechishga majbur qiladigan qonunga xilof ravishdagi aralashuv taqiqlanadi.

2012 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunida xususiy mulk huquqiga oid asosiy tushuncha va atamalar yoritilgan. Qonunga muvofiq, xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir, bunda mazkur tushuncha nafaqat ushbu qonun hujjatida, balki Assiy qonunda va Fuqarolik kodeksida ham mustahkamlangan.

Davlat buzilgan xususiy mulk huquqining tiklanishini va uning sud orqali himoya qilinishini kafolatlaydi. Mulkdorga yetkazilgan zararining o‘rni uni yetkazgan shaxs tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq to‘la hajmda qoplanishi kerak.

Qonunga ko‘ra, xususiy mulk huquqini himoya qilish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

xususiy mulk huquqini tan olish;

xususiy mulk huquqi buzilishidan oldingi holatni tiklash va xususiy mulk huquqini buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug‘diradigan harakatlarning oldini olish;

bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash;

davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;

xususiy mulk huquqini mulkdorning o‘zi himoya qilishi;

burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;

zararining o‘rnini qoplash;

neustoyka undirish;

ma’naviy ziyonni qoplash;

xususiy mulk huquqi munosabatlarini tartibga solishda qonun hujjatlari barqarorligini ta'minlash;

davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid bo'lgan hujjatining sud tomonidan qo'llanilmasligi;

mol-mulkning ayrim turlariga bo'lgan xususiy mulk huquqining vujudga kelganligini, o'zgarganligini va bekor qilinganligini davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Xususiy mulk huquqini himoya qilish qonunga muvofiq boshqa usullar bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur jinoyat obyektiv tomondan quyidagi harakatlarda ifodalanadi:

1) mulk huquqini qonunga xilof ravishda cheklash va (yoki) undan mahrum etish;

2) xususiy mulkka tajovuz qilish;

3) nomaqbulligi oldindan ayon bo'lgan shartlarni mulkdorga majburan qabul qildirish, shu jumladan mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni topshirishni asossiz ravishda talab qilish;

4) mulkdorning mulkini olib qo'yish yoxud uni o'z mol-mulkiga bo'lgan huquqidan voz kyechishga majburlash, talon-toroj alomatlarisiz sodir etish.

Amaldagi qonunchilikka binoan xususiy mulk huquqi qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina cheklanishi mumkin. Qolgan hollarda mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday harakatlarni bajarishga haqli. U o'z mol-mulkidan xo'jalik faoliyatini va qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun foydalanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 206-moddasi 1-qismiga asosan, davlat organining mulkdorning mol-mulkini olib qo'yishga bevosita qaratilmagan qarori munosabati bilan, shu jumladan mulkdorga qarashli uy, boshqa imoratlar, inshootlar yoki ekinlar joylashgan er uchastkasini olib qo'yish to'g'risidagi qarori munosabati bilan mulk huquqining bekor qilinishiga qonunlarda belgilangan hollar va tartibdagina yo'l qo'yiladi, bunda mulkdorga olib qo'yilgan mol-mulkka

teng mol-mulk beriladi va uning ko'rgan boshqa zararlari to'lanadi yoki mulk huquqi bekor qilinishi bilan yetkazilgan zarar to'la hajmda to'lanadi. Xususiy mulk bo'lgan mol-mulkni, shu jumladan er uchastkasini natsionalizatsiya va rekvizitsiya qilingan hollarda olib qo'yish, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, mulkdorga uning bozor qiymati, shuningdek bunday olib qo'yish munosabati bilan mulkdorga yetkazilgan zararining o'rnini to'la qoplanishi sharti bilangina amalga oshiriladi. Mol-mulkdan foydalanish fuqarolarning, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzgan taqdirdagina xususiy mulk huquqini cheklash yoki mahrum qilinishiga yo'l qo'yiladi.

Xususiy mulk huquqiga tajovuz ikki xil shaklda bo'lishi mumkin – xususiy mulk huquqini cheklash va (yoki) undan mahrum qilish. Xususiy mulk huquqini qonunga xilof ravishda cheklash va (yoki) undan mahrum etishning istalgan shakllari ko'rilayotgan jinoyat tarkibining obyektiv tomoni belgisi bo'lishi mumkin. Bunda talon-toroj belgilari mavjud bo'lmasligi zarur.

Nomaqbulligi oldindan ayon bo'lgan shartlarni mulkdorga majburan qabul qildirish, shu jumladan mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni topshirishni asossiz ravishda talab qilish.

Majburan qabul qildirish deganda nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan mulkdorga xususiy mulkni tasarruf etish yuzasidan nomaqbul shartlarni qabul qildirishi, mulkdor mazkur shartlar bo'yicha qonun doirasida bahslashishi, biroq, qayd etilgan davlat organi yoki tashkilot xususiy mulkdor takliflariga rozilik berish yoki kelishishdan bosh tortishi tushuniladi. Ustun maqomga ega nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan xususiy mulkni tasarruf etishning aynan u taklif etgan shartlarini majburan qabul qildirish vakolatini suiiste'mol qilish ustun maqomdan foydalanib, mulkdorga nomaqbul yoki kamsituvchi shartnoma shartlarga ko'nishga majburlash hisoblanadi. Bu kabi shartlar sifatida bozordagi narxlarga

nomuvofiq baholangan shartlar asosida mol-mulkni olish, sotish, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni topshirishni asossiz ravishda talab qilish mansabdor shaxs yoki xizmatchi tomonidan oshkora tarzda moddiy boyliklar, pullar, ne'matlar, moddiy manfaat va boshqani topshirishni talab qilishdan iborat.

Mulk huquqi turli hujjatlarda mustahkamlanishi mumkin, masalan, mulk oldi-sotdi shartnomasi, u yoki bu mulkiy qimmatliklarni olishga berilgan ishonchnomalar, vasiyatnoma, sug'urta polisi, turli xil qimmatli qog'ozlar va h.k.

Mulkdorning mulkini olib qo'yish yoxud uni o'z mol-mulkiga bo'lgan huquqidan voz kyechishga majburlash, talon-toroj alomatlari mavjud bo'lmagan taqdirda.

Mulkni olib qo'yish deganda, nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan tekinga, qonunga xilof ravishda, mulkni o'zining yoki uchinchi shaxslarning foydasi uchun, talon-toroj alomatlari mavjud bo'lmagan holda muomalaga kiritish tushuniladi.

O'z mol-mulkiga bo'lgan huquqidan voz kyechishga majburlash deganda, ko'rib chiqilayotgan jinoyat subyektlari tomonidan mulkdorning o'zi nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisiga mol-mulkiga bo'lgan huquqini topshirishga qaratilgan har qanday harakatlar tushuniladi (masalan, oldi-sotdi shartnomasini ro'yxatdan o'tkazishga majburlash).

Jinoyat, xuddi shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan qilmish natijasida mulkdorga zarar yetkazilganidan so'ng **tamomlangan** hisoblanadi. Ko'p miqdorda zarar yetkazganlik uchun javobgarlik sharhlanayotgan moddaning 2-qismida belgilanganidan kelib chiqqan holda, xulosa qilish mumkinki, ko'p miqdordan kam zarar yetkazgan shaxs birinchi qism bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat **subyektiv tomondan** qasddan, xususan, aybning to'g'ri qasd shakli bilan sodir etiladi. Jinoyatning motivi va maqsadi qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

Jinoyatning **subyektiv** nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi bo'lishi mumkin.

Nazorat qiluvchi organ deganda, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishga vakolatli vazirliklar hamda idoralar tushunilishi lozim. Nazorat qiluvchi organlarning xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini nazorat qilishga aloqasi bo'lmagan mansabdor shaxslari va xizmatchilari, ularda tegishli vakolat va ta'sir doirasi mavjud emasligi tufayli, mazkur jinoyatning subyektiv bo'la olmaydi.

Boshqa davlat organi va davlat tashkiloti deganda, o'z vakolatiga ko'ra xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish imkoniyatiga ega organ va tashkilotlar tushuniladi.

Shaxsning harakatlari:

- a) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, JKning **191¹-moddasi 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Mazkur moddaning birinchi qismida berilgan harakatlar:

- a) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, javobgarlik JKning **191¹-moddasi 3-qismi** bo'yicha vujudga keladi.

2-§. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilish tartibini buzish (JK 192²-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 8 avgustdagi «Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoniga asosan O'zbekistonda Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika Kengashi tuzilib, xo'jalik yurituvchi subyektlar

faoliyatiga oid barcha tekshirishlar, ularning mulkiy shaklidan qat'i nazar, faqatgina mazkur Kengash bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 19 noyabrdagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to'g'risida»gi Farmoni bilan tekshirishlarni rejalashtirish tartibiga katta o'zgarishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi Qonuni bilan tekshirishlar turlari va atamalari, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning shakllari va asosiy prinsiplari, rejali va rejadan tashqari tekshirishlarni o'tkazish asoslari, tekshirishlar davriyligi va muddatlari, nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslari huquqlari va majburiyatlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga asosan, tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) belgilangan tartibda faqat davlat soliq xizmati organlari, tekshirish davomida soliq va valutaga oid jinoyat alomatlari aniqlangan taqdirda esa, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga hamda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti tomonidan amalga oshirilishi belgilandi.

Prezidentning 2011 yil 4 apreldagi «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni bilan tadbirkorlik subyektlari faoliyati erkinligi kuchaytirilib, kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati bo'yicha soliq tekshirishlarini 30 kalendar kunidan ortiq o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Jinoyatning **bevosita asosiy obyekti** tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilish tartibi hamda ularning normal faoliyat yuritishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyat **obyektiv tomondan** tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish vakolatiga ega bo'lgan nazorat qiluvchi organning mansabdor shaxsi tomonidan xuddi shunday haakatlar uchun ma'muriy javobgarlikka tortilganidan so'ng, tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilishning belgilangan tartibini buzish, shuningdek tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qonunga xilof ravishda tekshirish tashabbusi bilan chiqish va (yoki) o'tkazishda namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) – bu belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Nazorat qiluvchi organlar – bu xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan vazirliklar va idoralardir.

Tekshirish deganda, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qonunlar hamda o'z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishi tushuniladi.

Tekshirishning quyidagi turlari mavjud:

moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) – soliq va valuta to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslash;

muqobil tekshirish – operatsiyalar birligi tufayli o'zaro bog'liq bo'lgan va turli xo'jalik yurituvchi subyektlardagi yoki bir xo'jalik yurituvchi subyektning turli bo'linmalaridagi hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruv;

nazorat tartibida tekshirish – xo'jalik yurituvchi subyektlarning ilgarigi tekshirishda ko'rsatilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etishi ustidan nazorat qiluvchi organlar amalga oshiradigan tekshirish.

Tekshirishlarni qayd etish daftari – bu o‘tkazilgan tekshirishlar to‘g‘risidagi axborot yozib qo‘yiladigan maxsus daftar bo‘lib, unda tekshirish o‘tkaziladigan sanalar, tekshirish o‘tkazish asosi va tekshirish o‘tkazish to‘g‘risida chiqarilgan hujjat hamda uning raqamlari rasmiylashtiriladi.

Jinoyat tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirishning va moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qilishning belgilangan tartibini buzish, shuningdek tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qonunga xilof ravishda tekshirish tashabbusi bilan chiqish va (yoki) o‘tkazish vaqtidan boshlab tamomlangan hisoblanadi. Jinoyatni tamomlangan deb topish uchun muayyan oqibatlarning kelib chiqishi shart emas.

JKning 192²-moddasi ma‘muriy preyuditsiyaga ega.

Jinoyat **subyektiv tomondan** qasddan, xususan, to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Shaxs tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qilishning belgilangan tartibini buzayotganligini, shuningdek tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qonunga xilof ravishda tekshirish tashabbusi bilan chiqayotgani va (yoki) o‘tkazayotganini anglaydi, biladi va buni o‘z xohishi asosida amalga oshiradi.

Jinoyatning motivi va maqsadi qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta‘sir qilmaydi.

Jinoyatning **subyektiv** faqat maxsus subyekt bo‘lib, tegishli tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qilish vakolatiga ega bo‘lgan nazorat qiluvchi organning **mansabdor shaxsi** hisoblanadi.

O‘sha harakatlar:

- a) ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, JKning **192²-moddasi 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Basharti, ko‘rib chiqilayotgan moddaning birinchi qismida ko‘zda tutilgan harakatlar:

- a) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, javobgarlik JKning **192²-moddasi 3-qismi** bo‘yicha vujudga keladi.

3-§. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini va (yoki) ularning banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni qonunga xilof ravishda to'xtatib turish (JK 192³-moddasi)

Sharhlanayotgan norma jinoyat qonunchiligiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni va u asosida 2015 yil 20 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Xususiy mulk huquqlarining kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida»gi qonunga binoan kiritilgan norma hisoblanadi.

Jinoyatning **bevosita obyekt**i tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini va ularning banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni qonuniy amalga oshirishni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlardir.

Mazkur jinoyat **obyektiv tomondan** tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yoki ularning banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni qonunga xilof ravishda to'xtatib turish orqali sodir etishda ifodalanadi.

Bu jinoyat **obyektiv tomonining zaruriy belgisi** tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yoki ularning banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni qonunga xilof ravishda to'xtatib turganlik uchun MJtKning 241³-moddasiga ko'ra, **ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin** shaxs bir yil ichida takroran ushbu qilmishni sodir etgan bo'lishidir.

Tadbirkorlik subyekti faoliyatini yoki uning bankdagi operatsiyalarini qonunga xilof ravishda to'xtatib turish – bu tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga vakolat berilgan nazorat qiluvchi organlar yoki banklarning tadbirkorlik subyekti faoliyatini yoki uning bank orqali amalga oshiradigan pul-kredit va boshqa moliyaviy operatsiyalarini muayyan muddatga cheklab qo'yishdir.

Bank operatsiyalari deganda, tadbirkorlik subyektining bankda joylashgan o‘z hisob raqami orqali moddiy mablag‘larini tadbirkorlik faoliyati natijasida ushbu hisob raqamga kiritish yoki chiqarish bilan bog‘liq operatsiyalarni shuningdek, banklarning tijoriy faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatlar tushuniladi.

Hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarning belgilangan muddatlari buzilgan taqdirda bank yoki boshqa kredit tashkiloti tadbirkorlik faoliyati subyektiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda foizlar to‘laydi.

Mazkur Jinoyat **subyektiv tomondan** qasddan sodir etiladi. Bunda, subyektning harakatlarida qasdning **to‘g‘ri qasd shakli** namoyon bo‘ladi.

Jinoyatning **subyektiv** maxsus hisoblanadi. Zero, ushbu jinoyat ham mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyat hisoblanadi

Agar birinchi qismda berilgan harakatlar ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa, javobgarlik JK **192³-moddasi 2-qismi** bo‘yicha vujudga keladi.

Juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda yoki uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan harakatlar, JKning **192³-moddasi 3-qismi** bo‘yicha javobgarlikni keltirib chiqaradi.

4-§. Tadbirkorlik subyektlarini homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish (JK 192⁴-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyektiv** tadbirkorlik subyektlarining mustaqil faoliyat yuritishi va ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Mazkur normada belgilangan jinoyatning **obyektiv tomondan** nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan tadbirkorlik subyektlarini pul mablag‘larini hamda boshqa moddiy qimmatliklarni ajratish bilan bog‘liq homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etishida namoyon bo‘ladi.

Tadbirkorlik subyektlarini pul mablag‘larini hamda boshqa moddiy qimmatliklarni ajratish bilan bog‘liq homiylikka va boshqa tadbirlarga

majburiy jalb etish jinoyati **obyektiv tomonining zaruriy belgisi** mazkur jinoyat qo'llanilishida ham ma'muriy preyuditsiya mavjud. Ya'ni, nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan tadbirkorlik subyektlarini pul mablag'larini hamda boshqa moddiy qimmatliklarni ajratish bilan bog'liq homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish, shunday harakatlar uchun MJtKning 241⁴-moddasi bilan **ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin** sodir etilgan bo'lishi lozim.

Tadbirkorlik subyektlarini pul mablag'larini hamda boshqa moddiy qimmatliklarni ajratish bilan bog'liq homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish deganda, tegishli vakolatga ega bo'lgan mansabdor shaxs yoki xizmatchi tomonidan tadbirkorlik subyekti hisob raqamidagi mablag'lar yoxud uning moddiy boyliklarini muayyan turdagi tadbirlarga homiylik yoki homiylik ishlariga jalb etish tushuniladi.

Ushbu Jinoyat **subyektiv tomondan** to'g'ri qasd bilan sodir etiladi.

Jinoyatning motivi va maqsadi qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

Ushbu jinoyatning **subyekti**, yuqorida sharhlab o'tilgan norma singari, maxsus subyekt bo'lib, unga ko'ra, nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi mazkur jinoyatning subyekti hisoblanadi.

Etkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

5-§. Litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlarini va ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 192⁵-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekt** litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlarini va ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Mazkur jinoyat **obyektiv tomondan** litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjatlarni berishning belgilangan tartibi hamda muddatlarini buzish, shu jumladan litsenziyalarning va ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlarini qonunga xilof ravishda joriy etishda namoyon bo‘ladi.

Ushbu jinoyat **obyektiv tomonining zaruriy belgisi** tegishli vakolatga ega bo‘lgan mansabdor shaxs yoki xizmatchi tomonidan litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjatlarni berishning belgilangan tartibi hamda muddatlarini buzish, shu jumladan litsenziyalarning va ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlarini qonunga xilof ravishda joriy etganlik uchun MJtKning 241⁵-moddasi bilan **ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan** keyin sodir etilgan bo‘lishidir.

Litsenziya – litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so‘zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq) hisoblanadi¹.

Faoliyatning litsenziyalanayotgan turi – O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi; – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Litsenziyalash – litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani topshirish va ko‘rib chiqish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish yoki tugatish, shuningdek uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish jarayoni bilan bog‘liq tadbirlar kompleksi hisoblanadi².

Litsenziyalovchi organlar – qonunga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar³.

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 25 майдаги 71–II-сонли «Фаолиятнинг айрим турларини лицензиялаш тўғрисида»ги Қонуни.

² Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 25 майдаги 71–II-сонли «Фаолиятнинг айрим турларини лицензиялаш тўғрисида»ги Қонуни.

³ Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 24 декабрдаги 717–I-сонли «Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини давлат томонидан назорат қилиш тўғрисида»ги Қонуни.

Jinoyat subyektiv tomondan faqat qasddan, xususan, qasdning to'g'ri qasd shakli bilan sodir etiladi. Ya'ni, aybdor tomonidan litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjatlarni berishning belgilangan tartibi hamda muddatlarini buzish, shu jumladan litsenziyalarning va ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlarini qonunga xilof ravishda joriy etish o'z xohishiga ko'ra sodir etiladi.

Jinoyatning motivi va maqsadi qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

Ushbu jinoyatning **subyektiv** maxsus vakolatli organning litsenziya va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berishga vakolatli mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi hisoblanadi.

Juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda yoki uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan harakatlar **JK 192⁵-moddasi 2-qismi** bo'yicha javobgarlikni keltirib chiqaradi.

6-§. Imtiyozlar va preferentsiyalarni qo'llashni g'ayri-qonuniy ravishda rad etish, qo'llamaslik yoki qo'llashga to'sqinlik qilish (JK 192⁶-moddasi)

Ushbu jinoyatning **bevosita obyektiv** tadbirkorlik faoliyati hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarga qonunda ko'rsatilgan imtiyozlar va preferentsiyalarni qo'llash tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Davlat tomonidan faoliyat uchun qulay sharoitlar yaratish hamda tadbirkorlikning ustuvor yo'nalishlarni rivjlantirish maqsadida u yoki bu korxonalar va tashkilotlarga imtiyozlar va preferentsiyalar beriladi. Imtiyozlar va preferentsiyalar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari (masalan, 2007 yil 18 maydagi «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PF-3878-sonli Farmon), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari (masalan, 2014 yil 27 yanvardagi «2014–2016 yillarda tayyor mahsulot, komplektatsiya mahsulotlari va materiallarini ishlab chiqarishni lokalizatsiya dasturi to'g'risida»gi PQ-2120-sonli Qaror), Prezident Farmoyishlari (2014 yil 9 iyundagi R-4287-sonli Farmoyish), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarorlari (masalan, 2004 yil 25 martdagi «O‘zbekiyengilsanoat» Davlat-aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish va respublika yengil sanoatini yanada rivojlantirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 141-sonli qarori) bilan joriy etiladi. Imtiyoz va preferentsiyalarni qo‘llash tegishli nizomlar asosida tartibga solinadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan lokalizatsiya dasturi loyihalari amalga oshirilayotgan korxonalar tomonidan soliq va bojxona imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan.

Berilgan imtiyozlar va preferentsiyalar soliq, bojxona to‘lovlari, kredit va boshqa to‘lovlariga talluqli bo‘lishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 192⁶-moddasida ko‘zda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan:**

1) tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar va preferentsiyalarni qo‘llashni g‘ayriqonuniy ravishda rad etish;

2) qo‘llamaslik;

3) qo‘llashga to‘sqinlik qilishda ifodalanadi.

Tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar va preferentsiyalarni qo‘llashni **g‘ayriqonuniy ravishda rad etish** deganda, murojaatni qabul qilinishi va ko‘rib chiqilishini qonunga xilof ravishda rad etish bilan bog‘liq harakatlar tushuniladi. Xususan, korxonalariga soliq va bojxona imtiyoz va preferentsiyalari davlat soliq xizmati va davlat bojxona xizmati organlariga Nooziq-ovqat iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan soliq va bojxona imtiyozlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 2-sonli ilovasida belgilangan shakl bo‘yicha taqdim etiladigan ariza asosida beriladi. Qo‘shimcha hujjatlarni talab qilish yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan boshqa asoslarga ko‘ra rad etish qonunga xilof hisoblanadi.

Imtiyozlar va preferentsiyalarni **qo'llamaslik** deganda, qonunlarda nazarda tutilgan hamda tadbirkorlik subyektlariga berilishi, qo'llanilishi lozim yoki mumkin bo'lgan imtiyozlar va preferentsiyalarni hech bir sabab yoki asossiz qo'llash bilan bog'liq harakatlarni bajarmaslikda namoyon bo'ladi. Xususan, O'zR Soliq kodeksining 180-moddasiga asosan «Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan imtiyozni qo'llash jismoniy shaxsning asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha, asosiy ish joyi bo'lmagan taqdirda – yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog'ida amalga oshiriladi». Bu tadbirkorlik subyekti hisoblanmaydigan jismoniy shaxslarga oid imtiyozlarga tegishlidir. Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan imtiyozlar va preferentsiyalar ushbu tadbirkorlik subyektlari tomonidan mustaqil ravishda qo'llaniladi, ularning qo'llanishi ustidan nazorat qaysi turdagi imtiyozlar va preferentsiyalar berilganiga qarab, tegishli organlar zimmasiga yuklatilgan. Bularga davlat soliq xizmati, davlat bojxona xizmati va boshqalar kirishi mumkin. Mantiqiy sharhlash yo'li bilan shunday xulosaga kelish mumkinki, imtiyozlar va preferentsiyalar tegishli shaxslar tomonidan soliq va boshqa to'lovlarni hisoblashda qo'llanadimi. Mos ravishda soliqlar, bojxona to'lovlarini hisoblashda, kreditni berishda foiz stavkalarini belgilashda va boshqa holatlarda berilgan **imtiyozlar va preferentsiyalarni hisobga olmaslik** ushbu imtiyozlar va preferentsiyalarni qo'llamaslik sifatida e'tirof etiladi.

Imtiyozlar va preferentsiyalarni qo'llashga to'sqinlik qilish normal ishchi jarayonni olib borishga imkon bermaydigan faoliyat bo'lib, u tegishli tuzilmalar tomonidan imtiyozlar va preferentsiyalar berish bo'yicha ularga yuklangan funktsiyalarni bajarishga xalaqit beradigan yoki tashkiliy jihatdan buzadigan har qanday to'siqlar yaratishda ifodalanadi.

«To'sqinlik qilish» tushunchasi, tadbirkorlik subyektlariga imtiyozlar va preferentsiyaar berish bog'liq bo'lgan shaxslarga nisbatan ruhiy va (yoki) jismoniy ta'sir o'tkazishni ham qamrab oladi. Bundan tashqari, qo'llashga to'sqinlik qilish ostida tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar va preferentsiyalardan foydalanishga to'sqinlik qilishni ham tushunish shart.

Mazkur Jinoyat **subyektiv tomondan** qasddan, xususan, to'g'ri qasd shaklida sodir etiladi. Jinoyatning motivi va maqsadi qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi, biroq, ularni aniqlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Masalan, moddiy manfaat olish maqsadida tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar va preferentsiyalarni qo'llashni g'ayriqonuniy ravishda rad etishni, mazkur qilmishni sodir etgan subyektga qarab, tamagirlik yo'li bilan pora berishni talab qilish (JKning 210-moddasi) yoki tovlamachilik yo'li bilan haq berishni talab qilish (JKning 214-moddasi) sifatida kvalifikatsiya qilish lozim.

Juda ko'p miqdorda zarar yetkazishning subyektiv tomoni egri qasdda ifodalanib, kelib chiqqan oqibatlarga ko'ra kvalifikatsiya qilinadi hamda mazkur oqibatlar kelib chiqmasa, juda ko'p miqdorda zarar yetkazishga suiqasd deb baholanishi mumkin emas.

Jinoyat kodeksining 192⁶-moddasida ko'zda tutilgan jinoyatning **subyektiv** imtiyozlar va preferentsiyalarni qo'llash vakolatiga ega bo'lgan, shuningdek ularning qo'llanishi to'g'riligi ustidan nazorat qilish majburiyati yuklangan maxsus subyekt bo'lishi mumkin.

Birinchi qismda nazarda tutilgan harakatlar juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda yoki uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, **JKning 192⁶-moddasi 2-qismi** bo'yicha javobgarlikni keltirib chiqaradi.

7-§. Xo'jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa tashkilotlarga pul mablag'lari berishni asossiz ravishda kechiktirish (JK 192⁷-moddasi)

Xo'jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa tashkilotlarga pul mablag'lari berishni asossiz ravishda kechiktirishning **ijtimoiy xavfi** shundaki, jinoyat sodir etilishi natijasida haqiqatda asossiz ravishda Budget kamomadi paydo bo'lishi mumkin, xususiy mulk esa, uning qismi hisoblanadi. Buning natijasida to'lov qobiliyatsizligi, aholining ayrim qatlamlari orasida norozilik shakllanishini yuzaga keltiradi, bu esa, jamiyatning O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni qabul qilishiga salbiy ta'sir qilib, ularni obro'sizlantiradi.

Jinoyat kodeksining 192⁷-moddasida ko'zda tutilgan jinoyatning **bevosita obyekti** birinchi navbatda to'lanadigan to'lovlarni tegishli muddatlarda to'lashni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu qilmishning predmetini inobatga olib, ta'kidlash lozimki, jinoyat obyekti sifatida fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklari, mehnat va ijtimoiy ta'minot, ta'lim sohasidagi munosabatlar tan olinishi lozim.

Jinoyatning **predmeti** sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlar va boshqa tashkilotlarning faqatgina qonunda qayd etilgan xarajatlari, jumladan, ish haqi, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan o'zga to'lovlar xizmat qiladi.

Pensiya – bu fuqarolar qonun hujjatlaridan belgilangan yoshga yetkanlarida ularga taqdim etiladigan pul ta'minoti, muntazam pul to'lovlaridir.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi.

Amaldagi qonunchilikka asosan **ish haqi** deganda moliyaviy manbadan qat'i nazar, pul yoki natural shaklda hisoblangan barcha turdagi mehnat haqi (shuningdek, turli mukofot, qo'shimcha ustamalar, ijtimoiy imtiyozlar), shu jumladan, ishchilarga qonunda belgilangan tartibda ishlamagan vaqt uchun hisoblangan pul mablag'lari (har yilgi ta'til, dam olish va bayram kunlari va h.k.) tushuniladi. O'rganilayotgan modda mazmuniga ko'ra, ish haqi faqat pul shaklida ifodalanishi mumkin, chunki banklar uni natural shaklda berishmaydi. Shu munosabat bilan, mazkur modda doirasida ish haqini aniqlashda tergov va sud organlari qonunda belgilangan pul shaklidagi ish haqiga oid pul to'lovlarini inobatga olishi lozim.

Moddiy yordam (nafaqa) – ijtimoiy ta'minotning shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy sug'urta yoki davlat Budjeti mablag'laridan doimiy yoki

bir martalik to'lovlardan iborat. Amaldagi qonun hujjatlariga asosan ishsizlik nafaqasi, bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha oylik nafaqa, bola tug'ilishida beriladigan bir martalik moddiy yordam, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari va shu kabi to'lovlarni amalga oshirish belgilanadi.

Stipendiya – ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi ta'lim shakli) oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tahsil oladiganlarga, qonunda belgilangan boshqa to'lovlardan qat'i nazar, to'lanadigan oylik pul to'lovi. Stipendiya ta'lim olishning moddiy rag'batini, davlat ta'lim dargohlarida o'qiydigan yoshlarning ijtimoiy muhofaza qilish vositasi hisoblanadi.

Ish haqi, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan **boshqa to'lovlar** deganda qonunda belgilangan hamda qayd etilgan to'lovlarga o'xshash tarzda, birinchi navbatda, birlamchi xarajatlarni teng darajada qoplashni ta'minlaydigan (proportsional tartib) shartlarda amalga oshiriladigan to'lovlarni tushunish lozim. Bunday to'lovlarga milliy qonunchilik harbiy xizmatchilarning pul ta'minoti, moddiy yordam berishga oid to'lovlar, aliment majburiyatlaridan kelib chiqadigan to'lovlar, mayib bo'lishi yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast etishi, boquvchining o'limi munosabati bilan to'lanadigan to'lovlar, mualliflik shartnomasi bo'yicha mukofot puli, xizmat safari xarajatlari va boshqalarni kiritadi.

Xarajatlar turlari ro'yxati, Budget intizomini buzish deb tan olinadigan asossiz ravishda pul mablag'larini kechiktirish qonunda tugal tarzda belgilanib, kengaytirilib sharhlanishi mumkin emas. Shunga ko'ra, bank rahbari yoki boshqa mansabdor shaxslari tomonidan yuqoridagi turdagi xarajatlar sirasiga kirmaydigan boshqa mablag'lar, masalan, navbatdan tashqari xarajatlar yuzasidan to'lovlar yoki kapital ta'mir va hokazo uchun mo'ljallangan mablag'lar berilishi kechiktirilsa, aybdorlarning harakatlari mazkur modda bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Jinoyat kodeksining 192⁷-moddasida ko'zda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** bankning mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan, shunday harakatlar uchun **ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin** asossiz ravishda xo'jalik yurituvchi subyektlarga yoki boshqa tashkilotlarga ish

haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa to'lovlarni to'lash uchun pul mablag'lari berish muddatlarini kechiktirish harakatlari orqali, ya'ni aybdorning shu harakatlarni sodir etmaslikka bo'lgan qasdi bilan qamrab olingan harakatsizligi orqali sodir etishda ifodalanadi.

Pul mablag'lari berishni **asossiz ravishda kechiktirish** ostida ularning qabul qiluvchilari bo'lgan Budjet korxonalarini va tashkilotlarga mazkur mablag'larning to'lanishini to'liq yoki qisman kechiktirish tushuniladi. Shuni ta'kidlash lozimki, Ish haqi, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan o'zga to'lovlarni berish muddatlari jamoa shartnomalari, Hukumat qarorlari, vazirliklar farmoyishlari, Markaziy bank ko'rsatmalari bilan belgilanadi. Shu bois, har bir aniq holatda pul mablag'lari kechiktirilganligini aniqlash maqsadida mablag'lar to'lovi amalga oshirilishi lozim bo'lgan muddatlarni bilish zarur.

Ta'kidlash lozimki, bank tomonidan tegishli pul summasining bir qismi avvalroq to'langani yoki to'lanmaganiga qarab, pul mablag'larini berishni kechiktirish qisman yoki to'liq bo'lishi mumkin. Xususan, basharti, pul mablag'lari berilishi lozim bo'lgan summaning bir qismi ko'rinishida berilgan bo'lsa, qisman kechiktirish, agar kechiktirish to'liq summaga taalluqli bo'lsa, to'liq kechiktirish sifatida e'tirof etiladi. Kechiktirish xarakteri qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi, biroq sud tomonidan jazoni tayinlashda hisobga olinishi mumkin.

Pul mablag'lari deganda faqatgina O'zbekiston Respublikasi banknotlari va tangalari shaklidagi naqd pul mablag'lari tushuniladi. Naqd ko'rinishga ega bo'lmagan pul mablag'larini amalga oshirishni kechiktirish, ya'ni naqd pulsiz mablag'larni o'tkazish, Budjet tashkiloti hisob raqamiga o'tkazishni kechiktirish, hatto bank rahbari yoki mansabdor shaxsning aybli harakatlari natijasida vujudga kelsa ham, JKning ushbu moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmaydi.

Pul mablag'larini berishni asossiz ravishda kechiktirish deganda obyektiv, ya'ni bank mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, u bu holatlarni anglamagan, shunga o'xshash vaziyatda anglashi mumkin va lozim ham bo'lmagan hamda pul mablag'larini

berishga jiddiy tarzda to'sqinlik qilayotgan holatlarning mavjud emasligi tushuniladi. Masalan, bankda naqd pul mablag'lari mavjud, texnik vositalar soz holatda, favqulodda vaziyatlar mavjud bo'lmaganida va boshqa shunga o'xshash holatlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa tashkilotlarga pul mablag'larini berishni kechiktirishni asossiz deb tan olish lozim.

Aybdor shaxslarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, biroq doimiy ravishda yoki davriy tarzda, ularga ma'lum sabablarga ko'ra vujudga keladigan holatlar natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarga va boshqa tashkilotlarga pul mablag'larini berishni asossiz ravishda kechiktirish deb e'tirof etish lozim. Jumladan, shu kabi holatlarga ma'lum davr mobaynida naqd pul mablag'lari mavjud emasligini bila turib, pul mablag'larini to'lashning aynan shu vaqtga belgilanishini kiritish mumkin.

Aybdor shaxslarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, biroq ularning o'z harakatlari oqibatida vujudga kelgan holat sababli pul mablag'larini berishni kechiktirishni asossiz deb kvalifikatsiya qilish lozim, masalan, bir tashkilotga pul mablag'larini berish muddatlarini boshqa tashkilot zarariga qayta ko'rib chiqish.

Har bir aniq holatda pul mablag'larini berishni asossiz kechiktirish sababi alohida aniqlanishi lozim, basharti to'lovni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi obyektiv holatlar aybdor shaxslarning harakatlari natijasida vujudga kelgan bo'lsa, ularning xatti-harakatlari va oqibatlar kelib chiqishi o'rtasidagi sababiy bog'lanishni, shuningdek, qasdni aniqlash zarur.

Pul mablag'larini berishni asossiz ravishda kechiktirish deb tan olish uchun qonun aybdorni avval ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lishini talab qiladi, ya'ni ma'muriy preyuditsiya majburiy shart etib belgilanadi.

Jinoyat, ish haqi, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan o'zga to'lovlarni to'lash uchun belgilangan muddat o'tganidan so'ng **tamomlangan** hisoblanadi.

Mazkur Jinoyat **subyektiv tomondan to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Shaxs o'z harakatlari natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarga pul mablag'lari berish muddatlari asossiz ravishda kechikishini ongli ravishda bilsa-da, shu harakatlarni qasddan sodir etishni xohlaydi.

JK 192⁷-moddasida javobgarlik belgilangan jinoiy qilmishni sodir etish motiv va maqsadi turlicha bo‘lib, qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta’sir etmaydi, biroq sud tomonidan jazo tayinlashda inobatga olinishi mumkin.

Ushbu jinoyatning **subyekt**i o‘n olti yoshga yetgan va maxsus subyekt belgilariga ega bankning mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi hisoblanadi.

8-§. Tadbirkorlik subyektlarining hisobvaraqlarida pul mablag‘lari mavjudligi to‘g‘risidagi axborotni qonunga xilof ravishda talab qilib olish (JK 192⁸-moddasi)

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning **obyekti** – O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida» va «Bank siri to‘g‘risida»gi qonunlarida belgilangan tadbirkorlik subyektining o‘ziga mulk huquqida tegishli bo‘lgan bank hisobvaraqlarida mavjud pul mablag‘lariga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi, tadbirkorlik subyektlarining bank seyflari va binolarida saqlab turilgan mol-mulki, uning xususiyati va qiymati haqidagi ma’lumotlarni sir saqlash huquqidan iborat.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasining «Bank siri to‘g‘risida»gi Qonuni 3-moddasiga ko‘ra, bank siri bank tomonidan muhofaza qilinadigan quyidagi ma’lumotlardan iboratdir:

o‘z mijozlarining (vakillarining) operatsiyalari, hisobvaraqlari va omonatlariga doir ma’lumotlar;

bank o‘z mijoziga (vakiliga) bank xizmatlari ko‘rsatishi munosabati bilan mazkur mijoz (vakil) to‘g‘risida olgan ma’lumotlar;

mijozning (vakilning) bank seyflari va binolarida saqlab turilgan mol-mulki, uning xususiyati va qiymati haqidagi ma’lumotlar;

mijoz (vakil) topshirig‘iga binoan yoki uning foydasini ko‘zlab amalga oshirilgan banklararo operatsiyalar va bitimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarning banklar o‘rtasida muomalada bo‘lishi natijasida ma’lum bo‘lib qolgan, boshqa bankning mijoziga (vakiliga) doir ma’lumotlar.

O‘zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunining 21-moddasiga ko‘ra, tadbirkorlik

faoliyati subyektlari o'z pul mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf etadi (Qonunning 21-moddasi 1-qismi), shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining bank hisobvaraqlarida pul mablag'lari bor-yo'qligi haqida ma'lumot talab qilib olish, shuningdek, bunday ma'lumotlarning banklar tomonidan taqdim etilishi taqiqlanadi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno (mazkur Qonunning 21-moddasi 7-qismi).

Jinoyat kodeksining **192⁸-moddasida** ko'zda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan**, tadbirkorlik subyektlarining hisobvaraqlarida pul mablag'lari mavjudligi to'g'risidagi axborotni qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan hollarda talab qilib olishda ifodalanadi. Mazkur ma'lumotlar yozma yoki og'zaki shaklda talab qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni berish tartibi to'g'risida»gi Qaror hamda Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni berish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan Departament quyidagi hollarda tashkilotga qo'shimcha axborotni va tegishli operatsiya bo'yicha hujjatlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalarini taqdim etish to'g'risida yozma so'rovnoma jo'natishga haqlidir:

operatsiya to'g'risida olingan axborotning ishonchligini tekshirish zarurati bo'lganda;

bunday operatsiyaning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan bo'lishi mumkinligi to'g'risida axborot mavjud bo'lganda;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni bajarish doirasida.

Departamentning axborot va hujjatlar taqdim etish to'g'risidagi yozma so'rovnomalari Departamentning rasmiy blankalarida rasmiylashtiriladi hamda Departament rahbari yoki uning o'rinbosarlari tomonidan imzolanadi va maxsus pochta aloqasi vositasida tashkilotlarga jo'natiladi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektining bank hisobvaraqlarida pul mablagʻlari haqidagi maʼlumot prokuratura, tergov va surishtiruv organlari, sud va sud ijrochisi, davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilishi mumkin.

Jumladan, «Bank siri toʻgʻrisida»gi Qonunga asosan, bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlar prokuratura, tergov va surishtiruv organlariga mazkur bank mijoziga (vakiliga) nisbatan qoʻzgʻatilgan jinoyat ishi mavjud boʻlgan taqdirda, yetkazilgan zarar undirib olinishini yoki uning mol-mulki xatlanishini taʼminlash maqsadida tergovchi yoxud surishtiruvchining asoslantirilgan qaroriga binoan prokuror sanksiyasi bilan taqdim etiladi (9-modda. Bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlarni prokuratura, tergov va surishtiruv organlariga taqdim etish); bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlar sudga uning yozma soʻrovi asosida, mazkur bank mijoziga (vakiliga) nisbatan sudning ish yurituvdagi ishlar boʻyicha taqdim etiladi.

Bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlar sud ijrochisiga uning yozma soʻrovi asosida, sudning undiruvni mazkur bank mijozining (vakilining) mol-mulkiga qaratish toʻgʻrisidagi yoki bu mijozning (vakilning) mol-mulkini xatlash haqidagi qonuniy kuchga kirgan qarori boʻlgan taqdirda taqdim etiladi. (10-modda. Bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlarni sudga va sud ijrosiga taqdim etish); Bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlar davlat soliq xizmati organlariga bank mijoziga (vakiliga) soliq solish masalalariga taalluqli hollarda qonun hujjatlariga muvofiq taqdim etiladi (11-modda. Bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlarni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish).

Bunda shuni taʼkidlash lozimki, yetarli asoslar mavjudligida, bank operatsiyalari yoki bank hisobvaraqlarida saqlanayotgan pul mablagʻlari haqidagi maʼlumotlarni talab qilib olish tartibini buzish, mazkur jinoyat tarkibining obyektiv tomoni belgisi sifatida tan olinishi mumkin emas.

Jinoyat shunday harakatlar uchun **maʼmuriy jazo qoʻllanilganidan keyin** konun hujjatlarida nazarda tutilmagan hollarda tadbirkorlik subyektlarining hisobvaraqlarida pul mablagʻlari mavjudligi toʻgʻrisidagi axborotni talab qilingan vaqtdan boshlab tamomlangan hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatning **subyektiv tomoni** to'g'ri qasd shaklida namoyon bo'ladi.

Jinoyatning **subyektiv** davlat hokimiyati vakillari, davlat boshqaruvi mansabdor shaxslari hisoblanadi. Ularga huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari vakillari, hokimlar va boshqalar kirishi mumkin.

9-§. Tijoratda pora evaziga og'dirib olish (JK 192⁹-moddasi)

Tijoratda pora evaziga og'dirib olish – bu umumlashtirilgan atama bo'lib, nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining boshqaruv organlari faoliyat tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari ikkita mustaqil tarkibini, ya'ni moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaatni berish va olishni qamrab oladi. Qayd etilgan manfaatlarga qarshi qaratilgan tajovuz har biri tamomlangan qilmish sifatida o'z-o'zidan, boshqasiga bog'liq bo'lmagan holda sodir etilishi mumkin emas. Bir-biriga nisbatan ular uzviy bog'liq bo'lib, bunda pora evaziga og'dirib olish predmeti mavjud emasligi, o'z-o'zidan uning olinganligini inkor etadi.

Davlat hokimiyati, boshqaruvi va jamoat birlashmalari faoliyat tartibiga qarshi barcha jinoyatlarga xos ravishda, tijoratda pora evaziga og'dirib olish davlat organlari va mansabdor shaxslar timsolidagi ommaviy boshqaruvi apparatining normal faoliyatiga tajovuz qiladi.

Tijoratda pora evaziga og'dirib olish kabi jinoyatining ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligi shu bilan belgilanadiki, u nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining boshqaruv organlari mansabdor shaxslari tomonidan o'z o'z xizmat vakolatlarini amalga oshirishning belgilangan tartibini keskin o'zgartirib, shu orqali tijorat xizmatining manfaatlarini qo'pol ravishda buzadi. Tijoratda pora evaziga og'dirib olish korrupsiyaning eng tipik va o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi.

Ko'rilayotgan jinoyatning **bevosita obyektiv** nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotlari boshqaruv apparatini normal faoliyatini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlar, mazkur tashkilotlar xizmat manfaatlaridan iborat.

Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish **predmeti** sifatida har qanday moddiy boyliklar (buyumlar, ashyolar), shuningdek turli mulkiy foyda, mulkiy tusga ega xizmatlarni aytish mumkin.

Moddiy boyliklarga mazkur holatda muayyan bahoga ega har qanday qimmatliklar tushuniladi (pul, qimmatli qog‘ozlar, boshqa mol-mulk, shu jumladan valuta qimmatliklari, qimmatbaho metallar, nodir toshlar).

Mulkiy foyda deganda tegishli mansabdor shaxsga tekin tarzda va (yoki) ochiqchasiga o‘ta pasaytirilgan narxda amalga oshiriladigan turli xil xizmatlar va (yoki) moddiy naf keltirish tushuniladi.

Mulkiy tusga ega foyda berish deganda shuningdek, tegishli mansabdor shaxsning sanatoriy yoki turistik yo‘llanmasi, yo‘lkira biletlarini to‘lash, uning xarajatlari va o‘yin-kulgi, sayr-tomoshasi sarf-xarajatini qoplash, ushbu shaxs foydasini ko‘zlab, ta‘mirlash, qurilish, restavratsiya va boshqa ishlarni bajarish tushuniladi.

Qandaydir nomulkiy manfaatlar tijoratda pora evaziga og‘dirib olish predmeti bo‘lishi mumkin emas. Masalan, jinsiy aloqa qilish, ijobiy tavsiyanoma, taqriz, tavsifnoma berish, nashrda chop ettirish, televideniye orqali namoyish etish va h.k.

Moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy manfaatdor etish **obyektiv tomondan** nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining mansabdor shaxsiga o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, shaxsan yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etishda ifodalanadi.

Moddiy qimmatliklar yoki mulkiy foyda berish nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining mansabdor shaxsi tomonidan tijoratda pora evaziga og‘dirib olayotgan shaxs foydasiga uning xizmat vakolatiga kiradigan harakatlar (harakatsizlik) amalga oshirish, yoki mansabdor shaxs egallab turgan mansabidan foydalanib, boshqa mansabdor shaxs tomonidan uning xizmat vakolatiga kiradigan harakatlar (harakatsizlik) amalga oshirishiga ko‘maklashish, yoxud tijoratda pora

evaziga og‘dirib olayotgan shaxs yoki uning vakillariga xizmat yuzasidan umumiy homiylik qilish, shu bilan birga mansabdor shaxsning xizmat bo‘yicha qonunga xilof harakatlariga beparvolik bilan qarashi evaziga qonunga xilof ravishda shaxsan yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar taqdim etish, berish, topshirish yoki mulkiy foyda berishda ifodalanadi.

Pora evaziga og‘dirib olish yo‘li bilan subyekt mansabdor shaxsni jinoyat sodir etishga tortsa, u nafaqat pora evaziga og‘dirib olish jinoyati, balki mansabdor shaxsning jinoyatida ishtirok etganligi (dalolatchilik) uchun javobgar bo‘lishi lozim.

JKning **192⁹-moddasi 1-qismida** nazarda tutilgan jinoyat, tegishli mansabdor shaxs pora evaziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatida qandaydir harakatlar bajargan yoki bajarmaganidan qat’i nazar, ushbu mansabdor shaxsga tijoratda pora evaziga og‘dirib olish predmetining bir qismi bo‘lsa ham berilgan vaqtdan boshlab, **tamomlangan** hisoblanadi. Basharti, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish predmeti ko‘p miqdor yoki juda ko‘p miqdorni tashkil etsa, biroq uning faqat bir qismi topshirilgan bo‘lsa, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish predmetini topshirayotgan shaxs harakatlarini mazkur moddaning tegishli qismi, 25-moddaning 2-qismi, tegishlicha JKning 192⁹-moddasi 3-qismi «b» bandi yoki JKning 192⁹-moddasi 4-qismi «a» bandi bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat **to‘g‘ri qasddan** sodir etiladi. Pora beruvchi mansabdor shaxsga pora predmetini mukofot sifatida, o‘zining mansab mavqeidan kelib chiqib uning manfaati yo‘lida biron-bir harakatni sodir etishi yoki etmasligi uchun berilishini anglaydi va shuni xohlashadi.

Pora evaziga og‘dirib olishning **motivi va maqsadi** kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Jinoyatining **subyeksi** – 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs.

JKning **192⁹-moddasi 2-qismi** nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsining o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab moddiy

qimmatliklar olish yoki mulkiy foyda olish evaziga bajarishi yoki bajarmasligi uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

JKning **192⁹-moddasi 2-qismida** nazarda tutilgan jinoyat obyekt va predmeti, mazkur moddaning 1-qismida belgilangan jinoyat obyekt va predmeti bilan bir xildir.

Moddiy qimmatliklar olish yoki mulkiy manfaat ko‘rish **obyektiv tomondan** nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsining pora olish jinoyati obyektiv tomondan nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsining o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Mazkur holatda kengaytirilgan sharhlashni qo‘llab, nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining mansabdor shaxsi tomonidan tijoratda pora evaziga og‘dirib olish predmetlarini shaxsan yoki vositachi orqali olishni ham JKning 192⁹-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish predmetini olish usullari turlicha bo‘lishi mumkin: shaxsan qo‘ldan-qo‘lga, vositachi orqali, pochta orqali va h.k.

Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish predmeti ko‘pincha oshkora beriladi, ammo sud-tergov amaliyotida o‘ziga xos yashirin og‘dirish holatlari ham uchraydi, masalan, nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsining tug‘ilgan kuni yoki boshqa tadbiri munosabati bilan sovg‘a berish, qarta o‘yinida yutqazish va h.k.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda shuni inobatga olish zarurki, aybdor pora evaziga og‘dirib olish predmetini og‘dirib olayotgan manfaatida ma‘lum aniq harakatni bajarish yoki bajarmaslik evaziga olib, bunda o‘zining xizmat vokalatlaridan foydalanadi. Shu bilan birga, mazkur harakat (harakatsizlik) mansabdor shaxsning xizmat vakolatlari doirasiga kirishi lozim. Mansabdor shaxsning xizmat vakolatlari – bu uning qonuniy

va huquq doirasida harakatlari (harakatsizligi) bo‘lib, shaxs ularni bajarishi yoki bajarmasligi lozim edi. Bundan tashqari, tijoratda pora evaziga og‘dirib olishni amalga oshirish vaqtiga ko‘ra, moddiy qimmatliklar yoki mulkiy foyda avvaldan, «avans» tariqasida berib qo‘yilishi yoki tijoratda pora evaziga og‘dirib olish predmeti oluvchisi tomonidan qilmish bajarilganidan so‘ng topshirilishi mumkin.

Subyektiv tomondan tijoratda pora evaziga og‘dirib olish predmetini olish to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi. Shaxs predmetni (moddiy boyliklar yoki boshqa mulkiy foyda) pora evaziga og‘dirish predmeti sifatida olayotganini anglab yetadi va shuni hoxlaydi.

Maqsad va motiv jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas, amalda ko‘p holda pora tamagirlik niyatida sodir etiladi.

Pora olish **subyekt**i sifatida faqatgina 18 yoshga yetgan nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkilotining mansabdor shaxsi bo‘lishi mumkin.

Nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsi – bu ustav jamg‘armasida davlat ulushi bo‘lmagan tijorat tashkilotlarda saylash yoki tayinlash bo‘yicha doimiy yoxud vaqtincha tashkiliy boshqaruv yoxud ma‘muriy-xo‘jalik vazifalarini amalga oshirayotgan shaxs; 2) davlat organi yoki davlat tashkiloti ishtirokisiz tuzilgan yoki tashkil etilgan boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsi.

JKning **192⁹-moddasi 3-qismi** tijoratda pora evaziga og‘dirib olish jinoyati:

- a) takroran;
- b) ko‘p miqdorda;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilishi uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish jinoyatining takroriylik belgisi bo‘yicha kvalifikatsiya qilishda shuni inobatga olish lozimki, pora evaziga og‘dirib olish predmetining qismlarga bo‘lib berilishi takroriylik belgisini tashkil etmaydi, balki yagona davomli jinoyat hisoblanadi,

bunda aybdorning harakatlarini uning qasdiga qarab kvalifikatsiya qilish lozim.

JKning 192⁹-moddasi 4-qismi tijoratda pora evaziga og‘dirib olish jinoyati predmetini:

a) takroran;

b) ko‘p miqdorda;

v) tamagirlik yo‘li bilan;

g) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilishi uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Takroriylik deganda pora evaziga og‘dirib olish predmetini kamida ikki marta olish tushuniladi, bunda qonunda belgilangan jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari o‘tmagan bo‘lishi shart.

Pora evaziga og‘dirib olish, birinchi jinoyat tamomlangan bo‘lishidan yoki avval pora olish jinoyatiga tayyorgarlik yoxud pora olishga suiqasd sodir etilganidan qat’i nazar takroran hisoblanadi.

Pora predmetini olishni **JKning 192⁹-moddasi 4-qismi** bilan kvalifikatsiya qilishda shuni inobatga olish zarurki, bir necha shaxsdan har birining manfaatida ma’lum harakatlarni amalga oshirish uchun moddiy qimmatliklar yoki mulkiy foyda olish sodir etilishida, pora evaziga og‘dirib olish predmetini takroran olish deb hisoblash zarur. Ammo, bir necha shaxslardan ularning umumiy manfaatida aniq harakat sodir etish uchun tijorat pora evaziga og‘dirib olish predmetini olish ushbu jinoyatning takroran sodir etilishi belgisini tashkil etmasligi lozim.

Tijorat pora evaziga og‘dirib olish predmetini **tamagirlik yo‘li bilan** olish jinoyati tarkibini nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsi tomonidan pora evaziga og‘dirayotgan shaxsning qonuniy manfaatlari buzilishiga tahdid qilish yoki o‘zining qonuniy manfaatlari buzilishining oldini olish maqsadida uni tijorat pora evaziga og‘dirish jinoyatini sodir etishga majbur bo‘ladigan ahvolga tushirish orqali moddiy qimmatliklar yoki mulkiy foyda berishni talab qilish holatlari tashkil etadi.

Shaxs manfaatlarida qonunga xilof talablarni bajarganlik uchun tijorat pora evaziga og‘dirish jinoyati predmetini talab qilish porani tamagirlik yo‘li bilan olish jinoyatini tashkil etmaydi.

Nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsi tomonidan pora predmetini tamagirlik yo‘li bilan olishga qaratilgan harakatlar sodir etilsa, biroq, pora predmeti mansabdor shaxs tomonidan olinmagan bo‘lsa, ushbu harakatlar jinoyatga suiqaasdni tashkil etadi.

JKning **192⁹-moddasi 5-qismiga** ko‘ra, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish predmetini berish va olish:

a) juda ko‘p miqdorda;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilishi uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

JKning **192⁹-moddasi 6-qismida** ikkita o‘zaro bog‘liq shartlar nazarda tutilgan bo‘lib, ularning mavjudligida pora evaziga og‘dirayotgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

Birinchi shartda belgilanishicha, pora evaziga og‘dirib olishni amalga oshirgan shaxsga nisbatan tovlamachilik qilingan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi.

Ikkinchi shartga ko‘ra, basharti, shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka ichida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, u JKning 192⁹-moddasi jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

Tijorat pora evaziga og‘dirib olishni amalga oshirgan shaxs, o‘z ixtiyori bilan har qanday hokimiyat organiga (DXX, prokuratura, sud, ichki ishlar organlari, hokimiyat, mahalla qo‘mitasi va boshqa) istalgan shaklda (og‘zaki, yozma, uchinchi shaxslar orqali) arz qilishga haqli. Pora evaziga og‘dirib olish amalga oshirilgani haqida **arzning ixtiyoriyligi** aniqlashda shuni inobatga olish zarurki, u jinoyat to‘g‘risida huquqni muhofaza qiluvchi organlar xabardor bo‘lishidan avval amalga oshirilishi kerak. Ushbu arzning motiv va maqsadi (fosh bo‘lish yoki jazolanishdan qo‘rqish, vijdon azobi va h.k.) javobgarlikdan ozod etish uchun ahamiyatga ega emas.

Biroq, pora evaziga og‘dirib olishni amalga oshirgan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi uning harakatlarida jinoyat tarkibi mavjud emasligini anglatmaydi.

Shu sababli, bunday shaxslar jabrlanuvchi deb tan olinishi va tijorat pora evaziga og‘dirib olish predmeti oluvchisiga topshirilgan pora predmetini qaytarishni talab qilishga haqli emas.

Pora evaziga og‘dirib olish amalga oshirilgan haqidagi ixtiyoriy arz jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka ichida, biroq jinoyat to‘g‘risida huquqni muhofaza qiluvchi organlar xabardor bo‘lishidan avval amalga oshirilishi kerak.

Pora evaziga og‘dirib olish amalga oshirilgan haqidagi ixtiyoriy arz qilish bilan birga, shaxs chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam berishi shart. Masalan, ashyoviy dalillarni ko‘rsatishi, pora evaziga og‘dirib olish predmeti oluvchilarni fosh etishi va h.k.

10-§. Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish (JK 192¹⁰-moddasi)

Ushbu jinoyatning **bevosita obyekt**i nodavlat notijorat tashkilotlarining erkin faoliyatini davlat tomonidan kafolatlab berish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta‘minlash, nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash sohasidagi, shuningdek, nodavlat notijorat tashkiloti xodimining qonunda belgilangan tartibda erkin faoliyat yuritishni taminlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyat kodeksining **192¹⁰-moddasida** ko‘zda tutilgan jinoyatning 1-qismida ko‘rsatib o‘tilgan jinoyat **obyektiv tomondan** muayyan subyektning o‘zi tomonidan sodir etilayotgan xatti harakatning qonunga xilof ekanligini bila turib, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin, nodavlat notijorat tashkiloti xizmatchisiga uning o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni bajarishi yoki bajarmasligi uchun moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etishdan iborat.

JKning 192¹⁰-moddasida nazarda tutilgan harakatlar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, JKning 192⁹-moddasida (Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish) qayd etilgan harakatlar bilan bir xil, yagona farq shundaki, mazkur holatda mukofot mansabdor shaxsga emas, xizmatchiga mazkur xizmatchining o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi uchun beriladi.

Moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy manfaatdor etish – bu xizmatchiga uning xizmat vakolatlari doirasiga kiradigan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi uchun mulkiy tusga ega qimmatliklarni berish yoki huquq doirasida mulkiy baholanish imkoniyati mavjud bo‘lgan manfaatni taqdim etishdir.

Harakatlar pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajariladi, basharti ular:

pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs yoki u ko‘rsatgan boshqa shaxslarning ehtiyojlarini qondiradi, ularga foyda yoki imtiyozlar keltiradi;

pora evaziga og‘dirilayotgan shaxs faoliyat yuritayotgan shaxs xizmat manfaatlariga zid hisoblanadi.

Mazkur qilmishning jinoiy jazoga sazovorligining zaruriy sharti moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaat berishda ifodalanadi.

Qonunga xilof ekanligini bila turib berish deganda shunday holatlar tushuniladiki, bunda ushbu harakat (harakatsizlik) amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda yoki ta‘sis hujjatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqiqlangan yoki qonunga asosan xizmatchi faoliyatidan kelib chiqmaydi.

O‘z xizmat vakolatlaridan foydalangan holda harakatni bajarish yoki bajarmaslik mavjud huquqiy va amaliy imkoniyatlardan foydalanishni ko‘zda tutadi, ya‘ni ushbu xizmatchining vakolatlari doirasiga kiradigan harakat (harakatsizlik)ni hamda bu doiradan chiqadigan, biroq uning xizmat nufuzi, obro‘si, xabardorligi, ma‘lumotni olish imkoniga egaligi va hokazoda asoslangan harakat (harakatsizlik)ni qamrab oladi.

Harakatni bajarish yoki bajarmaslik o‘z tusiga ko‘ra avvaldan qonunga xilof bo‘lishi yoxud xizmatchi ishlaydigan nodavlat tijorat tashkiloti yoki

boshqa nodavlat organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar qonuniy manfaatlariga qarshi bo‘lishi lozim.

Pora evaziga og‘dirish usuli va shakli ahamiyat kasb etmaydi. Qonunga xilof moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaat xizmatchi tomonidan shaxsan yoki vositachi orqali olinishi mumkin.

Pora evaziga og‘dirish oshkora yoki yashirin tarzda, sovg‘a ko‘rinishida, moddiy qimmatlikni ochiqdan-ochiq arzonlashtirilgan narxda sotishda, soxta mehnat shartnomasini tuzish va boshqa shaklda bo‘lishi mumkin.

Qonun pora evaziga og‘dirish muayyan harakatni bajarishdan oldin yoki tegishli harakat bajarilganidan keyin bo‘lishi o‘rtasidagi farqni belgilamaydi, ular bir xilda jinoiy jazoga loyiq qilmishni tashkil etadi.

Basharti, xizmatchi pora evaziga og‘dirayotgan shaxs manfaatida biror-bir jinoiy harakatlar sodir etsa, uning harakatlarini jinoyatlar jami bo‘yicha kvalifikatsiya qilish zarur (masalan, xizmatchi mukofot evaziga hujjatni qalbakilashtirsa, uning harakatlari jinoyatlar jami bo‘yicha JKning 192¹⁰-moddasi 1-qismi va JKning 228-moddasi (Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish) bilan kvalifikatsiya qilinadi).

Xizmatchini pora evaziga og‘dirish jinoyati u tomondan o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajargani evaziga moddiy qimmatliklar yoki moddiy manfaatning bir qismi bo‘lsa ham olinganidan so‘ng **tamomlangan** hisoblanadi, basharti, bu harakat unga nisbatan bir yil ichida xuddi shunday harakatlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 611-moddasi bilan ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa.

JKning **192¹⁰-moddasida** ko‘zda tutilgan jinoyatning 2-qismida ko‘rsatib o‘tilgan jinoyat **obyektiv tomondan** nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti xizmatchisi shunday harakatlar uchun **ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin** o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi

yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishida ifodalanadi.

JKning 192¹⁰-**moddasi 2-qismida** nazarda tutilgan jinoyatning belgilari, mohiyatan, tijoratda pora evaziga og'dirib olish jinoyati predmeti belgilaridan farq qilmaydi, yagona farq shundaki, mazkur holatda qonunga xilof mukofotni mansabdor shaxs emas, xizmatchi o'z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi uchun oladi.

O'rganilayotgan jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun, xizmatchi qonunga xilof mukofotni qachon, pora evaziga og'dirayotgan shaxs manfaatlarida tegishli harakatni bajarishdan oldin yoki keyin olganligi muhim emas.

Jinoyat xizmatchi xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy javobgarlikka tortilganidan so'ng bir yil ichida moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaatni bir qismini bo'lsa ham olganidan so'ng **tamomlangan** hisoblanadi.

JKning 192¹⁰-**moddasida** ko'zda tutilgan Jinoyat **subyektiv tomondan** to'g'ri qasddan sodir etiladi. Shaxs xizmatchiga o'z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan biror harakatni pora evaziga o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga moddiy qimmatliklar berayotgani yoki unga mulkiy manfaat keltirayotganini angalaydi va buni xohlaydi (JKning 192¹⁰-moddasi 1-qismi). Aybdor unga moddiy qimmatliklar yoki mulkiy foyda aynan u egallab turgan xizmat vakolatidan foydalanib, pora evaziga o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni bajarishi yoki ularni bajarishdan o'zini tiyishi uchun pora sifatida berilganini anglab etadi va shuni istaydi (JKning 192¹⁰-moddasi 2-qismi).

Mukofotni qabul qilayotgan shaxs tamagirlik **motivi** bilan harakat qiladi. Qonunga xilof ravishda moddiy mukofot yoki mulkiy naf berishning motivlari turlicha bo'lishi mumkin (tamagirlik niyati, shaxsiy tusdagi niyatlar, qonunni «chetlab o'tish» istagi, javobgarlikdan xalos

bo'lish, xizmatchiga ko'rsatilgan xizmat uchun minnatdorchilik bildirish, aybdorning manfaatlarini qondirish va h.k.).

Pora evaziga og'dirish aybdor shaxs ishlayotgan korxonada, tashkilot, muassasa manfaatida ham amalga oshirilishi mumkin.

Qonunga xilof ravishda mukofot berish shartlari maxsus ravishda kelishilmagan, biroq jinoyat ishtirokchilari tomonidan pora evaziga og'dirish predmeti aynan mazkur mukofot taqdim etgan shaxs manfaatlarini qondirish maqsadida berilayotganini anglab etgan holatlar, qonunga xilof moddiy qimmatliklar yoki mulkiy foydani olish sifatida e'tirof etilishi zarur.

JKning 192¹⁰-moddasi 1-qismi bo'yicha Jinoyatning **subyekt**i sifatida 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs, JKning 192¹⁰-moddasi 2-qismi bo'yicha esa – faqat nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisi bo'lishi mumkin.

11-§. Nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish (JK 192¹¹-moddasi)

Ushbu jinoyatning **bevosita asosiy obyekt**i nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkilotining normal ish faoliyati, ushbu sohadagi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlar, davlat yoki jamoat manfaatlarini hisoblanadi. **Qo'shimcha bevosita obyekt**i sifatida fuqarolar, jamiyat, davlatning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari normal faoliyatini sohasida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar, JKning 205-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning bevosita obyektini hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishida namoyon bo'ladi. Ushbu harakatlar natijasida fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga

yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lishida ifodalanadi.

Mansab vakolatlaridan qasddan foydalanish deganda, bunday shaxsning mansab mavqeidan kelib chiqqan va bu shaxs egallagan lavozimi vakolatiga berilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq, biroq o‘z mazmuni bo‘yicha tegishli organning faoliyat olib borishidan ko‘zlangan maqsad va vazifalarga zid keluvchi harakatlarini tushunish lozim.

Mansab vakolatlari deganda, shaxs egallayotgan lavozimi tufayli ega bo‘lgan huquq va majburiyatlar tushunilishi kerak. Tegishincha xizmat vakolatlaridan foydalanish sifatida mansabdor shaxs tomonidan uning xizmat vakolatlari doirasida, u egallab turgan mansab mavqei tufayli unga taqdim etilgan huquqlar va uning zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar chegaralarida amalga oshirilgan harakatlarga e’tirof etiladi.

Shaxsni mazkur jinoyat uchun javobgarlikka tortishda moddaning to‘g‘ri qo‘llanilishini ta’minlash maqsadida nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxs xizmat huquqlari va majburiyatlarining doirasi va xususiyatini, ularni tartibga soluvchi normativ hujjatlarni, sodir etilgan qilmishning motivi, maqsadi va faktik holatlarini, bunday shaxs o‘z majburiyatlarini buzishi hamda kelib chiqqan zararli oqibatlar o‘rtasida sababiy bog‘lanishni aniqlashtirish zarur.

Mansabdor shaxs vakolati muayyan mansabni doimiy ravishda yoki vaqtinchalik yoxud maxsus vakolat bilan ushbu mansab bo‘yicha vazifani bajaruvchi shaxsning huquq va majburiyatlari tartibga solingan tegishli qonunlar, nizom va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan uning kompetentsiyasi bilan belgilanadi.

Mansab vakolatlarini suiiste’mol qilish taqdim etilgan huquqlar va yuklatilgan majburiyatlarni amalga oshirishning o‘ziga xos shakli sifatida faol harakat qilish shaklini nazarda tutib, quyidagilarda ifodalanadi:

1) nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti boshqaruv funksiyalaridan qonunga xilof foydalanishdan iborat. Bu shuni anglatadiki, shaxs rasman o‘z xizmat vakolati doirasida harakat qiladi,

ya'ni uning harakatlari rasman xizmat vakolatlari doirasiga kiradi. Shaxsning huquq va majburiyatlari u bilan tuzilgan shartnoma bilan belgilanib, tashkilot nizomiga muvofiq bo'lishi lozim.

2) tashkilotning qonuniy manfaatlariga zid ravishda amalga oshiriladi. Rasman zarar ko'rgan tashkilotning faoliyati doirasiga kiradigan jinoiy qilmish, mohiyatan uning maqsadlari va vazifalari, faoliyat prinsiplari va qoidalariga qarshi turadi.

Vakolatlarni suiiste'mol qilish shakllari turfa bo'lishi mumkin:

- tashkilot uchun oldindan nomaqbulligi ayon holda shartnoma tuzish;
- bankrot firmalar bilan yoki firibgarlik maqsadida tuzilgan soxta firmalar bilan tijoriy munosabatlarga kirishish;
- oldindan to'lovga qobiliyatsiz sheriklarni kreditlashtirish;
- bunday huquqqa ega bo'lmagan shaxslarga imtiyozli kredit berish;
- tovar-moddiy boyliklar kamomadini yashirish;
- buxgalteriya hisobotini yuritishning qo'pol buzilishlari va h.k.

Mansab vakolatidan harakatsizlik orqali suiiste'mol qilish, JKning 192¹¹-moddasida ko'zda tutilgan jinoyat tarkibini tashkil etmaydi.

JKning 192¹¹-**moddasida** ko'zda tutilgan jinoyat tarkibi moddiy bo'lib, jinoiy oqibat yuz berganidan so'ng tamomlangan hisoblanadi. Ushbu qilmish natijasida fuqarolar, tashkilotlar huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga, jamiyat yoki davlatning manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkaziladi.

Mulkiy zararni ko'p miqdor deb baholashda, JKning Maxsus qismi 8 bo'limiga asoslanib, yetkazilgan mulkiy zarar va boy berilgan foydaning miqdorini hisobga olish lozim, unga ko'ra, ko'p miqdor ostida eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi zarar hisoblanadi.

Jiddiy ziyon tushunchasi baholovchi tusga ega bo'lib, jinoyatning konkret holatlariga nisbatan ko'rib chiqiladi. Jiddiy ziyon to'g'ridan-to'g'ri yetkazilgan moddiy zarar, boy berilgan foyda va boshqa shakllarda ifodalanishi mumkin. Jumladan, jiddiy ziyon sifatida quyidagilar tan olinadi: konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar buzilishi; bir nechta tijorat faoliyati subyektlarini xarob qilish; korxonani to'xtatish; avariya.

«Fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazish moddiy zarar tarzida ham, boy berilgan foyda tarzida ham, shuningdek, turli xil manfaatlariga boshqacha zarar yetkazishda, hokimiyat organlarining obro‘sigacha putur yetkazishda, og‘ir jinoyatlarni yashirishda va hokazolarda ifodalanishi mumkin»¹.

Basharti, yetkazilgan zarar ko‘p miqdorda bo‘lmasa, ziyon esa, jiddiy deb hisoblanmasa, mansabdor shaxs tomonidan yo‘l qo‘yilgan vakolatlarni suiiste‘mol qilinishi jinoiy javobgarlikni istisno etadi, bunda faqatgina intizomiy yoki amaldagi qonunchilikda belgilangan boshqacha javobgarlik vujudga keladi.

Qilmish va yuzaga kelgan oqibatlar o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjud.

JKning **192¹¹-moddasi** mansabdor shaxs tegishli nodavlat tashkilotida egallab turgan mansab lavozimini suiistemol qilish uchun emas, balki mansab vakolatlarini suiiste‘mol qilish uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Shunga ko‘ra, mansabdor shaxs tomonidan qonunga xilof harakatlarni sodir etish uchun xizmat vakolatidan emas, balki ushbu mansabdor shaxs obro‘si, uning lavozimi va ishlayotgan xizmati nufuzi, unga xizmat bo‘yicha bo‘ysunmaydigan va nazorati ostida bo‘lmagan mansabdor shaxslar bilan o‘rnatgan aloqalaridan foydalanishi o‘rganilayotgan jinoyat tarkibini tashkil etmaydi.

Shaxsiy munosabatlardan foydalanish, basharti, ular egallab turgan lavozimiga bog‘liq bo‘lmasa, mansab vakolatlarini suiiste‘mol qilish sifatida ko‘rilmaydi.

Mazkur jinoyat **subyektiv tomondan qasddan** sodir etiladi. Mansabdor shaxs o‘z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi natijasida fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoxud jiddiy

¹ Қаранг.: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноят ишлари бўйича суд амалиётида вужудга келадиган масалалар тўғрисида»ги 11-сонли Қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 206 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорлари билан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, Т.1. – Б. 372.

ziyon yetkazilishi kabi oqibatlarining yuzaga kelishini biladi va buni xohlaydi (**to'g'ri qasd**) yoki bu oqibatlarga ongli ravishda yo'l qo'yadi (**egri qasd**).

Jinoyatni sodir etish **motivi** sifatida nomoddiy tUSDagi manfaat, karerizm, proteksionizm, noto'g'ri tushunilgan birodarlik hissi, o'ch olish va boshqalar xizmat qiladi. Ammo, ular jinoyat kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi.

Jinoyatning motivi va maqsadi qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

Jinoyatning **subyekti** – maxsus. Uning sifatida nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkilotining 18 yoshga yetgan mansabdor shaxsi bo'lishi mumkin.

Nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsi – bu ustav jamg'armasida davlat ulushi bo'lmagan tijorat tashkilotlarda saylash yoki tayinlash bo'yicha doimiy yoxud vaqtincha tashkiliy boshqaruv yoxud ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshirayotgan shaxs; davlat organi yoki davlat tashkiloti ishtirokisiz tuzilgan yoki tashkil etilgan boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsi.

Tashkiliy boshqaruv vakolatlari deganda ma'lum faoliyat hududi, ayrim xodimlarning ishlab chiqarish faoliyatiga rahbarlikni amalga oshirish funktsiyalari tushuniladi. Masalan, nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti rahbarlari (direktorlar, ularning o'rinbosarlari, tashkiliy tuzilmalar boshliqlari va h.k.). Ushbu mansabdor shaxslarning faoliyati kadrlarni tanlash va ularga rahbarlik qilish, ularni joylash, faoliyatini tashkil etish hamda nazorat qilish va boshqa holatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ma'muriy-xo'jalik vakolatlari deganda mol-mulknI boshqarish va tasarruf etish, ularni saqlash shartlari va tartibini belgilash, saqlash, o'tkazishni ta'minlash va hokazolardan iborat funktsiyalar tushuniladi. Masalan, bunday vakolatlarga ma'muriy-xo'jalik qismi, ta'minot, o'tkazish xizmati rahbari, ombor mudirlari, bosh buxgalterlar va sh.k. ega bo'lishi mumkin.

Mansabdor shaxs tashkiliy boshqaruv yoxud ma'muriy-xo'jalik vazifalarni bajarish bilan bog'liq lavozimlarni vaqtincha yoki doimiy, saylash yoki tayinlash asosida egallab turishidan qat'i nazar e'tirof etiladi.

Yuridik ahamiyatga ega harakatlar bajarish deganda, shaxs tomonidan biror huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o'zgartirish yoxud bekor qilishi mumkin bo'lgan harakatlarni bajarish tushunilishi lozim.

JKning 192¹¹-moddasi 2-qismida mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlari:

- a) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilishi uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

Mazkur moddada nazarda tutilgan jinoyatni kvalifikatsiya qilishda, shuni nazarda tutish lozimki, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish xususiy sektordagi ayrim jinoyatlarga nisbatan umumiy norma hisoblanadi, masalan tijoratda pora evaziga og'dirib olishga (JKning 192⁹-moddasi).

Bunday hollarda, aybdorning qilmishini maxsus normaga asosan kvalifikatsiya qilish haqidagi qoidani inobatga olish zarur.

Masalan, yakka tartibdagi tadbirkor yoki tashkilot rahbari tomonidan bank yoki boshqa kreditorga oldindan bila turib yakka tartibdagi tadbirkor yoki tashkilot xo'jaligi holati yoki moliyaviy ahvoli haqida soxta ma'lumotlarni berish orqali imtiyozli shartlar asosida kredit olishini, basharti kredit mablag'larini tekinga olib qo'yish yoki o'zlashtirishga qasdi bo'lmagan taqdirda, ish holatlaridan kelib chiqqan holda JKning 205-moddasi yoki 170-moddasi (Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar yetkazish) bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

Nodavlat tijorat tashkilotlar tomonidan qonunga xilof ravishda kredit berilishi, talon-toroj belgisi bo'lmagan taqdirda, JKning 192¹¹-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Basharti, ish bo'yicha qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish tartibini belgilaydigan amaldagi qonunchilik talablari buzilishi aniqlansa, JKning 192¹¹-moddasi dispozitsiyasida qayd etilgan belgilar mavjudligida,

bunday harakatlarni mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish deb kvalifikatsiya qilish shart.

Bu kabi qonun buzilishlarga, jumladan, fuqarolar va chet el investorlariga erkin sotish uchun mo'ljallangan aksiyalar paketini realizatsiya qilishga to'sqinlik qilishni aytish mumkin.

Etkazilgan moddiy zararining o'rne qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Бекташев А.А. Законодательство о государственном регулировании производства и оборота этилового спирта, алкогольной и спиртосодержащей продукции. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2004. – 409 с.

Белахов А.Л. Ответственность за выпуск недоброкачественной, нестандартной или некомплектной продукции / Отв. ред. В.А. Тверденко – М.: Юридическая литература, 1979.

Гаухман Л.Д. Хозяйственные преступления. – М.: 1995.

Гладышев Ю.Л., Головлев Ю.В. Ответственность за преступления в сфере предпринимательства. – Новгород: 1995.

Емельянов Ю.П. Лицензирование в новых условиях хозяйствования. – М.: 1999.

Коржанский Н.И. Квалификация хозяйственных преступлений. – Волгоград: 1984.

Кузнецов А.П., Устинов В.С. Ответственность за обман потребителей. – Н.-Новгород: 2000.

Рустамбаев М.Х. Ответственность за обман покупателей и заказчиков получения незаконного вознаграждения от граждан за выполнение работ. – Т.: ТашГУ, 1988. – 21 с.

Самилык Г.М. Уголовная ответственность за обман заказчиков. Автореф. дисс. канд. юрид. наук. – Киев: 1979.

Тацкий В.Я. Ответственность за хозяйственные преступления. – Харьков: ХарЮИ, 1979.

Тацкий В.Я. Понятие, система и общие виды хозяйственных преступлений. – Харьков: ХарЮИ, 1974.

Тацкий В.Я. Уголовная ответственность за выпуск недоброкачественной продукции. – Харьков: ХарЮИ, 1978.

Хо‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga qarshi jinoyatlar. Ilmiy-amaliy risola. (Mualliflar jamoasi). Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. R.A.Zufarov. –T.: TDYuU, 2016. – 96 b.

Ilmiy maqolalar

Abduqodirov Sh.Yo. Хо‘jalik (tadbirkorlik) foliyati sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirish dolzarb masalalari // Sud-huquq islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida jinoyat kodeksini unifikatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: TDYuU nashriyoti, 2015. – B. 44-51.

Абдурасулова К.Р. Ответственность за недобросовестную конкуренцию. // Новые кодексы Республики Ўзбекистан. Теория и практика. – T.: IV Oliy maktabi, 1994. – B. 48-52.

Абдухаликов М.А. Уголовная ответственность за незаконную торговлю или посредническую деятельность. // Ж. Вестник. O‘zbekiston Respublikasi Qoraqalpog‘iston akademiyasi. – 2002. – № 5-6. – B. 69-72.

Абдухаликов М.А., Холикулов У.Ш. Проблемные вопросы квалификации некоторых преступлений против основ экономики и преступлений, связанных с хозяйственной деятельностью. // Iqtisodiyot asoslari va хо‘jalik faoliyati bilan bog‘liq jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari (jinoiy huquqiy va kriminologik jihatlar). Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYuU, 2003. – B. 27-32.

Андрианов И. Уголовная ответственность за деятельность без лицензии. // Ж. Следователь. – 1999. – № 6.

Бубон В.К. Уголовно-правовой аспект борьбы с незаконным оборотом алкогольной продукции // Ж. Юридический мир. – 1999. – № 11.

Векленко В.В. Преступления против собственности как уголовно-

правовая фикция // Российский юридический журнал. – 2000. – № 3.

Жеребцов А.П. Проблема уголовной ответственности за незаконный оборот немаркированных товаров и продукции // Ж. Российский юридический журнал. – 2001. – № 1.

Kamalova D.G. Tadbirkorlik subyektlarini homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish jinoyati uchun javobgarlik // Sud-huquq islohotlari sharoitida O‘zbekiston Respublikasining xo‘jalik protsessual qonunchiligini takomillashtirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T. TDYuU, 2016. –B. 25-29.

Kurbanov M.M. Tadbirkorlik subyektlarining hisobvaraqlarida pul mablag‘lari mavjudligi to‘g‘risidagi axborotni qonunga xilof ravishda talab qilib olganlik uchun jinoiy javobgarlikning o‘ziga xos xususiyatlari // Jamiyat va huquq. Yosh olimlar ilmiy maqolalar to‘plami. –T.: TDYuU. 1-son, 2016. – B. 126-130.

Maxkamov O.M. Qonunchilikni takomillashtirish tadbirkorlik taraqqiy etishga xizmat qiladi. Advokat. Ijtimoiy-huquqiy, ilmiy-ommabop jurnal. –2017. □ 1 – B.24-27


Maxkamov O.M. Tijoratda pora evaziga og‘dirib olishning yuridik tahlili va uni kvalifikatsiya qilish xususiyatlari // Korrupsiyaga qarshi kurashish – jamiyat va davlat xavfsizligining garovidir. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (2016 yil 26 noyabr). –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2016. –B. 94-101.

Mirzayev U.M. Soxta tadbirkorlik uchun javobgarlikni dekriminalizatsiya qilish yuzasidan ayrim fikr-mulohazalar // Jinoyat huquqining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2014 yil 22 fevral. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – B. 86-90.

Salayev N.S. Imtiyozlar va preferentsiyalarni qo‘llashning g‘ayriqonuniy ravishda rad etish, qo‘llamaslik yoki qo‘llashga to‘sqinlik qilish jinoiy javobgarlik // “Jamiyat va huquq” yosh olimlar ilmiy maqolalar to‘plami. – 2015. №2. – B. 182-188.

V BOB. ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA TABIATDAN FOYDALANISH SOHASIDAGI JINOYATLAR

7-sxema



1-§. Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (JK 193-moddasi)

Tahlil qilinayotgan moddaning **asosiy bevosita obyekti** tabiatdan

oqilona foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilish yo‘li bilan xo‘jalik va boshqa faoliyat sohasidagi ekologik xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. Atrof muhitning salbiy o‘zgarishi, ekologik xavfsizlik norma va qoidalari buzilishidan kelib chiqqan inson sog‘lig‘i va hayotiga yetkazilgan zarar **qo‘shimcha obyekt** bo‘lishi mumkin.

NOTA BENE !

Atrof tabiiy muhit — o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan tabiiy obyektlar (havo, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi va h. k.) yig‘indisi.

Obyektiv tomondan jinoyat sanoat, energetika, transport, kommunal xizmat, agrosanoat, ilm-fan obyektlari yoki boshqa obyektlarni loyihalash, joylashtirish, qurish va ishga tushirib foydalanish normalari va qoidalarining buzilishida; davlat komissiyalarining a‘zolari tomonidan bu obyektlarning normativ hujjatlarda belgilangan qoidalarni buzib qabul qilinishi insonning o‘limi, odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, ekologiyaga salbiy ta‘sir qiladigan darajada atrof muhitning o‘zgarib ketishiga yoki boshqacha og‘ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lishida ifodalanadi.

Loyihalash deganda, vakolatli shaxsning maxsus qaroriga asosan amalga oshiriluvchi va huquqiy oqibatlarni keltirib chiqruvchi texnologik jarayonlar majmui tushuniladi. Obyektlarni loyihalash yakka (ijodiy) taklifni ilgari surish orqali amalga oshirilganda, agar atrof muhitni muhofaza qilish qoidalari buzilgan bo‘lsa ham, bu jinoyat tarkibining obyektiv tomonini hosil qilmaydi.

Obyektlarni joylashtirish — loyihalananayotgan inshoot, transport infratuzilmasi, aholi punktlari, ishlab chiqarish komplekslarining muayyan maydonda joylashuvini belgilash bo‘yicha faoliyat.

Qurish — yangi obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, qayta jihozlash va boshqacha barpo etish yoki mavjud obyektlarni qayta tashkil etish.

Ishga tushirish — qurilgan (rekonstruksiya, modernizatsiya qilingan)

obyektlarning bajaruvchi tomonidan qat'iy belgilangan yuridik shaklda topshirilishi va vakolatli shaxslar tomonidan qabul qilinishi, hujjatlarni va obyektning faktik holatini tekshirish jarayoni, harakatga keltirish, foydalanish, qo'llash.

Obyektlardan foydalanish — obyektlardan mahsulot olish, aholining yashashini ta'minlash uchun biror muayyan maqsadga muvofiq foydalanish.

Atrof muhit holatiga biron-bir tarzda ta'sir ko'rsatuvchi, sanoat, transport, kommunal xizmat, agrosanoat, ilmiy va boshqa obyektlarni loyihalash, joylashtirish, qurish va ishga tushirishda muayyan ekologik xavfsizlik normalari va talablariga rioya etilishi kerak. Masalan, atrof muhit holatiga bo'ladigan ta'sirlar albatta hisobga olinishi shart, atrof muhitning ana shu korxonalarining chiqindilari bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha zarur choralar ko'rilmog'i kerak; tabiiy resurslarning qayta ishlanishi hisobga olinishi zarur; obyektlarni barcha loyihalash ishlari va keyinchalik ularni qurish davlat ekologik ekspertizasi bilan kelishilgan holda va ularning ruxsati olinganidan keyingina amaldagi norma va qoidalarga muvofiq amalga oshirilmog'i lozim. Barcha obyektlar loyihalarida nazarda tutilgan jami iqtisodiy talablar bajarilgan taqdirdagina ular ishga tushishi mumkin.

Qurilishida va rekonstruksiya qilinishida ekologik xavfsizlik norma va qoidalariga rioya qilinmagan **sanoat, ilm-fan va boshqa obyektlarning davlat komissiyasi a'zolari tomonidan foidalanishga qabul qilinishi**, tahlil etilayotgan modda dispozitsiyasida ko'rsatilgan og'ir oqibatlar kelib chiqsagina, jinoiy qilmishni hosil qiladi.

Qabul qilish qoidalari obyektlarni qurish, ulardan foydalanish, rekonstruksiya qilish bilan shug'ullanuvchi tuzilma boshqaruvi tomonidan belgilanadi. Ekologik xavfsizlik norma va talablari ushbu qoidalar va idoraviy normativ hujjatlarda o'z aksini topgan.

Obyektiv tomondan JKning **193-moddasida** nazarda tutilgan jinoyat faol harakat orqali, shuningdek, harakatsizlik orqali ham sodir etilishi mumkin.

Ekologik xavfsizlik normalari va qoidalarining buzilishi

— amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ko'rsatmalardan farq qiluvchi xatti-harakat variantini tanlash.

Buzish taqiqlangan texnologik jarayonlardan, qoidalarda nazarda tutilmagan hisob-kitob metodikasidan foydalanish, ish bajarishni rad etish yoki ruxsatnoma va litsenziya shartlariga to'g'ri kelmaydigan faoliyat bilan shug'ullanish, tozalash inshootlariga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan yuklamani oshirish, ekologik xavfsizlik normalari va qoidalarida ko'rsatilgan vazifalarni bajarmaslik (tegishli xo'jalik va boshqa qarorlar qabul qilinayotganda uni hisobga olish kerak bo'ladigan ma'lumotlarni qabul qilmaslik yoki mensimaslik, davlat ekologik ekspertizasi o'tkazilishini rad etish, tegishli tozalash inshootlari qurilishini rad etish, nazorat o'lchovlarini bajarmaganlik)dan iborat.

Harakatsizlik ekologik xavfsizlik talablari va normalarida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslikdan iborat. Masalan, davlat ekologik ekspertiza xulosalarini bajarmaslik, davlat standartlarida qurilish va loyhalash uchun o'rnatilgan talablarni bajarmaslik va boshqalar.

Ekologik xavfsizlik normalari va talablarini buzish moddiy tarkibli jinoyat hisoblanadi. Insonning o'limi, odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, ekologiyaga salbiy ta'sir qiladigan darajada atrof muhitning o'zgarib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqishi tariqasidagi oqibatlar obyektiv tomonning zaruriy belgisi hisoblanadi.

NOTA BENE !

Odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi deganda, muayyan hududda qisqa vaqt oralig'ida ko'plab kishilarning kasallikka chalinishi tushuniladi.

Boshqacha og'ir oqibatlar deganda, atrof muhit sifatining yoki uning obykti holatining ekotsid, epidemiya tahdidini yuzaga keltiradigan darajada yomonlashuvi, yaqin vaqtda bartaraf etib bo'lmaydigan yoki katta moddiy xarajat bilan bartaraf etiladigan avariya; alohida obyektlarning nobud bo'lishi; yer degradatsiyasi va atrof muhitning boshqa salbiy o'zgarishlari tushuniladi.

Sharhlanayotgan jinoyat-huquqiy normaning qo'llanilishi to'g'risidagi masalani yechishda jinoyatning oqibati va ekologik muhitda ijtimoiy qadriyatlarning kamayish darajasini ifodalovchi miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinishi kerak. Shunday oqibatlar bo'lgan taqdirdagina shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish masalasi ko'riladi.

Jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi harakat bilan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishning mavjudligidir.

Dispozitsiyada sanab o'tilgan qilmishlar va kelib chiqqan oqibatlar o'rtasida sababiy bog'lanish ekologiya xavfsizligi normalari va talablari buzilishida aks etgan qilmish hamda kelib chiqqan oqibatlar o'rtasidagi qonuniyatli zaruriy bog'liqlik mavjudligini aniqlash qoidalari bo'yicha belgilanishi lozim.

Harakat bilan oqibat o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lishi majburiydir va zararli oqibatlar atrof muhitni muhofaza qilish qoidalarini buzishdan kelib chiqqanligini (boshqa yoki qo'shimcha omillar orqali kelib chiqmaganligini) bildiradi. Ko'rsatib o'tilgan oqibatlar bilan harakat o'rtasidagi sababiy bog'lanish ekspert yoki tabiiy fanlar (geologiya, gidrometereologiya, atmosfera fizikasi va boshq.) sohasidagi mutaxassislar xulosasi bo'yicha belgilanadi.

Ekspertlar tomonidan foydalaniladigan normativlar mavjud. Masalan, suvning ifloslanish darajasini aniqlash unda zararli moddalarning ruxsat etilgan kontsentratsiya normativlari bo'yicha o'rnatiladi. Sog'liqni saqlash qonunchiligi oqava suvlarni samarali tozalash, zararli chiqindilarni yo'q qilishni ta'minlamaydigan yangi va rekonstruksiya qilingan korxonalar, tsex va boshqa ishlab chiqarish obyektlari qurishni taqiqlaydi.

Jinoyat ekologik xavfsizlik norma va qoidalarini buzishdan yuzaga kelgan oqibat kelib chiqqan vaqgdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan (egri qasd bilan) yoki ehtiyotsizlikdan sodir etiladi. Shaxs ekologik xavfsizlik norma va qoidalarini buzayotganligini anglaydi, ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligiga uning ko'zi etadi, ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi va kelib chiqqan oqibatlarga beparvo munosabatda bo'ladi.

Ekologik xavfsizlik norma va qoidalarini buzishning subyektini maxsus, ya'ni o'zining xizmat holati bo'yicha atrof tabiiy muhit qoidalari va ekologik xavfsizlik normasiga rioya etilishiga mas'ul 18 yoshga to'lgan mansabdor shaxslar hisoblanadi. Ularga atrof muhitga nisbatan foydalanuvchi yoki tabiiy resurslardan foydalanuvchi yoxud tabiatni muhofaza qilish va undan foydalanish ustidan nazorat qilish funksiyasini bajaruvchi mansabdor shaxslar kiradi.

Bundan tashqari, obyektlarni qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tarkibiga kiruvchi arxitektura-loyiha boshqarmasi, ilm fan, sanoat korxonalari, qurilish tashkilotlari, kommunal xizmat organlari va mahalliy hokimiyatning mansabdor shaxslari ham **jinoyat subyektini** bo'lishi mumkin.

Asosiy o'rinni davlat, jamoat muassasalari, tashkilotlar va korxonalar ishchilarining xizmat vakolatlari ko'rsatilgan idoraviy normativ hujjatlar: ustav, yo'riqnoma va buyruqlar egallaydi. Subyektning javobgarligi hal qilinayotganda bu normativ hujjatlardan foydalanish kerak.

2-§. Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish (JK 194-moddasi)

Kimyoviy, metallurgiya va shu turdagi ishlab chiqarish korxonalari boshqa ishlab chiqarish korxonalariga qaraganda atrof tabiiy muhitni ko'p darajada ifloslantiradi. Mazkur korxonalarining mas'ul mansabdor shaxslari insonlar hayoti va sog'lig'i yoki tirik tabiat zarar yetkazishi mumkin bo'lgan radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriologik va boshqa xavflar haqida Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va Vazirlar Mahkamasiga ma'lumotlarni taqdim etib boradilar¹.

Tahlil qilinayotgan moddaning **maqsadi** atrof muhitning normal holatini saqlash va tegishli mansabdor shaxslar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida atrof tabiiy muhitni doim nazorat qilish orqali inson

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 9 декабрдаги «Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида»ги 754-ХП-сон Қонуни, 38-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 1-сон, 38-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й., 6-сон, 118-модда; 1997 й., 4-5-сон, 126-модда; 1999 й., 1-сон, 20-модда; 2000 й., 5-6-сон, 153-модда; 2000 й., 7-8-сон, 217-модда; 2002 й., 9-сон, 165-модда; й., 9-10-сон, 149-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, й., 25-сон, 287-модда; 51-сон, 514-модда; 2006 й., 41-сон, 405-модда.

hayoti hamda sog‘lig‘i, o‘simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek, tabiatning boshqa obyektlari uchun kelib chiqishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarining oldini olishdan iborat.

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** xo‘jalik yurituvchi komplekslarning tegishli tarmoqlarida ekologik xavfsizlikni ta‘minlashdan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar hamda atrof muhit, o‘simlik va hayvonot dunyosidir, **qo‘shimcha bevosita obyekt** — inson hayoti va sog‘lig‘i hisoblanadi.

Jinoyatning **obyektiv tomoni** zararli ekologik oqibatlarni keltirib chiqargan avariya va atrof tabiiy muhitning boshqacha tarzda ifloslanganligi haqidagi ma‘lumotlarning qasddan yashirilishi va buzib taqdim etilishi natijasida atrof muhitga, inson sog‘lig‘i va hayotiga hamda hayvonot va o‘simlik dunyosiga zarar va shikast yetkazishda ifodalanadi. Bunday qilmishlar harakat yoki harakatsizlik oqibatida sodir etilishi mumkin.

Qasddan ma‘lumotlarni yashirish deganda, inson hayoti va sog‘lig‘i yoki atrof muhitga xavf tug‘diradigan holatlar haqida xabar berilishi shart bo‘lgan ma‘lumotlarni, bunday ma‘lumotlarni qabul qilishga huquqi bor yoki qabul qilishga muhtoj bo‘lgan tegishli shaxslarga yetkazmaslik tushuniladi. Yashirish bunday ma‘lumotlarni taqdim etishga majbur bo‘lgan shaxs tomonidan buzib ko‘rsatish yoki yashirish orqali haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma‘lumotlarni taqdim etish yo‘li bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Qasddan yashirish javobgar shaxsning atrof muhit, inson hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soladigan hamda zarar yetkazadigan avariya va ifloslanganlik haqida tegishli organ yoki mansabdor shaxslarga o‘z vaqtida xabar berish bo‘yicha chora ko‘rmaganlik ko‘rinishidagi passiv harakatsizlikda ifodalanishi mumkin.

Buzib ko‘rsatilgan ma‘lumotlar deganda, atrof muhit inson hayoti yoki sog‘lig‘i yoxud boshqa obyektlarga zarar va shikast yetkazgan yoki yetkazish xavfini tug‘diradigan fakt va holatlarga tegishli bo‘lgan to‘liq bo‘lmagan yoki ishonchsiz, ya‘ni haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma‘lumotlarni tushunish kerak. Ma‘lumotlarni buzib ko‘rsatish aktiv harakatda ifoda etilishi mumkin.

Jinoyat kodeksining **194-moddasida** javobgarlik belgilangan atrof-muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirganlik deganda, aybdor shaxs ekologik vaziyatning ahvoli to'g'risida umuman yoxud o'z vaqtida ma'lumot bermaganlik harakatlarini (harakatsizligini) tushunmoq lozim. Bunday ma'lumotlar haqiqatga muvofiq kelmasa (atrof-muhitning ifloslanganligi ko'rsatkichlarini kamaytirib ko'rsatish va hokazolar), ular buzilgan hisoblanadi¹.

Ekologik oqibatlar ta'siridagi avariya deganda, xo'jalik va boshqa faoliyatda yuzaga kelgan, atrof tabiiy muhitdagi doimiy salbiy o'zgarishlar, insonlarning sog'lig'iga xavf soladigan, ekologiyaning tabiiy tizimiga, o'simlik va hayvonlarning genetik fondiga bo'lgan ta'sirni tushunish lozim.

NOTA BENE !

Atrof muhitning ifloslanishi deganda, xo'jalik va boshqa faoliyat, tabiiy kuchning halokatli ta'siri, falokat yoki ofat oqibatida inson sog'lig'iga, tabiiy ekologik tizimga, o'simlik va hayvonlarning genetik fondlari holatiga tahdid soluvchi atrof tabiiy muhitning doimiy salbiy o'zgarishi sodir bo'ladigan hududni, shuningdek, suv va havo bo'shliqlarining radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriologik yoki boshqacha ifloslanishi tushuniladi.

Atrof muhitning ifloslanish hududi — havo, suv, hududiy bo'shliqning muayyan qismi, shuningdek, tabiiy muvozanatning buzilishi, tabiiy ekologik tizimning ishdan chiqishi bilan bog'liq bo'lgan atrof muhitning doimiy yoki qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishi sodir bo'lgan yoki bo'layotgan yer qa'ri uchastkasidir.

Atrof muhitning radiatsiyaviy ifloslanishi deganda, tuproqda, suvda, atmosfera havosida, o'simliklarda radionukleidlarning tabiiy miqdoriga nisbatan yomonlashuvida, aholining nurlanish ekvivalent dozasining, atrof

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабр- даги «Атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги жи- ноятлар ва бошқа ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳа- қида»ги 36-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшим- чалар билан) // Тўплам, 1- жилд. — 69-б.

muhitda radionukleidlarning konsentratsiyasining belgilangan normadan oshishida va ionlashtiruvchi nurlanishning kuchida ifodalanuvchi radiatsiyaviy fonning o'zgarishi tushuniladi.

Tabiiy radiatsiyaviy fon — kosmik nurlanish orqali hamda yerda, suvda, havoda, biosferaning boshqa elementlarida, oziq-ovqat mahsulotlarida va inson organizmida tabiiy ravishda taqsimlangan tabiiy radionukleidlarning nurlanishi orqali hosil bo'ladigan nurlanish dozasi.

Texnogen ravishda uzgargan radiatsiyaviy fon — inson faoliyati natijasida o'zgargan tabiiy radiatsiyaviy fon. Agar radiatsiyaviy fonning o'zgarishi atrof muhitning ifloslanishiga olib kelsa, u ijtimoiy xavfli deb topiladi.

Atrof muhitning kimyoviy ifloslanishi — atrof tabiiy muhitning genetik fondlari holatiga tahdid soluvchi kimyoviy moddalar, chiqindilar va boshqa turdagi kimyoviy ifloslanishni chiqarib tashlash oqibatida kelib chiqqan doimiy salbiy o'zgarishidir.

Atrof muhitning bakteriologik ifloslanishida tabiiy muhitda, atmosferada, suv yoki tuproqda hamda o'simlik va hayvonot olamida tabiiy ekologik tizim, o'simlik va hayvonlarning genetik fondlari hamda insonlarning holati o'zgarishiga potentsial yordam beruvchi bakteriologik moddalar bilan bog'liq doimiy salbiy o'zgarishlar ro'y bergan yoki berishi mumkin bo'ladi.

Atrof muhitning inson hayoti yoki sog'lig'iga yoxud tabiatga xavfli bo'lgan boshqacha ifloslanishi deganda, radiatsiyaviy, kimyoviy yoki bakteriologik moddalar bilan bog'liq bo'lmagan, toksik va boshqa moddalarni tashlash yoki chiqarish oqibatida atrof muhit jiddiy o'zgaradigan ifloslanish tushuniladi (masalan, neft, gaz, ekinzor maydonlariga nazorat qilib bo'lmaydigan tarzda o't ketishi va hokazolar).

Tahlil qilinayotgan modda dispozitsiyasiga muvofiq, **aholi sog'lig'ining holati to'g'risidagi ma'lumotlarni** yashirish yoki buzib ko'rsatish ham jinoyat hisoblanadi.

Bunda aholi sog'lig'ining holati to'g'risidagi ma'lumotlar deganda, insonlarning epidemiologik xususiyatga ega va sog'lom kishilarda kasallikni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan kasalliklar to'g'risidagi

ma'lumotlar tushunilishi darkor.

Jinoyatni **tugallangan** deb topish uchun, ma'lumotlarni yashirish yoki buzib taqdim etish natijasida sharhlanayotgan moddaning dispozitsiyasida ko'rsatilgan oqibatlar — aholining ommaviy kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlar kelib chiqqan bo'lishi kerak. Boshqa hollarda ma'muriy javobgarlik yuzaga keladi.

Aholining ommaviy kasallanishi deganda, ikki yoki undan ortiq shaxsda organizmning biologik xususiyatlarida patologik o'zgarishlar ro'y berishi, sog'liqning jismoniy, ruhiy yoki boshqacha buzilishi tushuniladi.

Hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning ommaviy qirilib ketishi deganda, bir vaqtning o'zida hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning bir yoki bir necha turlari, muayyan hududda, bir yoki bir necha obyektlarda ko'p miqdorda nobud bo'lishi tushuniladi. Bunda nobud bo'lishning ommaviyligi hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning turlari, ularni qayta tiklash darajasiga qarab, har bir muayyan hodisadan kelib chiqib aniqlanadi.

Boshqa og'ir oqibatlar deganda, ko'p va juda ko'p miqdorda moddiy zarar yetkazish, aholini ko'chirish, bino va boshqa xo'jalik obyektlarini buzish zaruriyati, ulardan to'g'ri maqsadga muvofiq foydalanishning iloji yo'qligi, biror-bir hayvon yoki o'simlik turining yo'q bo'lishi tushuniladi.

Kelib chiqqan oqibat bilan ekologik oqibatli falokat yoki atrof muhitning radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriologik va insonlar hayoti yoki sog'lig'i uchun yoxud tirik tabiat uchun xavfli bo'lgan boshqa ifloslanishga olib kelgan aholi sog'lig'ining holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq taqdim etish majburiyatini buzish o'rtasidagi sababiy bog'lanish jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri yoki egri qasddan sodir etiladi. Aybdor shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaydi, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi etadi va ularning yuz berishini istaydi va ongli ravishda ularning yuz berishiga yo'l qo'yadi. Bunday ma'lumotlarni ehtiyotsizlikdan taqdim etmaslik yoki ularni buzib taqdim etish jinoyat tarkibini bermaydi.

Jinoyatning subyekti 18 yoshga to‘lgan, yuqorida ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni taqdim etishga maxsus vakolatli bo‘lgan shaxs bo‘lishi mumkin. Bunday shaxslarga rahbarlar, ularning o‘rinbosarlari, bosh muhandislar, atrof muhitni muhofaza qilish inspektorlari hamda atrof muhitning ehtimol tutilgan ifloslanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar xavfsizligiga mas‘ul bo‘lgan, bunday ma‘lumotlarni mustaqil ravishda taqdim etish huquqiga ega korxonalar xodimlari kiradi. Tegishli ma‘lumotlarni taqdim etish davlat, idora, jamoat muassasasi hamda mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, korxonalar, tashkilot va muassasa ishchilarining u yoki bu xizmat vakolatlarini belgilab beruvchi qonun, ustav (ta‘sis hujjatlari va ichki nizom), ko‘rsatma, buyruqlarga ko‘ra ularning majburiyati hisoblanadi. Sharhlanayotgan harakatni sodir qilganlik uchun muayyan shaxsning javobgarligi to‘g‘risidagi masala ko‘rilayotganda ekologik oqibatli falokat yoki atrof muhitning radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriologik va insonlar hayoti yoki sog‘lig‘i yoxud tirik tabiat uchun xavfli bo‘lgan boshqa ifloslanish, aholi sog‘lig‘ining holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etish bo‘yicha majburiyatni belgilash maqsadida lokal normativ hujjatlardan ham foydalanish zarur.

(«Mansabdor shaxs» tushunchasiga JK 205-moddasi tahliliga qarang.)

Maxsus vakolatga ega mansabdor shaxs — bu faoliyati atrof tabiiy muhit holati yomonlashishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan davlat organlarining hamda korxonalar, muassasa, tashkilotlarning mansabdor shaxslari.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo‘yicha davlat boshqaruvini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, davlat boshqaruvi mahalliy organlari amalga oshiradi¹.

Agar JK 194-moddasi 1-qismi dispozitsiyasida ko‘rsatilgan harakatlar natijasida bitta odam o‘lsa ham, **sharhlanayotgan moddaning 2-qismi** bo‘yicha javobgarlik yuzaga keladi.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 9 декабрдаги «Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида»ги 754-ХП-сон Қонуни, 8-модда.

3-§. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko‘rmaslik (JK 195-moddasi)

Tahlil qilinayotgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi shundan iboratki, unda atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko‘rmaslik natijasida atmosfera, suv resurslari, o‘simlik dunyosi ifloslanadi, hayvonot dunyosi zaharlanadi, ruxsat etilgan zararli moddalarning sanitariya-gigiyena normativiga rioya qilinmaydi, bu esa, o‘z navbatida, inson hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soladi.

Konunchilik respublikada ekologik vaziyat holati ustidan doimiy tegishli nazorat o‘rnatish vazifasini qo‘yib, atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko‘rmaganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Atrof tabiiy muhitning yo‘l qo‘yilgan ifloslanish faktlari o‘z vaqtida qayd qilinibgina qolmay, balki bunday ifloslanishning zararli oqibatlarini bartaraf etishga mas‘ul shaxslar qonun bilan ularga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishlari shart.

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** O‘zbekiston Respublikasida ekologik barqarorlikni ta‘minlash sohasida yuzaga keladigan va shakllanadigan ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyatning bevosita obyekti atrof tabiiy muhit, ekologik xavfsizlik hisoblanadi. Inson hayoti yoki sog‘lig‘i, davlatimizning iqtisodiy manfaatlari **qo‘shimcha bevosita obyekt** bo‘lishi mumkin.

Obyektiv tomondan ekologiyasi ifloslangan joylarni dezaktivatsiya qilish yoki boshqacha tarzda tiklash choralarini ko‘rishdan bo‘yin tovlash yoxud bunday ishlarni yetarli darajada bajarmaslik odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lgan jinoiy harakatlarda ifodalanadi.

Tahlil qilinayotgan jinoyat faol harakat va harakatsizlik orqali sodir etilishi mumkin.

Harakatsizlik — mansabdor shaxs tomonidan ekologik ifloslanishga uchragan hududlarni dezaktivatsiya qilish yoki boshqacha tarzda tiklash choralarini ko‘rishdan bo‘yin tovlashida ifodalanadi.

Faol harakatlar esa dezaktivatsiya qilish yoki boshqacha tarzda tiklash

choralarining to'la amalga oshirilmaganligida yoki qayta tiklash choralari ko'rish zaruriyati bo'lmagan hududlarda qayta tiklash choralarining o'tkazilishida ifodalanadi.

Dezaktivatsiya qilish yoki boshqacha tarzda tiklash choralarini ko'rishdan bo'yin tovlash yoxud bunday ishlarni yetarli darajada bajarmaslik jinoyatining oqibati odamlarning ommaviy kasallanishi yoki atrof tabiiy muhitga boshqacha og'ir oqibatlar yetkazilishi bilan bog'liqdir.

Harakat bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasida bevosita sababiy bog'lanish belgilangan bo'lishi kerak. Jinoyat oqibat (odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlar) yuzaga kelgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb topiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan yoki **ehtiyotsizlikdan** sodir etilishi mumkin (masalan, qasddan xizmat vazifasini bajarishdan bo'yin tovlash, o'zining majburiyatiga beparvo yoki o'ziga o'zi ishongan holda munosabatda bo'lish yoxud harakatga nisbatan qasddan, kelib chiqqan oqibatga nisbatan esa ehtiyotsizlikdan — aybning murakkab shakli).

Jinoyatning subyekti maxsus bo'lib — 18 yoshga to'lgan, xizmat, professional yoki boshqa funktsiyalarni bajarish munosabati bilan ekologiyasi ifloslangan joylarni dezaktivatsiya qilish yoxud boshqacha tarzda tiklash choralarini ko'rish vazifasi yuklatilgan shaxs. Ularga korxonalar, muassasa rahbarlari, bosh muhandislar, ularning o'rinbosarlari va hokazolar kiradi.

Sharhlanayotgan moddaning 2-qismida bir yoki undan ortiq shaxsning o'limi kelib chiqqanligi uchun javobgarlik belgilangan.

4-§. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish (JK 196-moddasi)

Atrof muhitning ifloslanishi deganda, xo'jalik va boshqa faoliyat, tabiiy kuchning halokatli ta'siri, falokat yoki ofat oqibatida inson sog'lig'iga, tabiiy ekologik tizimga, o'simlik va hayvonlarning genetik fondlari holatiga tahdid soluvchi atrof tabiiy muhitning doimiy salbiy o'zgarishi sodir bo'ladigan hudud, shuningdek, suv va havo

bo'shliqlarining radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriologik yoki boshqacha ifloslanishi tushuniladi.

Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi natijasida epidemiyalar, epizootiyalar, tabiiy muvozanatning buzilishiga sabab bo'luvchi biologik zaharli moddalar paydo bo'ladi.

Jinoyatning **asosiy bevosita obykti** — yer, suv va atmosfera havosini ifloslanishdan muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar. Jinoyatning **qo'shimcha bevosita obykti** inson hayoti va sog'lig'ini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar.

Tahlil qilinayotgan moddaning **predmeti** yer, suv va atmosfera havosi bo'lishi mumkin. (Er — O'zbekiston Respublikasining yagona yer fondiga kiruvchi yer uchastkasining har qanday turi; yer usti (daryo, ko'l, suv omborlari) yoki yer osti suvlari, muzlik hamda ichimlik suvi ta'minoti manbalari; atmosfera, havo, uning tabiiy xossalari.)

Yer deganda, ishlab chiqarish va boshqa maqsadlarda foydalaniladigan, O'zbekiston Respublikasining yagona yer fondiga kiruvchi quruqlikning ustki qismi, O'zbekiston Respublikasi hududi, kenglik, uchastka hamda yer qa'ri, tuproq tushuniladi.

Suv obyektlari deganda, saqlash va suv aloqasi uchun foydalaniladigan hamda atrof tabiiy muhitning ajralmas qismi hisoblangan tabiiy va sun'iy obyektlar tushuniladi.

Suvning ustki qatlami bu doimiy yoki vaqtinchalik suvning ustki qatlamidagi obyektlar bo'lib, uning mazmunida relief shaklidagi quruqlikning ustki qatlamida chegara, hajm va suv rejimining xususiyatlariga ega suvning to'planishi tushuniladi. Yuza qismidagi suv obyektlari (daryo, kanal, hovuz, suv ombori va boshq.) yuzadagi suv, tub va sohildan tashkil topgan.

Yer osti suvlariga suvlar, shuningdek, yer ostida suv obyektlarida joylashgan minerallar kiradi. Yer osti suv obyektlari — tog'lardagi ma'lum chegara, hajm va suv rejimi xususiyatlariga ega gidravlik bog'liqlikdagi suvning to'planishidir.

Ichimlik suvi ta'minotining manbai ifloslanmagan va bulg'alanmagan, iste'mol qilish uchun mo'ljallangan yer osti va yer usti suv obyektlari

bo'lib hisoblanadi. Yer osti va yer usti suvlaridan toza ichimlik suvi sifatida foydalanish davlat sanitariya-epidemologik nazorati organlari tomonidan belgilanadi.

Atmosfera havosi — atmosferaning turar joy, ijtimoiy va ishlab chiqarish binosi hamda ishlab chiqarish hududidan tashqarida bo'lgan, yerning evolyutsiyasi davomida shakllangan yerga yaqin qavati gazlarining tabiiy aralashmasi. Ularning ifloslanishi mehnatni muhofaza qilish va ishlab chiqarishdagi xavfsizlik qoidalarini buzish kabi jinoyat tarkibini keltirib chiqarishi mumkin.

Obyektiv tomondan jinoyat yer, suv yoki atmosfera havosining buzilishi, ifloslanishi va tabiiy xususiyatlarining boshqacha tarzda o'zgarishidan iborat harakat yoki harakatsizlik, jinoiy oqibat, harakat bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishda ifodalanadi.

Yer, suv, atmosferaning ifloslanishi va buzilishi deganda, o'zini o'zi tozalashga bo'lgan tabiiy qobiliyatini pasaytiradigan fizik, kimyoviy, biologik xususiyatlarga ta'sir tushuniladi.

Yerning buzilishi — uning unumdor qavatining buzilishiga va qirilib ketishiga olib keluvchi harakat (harakatsizlik).

Ifloslantirish — yerga xarakterli bo'lmagan fizik, kimyoviy, biologik modda, organizmlarni kiritish.

Suvning ifloslanishi deganda, suv tarkibining (fizik, kimyoviy va boshqa) o'zgarishlari tushunilib, buning oqibatida suv tozaligi belgilangan normativlardagidan ko'ra ko'proq ifloslanadi. Odatda, suvning ifloslanishi suvga sanoat ishlab chiqarishi chiqindilari oqizilishi, zaharli biologik moddalar, zaharli kimyoviy dorilarni saqlash qoidalari buzilishi va h.k.lar natijasida sodir bo'ladi. Oqibatda suvning ifloslanganlik darajasi ortib, insonga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Suvning kamayishi deganda, yuzaki va sizot suvlarning zaxiralari izchil qisqarib borishi va ular sifatining yomonlashuvi tushuniladi.

Yuzaki va sizot suvlar, ichimlik suvi bilan ta'minlash manbalari tabiiy xossalarning o'zgacha tarzda o'zgarishi deganda, biologik, fizik yoki kimyoviy xossalarning har qanday jiddiy o'zgarishi tushuniladi. Bu bevosita suv obyektida yoki uning yaqinida turli (portlatish, qurilish va

boshqa) ishlar bajarilishi natijasi bo‘lishi mumkin.

Suvning ifloslanishi, odatda, sanoat ishlab chiqarishi chiqindilari suvga tashlanishi, kimyoviy, biologik moddalar, zaharli ximikatlar va hokazolarni saqlash qoidalarining buzilishi natijasida yuz beradi.

Atmosfera havosining ifloslanishi deganda, atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib yuborish qoidalarining buzilishi, buning natijasida havoda zaharli moddalarning yo‘l qo‘yiladigan eng yuqori miqdori oshib ketishi tushuniladi. Masalan, korxonadan tozalash filtrlarini qo‘llamaslik.

Ifloslanish darajasini belgilayotganda yer, suv va atmosfera havosida zararli moddalar yo‘l qo‘yiladigan konsentratsiyani o‘rnatadigan normativlarga amal qilish kerak. Sog‘liqni saqlash qonunchiligi oqava suvlarni tozalash, zararli chiqindilarni yo‘q qilishni ta‘minlamaydigan yangi va rekonstruksiya qilingan korxonalar, tsex va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini qurishni taqiqlaydi.

Tahlil qilinayotgan modda doirasida harakat bilan oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish shundan iboratki, harakat atrof muhitning tabiiy xususiyatlari o‘zgarishiga olib kelishi kerak. Bu o‘zgarishlar o‘zining yangi xususiyatlari bilan, masalan, mexanik aralashma miqdorining zararli moddalar bilan ko‘payishi yoki tabiiy obyektlardan birining fizik hajmi kamayishi bilan boshqa muhofaza qilinadigan obyektlar holati o‘zgarishini (odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og‘ir oqibatlar, shuningdek, inson o‘limi va hokazolarni) keltirib chiqaradi. Biroq, agar tabiiy muhit yoki uning obyektlaridan biri ifloslanishi bilan birga hayvon, parranda yoki baliq zaxirasining populyatsiyasi boshqa sababdan yuzaga kelgan epizootiya natijasida qirilib ketsa, u holda sababiy bog‘lanish bo‘lmaydi.

Jinoyat ko‘rsatilgan har qanday oqibat (inson sog‘lig‘iga zarar yetkazish, shuningdek, inson o‘limi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og‘ir oqibatlar) yuzaga kelgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan **jinoiat** qasddan **yoki** ehtiyotsizlikdan **sodir**

etiladi.

Jinoyat **subyekt**i 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Tahlil qilinayotgan **moddaning 2-qismi** inson o'limi ko'rinishidagi ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishini nazarda tutadi.

5-§. Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish (JK 197-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekt**i yer va yer osti boyliklaridan foydalanish va uni muhofaza qilishning belgilangan tartibi hisoblanadi.

Jinoyatning predmeti yer bag'ri va yer qa'ri.

(«Yer» tushunchasi JKning 196-moddasida batafsil tahlil qilingan.)

«Yer davlat mulki — umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi predmeti hisoblanmaydi, ayirboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan hollar bundan mustasnodir» (O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 16-moddasi).

Yer qa'ri — yer qobig'ining tuproq qatlamidan quyida joylashgan, tuproq qatlami bo'lmaganda esa yer yuzasidan yoki suv obyektlari tubidan quyida joylashgan, geologik jihatdan o'rganish va o'zlashtirish mumkin bo'lgan chuqurlikkacha yastangan qismi.

Yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish yer va ekologiya qonunchiligining ko'plab umumiy va maxsus normativ hujjatlari bilan tartibga solinadi: O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi¹, O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 13 dekabrda «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi Qonuni² va boshqa huquqiy hujjatlar³.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси (Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 30 апрелдаги 598-I -сон Қонуни билан тасдиқланган, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1998 йил 30 апрелдаги 599-1-сон қарори билан амалга киритилган) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сон, 82-модда; 2003 й., 9-10-сон, 149-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда, 51-сон, 514-модда; 2007 й., 52-сон, 533-модда; 2009 й., 3-сон, 9-модда.

² Qarang: Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 23 сентябрдаги «Ер ости бойликлари тўғрисида»ги 2018-ХП-сон Қонуни (Ўзбекистон Республикаси 2002 йил 13 декабрдаги 444-П-сон Қонунининг таҳририда), 2-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 1-сон, 5-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 50-51-сон, 512-модда.

³ Масалан, қаранг: Ер қаъри участкаларидан фойдаланиш ҳуқуқини бериш тартиби ва шартлари тўғрисидаги Низом (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 7 июндаги ПҚ 001-649-сон қарорига илова) // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 24-сон, 247-модда.

Obyektiv tomondan jinoyat yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish natijasida og‘ir oqibatlar kelib chiqishida namoyon bo‘ladi.

Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish harakatlari harakat yoki harakatsizlik ko‘rinishlarida sodir etilishi mumkin.

Yer va yer osti boyliklaridan foydalanish shartlari yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzishdan iborat **harakatlar** tuproqning ifloslanishi, axlat bosishi, sho‘rlanishi, zaxlanishi, qaqrab ketishi, qayta zanglanishida, eroziyada, tuproqning unumdor qatlami buzilishi, yaroqsiz holatga kelishida, tuproqning bakteriologik, parazitlar va yuqumli kasalliklar bilan kasallanishida, yer sifatini, unumdorligini pasaytiruvchi yerning suv bosishi, suvga to‘lishi, yong‘inlarda hamda ishlab chiqarish chiqindilarini joylashtirish, oqava suvlarini chiqarib tashlashda, foydali qazilmalarni kavlab oladigan korxonalar va foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog‘liq bo‘lmagan yer osti inshootlarini konservatsiya va yo‘q qilish tartibini buzishda, ichimlik va sanoat suvlari bilan ta‘minlash uchun yer osti suvlari to‘planadigan joylarda sanoat chiqindilari to‘planishida ifodalanadi.

Harakatsizlik yer va yer ostidan foydali tabiiy xossalarni, asosiy va ular bilan chiqadigan foydali qazilmalar hamda komponentlar zaxirasini, agar bunga real imkoniyat bo‘lsa, to‘la-to‘kis chiqarib olishni ta‘minlash bo‘yicha choralarni ko‘rmaslikda, foydali qazilmalarni kavlab olish litsenziyasi shartlariga rioya etmaslikda, yer qanirini to‘la-to‘kis va yetarli darajada o‘rganishni o‘tkazmaslikda ifodalanadi.

Jinoyat tahlil qilinayotgan modda dispozitsiyasida ko‘rsatilgan qilmishlarni sodir etish natijasida og‘ir oqibatlar kelib chiqqan vaqtdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish natijasida kelib chiqqan **og‘ir oqibatlarga** odamlarning kasallanishi, hayvonot va o‘simliklarning qirilib ketishi, qishloq xo‘jalik ekinlari unumdorligi pasayishi hamda xizmat sohasining yemirilishi, yerning ustki qismida bo‘shliqlar hosil bo‘lishi, foydali qazilmalar o‘z qimmatli xususiyatini yo‘qotganligi uchun ularni kavlab

olish to'xtatilishiga olib kelgan atrof tabiiy muhitga zararli ta'sirini kiritish mumkin.

Subyektiv tomondan jinoyat egri qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilishi mumkin. Shaxs yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzishning ijtimoiy xavfliligini anglaydi, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga olib kelishiga ko'zi etadi va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi yoki bunga beparvo munosabatda bo'ladi. Aybning ehtiyotsizlik shakli — yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzgan shaxs og'ir oqibatlar kelib chiqishi mumkinligiga ko'zi yetib, ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda, bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilganlikda yoki og'ir oqibatlar kelib chiqishi mumkinligiga ko'zi etmasada, lekin ko'zi etishi lozim va mumkin bo'lganligida ifodalanadi.

Jinoyat **subyekt** — 16 yoshga to'lgan, yer, yer osti boyliklaridan foydalanish bo'yicha xo'jalik va boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

6-§. Ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish (JK 198-moddasi)

Jinoyatning **bevosita asosiy obyekt** o'rmon, ekinzor va boshqa dov-daraxtlarni atrof tabiiy muhitning tabiiy qismi va boyligi sifatida ulardan tegishli darajada foydalanish yo'li bilan saqlashni ta'minlash sohasida yuzaga keladigan va shakllanadigan ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyat sodir etilishi natijasida nobud bo'lgan meva, mahsulotlarga bo'lgan mulk huquqi **qo'shimcha bevosita obyekt** bo'lishi mumkin.

Jinoyatning **predmeti** o'rmonlardagi daraxt, butazorlarning har xil turlari hamda o'rmon fondiga kirmaydigan yoki kesish taqiqlangan daraxtlar, butazor, ekinzor va boshqa dov-daraxtlardir.

Ekin deganda, daraxt ko'chatlari, buta o'simlik va boshqa o'simliklar, sun'iy o'tqazilgan daraxt ko'chatlari hamda unib chiqmagan urug'lar tushuniladi.

O'rmon — yer, daraxt, buta va boshqa o'simliklar, hayvonlar,

parrandalar, mikroorganizmlar va boshqa tabiat unsurlarining jamidir.

Obyektiv tomondan JK 198-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan jinoyat olov bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lmaslik natijasida ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoxud ularni nobud qilish, ko'p miqdorda zarar yetkazilishi yoki boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lishida ifodalanadi.

Ekinzor, o'rmon va boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish — bu ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga qisman zarar yetkazish, ya'ni muayyan sarf-xarajatlardan va kuch ishlatib ularning dastlabki holatini tiklash imkoniyati bo'lgan hollar.

Ekinzor, o'rmon va boshqa dov-daraxtlarni nobud qilish — bu ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarning batamom yonib ketishi va h.k.

Olov bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lmaslik o'rmon ichida yoki o'rmon yaqinida yong'in xavfsizligi qoidalariga yoki o'rmonda bo'lish, unda xo'jalik faoliyati yoki boshqa faoliyat bilan shug'ullanish qoidalariga rioya qilmaslikdan iborat harakatlarda namoyon bo'ladi.

JK 198-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat, agar olov bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lmaslik natijasida ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga ko'p miqdordagi zarar yetkazilsa yoki ular nobud qilinsa yoxud boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqsa, **tugallangan** jinoyat deb topiladi.

Etkazilgan zarar miqdorini baholashda o'rmon xo'jaligi mutaxassislari xizmatiga murojaat etish zarur, ular yong'inga duchor bo'lgan maydonni, daraxtlar maydonini, navlarini va hokazolarni hisobga olishlari kerak.

Etkazilgan zarar miqdorini baholashda sud yong'in maydoni, yong'inda nobud bo'lgan daraxtlar (etilgan, etilib kelayotgan) miqdori, yong'inda nobud bo'lgan yoki shikast etgan o'rmon massivlaridagi o'rmon kategoriyasi, daraxtlarning navi va ularning xo'jalik, maxsus, ilmiy va boshqa qimmatini hisobga olgan holda har bir muayyan holatdan kelib chiqishi kerak. Undan tashqari, masalan, suvni tartibga soluvchi va tabiatni muhofaza qilish xususiyatiga ega bo'lgan, sun'iy o'stirilishi qiyin bo'lgan tog' archali o'rmon massiviga shikast yetishi yoki ularning nobud bo'lishi

yoxud qo'riqxonalarda o'suvchi, respublikada mevachilikni o'rganish va rivojlantirish uchun seleksiya-genetika fondini tashkil etuvchi subtropik va boshqa qimmatli yovvoyi o'simliklarning nobud bo'lishi ko'p miqdordagi zarar sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak.

O'rmonga shikast yetkazish va uni nobud qilish bilan yetkazilgan zarar miqdori ularning har xil turlari salbiy oqibatlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Zarar miqdoriga daraxtlarning amaldagi narxi bo'yicha hisoblangan talafot bahosi, nobud bo'lgan o'rmon o'rniga yangi o'rmon ekini va yosh o'rmonni o'stirish, hududni tozalash uchun ketadigan xarajatlar kiradi. Zarar summasiga yong'inni o'chirishga ketgan barcha xarajatlarni ham kiritish mumkin.

Tahlil etilayotgan jinoyat bo'yicha og'ir oqibatlar deganda, ekinzorning tiklab bo'lmaydigan darajada nobud qilinishi; o'rmon va boshqa dov-daraxtlarni o'zining bosh ekologik funksiyasini bajara olmaydigan darajada shikastlantirish; ekologik muvozanatning buzilishi; yashil dov-daraxtlarning foydalanishga yaroqsizligi; daraxtlar qimmatli navlarining nobud bo'lishi va boshqalar tushuniladi.

Subyektiv tomondan tahlil etilayotgan moddaning 1-qismi aybning **ehtiyotsizlik** shaklida ifodalanadi.

JK 198-moddasining 2-qismi obyektiv tomon sifatida shaxsning o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesishi natijasida ko'p miqdorda zarar kelib chiqishida ifodalangan huquqqa xilof harakatini nazarda tutadi.

O'rmon va boshqa dov-daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesish deganda, ularni kesishga ruxsat beradigan biletni (orderni) tegishli ravishda rasmiylashtirmasdan yoki biletida (orderda) ko'rsatilganidan boshqa maydonda, miqdorda yoxud boshqa navini ildizidan kesish tushuniladi.

O'rmon va boshqa dov-daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesganlik uchun javobgarlik daraxt tanasini ildizidan ajratishning har qanday ko'rinishi (kesish, aralash, ildizi bilan qo'porish), ya'ni o'sib turgan daraxt yoki butalarning nobud bo'lishiga olib keladigan har qanday harakat uchun yuzaga keladi. Bunda aybdor shaxs qonunga xilof ravishda kesilgan

daraxtdan foydalangan yoki uni o'sha joyda qoldirib ketganligi muhim emas.

Jinoyat qonunga xilof ravishda daraxt, buta va boshqa dov-daraxtlarni kesish natijasida ko'p miqdordagi zarar yetkazilgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

JK 198-moddasi 2-qismining subyektiv tomoni qasddan sodir etiladi, chunki shaxs qonunga xilof ravishda daraxt, buta va boshqa dov-daraxtlarni kesishni amalga oshira turib, maxsus ruxsatnomasiz yoki unda ko'rsatilganidan boshqa maydonda, ko'p miqdorda yoxud daraxtning boshqa navini kesayotganini anglagan, bunday harakatlar natijasida ko'p miqdordagi zarar kelib chiqishiga ko'zi etgan va buni xohlagan (to'g'ri qasd), bunday oqibatlar yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan (egri qasd) bo'ladi.

JK 198-moddasi 3-qismining obyektiv tomoni: ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga qasddan shikast yetkazish, ularni payhon qilish, nobud qilish; oqibat — ko'p miqdorda zarar yetkazish, shuningdek, harakat bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishdan iborat.

Payhon qilish deganda, ekinzorni bosib tashlash, haydash, suv va boshqa suyuqlik bilan bostirish tushuniladi. Ekinzorni payhon qilishga ko'p miqdorda zarar keltiradigan sigirlarni o'tlatish va u yerdan haydab o'tish ham kiradi.

Jinoyatning **subyektiv tomoni** — qasd, shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan va uning ijtimoiy xavfli oqibatlar — ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish, ularni payhon qilish, nobud qilishning yuz berishini istagan va ongli ravishda yo'l qo'ygan va bunga beparvo munosabatda bo'ladi.

Jinoyat **subyektiv** ushbu moddadagi barcha hollarda 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi. O'rmonda va unga yaqin joyda ishlaganda yong'inga qarshi xavfsizlik choralari rioya qilmagan yoki xizmat vakolatidan o'rmonni kesish uchun yoxud boshqa yo'l bilan ko'p miqdorda zarar, og'ir oqibatlar keltirib chiqarish uchun foydalangan mansabdor shaxslar JK 205-, 206-, 207-moddalari bilan jinoyatlar majmui

bo'yicha javobgarlikka tortiladilar.

Tahlil qilinayotgan moddaning 4-qismiga muvofiq, «yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi».

7-§. O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish (JK 199-moddasi)

Jinoyat **bevosita obyekt**i ekologik huquqiy tartibot va ekologik xavfsizlik ta'minlanishiga qaratilgan o'simliklar kasalliklari va zararkunandalari bilan kurashish bo'yicha o'rnatilgan qoidalar va talablarni tartibga solish borasidagi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyatning **predmeti** madaniy ko'chatlar, tabiiy o'rmonlar va boshqa o'simliklar bo'lishi mumkin.

Obyektiv tomondan jinoyat o'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalariga qarshi kurash talablarini buzish og'ir oqibatlariga sabab bo'lishida ifodalanadi.

Mazkur modda dispozitsiyasi blanketlidir. Shu munosabat bilan, ko'rib chiqilayotgan jinoyatni kvalifikatsiya qilishda har bir alohida ishda o'simlik kasalliklari yoki zararkunandalariga qarshi kurashning qaysi talabi buzilganligini aniqlash zarur. Bular kasalliklar, turli zararkunandalar tarqalishining oldini olish va ularni tugatishga qaratilgan agrotexnik, kimyoviy, mexanik tadbirlarni o'tkazish bo'yicha talablardir.

Ushbu munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 31 avgustdagi «Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida»¹, 1996 yil 29 avgustdagi «Urug'chilik to'g'risida»²gi, 1996 yil 30 avgustdagi «Seleksiya yutuqlari to'g'risida»³gi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 1997 yil 18 dekabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi hududida ekishga tavsiya qilingan qishloq xo'jaligi ekinlarining davlat reyestri to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 18 de-

¹ 1Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 7-8-сон, 208-модда.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 9-сон, 130-модда; 1997 й., 4-5-сон, 126-модда; 1999 й., 5-сон, 124-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 14-сон, 113-модда; 2007 й., 50-51-сон, 513-модда.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 й., 9-сон, 156-модда.

kabrdagi 553-son qaroriga 2-ilova) va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O‘simliklar kasalliklari va zararkunandalari bilan kurashish talablariga rioya qilmaslik o‘simlikshunoslik, sabzavotshunoslik, bog‘dorchilik, o‘rmon xo‘jaligi kabi qishloq xo‘jaligi sohaslariga katta zarar yetkazishi mumkin.

O‘simlik kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish qishloq xo‘jaligining o‘simlik, sabzavot sohaslariga, shuningdek, o‘rmon xo‘jaligiga katta zarar keltiradi.

O‘simlik kasalliklari yoki zararkunandalari, qishloq xo‘jaligida begona o‘tlarga qarshi qo‘llash uchun kimyoviy va biologik vositalarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining kimyo komissiyasi tomonidan 2000 yil 31 avgustdagi «Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonunga asosan har besh yilda tasdiqlanadi. Mazkur ro‘yxatdan Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi ham foydalanadi. Shuningdek, unda qishloq xo‘jaligida pestitsidlarni (zaharli kimyoviy moddalarni) saqlash, tashish va qo‘llashning sanitar qoidalari mavjud.

Yuqoridagi qoidalar va talablarni harakatlar ko‘rinishida buzish, masalan, O‘zbekiston Respublikasi hududiga bir to‘p kasallangan don, sabzavot, boshqa o‘simliklarni olib kirish; ekinlarning kasallangan urug‘larini ekish (masalan, karantin kasalliklari bilan zaharlangan don ekinlarini ekish); sifatsiz kimyoviy yoki boshqa o‘simlik zararkunandalariga qarshi kurashish vositalarini qo‘llash; o‘simlik zararkunandalari paydo bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yashirish va hokazolar orqali sodir etiladi.

Harakatsizlik shaxsning o‘simlik kasalliklariga va zararkunandalariga qarshi kurash tadbirlari ko‘rsatmalarini bajarmasligida namoyon bo‘ladi: agrotexnik choralarni ko‘rmaslik, o‘simlik kasalliklariga qarshi kurash choralarini yoki o‘simlik kasalliklarini qo‘zg‘atuvchilar bilan zaharlangan muayyan uchastka joylashuvi bo‘yicha, zaharlangan urug‘liklarni yo‘q qilish bo‘yicha choralarni ko‘rmaslik va hokazolar.

O‘simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari yoki eng yomon

begona o‘tlarni va o‘simlik dunyosi zararkunandalarini yo‘qotish uchun belgilangan qoidalarni buzib qo‘llash natijasida odamlar va hayvonlarning zaharli kimyoviy moddalar bilan zaharlanishi, o‘simlik kasalliklarining yoki zararkunandalarning ommaviy ravishda tarqalishi natijasida toklarning yoki mevali daraxtlarning kesib tashlanishi, sara urug‘ fondining zarar topishi, kartoshka ekinining katta maydonlarda nobud bo‘lishi ham **sharhlanayotgan jinoyatning og‘ir oqibatlari qatoriga kiradi.**

Og‘ir oqibatlarining boshlanishi vaqtidan jinoyat **tugallangan** hisoblanadi. Jinoyatning qay darajada og‘irligi sud tomonidan belgilanadi.

O‘simlik kasalliklari va zararkunandalari bilan kurashish talablarini buzish **subyektiv tomondan** ehtiyotsizlik yoki aybning murakkab shakli (sodir qilinayotgan qilmishga nisbatan qasd hamda kelib chiqqan jinoiy oqibatga nisbatan ehtiyotsizlik) bilan sodir etiladi.

Jinoyatning **subyektiv** 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

Aksariyat hollarda, agronomlar, brigadirlar va shu kabi mutaxassislar tahlil qilinayotgan jinoyatning subyektiv bo‘ladilar. O‘simlik kasalliklari yoki zararkunandalari qarshi kurash talablarini o‘z mansab vakolatidan foydalangan holda buzgan mansabdor shaxslar mansabdorlik jinoyati uchun jinoiy javobgarlikka tortilishlari kerak.

8-§. Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini buzish (JK 200-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyektiv** chorvachilik sohasidagi ekologik huquq-tartibotni ta‘minlash maqsadida belgilangan veterinariya va zootexnik qoidalarni tartibga soluvchi hamda ekologik xavfsizlik, insonlar hayoti va sog‘lig‘i, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyatning **predmeti** uy va yovvoyi hayvonlardir.

Obyektiv tomondan JKning 200-moddasida nazarda tutilgan jinoyat veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini buzish natijasida hayvon yoki parrandalar epidemiyasi (epizootiya) tarqalishiga,

ularning yalpi qirilib ketishiga yoki boshqacha og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan veterinariya qoidalarini buzish harakatlari yoki harakatsizlik bilan sodir etilishi mumkin (masalan, profilaktik tadbirlar o'tkazish bo'yicha belgilangan talablarga rioya qilmaslik, yuqumli kasalliklarga chalingan hayvonlar va ularning mahsulotlarini, chorvadan olingan xom ashyoni sotish, kasal molni so'yishdan bo'yin tovlash va hokazolar shular jumlasidandir).

Mazkur modda dispozitsiyasi blanketlidir. Qilmishni kvalifikatsiya qilishda aybdor shaxs tomonidan veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini aynan qaysi bandi buzilganligi aniqlanishi zarur.

Veterinariya qoidalari va talablari 1993 yil 3 sentyabrdagi «Veterinariya to'g'risida»¹ Qonun asosida O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi tomonidan, turli vazirliklar va idoralarning ko'p sonli idoraviy yo'riqnomalari orqali, shuningdek, hayvonlarni, ularning ozuqasini, chorvachilik mahsulotlarini va hokazolarni olib kirish, olib chiqish hamda ularning tranzit tashish qoidalarini belgilovchi xalqaro kelishuvlarda belgilanadi.

Veterinariya qoidalari hayvonlarni kasalliklardan himoya qilish va davolashga oid davlat, jamoat, xo'jalik va ijtimoiy tadbirlar majmui bo'lib, ishlab chiqarish va aholini yaxshi sifatli chorva mahsulotlari bilan ta'minlash, odamlarning hayvonlar og'riydigan kasallikka chalinishining oldini olish, shuningdek, atrof muhitni muhofaza etishning veterinariya-sanitariya muammolarini hal qilishni o'z ichiga oladi.

Veterinariya (shu jumladan, veterinariya-sanitariya) qoidalari hayvonlarning (uy hayvonlarining ham, yovvoyi hayvonlar muhitidan belgilangan tartibda ajratilgan hayvonlarning ham) epizootiyalari, yuqumli va yuqumli bo'lmagan ommaviy kasalliklariga qarshi kurashish maqsadida belgilangan, shuningdek, veterinariya-sanitariya, davolash, veterinariya-profilaktika tadbirlarini o'tkazish qoidalari, karantin qoidalari, kasallik o'choqlarini yo'q qilish tartibi hisoblanadi.

Veterinariya sohasidagi normativ-huquqiy mazmundagi hujjatlar

¹Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 9-сон, 335-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й., 6-сон, 118-модда; 1997 й., 4-5-сон, 126-модда.

hayvonlar va parrandalarning yuqumli epizootik va epidemik kasalliklarga chalinishining oldini olishni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududini qo‘shni mamlakatlardan tashib keltiriladigan hayvon va parrandalarning yuqumli kasalliklaridan muhofaza qilishni ta‘minlaydigan epizootiyalarga qarshi, veterinariya-sanitariya va davolash tadbirlarini o‘tkazishga oid ko‘rsatma va talablarni nazarda tutadi.

Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini buzish harakat va harakatsizlik ko‘rinishlarida sodir etilishi mumkin.

Birinchi ko‘rinishda buzishda subyektning uy jonivorlarini boqish, tashish, ulardan foydalanish bilan bog‘liq qonunda taqiqlangan tartib-qoidalar va muolajalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududiga kasal jonivorlar yoki yuqumli kasalliklar tarqalgan nomaqbul hududlardan jonivorlar sotib olish hamda olib kelish va hokazolar, shu bilan birga zootexnik nuqtai nazardan yaramaydigan, jonivorlar kasallanishi va kasallik tarqalishiga sabab bo‘lgan yem hamda ozuqalar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq harakatlarni sodir etishdan iborat.

Veterinariya va zootexnika qoidalarini harakatsizlik ko‘rinishida buzish oldini olish (profilaktika) maqsadidagi emlashni amalga oshirmaslik, karantin muddatlariga rioya qilmaslik, jonivorlarning kasallikka uchragani to‘g‘risida veterinariya nazorati idoralariga xabar bermaslik, jonivorlar yuqumli kasalliklari o‘choqdarini yo‘qotish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirmaslik va hokazolardan iborat. Qoramol so‘yish ham veterinariya qoidalariga rioya qilmagan holda amalga oshirilishi mumkin, masalan, qoramolni dastlabki nazoratdan o‘tkazishdan bosh tortish yoki undan bo‘yin tovlash, so‘yishda sanitariya (tozalik) me‘yorlariga rioya qilmaslik va hokazolar.

Hayvonlar yoki parrandalar orasida epidemik kasalliklar (epizootiya) tarqalishi, shuningdek, shu kabi boshqa og‘ir oqibatlar mazkur jinoyatning oqibatlari hisoblanadi.

Epizootiya tez tarqaladigan va hayvonlarning keng ko‘lamda qirilib ketishiga olib keladigan, uy hayvonlari va parrandalarning ommaviy yuqumli kasallanishi hisoblanadi (masalan, tuman hududida hayvon va parrandalarning oqsim yoki o‘lat kasalligiga chalinishi).

Hayvon yoki parrandalarning ommaviy qirilib ketishi deganda, hayvonlar to‘dasi, uyuri, parrandalar to‘la yoki qisman qirilib ketishi nazarda tutiladi.

Boshqa og‘ir oqibatlar hayvon yoki parrandalarning ayrim holatlarda qirilib ketishi (ko‘plab hayvonlarning kasallikka chalinmagan yoki epizootik holati yuz bermagan)da, odamlar va hayvonlar uchun umumiy bo‘lgan kasallikka aqalli bir kishining chalinishida, hayvonlar va parrandalar mahsuldorligi pasayishida, chorva mahsulotlari va xom ashyosi tannarxi oshishida, kasallikni tugatishga va oldini olishga oid xarajatlar va hokazolarda ifodalanishi mumkin.

Jinoyat sharhlanayotgan modda dispozitsiyasida ko‘rsatilgan oqibatlardan biri kelib chiqqan paytdan e‘tiboran **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan veterinariya qoidalarini buzish ehtiyotsizlik yoki aybning murakkab shakli (sodir qilinayotgan qilmishga nisbatan qasd hamda kelib chiqqan jinoiy oqibatga nisbatan ehtiyotsizlik) bilan sodir etiladi. Jinoyatning **motivi** kvalifikatsiyaga ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Jinoyat **subyeksi** 16 yoshga to‘lgan, har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘ladi.

Mansabdor shaxslar — chorvachilik va parrandachilik xo‘jaliklari, veterinariya-sanitariya nazorati rahbarlari, shuningdek, alohida fuqarolar ham (chorva va parranda egalari, karantin kordon o‘rnatilgan hududdagi cheklovlarni buzib o‘tuvchi transport vositalari haydovchilari va boshqalar) veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish subyeksi bo‘lishi mumkin.

9-§. Zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish (JK 201-moddasi)

Jinoyat **bevosita obyeksi** inson hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilishni, farovon tabiiy muhitni ta‘minlashni uz ichiga oluvchi ekologik xavfsizlik muhofazasi manfaatlari hisoblanadi.

Kimyoviy va biologik moddalar, mineral o‘g‘itlar va preparatlar jinoyat **predmeti** bo‘lishi mumkin.

Kimyoviy moddalarga (shu jumladan o‘simliklarning kimyoviy

himoya vositalari, kimyoviy preparatlar) atrof muhit, inson hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan, insonlarning turli faoliyat sohaslarida ishlatiladigan hamda zararli va zaharli xususiyatlarga ega bo‘lgan moddalar kiradi.

Mineral o‘g‘itlar, o‘simliklarning o‘shish biostimulyatorlari qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida yoki yordamchi, o‘simliklarni notijorat maqsadlarda yetishtirishda qo‘llanadigan maxsus moddalardan tashkil topadi. Ular xavfli kimyoviy va biologik moddalar qatoriga kiradi. Ushbu moddada ko‘rsatib o‘tilmagan va mineral o‘g‘it, o‘simliklarning o‘shish biostimulyatorlari hisoblanmaydigan moddalardan foydalanish (ularni saqlash va tashish) xo‘jalik va boshqa maqsadlardan kelib chiqqan oqibatlardan qat’i nazar ularni qo‘llashni istisno qilmaydi.

Obyektiv tomondan jinoyat o‘simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, mineral o‘g‘it, o‘shish biostimulyatori yoki boshqa kimyoviy dorilarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish odamlarning ommaviy kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoxud boshqacha og‘ir oqibatlarining kelib chiqishida ifodalanadi.

Ushbu modda dispozitsiyasi blanketli bo‘lib, qonunning har bir alohida buzilgan hollarida zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo‘lishning qaysi qoidasi buzilganligini aniqlash zarur bo‘ladi.

Kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish qoidalarini buzishga oid harakatlar ushbu qoidalarning buzilishi, texnologiya jarayoni yoki texnologiya jarayonlari majmui xavfsizligi talablariga rioya qilmaslik, yo ishlab chiqarish tusidagi boshqa harakatlardan iborat bo‘lishi mumkin.

Ishlab chiqarish qoidalarining buzilishi texnologiya jarayonining nomaqbul tarzda tashkil etilishi, ya’ni vakolatli shaxs(lar) tomonidan uni boshlash, texnologiya tanlash, kimyoviy moddalar ishlab chiqarish xavfsizligini ta’minlaydigan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishga oid noqonuniy, bevaqt hamda boshqa noo‘rin ko‘rsatmalar berilishi, shuningdek, bevosita texnologiya amaliyotlari tizimini amalga oshirishning buzilishi hamda uni nazorat qilish bajarilmasligidan iborat bo‘lishi mumkin.

Kimyoviy moddalar bilan ishlash (saqlash, tashish va hokazo) qoidalarining buzilishiga oid harakatlar ularni belgilangan standart va xavfsizlik qoidalariga muvofiq talab darajasida saqlash, siljitish va tashishni ta'minlash talablariga rioya qilmaslik, shuningdek, kimyoviy moddalarni boshqa maqsadda yoki ularni ko'llash shartlariga rioya qilmagan holda foydalanish kabilardan iborat bo'ladi.

Saqlash deganda, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini, mineral o'tlarni, o'sish biostimulyatorlari yoki boshqa kimyoviy dorilarni muayyan joyda asrash tushuniladi.

Ko'rsatilgan dorilarni saqlash uchun mo'ljallanmagan joylarda, ochiq joyda, to'kilgan holda saqlash yuqorida aytilgan qoidalarni buzish hisoblanadi.

Tashish deganda, ko'rsatilgan dorilarni har qanday usulda bir joydan ikkinchi joyga olib yurish nazarda tutiladi. Tashish qoidalarini buzish, masalan, ko'rsatilgan dorilarni maxsus moslashtirilmagan transportda, maxsus taralar mavjud bo'lmagan transportda tashishda va hokazolarda ifodalanadi.

Foydalanish deganda, preparatlarning maqsadga muvofiq qo'llanilishi tushuniladi. **Foydalanish qoidalarini buzish**, masalan, dorilarni tuproqqa solishda odamlar sog'lig'i, xavfsizligini ta'minlamaslik; ishlov berilayotgan erda odamlar bo'lgani holda dorilarni sochish va hokazo harakatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Sharhlanayotgan modda 1-qismi dispozitsiyasiga muvofiq, **ekologik normalarni buzish** odamlarning ommaviy kasallanishi, hayvonlarning ommaviy o'lishi, parrandalar yoki baliqlarning ommaviy qirilib ketishi yoxud boshqacha og'ir ommaviy oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan taqdirda, mazkur jinoyatning tarkibi yuzaga keladi.

Odamlarning ommaviy kasallanishi ko'p sonli aholida zaharlanish, surunkali xastalikning paydo bo'lishi, tanadagi biror a'zoning ishdan chiqishi (ko'rish quvvatining, ichki sekretsiya bezlari faolligining pasayishi va hokazolar)da ifodalanadi.

Boshqa og'ir oqibatlar deganda, qayd etilgan moddalarni atmosferaga, suvga, yerga tashlash, ekinzorlar va hosilning nobud bo'lishi, uzoq muddat

davomida ekiladigan maydonlar, ichimlik suvining zararlanishi va hokazolarni tushunish lozim.

JK 201-moddasi 1-qismining dispozitsiyasida sanab o'tilgan oqibatlardan loaqal bittasi ro'y bergan paytdan e'tiboran jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Jinoyat **subyektiv tomondan** ehtiyotsizlik yoki aybning murakkab shakli (sodir qilinayotgan qilmishga nisbatan qasd hamda kelib chiqqan jinoiy oqibatga nisbatan ehtiyotsizlik) bilan sodir etiladi.

Jinoyat **subyektiv** har qanday 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxs, shu jumladan zararli kimyoviy moddalar bilan ishlash uchun mas'ul mansabdor shaxslar (korxonalar, laboratoriya, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi bo'yicha rahbarlar va hokazolalar) bo'lishi mumkin.

JK 201-moddasining 2-qismi odam o'lishi tarzidagi og'ir oqibatni nazarda tutadi, shu sababli og'irroq javobgarlikni keltirib chiqaradi.

10-§. Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish (JK 202-moddasi)

Jinoyat **bevosita obyekt** O'zbekiston hududida tarqalgan hayvonot va o'simliklar dunyosi muhofazasini, ular yashaydigan normal ekologik muhitni ta'minlash hamda bioresurslar va o'simliklardan oqilona foydalanishni ta'minlash bo'yicha, shuningdek, atrof tabiiy muhitning ajralmas qismi sifatida hayvonot va o'simlik dunyosining irsiy fondini saqlash sharoitlarini yaratish bo'yicha ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyat **predmet** yovvoyi, uy hayvonlari, parrandalar, har qanday baliqlar va boshqa turdagi hayvonlar, shuningdek, dorivor, iste'molbop, manzarali o'simliklar yovvoyi turlarining har qanday xillari hisoblanadi.

Jinoyatning obyektiv tomoni:

1) ovchilik qoidalarini; 2) baliqchilik yoki hayvonot dunyosining boshqa turlarini ushlab qoidalarini; 3) noyob hayvonlarni tutishning belgilangan tartibi yoki shartlarini; 4) o'simliklarning dori-darmon, iste'molbop va manzarali (dekorativ) turlarini yig'ish yoki tayyorlashning belgilangan tartibini; 5) maxsus qo'riqlanadigan tabiiy hududlardagi hayvonot va

o‘simlik olamidan foydalanish tartibini¹ buzish ancha miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo‘lishida ifodalanadi.

Ushbu modda ham blanket dispozitsiyali bo‘lib, unda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish sodir etilgan yoki etilmaganligini aniqlash uchun boshqa normativ hujjatlarga murojaat qilish lozim bo‘ladi.

Ovchilik, baliqchilik yoki hayvonot yoxud o‘simlik dunyosining boshqa turlaridan foydalanish qoidalari hamda nodir hayvonlarni ovlash tartibi, shartlari yoki maxsus qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarda hayvonot va o‘simlik dunyosidan foydalanish qoidalari quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarda bayon etilgan, bular: O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi², 1997 yil 26 dekabrda «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida» (Yangi tahrirda)gi, 1997 yil 26 dekabrda «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida» (Yangi tahrirda)gi³, 2004 yil 3 dekabrda «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993 yil 3 sentyabrda «Qimmatli va yo‘qolib borayotgan o‘simliklar hamda hayvonlar turlarini muhofaza etishni kuchaytirish hamda ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida»gi 937-XP-sonli qarori⁴, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida ov va baliq ovlash qoidalari (O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi Raisining 2006 yil 22 martda 27-son buyrug‘i bilan

¹Мазкур ишда «алохида муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар» тушунчаси келгусида ишлатилганда куйидаги ҳолатни инобатга олиш лозим: Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 3 декабрдаги «Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тўғрисида»ги 710-11-сон Қонуни (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й., 1-сон, 1-модда) амалга киритилганлиги, шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 7 майдаги «Алохида муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тўғрисида»ги 871-ХП-сон Қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Кен- гашининг Ахборотномаси, 1993 й., 6-сон, 255-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й., 1-сон, 2-модда) Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2004 йил 3 декабрдаги «Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга киритиш ҳақида»ги 711--сон қарорига мувофиқ ўз кучини йўқотганлиги муносабати билан мазкур тушунча Ўзбекистон экологик қонунчилигидан чиқариб ташланган ва «муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар» тушунчасига алмаштирилган. Бироқ, кўрсатилган қарорнинг 2-бандида ўрнатилган янги қабул қилинган қонунга зид бўлган норматив ҳужжатларини қайта кўриб чиқиш ва бекор қилиш тўғрисидаги талаби қонун чиқарувчи томонидан ижро этилмади, хусусан, ЖК нормалари янги экологик қонунчиликнинг қоидалари билан мувофиқлаштирилмади.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 1-сон, 14-модда; 2000 й., 5-6-сон, 153-модда.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 1-сон, 12-модда; 2000 й., 5-6-сон, 153-модда.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 9-сон, 337-модда.

tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2006 yil 2 mayda 1569-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan)¹ hamda boshqa qonun va qonunosti hujjatlardir.

NOTA BENE !

Ov — yovvoyi hayvonlarni qo‘lga kiritish maqsadida izlab topish, ta‘qib qilish va qo‘lga kiritish².

Ov qilish joylarida miltiq, ov itlari va ov qurollari bilan bo‘lish ovga tenglashtiriladi.

Ov qilish, baliq ovlash va hayvonot turlarini ovlash huquqidan O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan o‘n sakkiz yoshga to‘lgan, o‘qotar miltig‘iga ega bo‘lgan, Ovchi va baliqchilar jamiyatining a‘zosi bo‘lgan, ovchilik minimumi bo‘yicha sinovlarni topshirgan va davlat bojini to‘lab qo‘ygan barcha shaxslar foydalanadilar. Sport, ishqibozlar uchun va sanoat maqsadlarida, ilmiy maqsadlarda baliq tutish ham barcha fuqarolarga qo‘riqxonalar, baliq boqish joylari, hovuz hamda boshqa baliqchilik xo‘jaliklaridan tashqari, barcha suv havzalarida, biroq baliq tutish va suvdan foydalanishga oid belgilangan qoidalarga albatta rioya qilgan holda, ruxsat etiladi.

Sport, havaskor va tayyorlov ov qilish huquqini beruvchi hujjatni berish va o‘rnatish tartibi 2004 yil 28 oktyabrdagi 508-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan o‘rnatilgan.

«Ovchilik maqsadlarida foydalanish uchun mo‘ljallanmagan erlardan ovchilik, ilmiy, tibbiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va boshqa maqsadlarda foydalanish qonunchilikda belgilangan tartibda tabiatni muhofaza qilish organlari tomonidan berilgan ruxsat asosida amalga oshiriladi. Ovchilik xo‘jaligi, ovchilik faoliyati uchun zarar keltiruvchi hayvonlarni ovlash belgilangan Nizom asosida amalga oshiriladi»³.

¹Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 18-сон, 158-модда.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ов ва балиқ овлash қоидалари (Ўзбекистон Республикаси Табиатни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси Раисининг 2006 йил 22 мартдаги 27-сон буйруғи билан тасдиқланган, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2006 йил 2 майда 1569-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган), 7-11-бандлар.

³Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 28 октябрдаги «Биология

Sport, havaskorlik, ovchilik va ilmiy maqsadlar uchun baliq ovlash belgilangan tartibga rioya etgan holda, tabiiy suv havzalarida barcha fuqarolar uchun ruxsat berilgan, faqatgina qo‘riqxonalar, baliq ovlash hududlari, hovuzlari va boshqa baliq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi hududlar bundan mustasno¹.

NOTA BENE !

Noqonuniy ov qilish (brakonerlik) — ov va baliq ovlash qoidalarini buzgan holda yovvoyi hayvonlarni ovlash, ushlab yoki yo‘q qilish.

Ovchilik (baliq ovlash) quyidagi hollarda noqonuniy amalga oshirilgan deb hisoblanadi:

- tegishli ruxsatnomasiz (litsenziyasiz);
- maxsus taqiqqa qarshi (masalan, bir turga oid baliqlarni boshqa nom bilan yoki nomi ko‘rsatilmagan qabul qilish (topshirish);
- ovchilik qilish huquqiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan (masalan, voyaga yetmagan, ovchilik jamiyatining a‘zosi bo‘lmagan va boshqa shartlarga javob bermagan);
- ovchilik maqsadlari uchun ajratilmagan, taqiqlangan vaqtda, ruxsat etilmagan vosita va usullar bilan (masalan, baliqni tutishga mo‘ljallangan vosita va qo‘ndoqli kamon, hayvonlarni shikastlantiruvchi, tuzoq, to‘r va shuningdek, hayvonlarni ommaviy tutishga mo‘ljallangan tuzoq o‘ralari, yirtqich hayvonlar va qushlarning ovozlari aks ettiruvchi elektron vositalar va h.k. ishlatish).

Kvalifikatsiya belgilarisiz noqonuniy ovchilik (ya’ni, ancha miqdorni tashkil etmagan zarar) jinoiy javobgarlikni istisno etadi.

Ov qilish yoki baliq tutish qoidalarini buzish deganda, ovni tegishli ruxsatnomasiz yoxud yovvoyi qushlar yoki baliqlarni ruxsatnomada ko‘rsatilgan miqdordan ortiq ovlash, shuningdek, ovni taqiqlangan vaqtda

ресурсларидан оқилона фойдаланиш, уларни Ўзбекистон Республикасига олиб кириш ва унинг ташқарисига олиб чиқиш устидан назоратни кучайтириш тўғрисида»ги 508-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 44-сон, 459-модда.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ов ва балиқ овлаш қоидалари (Ўзбекистон Республикаси Табиатни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси Раисининг 2006 йил 22 мартдаги 27-сон буйруғи билан тасдиқланган, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2006 йил 2 майда 1569-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган), IV боб.

yoki ruxsat berilmagan joylarda yoxud ruxsat etilmagan qurol, vosita va usullar bilan amalga oshirish tushunilishi lozim¹.

NOTA BENE !

Qo‘lga kiritish deganda, tutish, jonsizlantirish, hayvon hamda o‘simliklarni, hajmidan qat‘i nazar, o‘ljaga ega bo‘lish bilan yakunlanadigan tabiiy muhitdan boshqacha yo‘l bilan olish tushuniladi.

O‘ljani **qo‘lga kiritishning noqonuniyligi** uni tutishda shaxs qo‘lga kiritishga belgilangan taqiqni har qancha miqdorda buzgan yoki talab etilgan hollarda maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olmagan yoxud ruxsatnoma (litsenziya)ning majburiy bo‘lgan va o‘ljani ovlash yo tutish hajmi, joyi, vaqti va usullarini belgilaydigan shartlarini buzganida ro‘y beradi. Suv hayvonlari va o‘simliklarini tutish hamda yig‘ish uchun ruxsat vakolatli idoralar tomonidan berilib, ruxsatnoma olgan shaxsga turli vakolatlar va har qanday sharoitda harakat qilish uchun ruxsat beriladi.

Tabiiy o‘simliklar jamoalarida dorivor, oziq-ovqat hamda manzarali o‘simliklarning yovvoyi turlarini tayyorlash (yig‘ish) deganda, yuqorida nomi keltirilgan o‘simliklarni muhitidan, tayyorlash (yig‘ish) predmetidan, yig‘ilgan o‘lja miqdoridan qat‘i nazar, amalda ega bo‘lish bilan yakunlanadigan ajratish yoki boshqacha tarzda olish jarayoni tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 26 dekabrda «O‘simlik dunyosini asrash va undan foydalanish to‘g‘risida»gi Qonuni 6-moddasiga binoan, o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish (yig‘ish, tayyorlash) umumiy yoki maxsus bo‘lishi mumkin.

O‘simlik dunyosi obyektlaridan umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda va tartibda bepul amalga oshiriladi.

O‘simlik dunyosi obyektlari maxsus foydalanishga ishlab chiqarish

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 де- кабрдаги «Атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги жиноятлар ва бошқа ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 36-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 69-б.

faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun haq evaziga yuridik va jismoniy shaxslarga ruxsatnomalar asosida berib qo'yiladi. O'simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish uchun obyekt, turni, hajmi va muayyan hudud doirasida foydalanish muddatini belgilaydigan ruxsatnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vakolatli davlat organlari tomonidan beriladi. O'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish tartibi va shartlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Shunday qilib, **qonunga xilof yig'ish (tayyorlash)**, u tegishli ruxsatnomasiz yoki me'yorda belgilanganidan tashqari hajmda, shuningdek, yig'ish (tayyorlash) taqiqlangan hududda amalga oshirilganida yuz beradi deb hisoblanadi.

Yerning va (yoki) suv kengliklarining (akvatoriyalarning) ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik bo'lgan, xo'jalik maqsadidagi doimiy yoki vaqtincha foydalanishdan to'liq yoki qisman chiqarilgan uchastkalari **muhofaza etiladigan tabiiy hududlar** hisoblanadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar biologik, landshaft rang-barangligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlab turish uchun mo'ljallangan yaxlit ekologik tizimni tashkil etadi¹.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va obyektlarga davlat qo'riqxonalari, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari, tabiat bog'lari, davlat tabiat yodgorliklari, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar, muhofaza etiladigan landshaftlar, ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar, shuningdek, Xalqaro qizil kitobga hamda O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan hayvon va o'simliklar kiradi².

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi hayvonot va o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish deganda, ularda zarur ruxsatsiz qurilish ishlarini olib borish; o'simliklarni to'plash, parrandalar va

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 3 декабрдаги «Мухофаза этиладиган табиий хуудлар тўғрисида»ги 710-11-сон Қонуни, 4-модда.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 3 декабрдаги «Мухофаза этиладиган табиий хуудлар тўғрисида»ги 710-11-сон Қонуни, 5-модда.

hayvonlarni litsenziyasiz tutish, otish va hokazolar tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi Qonunining 7-moddasiga ko‘ra, «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yer uchastkalari va akvatoriya uchastkalarida mazkur hududlardan foydalanishning belgilangan maqsadiga zid har qanday faoliyat taqiqlanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan yoki ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan faoliyatni cheklash yoki taqiqlash uchun yer uchastkalarini saqlash vazifasi belgilanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishda yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini cheklash yoki tugatish tufayli ularga yetkazilgan zararining o‘rni qonun hujjatlariga muvofiq qoplanadi».

JK 202-moddasining 1-qismidagi jinoyat ancha miqdordagi zarar yetkazilgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Tabiatni muhofaza qilish haqidagi qonunlarni buzish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat ishlari bo‘yicha yetkazilgan zararni undirish to‘g‘risidagi da‘volarni ko‘rishda sudlar qonun zararni to‘liq hajmda undirishni ko‘zda tutishidan kelib chiqishlari shart. Zararni undirish miqdorini kamaytirishga faqat alohida hollarda sud tomonidan aniqlangan huquqbuzarning mulkiy ahvoliga qarab, jinoyat g‘araz niyatda sodir etilmagan taqdirda, yo‘l qo‘yiladi va bu holat qabul qilingan qarorda asoslantirilgan bo‘lishi shart¹.

Hayvonot yoki o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish haqidagi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlanuvchiga tegishli jinoyat qurollari, shu jumladan avtomashina, mototsikl va qayiqlar, agar jinoiy harakat ular yordamida amalga oshirilsa yoki sodir etilishi osonlashtirilsa, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 211-moddasiga muvofiq musodara qilinishi lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri qasddan ham, egri qasddan ham sodir etiladi. Shaxs o‘z harakatlarining ijtimoiy xavfliligini va oqibatlarining kelib chiqishi aniqligini anglaydi va shunday bo‘lishini

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги жиноятлар ва бошқа ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 36-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 70-б.

xohlaydi. Zarar yetkazilganda, shaxs buning kelib chiqishini xohlamagan bo‘lishi mumkin, lekin bunday oqibatlariga ongli ravishda yo‘l qo‘yadi va ularga befarq munosabatda bo‘ladi.

Jinoyat **subyekt**i 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

JK 202-moddasiga muvofiq tabiatni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari va mansabdor shaxslari javobgarlikka tortiladilar. Agar mansabdor shaxs brakonyerlar bilan jinoiy bitim tuzsa, jinoyat sodir etilishiga yordam bersa yoki o‘zi ham shunday jinoyatni sodir etsa, u tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganligi va tegishli mansab jinoyati uchun javobgarlikka tortiladi.

JK 202-moddasi 2-kismi quyidagi kvalifikatsiya qilish belgilarini mustahkamlagan:

a) hayvonlar, parrandalar, baliq, hayvonot va o‘simlik dunyosining qizil kitobiga kiritilgan boshqa turlarini nobud qilish bilan;

b) ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan jinoyat.

O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga va Xalkaro qizil kitobga kiritilgan noyob yovvoyi hayvonlar va o‘simliklarga ov qilish, qo‘lga kiritish, yig‘ish va tayyorlash man qilingan hayvonlar va o‘simliklarning barcha zotlari, populyatsiyasi va turlari (masalan: qor qoplani, Tyanshan qo‘ng‘ir ayig‘i, oqqush, qoravoy, burgut, flamingo, kulrang echkamar, kobra, burama shoxli echki, Orol sazan balig‘i hamda boshqa hayvonlar va o‘simliklar) kiradi.

JK 202-moddasi 2-qismining «a» bandi bo‘yicha javobgarlik ham O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga, ham Xalqaro kizil kitobga kiritilgan hayvonlar, parrandalar, baliqlar, hayvonot dunyosi yoki o‘simliklarning boshqa turlari yo‘q qilingan hollarda vujudga keladi. Bunda yetkazilgan zararning hajmi ahamiyatga ega emas¹.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 де-кабрдаги «Атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги жиноятлар ва бошқа ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 36-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 69-б.

Ko'p miqdordagi zarar O'zbekiston Respublikasi Qizil kilobida va Xalqaro qizil kitobga kiritilgan yovvoyi hayvonlar turining birortasini ovlash, amaldagi narxlar bo'yicha aniqlanadigan hayvonlar yoki parrandalar qiymati puldagi bahosining hisobga olingan miqdoridan iboratdir. JK Maxsus qismining VIII bo'limidagi ko'p miqdordagi zararga berilgan ta'rifdan ham foydalanish zarur.

Bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish qilmishini yagona jinoiy maqsadga ko'ra birlashgan ikki yoki bir necha kishining ilgaridan kelishib sodir etishi sifatida baholash zarur. Sud jazoni har bir ishtirokchining qilmishdagi o'rniga qarab tayinlashi kerak.

Tabiatni asrashga oid qonunchilikning buzilishi bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqishda sudlar jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilganligi ma'lum bo'lgan o'ljani (baliq, yovvoyi hayvonlar, qushlar, yog'och va hokazolarni) sotib olgan yoki sotgan shaxslarni aniqlash choralari ko'rishi, shu bilan birga muayyan shart-sharoitdan kelib chiqib JK 171-moddasida ko'zda tutilgan jinoyat belgilariga ko'ra jinoiy ish qo'zg'atish masalasini hal qilishi kerak.

JK **202-moddasi 3-qismi** quyidagi maxsus kvalifikatsiya qilish belgilarini mustahkamlagan:

- a) xavfli retsivist tomonidan;
- b) shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalanib;
- v) yer, suv yoki havoda ishlatiladigan mexanizatsiyalashtirilgan vositalardan foydalanib;
- g) portlash qurilmalari, zaharli kimyoviy moddalar yoki boshqa yalpi qirib yuboradigan yoki nobud qiladigan usullarni qo'llagan holda;
- d) uyushgan guruh tomonidan;
- e) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan jinoyat.

Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzishda o'z xizmat mavqeidan foydalanayotgan shaxslarga mansabdor shaxslar (korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari), shuningdek, tabiatni muhofaza qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchilar (professional ovchilar, o'rmon qorovullari, tabiatni muhofaza qilish idoralarining nozirlari,

shtatdan tashqari xodimlari) mansubdir.

Mansabdor shaxslar jinoyiy javobgarlikka **JK 202-moddasi 3-qismi «b» bandi** bilan tortiladilar va JK 205-moddasi bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi. Agar bunda juda ko'p miqdorda zarar yetkazilgan bo'lsa, mansabdor shaxsning xatti-harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha **JK 202-moddasi 3-qismining «b» va «e»** bndlari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Yovvoyi hayvonlarni ovlashda yer ustidagi, suvdagi va havodagi mexanizatsiyalashgan vositalardan foydalanishga ov qilishda vertolyotlar, avtomobillar, mototsikllar, mopedlar, qayiqlar, motorli katerlar, samolyotlardan foydalanish kiradi.

Portlash qurilmalari, zaharli kimyoviy moddalar yoki boshqa yalpi qirib yuboradigan yoki nobud qiladigan usullarni qo'llash deganda, miltiq, kamon, o'zi otar qurollarni, ov xandaqlarini, pastak joylarni to'g'rilab qo'yish, sirtmoq, qarmoq, pichoq, qopqonlarni o'rnatish, portlovchi, kimyoviy va biologik moddalar, elektr toki, to'rlar va hokazolarni qo'llashni tushunish lozim.

Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibining buzilishi uyushgan guruh tomonidan sodir etilganda, **qilmish JK 202-moddasi 3-qismining «d» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.**

Juda ko'p miqdor ovlangan hayvonlar va yig'ilgan o'simliklarning faktik narxi hamda o'rnatilgan tariflar bo'yicha aniqlanadi hamda JK Maxsus qismi VIII bo'limi bilan tartibga solinadi.

Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzganlik natijasida qo'lga kiritilgan mahsulotlar (go'sht, shoxlar, baliqlar, terilar, tuxumlar, mevalar) tortib olinadi va realizatsiya qilinadi. Mahsulotni realizatsiya qilishdan tushgan pul mablag'i yetkazilgan zarar o'rnini qoplashga ishlatilmaydi. Etkazilgan zarar tabiatni muhofaza qiluvchi organlar foydasiga undiriladi, ular esa olingan pul mablag'larining bir qismini belgilangan tartibda davlat Budjetiga o'tkazadi.

JK 202-moddasi 4-qismiga muvofiq, agar yetkazilgan zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

11-§. Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish (JK 203-moddasi)

Jinoyatning bevosita **obyekti** suv obyektlarini muhofaza qilishni tegishli ta'minlash, normal ekologik muhit, suv resurslari va boshqa ichimlik suvi manbalaridan oqilona foydalanish bo'yicha normal faoliyatni ta'minlash, shuningdek, suv va suv omborlaridan atrof tabiiy muhitning tabiiy va ajralmas qismi sifatida samarali va tartibli foydalanish bo'yicha munosabatlar hisoblanadi.

Sharhlanayotgan modda vazifasi — suv inshootlari qurilishi va ulardan foydalanish, korxonalar va fuqarolarning suv resurslaridan foydalanishlari sohasida huquq-tartibotni jinoyat-huquqiy vositalar bilan mustahkamlash, suv sifatini saqlab qolish, yer osti suvlari joylashgan qatlamlar maydonini ifloslanish hamda noqonuniy ishlatilishidan jinoyat-huquqiy muhofaza qilish, shuningdek, og'ir oqibatlarining oldini olishdan iborat.

Suvdan foydalanish tartibiga bo'lgan yuqori talablar va ularni jinoyat-huquqiy jihatdan muhofaza qilish inson hayotiy faoliyatida suvning umumiy va muhim ahamiyati bilan bog'liq bo'lib, uning yomonlashuvi atrof muhitning boshqa tomonlariga, jumladan, hayvonot olami, o'rmonlar, tuproq qatlami, yer ostiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkinligi, shuningdek, xavfli tajovuzlar oqibatining oldini olish yoki ularni yo'qotish imkoni yo'qligi yo murakkabligi, qayta tiklash ishlari qiymatining yuqoriligidan kelib chiqadi.

Er usti yoki yer osti suvlari va suv havzalari, shuningdek, ichimlik suvi manbalari jinoyat **predmeti** hisoblanadi. («Yer usti suvlari», «yer osti suvlari», «yagona davlat suv fondi» tushunchalari haqida JK 196-modda tahliliga qarang.)

Obyektiv tomondan jinoyat suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan harakatlarni sodir qilishda ifodalanadi.

Tahlil qilinayotgan modda dispozitsiyasi blanket xususiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida suv yoki suv havzalaridan foydalanish shart-sharoitlarini muvofiqlashtiradigan rasmiy hujjatlarning yaxlit tizimi vujudga keldi. Bular: O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 maydagi

«Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»¹ Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida suvdan cheklangan miqdorda foydalanish to'g'risida»gi 385-sonli qarori² hamda Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 7 apreldagi 174-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasidagi suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, magistral kanallar va kollektorlarning, shuningdek, ichimlik suv va maishiy suv ta'minotining, davolash va madaniy-sog'lomlashtirishda ishlatiladigan suv manbalarining suvni muhofaza qilish zonolari haqida»gi Nizom³, shuningdek, vazifasi suv munosabatlarini muvofiqlashtirish, aholi ehtiyojlari uchun suvdan tejab-tergab foydalanish, suvlarni ifloslanish, axlat tushishi va qurib qolishdan asrash, suvlar zararli ta'sirining oldini olish va buning oqibatlarini yo'qotish, suv obyektlari holatini yaxshilash, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer va dehqon xo'jaliklari hamda fuqarolarning suv munosabatlari sohasidagi huquqlarini himoya qilishdan iborat bo'lgan boshqa me'yoriy hujjatlardir.

Davlatning yagona suv fondi daryolar, ko'llar, suv omborlari, er ustidagi boshqa suv havzalari, kanallar va hovuz suvlari, yer osti suvlari va muzliklarni o'z ichiga oladi.

Suv va suv havzalaridan foydalanish sharoitlari «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinib, suv obyektlaridan oqilona foydalanish, suvni tejab sarflash, suv sifatini tiklash va yaxshilash, suv sarfining belgilangan limitlariga rioya qilish, tarkibida ifloslantiruvchi moddalar bo'lgan oqava suvlarning suv obyektlariga tashlanishini to'xtatish choralarini ko'rish, suvdan boshqa foydalanuvchilarga berilgan huquqlarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, xo'jalik va tabiat obyektlariga (yerlar, o'rmonlar, hayvonot olami, foydali qazilmalar va hokazolarga) zarar yetkazmaslikdan

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 5-сон, 221-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 4-5-сон, 126-модда; 1998 й., 9-сон, 181-модда; 2000 й., 7-8-сон, 217-модда; 2001 й., 1-2-сон, 23-модда; 2004 й., 1-2-сон, 18-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 50-51-сон, 512-модда.

²Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2003 й., 17-18-сон, 156-модда; 2004 й., 43-сон, 456-модда.

³Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари тўплами, 1992 й., апрель; Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами, 1999 й., 4-сон, 22-модда; 2003 й., 9-сон, 88-модда.

iborat. Suv resurslaridan foydalanish shart-sharoitlariga, shu jumladan suvni asraydigan va boshqa suv xo‘jalik inshootlari va texnik moslamalarni soz holda saqlash, ularning foydalanish jihatlarini yaxshilash, shu bilan birga suv resurslaridan foydalanganlik to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lash ham kiradi.

Mazkur jinoyat tarkibi moddiy tarkibli bo‘lib, og‘ir oqibatlarining kelib chiqishini ko‘zda tutadi. Jinoyat suv va suv havzalaridan foydalanish shartlari buzilishi natijasida og‘ir oqibat kelib chiqqan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Ekologiya sohasidagi **og‘ir oqibatlar** tushunchasi ko‘rib chiqilgan avvalgi moddalar o‘zaro o‘xshashdir.

Normativ-huquqiy hujjatlar bilan suv obyektlariga to‘kilishi taqiqlangan yo to‘kilishiga alohida cheklashlar (miqdori, sifat tarkibi, vaqti kabilarga) o‘rnatilgan va yer usti hamda yer osti suvlarining sifatini buzib yoki suv obyektlarining tubi va qirg‘oqlari holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan zararli moddalar to‘kish yoxud boshqa usul bilan tashlashdan iborat bo‘lgan harakatlarga **suv obyektlarini ifloslantirish** deyiladi.

Suvni ifloslantirish deb, suv obyektlariga ularning holatini yomonlashtiradigan va ulardan foydalanishni og‘irlashtiradigan buyumlar yoki erimagan moddalar to‘kilishi va tashlanishi bilan bog‘liq harakatlarga aytiladi.

Suv tugashi deb, suv zaxiralarining barqaror kamayib borishi hamda yer usti va yer osti suvlari sifatining sanoat, qishloq xo‘jaligi, kommunal hamda boshqa ehtiyojlar uchun suv ishlatish limitini oshirish orqali ulardan normal foydalanishga xalal beradigan yomonlashuvi, suv zaxirasini saqlashga qaratilgan gidrotexnika tadbirlarini bajarmaslik kabi tabiiy yo‘l bilan tiklab bo‘lmaydigan hamda ular sifati yomonlashuvi, o‘zini o‘zi tozalash imkoniyati yo‘qolib borishidan iborat harakatlarga aytiladi.

Suvlar tabiiy xossalarning o‘zgacha o‘zgarishi deb, suvning biologik rang-barangligi, ularning fizik xossalari (shu jumladan elektromagnit, shifobaxsh, radiatsiyaviy xususiyatlari)ning bevosita suv obyektlarida yoki ular yaqinida portlatish, qurish va boshqa ishlarni amalga oshirish tufayli

salbiy o'zgarishidan iborat harakatlarga aytiladi.

Suv havzasining axlatga to'lib qolishi, suvdan ichish uchun foydalanib bo'lmay qolish, aholini suv bilan ta'minlashda uzilishlar ro'y berishi og'ir oqibatlar jumlasiga kiritiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat aybning **egri qasd** shaklida namoyon bo'lganda, shaxs suv va suv havzalaridan foydalanishga oid tegishli qoidalarni buzayotganligini anglaydi, og'ir oqibatlar kelib chiqishini oldindan ko'ra oladi va ularning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi yoxud ehtiyotsizlik shaklida namoyon bo'lganda, shaxs og'ir oqibatlarining kelib chiqishini oldindan ko'ra oladi va ongli ravishda ehtiyot choralarini ko'rmasdan, bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga hech bir asossiz ishonadi yoki bunday oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lgan holatda ularni oldindan ko'ra olmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Ushbu jinoyat uchun mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha mansabga sovuqqonlik bilan qarash (JK 207-moddasi) yoxud hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish (JK 205-moddasi) bilan kvalifikatsiya qilinadi.

12-§. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzish (JK 204-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyeksi** muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning o'rnatilgan rejimini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Tabiiy majmualar va tabiatni qo'riqlash maqsadida, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsion va sog'lomlashtirish ahamiyatiga ega bo'lgan, alohida qo'riqlanadigan, davlat hokimiyati idoralari qarori bilan xo'jalik maqsadida foydalanishdan butunlay yoki qisman chiqarib olingan, umummilliy boylik obyektlari hisobiga kiritilgan tabiiy hududlar, ya'ni yer uchastkalari, suv yuzasi va ular ustidagi havo bo'shlig'i jinoyat **predmeti** hisoblanadi¹.

¹Эслатиб ўтамиз, Ўзбекистон Республикасининг 1993 й. 7 майдаги «Алоҳида муҳофаза этиладиган табиий

«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida: «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat mulkidir va uning muhofazasidadir. Botanika, dendrologiya va hayvonot bog'lari boshqa shakllardagi mulk asosida ham tashkil etilishi mumkin», — deb belgilab qo'yilgan.

Qonunchilik tomonidan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sifatida: suv muhofazasi mintaqalari (zonalari), rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashtirish mintaqalari, yuza va yer osti suvlari paydo bo'ladigan mintaqalar (daryo vodiylari, ko'tarish kanallari, tog'oldi etaklari), nodir va qimmatbaho mineral konlari, maxsus muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning qo'riqlanadigan (bufer — old) zonalari, baliq xo'jaligi mintaqalari, taqiqlangan o'rmon mintaqalari, davlat tabiat yodgorliklari va tabiat bog'lari, ayrim tabiiy obyektlar hamda majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar, muhofaza etiladigan landshaftlar, ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar ko'rsatilgan. Mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralarining qarorlari bilan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning boshqa toifalari ham nazarda tutilishi mumkin.

«Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat mulkidir va uning muhofazasidadir.

Yer uchastkalari va boshqa tabiiy obyektlar xususiy buyurtma qo'riqxonalar hamda tabiiy pitomniklar tashkil etish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanishga berilishi mumkin» («Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasi).

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va obyektlarga davlat qo'riqxonalari, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari, tabiat bog'lari, davlat tabiat yodgorliklari, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar, muhofaza etiladigan landshaftlar, ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar, shuningdek, Xalqaro qizil kitobga hamda

худудлар тўғрисида»ги 871-ХП-сон Қонуни бекор қилинганлиги муносабати билан (Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 3 декабрдаги «Муҳофаза этиладиган табиий худудлар тўғрисида»ги 710-П-сон Қонуни, 4-модда) ЖК 204-моддасида кўрсатиб ўтилган алоҳида муҳофаза этиладиган табиий худудлар деганда, муҳофаза этиладиган табиий худудлар тушунилиши лозим.

O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan hayvon va o‘simliklar kiradi («Alohida muhofaza etiladigan hududlar to‘g‘risida»gi qonunning 5-moddasi).

Davlat qo‘riqxonalarining hududida har qanday faoliyat taqiqlanadi, ilmiy-tadqiqot faoliyati va atrof tabiiy muhit monitoringini yuritish bundan mustasno. Davlat qo‘riqxonalarida yong‘inga qarshi tadbirlar o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Davlat qo‘riqxonalari hududida hamda ularning qo‘riqlanma zonalarida tirik organizmlarning yangi va kenja turlarini iqlimlashtirish maqsadida joylashtirish taqiqlanadi.

Davlat qo‘riqxonalarining yoki ular qaysi davlat organlarining tasarrufida bo‘lsa, shu davlat organlarining xodimi hisoblanmaydigan fuqarolarning davlat qo‘riqxonalari hududida bo‘lishiga ularda ana shu organlar yoki davlat qo‘riqxonasi ma‘muriyati bergan ruxsatnoma bo‘lgan taqdirda yo‘l qo‘yiladi («Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida»gi Qonunning 19-moddasi).

JK 204-moddasi 1-qismining obyektiv tomoni muhofaza etiladigan tabiiy hududlar rejimini ko‘p miqdorda zarar yoki boshqa og‘ir oqibatlarni keltirib chiqargan buzish bilan ifodalanadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar rejimini buzishga **quyidagilar kiritiladi:**

- tabiiy-qo‘riqxonada fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish;
- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni barpo qilish va tashkillashtirish loyihalari talablariga rioya qilmaslik;
- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning qo‘riqlanadigan chegarasi ichida taqiqlangan xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish;
- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning qo‘riqlanadigan chegarasi ichida oldindan ekologiya ekspertizasini amalga oshirmay turib yoki uning xulosalarini buzgan holda xo‘jalik faoliyati yuritish;
- falokatlarning ekologik oqibatlari hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga boshqacha zararli ta‘sir ko‘rsatishning oldini olish va uni bartaraf qilish choralarini ko‘rmaslik;
- muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanish talablarini

buzish;

— ruxsat etilgan kimyoviy, fizik, biologik va boshqa ta'sir me'yorini oshirib yuborish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanish uchun berilgan ruxsatnoma talablariga rioya qilmaslik;

— muhofaza etiladigan tabiiy obyektlardagi hamda ular tarkibiga kiritish uchun zaxiraga kiritilgan tabiat majmualariga zarar yetkazish, buzish va ularni yo'q qilib yuborish;

— muhofaza etiladigan tabiiy hududlar chegaralarini boshqa maqsadlar uchun o'zboshimchalik bilan o'zgartirish, ajratib olish.

JK 204-moddasi 1-qismida ko'zda tutilgan jinoyat aybdor shaxs tomonidan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar rejimini har qanday tarzda buzish ko'p miqdorda zarar yoki boshqacha og'ir oqibatlarini keltirib chiqargan vaqgdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Boshqa og'ir oqibatlar qatoriga muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan ko'zlangan maqsadda foydalana olmaslik, davlat qo'riqxonasi yoki majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining uzoq muddatga yopilishi, qimmat tiklash ishlarini amalga oshirish, o'simliklarni qayta ko'chirib ekish, hayvon, qushlarni tutib, boshqa hududlarga ko'chirish zarurati kabilar kiradi.

Zarar yetkazilishi va harakat (harakatsizlik) o'rtasidagi sababiy bog'lanishning mavjudligi aniqlanishi shart.

JK 204-moddasi 2-qismining **obyektiv tomoni** muhofaza etiladigan tabiiy hududlar obyektlarini qasddan nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish ko'p miqdordagi zarar yetkazilishi yoxud boshqa og'ir oqibatlarga olib kelishida ifodalanadi.

JK 204-moddasi 2-qismida ko'zda tutilgan jinoyat muhofaza etiladigan tabiiy hududlar obyektlarini qasddan nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish oqibatida ko'p miqdordagi zarar yoki boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqqan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

(«Nobud qilish», «shikast yetkazish» tushunchalari yuqorida boshqa o'xshash jinoyatlarning tahlilida bayon qilingan.)

Subyektiv tomondan jinoyat aybning qasd shaklida namoyon bo'lganda, shaxs suv va suv havzalaridan foydalanishga oid tegishli

qoidalarni buzayotganligini anglaydi, og‘ir oqibatlar kelib chiqishini oldindan ko‘ra oladi va ularning kelib chiqishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yadi (**to‘g‘ri qasd**) yoxud shaxs og‘ir oqibatlar kelib chiqishini oldindan ko‘ra oladi va ongli ravishda ehtiyot choralarini ko‘rmasdan, bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga hech bir asossiz ishonadi yoki bunday oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko‘rishi lozim va mumkin bo‘lgan holatda ularni oldindan ko‘ra olmaydi (**egri qasd**).

Jinoyatning **maqsadi** va **motiva** kvalifikatsiyaga ta‘sir qilmaydi.

Jinoyat **subyekt**i 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi. Ular jumlasiga mansabdor shaxslar, shu jumladan yerlarida majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalari va tabiat yodgorliklari joylashgan korxonalar, muassasa va tashkilot rahbarlari, ushbu hududlarni muhofaza qilish xodimlari kiradi.

«Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Ekologiya xavfsizligi talablari va normalari buzilishi turlarini ko‘rsating. Ushbu jinoyat subyektining o‘ziga xos xususiyatlari.

2. Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko‘rsatish nimalarda namoyon bo‘ladi?

3. Atrof tabiiy muhit ifloslanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yashirish yoki buzib ko‘rsatishning atrof muhitni ifloslantirishning oldini olish choralarini ko‘rmaslikdan farqi. Ularning o‘xshashligi nimada?

4. Atrof tabiiy muhit zararlanishining oldini olmaganlik qanday jinoiy oqibatlarni vujudga keltiradi?

5. Atrof muhitning zararlanishi deganda nima tushuniladi? Ushbu ifloslanishning sabablari qanday bo‘lishi mumkin?

6. Atrof muhitni zararlantirganlik uchun jinoiy javobgarlikning shartlarini ko‘rsating.

7. Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlari yoki ularni muhofaza qilish talablarining buzilishi nimalarda namoyon bo‘ladi?

8. Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarining yoki ularni muhofaza qilish talablarining buzilganligi uchun kim javobgar bo‘ladi?

9. Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzganlikning o'z xizmat vazifasiga sovuqqonlik jinoyatidan farqi.

10. Ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarga shikast yetkazish yoki ularni nobud qilish deganda nima tushuniladi? Ushbu jinoyat uchun jinoiy javobgarlikning kelib chiqish shartlari.

11. Ekinzor, o'rmon yoki boshqa dov-daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesish deganda nimani tushunasiz? Ushbu qilmishni sodir etganlik uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari.

12. O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalariga qarshi kurash talablarini buzishning o'ziga xos xususiyatlari.

13. Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalarini buzish nimalarda ifodalanadi? Ushbu qilmishning jinoiy oqibatlarini qanday?

14. Zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikning shartlarini ko'rsating.

15. Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzishga qanday qilmishlar kiradi? Ushbu qilmish uchun jazoni og'irlashtiruvchi qanday belgilar mavjud?

16. Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishning shartlari.

17. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartiblarini buzishga nimalar kiradi?

18. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tartibini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishning shartlarini ko'rsating.

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Вольфман Г.И. Ответственность за преступления в области охраны природы: квалификация и наказание. — Саратов: Саратовский университет, 1984.

Желваков Э.Н. Преступления против природных богатств. — М.: ВЮЗИ, 1983.

Желваков Э.Н. Экологические преступления: понятие, виды,

квалификация. — М.: НИИП, 1995.

Кольско А.Ю., Маляева Е.О. Экологические преступления. — Новгород: 1993.

Лопашенко Н.А. Экологические преступления: Комментарий к главе 26 УК РФ. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. — 800 В.


Широков В.А. Преступления в области охраны окружающей среды. — Хабаровск: 1989.

Ilmiy maqolalar


Зуев Е. Ответственность за незаконную охоту // Ж. Охота и охотничье хозяйство. 1980. № 8.


VI BOB. BOSHQARUV TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR

8-sxema



9-sxema





1-§. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish (JK 205-moddasi)

Jinoyatning asosiy bevosita obyekti davlat hokimiyati, boshqaruv va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Qo'shimcha bevosita obyekti** sifatida fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, ya'ni mansabdor shaxsning o'z mansab vakolatidan turli

niyatlarda foydalanishi natijasida fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishida ifodalanadi.

Hokimiyat vakolatini suiiste‘mol qilish deganda, mansabdor shaxsning o‘z mansab mavqeidan fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlariga qarshi qasddan foydalanishini tushunish lozim.

Mansab vakolatini suiiste‘mol qilish deganda, mansabdor shaxsning mansab mavqeidan kelib chiqqan va bu shaxs egallagan lavozimi vakolatiga berilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq, biroq o‘z mazmuni bo‘yicha tegishli organning faoliyat olib borishidan ko‘zlangan maqsad va vazifalarga zid keluvchi harakatlarini tushunish lozim.

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste‘mol qilish davlat hokimiyati va boshqaruvi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv organlari mavqeiga putur yetkazish; o‘zganing mulkini talon-toroj qilishni yashirish; turli moliyaviy talon-torojlarni amalga oshirish; davlat, jamoat yoki boshqa o‘zga mulk hisobidan, uni tortib olmasdan g‘arazli foyda olish; alohida fuqarolarga tegishli mulk hisobiga g‘ayriqonuniy boyish va boshqalardan iborat.

Hokimiyat deganda, ma‘lum bir vositalar — iroda, nufuz, huquq, majburlov, siyosiy hukmronlik, davlat organlari tizimi orqali insonlar faoliyatiga, xulq-atvoriga ta‘sir etish qobiliyati va imkoniyati tushuniladi¹.

Mansabdor shaxs tomonidan o‘z xizmat vakolatini suiiste‘mol qilishga lavozimni egallab turgan vaqt davomida vakolatlarni suiiste‘mol qilish kiritiladi. Mansabdor shaxs o‘ziga kerakli bo‘lgan qarorga erishish maqsadida o‘z xizmat vakolatlaridan emas, balki xizmat yoki shaxsiy aloqalari, egallab turgan lavozimning obro‘sidan foydalansa, jinoyat tarkibi bo‘lmaydi.

Tergov organlari va sud tomonidan fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilganligi masalasi muayyan ishning barcha holatlarini e‘tiborga olgan holda hal etiladi.

¹Қаранг: Большой энциклопедический словарь / Гл. ред. А.М. Прохоров. 2-ое изд., перераб. и доп. — М.: 1998. — 212-б.

Mansabdor shaxs vakolati muayyan mansabni yoki vaqtinchalik yoxud maxsus vakolat bilan ushbu mansab bo'yicha vazifani bajaruvchi shaxsning huquq va majburiyatlari tartibga solingan tegishli qonunlar, nizom va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan uning kompetentsiyasi bilan belgilanadi.

Mansab vakolatini suiiste'mol qilish shakllari (mansabdor shaxslarning faoliyati sohasi) turlicha bo'lishi mumkin. Bu bo'ysunuvchilarning mehnatidan shaxsiy manfaatlar yo'lida g'ayriqonuniy foydalanish (masalan, ishchilarning shaxsiy dala hovlilar qurilishida, uylarni ta'mir qilishida); qo'l ostidagi xodimlarning mehnatini o'zlashtirib olish; turar joy taqsimotida suiiste'mol qilish; korxonalarni xususiy lashtirish jarayonida mansab mavqeidan foydalanib, xususiy mulk sifatida sotib olish maqsadida yoki amaldor tomonidan aksiyalarning ancha qismini egallab olinishida mansabdor shaxs o'zining, unga yaqin kishining yoki boshqa xususiy shaxslarning manfaatlarini himoya qilib mansab vakolatidan foydalanishi; umumdavlat ehtiyojlariga mo'ljallangan moliya va kreditni g'arazli yoki boshqa past niyatda tijorat tashkilotlariga g'ayriqonuniy berib yuborish; Budjet mablag'larini behuda sarflash, shu jumladan bu mablag'larning tijorat banklarida aylantirilishi; kredit, qimmatbaho qog'ozlarni, ko'chmas va boshqa mulkni olishda huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilmagan imtiyozlardan foydalanish; shaxsiy yoki guruh maqsadlarida xizmat faoliyati uchun taqdim etilgan xonalar, transport va aloqa, elektron-hisoblash texnikasi, pul mablag'lari va boshqa mulkdan foydalanish va boshqalar.

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish o'z xususiyatlariga ko'ra qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarni faol xulq-atvor orqali amalga oshirishga qaratilgan harakatda namoyon bo'ladi.

Harakatsizlik orqali amalga oshiriladigan hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish JKning 208-moddasida (Hokimiyat harakatsizligi) nazarda tutilgan jinoyatni tashkil etadi.

Mansabdor shaxs tomonidan uz xizmat vakolatini suiiste'mol qilishga lavozimni egallab turgan vaqt davomida vakolatlarni suiiste'mol qilish kiritiladi. Mansabdor shaxs o'ziga kerakli bo'lgan qarorga erishish

maqsadida o'z xizmat vakolatlaridan emas, balki xizmat yoki shaxsiy aloqalari, egallab turgan lavozimning obro'sidan foydalansa, jinoyat tarkibi bo'lmaydi.

Sharhlanayotgan modda bo'yicha kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish natijasida fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazish hisoblanadi.

Jinoyat ko'p miqdorda zarar yoxud fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi. Fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga yetkazilgan zarar miqdorini e'tirof etish to'g'risidagi masala muayyan ish holatlari bo'yicha tergov organlari va sud tomonidan hal qilinadi.

«Fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazish moddiy zarar tarzida ham, boy berilgan foyda tarzida ham, shuningdek, turli xil manfaatlarga boshqacha zarar yetkazishda, hokimiyat organlarining obro'siga putur yetkazishda, og'ir jinoyatlarni yashirishda va hokazoda ifodalanishi mumkin»¹.

Jiddiy ziyon baholanadigan tushunchadir, shu bois uni rasmiylashtirilgan miqdoriy ko'rsatkichlarda ifodalash mushkul va u faqat moddiy ziyondan iborat deb qaralmasligi lozim. Ayni paytda aksariyat hollarda mansabni suiiste'mol qilishning oqibati mulkiy ziyon yetkazish bo'lib, uni aniqlashda moddiy ziyonning hajmi, moddiy obyektning qiymati, mulkiy foyda olishning imkoni, shunga o'xshash boshqa ko'pgina omillarni inobatga olish zarur, chunki ularning yig'indisi fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga yetkazilgan zararining jiddiyligidan guvohlik

¹ *Қаранг:* Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иктисодиёт соҳасидаги жинойий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгар-тириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 123-124-б.

beradi. Zararning jiddiyligi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini poymol qilish hamda davlat hokimiyati tegishli idoralarning nufuzi va ishonchining pasayish darajasi bilan aniqlanishi mumkin. Yetkazilgan zararning jiddiyligi davlat tashkilotlari, muassasalari, korxonalari, jamoat birlashmalari va hokazolar faoliyatidagi boshboshdoqlikda ham namoyon bo'lishi mumkin. Mansabdor shaxs tomonidan inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari buzilishini ham jiddiy ziyon deb hisoblash zarur.

Jismoniy ziyon, agar u salomatlikka zarar yetkazishda ifodalansa, shaxs huquqlarining jiddiy buzilishi deb topiladi.

Yakka tadbirkor yoxud tashkilotning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishi ularning faoliyatiga noqonuniy aralashuv, tadbirkorlik erkinligining va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turi bilan shugullanishning cheklanishi, agar ular raqobatining cheklanishi monopolistik faoliyatga erk berish va hokazolar bilan bogliq bo'lsa, qonun bilan muhofaza qilinayotgan davlat va jamoat manfaatlarining buzilishi davlat organlari ishida jiddiy xatoliklarga, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari obro'siga putur yetkazishda, ogir jinoyatlarni yash rishda namoyon bo'lishi mumkin.

Yetkazilgan ziyon jiddiy bo'lmasa, mansabdor shaxsning hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilganlik uchun jinoiy javobgarligi istisno qilinib, unga nisbatan intizomiy yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan o'rnatilgan boshqa javobgarlik belgilanadi. Kelib chiqqan oqibatning jiddiy yoki jiddiy emas deb baholanishi mansabdorlik jinoyatlarini (hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, mansabga sovuqqonlik bilan qarashni) farqlashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish moddiy tarkibli jinoyat bo'lganligi uchun, ya'ni sharhlanayotgan moddaga ko'ra mansabdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun modda dispozitsiyasida ko'rsatilgan oqibatlar kelib chiqishi zarur bo'lganligi uchun ular o'rtasidagi sababiy boglanish muhim ahamiyat kasb etadi va

obyektiv tomonning zaruriy belgisi hisoblanadi. Hokimiyatni yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish va ko'p miqdorda zarar yoxud fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilishi o'rtasidagi sababiy boglanish aniqlangandan keyingina bu oqibatlarni mansabdor shaxs zimmasiga yuklash mumkin.

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishning **subyektiv tomoni** qasddan sodir etilishi bilan tavsiflanadi. Aybdor mansab vakolatini suiiste'mol qilib harakat qilayotganligini, qilmishining ijtimoiy xavfliligini va buning natijasida sharhlanayotgan modda dispozitsiyasida ko'rsatilgan oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini anglaydi hamda ularning kelib chiqishini istaydi (to'g'ri qasd) yoki ongli ravishda yo'l qo'yadi (egri qasd).

Jinoyat **motivlari** turlicha bo'lishi mumkin. Biroq ko'pincha bu g'arazli manfaatdorlik, shuhratparastlik, o'ch olish, hasad, oilaparvarlik, ishning haqiqiy holatini bo'rttirib ko'rsatishga harakat qilish va hokazolar bo'lishi mumkin.

G'arazli manfaatdorlik jinoyat subyektining hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish vositasida qandaydir foydaga erishishga intilishida namoyon bo'ladi.

JKning 205-moddasi 1-qismi bo'yicha hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyati **subyektiv** maxsus. Ya'ni **18 yoshga** to'lgan mansabdor shaxslar bo'lishi mumkin.

Mansabdor shaxs tushunchasi yuridik adabiyotlarda ancha bahsli hisoblanadi. JK VIII bo'limida mansabdor shaxs va mas'ul mansabdor shaxs tushunchalari berilgan.

NOTA BENE !

Mansabdor shaxs — tashkiliy-boshqaruv yoki ma'muriy-xo'jalik vakolatlari berilgan va mas'ul mansabdor shaxs alomatlariga ega bo'lmagan shaxsdir.

Tashkiliy-boshqaruv vakolatlari deganda, muayyan faoliyat uchastkasiga, ayrim xodimlarning ishlab chiqarish faoliyatiga rahbarlik

qilish vazifalari tushuniladi. Masalan, vazirliklar, idoralar, boshqarmalarning rahbarlari (direktorlar, ularning o‘rinbosarlari, tarkibiy bo‘linmalarining rahbarlari va h.k.). Ushbu mansabdor shaxslarning faoliyati kadrlarni tanlash va ularga rahbarlik qilish, ularni joy-joyiga qo‘yish, ularning faoliyatini tashkil etish va nazorat qilishdan iborat bo‘lishi mumkin.

Ma‘muriy-xo‘jalik vakolatlari deganda, mol-mulkni boshqarish va tasarruf etish, uni saqlash shartlari va tartibini belgilash, mol-mulkning asralishini, sotilishini ta‘minlash singari vazifalar tushuniladi. Masalan, ma‘muriy-xo‘jalik qismi, ta‘minot, sotuv rahbari, ombor, buxgalteriya mudirlari singarilar shunday vakolatlarga ega bo‘lgan shaxslar hisoblanadi.

Mansabdor shaxs tashkiliy-boshqaruv yoki ma‘muriy-xo‘jalik vazifalarini bajarish bilan bog‘liq lavozimga doimiy yoki vaqtincha saylanganligi yoki tayinlanganligidan qat‘i nazar, u mansabdor shaxs deb hisoblanaveradi.

Mas‘ul mansabdor shaxs deganda:

- 1) hokimiyat vakillari;
- 2) davlat korxonasi, muassasasi yoki tashkilotlarida saylash yoki tayinlash bo‘yicha doimiy yoki vaqtincha tashkiliy-boshqaruv yoxud ma‘muriy-xo‘jalik vazifalarini bajarish bilan bog‘liq lavozimlarni egallab turgan va yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxslar;
- 3) mulkchilikning boshqa shakllaridagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari, davlat boshqaruvi yuzasidan belgilangan tartibda hokimiyat vakolati berilgan jamoatchilik vakillari;
- 4) tashkiliy-boshqaruv yoki ma‘muriy-xo‘jalik vazifalarini bajarish bilan bog‘liq lavozimlarni egallab turgan va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxslar tushuniladi.

Hokimiyat vakillari jumlasiga o‘z vakolatlari doirasida nomuayyan doiradagi shaxslarga yoxud har qanday tarkibiy bo‘linmalarining (korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning) rahbarlariga, bunday fuqarolar yoxud korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari, ularga xizmat

yuzasidan bo‘ysunuvidan qat’i nazar, ular bajarishi uchun majburiy qonuniy talablar qo‘yish huquqi berilgan mansabdor shaxslar toifasi kiradi.

Hokimiyat vakillari jumlasiga, Oliy Majlis deputatlari, shuningdek, viloyat, shahar va boshqa darajalardagi hokimiyat organlarining deputatlari; huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari (prokurorlar, ularning o‘rinbosarlari va h.k.); sudyalar, sud ijrochilari; militsiya xodimlari; barcha darajadagi hokimlar, bojxona va soliq xizmati xodimlari, davlatning turli nazorat organlari xodimlari va boshqa shu singarilar kiradilar.

Har qanday hokimiyat organida ishlovchi, ammo hokimiyat vakolatlari (ma’muriy vakolatlar) berilmagan shaxslar hokimiyat vakillari deb e’tirof etilmasliklari lozim.

Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarni bajarish deganda, shaxs tomonidan biron-bir huquqiy munosabatni yuzaga keltirishi, o‘zgartirishi yoki tugatishi mumkin bo‘lgan harakatlarning bajarilishi tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi Qonunining 12-moddasida: «Yig‘in raisi (oqsoqoli) va u tayinlaydigan kotib yig‘in qarorlari bajarilishini, shuningdek, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining joriy faoliyatini tashkil etadi va amalga oshiradi»¹ deyilgan, demak oqsoqol va kotib fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari hisoblanadilar.

Qonun mazmunidan ko‘rinib turibdiki, oqsoqol va kotiblar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari hisoblanadi.

Qonunning 16-moddasiga ko‘ra, «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari tegishli hududda yashovchi fuqarolar, shuningdek, shaharcha, qishloq, ovul va mahalla hududida joylashgan yuridik shaxslar (ularning mansabdor shaxslari) tomonidan ijro etilishi shart».

¹ *Qarang:* Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 2 сентябрдаги «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги 915-ХП-сон Қонуни (Ўзбекистон Республикаси 2013 йил 22 апрелдаги ЎРҚ 350-сон Қонунининг таҳририда), 12-модданинг 1-қисми // «Халқ сўзи», 2013 йил 23 апрель; "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2013 йил 29 апрель, 17-сон, 219-модда; "Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси", 2013 йил, 4-сон, 96-модда

JK 205-moddasi 2-qismida hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishning:

- a) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab.

Hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish natijasida yetkazilgan **juda ko'p miqdordagi zarar** deganda, eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi zararni tushunish lozim. (*JKning Maxsus qismi VIII bo'limiga qarang*).

Uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab **hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish** JKning 205-moddasi 2-qismi «b» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Subyektiv tomonning umumiy belgilariga ko'ra mazkur holatda aybning qasd shakli intellektual elementi mansabdor shaxsning uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab jinoyatni ongli ravishda sodir etishi bilan tavsiflanadi.

Uyushgan guruh – jinoyatdagi ishtirokchilikning eng xavfli shakllaridan biridir. Uyushgan guruhning umumiy tushunchasi, jinoyat turidan qat'i nazar, JKning 29-moddasida ochib berilgan. Bunda qonunda belgilanishicha, uyushgan guruh tomonidan jinoyat sodir etilishi Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan asoslarga ko'ra og'irroq javobgarlikni keltirib chiqaradi. (*JKning 29-moddasi sharhiga qarang*).

Uyushgan guruhlarga nisbatan bir necha shaxslar birlashishining qat'iyligi belgisi konstitutsiyaviy va belgilovchi xususiyat sifatida ko'proq guruh jinoiy faoliyatining nisbatan davomiyligida, uning jinoiy ixtisoslashuvida, shunga o'xshash guruhlarning faoliyat doirasini bo'lib olishda, har bir ishtirokchining rollari va vazifalarini aniq taqsimlashda, lider (tashkilotchi, boshliq) mavjud bo'lishida, jinoiy faoliyatni muayyan muddatga rejalashtirishda ifoda etiladi.

Uyushgan guruh manfaatlari – uyushgan guruhni u yoki bu ijtimoiy xavfli harakatlar sodir etishga undaydigan yoxud ularni muvafaqqiyatli sodir etishga sharoit yaratuvchi holatlar. Bunday manfaatlarga, chunonchi, u yoki bu tashkilotlar faoliyati to'g'risida axborot taqdim etish, uyushgan guruhni fosh qiluvchi axborotni yo'q qilish, uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab jinoyat sodir etish, xususan, hokimiyat yoki mansab vakolatini

suiiste'mol qilish jinoyiy maqsadini amalga oshirishda yordam berish va hokazolar kiradi.

Qilmishni uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab deb kvalifikatsiya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar mansabdor shaxs jinoyatni uyushgan guruhning manfaatlarini ko'zlab sodir etayotganiga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Sharhlanayotgan moddada ko'zda tutilgan jinoyatni kvalifikatsiya qilishda **hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish** ayrim mansabdorlik jinoyatlariga nisbatan umumiy norma hisoblanadi, masalan, mansab soxtakorligi (JKning 209-moddasi); pora olish (JKning 210-moddasi). Bunday hollarda aybdorning harakatlari maxsus normaga ko'ra kvalifikatsiya qilinadi.

Masalan, yakka tartibda ish olib boruvchi tadbirkor yoki tashkilotning rahbari tomonidan bankka yoki boshqa kredit tashkilotiga tadbirkorning yoki tashkilotning xo'jalik ahvoli yoki moliyaviy holati to'g'risida bila turib yolg'on ma'lumotlarni taqdim qilish yo'li bilan kredit yoxud kredit olish uchun imtiyozlarning olinishini, kredit mablag'larini o'zlashtirish yoki tekinga olish maqsadi bo'lmagan taqdirda, Jinoyat kodeksining 205 yoki 170-moddalari bilan kvalifikatsiya qilish kerak.

Mansabdor shaxsning kreditni o'z vaqtida qaytarishdan qasddan bosh tortishini ham, talon-toroj kilish alomatlari bo'lmagan taqdirda, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish deb, agar bu xil harakatlar jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilsa, Jinoyat kodeksining 170-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish kerak.

Talon-toroj qilish alomatlari bo'lmay turib noqonuniy pulkreditlar berish ham Jinoyat kodeksining 205-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Agar ish bo'yicha qimmatli qog'ozlar chiqarish va ular bilan muomala qilishni tartibga soluvchi amaldagi qonunlarni buzganlik aniqlanib, Jinoyat kodeksining 205-moddasi dispozitsiyasida ko'rsatilgan belgilar mavjud bo'lganda, bunday harakatlar hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunday qonun buzishlar jumlasiga, masalan, fuqarolarga va chet ellik investorlarga erkin sotish uchun mo'ljallangan aksiya paketlarini sotishga to'sqinlik qilish

kiritilishi mumkin.

2-§. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (JK 206-moddasi)

Jinoyatning bevosita obyekti davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining normal faoliyat yuritishini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Qo'shimcha bevosita obyekt** sifatida fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, ya'ni mansabdor shaxsning qonunda belgilangan vakolatlari doirasidan chetga chiqadigan harakatlarni sodir etishi, fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lishida ifodalanadi.

Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish obyektiv tomonining zaruriy belgisi fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga putur yetkazish ko'rinishidagi ijtimoiy xavfli oqibatlarining kelib chiqishi, shuningdek, qilmish va oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish bo'lishi mumkin.

Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish faqat harakatlar orqali amalga oshiriladi.

Mansabdor shaxsning qonun belgilab bergan vakolat doirasidan chetga chiqqan harakatlari deganda, mansabdor shaxsning vakolatini tartibga soladigan normativ hujjatlar yoki idoraviy ko'rsatmalarda belgilanmagan, ya'ni uning huquq va vakolatlariga kirmaydigan harakatlarni sodir etishi tushuniladi.

Bu o'z navbatida mansab vakolatlaridan chetga chiqish jinoyatini faqatgina harakat orqali sodir etilishini anglatib, bu jinoyat qonun mazmunidan ko'rinib turibdiki harakatsizlikdan sodir etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi sud amaliyotida eng ko'p uchraydigan hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga

chiqishning bir qancha ko‘rinishlarini belgilab o‘tgan bo‘lib, ular mansabdor shaxsning boshqa mansabdor shaxs vakolatiga taalluqli harakatlarni amalga oshirishi; qonun va qonunosti hujjatlarida ko‘rsatilgan, uning o‘zi tomonidan faqat o‘ta zarur hollarda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan harakatlarni sodir etishi (masalan, yuqori turuvchi rahbar roziligi bilan); hech kim, hech qanday holatda bajarish huquqiga ega bo‘la olmaydigan qilmishlarni sodir etishidan iborat (masalan, muayyan mansabdor shaxs oldiga qabulga kelgan fuqaroga nisbatan zo‘rluk ishlatilishi). Bundan tashqari, kollegial amalga oshiriladigan harakatlarni mansabdor shaxsning yakka o‘zi amalga oshirishini ham vakolat doirasidan chetga chiqish deb hisoblash lozim¹.

Mansabdor shaxs vakolati muayyan mansabni yoki vaqtinchalik yoxud maxsus vakolat bilan ushbu mansab bo‘yicha vazifani bajaruvchi shaxsning huquq va majburiyatlari tartibga solingan tegishli qonunlar, nizom va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan uning kompetentsiyasi bilan belgilanadi.

Mansabdor shaxsning hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqishi masalasini hal etayotib, uning vakolat doirasini, ularni belgilovchi normativ hujjatlar yoki idoraviy yo‘riqnomalarni aniq belgilab olish va hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish aniq ifodalanganligini aniqlash lozim.

Ushbu modda bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishning zaruriy belgisi mansabdor shaxs sodir etgan g‘ayriqonuniy harakatlarning uning mansab vakolatlari bilan aloqasi hisoblanadi. Mansabdor shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari hamda uning hokimiyat va mansab vakolati o‘rtasidagi aloqaning yo‘qligi hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish jinoyati tarkibini hosil qilmaydi.

(«Jiddiy ziyon» tushunchasi haqida JKning 205-moddasi tahliliga qarang.)

Agar hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 124-б.

jabrlanuvchiga qasddan og‘ir tan jarohati yetkazish bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lsa, qilmish jinoyatlar majmui bo‘yicha JK 206- va 104-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Kaltaklash, badanga yengil va o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish qilmish tarkibiga kiritilib, tegishli moddalarga ko‘ra qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinishi talab qilinmaydi.

Sharhlanayotgan jinoyat tarkibining sababiy bog‘lanishi mansabdor shaxsning hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish harakatlari va vujudga kelgan oqibatlar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishda namoyon bo‘ladi. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqqanlik uchun javobgarlik mansabdor shaxsning harakatlari huquq va manfaatlariga ziyon yetkazilgan jabrlanuvchi (jismoniy yoki yuridik shaxs)ga nisbatan u yoki bu vakolatlarga ega bo‘lganidagina vujudga keladi.

Hokimiyat yoki mansab vakolat doirasidan chetga chiqishning **subyektiv tomoni** aybning qasd shakli bilan tavsiflanadi. Aybdor o‘z qilmishining o‘ziga berilgan hokimiyat va mansab vakolati doirasidan chetga chiqish harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglaydi, natijada fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazishi mumkinligini oldindan ko‘ra biladi va istaydi (to‘g‘ri qasd) yoki ongli ravishda unga yo‘l qo‘yadi (egri qasd).

Jinoyat sodir etishning **motivlari** turlicha bo‘lishi mumkin (ish manfaatlarini noto‘g‘ri tushunish, mansabparastlik, hasad, o‘ch olish va boshqa shaxsiy adovatlar), lekin ular jinoiy javobgarlikka va jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta‘sir ko‘rsatmaydi. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish motivi va maqsadi jinoyat tarkibining zaruriy belgilari qatoriga kirmaydi va jinoiy javobgarlik kelib chiqishiga ta‘sir ko‘rsatmaydi. Biroq jazo tayinlanishida hisobga olinishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddaning 1-qismi **subyekti** faqat 18 yoshga to‘lgan, tashkiliy-boshqaruv yoki ma‘muriy-xo‘jalik vakolatlari berilgan, mansabdor shaxs bo‘lishi mumkin, ya‘ni mazkur jinoyat subyekti — maxsus.

(«Mansabdor shaxs» tushunchasi xususida JK 205-moddasining sharhiga qarang.)

Ushbu moddaning 2-qismida hokimiyat yoki mansab vakolatidan chetga chiqishni quyidagi javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarda:

- a) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab.

3-§. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash (JK 207-moddasi)

Jinoyatning bevosita obyekti davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining normal faoliyat yuritishi doirasida kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Qo‘shimcha bevosita obyekt** — fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar.

Obyektiv tomondan jinoyat mansabdor shaxsning o‘z vazifalariga loqaydlik yoki vijdotsizlarcha munosabatda bo‘lishi oqibatida ularni bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lishida ifodalanadi.

Mansabdor shaxs tomonidan uz vazifalarini bajarmaslik deganda, mansabdor shaxs tomonidan o‘z xizmat mavqeidan foydalanib, sodir etishi lozim bo‘lgan aniq vazifalarini bajarmaslik tushuniladi.

Mansabdor shaxs tomonidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik deganda, mansabdor shaxs tomonidan o‘z vazifalarini yarim-yorti, sifatsiz, kechiktirib bajarish, nomigagina bajarish, muayyan ishni xo‘jako‘rsinga, ko‘zbo‘yamachilik uchun bajarishi va h.k. tushuniladi.

Mansabga sovuqqonlik bilan qarash **harakat** (o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik) yoki **harakatsizlik** (o‘z vazifalarini bajarmaslik) bilan sodir etilishi mumkin.

Shuni nazarda tutish kerakki, mansabdor shaxsning harakati uning tomonidan o‘z vazifalarini lozim darajada bajarish uchun real imkoniyatga ega bo‘lgan, ammo unga loqaydlik yoki vijdotsizlarcha munosabatda

bo‘lish oqibatida bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollardagina mansabga sovuqqonlik bilan qarash deb kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

O‘z vazifalarini lozim darajada bajarishi uchun mansabdor shaxsda real imkoniyat bo‘lmaganligi, uning harakatlarini mansabga sovuqqonlik bilan qarash deb kvalifikatsiya qilishni istisno etadi.

Mansabga sovuqqonlik bilan qarash uchun JK 207-moddasi 1-qismiga ko‘ra, fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilgan hollardagina jinoiy javobgarlik o‘rnatiladi.

Sharhlanayotgan jinoyatga nisbatan **kup miqdorda zarar** yetkazilishi deb, eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdordagi zararni e‘tirof etish lozim.

(«Jiddiy ziyon» tushunchasi uchun JK 205-moddasi tahliliga qarang.)

Fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorida zarar yoki jiddiy ziyon yetkazish bilan mansabdor shaxs yo‘lga qo‘ygan mansabga sovuqqonlik bilan qarash o‘rtasida sababiy bog‘lanish bo‘lishi kerak. Bunday sababiy bog‘lanishning yo‘qligi jinoiy javobgarlikni istisno qiladi.

Mansabga sovuqqonlik bilan qarashning tarkibi tuzilishiga ko‘ra moddiydir. Jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazish ko‘rinishidagi ijtimoiy xavfli oqibatning kelib chiqishidir. Jinoyat ko‘rsatilgan oqibatlardan birining kelib chiqishi natijasida **tugallangan** hisoblanadi.

Mansabdor shaxsning o‘z mansab vazifalarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik hollarini kasbiy (professional) vazifalarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslikdan farqlash zarur. Shuning uchun masalan sog‘liqni saqlash muassasalarining xizmatchilari (kardiolog, xirurg, terapevt va h.k.) mansabdor shaxs (bo‘lim mudiri, mudir o‘rinbosari) sifatida xizmat qilsa-da, kasallikni davolash paytida, operatsiya jarayonida beparvolikka yo‘l qo‘ygan taqdirda, buning oqibatida faqat tegishli hayot va sog‘liqqa qarshi ehtiyotsizlikdan sodir

etilgan jinoyatlari uchun javobgar bo'lishlari mumkin. Shuni nazarda tutish kerakki, mansabdor shaxsning malakasizligi, tajribasizligi, o'z vazifalarini yaxshi bilmasligi tufayli o'z vazifalarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi mansabga sovuqqonlik bilan qarash jinoyatining tarkibini tashkil etmaydi.

Mansabga sovuqqonlik bilan qarashdan kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik natijasida shaxsga o'rtacha yoki og'ir tan jarohatlari yetkazish yoxud insonning vafot etishi holatlarini farqlash lozim (JK 116-moddasi). Shu bois shaxs mansab vakolatiga tegishli bo'lmagan kasb yuzasidan vazifalarini to'la bajarmasa, u holda qilmishni JK 116-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilish kerak. Shaxsning kasb yuzasidan vazifalari mansab vakolatiga to'g'ri kelsa, qilmish ushbu moddaning tegishli qismlari bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Subyektiv tomondan mansabga sovuqqonlik bilan qarash **ehtiyotsizlik** bilan tavsiflanadi. Konunda mansabga sovuqqonlik bilan qarash mansab vakolatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik mansabdor shaxs (mas'ul mansabdor shaxs)ning o'z vazifalariga loqaydlik yoki vijdotsizlarcha munosabatda bo'lishi ekanligi belgilanganligi tufayli, ushbu shaxsda ularni lozim darajada bajarishga real imkoniyati (obyektiv va subyektiv) bor-yo'qligini aniqlash taqozo etiladi.

Jinoyatning subyektiv tomoni qonunning o'zida ochib berilgan va mansabdor shaxs (mas'ul mansabdor shaxs)ning mansab vakolatlarini bajarishga loqayd va vijdotsizlarcha munosabati bilan tavsiflanadi. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash ehtiyotsizlikning jinoiy beparvolik yoki o'ziga o'zi ishonish shakllarida namoyon bo'lishi mumkin.

Shaxsga yuklatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarish yoki bajarmaslikning obyektiv imkoniyati, birinchi navbatda, tashqi sharoitlar bilan bog'liq, ya'ni ularni vujudga keltirish mazkur shaxsga bog'liq bo'lmaydi.

Mansabga sovuqqonlik bilan qarash **subyekti** faqatgina 18 yoshga to'lgan mansabdor shaxs bo'lishi mumkin.

(«Mansabdor shaxs» tushunchasi haqida JKning 205-moddasi tahliliga qarang.)

O'rganilayotgan **moddaning 2-qismida** badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lgan mansabga sovuqqonlik bilan qarash uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 207-moddasining 3-qismida mansabdor shaxs tomonidan o'z vazifalarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik:

a) odam o'limiga;

b) giyohvandlik vositalari ularning analoglari va psixotrop moddalarining ko'p miqdorda O'zbekiston Respublikasi davlat yoki bojxona chegaralari orqali qonunga xilof ravishda olib o'tilishiga sabab bo'lganligi uchun javobgarlik belgilangan.

(«O'zbekiston Respublikasi davlat yoki bojxona chegaralari orqali qonunga xilof ravishda olib o'tish» tushunchasi haqida JK 182-moddasi tahliliga qarang.)

4-§. Hokimiyat harakatsizligi (JK 208-moddasi)

Jinoyatning bevosita obyekti davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining normal faoliyat yuritishi doirasida kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Qo'shimcha bevosita obyekti** fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir.

Obyektiv tomondan jinoyat mansabdor shaxsning o'z xizmat vazifasiga ko'ra bajarishi shart va mumkin bo'lgan harakatlarni bajarmasligi natijasida fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lishida, shuningdek, bunday harakatsizlik tufayli jinoyatga yo'l qo'yilishida ifodalanadi.

Jinoyatni mazkur norma bilan kvalifikatsiya qilish uchun mansabdor shaxsning o'z xizmat vakolatlari doirasiga kiruvchi va shu harakatlarni bajarishining real imkoniyati mavjud bo'lgani holda, bu harakatlarni bajarmaganligiga e'tibor berish kerak.

Jinoyatning zaruriy belgisi JK 208-moddasining dispozitsiyasiga muvofiq, hokimiyat harakatsizligi, ya'ni mansabdor shaxsning o'z xizmat

vazifasi yuzasidan bajarishi shart va mumkin bo'lgan harakatlarni qasddan bajarmasligi fuqarolarning manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lishi hisoblanadi.

Yo'l qo'yish deganda, jinoyat sodir etilishiga to'sqinlik qilishi lozim va mumkin bo'lgan mansabdor shaxsning jinoyatning sodir etilishiga to'sqinlik qilmasligi tushuniladi.

Mansabdor shaxsning qilmishini hokimiyat harakatsizligi sifatida kvalifikatsiya qilish uchun bu harakat, qonunga ko'ra, uning mansab yoki xizmat majburiyati hisoblanishi kerak. Yo'l qo'yib berish mansabdor shaxsning tayyorlanayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyatning oldini olish imkoniyatiga ega bo'la turib hech qanday chora ko'rmasligi shaklida namoyon bo'ladi.

Mansabdor shaxs yo'l qo'yib berishga oldindan va'da bergan hollarda, uning harakatlari ishtirokchilikda yordamchi, deb kvalifikatsiya qilinmog'i lozim.

Mansabdor shaxsning mansab yoki xizmat mavqeiga ko'ra jinoyat sodir etishga yo'l qo'yishi qonunga binoan hokimiyat harakatsizligi, deb baholanishi kerak. Yo'l qo'yishdagi harakatsizlik tayyorlanayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyatning payini qirqish uchun biron-bir chora ko'rmaslikda yoxud tayyorlanayotgan jinoyatning boshqa shaxslar sodir etgan jinoyat oqibatlarining oldini olish uchun chora ko'rmaslikda ifodalanishi mumkin.

Hokimiyat harakatsizligi moddiy tarkibli jinoyatdir. Fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishi tarzidagi oqibatlarning ro'y berganligi jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Hokimiyat harakatsizligi jinoyatga yo'l qo'yish bilan aloqador bo'lgan hollarda, u jinoyat sodir etishga yo'l qo'yilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb topiladi.

Jinoyat **subyektiv tomondan** qasddan, **to'g'ri** yoki **egri** qasd bilan sodir etilishi mumkin.

Motiv va **maqsad** jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

Sharhlanayotgan moddaning **subyekt**i 18 yoshga to'lgan mansabdor shaxs (JK 205-moddasi tahliliga qarang) hisoblanadi.

5-§. Mansab soxtakorligi (JK 209-moddasi)

Jinoyatning bevosita obyekti davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining normal faoliyat yuritishi doirasida kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Qo'shimcha bevosita obyekt**i fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir.

Mansab soxtakorligining predmeti rasmiy hujjatlardir.

NOTA BENE !

Hujjat — yuridik ahamiyatga ega bo'lgan fakt, voqea, hodisani, biron-bir muayyan harakatlarni guvohlantiruvchi yozma aktdir.

Aniq faktlar yoki hodisalarni tasdiqlovchi, yuridik ahamiyatga ega rasmiy hujjatlar umumiy qoida bo'yicha tegishli shakl va rekvizitlarga ega (blanka, shtamp, muhr, kirish yoki chiqish raqami, sana, mansab nomi va tegishli mansabdor shaxsning imzosi).

Obyektiv tomondan jinoyat mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarga bila turib soxta ma'lumotlar yoki yozuvlar kiritishi, hujjatlarni qalbakilashtirishida, bila turib hujjatlar tuzishida va taqdim etishida ifodalanadi.

Fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazilishi tarzidagi oqibatlarining ro'y berganligi jinoyatning zaruriy belgisidir.

Mansab soxtakorligi ijro etilish usuliga ko'ra moddiy va intellektual ko'rinishlarda sodir etilishi mumkin.

Moddiy soxtalashtirish deganda, rasmiy hujjatga turli tuzatishlarni kiritish, o'chirish, boshqa sana bilan belgilash, asl mazmunini o'chirish va boshqasi bilan almashtirish va hokazolar tushuniladi. Intellektual soxtalashtirish voqelikka yoki ishning haqiqiy ahvoriga to'g'ri

kelaydigan, yolg'on, qalbakilashtirilgan hujjatni boshidan tayyorlashdan iborat bo'ladi.

Yolg'on ma'lumotlar kiritish asl hujjatga haqiqatga to'g'ri kelaydigan yozuvlarni kiritish bilan ta'riflanadi.

Mansab soxtakorligining bir turi bo'lgan oldindan yolg'on hujjatlarni tuzish va taqdim etish, nafaqat hujjatlarni soxtalashtirishdan, balki uni manfaatdor shaxsga berish orqali realizatsiya qilishdan ham iborat bo'ladi. Mazkur qalbakilashtirish shakli boshqalardan shu jihati bilan ham farqlanadi, chunki uning uchun ikki harakat: hujjatni tayyorlash va taqdim etish talab etiladi.

NOTA BENE !

Hujjatlarni qalbakilashtirish hujjatning shakli hamda mazmunini to'liq soxtalashtirishdan ham, asl hujjatlarga qisman noto'g'ri o'zgartirishlar kiritishdan ham iborat bo'lishi mumkin.

Jinoyat obyektiv tomonining zaruriy elementi fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga zarar yetkazish hisoblanadi.

O'zining qonunchilik tuzilishiga ko'ra, mansab soxtakorligi moddiy tarkibga ega. Modda dispozitsiyasida ko'rsatilgan hujjatga oldindan yolg'on ma'lumot yoki tuzatishlar kiritish orqali oqibat kelib chiqqan vaqtdan jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Mansab soxtakorligi boshqa jinoyatlarni sodir etish usuli hisoblangan hollarda qilmish jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Masalan, mansab soxtakorligi natijasida aldov yo'li bilan o'zgarar mulkini talon-toroj qilishni jinoyatlar majmui bo'yicha JK 209- va 168-moddalari bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Subyektiv tomonning zaruriy belgisi soxtakorlikni amalga oshiruvchi mansabdor shaxsning g'arazli yoki boshqa manfaati hisoblanadi.

Mansab soxtakorligi yolg'on hujjatlardan foydalanib, boshqa jinoyat sodir etish uchun amalga oshirilgan holatlarda qilmish jinoyatlar majmui

bo'yicha, ya'ni mansab soxtakorligi va boshqa jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rish sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Boshqa manfaatlarni ko'zlash deganda, amalparastlik, oshnagog'aynigarchilik, haqiqiy ahvolni bo'yab ko'rsatish istagi, ishdagi kamchiliklarni yashirish va h.k. tushuniladi.

Mansab soxtakorligi negizida g'arazli manfaat, subyektning rasmiy hujjatlarga oldindan yolg'on ma'lumotlar va yozuvlar kiritish, qalbaki hujjatlar tayyorlash yoki tuzish va berish orqali moddiy manfaatdorligi yotadi.

Mansab soxtakorligi motivi kabi, boshqa shaxsiy manfaatdorlik subyekt o'z harakatlari orqali nomoddiy xarakterga ega foyda olishidan iborat.

Jinoyat **subyekt**i 18 yoshga to'lgan mansabdor shaxs hisoblanadi.

«Amaldagi qonunchilikka ko'ra tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarning rahbarlari ham mansabdor shaxslar toifasiga kiradilar. Shuning uchun, mazkur mansabdor shaxslar tomonidan bankka yoki boshqa kredit muassasasiga xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo'jalik ahvoli to'g'risida bila turib yolg'on ma'lumotlarni taqdim qilish yo'li bilan kredit yoxud kredit olish uchun imtiyozlarning olinishi, kredit mablag'larini o'zlashtirish yoki tekinga olish maqsadi bo'lmagan taqdirda, agar bu xatti-harakatlar oqibatida davlat yoki jamiyat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilgan bo'lsa, Jinoyat kodeksining 209-moddasi (Mansab soxtakorligi) bilan tavsiflanishi kerak»¹.

Mansabdor bo'lmagan shaxs tomonidan rasmiy hujjatlarga soxta ma'lumotlar yoki yozuvlar kiritilgan hollarda qilmish JK 228-moddasi (Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

JK 209-moddasi 2-kismida mansab soxtakorligining quyidagi og'irlashtiruvchi holatlari ko'rsatib o'tilgan:

a) takroran yoki xavfli retsdivist tomonidan;

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди ва Ўзбекистон Республикаси Олий хўжалик суди қўшма Пленумининг 2000 йил 28 апрелдаги «Тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ қонунчиликни қўллаш суд амалиёти тўғрисида»ги 2/84-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди ва Олий хўжалик суди қўшма Пленумининг 2002 йил 25 октябрдаги 21/108-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 2-жилд. — 9-б.

b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilganligi.

6-§. Pora olish (JK 210-moddasi)

Poraxo‘rlik — boshqaruv organlari faoliyati tartibiga qarshi qaratilgan uch mustaqil mansabdorlik jinoyatlari — pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilishni o‘z ichiga oladigan tushuncha. Sanab o‘tilgan har bir tajovuz JK 210—212- moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bilan bog‘liq bo‘lmagan holda sodir etilishi mumkin emas. Ular bir-biri bilan shu darajada bog‘liq bo‘ladiki, pora olish faktining mavjud emasligi pora berish faktini ham istisno etadi.

Mazkur jinoyatning ijtimoiy xavfliligi shu bilan izohlanadiki, pora olish mansabdor shaxslar tomonidan o‘zlarining mansab vakolatlarini ijro etishning o‘rnatilgan tartibini keskin o‘zgartiradi va bu bilan davlat xizmati manfaatlarini qo‘pol buzadi. Pora korrupsiya — hokimiyat va boshqaruv asoslarini emiradigan, uning aholi oldidagi obro‘sigga putur yetkazadigan, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qiladigan xavfli jinoiy hodisaning nisbatan ko‘p tarqalgan va o‘ziga xos hodisasi hisoblanadi.

Pora olish **jinoyatining bevosita obykti** hokimiyat yoki boshqaruv organlarining obro‘si, normal faoliyat yuritishini ta‘minlaydigan ijtimoiy munosabatlar, fuqarolarning huquqlari yoki qonuniy manfaatlaridir.

Pul, valuta qimmatliklari, qimmatbaho buyumlar, avtomobillar va boshqa har qanday mol-mulk, oziq-ovqat mahsulotlari, spirtli ichimliklar, antiqa buyumlar va h.k., ya‘ni moddiy qimmatga ega bo‘lgan har qanday narsalar yoxud mulkiy xususiyatdagi naf ko‘rish (sanatoriyga yo‘llanma, turistik yo‘llanma, biron-bir pulli xizmatni ko‘rsatish kabilar) **poraning predmeti** bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, mulkiy xarakterga ega bo‘lmagan foydalar pora predmeti bo‘lishi mumkin emas. Masalan, mansabdor shaxs tomonidan boshqa shaxs manfaatlariga qaratilgan o‘z harakatlari uchun nomoddiy xarakterdagi xizmatlar olish: ijobiy tavsifnoma, tavsiyanoma, maqolaga taqriz va boshqalar. Muayyan shartlar mavjud bo‘lgan holda mazkur harakatlar mansab vakolatini suiiste‘mol qilish yoki mansab vakolatidan

chetga chiqish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Mansabdor shaxs tomonidan biror harakat sodir etilganligi uchun u bilan jinsiy aloqaga kirishish ham pora predmeti hisoblanmaydi, muayyan shartlar bo'lgan hollarda esa mazkur harakat JK 121-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Obyektiv tomondan pora olish mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy naf ko'rishida ifodalanadi. Garchi ko'p hollarda pora bevosita yoki vositachi orqali pul berish shaklida berilishiga qaramay, sharhlanayotgan jinoyat predmetining serqirraligi pora olish va berishning xuddi shunday serqirra usullarini keltirib chiqaradi. Amaliyotda pora berishning qimmatli buyumni arzon sotish, karta o'yinida oldindan til biriktirgan holda yutqizib qo'yish, soxta mansab berish va pora oluvchi, uning qarindoshlari yoki boshqa ishonchli shaxslarga muntazam ravishda ish haqi to'lab turish kabi boshqa «niqoblangan» usullari ham mavjud.

Amaliyotda shunday hollar ham uchrab turadiki, moddiy qimmatliklarni olayotgan mansabdor shaxs moddiy qimmatliklar muassasa tomonidan ko'rsatilgan xizmat evaziga olinayotganligiga ishontirish orqali mazkur qilmishlarning qonuniyligini ko'rsatish uchun ularni berayotgan shaxslarni chalg'itishga harakat qiladi. Pora predmetlari pora oluvchiga — mansabdor shaxsga bevosita va vositachi — oila a'zolari, tanishlar va hokazolar orqali berilishi, shuningdek, pora oluvchining bankdagi hisob raqamiga ko'chirilishi ham mumkin. Pora olish usuli va shakli qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Mansabdor shaxs tomonidan uning shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi biror-bir voqea munosabati bilan qiymati jihatidan uncha qimmat bo'lmagan sovg'alar olinishi pora hisoblanmaydi. Masalan, yubiley munosabati bilan uncha qimmat bo'lmagan qo'l soati, dissertatsiya himoyasi munosabati bilan guldasta, konfet, faxriy unvonlar olinishi.

Oldindan til biriktirmagan holda pora olishda aybdor shaxslarning

javobgarligi masalasini hal etish vaqtida pora beruvchining motivi va poraning predmetiga e'tibor qaratish lozim. Shuning uchun, agar olingan predmet qiymati uncha katta bo'lmasa va pora beruvchi uni minnatdorchilik sifatida bergan bo'lsa, u holda qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyatiga ega bo'lmagan qilmish deb kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalanishi deganda, nafaqat mansabdor shaxsning o'z xizmat vakolatlari doirasiga kiradigan harakatlarni sodir etishi, balki boshqa mansabdor shaxslarga ta'sir ko'rsatishi va ularning vakolatlaridan foydalangan holda pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi tushuniladi.

Mansabdor shaxs tomonidan o'zining shaxsiy aloqalaridan foydalanish xizmat mavqeidan foydalanish sifatida baholanmasligi kerak.

Mansabdor shaxsning nafaqat xizmat mavqeiga kiruvchi harakatlarni, balki boshqa mansabdor shaxslarning vakolatlari o'rtasida pora oluvchining mansab mavqei bilan bog'liq bo'lgan ushbu shaxslar muayyan tomonidan harakatlarning sodir etilishiga ta'sir ko'rsatishi va ularning vakolatlaridan foydalanishi jinoyatni mazkur modda bo'yicha kvalifikatsiya qilishning zaruriy shartidir.

Pora olish — pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etganlik uchun g'ayriqonuniy haq olishidir.

Pora beruvchining manfaatlari deganda, nafaqat uning shaxsiy manfaatlari, balki uchinchi shaxslar, yaqin qarindoshlar, yaqin shaxslar va boshqa shu kabilarning ham har qanday manfaatlari tushuniladi.

Mansabdor shaxs tomonidan o'z bo'ysunuvidagi shaxslardan ularning manfaatlari yo'lida biror harakat qilish uchun pul mablag'lari yoki boshqa qimmatliklarning olinishi pora olish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunda sud hukmida pora beruvchi manfaatlarida qaysi harakatni sodir etish yoki etmaslik uchun pora olinganligi ko'rsatilishi lozim.

Shuni ham ta'kidlash joizki, mansabdor shaxs qilmishini pora olish deb kvalifikatsiya qilish uchun pora predmetini olish vaqti hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Pora mansabdor shaxs tomonidan pora beruvchi manfaatida muayyan harakatni sodir etishgacha bo'lgan vaqtda (sotib olish porasi) yoki pora

predmeti mansabdor shaxs tomonidan pora beruvchi manfaatida muayyan harakat sodir etilgandan keyin olinishi mumkin (pora-mukofot). Bunda qilmishni kvalifikatsiya qilish chog'ida poraning oldindan shartlashilganligi ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Mansabdor shaxsning biror-bir mulkiy manfaatlarni ko'rish yoki moddiy qiymatliklar olish maqsadida o'z xizmat yoki mansab vakolatlariga kirmaydigan harakatlarni sodir etishga qaratilgan harakatlarini firibgarlik (JKning 168-moddasi) yo'li bilan o'zganing mulkini olishga qaratilgan harakat sifatida tavsiflash lozim.

Pora olish jinoyati pora oluvchi tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab, aniq harakatlar sodir etilgan yoki etilmaganligidan qat'i nazar, pora predmetining loqal bir qismi olingan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb topiladi.

Oldindan kelishilgan pora oluvchi irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra olinmay qolgan hollarda (masalan, pora berilayotgan vaqtda jinoyat qidiruv bo'limi xodimlari tomonidan jinoyatning to'xtatilishi) qilmish JK 25-moddasi 2-qismi va **210-moddasi** bo'yicha pora olishga suiqasd qilish tarzida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Qilmishni kvalifikatsiya qilishda aybdor olish niyatida bo'lgan pora miqdori e'tiborga olinishi lozim.

Jinoyatni mazkur modda bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun pora predmetining mansabdor shaxsning o'zi tomonidan yoxud uning roziligi va ijozati bilan boshqa har qanday shaxs tomonidan olinganligi ahamiyatga ega emas.

Agar pora predmeti fuqarolik muomalasidan chiqarilgan narsalar, masalan giyohvand vositalari yoki psixotrop moddalar, o'qotar qurollar bo'lsa bunday harakatlarni JKning **210-moddasi** va JKning 271-moddasi yoxud 247-moddalari bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilish lozim.

Mansabdor pora beruvchi manfaatlarida harakat qilish vakolatiga ega bo'lmagan, lekin o'zining mansab mavqei tufayli mazkur harakatlarning boshqa shaxslar tomonidan sodir etilishi bo'yicha choralar ko'rgan hollarda ham qilmish pora olish sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Pora olishning **subyektiv tomoni** — **to‘g‘ri qasd**: aybdor (pora oluvchi) moddiy qimmatliklar yoki mulkiy foyda unga o‘zining xizmat mavqeidan kelib chiqib pora beruvchi manfaatida biror-bir harakatni sodir etish yoki etmaslik uchun pora sifatida berilayotganligini anglaydi va buni xohlaydi.

Garchi ko‘pgina hollarda pora olish g‘arazli maqsadda sodir etilsa-da, biroq jinoyatning **maqsadi** va **motiva** bu qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Faqat maxsus subyekt — 18 yoshga to‘lgan mansabdor shaxs pora olishning subyeksi hisoblanadi.

Pora beruvchi manfaatlarida harakat qilish vakolatiga ega bo‘lmasa-da, o‘zlarining mansab mavqeidan kelib chiqqan holda mazkur harakatlarning boshqa mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilishi uchun choralar ko‘rgan mansabdor shaxslar ham mazkur jinoyatlarning **subyeksi** hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlar va sud-tergov amaliyotida professor-o‘qituvchilar tarkibi va tibbiyot xodimlarini sharhlanayotgan modda bo‘yicha javobgarlikka tortish masalasi aniq hal etilmagan. O‘qituvchi doimiy ravishda biror-bir ma‘muriy lavozimni (rektor, prorektor, dekan, direktor va boshqa lavozimlarni) egallab turgan vaqtda yoki vaqtinchalik tashkiliy vazifalarni (qabul komissiyasining a‘zosi lavozimini) bajarayotgan vaqtda mansabdor shaxs deb topilishi mumkin.

Shifokor, agar u sog‘liqni saqlash tizimida ma‘muriy-xo‘jalik yoki tashkiliy-boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq mansabda (bosh shifokor, bosh shifokor o‘rinbosari, bo‘lim boshlig‘i va hokazo mansabda) bo‘lsagina, mansabdor shaxs hisoblanadi. Boshqa barcha hollarda o‘qituvchi va shifokorlar ham o‘zlarining kasbiy burchlarini bajarganliklari sababli mansabdor shaxs deb topilishlari mumkin emas.

JK 210-moddasining 2-qismi pora olishning quyidagi kvalifikatsiyalovchi tarkiblarini:

a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari JK 211- yoki 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ko‘p miqdorda;

v) tamagirlik yo‘li bilan;

g) bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilganligi uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Pora olishning kvalifikatsiyalovchi belgisi sifatida **takroriylik** ushbu jinoyatlardan birortasini javobgarlikka tortish muddati o'tmagan holda kamida ikki marta sodir etishni talab etadi. Agar mansabdor shaxs bittasi tugatilmagan bo'lgan pora olishning ikki fakti bo'yicha javobgarlikka tortilayotgan bo'lsa, qilmish jinoyatlar majmui bo'yicha pora olishga suiqasd qilish va takroriy pora olish tarzida kvalifikatsiya qilinadi. Bunda shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur qilmishlarning turli vaqtlarda sodir etilishida aybdorda mazkur qilmishlarga nisbatan umumiy emas, balki alohida qasd mavjud bo'ladi.

Shu bilan birga, mansabdor shaxs tomonidan bir necha shaxslardan bir necha pora olish, agar ularning har biriga alohida harakatlar sodir etilishi nazarda tutilsa, mazkur qilmish takroran sodir etilgan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunda har bir pora beruvchi manfaatida amalga oshiriladigan alohida harakatlar o'zining mazmuni bo'yicha bir xil yoki har xil bo'lishi mumkin. Poraning oldindan kelishilgan summasi miqdorining mansabdor shaxs tomonidan oshirilishi, agar bu pora beruvchi manfaatlarida oldingi natijani ko'zlab harakat sodir etilsa, takroriylik belgisini keltirib chiqarmaydi.

Tahlil qilinayotgan modda 2-qismining «a» bandida xavfli retsivist yoki ilgari JK 211- yoki 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan pora olinishi nazarda tutilgan.

Pora oluvchi tomonidan porani bir necha marta «bo'lib-bo'lib» olish, takroriy pora olishni hosil qilmaydi.

Turli usullarda pora olish yagona davom etuvchi jinoyatni shakllantiradi va takroriylik belgisi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Xavfli retsivist tomonidan pora olinishi JK 210-moddasi 2-qismi «a» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Mansabdor shaxs tomonidan qonuniy manfaatlarining buzilishi tahdidi bilan shaxsdan pora talab qilishi yoxud o'zining qonuniy manfaatlari buzilishining oldini olish maqsadida pora berishga majbur bo'lgan ahvolga solib qo'yilishi **tovlamachilik yo'li bilan pora olish** jinoyatining tarkibini

hosil qiladi.

Pora beruvchining manfaatlarini koʻzlab uning qonunga xilof talablarini bajarish uchun pora talab qilish tovlamachilik yoʻli bilan pora olishning tarkibini hosil qilmaydi.

Mansabdor shaxs tovlamachilik yoʻli bilan pora olishda pora predmetini ololmagan boʻlsa, qilmish jinoyatni sodir etishga suiqasd deb topiladi.

Jinoyatni sodir etishda uni amalga oshirish haqida oldindan kelishib olgan ikki yoki undan ortiq mansabdor shaxs ishtirok etgan boʻlsa, mansabdor shaxsning harakatlari bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan pora olish deb kvalifikatsiya qilinmogʻi lozim. Bunday hollarda, jinoyat mansabdor shaxslardan bittasi poraning loqal bir qismini olgan paytdan eʼtiboran **tugallangan** deb topiladi.

JK 210-moddasi 3-qismida:

- a) juda koʻp miqdorda;
- b) uyushgan guruh manfaatlarini koʻzlab pora olganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

7-§. Pora berish (JK 211-moddasi)

Jinoyatning **obyekti** va **predmeti** pora olish jinoyati tarkibi belgilari bilan bir xil.

(Bu haqda batafsil JK 210-moddasi tahliliga qarang.)

Obyektiv tomondan pora berish, mansabdor shaxsning oʻz xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin boʻlgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini koʻzlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga unga bevosita yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etishda ifodalanadi.

Pora berish, yaʼni mansabdor shaxsning oʻz xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin boʻlgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini koʻzlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga unga bevosita yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy

manfaatdor etishda namoyon bo'ladigan harakatlarda ko'rinadi.

Agar pora beruvchi shaxs mansabdor shaxsni xizmat bo'yicha noqonuniy harakatlarni sodir etishga jalb qilsa, uning harakati nafaqat pora berish, balki mansabdor shaxsni jinoyat sodir etishga jalb qilish bilan ham kvalifikatsiya qilinadi.

Agar pora berish bir necha harakatlarda sodir etilsa, jinoyat pora oluvchiga poraning hech bo'lmaganda bir qismi berilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi. Konvertga solingan pulni mansabdor shaxsning stoli yoki kabinetidagi boshqa joyga qo'yish, agar bu pul olinmagan bo'lsa, pora berishga suiqasd qilish hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasddan sodir etiladi. Pora beruvchi mansabdor shaxsga pora predmetini mukofot sifatida, o'zining mansab mavqeidan kelib chiqib uning manfaati yo'lida biron-bir harakatni sodir etishi yoki etmasligi uchun berilayotganligini angelaydi va shuni xohlaydi.

Pora berishning **motivi** va **maqsadi** kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Jinoyat subyekti 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Pora berish orqali harakat yoki harakatsizlikka erishish uchun boshqa shaxsga pora taklif etgan shaxs pora beruvchi sifatida javobgarlikka tortiladi. Pora evaziga ma'lum harakatlarni bajarishga kelishgan shaxs va porani topshirgan shaxs pora berishda ishtirokchilar sifatida javobgarlikka tortiladi.

Agar shaxs taklif mazmunini bilib, porani faqat topshirsa, uning harakatlari pora berishda vositachi sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

O'zbekistan Respublikasi Jinoyat kodeksi **211-moddasi 2-qismida**:

a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari Jinoyat kodeksining 210- yoki 212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ko'p miqdorda sodir etilgan pora berish uchun javobgarlik belgilangan.

Qilmishni takroran pora berish deb kvalifikatsiya qilish uchun pora

predmetining bo‘lib-bo‘lib berilishi davomli jinoyat ekanligini e‘tiborga olish lozim, bunda aybdorning qasdi ham hisobga olinishi kerak.

Pora berish:

a) juda ko‘p miqdorda;

b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, qilmish O‘zbekiston Respublikasi **JK 211-moddasi 3-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Ushbu moddaning 4-qismida pora beruvchini jinoiy javobgarlikdan ozod etish shartlari ko‘rsatilgan.

Birinchi shart shundan iboratki, mansabdor shaxsning tovlamachiligi tufayli shaxs pora berishga majbur bo‘lgan hollarda, **u jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.**

Ikkinchidan, basharti pora beruvchi jinoyat sodir etilganidan so‘ng, bu haqda o‘z ixtiyori bilan tegishli organlarga ma‘lum qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

Pora beruvchi o‘z ixtiyori bilan arz qilib, jinoyat to‘g‘risida istalgan hokimiyat organi (DXX, prokuratura, sud, ichki ishlar organlari, hokimiyatga, mahalla qo‘mitasi)ga har qanday ko‘rinishda og‘zaki (yozma) murojaat etishi mumkin. O‘z ixtiyori bilan arz qilishning motivi va undan kuzatilgan maqsad — fosh bo‘lishdan qo‘rqish, jazolanishdan qo‘rqish, vijdon da‘vati va h.k. shaxsni javobgarlikdan ozod qilishda ahamiyatga ega emas.

Ammo, pora bergan shaxsning javobgarlikdan ozod qilinishi uning xatti-harakatida jinoyat tarkibining yo‘qligini anglatmaydi, shu sababdan bunday shaxslar jabrlanuvchi sifatida e‘tirof etilmaydi, ularning pora oluvchiga bergan pora predmetlari qaytarib berilmaydi.

Pora beruvchi jinoyat sodir etilganidan so‘ng istalgan vaqtda, ammo bu haqda huquq-tartibot organlari xabar topishidan oldin, pora berilgani to‘g‘risida o‘z ixtiyori bilan arz qilishi mumkin.

Pora beruvchini javobgarlikdan ozod etish uchun pora bergani haqida o‘z ixtiyori bilan arz qilish bilan bir qatorda o‘zining qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi va o‘z xatti-harakati bilan jinoyatni

ochishda faol yordam bergan bo'lishi lozim.

8-§. Pora olish-berishda vositachilik qilish (JK 212-moddasi)

Jinoyatning **obyekti** va **predmeti** — pora olish va pora berish jinoyati tarkibi belgilari bilan bir xil.

Obyektiv tomondan pora olish-berishda vositachilik qilish pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek, manfaatdor shaxslarning topshirig'iga binoan porani bevosita berishda ifodalanadi.

Vositachini pora beruvchidan farqlash lozim. Ushbu harakatlardan manfaatdor bo'lgan pora beruvchidan farqli ravishda vositachi pora beruvchining topshirig'ini bajarayotgan vositachi mansabdor shaxsning u yoki bu harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligidan biror-bir moddiy mukofot yoki moddiy manfaatlarni qo'lga kiritishni ko'zlamaydi.

Vositachi o'zganing manfaatlarini namoyon qilib, o'z nomidan harakat qilmaydi. Pora berish masalasini pora beruvchi o'zi mustaqil hal qiladi, vositachi uni amalga oshiradi, xolos.

Pora olish yoki berish haqidagi bitimga erishishga qaratilgan faoliyat deganda, aybdor tomonidan sodir etilgan yoki sodir etilishi pora berilishiga yoki uning mansabdor shaxs tomonidan olinishiga xizmat qiluvchi har qanday xatti-harakatni tushunish lozim. Masalan, vositachi pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab mansabdor shaxs sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan xatti-harakatlarni, pora miqdorini, pora beriladigan joyni va h.k.larni kelishadi.

Vositachilikning ikkinchi kurinishi pora predmetining pora beruvchidan olib, pora oluvchiga bevosita topshirilishida ifodalanadi.

Korxonada, muassasa, tashkilot yoki ularning bo'limlari rahbar ko'rsatmasi bilan bila turib unga xizmat jihatidan bo'ysungan shaxsning vositachilik qilishi JK 212-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish uchun asosdir.

Jinoyat pora oluvchi poraning hatto bir qismini olgan paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi. Agarda pora mansabdor shaxs tomonidan

olinmagan bo'lsa, bunday harakat pora olish-berishda vositachilik qilishga suiqasd deb topiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor uning harakatlari pora olish-berish haqidagi kelishuvga erishish hamda pora oluvchi va beruvchining topshirig'i bilan pora berishga yo'naltirilganligini biladi hamda buni xohlaydi.

Agar aybdor pora predmetini pora beruvchidan olib, pora oluvchiga berayotganini anglamasa, uning xatti-harakati mazkur moddada nazarda tutilgan javobgarlikni vujudga keltirmaydi.

Jinoyat **subyektiv** 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

JK 212-moddasi 2-qismida vositachilik:

a) takroran, xavfli retsivist tomonidan yoki ilgari JK 210- yoki 211-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ko'p miqdorda pora olish yoki berish vaqtida;

v) bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib pora olayotganligi vositachiga ayon bo'lgan holda sodir etilganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

JK 212-moddasi 3-qismida pora olish-berishda vositachilik qilish:

a) haq evaziga;

b) juda ko'p miqdorda pora olish yoki berishda;

v) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Xizmati evaziga haq olish tarzidagi jinoyat subyektiv tomonining fakultativ belgisi hisoblanuvchi g'arazli manfaat mavjudligi, qilmishni **JK 212-moddasi 3-qismi «a» bandi** bo'yicha kvalifikatsiya qilishni taqozo etadi. Bunda haq vositachilik harakatlari amalga oshirilishidan oldin yoki keyin olinganligi ahamiyatga ega emas. Olingan haq summasi kvalifikatsiyaga ta'sir etmaydi. Qilmishni haq evaziga vositachilik sodir etilgan deb kvalifikatsiyalashda xizmat haqining miqdori, aybdorning u qachon olgani, haqning vositachilik harakatini sodir etishdan ilgari yoki keyin olganligi ahamiyatga ega emas.

O'zbekiston Respublikasi **JK 212-moddasi 4-qismida** pora olish-

berishda vositachilik sodir etgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilish shartlari ko'rsatilgan.

Unda pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxs, jinoiy harakatlarni sodir etganidan keyin bu haqda o'z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi deyiladi.

Bu shart pora berganligi haqida o'z ixtiyori bilan arz qilgan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning shartiga o'xshab ketadi.

9-§. Davlat organlarining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish (JK 213-moddasi)

Mazkur **jinoyatning bevosita obyekti** boshqaruv organlari, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining obro'yi va normal ish faoliyati hamda fuqarolarning manfaatlaridir.

Jinoyatning **predmeti** pora olish-berishning predmetiga o'xshashdir.

Obyektiv tomondan JK 213-moddasi 1-qismida ko'zda tutilgan jinoyat xizmatchini pora evaziga og'dirishda, ya'ni davlat organining, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasa yoki tashkilotning, jamoat birlashmasining, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining mansabdor shaxs bo'lmagan xizmatchisiga o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni uni o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga, qonunga xilof ekanligini bila turib, ancha miqdorda moddiy haq berish yoki uni mulkiy manfaatdor etishda ifodalanadi.

Mohiyatiga ko'ra, **JK 213-moddasining 1-qismida** ko'zda tutilgan qilmish JK 212-moddasida javobgarlik belgilangan qilmish (pora berish)ga o'xshaydi, yagona farq shundaki, mazkur qilmishda mansabdor shaxsga emas, pora evaziga og'dirishni amalga oshirayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab, o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda xizmatchi bajarishi mumkin bo'lgan muayyan harakat uchun pora

xizmatchiga beriladi.

Moddiy haq berish yoki mulkiy manfaatdor etish deganda, xizmatchiga uni o'ziga og'dirayotgan shaxs manfaatini ko'zlab xizmat vazifasiga kiradigan harakatlarni bajarish yoki bajarmasligi uchun unga mulkiy xarakterdagi qimmatliklar yoki mulkiy bahoda baholash mumkin bo'lgan foydani berish tushuniladi.

Shaxs manfaatini ko'zlab xizmatchini pora evaziga og'dirish harakatlari:

– ushbu harakatlar haq evaziga og'diruvchi, shuningdek, uning topshirig'i bilan boshqa shaxslarga foyda, imtiyozlar keltirsa, ularning ehtiyojlarini qondirsa;

– haq evaziga og'dirilayotgan shaxs faoliyat olib borayotgan xizmat manfaatlariga zid kelsa.

Ushbu qilmishni jinoiy jazolanadigan deb topishning majburiy sharti moddiy haq yoki mulkiy foydani ancha miqdorda berishdir.

(Ancha miqdor tushunchasi haqida Jinoyat kodeksi Maxsus qismining VIII bo'limiga qarang.)

Qonunga xilof ekanligini bila turib haq berish deganda, ushbu harakat (harakatsizlik) normativ-huquqiy hujjatlar yoki ta'sis hujjatlari bilan taqiqlanganligi, shuningdek, qonunga muvofiq xizmatchining faoliyat xususiyatidan kelib chiqmasligi tushuniladi.

Xizmat mavqei bilan bog'liq harakatlarni bajarish yoki bajarmaslik huquqiy va faktik imkoniyatlardan foydalanishda ifodalanib, xizmatchi vakolatiga kiradigan harakat (harakatsizlik), shuningdek, xizmat obro'yi, informatsiya olishga ushbu shaxsning huquqiga asoslangan, lekin vakolatiga kirmaydigan harakat (harakatsizlik)ni o'z ichiga oladi. Harakatni bajarish yoki bajarmaslik o'z xususiyati bo'yicha g'ayriqonuniy bo'lishi yoki xizmatchi ishlayotgan korxonada, tashkilot, muassasa va organlar qonuniy manfaatiga zid bo'lishi lozim.

Haq evaziga og'dirish shakli va usuli ahamiyatga ega emas. Xizmatchi g'ayriqonuniy moddiy haqni yoki mulkiy manfaatdorlikni shaxsan o'zi yoki vositachi orqali olishi mumkin.

Qonun muayyan harakatlarni bajarishdan oldin haq evaziga og'dirish bilan muayyan harakatlarni bajarishdan keyin haq evaziga og'dirish

o'rtasidagi farqni belgilamagan, shuning uchun ular ikki holatda ham jinoiy qilmish hisoblanadi.

Xizmatchi uni pora evaziga og'dirayotgan shaxs manfaatini ko'zlab jinoiy harakatlarni sodir etsa, uning harakatini jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish kerak (masalan, xizmatchi haq evaziga hujjatlarni soxtalashtirsa, uning harakatlari jinoyatlar majmui tariqasida **JK 213-moddasi 1-qismi** va 228-moddasi — Hujjat, muhr, shtamp, blankalarni tayyorlash, qalbakilashtirish, foydalanish bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi).

Xizmatchini pora evaziga og'dirish xizmatchi o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni uni o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab amalga oshirganligi evaziga mulkiy manfaatning bir qismini qo'lga kiritgan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat hisoblanadi.

Agar xizmatchi ancha miqdordan kam miqdorda haq (pora) olsa, uning harakatlari JK 213-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinmaydi.

JK 213-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan qilmish **obyektiv tomondan** davlat organi, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasa yoki tashkilot, jamoat birlashmasi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining mansabdor shaxsi bo'lmagan xizmatchisi o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni uni o'ziga og'dirayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab amalga oshirganligi evaziga moddiy haq olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishida ifodalanadi.

Mohiyatiga ko'ra, **JK 213-moddasi 2-qismida** ko'zda tutilgan jinoyatning alomatlari pora olish alomatlaridan farq qilmaydi. Mazkur jinoyatda haqni qonunga xilof ravishda mansabdor shaxs emas, balki xizmatchi o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni bajarganligi uchun oladi.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun xizmatchining moddiy haqni qachon olgani, ya'ni pora evaziga uni o'ziga og'dirayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatni eodir etishidan oldin yoki keyin olganligi ahamiyatga ega emae.

Maneabdor shaxs bo'lmagan xizmatchining qonunga xilof ekanligini

bila turib, moddiy haq olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi, qonunga zid bo'lgan haqning bir qiymini olgan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat deb hieoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasddan sodir etiladi. Motiv va maqsad jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. Aybdor noqonuniy tarzda xizmatchiga moddiy boyliklar berayotganligi yoki mulkiy manfaat keltirayotganligini biladi va shuni xohlaydi. Xizmatchi tomonidan pora olishda esa xizmatchi moddiy boylik va boshqa mulkiy manfaatlar unga pora evaziga og'dirayotgan shaxs manfaatini ko'zlab biror-bir harakatni sodir etish yoki bajarishdan saqlanish uchun berilayotganini tushunadi va shuni xohlaydi.

Haq olayotgan shaxsning **motivi** g'arazlidir. Moddiy boylik va boshqa mulkiy manfaat berayotgan shaxsning motivi esa turlicha bo'lishi mumkin. Bular, g'arazli niyat, qonunni chetlab o'tish, javobgarlikdan ozod bo'lish, xizmatchi ko'rsatgan xizmat uchun tashakkur bildirish, aybdor manfaatlarini qondirish va hokazo. Pora evaziga og'dirish aybdor shaxs (haq evaziga og'diruvchi) mehnat qilayotgan korxonona, tashkilot, muassasa manfaati yo'lida ham amalga oshirilishi mumkin.

JK 213-moddasi 1-qismi subyekti 16 yoshga to'lgan, o'z manfaati yoki boshqa shaxslar manfaatini ko'zlab harakat qilgan, har qanday aqli raso jismoniy shaxsdir.

JK 213-moddasi 2-qismi subyekti 16 yoshga to'lgan davlat organi, jamoat birlashmasi, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonona, muassasa, tashkilot, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsi bo'lmagan xizmatchidir.

Xizmatchi tomonidan g'ayriqonuniy ravishda moddiy qimmatliklar yoki mulkiy foyda olinishi yoki uni pora evaziga og'dirish:

a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari JKning 210–212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

b) ko'p miqdorda;

v) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, **JK 213-moddasi 3-qismi** bo'yicha javobgarlik kelib chiqadi.

JKning **213-moddasi 4-qismida** o‘sha harakatlar:

a) juda ko‘p miqdorda;

b) uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, javobgarlik nazarda tutilgan.

213-moddaning 5-qismiga asosan, basharti moddiy qimmatliklar bergan yoki mulkiy manfaatdor etgan shaxsga nisbatan moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaat so‘rab tovlamachilik qilingan bo‘lsa va ushbu shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka ichida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi.

10-§. Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi (JK 214-moddasi)

Jinoyatning **obyekti** davlat organlari, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, shuningdek jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqaruv organlarining obro‘si va normal faoliyati hamda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlaridir.

Har qanday moddiy qimmatliklar yoki mulkiy xususiyatga ega bo‘lgan manfaat jinoyatning predmeti bo‘lishi mumkin.

Obyektiv tomondan JK 214-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xizmatchisining o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda bajarishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishidan iborat, basharti bu shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa.

Jinoyat moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaatning hech bo'lmasa bir qismi xizmatchi tomonidan olingan paytdan boshlab **tugallangan** deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Motiv va maqsad jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisi jinoyatning **subyektiv** hisoblanadi.

JK **214-moddasining 2-qismida** mazkur norma birinchi qismining dispozitsiyasida ko'rsatilgan harakatlarni ancha miqdorda yoki tamagirlik yo'li bilan sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Tamagirlik deganda xizmatchi o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan ishni bajarish yoki xizmat ko'rsatish uchun moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaat berishni talab qilish tushunilishi lozim. Yoki bo'lmasa, xizmatchi bila turib fuqaroni shunday bir sharoitga solib qo'yadiki, bunda u o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishining oldini olish uchun moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaat berishga majbur bo'ladi.

Moddiy haq (mulkiy manfaat) berishni talab qilish xizmatchi o'z xizmat vazifalari doirasiga kiradigan muayyan ishni bajarish yoki xizmat ko'rsatish uchun o'ziga moddiy qimmatlik, pul, ne'mat, mulkiy manfaat va hokazolarni berishni ochiqdan-ochiq bildirishida o'z ifodasini topadi.

Fuqaroni u haq to'lashga majbur bo'ladigan sharoitga solib qo'yish deganda, xizmatchi o'z xizmat vazifalarini bajarishdan asossiz ravishda bosh tortishi, ishni bajarish (xizmat ko'rsatish)ni cho'zishi, shuningdek xizmatchi o'z xizmat vazifalarini bajarishi lozim va mumkin bo'lgan bir vaziyatda uning ochiqdan-ochiq harakatsizligi tushunilishi lozim.

JKning 214-moddasida nazarda tutilgan jinoyat obyektiv tomonining mazkur shakliga ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish belgilangan tartibda, belgilangan muddatlarda va lozim darajadagi sifat bilan amalga oshirishga to'sqinlik qilishga qaratilgan harakatlar ham kiritilishi lozim. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish)ni asossiz ravishda rad etish, cho'zish xizmatchi vaqt etishmayotganini, mehnattalablikni yoki ishni qo'shimcha xarajatlarsiz bajarishning iloji yo'qligini, ehtiyot qismlar yoki

mexanizmlar taqchilligini ro'kach qilib ko'rsatishida namoyon bo'lishi mumkin.

Tamagirlik yo'li bilan sodir etilgan davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishini kvalifikatsiya qilishda qilmishning subyektiv tomonini hisobga olish va xizmatchining mazkur passiv xulq-atvori maqsadlariga e'tiborni qaratish zarur. Aks holda, xizmatchining biron-bir mulkiy manfaat ko'rish maqsadisiz sodir etilgan ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish)ni cho'zishdan iborat xulq-atvori va boshqa harakatlari o'z xizmat vazifalarini bajarishga insofsizlik bilan, noprofessional yondashish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Xizmatchi o'z xizmat vazifalari doirasiga kiruvchi muayyan ishni bajargani uchun fuqaro unga o'z ixtiyoriga ko'ra haq bergan hollarda mazkur haqni olgan shaxsning harakatlari jinoyat qonuniga muvofiq jazoga loyiq qilmish deb e'tirof etilishi mumkin emas (masalan, yaxshi xizmat ko'rsatganlik uchun ofitsiantga, operatsiyani yaxshi o'tkazganlik uchun shifokorga minnatdorchilik tarzida moddiy haq berish va h.k.).

JKning 214-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun g'ayriqonuniy haq olish vaqti ahamiyatga ega emas, ya'ni bu qilmish g'ayriqonuniy haq berishni talab qilayotgan shaxs muayyan harakatni bajarishidan oldin yoki u mazkur harakatni bajarganidan keyin ham sodir etilishi mumkin.

Moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaat berishni tamagirlik yo'li bilan talab qilish aybdor tamagirlik predmetining hech bo'lmasa bir qismini olgan paytdan boshlab **tamom bo'lgan** jinoyat deb e'tirof etiladi. Agar moddiy qimmatliklar yoki mulkiy manfaatni olish tamagirga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra amalga oshmay qolgan bo'lsa, uning harakatlari JK 25-moddasining 2-qismi va 214-moddasining 2-qismi bo'yicha sharhlanayotgan jinoyatni sodir etishga suiqasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Mazkur modda birinchi qismining dispozitsiyasida ko'rsatilgan harakatlarni takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 210–

212-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan, ko‘p miqdorda, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi munosabati bilan shaxsga nisbatan tamagirlik yo‘li bilan sodir etish JK **214-moddasining 3-qismi** bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Aybdorning harakatlari, agar ular juda ko‘p miqdorda yoki uyushgan guruh manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, JK **214-moddasining 4-qismi** bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

11-§. Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish (JK 215-moddasi)

Jinoyat **obyekti** — O‘zbekiston Respublikasi sha’ni va obro‘yi, shuningdek, suveren davlatning rasmiy ramzlaridan foydalanish sohasidagi ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyatning **predmeti** — O‘zbekiston Respublikasi yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasining Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi, Davlat madhiyasidir.

Davlat ramzlaridan foydalanish tartibini belgilovchi masalalar, davlat ramzlari va ularning namunalarining muvofiqligini nazorat qilishni amalga oshirish masalalari va boshqa masalalar O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida»¹, 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida»gi² va 1992 yil 10 dekabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida»gi Qonunlari³ bilan tartibga solinadi.

Davlat bayrog‘i, gerbi, madhiyasi respublikaning suveren, mustaqil davlat ekanligi timsoli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi davlatning suveren

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 9-сон, 328-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 124-модда; 2003 й., 5-сон, 67-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 51-сон, 514-модда.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 1-сон, 27-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 124-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 51-сон, 514-модда.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 1-сон, 52-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 51-сон, 514-модда.

respublika ramzini ifodalaydi. Qonunga muvofiq, Davlat gerbi davlatning rasmiy emblemasi hisoblanadi va quyidagilarda aks etadi:

Prezident devoni, Oliy Majlis, O‘zbekiston Respublikasi hukumati, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari binosi ustida va boshqalarda; davlat organlari muhrlarida, blankalarida, pul belgilari, qimmatli qog‘ozlar, O‘zbekiston Respublikasi fuqaro pasporti, rasmiy hujjatlar va boshqalarda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i Respublika davlat suverenitetining ramzi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i xalqaro maydonda: O‘zbekiston Respublikasi rasmiy delegatsiyalarining xorijiy mamlakatlarga safarlari chog‘ida, xalqaro tashkilotlarda, konferensiyalarda, jahon ko‘rgazmalarida, sport musobaqalarida O‘zbekiston Respublikasining timsoli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i quyidagi hollarda ko‘tariladi: doimiy suratda: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenta devoni, Oliy Majlis, O‘zbekiston Respublikasi hukumati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va hukumati, O‘zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlari, sudlar, O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining binolarida;

xalq deputatlari Kengashlarining sessiyalari o‘tkazilayotgan binolar va uylarda — butun sessiya davomida;

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilangan bayram kunlarida O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralari, boshqa davlat va jamoat idoralari binolarida, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda, shuningdek, turar joy binolarida;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, Senati a‘zolari, xalq deputatlari Kengashlarining deputatlari saylovi yoki referendumi kunlarida — ovoz berish o‘tkazilayotgan binolar va xonalarda;

O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatiya, savdo vakolatxonalari va konsullik muassasalari binolarida va harakatlanish

vositalarida — diplomatiya protokolining xalqaro qonunqoidalariga muvofiq;

chet eldagi respublikaga qarashli bo'lgan, rasmiy shaxslar sifatida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi spikeri, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi, O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vaziri, O'zbekiston Respublikasining Mudofaa vaziri, O'zbekiston Respublikasi diplomatiya konsullik vakolatxonalarining boshliqlari tushgan dengiz kemalarida va daryo kemalarida va boshqa harakatlanish vositalarida;

O'zbekiston Respublikasi hukumatining farmoyishiga muvofiq;

respublikaning davlat va jamoat idoralari, korxonalari, muassasalari va tashkilotlari o'tkazadigan marosimlarda, tantanali tadbirlarda;

sport maydonlarida — O'zbekiston Respublikasi chempionatlari va birinchiliklarini, milliy terma komandalar ishtirokidagi xalqaro sport musobaqalarini o'tkazish chog'ida hamda O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoasidan vakil bo'lgan xalqaro musobaqa g'oliblarini mukofotlash munosabati bilan marosimlar o'tkazish vaqtida ko'tariladi.

Davlat madhiyasi davlat va uning suverenitetining rasmiy timsoli hisoblanadi.

Barcha davlat ahamiyatiga molik bo'lgan tadbirlar joylardagi hokimiyat organlari tomonidan bayroqni ko'tarish va madhiya sadolari ostida ochiq va yopiq deb e'lon qilinadi. Davlat madhiyasi bo'lmish qo'shiq matni va musiqiy ijrosi davlat ramzi hisoblanib, barcha rasmiy tadbirlar ochilishida davlat nomidan yangraydi.

Jinoyat **obyektiv tomondan** aybdorning davlat ramzlariga hurmatsizlik qilishda ifodalanadigan faol harakatlari bilan sodir etiladi.

Hurmatsizlik qilish qonunga xilof, ijtimoiy xavfli harakatda ifodalanib, masalan, bayroq yoki gerbni yirtish, yo'q qilish, shikast yetkazish, shuningdek, ularni bulg'ovchi belgi, rasmlar yoki yozuvlar kiritish, madhiyani ijro etishda musiqa va so'zlarni qasddan buzib aytish va hokazolar bilan sodir etiladi. Bunday harakatlar oshkora yoki yashirin tarzda sodir etilishi mumkin.

Agar davlat mulkini yo‘qotish yoki zarar yetkazishda ifodalanadigan muayyan oqibatlar yuzaga kelsa, bu qilmishni kvalifikatsiya qilishda e‘tiborga olinishi lozim. Davlat gerbi yoki Davlat bayrog‘ini yo‘q qilish yoki shikast yetkazish davlat mulkiga zarar yetkazgan holda sodir etilsa, JK 173-moddasi 1-qismi bo‘yicha, agar ko‘pchilik uchun xavfli usulda yoki ko‘p miqdorda zarar yetkazilib sodir etilsa, JK 173-moddasining 2-qismi bo‘yicha qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Jamiyatdagi xulq-atvor qoidalarini buzib, badanga shikast yetkazish yoki o‘zgaralar mulkiga zarar yetkazish yoki uni nobud qilish, ommaviy joylarda davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish jinoyatlar majmui tariqasida JK 215-moddasi va JK 277-moddasi (Bezoriilik) bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Davlatning konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga qaratilgan shaklda ifodalangan Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi yoki Davlat madhiyasiga nisbatan hurmatsizlik qilish harakatlarini qo‘shimcha ravishda JKning 159-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish talab qilinadi.

Hurmatsizlik sodir etilgan vaqgdan boshlab, ya‘ni davlat ramzlarining mohiyati va ahamiyatini buzib talqin etish, noqonuniy maqsadlarda ulardan foydalanish va boshqa shu kabi biror-bir harakatlarni amalga oshirgan vaqtdan boshlab jinoyat **tugallangan** deb e‘tirof etiladi. Jinoyatni tugallangan deb topish uchun biror-bir jinoiy oqibatning yuzaga kelishi talab qilinmaydi.

Subyektiv tomondan davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish jinoyati aybning **to‘g‘ri qasd** shakli bilan sodir etiladi. Aybdor O‘zbekiston Respublikasi yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat gerbi, Davlat bayrog‘i yoki Davlat madhiyasi ustidan hurmatsizlik qilayotganligini angalaydi va buni xohlaydi.

Motiv va **maqsad** jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Jinoyat **subyekt**i 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

14 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan shaxslar faqatgina ko‘pchilik uchun xavfli usulda yoki ko‘p miqdorda zarar yetkazib, davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish bilan bog‘liq harakatlari uchun JK 173-moddasi 2-qismi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

12-§. Jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish (JK 216-moddasi)

Jinoyatning bevosita obyekti jamoat birlashmalarini tuzish yoki faoliyat yuritishini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoyatning **fakultativ obyekti** jamiyatning axloqiy negizlari, jamiyat xavfsizligi, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlarini hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi», — deyiladi.

Konstitutsiyaning 34-moddasida: «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas», — deb ta’kidlanadi¹.

Jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyati va ularni tashkil etish bilan bog‘liq munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартиришлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартиришлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартиришлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 14-б.

15 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi, 1998 yil 1 maydagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi hamda 1999 yil 14 apreldagi «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»gi Qonunlari bilan tartibga solinadi¹.

«O‘zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e‘tirof etiladi», — deyiladi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasida².

O‘zbekiston Respublikasi «Jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi Qonunining 1-moddasiga muvofiq: «O‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma **jamoat birlashmasidir**».

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma‘rifiy, fizkultura-sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, fondlar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e‘tirof etiladi.

Jamoat birlashmalarining turlari, ular faoliyatining tartibi va shartlari, a‘zolik, ta‘sis hamda faoliyat va tashkil etish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlar, shuningdek, boshqa masalalar echimi ushbu qonun bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunining 8-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1991 йил 14 июндаги «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги 289-ХП-сон Қонуни (Ўзбекистон Республикаси 1998 й. 1 майдаги 618-1-сон Қонунининг таҳририда) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сон, 99-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 52-сон, 513-модда.

²Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. — Т., «Ўзбекистон», 2009. — 11-б.

Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) **diniy tashkilotlar** deb e'tirof etiladi.

Diniy tashkilot O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo'lmagan fuqarolari tashabbusi bilan tuziladi.

Diniy tashkilotlar faoliyati, tartib-shartlarini, hujjatlarni muvofiqlashtirish, ro'yxatga olish shart-sharoitlari va boshqa masalalar ushbu qonunga muvofiq hal etiladi.

«Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi», — deb O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida¹ ta'kidlanadi. Ushbu moddaga ko'ra, maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 19-б.

«Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek, konstitutsiyaviy tuzumni g'ayriqonuniy yo'l bilan o'zgartirish yoki O'zbekiston Respublikasi hududining birligini buzish, urushni, zo'ravonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan sinfiy, shuningdek, irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonun bilan taqiqlangan boshqa xatti-harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Harbiylashtirilgan jamoat birlashmalari va qurolli tuzilmalar, shuningdek, diniy xarakterga ega bo'lgan partiyalar, ularning filiallari va boshqa tuzilmaviy bo'linmalar tashkil etish taqiqlanadi.

Aholining salomatligi va axloqiga, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga tajovuz qiladigan jamoat birlashmalarini tuzish man etiladi.

Jinoyat **obyektiv tomotsdan** taqiqlangan jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni tuzish yoki ular faoliyatini qayta tiklashda, shuningdek, bunday birlashmalar yoki tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etishda ifodalanadi.

Takiklangan jamoat birlashmasini yoki diniy tashkilotni tuzish deganda, taqiqlangan jamoat birlashmasini yoki diniy tashkilotni tashkil etish maqsadida sodir etilgan har qanday xatti-harakatni tushunish kerak. Masalan, faoliyati taqiqlangan birlashmalarga odamlarni jalb qilish, ularning nizom va dasturlarini ishlab chiqish, bunday birlashmalar uchun joy izlab topit va hokazolar shular jumlasidandir.

Qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni tuzish g'ayriqonuniy, ya'ni ro'yxatga olish tartibi buzilgan, butun faoliyati huquqqa zid bo'lgan harakatlardan iborat bo'lishi zarur.

Qonunchilikka muvofiq, jamoat yoki diniy tashkilotlar tuzish uchun quyidagilar talab qilinadi: birinchidan, jamoat birlashmalari (diniy tashkilotlar) harakatlari, tuzish maqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ aktlari va respublika qo'shilgan xalqaro

konventsiyalar va kelishuvlarga qarshi ruhda bo'lmashligi kerak; ikkinchidan, adliya muassasalarida ro'yxatdan o'tish kabi talablarga oid o'rnatilgan tartibga rioya qilish zarur; uchinchidan, bunday tashkilotlarga a'zolikka doir bir qator ish yuritish qoidalariga rioya qilish, ta'sis hujjatlari (ustav, ta'sis shartnomasi, nizom)ga muvofiq shakl va mazmunda bo'lish, shuningdek, boshqa qoidalar, ya'ni jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlar tuzish va faoliyatini amalga oshirishni belgilovchi qoidalarga rioya qilishi lozim. Ushbu qonunchilik holatlarini buzish g'ayriqonuniy tashkilot deb kvalifikatsiya qilish uchun asos bo'ladi.

Taqiqlangan jamoat birlashmalari va (yoki) diniy tashkilotlar faoliyatini kayta tiklash deganda, sud tartibida taqiqlangan jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlar faoliyatini davom ettirish harakatlarini sodir etish tushuniladi. Bu harakatlar birlashma faoliyatini moliyalashni davom ettirish, uning a'zolarini yig'ish, shuningdek, boshqa har qanday faoliyat: uning faoliyatini targ'ib, tashviq qilish, mablag'larni yig'ish va yangi dasturlar ishlab chiqish, tugatilgan jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlar nomidan taqiqlangan faoliyatlarni davom ettirishga tashviq qilish va shu kabilar tushuniladi.

Taqiqlangan jamoat birlashmasi yoki diniy tashkilot faoliyatini qayta tiklash faqatgina sudning tugatilgan va taqiqlangan faoliyatni tiklash to'g'risidagi qarori va ushbu hujjatning qonuniy kuchga kirishi asosida sodir bo'ladi.

G'ayriqonuniy tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etish deganda, g'ayriqonuniy tashkilotlar faoliyatida har qanday xatti-harakatlar bilan qatnashish, jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar tugatilganligi haqidagi qaror bo'lishiga qaramay, uning harakatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, shuningdek, boshqa faoliyat, bu tashkilotlarning noqonuniy faoliyatlarini amalga oshirishga yordam beruvchi xatti-harakatlar tushuniladi. Faol ishtirok etish sifatida bunday birlashma (tashkilot)larning turli xil faoliyatlarini bajaruvchi, uning maqsadidan kelib chiquvchi va erishish vositalari o'laroq, turli harakatlarni bajarish: vazifalarni taqsimlash, ichki boshqaruvni amalga oshirish va boshqalarga rahbarlik qilish muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, fuqarolarni fuqarolik

burchlarini bajarmaslikka chaqiruvchi, bunday tashkilotlar tarkibida doimiy vazifalarni bajaruvchi va shu kabi boshqa harakatlarini amalga oshirishini faol ishtirok etish deb e'tirof etish lozim.

Jinoyat taqiqlangan jamoat birlashmasi yoki diniy tashkilot tuzish yoki faoliyatini qayta tiklash, ularning faoliyatida faol qatnashish harakatlari sodir etilgan vaqtdan boshlab **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor shaxs o'zining taqiqlangan jamoat birlashmasi (diniy tashkilot) tuzish yoki faoliyatini qayta tiklash kabi qilmishining ijtimoiy xavfli ekanligini anglaydi va ushbu faoliyatni amalga oshirishni istaydi. Taqiqlangan jamoat birlashmasi (diniy tashkilot) faoliyatida faol ishtirok etuvchi shaxs o'zining unga mansubligini, uning tarkibidagi amaliy harakatlarning ahamiyatini, o'rnini va shu kabilarni anglab etadi hamda unda ishtirok etishni istaydi.

Jinoyatning **motiv** va **maqsadi** kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

Jinoyat **subyekt** 16 yoshga to'lgan taqiqlangan jamoat birlashmasining faqat tashkilotchilari yoxud faol qatnashchilari bo'la oldi.

13-§. G'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida katnashishga undash (JK 216¹-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekt** — jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar tuzish va faoliyatini amalga oshirishni tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar. Jinoyatning **fakultativ obyekt** — jamoat tartibi va xavfsizligini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar.

Obyektiv tomondan jinoyat shunday harakatlari uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng, O'zbekiston Respublikasida taqiqlangan jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar faoliyatida ishtirok etishga undashda ifodalanadi.

(Jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar tushunchalari haqida JK 216-moddasi tahliliga qarang.)

Diniy oqim — bu diniy konfessiyaning bir yo'nalishi, fuqarolarning belgilangan oqimga diniy belgilar orqali sodiqligi bilan ta'riflanadigan,

lekin diniy marosim va udumlarni amalga oshirishda farq qiladigan birlashmasi (masalan, katolik, pravoslav va boshqalar).

Diniy sekta — turli diniy oqimlarga mansub kishilarning diniy, konfessional alomatlariga ko‘ra birlashgan guruhi, jamoasi (masalan, vahhobiylik va boshqalar).

Jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash har xil usullar va vositalar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu insonni yoki uning yaqinlarini bunday tashkilot faoliyatida qatnashish uchun jismoniy majburlash bo‘lishi mumkin. Undashni kishining jamoat birlashmasida, ko‘proq diniy tashkilot faoliyatida qatnashgandan so‘ng, uning gunohlari va boshqalar kechirilishini va‘da qilib, aldov yo‘li bilan amalga oshirish mumkin. Ko‘p holatlarda jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash moddiy rag‘batlantirish (pul, narsa, mulk va boshqa qimmatbaho narsalar) vositasida amalga oshiriladi. Undan tashqari, undash targ‘ibot, tashviqot yo‘li bilan va shu singari tashkilotlar faoliyatida qatnashishga chaqirish orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, jamoat birlashmalari faoliyatida qatnashishga undash tashviqot, targ‘ibot, chaqiruvlar shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Tashviqot ko‘pincha taqiqlangan yoki g‘ayriqonuniy diniy tashkilotlar yoxud jamoat birlashmalarining asosiy g‘oyalari hamda ular faoliyatida ishtirok etishga chaqiruvchi og‘zaki va yozma shaklda chop etgan holda keng ko‘lamdagi aholi qatлами orasida olib boriladi.

Targ‘ibot (lot. propaganda — targ‘ib qilish) — aholi o‘rtasida mazkur birlashmalarning faoliyatiga taalluqli g‘oya, fikr, ta‘limot va bilimlarni tarqatish va tushuntirish, keng ommaga g‘oyaviy ta‘sir ko‘rsatishdir.

Chaqiruvlar deganda, muayyan doiradagi shaxslar orasida ma‘lum bir jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash maqsadida tashqi tomondan insonlarda bu haqda iliq tuyg‘ular uyg‘otishga, ularning ongi, irodasiga ta‘sir o‘tkazish, g‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarning o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishish, ularning faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish, yangi ishtirokchilar jalb qilishga qaratilgan harakatlar tushuniladi.

Ushbu tahlil qilinayotgan moddani kvalifikatsiya qilishda jamoat

birlashmalari va diniy tashkilotlarning g‘ayriqonuniy faoliyat yuritishi muhim omil hisoblanadi. Ushbu jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlar sud qarori bilan tugatilgan yoki ular o‘rnatilgan qonunlarga rioya qilmaganligi sababli tegishli organlar tomonidan ro‘yxatga olinmagan bo‘ladi.

(Jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarning qonuniyligi haqida JK 216-moddasi tahliliga qarang.)

O‘zbekiston Respublikasining «Jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi Qonunida asosiy umumiy prinsip sifatida belgilanishicha: «Jamoat birlashmalari o‘z a‘zolari (qatnashchilari)ning ixtiyoriyligi, teng huquqliligi, o‘zini o‘zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va harakat qiladi». Ushbu prinsipga asosan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ixtiyoriy ravishda har xil jamoat birlashmalariga a‘zo bo‘lishi mumkin va ularni jamoat birlashmalariga majburlash yo‘li bilan kiritishga hech kimning haqqi yo‘q. Qonunchilik diniy tashkilotlarning ham faoliyatini shu tartibda qat‘iy belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi — dunyoviy davlat. Davlat dinni va odamlarning e‘tiqodini hurmat qilib va tushunib, insonning vijdon erkinligini tan oladi, dinga e‘tiqod qilish yoki e‘tiqod qilmaslikka, diniy udumlarda, rasm-rusumlarda qatnashish-qatnashmaslik huquqini beradi. Lekin, shu bilan birga, odamlarni e‘tiqodni tanlashda, diniy tashkilotlarda qatnashganda ta‘sir qiladigan har qanday g‘ayriqonuniy ta‘sirlardan himoyalaydi. Shu sababli, har qanday g‘ayriqonuniy diniy tashkilotlarga undash taqiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi insonning birlashish va vijdon erkinligi huquqlarini tan olib hamda bunday birlashma bo‘lishi kerakligini o‘rnatib, jamoat birlashmalariga qatnashishga undashni taqiqlaydi.

Ushbu sharhlanayotgan moddada aybdor shaxsning qilmishini kvalifikatsiya qilishda ushbu aybdor shaxsga nisbatan bir yil davomida O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 202¹-moddasi bo‘yicha ma‘muriy javobgarlik qo‘llanganini aniqlash zarur.

Faqat ma‘muriy preyuditsiya bo‘lgan taqdirda, ya‘ni aybdor shaxsga

nisbatan shunga o‘xshash qilmishi uchun ma‘muriy jazo qo‘llangan bo‘lsa hamda ushbu qilmishni ma‘muriy jazo qo‘llangandan so‘ng bir yil davomida sodir etsa, u JK 216¹-moddasi bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

G‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga jinoiy undash formal tarkibli jinoyatdir. Ushbu jinoyatni **tugallangan** deb hisoblash uchun g‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari faoliyatida qatnashishga undash harakatlarini sodir etishning o‘zi kifoya, sharhlanayotgan modda uchun qilmishning oqibati ahamiyatga ega emas. Agar undash usullaridan birida jismoniy kuch ishlatilsa, aybdor shaxsning qilmishi jinoyatlar majmui tariqasida sharhlanayotgan modda va javobgarlikni talab qiluvchi sog‘liqqa qarshi jinoyat bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to‘g‘ri qasddan** sodir etiladi. Aybdor shaxs boshqa shaxsni g‘ayriqonuniy jamoat birlashmasi, diniy tashkilot, oqim yoki sekta faoliyatida qatnashishga undayotganligini angelaydi va boshqa shaxslarni ham undashni xohlaydi. Jinoyatning **motiv** va **maqsadi** kvalifikatsiya qilishga ta‘sir qilmaydi.

Ushbu jinoyat **subyektiv** 16 yoshga to‘lgan aqli raso har qanday jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

14-§. Diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun xujjatlarini buzish (JK 216²-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasida «diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi», deb belgilangan¹.

Ushbu **jinoyatning bevosita obyekt** diniy tashkilotlarni tuzish, ro‘yxatga olish va ularning faoliyatini amalga oshirishni tartibga solishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan, JK 216²-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. — Т., «Ўзбекистон», 2009. — 12-б.

jinoyat shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng, birinchidan, nolegal diniy faoliyatni amalga oshirishda; ikkinchidan, diniy tashkilot rahbarlarining mazkur tashkilot nizomini ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovlashida; uchinchidan, ruhoniylar va diniy tashkilotlarning a'zolari tomonidan bolalar va o'smirlarning maxsus yig'inlarini tashkil etish va o'tkazishda; shuningdek, diniy marosimlarga aloqasi bo'lmagan adabiyotlarni tarqatish va boshqa to'garaklar, guruhlarining tashkil etilishida ifodalanadi.

Nolegal diniy faoliyat bilan shug'ullanish deganda, qonun bilan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan va diniy faoliyatni tegishli ruxsat olmasdan amalga oshiruvchi turli diniy tashkilotlar, oqimlar, konfessiyalar va hokazolarning tashkil etilishi yoxud tashkilotning ta'sis hujjatlari yoki diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida ko'rsatilmagan maqsad, vazifalar va faoliyat bilan shug'ullanishni tushunish lozim. Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlarini ro'yxatga olish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, boshqa diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish esa tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- diniy tashkilot tuzish tashabbuskorlari bo'lgan, yuz nafardan kam bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi imzolagan ariza;
- diniy tashkilotning ustavi;
- ta'sis yig'ilishining bayoni;
- tuzilayotgan diniy tashkilot joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat;
- ro'yxatga olish yig'imi to'langanligi to'g'risidagi hujjat.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organini ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi)ning raisi va kotibi imzo qo'ygan ariza;

- diniy tashkilotlar markaziy boshqaruv organining ustavi;
- ta' sis yig'ilishi (konferensiyasi)ning bayoni;
- ta' sischilar vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar;
- rahbar organ joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat;
- ro'yxatga olish yig'imi to'langani to'g'risidagi hujjat.

Diniy tashkilotlar hamda ularning markaziy boshqaruv organlarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran bir oylik muddatda ko'rib chiqiladi.

Adliya organlari qo'shimcha materiallar talab qilib olishga hamda tegishli organlarning (ekspert) xulosasini olishga haqli. Bunday holda qaror ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran uch oylik muddatda qabul qilinadi.

Diniy tashkilotning ustaviga kiritilgan qo'shimchalar va o'zgartishlar diniy tashkilotni ro'yxatga olish kabi tartib va muddatlarda ro'yxatga olinishi lozim¹.

Ushbu jinoyat nolegal diniy faoliyat bilan shug'ullanilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb topiladi.

Diniy tashkilotlar rahbarlarining mazkur tashkilotlar ustavini ro'yxatdan o'tkazishdan bosh tortishi deganda, yuqorida keltirib o'tilgan qoidalar, harakatlar, talablarni bajarmaslik, ya'ni diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni (ustav, fuqarolar imzolagan ariza, ta' sis yig'ilishi bayoni va boshqalarni) taqdim qilmaslik tushuniladi.

Mazkur jinoyat tashkilot ro'yxatdan o'tkazilishdan bo'yin tovlangan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Diniy marosimlarga aloqasi bulmagan bolalar va usmirlarning maxsus yig'inlari, mehnat, adabiyot va boshqa tugaraklar hamda guruhlarini tashkil etish **deganda, ana shunday yig'inlar uchun zarur ish va o'quv rejalarining ishlab chiqilishi, zarur adabiyotlar tanlanishi va h.k.larni tushunish lozim.**

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgan. Ta'lim

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1991 йил 14 июндаги «Виждон эр- кинлиги ва диний ташкilotлар тўғрисида»ги 289-ХП-сон Қонуни (Янги тахрири) (Ўзбекистон Республикасининг 1998 й. 1 майдаги 618-1-сон Қонуни билан тасдиқланган), 11-модда.

tizimining o‘quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta‘lim olish huquqi ularning dinga bo‘lgan munosabatidan qat’i nazar ta‘minlanadi.

Shu sababdan, ruhoniylar va diniy tashkilotlar a‘zolari tomonidan qandaydir tadbir, bolalar va o‘smirlarning maxsus yig‘ilishlari, ta‘lim ahamiyatiga ega bo‘lgan tadbirlarni tegishli xalq ta‘limi organlari va ota-onalar roziligisiz tashkil qilish va o‘tkazish man etiladi. Bundan tashqari, qonunchilikda: «Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek, ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o‘qitishga yo‘l qo‘yilmaydi», — deb belgilangan.

Ma‘lum bir diniy amalni egallagan, shu lavozimga tayinlangan va muayyan diniy ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxs **ruhoniyy** deb e‘tirof etiladi.

Diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyati JK 216²-moddasi dispozitsiyasida ko‘rsatib o‘tilgan harakatlardan birining sodir etilishi bilan, ya‘ni nolegal diniy faoliyat bilan shug‘ullanish, diniy tashkilotlar rahbarlarining mazkur tashkilotlar ustavini ro‘yxatdan o‘tkazishdan bosh tortishi, ruhoniylar va diniy tashkilotlar a‘zolari tomonidan bolalar va o‘smirlarning maxsus yig‘ilishlari, shuningdek, diniy marosimga aloqasi bo‘lmagan mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to‘garaklar hamda guruhlarini tashkil etish va o‘tkazish kabi harakatlar sodir etilgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi. Qilmishni jinoiy deb topish uchun jinoiy oqibatlarining kelib chiqishi talab qilinmaydi.

JK 216²-moddasi ma‘muriy preyuditsiyaga ega.

JK 216²-moddasining 2-qismida bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan harakatlar (prozelitizm) yoki boshqa har qanday missionerlik harakatlari uchun javobgarlik belgilangan.

Bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar targ‘ibot-tashviqot qilish, e‘tiqod qiluvchini vijdon erkinligiga qarshi majburan boshqa konfessiyaga kiritish, haq berish, mulkiy manfaatdor qilish vositasida va hokazolarda ifodalanadi.

Boshqa missionerlik faoliyati deganda, diniy tashkilotlar, ruhoniylar, konfessiya a‘zolarining o‘z konfessiyalariga targ‘ib qiluvchi targ‘ibot-

tashviqot tadbirlarini o‘tkazishi, turli xil yordamlar ko‘rsatish orqali tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, diniy va ibodat marosimlarini o‘tkazish yo‘li bilan bir konfessiyadan boshqasiga kiritishga yo‘naltirilgan xatti-harakatlari tushuniladi.

JK 216²-moddasi 2-qismi bilan, ya’ni bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati bilan shug‘ullangan shaxsni javobgarlikka tortish uchun, ushbu qilmish uchun ma’muriy javobgarlikka tortilgan aybdor shaxs bu qilmishni bir yil mobaynida sodir etgan bo‘lishi lozim.

Subyektiv tomondan JK 216²-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat **to‘g‘ri qasddan** sodir etiladi.

Jinoyatning **motiv** va **maqsadi** kvalifikatsiya qilishga ta’sir qilmaydi.

Jinoyat **subyekti** nolegal diniy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi diniy tashkilotlarning rahbarlari yoxud ruhoniylar va diniy tashkilotlarning a’zolari, diniy marosimga aloqasi bo‘lmagan bolalar va o‘smirlarning maxsus yig‘inlarini, mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to‘garaklarni hamda guruhlarini tashkil etuvchi va o‘tkazuvchi 16 yoshga to‘lgan shaxslar bo‘lishi mumkin.

15-§. Yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish, o‘tkazish tartibini buzish (JK 217-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida «fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar, hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega», ekanligi belgilangan¹.

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг

Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar o'tkazishning o'rnatilgan tartibini o'z ichiga oluvchi ijtimoiy munosabatlar jinoyatning **bevosita obyekti** hisoblanadi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining bir me'yorda faoliyat yuritishi, jamoat xavfsizligi sharhlanayotgan jinoyatning **fakultativ obyekti** hisoblanadi.

Obyektiv tomondan JK 217-moddasi 1-qismida ko'zda tutilgan jinoyat, shunday qilmishi uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng, yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish yoxud o'tkazish tartibini ularning tashkilotchisi tomonidan buzishda ifodalanadi.

Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar uyushtirish deganda, qonunda belgilanmagan tartibda o'tkaziladigan yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar o'tkaziladigan joy, o'tkazish shakli, joyi va vaqtini, harakatlanish yo'nalishini, ishtirokchilarni jalb etish tartibini, so'zga chiquvchilarni tanlash va boshqa harakatlarni belgilab olish tushuniladi.

Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlarini g'ayriqonuniy uyushtirish turli harakatlar, masalan, bunday tadbirlarni o'tkazishga davlat hokimiyat organining roziligi talab etilsa, bu haqda ularni xabardor etmasdan o'tkazish; bunday tadbirlarni tashkil etish jarayonini, fuqarolarni jalb etish tartibini buzish; yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlarni tashkil etish uchun moddiytexnik vositalar ajratish va boshqalar orqali ifodalanadi.

Yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar o'tkazish deganda, shunday tadbirlarni o'tkazish maqsadida tashkiliy masalalarni faktik jihatdan bajarish va hokazolar tushuniladi.

Ruxsat berilmagan yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki

иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 14-б.

namoyishlarini uyushtirish — bu fuqarolarning birlashishi va muayyan shaxslar, tashkilotlar, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi voqealarga nisbatan o‘z munosabatlarini ommaviy namoyish etishlari, ko‘cha bo‘ylab ommaviy tashkil etilgan harakatda fuqarolarning o‘z ijtimoiy-siyosiy kayfiyatini turli ko‘rgazmali vositalar yordamida ifodalashini o‘z ichiga oluvchi tegishli tadbir tashkilotchisining g‘ayriqonuniy harakatlari. Bu muayyan yopiq binolarda g‘ayriqonuniy yig‘ilishlar va mitinglar o‘tkazish, bunday tadbirlar o‘tkazilishi haqida murojaatnomada belgilangan maqsadlar, uning boshlanishi va to‘xtatilishi vaqtiga rioya etmaslik, g‘ayriqonuniy tadbirni to‘xtatish to‘g‘risidagi hokimiyat organlarining qonuniy talablariga bo‘ysunmaslik hamda boshqa tartiblarga rioya etmaslikda namoyon bo‘ladi.

Yig‘ilish deganda, fuqarolarning oldindan belgilangan vaqt va joyda (bino yoki ochiq havoda) birgalikda bevosita ishtirok etish va biror-bir muammo yuzasidan birgalikda qaror chiqarish shakli tushuniladi¹.

Miting deganda, fuqarolarning jamiyat hayotidagi biror narsa yuzasidan tashkilot yoki mansabdor shaxslarga nisbatan o‘zlarining munosabatini ommaviy ravishda bildirish maqsadida ko‘pincha ochiq havoda o‘tkaziladigan ommaviy yig‘ilish tushuniladi².

Ko‘cha yurishlari — biror-bir muammo yuzasidan hokimiyat organlari va jamoatchilikning e‘tiborini tortish maqsadida shaxslarning ko‘chada, dahada tashkiliy yoki ommaviy harakatlanishi³.

Namoyish — biror-bir muammo yuzasidan bir guruh shaxslar tomonidan o‘zlarining ijtimoiy-siyosiy kayfiyatlari va munosabatlarini plakatlar, transparantlar va ko‘rgazmali materiallardan foydalangan holda ommaviy ifoda etishi.

Tahlil etilayotgan modda blanket dispozitsiyalidir. Yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar o‘tkazish to‘g‘risida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat va boshqaruv organiga yozma ravishda murojaat etiladi. Mazkur murojaatda tadbirni o‘tkazish maqsadi, shakli, joyi, boshlanish va tugash vaqti, harakatlanish yo‘nalishi, nazarda

¹ Большой юридический словарь / Под ред. А.Я. Сухарева, В.Е. Крутских, изд.2. — 565-б.

² Ўша жойда. — 335-б.

³ Ўша жойда. — 683-б.

tutilayotgan ishtirokchilar soni, tashkilotlar va jamoat tartibini saqlash uchun mas'ul bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar, ariza topshirish sanasi kabilar ko'rsatiladi. Tadbirni o'tkazish jarayonida ishtirokchilar va tashkilotlar jamoat tartibini saqlashga majburdirlar. Ularga transport vositalari va piyodalarning harakatlanishiga to'sqinlik qilish, aholi punktining uzluksiz faoliyat yuritishiga tajovuz qilish, palatkalar qurish, yashil maydonlar, bino va inshootlarga zarar yetkazish, qurol yoki insonlarning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazish maqsadida qurol sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan maxsus tayyorlangan buyumlarda bo'lish, fuqarolar va yuridik shaxslarga moddiy zarar yetkazish, tadbirlarni o'tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlovchi davlat organlari vakillari faoliyatiga har qanday shaklda aralashish taqiqlanadi.

Qilmishni JK 217-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun tashkilotchiga nisbatan oldin aynan shunday qilmishi uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 201-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy jazo choralari qo'llanilganligi fakti aniqlanishi lozim. Ma'muriy jazo qo'llanilgan va u tugatilmagan holdagina shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Sharhlanayotgan jinoyat formal tarkibli jinoyat hisoblanadi. Uni kvalifikatsiya qilish va **tugallangan** deb topish uchun belgilangan tartibni buzgan holda yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar o'tkazish bo'yicha harakatlar qilish yetarli hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlar o'tkazishning belgilangan tartibini buzayotganligini anglaydi va buni xohlaydi.

Jinoyatni sodir etish **motivlari** va **maqsadlari** turli xil bo'lishi mumkin va ular qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Jinoyat **subyekt**i maxsus subyekt hisoblanadi. Qonun mazmuni bo'yicha yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki namoyishlarning faqat tashkilotchilari jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Mehnat yoki jamoat birlashmasi jamoasi, o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolarning alohida guruhlaridan vakolat berilgan va tashkillashtirilayotgan yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari yoki

namoyishlar haqida hokimiyat organlarini xabardor qilgan holda ular nomidan jamoatchilikka murojaat qiladigan shaxslar tashkilotchilar sifatida tan olinadilar.

Shuningdek, hokimiyat vakillari bilan rasmiy aloqaga kirishmagan holda tadbirlarni o‘tkazish va ularga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan harakatlar qiladigan yoki moddiy-texnik vositalar ajratadigan shaxslar ham **tashkilotchilar** deb tan olinadi.

Tashkilotchi xabardor qilinmagan holda alohida ishtirokchilar tomonidan yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar o‘tkazishning belgilangan tartiblari buzilgan hollarda, u JK 217-moddasi bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Tahlil qilinayotgan jinoyatning 2-qismi diniy yig‘ilishlar, ko‘cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o‘tkazish qoidalarini buzish uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

JK 217-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat **obyektiv tomondan** O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 1 maydagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunida belgilangan diniy yig‘ilishlar, ko‘cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o‘tkazish qoidalarini buzish orqali sodir etiladi.

Diniy tashkilotlar ibodat qilish yoki diniy marosimlarni o‘tkazish uchun barcha kelishi mumkin bo‘lgan joylarni tashkil etish va ularni ta‘minlash huquqiga ega. Ibodat, diniy marosim va tadbirlar diniy tashkilotlar joylashgan joy va ularga tegishli hududlarda, madaniyat yoki ibodat binolarida, ibodat qilish maskanlarida, qabristonlarda odat yuzasidan zarur bo‘lgan hollarda — fuqarolar roziligiga ko‘ra — ularning uylarida o‘tkazilishi mumkin.

Kasalxona, gospital, qariyalar va nogironlar uylari, dastlabki tergov va jazoni ijro etish joylarida o‘tkaziladigan ibodatlar va diniy marosimlar mazkur joylardagi fuqarolarning iltimosiga ko‘ra o‘tkazilishi mumkin.

Ibodat binolaridan tashqarida o‘tkaziladigan ommaviy tartibdagi ibodat va diniy marosimlar joylardagi mahalliy boshqaruv va hokimiyat organlarining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

JK 217-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat diniy

yigʻilishlar, koʻcha yurishlari va boshqa diniy marosimlar oʻtkazish qoidalari buzilgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi. JK 217-moddasining 2-qismi ham maʼmuriy preyuditsiyaga ega.

Subyektiv tomondan **mazkur jinoyat** toʻgʻri kasddan **sodir etiladi**.

JK 217-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat **subyekt** 16 yoshga toʻlgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

16-§. Taqiqlangan ish tashlashga rahbarlik qilish yoki favqulodda holat sharoitida korxon, muassasa yoxud tashkilotlar ishiga toʻsquinlik qilish (JK 218-moddasi)

Fuqarolar yoki Oʻzbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga real xavf tugʻdiruvchi, favqulodda holat joriy etmasdan oldini olib boʻlmaydigan muayyan hollarda respublikaning butun hududi yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etiladi.

Favqulodda holat favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) fuqarolarning xavfsizligini taʼminlashni koʻzlab, Oʻzbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan joriy etiladi. Favqulodda holat joriy etish toʻgʻrisidagi Prezident Farmoni uch kun ichida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdigʻiga kiritiladi (Konstitutsiyaning 78, 93-moddalari)¹.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-

Favqulodda holat joriy etishning ikki sharti farqlanadi:

1) fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid bo‘lgan, konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rluk bilan o‘zgartirishga harakat qilingan, ommaviy tartibsizliklar va millatlararo to‘qnashuvlar, alohida joylarni qurshab olish, qo‘shni davlatlar hududidan davlat chegarasini buzib ommaviy o‘tish xavfi bo‘lgan hollarda;

2) fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish maqsadida kechiktirib bo‘lmaydigan qutqaruv ishlarini talab etadigan tabiiy ofat va og‘ir ekologik holatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va yirik halokatlar yuz berganda.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining bir me‘yorda faoliyat yuritishi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar, fuqarolar va jamoat xavfsizligi tahlil qilinayotgan moddaning **bevosita obykti** hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat quyidagi yo‘llar bilan sodir etilishi mumkin:

1) taqiqlangan ish tashlashga rahbarlik qilish;

2) korxonalar, muassasa yoxud tashkilotlar ishiga to‘sqinlik qilish.

Taqiqdangan ish tashlashga rahbarlik qilish ish tashlashni tashkil etish bilan bog‘liq harakatlarni, ya‘ni ish tashlashning maqsadlarini ishlab chiqish va asoslash, ish tashlashda ishtirok etish uchun shaxslarni qidirish va jalb etish, majburiyatlarni taqsimlash, vazifalarni topshirish va ularning bajarilishi ustidan nazorat qilish, maslahat va ko‘rsatmalar berish yo‘li bilan ish jarayonlarini to‘xtatish, ish tashlash muddatlarini qo‘llab-quvvatlash, ish tashlovchilarning xatti-harakatini tashkillashtirishdir. Boshqacha aytganda, bu — ish tashlash jarayoni va ish tashlovchilarni boshqarishga yo‘naltirilgan harakatdir.

Ish tashlash — jamoaviy mehnat nizosini hal etish maqsadida xodimlarning o‘z mehnat majburiyatlarini bajarishdan (to‘liq yoki qisman) vaqtinchalik bosh tortishlari¹. Ish tashlash ilgari surilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy xarakterdagi talablarni qondirish maqsadida

моддаларига ўзгаришлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгаришлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 26, 49-б.

¹ Қаранг: Большой юридический словарь / Под ред. А.Я. Сухарева, В.Е. Крутских, изд.2. — 680-б.

ommaviy ravishda ish to'xtatish hisoblanadi.

Korxonalar, muassasalar, tashkilot ishiga to'sqinlik qilish, bu — binoga, ish joylariga kirish yo'lini to'sib qo'yish, zarur texnologik, elektr va suv tarmoqlarini uzib qo'yish kabi shakllarda namoyon bo'ladigan hamda ish jarayonini izdan chiqarish uchun har qanday to'sqinliklarni yaratishga, ularga xalal berishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

To'sqinlik qilish korxonalar, muassasalar yoxud tashkilotlarda bir me'yordagi ish tartibini saqlab turuvchi shaxslarni jismoniy yoki ruhiy majburlashni ham qamrab oladi.

Ruhiy majburlash deganda, favqulodda holat sharoitida mansabdor shaxslar va boshqa xodimlar tomonidan korxonalar, muassasalar yoki tashkilotning faoliyatini buzish maqsadida ularga jismoniy jazo qo'llash, moddiy zarar yetkazish, boshqa noqulay ahvolga solish (ishdan bo'shatish, mansabini pasaytirish) bilan tahdid qilish tushuniladi. Agar aybdor o'ldirish yoki boshqa turdagi majburlovni qo'llash bilan korxonalar, muassasalar yoki tashkilot faoliyatiga to'sqinlik qilgan bo'lsa, uning harakatlari jinoyatlar majmui tariqasida (masalan, JK **218-moddasi** va 112-moddasi bo'yicha) kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Jismoniy majburlash deganda, shaxsni majburiy ravishda biron bir binoga qamab qo'yish, unga turli og'irlik darajasidagi tan jarohatlari yetkazish, uni hayotdan mahrum qilish, ishga kirishishiga va uni bajarishiga jismoniy qarshilik ko'rsatish kabilar tushuniladi. Sharhlanayotgan jinoyat sodir etilayotgan vaqtda aybdor sog'liqqa zarar yetkazgan yoki shaxsga qarshi boshqa jinoyat sodir etgan bo'lsa, u holda uning harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Sharhlanayotgan jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi uni sodir etish sharoiti — favqulodda holat sharoiti hisoblanadi.

Favqulodda holat — maxsus qonunlarda belgilangan tartibda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, yuridik shaxslarning huquqlarini cheklashga yo'l qo'yiladigan, shuningdek, ularga qo'shimcha majburiyatlar yuklaydigan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatining o'ziga xos rejimi¹.

¹Қаранг: Большой юридический словарь / Под ред. А.Я. Сухарева, В.Е. Крутских, изд.2. — 680-б.

Oqibat kelib chiqqan-chiqmaganligidan qat'i nazar, dispozitsiyada nazarda tutilgan qilmishlardan birining sodir etilishi bilan jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor favqulodda vaziyat holatida taqiqlangan ish tashlashga rahbarlik qilishning ijtimoiy xavfliligini anglaydi, bunday hollarda korxonada, muassasada, tashkilot ishiga to'sqinlik qilishning huquqqa xilofligini biladi va mazkur harakatlarni sodir etishni xohlaydi.

Ish tashlashning rahbarlari, shuningdek, favqulodda holat sharoitlarida korxonada, muassasada, tashkilot ishiga to'sqinlik qilgan 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxslar jinoyatning **subyektiv** bo'lishi mumkin.

Ommaviy ravishda ishni to'xtatishga chaqiruvchi va bunday tad-birlarni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'ruvchi shaxslar, tashkilotchilar va faol ishtirokchilar **ish tashlashning rahbarlari** deb topiladilar.

17-§. Hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish (JK 219-moddasi)

Jinoyatning bevosita obyektini jamiyat va davlat manfaatlarini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, jamoat birlashmalarining bir me'yorda faoliyat yuritishi, hokimiyat vakili yoki o'zining fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsiy daxlsizligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga faol qarshilik ko'rsatish orqali sodir etiladi.

Qarshilik ko'rsatish faol yoki passiv shakllarda bo'lishi mumkin. Qonun mazmuniga ko'ra, faqatgina faol qarshilik ko'rsatish jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

Faol qarshilik ko'rsatish deganda, aybdor tomonidan hokimiyat vakili yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsning o'z vazifalarini ado etishiga to'sqinlik qilishga qaratilgan harakatlari, masalan, jinoyatchini ushlab, jinoyat qurollarini tortib olishiga, tintuv o'tkazilishiga

to'sqinlik qilishi, erkinliklarni cheklashi va h.k. sodir etilishini tushunish zarur.

Jismoniy qarshilik ko'rsatish shaklida amalga oshiriladigan faol qarshilik ko'rsatish — o'zining xizmat yoki fuqarolik majburiyatlarini bajarayotgan shaxslarning badaniga qasddan shikast yetkazish, urish, do'pposlash, bog'lash, qamab qo'yish yoki ularning erkinligini boshqacha usulda cheklab qo'yish.

NOTA BENE !

Hokimiyat vakili – davlatning biron-bir hokimiyat organining nomidan ish ko'rib, muayyan vazifalarni doimiy yoki vaqtincha amalga oshiruvchi va o'z vakolatlari doirasida ko'pchilik yoxud barcha fuqaro yoki mansabdor shaxslar uchun majburiy bo'lgan harakatlarni sodir etish yoki farmoyishlar berish huquqiga ega bo'lgan shaxs.

(«Hokimiyat vakili» tushunchasi yuzasidan JK 205-moddasi tahliliga qarang.)

JK 219-moddasi mazmuni bo'yicha hokimiyat vakillari qatoriga ijro etilishi majburiy bo'lgan qonuniy ko'rsatmalar berish huquqi berilgan mas'ul mansabdor shaxslar kiritiladi. Bular huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat qiluvchi organlar xodimlari: prokurorlar, ichki ishlar xodim organlari va prokuror qarorlarining ijrosini ta'minlashni amalga oshiruvchi ichki ishlar organi xodimi; Milliy xavfsizlik xizmati organi xodimi; soliq huquqbuzarliklari bo'yicha departament xodimi; sud ijrochisi; bojxona xizmati xodimi, shuningdek, qonun bo'yicha huquq-tartibotni muhofaza qilish asosiy yoki asosiy vazifalardan biri hisoblanuvchi organlarda xizmat vazifas ni bajaruvchi boshqa shaxslar.

Hokimiyat vakillari funktsiyalarini bajarayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jazoni ijro etish muassasalari xodimlariga qarshilik ko'rsatish bilan bog'liq qilmish tegishli belgilar bo'lgan hollarda JK 220-moddasi yoki 221-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxs deganda, davlat hokimiyati yoki boshqaruv organlari, jamiyatga yordam berayotgan, o'zining

konstitutsiyaviy yoki boshqa qonuniy majburiyatlarini bajarayotgan har qanday shaxs tushuniladi. Boshqacha aytganda, fuqarolik burchini bajarish, bu — fuqarolar tomonidan qonun va jamiyat, davlat va boshqa shaxslarning manfaatlarini doirasida har qanday harakatlarni amalga oshirish. Ko‘p hollarda o‘zining fuqarolik burchini bajarayotgan shaxslar jabrlanuvchi bo‘lib qoladi va qonunga asosan shunday shaxs deb tan olinadi.

Hokimiyat vakili yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsning xizmat majburiyatlari huquqiy tartibot va ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash va himoya qilishga qaratilganligi sababli, hokimiyat vakilining ko‘rsatmasi yoki fuqaroning harakati qonun va huquq doirasida bo‘lishi lozim. Mazkur xizmat majburiyatlari hokimiyat vakillariga tegishli qonun hujjatlarining alohida toifasidan kelib chiqadi.

Hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko‘rsatish xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakiliga qarshilik ko‘rsatish tarzida sodir etilsa, aybdor mazkur modda bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi. Qarshilik ko‘rsatish o‘z xizmat vazifalarini bajarmayotgan vaqtda hokimiyat vakiliga yoxud fuqarolik burchini bajarmayotgan shaxsga nisbatan sodir etilgan hollarda aybdorning qilmishi JK 219-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Basharti shaxs hokimiyat vakilining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlariga qarshilik ko‘rsatgan bo‘lsa, u ana shunday xatti-harakati uchun ham JK 219-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Jinoyat xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga faol qarshilik ko‘rsatish boshlangan vaqtdan boshlab, oqibat kelib chiqishidan qat‘i nazar, **tugallangan** hisoblanadi. Bunda qarshilik ko‘rsatish natijasida xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxs hayoti yoki sog‘lig‘iga shikast yetkazilgan yoki boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqqan hollarda, aybdorning qilmishi jinoyatlar majmui sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyatning **subyektiv tomoni** aybning **to‘g‘ri qasd** shakli bilan tavsiflanadi. Qarshilik ko‘rsatish, ya‘ni xizmat vazifasini bajarayotgan

hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga faol qarshilik ko'rsatish faqat to'g'ri qasd shaklida sodir etilishi mumkin.

Aybdor shaxs xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatayotganligini angelaydi va buni xohlaydi.

Xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatayotganligini anglamagan shaxs tomonidan bunday qarshilik ko'rsatishning sodir etilishida mazkur jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi.

JK 219-moddasi 2-qismi xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxslarni qanday shaklda bo'lmasin o'zining xizmat vazifasini bajarish yoki fuqaroviy burchini bajarishdan voz kyechishga, shuningdek, qonunga xilof harakatlar sodir etishga majbur qilganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Majburlash — bu hokimiyat vakili yoki fuqarolik burchini bajarayotgan shaxsga nisbatan ularni o'z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortish yoki majburlovchi shaxs foydasiga noqonuniy harakatlar sodir etishga erishish maqsadida jismoniy yoki ruhiy ta'sir etish. Qarshilik ko'rsatishda qo'llaniladigan jismoniy majburlashdan farqli ravishda majburlash vaqtida qo'llaniladigan kuch ishlatish boshqa maqsadni ko'zlaydi.

Majburlash vaqtida qo'llaniladigan jismoniy zo'rlik ishlatish deganda, jismoniy azob beradigan hamda jabrlanuvchining irodasiga xilof ravishda uning jismoniy erkinligini cheklaydigan harakatlar sodir etish, shuningdek, urish, do'pposlash va boshqa harakatlar orqali shaxs badaniga o'rtacha og'irliqdagi shikast yetkazish tushuniladi.

Ruhiy majburlash deganda, aybdor tomonidan so'z yoki o'zining niyatini boshqacha shaklda ifodalash orqali hokimiyat vakili yoki o'zining fuqarolik burchini bajarayotgan shaxsga ma'naviy zarar yetkazish, uning qonuniy huquq va manfaatlariga zarar yetkazish tushuniladi. Agar hokimiyat vakili yoki o'zining fuqarolik burchini bajarayotgan shaxsga

nisbatan kuch ishlatish natijasida ularga og'ir tan jarohati yetkazilsa, aybdorning harakatlari jinoyatlar jami bilan kvalifikatsiyalanishi lozim. Zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish majburlash tushunchasi doirasiga kirganligi sababli, aybdorning qilmishi JK 112-moddasi bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilinmasligi lozim.

Majburlashning maqsadi xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqarolik burchini bajarayotgan shaxslar tomonidan majburlovchi foydasiga noqonuniy harakatlar sodir etilishiga erishish maqsadida ularga ta'sir o'tkazish hisoblanadi.

Xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining yoki fuqarolik burchini bajarayotgan shaxslarning majburlovchi foydasiga noqonuniy harakatlar sodir etishlari va bevosita qonuniy vakolati doirasiga kiruvchi majburiyatlarni bajarmasligi **hokimiyat vakilining xizmat vazifasini bajarish yoki shaxsning fuqarolik burchini bajarishdan voz kyechishi** hisoblanadi.

Hokimiyat vakili va shaxsga nisbatan kuch ishlatish bilan mazkur shaxslar tomonidan o'zining xizmat vazifalarini bajarish o'rtasida sababiy bog'lanishning mavjudligi **JK 219-moddasi 2-qismida** nazarda tutilgan qilmish obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

Xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqarolik burchini bajarayotgan shaxslarni qanday shaklda bo'lmasin o'zining xizmat vazifasini bajarish yoki fuqarolik burchini bajarishdan voz kechishga, shuningdek, qonunga xilof harakatlar sodir etishga majbur qilishga yo'naltirilgan majburlov harakatlari sodir etilgan vaqtdan boshlab, oqibat kelib chiqishidan qat'i nazar, jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan JK 219-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Bunda xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqarolik burchini bajarayotgan shaxslarni qanday shaklda bo'lmasin o'zining xizmat vazifasini bajarish yoki fuqarolik burchini bajarishdan voz kechishga, shuningdek, qonunga xilof harakatlar sodir etishga majbur qilishga yo'naltirilgan maxsus maqsadning mavjudligi jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs jinoyat **subyekt** bo'lishi mumkin.

18-§. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar (JK 220-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekt** ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining bir me'yorda faoliyat yuritishi, ya'ni mazkur muassasalarda o'rnatilgan rejim bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Mazkur muassasalar xodimlari va unda jazoni o'tayotgan shaxslarning shaxsiy xavfsizligi **fakultativ obyekt** bo'lishi mumkin.

Qonun chiqaruvchi **jabrlanuvchi** sifatida tan olinadigan shaxslar toifasiga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish muassasalari ma'muriyatining vakillari hamda ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tayotgan mahkumlar va sudlanganlarni kiritadi.

Mahkum — ayblov hukmi chiqarilgan ayblanuvchi.

Ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish muassasalari ma'muriyatining vakillari qatoriga rahbarlik tarkibidagi shaxslar; qo'riqlash va konvoylash vazifalarini bajaruvchi ichki qo'shinlarning harbiy xizmatchilari; shartnoma asosida ishlovchi shaxslar; ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarida umumiy va kasbiy-texnik ta'limni amalga oshiruvchi va tibbiy xizmat ko'rsatuvchi shaxslar; ma'muriy va muhandistexnik xodimlar kiradi.

Jinoyat ijroiya kodeksining 45-moddasiga muvofiq, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, qamoqxonalar ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalari sirasiga kiradi. Tergov izolyatorlari ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilib, xo'jalik ishlarini bajarish uchun qoldirilgan shaxslarga nisbatan jazoni o'tash muassasalari vazifasini bajaradi.

Obyektiv tomondan tahlil qilinayotgan jinoyat ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxsning:

- 1) mahkumlarni terror qilish;
- 2) ma'muriyat vakillariga hujum qilish;

3) jinoiy guruhlar tashkil qilish yoki shunday guruhlar faoliyatida faol qatnashishda ifodalanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasasining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar sodir etish orqali ifodalanadi.

Faoliyatning izdan chiqarilishi deganda, muassasalar tomonidan, amaldagi qonunchilik bilan mustahkamlangan jamiyatdan ajratish bilan bog'liq vazifa va funktsiyalarning bajarishga qodir bo'lmay qolishi tushuniladi.

Terror qilish deganda, mahkum shaxslarga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik qilinishini, ularning xo'rlanishini, tahqirlanishini tushunish zarur.

Jismoniy zo'rlik deganda, jabrlanuvchining badaniga yengil, o'rtacha og'ir va og'ir shikast yetkazish tushuniladi. Basharti, jabrlanuvchining badaniga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilgan taqdirda, aybdorning qilmishi jinoyatlarning jami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Terror qilish vaqtidagi ruhiy zo'rlik og'zaki do'q-po'pisada, qurolyarog' yoki uning o'rnini bosuvchi predmetlarni namoyish etishda ifodalanishi mumkin. Ammo har bir do'q-po'pisa haqiqatga yaqin bo'lishi, jabrlanuvchida uning amalga oshirilishidan qo'rqish uchun jiddiy asoslar bo'lishi kerak.

Ozodlikdan mahrum etish jazosini ijro etish muassasasining ishini izdan chiqarish maqsadida sodir etilgan qo'rqitish natijasida mahkumga og'ir tan jarohati yetkazilsa yoki bu qilmish uning o'limiga olib kelsa, qilmish jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim (**JK 220-moddasi** va 104-modda yoki 105- modda yoxud 97-moddalar bilan jinoyatlar jami).

JK 220-moddasi mazmuniga qo'rqitish deb tan olinadigan, mahkumlarga nisbatan amalga oshiriladigan majburlov harakatlari ular ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasasining ishini izdan chiqarishga qaratilgan hollardagina mazkur modda bilan kvalifikatsiya qilinadi. Aynan shunday maqsad qilmishni mazkur modda bo'yicha kvalifikatsiya qilishning zaruriy belgisi hisoblanadi. Aybdor va jabrlanuvchi o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar (nizo, o'ch olish) tufayli

amalga oshirilayotgan kuch ishlatish, shaxsga qarshi jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Shuning uchun, qo‘rqitish deb tan olingan qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun aybdor va jabrlanuvchi o‘rtasidagi munosabatlarni, aybdorning o‘zini bunday tutishining sabablarini aniqlash lozim.

Ozodlikdan mahrum etish jazosini ijro etish muassasasi ma‘muriyati vakillariga hujum qilish ma‘muriyat vakillariga nisbatan jismoniy yoki ruhiy kuch ishlatish orqali sodir etilishi mumkin.

Ozodlikdan mahrum etish jazosini ijro etish muassasasining ishini izdan chiqarish maqsadida sodir etilgan qo‘rqitish natijasida ma‘muriyat vakillariga og‘ir tan jarohati yetkazilgan yoki uning hayotiga suiqasd qilingan hollarda qilmish jinoyatlar majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Ma‘muriyat vakillariga hujum qilish ma‘muriyat vakillarining qonuniy harakatlari tufayli kelib chiqqan bo‘lishi lozim. Agar hujum qilish ma‘muriyat vakillarining qonuniy harakatlari tufayli kelib chiqmagan bo‘lsa, aybdorning qilmishi sharhlanayotgan modda bo‘yicha kvalifikatsiya qilinmasdan, balki shaxsga qarshi jinoyatlar bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi, chunki bunday hollarda **JK 220-moddasida** nazarda tutilgan tajovuz obyekt mavjud bo‘lmaydi.

Jinoiy guruh tashkil qilish deganda, ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasasining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar sodir etish maqsadida tashkil etilgan turli faoliyat tushuniladi. Tashkil etish oldindan til biriktirish, mazkur g‘ayriqonuniy harakatlarni sodir etishga kelishib olish, guruhning har bir a‘zosi o‘rtasida vazifalarni taqsimlash kabilarni o‘z ichiga oladi.

Kurollanganlik jinoiy guruhning zaruriy belgisi hisoblanmaydi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, jazoni ijro etish muassasalarida turli mezonlar asosida tuzilgan mahkumlarning jamoat birlashmalari, shu jumladan mahalliychilik, o‘zaro manfaatdorlik, jinoiy ixtisoslashish tamoyillari asosida tuzilgan salbiy yo‘naltirilgan guruhlar jinoiy guruh sifatida baholanmasligi kerak, chunki ular o‘z oldiga ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasasining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar

sodir etish maqsadini qo‘ymaydi.

Jinoiy guruh ishtirokchilari orasidan faqat tashkilotchi va faol ishtirokchilargina JK 220-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

Tashkilotchi — bu jinoiy guruhni tashkil etib, unga boshqa ishtirokchilarni jalb etadigan, jinoiy faoliyat rejalarini ishlab chiqadigan, guruhga bevosita rahbarlik qiladigan va ishlab chiqilgan jinoiy rejani amalga oshiradigan shaxs.

Faol ishtirokchilar — bu jinoiy guruh faoliyatida faol ishtirok etadigan, unga boshqa ishtirokchilarni jalb etadigan, jinoiy faoliyat rejalarini ishlab chiqishda va ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasasining ishini izdan chiqarish maqsadida mahkumlarni terror qilish yoki ma‘muriyat vakillariga hujum qilish bo‘yicha muayyan harakatlarni sodir etishda tashkilotchiga yordam beradigan shaxslar.

Sharhlanayotgan jinoyat formal tarkibli jinoyat bo‘lib, ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan shaxsning mahkumlarni terror qilish yoki ma‘muriyat vakillariga hujum qilishda, shuningdek, bunday maqsadlarda jinoiy guruhlar tashkil qilish yoki shunday guruhlar faoliyatida faol qatnashishda ifodalanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasasining ishini izdan chiqaruvchi harakatlari sodir etilgan vaqtdan boshlab, kelib chiqqan oqibatdan qat’i nazar, **tugallangan** hisoblanadi.

Sharhlanayotgan moddaning **subyektiv tomoni to‘g‘ri qasd** bilan ifodalanadi. Aybdor sodir etayotgan qilmishining ijtimoiy xavfliligini anglaydi va uni sodir etishni xohlaydi.

Jinoyatning maqsadi — ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalari faoliyatini izdan chiqarish.

14 yoshga to‘lgan va muassasa turidan qat’i nazar, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish muassasasida jazoni o‘tayotgan shaxs JK 220-moddasida nazarda tutilgan qilmishning **subyektiv** hisoblanadi. Shuningdek, xo‘jalik ishlarini bajarish uchun tergov hibsxonasida qoldirilgan mahkumlar ham subyektiv bo‘lishi mumkin.

Ehtiyot chorasi sifatida tergov izolyatori yoki vaqtinchalik saqlash izolyatorida saqlanayotgan tergov ostidagilar va mahkumlar, shuningdek,

ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxslar mazkur jinoyatning subyektlari bo'la olmaydilar. Tegishli belgilar mavjud bo'lgan taqdirda, sanab o'tilgan shaxslarning harakatlari JK 219-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni yoki shaxsga qarshi jinoyatni keltirib chiqarishi mumkin.

JK 220-moddasining 2-qismi jazoni ijro etish muassasasi ishini izdan chiqarish jinoyatining quyidagi kvalifikatsiya qilish belgilarini qayd etadi:

- a) o'ta xavfli retsidivist;
- b) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun hukm etilgan shaxs;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan sodir etish.

Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Qilmish bir guruh mahkum shaxslar tomonidan sodir etilgan hollarda, aybdor shaxs tashkilotchi, faol ishtirokchi yoki oddiy ishtirokchi bo'lganligidan qat'i nazar, aybdorning qilmishlari **JK 220-moddasi 2-qismi «v» bandi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Qilmishni mazkur belgiga ko'ra kvalifikatsiya qilishda guruh a'zolarining oldindan til birlashtirgan yoki birlashtirmaganligi ahamiyatga ega bo'lmaydi.

19-§. Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining qonuniy talablariga bo'ysunmaslik (JK 221-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasasining bir me'yordagi faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Mahkumga nisbatan bir yil mobaynida jazoni o'tash tartibi talablarini buzganligi uchun jazoni ijro etish koloniyasining kartseri yoki turmaga o'tkazilganidan keyin, ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasasida jazoni o'tayotgan shaxs tomonidan ma'muriyatning qonuniy talablariga bo'ysunmaslik yoxud ma'muriyatning o'z faoliyatini amalga oshirishiga boshqacha yo'sinda to'sqinlik qilish jinoyatning **obyektiv**

tomoni hisoblanadi.

Bo'ysunmaslik — bu ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasasida jazoni o'tayotgan shaxs tomonidan ma'muriyat vakilining qonuniy farmoyishi yoki talabini oshkora rad etish. Masalan, bo'ysunmaslik tuzum talablariga rioya etmaslik, mehnat majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlash kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Mahkumga jazoni o'tash tartibi qoidalarini buzilganligi uchun jazoni ijro etish koloniyasi kartseriga o'tkazish tariqasidagi jazo qo'llanilgandan yoki turmaga o'tkazish qo'llanilgandan keyin bir yil ichida, u jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining qonuniy talablariga bo'ysunmasa, jazoni ozodlikdan mahrum qilish muassasasida o'tayotgan shaxsning qilmishi **JK 221-moddasi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksining 109-moddasiga ko'ra, jazoni o'tash tartibini ashaddiy buzuvchi mahkumlar umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning **kartserlariga** olti oygacha, ayollar saqlanadigan koloniyalarda esa uch oygacha bo'lgan muddatga o'tkazib qo'yiladi.

Izolyatorga o'tkazilgan mahkumlarga qarindosh-urug'lari bilan ko'rishish, telefon orqali gaplashish, oziq-ovqat mahsulotlarini va kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'ladigan predmetlarni xarid qilish, maktub va boshqa xat-xabarlarni olish va jo'natish taqiqlanadi. Ularning chekishiga, stolda o'ynaladigan o'yinlardan va ko'rpa-yostiqdanda foydalanishlariga ruxsat berilmaydi. Oziq-ovqat kamaytirilgan me'yorda beriladi. Mahkumlar har kuni bir soat sayr qilish huquqidan foydalanadilar.

Kartserlardagi mahkumlarga qarindosh-urug'lari bilan ko'rishish, telefon orqali gaplashish, posilkalar, peredachalar va banderollarni qabul qilish va jo'natish, stol o'yinlarini o'ynash taqiqlanadi.

Jinoiy jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatning qonuniy talablariga bo'ysunmaslik sodir etilgan paytdan e'tiboran jinoyat **tugallangan** deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor o'z qilmishining huquqqa xilof va ijtimoiy xavfli ekanligini anglaydi hamda uni sodir etishni xohlaydi.

Jinoyatni sodir etish motivlari uni kvalifikatsiya qilishda hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Jinoyatning **subyekt**i bir yil mobaynida jazoni o'tash tartibi talablarini buzganligi uchun jazoni ijro etish koloniyasining kartseriga o'tkazish tariqasidagi jazo qo'llanilgan yoki turmaga o'tkazilgan ozodlikdan mahrum qilish joyida jazoni o'tayotgan shaxs hisoblanadi.

JK 221-moddasining 2-qismida:

- a) o'ta xavfli retsivist;
- b) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun hukm etilgan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

20-§. Qamoqdan yoki qo'riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish (JK 222-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekt**i dastlabki tergovni olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sud va ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining bir me'yordagi faoliyatini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblandi. **Qo'shimcha bevosita obyekt**i esa gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki mahkumlarni qo'riqlovchi shaxslarning sog'lig'i hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat dastlabki tergov olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish muassasalaridagi qamoq yoki qo'riqlov ostidagi saqlash joyidan qochishda ifodalanadi.

Qochish, ya'ni jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan, qamoq tariqasidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxslar, shuningdek, aybdor deb topilgan va ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o'tayotgan shaxslar tomonidan shaxslarni qo'riqlashga mo'ljallangan maxsus, izolyatsiya qilingan joylarni o'zboshimchalik bilan tashlab ketish uchun javobgarlikni belgilaydi. Krchish turli usullarda amalga oshirilishi mumkin: qo'riqchilarga nisbatan kuch ishlatish; soxta hujjatlardan foydalanib qochish; pora berish, aldash yo'li bilan sodir etish va boshqalar.

Qamoqdan qochish deganda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi

jazoni o'tash joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishni, shuningdek, ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasasi chegarasidan tashqariga chiqishga ruxsat berilgan shaxsning belgilangan muddatda qaytib kelmaganini tushunish lozim.

Ozodlikdan mahrum qilish joylariga qaytib kelmaslik deganda, jazoni ijro etish muassasasiga qaytishning belgilangan muddatini oddiy buzish emas, balki mahkum jazoni ijro etish muassasasiga belgilangan muddatda qaytishdan bo'yin tovlashi bilan bog'liq bo'lgan qaytib kelmaslik tushuniladi.

Belgilangan muddatda qaytib kelmaslik, agar u yengilmas kuch (tabiiy ofat, shaxsning kasal bo'lishi va sh.k.) ta'siri va boshqa uzrli sabablar bilan belgilangan bo'lsa, qamoqdan qochish jinoyat tarkibini tashkil etmaydi.

Qo'riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish deganda, tergov harakatlarini bajarish, sud majlisi zaliga yetkazish chog'ida, sud zalidan, tergovchi, prokuror, surishtiruv o'tkazayotgan shaxs xonasidan, transport vositalarida etap qilinayotganda va shaxs qamoq ostida bo'lgan boshqa hollarda konvoyni o'zboshimchalik bilan tashlab ketishini tushunish lozim. Bunda qochish usullari har xil bo'lishi mumkin: soqchilarga zo'rlik ishlatish yo'li bilan; soxta hujjatlardan foydalangan holda; pora evaziga og'dirish, aldov yo'li bilan va h.k.

Dastlabki qamoqda saqlash joylari — jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchilar saqlanadigan muassasalar (vaqtinchalik saqlash hibsxonalari, tergov hibsxonalari, gaupvaxtalar).

Tergov hibsxonalari «xo'jalik xizmatlari ko'rsatish borasidagi ishlar»ni bajarish uchun qoldirilgan ozodlikdan mahrum qilinganlarga nisbatan jazoni ijro etish muassasalari funksiyalarini bajaradi.

Qochish uchun javobgarlik ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish tanlangani e'lon qilinganidan, ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoq jazosini tayinlash haqidagi hukm o'qib eshittirilganidan va shaxs amalda qo'riqlov ostiga olinganidan keyingina kelib chiqishi mumkin.

Tergov harakati o'tkazilayotgan yoki sud ish ko'rayotgan joyni o'zboshimchalik bilan tashlab ketish, sud zalidan chiqib ketish qamoq yoki

qo'riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish deb kvalifikatsiya qilinishi lozim. Boshqa ehtiyot chorasi, masalan, munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat olingan shaxsning qochishi sharhlanayotgan modda bo'yicha kvalifikatsiya qilinmaydi.

Jazoni ijro etish yoki qo'riqlov ostida saqlash joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketgan shaxs ushlangan yoki o'z aybini bo'yniga olib kelgan vaqtdan boshlab jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Aybdor qochgan vaqtda uni qamoqqa olish to'g'risidagi qarordan xabardor bo'lgan hollarda, ya'ni bunday ehtiyot chorasi tanlanganligi to'g'risidagi qaror, sud ajrimi e'lon qilingandan so'ng yoki sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga ko'ra uni ozodlikdan mahrum etishga, qamoqqa yoki intizomiy qismga jo'natishga hukm qilinganligi e'lon qilinganidan so'ng qochib ketgan bo'lsa, uning harakatlari JK 222-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Subyektiv tomondan **jinoyat** to'g'ri qasd **bilan sodir etiladi**.

14 yoshga to'lgan, qamoq tariqasidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxs yoki ozodlikdan mahrum qilish, qamoq yoki intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o'tayotgan shaxslar jinoyat **subyekt** bo'lishi mumkin.

Ko'rilayotgan jinoyatning subyekt sifatida ma'muriy javobgarlik doirasida qamoqqa olingan shaxslar tan olinmaydi.

Tahlil etilayotgan **moddaning 2-qismida**:

- a) badanga yengil yoki o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazish yo'li bilan;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan qochish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Qochish yengil yoki o'rtacha og'irlikdagi tan jarohati yetkazishga olib kelgan hollarda aybdorning harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinmaydi. Lekin qochish og'ir tan jarohati yetkazish yoki o'limga olib kelgan hollarda aybdorning harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim (JK 222-moddasi va JK 97-moddasi yoki JK 104-moddasi).

21-§. Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish (JK 223-moddasi)

Jinoyatning bevosita obyekti chet elga chiqish va O‘zbekiston Respublikasiga kirishning qonunda belgilangan tartibi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi — O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo‘shlig‘ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal sathdan iborat. Davlat chegarasi davlat suvereniteti amal qiladigan hudud doirasini belgilaydi.

Chegara rejimi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan qoidalar majmuidan iborat bo‘lib, u chegara hududiga kirish (o‘tish), unda bo‘lish (yashash), harakatlanish va chegara hududida ishlab chiqarish ishlarini amalga oshirish tartibini o‘z ichiga oladi.

Chegara hududlarida chegara rejimiga rioya etish ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo‘mita¹ va o‘z vakolatlari doirasida ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasiga kirish, chiqish va davlat chegaralaridan o‘tish bilan bog‘liq munosabatlar quyidagi hujjatlar bilan tartibga solinadi: 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida»gi Qonuni², O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo‘lishlari va tranzit o‘tishlari tartibi to‘g‘risida»gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi 408-son qaroriga 1-ilova: «Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kelishlari va O‘zbekiston Respublikasidan ketishlari tartibi», Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi 408-son qaroriga

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 13 январдаги ПФ- 2176-сонли Фармони // Халқ сўзи, 1999 йил 14 январь.

²Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 9-сон, 217-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 2009 й., 3-сон, 9-модда.

2-ilova: «Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida bo‘lishlari qoidalari», Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi 408-son qaroriga 3-ilova: «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o‘tishlari qoidalari»¹.

O‘zbekiston Respublikasiga kirish, chiqish va davlat chegaralaridan o‘tish bilan bog‘liq munosabatlarni jinoyat-huquqiy qo‘riqlashdan maqsad fuqarolarning ko‘chib yurish erkinligi bilan bog‘liq konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishlarini tartibga solish va yetarli sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi davlat va jamiyat suvereniteta hamda xavfsizligini ta‘minlash uchun respublikadan chiqish va unga kirish, davlat chegaralaridan o‘tish tartibini belgilab bergan. Shundan kelib chiqib, davlat chegarasiga tajovuz qilish — bu, avvalo, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining bir me‘yordagi tartibiga tajovuz qilish deb topiladi.

Jinoyat obyektiv tomondan qonunda belgilangan tartibni buzib, chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirishda ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasidan chiqish va unta kirish deganda, transport vositasi (avtomashina, kema, samolyot, velosiped, ot va boshqa mexanik hamda transportning boshqa turlari) yordamida davlat chegarasini kesib o‘tish tushuniladi.

Davlat chetarasidan o‘tish deganda, uni piyoda kesib o‘tish tushuniladi.

Davlat chetarasini beltilantan tartibni buztan holda kesib o‘tish deganda, quyidagi harakatlardan birini sodir etish orqali o‘tish tushuniladi: tartibni buzish orqali (masalan, ruxsat berilgan chegara punktlarini aylanib o‘tish) yoki tegishli ruxsati bo‘lmay turib kesib o‘tish (masalan, chegaradan o‘tish huquqini beruvchi haqiqiy hujjatlar bo‘lmagan hollarda chegarani kesib o‘tish).

Davlat chegarasini faqat g‘ayriqonuniy kesib o‘tish ijtimoiy xavfli deb topiladi va sharhlanayotgan moddaning tarkibini tashkil etadi.

Davlat chegarasini ruxsat punktlarini aylanib o‘tib yoki ruxsat

¹Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари тўплами, 1996 й., ноябрь; Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами, 1999 й., 4-сон, 20-модда; 2000 й., 10-сон, 68-модда.

punktларидан yoxud chegara tashqarisiga (O‘zbekistondan) yoki O‘zbekistonga kirib kelayotgan, turidan qat’i nazar (ya’ni havo, suv, yerda yuradigan transport va hokazo), transport vositasida belgilangan qoidalarni buzib kesib o‘tishni **davlat chegarasidan o‘tish tartibini buzish** deb hisoblash lozim¹.

Soxta, muddati o‘tgan, boshqa shaxs nomiga rasmiylashtirilgan, noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan hujjatlardan foydalangan holda davlat chegarasini kesib o‘tish **tetishli ruxsatnomasiz davlat chegarasini kesib o‘tish** deb topiladi². Masalan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan unga chegaradan o‘tishga ruxsat berilganligi haqida uning pasportiga tegishli yozuv kiritilmagan yoki soxta yozuvdan foydalangan holda chegaradan o‘tish sharhlanayotgan modda bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunda aybdorning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishi yoki unga kirayotganligi ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, agar O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi belgilangan tartibni buzgan holda O‘zbekiston Respublikasidan chiqqan bo‘lsa, uning O‘zbekiston Respublikasiga qaytib kirishi ham g‘ayriqonuniy deb topilishi lozim.

Bunda shuni ham nazarda tutish lozimki, agar noqonuniy kirish yoki chiqish, shuningdek, chegarani kesib o‘tish soxta hujjatlardan foydalangan holda amalga oshirilgan bo‘lsa, u holda bu qilmish jinoyatlar majmui tariqasida JK 223- va 228-moddalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Aybdorning harakatlari agar u oxirgi zarurat holatida sodir etilgan bo‘lsa jinoyat sifatida e’tirof etilmaydi.

Jinoyat davlat chegarasi kesib o‘tilayotgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Quyidagilar davlat chegarasini **kesib o‘tish vaqti** deb topiladi:

¹Ўзбекистон Республикаси Давлат чегарасидан автомобиль, темир йўл, авиация ва дарё ўтказиш пунктларида чегара ва божхона назорати тартиби тўғрисида»ги Намунавий йўриқнома (рўйхат рақами 765, 06.07.1999 й.).

²Давлат чегарасини кесиб ўтиш учун керакли ҳужжатлар куйидаги норматив актларда белгиланган: Хорижий фуқаролар ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг Ўзбекистон Республикасига келишлари ва Ўзбекистон Республикасидан кетишлари тартиби (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 21 ноябр- даги 408-сон қарорига 1-илова); 2000 йил 30 декабрдаги «Ўзбекистон Республика- сининг 16 ёшга тўлмаган фуқароси гувоҳномасини расмийлаштириш ва бериш тартиби тўғрисида»ги Низом (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 30 декабрдаги 519-сон қарорига 1-илова) (Ўзбекистон Республикаси ху- куматининг қарорлари тўплами, 2000 й., 12-сон, 83-модда; 2004 й., 7-сон, 74-модда); Ўзбекистон Республикасига қайтиш учун сертификат бериш тартиби тўғрисидаги Йўриқнома (Ўзбекистон Республикаси Ддлия вазирлиги томонидан 1998 йил 17 июнда 448-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган, Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги томонидан 1997 йил 20 ноябрда тасдиқланган).

a) aybdor faktik jihatdan davlat chegarasini kesib o'tishi yoki o'tmasligidan qat'i nazar, davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlari nazoratidan muvaffaqiyatli o'tish, masalan, samolyot uchishiga qadar shaxs tomonidan aeroport chegara nazoratidan o'tish tugallangan jinoyat deb topiladi. Xuddi shunday holatda, shaxs o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra chegara nazoratidan o'ta olmagan hollarda, uning harakatlari O'zbekiston hududiga g'ayriqonuniy kirish yoki undan chiqishga suiqasd qilish deb kvalifikatsiya qilinishi lozim;

b) davlat chegarasi orqali o'tkazishning belgilangan punktlaridan tashqarida davlat chegarasi chizig'i (tegishli yuza)ni faktik jihatdan kesib o'tish.

Jinoyat **subyektiv tomondan to'g'ri qasd** orqali sodir etiladi. Shaxs o'z harakatlarining g'ayriqonuniyligini biladi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi hududini hujjatsiz, soxta hujjatlardan foydalangan holda yoxud tegishli ruxsatnomasiz kesib o'tayotganligini anglaydi va buni xohlaydi.

Subyektiv tomonning qo'shimcha belgilari — motiv va maqsad turlicha bo'lishi mumkin. Agar aybdor shaxs davlat chegarasidan o'tish qoidalarini O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyat sodir etish (masalan, josuslik, qo'poruvchilik, terrorizm va boshqalar) maqsadida kesib o'tsa, u holda uning harakatlari jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Mazkur jinoyat ehtiyotsizlik orqasida (masalan, mo'ljalni yo'qotish tufayli chegarani kesib o'tish) sodir etilganda jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi. Davlat chegarasi majburiy ravishda kesib o'tilgan (masalan, tabiiy ofat, halokat va boshq.) hollarda ham qilmishda sharhlanayotgan jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi.

16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs, jumladan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxs yoki chet el fuqarosi mazkur jinoyat **subyektiv** bo'lishi mumkin.

Chet elga chiqish yoki g'ayriqonuniy ravishda O'zbekiston Respublikasiga kirish:

- a) chegarani yorib o'tish yo'li bilan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

g) chet elga chiqishi uchun maxsus kelishuv talab qilinadigan mansabdor shaxs tomonidan;

d) O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi belgilangan tartibda cheklangan shaxs tomonidan sodir etilganida, aybdorning qilmishi O‘zbekiston Respublikasi **JK 223-moddasining 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

(Sharhlanayotgan «chegarani yorib o‘tish orqali» jinoyatini sodir etishning kvalifikatsiya qilish belgisi JK 182-moddasi tahlilida batafsil berilgan.)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 6 yanvardagi qaroriga 4-ilovada chet elga chiqishi uchun maxsus ruxsat talab qilinadigan shaxslarning ro‘yxati berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat maslahatchilari, viloyat hokimlari, Prezident devoni, Oliy Majlisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining mas’ul xodimlari, vazirlar, davlat qo‘mitalari, qator mahkama va idoralarning rahbarlari ana shunday shaxslar hisoblanadilar¹.

JK 223-moddasi 3-qismiga ko‘ra, «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida nazarda tutilgan siyosiy boshpana huquqidan foydalanish uchun kirish hujjatlarini tegishli darajada rasmiylashtirmasdan O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar javobgarlikdan ozod qilinadilar».

Konstitutsiyaning 93-moddasi 1-qismi 22-bandiga asosan, fuqarolik va siyosiy boshpana berish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan hal etiladi².

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan siyosiy boshpana berish to‘g‘risidagi qoidaga binoan, chiqish hujjatlarini tegishli tartibda rasmiylashtirmagan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan

¹ *Qarang:* Чет элга боришлари махсус келишувни талаб қилувчи мансабдор шахсларнинг рўйхати (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 6 январдаги «Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг чет элга боришлари тартибини ва Ўзбекистон Республикасининг дипломатик паспорти тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 8-сон қарорига 4-илова) // Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами, 1995 й., 1-сон, 1-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2001 й., 7-сон, 36-модда; 2002 й., 10-сон, 80-модда; 2004 й., 26-сон, 302-модда; 2005 й., 5-6-сон, 34-модда; 21-сон, 154-модда, 32-33-сон, 246-модда; 2008 й., 48-сон, 475-модда; 2009 й., 44-сон, 467-модда.

² *Qarang:* Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. — Т., «Ўзбекистон», 2009. — 25-б.

shaxslarga nisbatan sharhlanayotgan modda qo'llanilmaydi.

Quyidagi hollarda O'zbekiston Respublikasida siyosiy boshpana berilmaydi: agar shaxs O'zbekiston Respublikasida jinoyat deb topiluvchi qilmishni sodir etgani uchun xorijda qidirilayotgan bo'lsa yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti maqsad va prinsiplariga qarshi harakatlar sodir etganlikda aybdor bo'lsa; jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchi sifatida jalb etilgan yoki unga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi mavjud bo'lsa; u ta'qib etilmaydigan uchinchi davlatdan kelgan bo'lsa; bila turib yolg'on ma'lumotlar bergan bo'lsa; u ta'qib etilmaydigan uchinchi davlatning fuqaroligiga ega bo'lsa.

21-§. O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini buzish (JK 224-moddasi)

Jinoyatning bevosita obyekti chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lishi hamda O'zbekiston Respublikasining hududi orqali tranzit tarzda o'tishi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

JK 224-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan **jinoiyat obyektiv tomondan** O'zbekistonda yashash huquqini beradigan hujjatlarsiz yoki haqiqiy bo'lmagan hujjatlar bilan yashash, vaqtincha ro'yxatdan o'tish yoki doimiy propiskadan o'tish, ko'chish yoki turar joy tanlash bo'yicha belgilangan tartibga rioya etmaslik, respublikada bo'lish muddati tugagach, chiqib ketishdan bo'yin tovlash, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzda o'tish tartibiga rioya qilmaslikda ifodalanadi.

JK 224-modda dispozitsiyasi blanket norma hisoblanadi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekistonda bo'lish qoidalari quyidagi hujjatlar bilan tartibga solinadi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 17 martdagi 134-sonli «Xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lishlarini tartibga solish to'g'risida»gi qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi 408-sonli «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo'lishlari va tranzit o'tishlari tartibi

to'g'risida»gi qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi 408-sonli qaroriga 2-ilova: «Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lishlari qoidalarini»; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 28 yanvardagi 38-F-sonli «Davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar, muassasalar, korxonalar rahbarlarining pasport rejimi hamda xorijiy fuqarolarning turish qoidalariga rioya qilish yuzasidan mas'uliyatini oshirish choratadbirlari to'g'risida»gi Farmoyishi va boshqa normativ huquqiy hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasida bo'lgan chet el fuqarolari o'zlari bilan pasport yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatni olib yurishlari va vakolatli organ vakillarining talabiga ko'ra taqdim etishlari lozim. O'zbekiston Respublikasida vaqtincha bo'ladigan chet el fuqarolari vaqtinchalik ro'yxatdan o'tgan holda yashashadi. Milliy pasport chet el fuqarosi kelgan kundan boshlab uch kun ichida (bayram va dam olish kunlaridan tashqari) vaqtinchalik ro'yxatga qo'yish uchun taqdim etiladi¹.

O'zbekiston Respublikasida yashash huquqini beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish chet el fuqarosi mehmonxonaga kelgan vaqtdan boshlab 48 soat ichida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolari umumiy asoslarga ko'ra mehmonxonalarda joylashadi va hisobga olinadi. O'zbekiston Respublikasiga kirgan kundan boshlab uch kun o'tgach (bayram va dam olish kunlaridan tashqari) chet el fuqarolarining hujjatlarini rasmiylashtirish taqiqlanadi.

Haqiqiy bo'lmagan hujjatlar deganda, tegishli shtamp, muhr, imzosi bo'lmagan, shuningdek, soxta hujjatlar, hujjatlarning tasdiqlanmagan nusxalari kabilar tushuniladi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning quyidagi muayyan toifalari o'z pasportlarini vaqtinchalik ro'yxatdan o'tkazishdan ozod etiladilar: **diplomatik korpus xodimlari, havo kemalari ekipajlari, xalqaro va boshqa tashkilotlarning a'zolari va hokazolar**².

¹ Qarang: Хорижий фуқаролар ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг Ўзбекистон Республикасида бўлишлари қоидалари (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 21 ноябрдаги 408-сон қарoriga 2-илова), 11-банд.

²Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 21 ноябрдаги 408-сонли «Хорижий фуқаролар ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг Ўзбекистон Республикаси ҳудудида бўлишлари тартиби

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasida vaqtinchalik yoki doimiy bo'ladilar. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida muddati kirish vizasida va pasportda vaqtincha yashash joyi manzilini ko'rsatgan holda belgilanadigan vaqtincha bo'lishda respublika hududida turish hamda uning himoyasidan va ko'plab boshqa huquqlardan foydalanish huquqiga ega bo'ladilar. Biroq ko'rsatilgan muddatlar tugagach, ular respublika hududini tark etishlari bu yerda bo'lish muddatini uzaytirish to'g'risida ariza berishlari shart. Mehmonxonalarda joylashgan chet el fuqarolarining hujjatlarini rasmiylashtirish va muddatini uzaytirish qabul qiluvchi tashkilotlar yozma tavsiyanomalarida ko'rsatilgan muddatga, biroq vizing amal qilish muddati doirasida (turistlar uchun sayohat muddatiga) amalga oshiriladi.

Bu harakatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi 408-sonli qaroriga 2-ilova: «Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lishlari qoidalari» bilan batafsil tartibga solinadi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro shartnomalarida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, ularning pasportlari yoki uning o'rnini bosuvchi hujjat bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan berilgan tranzit vizalari mavjud bo'lgan hollarda O'zbekiston Respublikasi hududidan tranzit tarzda o'tishga ruxsat beriladi.

Chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasi hududidan belgilangan mamlakatga havo, temir yo'l yoki suv transporti orqali tranzit tarzda o'tishlariga bunday o'tish uchun tegishli hujjatlar mavjud bo'lgan hollarda ruxsat beriladi.

Xalqaro tranzit avtotashishlarni amalga oshirayotgan chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan o'tish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Quyidagi hollarda O'zbekiston Respublikasi orqali vizasiz tranzit

o'gishga ruxsat etiladi:

1) havo transporti passajirlari tomonidan boshqa samolyotga o'tmasdan O'zbekiston Respublikasi hududi orqali o'tish;

2) O'zbekiston Respublikasida bo'lish 24 soatdan oshadigan hollarda xalqaro havo yo'llari samolyotlarida kelib, boshqa samolyotga o'tishi kerak bo'lgan hamda aeroportdan chiqqan sanasi ko'rsatilgan belgilangan mamlakatga kirish huquqini beruvchi hujjat mavjud bo'lgan passajirlar;

3) O'zbekiston Respublikasi tegishli ravishda hukumatlararo kelishuvlarga ega bo'lgan davlatlar fuqarolari.

JK 224-moddasining 1-qismi dispozitsiyasida ko'rsatilgan harakatlarning birortasi sodir etilgan paytdan e'tiboran jinoyat **tugallangan** deb hisoblanadi. Ushbu ro'yxat qat'iy bo'lib, qonunda O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarining boshqa biron tarzda buzilganligi uchun javobgarlik nazarda tutilmaydi.

O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini birinchi marta buzganligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortilganidan keyin shaxs bir yil ichida JK 224-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan qilmishni sodir etsa, unga nisbatan jinoiy javobgarlik qo'llaniladi.

Sharhlanayotgan modda birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat **subyektiv tomondan to'g'ri qasd** orqali sodir etiladi. Aybdor chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarini bajarmayotganligini biladi, unga nisbatan jinoiy javobgarlik qo'llanilish mumkinligini oldindan ko'ra oladi, chunki oldinroq ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'ladi va davom ettiraveradi, ya'ni ushbu qoidalarni buzishni xohlaydi.

16 yoshga to'lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslargina sharhlanayotgan moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatning **subyektiv** bo'lib hisoblanadi.

JK 224-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat obyektiv tomondan mansabdor shaxs tomonidan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lishi qoidalarida nazarda tutilgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni qabul qilish tartibining buzilishida namoyon bo'ladi.

1992 yil 7 sentyabrda qabul qilingan «Xorijiy fuqarolarning O‘zbekistonda vaqtincha bo‘lishlari qoidalari»ga ko‘ra, chet el fuqarolarini qabul qilgan tashkilotlarning mansabdor shaxslari ularga chet el fuqarolarining huquq va majburiyatlari tushuntirilishini, ularning hisobi yuritilishini, ularning respublikada bo‘lish hujjatlari o‘z vaqtida rasmiylashtirilishini, ularning belgilangan muddatda chiqib ketishini ta‘minlashi lozim.

Tahlil qilinayotgan moddaning 2-qismi ham ma‘muriy preyuditsiyaga ega hisoblanadi.

JK 224-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat mansabdor shaxs tomonidan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni qabul qilish tartibining buzilishi bilanoq **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to‘g‘ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli ekanligini anglaydi va uni sodir etishni xohlaydi.

Jinoyatning sodir etilish **motivi** va undan ko‘zlangan **maqsad** qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Agar sharhlanayotgan moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs tomonidan sodir etilsa, ikkinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat **subyektiv** esa faqatgina ularni qabul qiluvchi tashkilotning mansabdor shaxslari hisoblanadi. Maxsus subyektlar — mansabdor shaxslar chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni qabul qilish tartibini ijro etishga bevosita daxldor bo‘lishlari lozim. Bularga ichki ishlar organlari, tashqi ishlar vazirligi xodimlari va chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lishlarini nazorat qiluvchi boshqa organlar mansabdor shaxslari kiradi.

JK 224-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jinoyat obyektiv tomoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) birinchidan, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni xususiy ish bilan O‘zbekiston Respublikasiga taklif qilgan fuqaro tomonidan mazkur fuqarolarning vaqtincha propiskadan o‘tishlarini, shuningdek, ular shu yerda bo‘lishining belgilangan muddati o‘tgach,

chiqib ketishlarini ta'minlashga doir choralar ko'rilmasligi;

2) ikkinchidan, uy-joy, transport vositalari berib qo'yilishi yoxud boshqa xizmatlar ko'rsatilishi, agar bu O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarining buzilishiga olib kelsa.

JK 224-moddasi 3-qismi dispozitsiyasida belgilangan harakatlardan birining sodir etilishi, agar bu harakat ana shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka olib keladi.

JK 224-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jinoyat uning dispozitsiyasida belgilangan harakatlardan biri sodir etilgan vaqt- dan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

JK 224-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jinoyat obyektiv tomondan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni qabul qiluvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan muayyan chora-tadbirlarni ko'rmaslik orqali, ya'ni harakatsizlikdan sodir etilishi bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi 408-sonli qaroriga 2-ilovasi «Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida bo'lishlari qoidolari»ga muvofiq, xorijiy fuqarolarni xususiy ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasiga taklif qilgan va ularga turar joy bergan shaxslar bu fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ichki ishlar boshqarmasining tegishli bo'limlarida o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rishga va ularga belgilangan bo'lish muddatlari tugashi bilan O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketishlarida ko'maklashishga majburdirlar.

Qonun chiqaruvchi xorijiy fuqarolarga turar joy, transport vositalari berilishiga yoki ularga boshqa xil xizmatlar ko'rsatilishiga, agar bu O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur qoidalarining buzilishiga olib kelishi aniq bo'lsa, yo'l qo'yilmasligini aniq belgilaydi.

JK 224-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan jinoyat formal tarkibli jinoyat bo'lganligi uchun O'zbekiston Respublikasida bo'lish qoidalarining buzilishiga olib kelgan harakat yoki harakatsizlik sodir

etilgan vaqtdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor o'z qilmishining ijtimoiy xavfli ekanligini anglaydi va uni sodir etishni xohlaydi.

Jinoyatning sodir etilish **motivi** va undan ko'zlangan **maqsad** qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

16 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tahlil qilinayotgan moddaning 3-qismi bo'yicha jinoyat **subyekt**i hisoblanadilar.

22-§. Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash (JK 225-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida: «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar»¹, — deb yozilgan.

Ushbu jinoyatning **bevosita obyekt**i majburiy chaqiruv asosida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa harbiy kuchlarni shakllantirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hamda harbiy xizmatga chaqiruv, safarbarlik chaqiruv rezerviga olinish, harbiy xizmatni o'tashning va rezervdagi xizmatni o'tashning belgilangan tartibi hisoblanadi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 18-б.

Obyektiv tomondan JK 225-moddasi 1-qismida ko‘zda tutilgan jinoyat shunday qilmishi uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilgandan so‘ng, harbiy yoki muqobil xizmatga chaqiruvdan, safarbarlik chaqiruv rezervi safiga olinishdan yoki Qurolli Kuchlar rezervida xizmatni o‘tashdan uzrli sababsiz bo‘yin tovlashda ifodalanadi.

Tahlil qilinayotgan modda dispozitsiyasi blanket xarakterga ega.

O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda gi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonuni¹ harbiy xizmatga chaqiruv va harbiy xizmatni o‘tash tartibini belgilaydi.

O‘zbekistonning suverenitetami himoya qilish bo‘yicha konstitutsiyaviy burchning bajarilishi tartibini belgilash, harbiy xizmatni o‘tash, xizmatdan ozod etilish hamda harbiy xizmatga aloqador boshqa masalalar quyidagi hujjatlar bilan tartibga solinadi: O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda gi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi va 2001 yil 11 mayda gi «Mudofaa to‘g‘risida»gi Qonunlari², O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 martda gi 119-son qaroriga ilova: «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga olish to‘g‘risida gi Nizom»³, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga olishni tashkil qilish va uni yuritish tartibi bo‘yicha Yo‘riqnoma (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2003 yil 15 iyulda gi 457-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 18 iyulda 1259-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan)⁴.

Harbiy xizmat — O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasida gi davlat xizmatining alohida turidir. Harbiy xizmat rasmiy davlat xizmatlari turlaridan biri bo‘lib, umumiy harbiy majburiyatni ado etishga turlicha

¹Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 й., 12-сон, 217-модда; 2003 й., 9-10-сон, 149-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 51-сон, 514-модда; 2008 й., 37-38-сон, 362-модда, 50-сон, 491-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2006 й., 6-сон, 262-модда.

²Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 й., 5-сон, 80-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 51-сон, 514-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2006 й., 6-сон, 262-модда.

³Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2003 й., 5-6-сон, 48-модда; 2004 й., 30-сон, 345-модда.

⁴Ўзбекистон Республикаси вазирликлари, давлат қўмиталари ва идораларининг меъёрий ҳужжатлари ахборотномаси, 2003 й., 13-14-сон.

yondashuv imkoniyatlarini nazarda tutadi. Ushbu holatdan kelib chiqib, qonun chiqaruvchi harbiy xizmat turlarini belgilab, shularga binoan umumiy harbiy majburiyatni o'tashning alohida tartibi hamda Konstitutsiyaga binoan mamlakatni mudofaa etish majburiyatlarini bajarishi shart bo'lgan shaxslarning xizmatni o'tash muddati va boshqa holatlarni belgilagan.

Tahlil qilinayotgan modda muddatli harbiy xizmat, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati hamda muqobil xizmatdan bo'yin tovlash uchun javobgarlikni belgilaydi.

Muddatli harbiy xizmat — chaqirilish yoshidagi fuqarolarning oddiy askar va serjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek, muqaddam harbiy xizmatni o'tamagan ofitserlarning qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmatidir.

Muddatli harbiy xizmat muddatlari kalendar hisobida:

1) muddatli harbiy xizmatni oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida o'tayotgan harbiy xizmatchilar uchun o'n ikki oy (oliy ma'lumotli shaxslar uchun — to'qqiz oy);

2) muddatli harbiy xizmatni chaqiruv bo'yicha ofitserlar tarkibi lavozimlarida o'tayotgan ofitserlar uchun — to'qqiz oy qilib belgilanadi¹.

Muqobil xizmat — fuqarolarning umumiy harbiy majburiyatni bajarishining chaqiruv bo'yicha harbiy xizmat o'rniga iqtisodiyot, ijtimoiy sohaning turli tarmoqlarida kam malaka talab etiladigan (yordamchi) ishlarni, shuningdek, falokatlar, halokatlar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan alohida turidir.

O'n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo'lgan, harbiy ro'yxatda turuvchi va xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan fuqarolar, agar ular diniy ta'limoti qurol-yarog'dan foydalanish va Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga yo'l qo'ymaydigan, ro'yxatga olingan diniy tashkilotlar hisobida tursalar, muqobil xizmat huquqiga ega.

Muqobil xizmatning muddati yigirma to'rt oyni, oliy ma'lumotli

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги 436-11-сон Қонуни, 5-модда.

fuqarolar uchun esa o‘n sakkiz oyni tashkil etadi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat deganda, muddatli harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo‘lmagan, biroq Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinishi tushuniladi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat hududiy prinsip asosida oylik yig‘inlar tarzida tashkil etiladi hamda chaqiriluvchilar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining maxsus hisobvarag‘iga pul badallari kiritilishini nazarda tutadi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga shaxslar yigirma yetti yoshga to‘lgunga qadar olinadilar va har yilgi harbiy yig‘inlarga jalb etilishlari mumkin, favqulodda vaziyatlar yoki O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz ro‘y bergan taqdirda esa haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tagan fuqarolar yigirma yetti yoshga to‘lganlaridan keyin Qurolli Kuchlar rezervi tarkibiga o‘tkaziladilar¹.

Rezervdagi xizmatni o‘tash yoki rezervchilar xizmati — bu haqiqiy harbiy xizmatni, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tagan oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar jumlasidan bo‘lgan harbiy xizmatga majburlar uchun Qurolli Kuchlarning qo‘shilmalari, qismlari va bo‘linmalari safini urush davrida taqozo etiladigan shtatlar darajasiga qadar to‘ldirish, shuningdek, urush davri taqozo etadigan tuzilmalarni kuchaytirish maqsadida umumiy harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan harbiy xizmat turidir.

Rezervchilar sifatida xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatga majburlar tinchlik davrida, qoida tariqasida, qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligini saqlab turish, rezervchilarning harbiy hisobdagi ixtisoslik bo‘yicha majburiyatlarni tinchlik va urush davrida bajarilishi uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni saqlab qolish va takomillashtirish maqsadida harbiy qismlar bazasida hududiy prinsip asosida tashkil etiladigan harbiy tayyorgarlik

¹Ўша жойда, 6-модда.

bo'yicha harbiy yig'inlarni o'tashga jalb etilishlari mumkin.

Rezervchilardan urush davrida ham, tinchlik davrida ham O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz tahdidi va mamlakat xavfsizligiga tahdid tug'ilganida, tabiiy ofatlar hamda favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda O'zbekiston Respublikasining Prezidenta Farmoniga binoan qo'shilmalar va qismlar tarkibida jangovar maqsadlar bo'yicha foydalanilishi mumkin.

Qurolli Kuchlar rezervchilarining xizmatni o'tash tartibi va muddatlari «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunning 5-bobida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanadi.

Bo'yin tovlash deganda, chaqiruv yoshidagi shaxs tomonidan Konstitutsiyada nazarda tutilgan o'z fuqarolik burchini bajarmaslik uchun foydalangan har qanday usulni tushunish zarur.

Bo'yin tovlash uzrli sabablarsiz, hujjatlarni qalbakilashtirish, aldash va boshqa yo'llar bilan chaqirish punktiga belgilangan vaqtda etib kelmaslikda ifodalanishi mumkin. Ana shu usullarning hammasi harbiy xizmatni o'tamaslikka qaratilgan bo'ladi.

Safarbarlik chaqiruv rezervi **safga olinishdan bo'yin tovlash** ham turli xil usullar orqali amalga oshirilishi mumkin va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga olinishdan qochishga mo'ljallangan aktiv va passiv harakatlarda o'z ifodasini topadi.

Rezervda xizmatni **o'tashdan bo'yin tovlash** O'zbekiston Respublikasining normal faoliyatiga xavfli tabiiy ofatlar hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish yoki oqibatlarini bartaraf etish uchun mo'ljallangan harbiy yig'inlardan bosh tortishni nazarda tutadi¹.

Chaqiriluvchining mehnat layoqatini yo'qotish bilan bog'liq kasalligi yoki mayibliigi; chaqiriluvchining yaqin tug'ishganining vafot etgani yoki og'ir betobligi; tabiiy yo'sindagi to'siqlar yoki chaqiriluvchining xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan, uning chaqiruv komissiyasiga yoki safga olinish joyiga, safarbarlik yoki rezerv xizmatini o'tash uchun etib kelishga to'sqinlik qilgan shart-sharoitlar (yong'in, suv toshqini, transport avariyasi va hokazolar) **uzrli sabablar** hisoblanadi.

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги «Умумий харбий мажбурият ва харбий хизмат тўғрисида»ги 436-11-сон Қонуни, 32-модда.

Kasalligi munosabati bilan chaqiruv punktiga kelish imkoniyatining bo‘lmaganligi shifokor tomonidan berilgan hujjatlar bilan, tabiiy shart-sharoitlar munosabati bilan etib kelish imkoniyatining bo‘lmaganligi davlat hokimiyati organlarining tegishli hujjatlari bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Chaqiriluvchini JK 225-moddasi 1-qismi bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi masala, faqatgina unga ilgari yil davomida uzrli sabablarsiz harbiy yoki muqobil xizmatdan, safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinishdan hamda Qurolli Kuchlar rezervida xizmatni o‘tashdan bo‘yin tovlagani uchun Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 237-moddasi yoki 239-moddasi asosida ma‘muriy jazo choralari qo‘llanilgan bo‘lsa, qo‘zg‘atiladi.

Harbiy yoki muqobil xizmatdan, safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinishdan, Qurolli Kuchlar rezervi xizmatini o‘tashdan bo‘yin tovlash chaqiruv muddati tayinlangan payt tamom bo‘lgandan e‘tiboran **tugallangan** jinoyat hisoblanadi.

Harbiy yoki muqobil xizmatdan, safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinishdan, Qurolli Kuchlar rezervida xizmatni o‘tashdan uzrli sabablarsiz bo‘yin tovlashning **subyektiv tomoni** aybning **to‘g‘ri qasd** shaklida ifodalanadi. Aybdor chaqiruv safiga olinish yoki harbiy muqobil xizmatni o‘tash bilan bog‘liq majburiyatlarni bajarmayotganini anglaydi, uzrli sabablarsiz va g‘ayriqonuniy ravishda chaqiruv punktlariga bormasligini biladi va bunday harakatlarni sodir etishni xohlaydi.

Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo‘yin tovlashning **subyektiv** sifatida O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi, chaqiruv kuniga qadar 18 yoshga to‘lgan harbiy xizmatga chaqiruvdan ozod etilish yoki uni kechiktirish huquqiga ega bo‘lmagan erkak jinsiga mansub shaxs tan olinishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddaning 2-qismida harbiy rezerv safiga olinishdan, Qurolli Kuchlar rezervida xizmatni o‘tashdan bo‘yin tovlash:

- a) o‘z badaniga shikast yetkazish;
- b) hujjatlarni qalbakilashtirish yoki boshqacha aldash yo‘li bilan sodir etilganda belgilanadigan jinoiy javobgarlik ko‘zda tutiladi.

Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo‘yin tovlash maqsadida o‘z badaniga

shikast yetkazishni JK 225-moddasi 2-qismi «a» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilish kerak. O'z badaniga jarohat yetkazish deb, badanning biron-bir a'zo yoki to'qimalarini qasddan jarohatlash, ularning funksiyalarini turli usullar bilan buzib, harbiy chaqiruvdan yoki xizmatdan bo'yin tovlashga aytiladi. Sog'liqqa zarar (shikast) aybdorning o'zi tomonidan hamda uning iltimosi bilan boshqa shaxs tomonidan ham yetkazilishi mumkin.

Shikast boshqa shaxs tomonidan yetkazilgan bo'lsa, shaxs badanga tegishli darajada shikast yetkazish va sharhlanayotgan jinoyatni sodir etishga yordam berganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi. Bunda shaxs shikast yetkazayotganda o'zining harakatlarini idrok etgani va badanga shikast yetkazishni harbiy yoki muqobil xizmatdan, safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinishdan, Qurolli Kuchlar rezervidan bo'yin tovlashda yordam berayotganligini bilganini aniqlash lozim.

Qonun sog'liqqa zarar qanday darajada bo'lishini ko'rsatmaydi. Lekin **JK 225-moddasi 2-qismining** mazmuniga ko'ra, bu harbiy xizmatni o'tashdan ozod etilishi uchun yetarli asos bo'lishi kerak.

JK 225-moddasi 2-qismi «a» bandida belgilangan jinoyat badanga shikast yetkazish paytidan e'tiboran **tugallangan** deb hisoblanadi.

Harbiy yoki muqobil xizmatdan, safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinishdan yoki rezervda xizmatni o'tashdan hujjatlarni qalbakilashtirish yoki boshqacha aldash yo'li bilan bo'yin tovlashni **JK 225-moddasi 2-qismi «b» bandi** bo'yicha kvalifikatsiya qilish kerak.

Hujjatlarni qalbakilashtirish deganda, harbiy yoki muqobil xizmat, safarbarlik chaqiruvi rezervi, rezervda xizmatni o'tashdan bo'yin tovlash maqsadida harbiy xizmatdan ozod etilishga asos bo'la oladigan soxta hujjatlarni taqdim etish tushuniladi. Qalbakilashtirishning maqsadi — navbatdagi harbiy chaqiruv, xizmat yoki safga olinishdan bo'yin tovlash bo'lib, bunda chaqiruv komissiyasiga shaxsning sog'lig'i, yoshi, oilasining tarkibi singari biron-bir faktlar yoki muddatli harbiy xizmatga chaqiruvga, safga olinishga to'sqinlik qiluvchi har qanday boshqa ma'lumotlar borligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi.

Harbiy yoki muqobil xizmatdan safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga

olinishdan yoki rezervda xizmatni o'tashdan hujjatlarni qalbakilashtirish orqali bo'yin tovlash JK 228-moddasi bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi.

Boshqacha aldash deganda, shaxsning harbiy yoki muqobil xizmat, safarbarlik chaqiruvi rezervi safida, rezerv xizmatidan bo'yin tovlash maqsadida amalga oshiriladigan hamda uning yordamida mudofaa va muqobil xizmat organlarini chaqiruvdan ozod etish haqida qonuniy asos borligini ishontirishga, ularni yanglishtirishga imkon beradigan har qanday usulni tushunish lozim. Masalan, komissiyaga o'zining o'rniga boshqa, oldindan harbiy xizmatga yaroqsiz shaxsni yuborish, chaqiruv komissiyasiga harbiy xizmatga chaqirish masalasiga ta'sir etadigan yolg'on ma'lumotlarni berish va hokazo.

Jinoyat kodeksi 225-moddasi 2-qismi «b» bandida nazarda tutilgan jinoyat esa, aybdorga harbiy yoki muqobil xizmatdan, safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinishdan, rezervda xizmatni o'tashdan ozod bo'lish imkonini beradigan qalbaki hujjat taqdim etilgan yoki boshqacha aldash sodir etilgan paytdan boshlab **tugal- langan** hisoblanadi.

JK 225-moddasi 3-qismining obyektiv tomoni O'zbekiston Respublikasi Kurolli Kuchlariga safarbarlik bo'yicha chaqirilishdan bo'yin tovlashda ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Konuning 46-moddasi urush vaqtida safarbarlik bo'yicha harbiy xizmatga chaqirish tartibi va shartlarini belgilaydi.

Fuqarolarning safarbarlik bo'yicha va urush davrida harbiy xizmatga chaqirilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari asosida o'tkaziladi.

Safarbarlik e'lon qilingan taqdirda, bu vaqtda harbiy xizmatda va harbiy yig'inlarda bo'lgan barcha fuqarolar alohida farmoyish berilgunga qadar xizmatni davom ettirib turadi, harbiy xizmatga majburlar esa harbiy xizmatga chaqiriladi. Harbiy xizmatchilarning ta'tillari bekor qilinadi. Harbiy xizmatga majburlar o'zlari qayd etilgan joydagi tuman (shahar) mudofaa ishlari organida, harbiy xizmatchilar esa xizmatni o'tayotgan

joyda hozir bo'lishi shart. Safarbarlik e'lon qilinishi bilan tuman (shahar) komissiyalarining chaqirilish yoshidagi fuqarolarning chaqirilish muddatini kechiktirish va ularni chaqirilishdan ozod etish to'g'risidagi qarorlari bekor qilinadi. Chaqirilish muddatini kechiktirish hamda chaqirilishdan ozod etish bundan keyin faqat salomatligi holatiga ko'ra va maxsus hisobda turganligiga qarab qo'llanishi mumkin.

Safarbarlik e'lon qilinganida va urush davrida harbiy xizmatga o'n sakkiz yoshdan boshlab «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunda belgilangan rezerv va zaxirada bo'lish yoshi chegarasiga qadar yoshdagi harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar hamda harbiy ro'yxatda turmagan o'n sakkiz yoshdan qirq besh yoshgacha bo'lgan ayollar (o'n olti yoshgacha bo'lgan bolalari bor ayollar bundan mustasno) chaqirilishlari mumkin.

Safarbarlik bo'yicha va urush davrida harbiy xizmatga chaqirilish faqat mudofaa ishlari organlari tomonidan amalga oshiriladi¹.

Safarbarlik bo'yicha chaqiruvdan bo'yin tovlash shaxsning uzrli sabablarsiz safarbarlik ko'rsatmasida qayd etilgan muddatda chaqirilish punktiga etib kelmasligi yoxud g'ayriqonuniy ravishda safarbarlikdan ozod bo'lishida (qalbaki hujjatlardan foydalanib, yolg'ondakam kasal bo'lib va hokazolarda) ifodalanadi.

Jinoyat safarbarlikdan bo'yin tovlangan paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomotdan jinoyat to'g'ri qasddan sodir etiladi. **Motiv** va **maqsadning** jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyati yo'q.

Jinoyatning **subyekt** O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safarbarlik chaqiruvi xizmatiga chaqirilgan, 18 yoshga to'lgan shaxs hisoblanadi.

23-§. Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish (JK 226-moddasi)

1992 yil 9 dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining

¹ *Қаранг:* Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги 436-11-сон Қонуни, 46-модда.

ma'muriy nazorati to'g'risida»gi¹ Qonuni qabul qilinib, unga ko'ra ma'muriy nazorat tarbiyaviy va jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga qaratilgan ta'sir choralarning yig'indisi bo'lib, nazorat ostidagi shaxslarga ma'muriy cheklashlarni tatbiq etishdan iboratdir.

Jinoyatning bevosita obyekt ma'muriy nazoratni amalga oshirishning belgilangan tartibi, ma'muriy nazoratni amalga oshiruvchi ichki ishlar idoralarining normal faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyat **obyektiv tomondan** shunday qilmishi uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng, ma'muriy nazorat qo'llanilgan shaxslar tomonidan ma'muriy nazoratning u yoki bu qoidasining buzilishida ifodalanadi.

«Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasiga asosan, **ma'muriy nazorat voyaga etgan quyidagi shaxslarga nisbatan** o'rnatiladi:

a) og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ularning jazoni o'tash davridagi xulq-atvori tuzalish va halol mehnat qilib kun kechirish yo'liga o'tishni aslo istamaganliklaridan dalolat bersa;

b) og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ular jazo muddatini o'tab bo'lganlaridan so'ng ichki ishlar idoralarining jamiyat uchun zararli kun kechirishni to'xtatish to'g'risidagi ogohlantirishiga qaramay, jamoat tartibini muntazam buzayotgan va fuqarolarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazayotgan bo'lsalar;

v) o'ta og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxslar.

Ushbu Qonunning 5-moddasida belgilanishicha, ma'muriy nazorat ostiga olingan shaxslarga nisbatan quyidagi cheklashlar qo'llanilishi mumkin:

¹Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 1-сон, 33-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 9-сон, 229-модда.

a) kunning ichki ishlar idoralari belgilab qo‘ygan vaqtida uy (kvartira)dan chiqib ketishini taqiqlash;

b) tuman (shahar)ning muayyan joylarida bo‘lishini taqiqlash;

v) ichki ishlar idoralarining ruxsatisiz tuman (shahar)dan tashqariga chiqib ketishni taqiqlash;

g) ro‘yxatdan o‘tish uchun har oyda bir martadan to‘rt martagacha militsiyaga kelib uchrashish.

Ma‘muriy nazorat ostida turgan shaxs halol mehnat qilib kun kechirishi, jamoat tartibini buzmasligi, boshqa fuqarolarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi, quyidagi qoidalarga rioya etishi shart:

a) ichki ishlar organi xodimining chaqiruviga binoan ko‘rsatilgan muddatda borish hamda ma‘muriy nazorat qoidalarini ijro etish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha og‘zaki va yozma tushuntirishlar berish;

b) ishlash yoki yashash joyi o‘zgarganligi to‘g‘risida, shuningdek, tuman (shahar)dan tashqariga ketayotgani to‘g‘risida ma‘muriy nazoratni amalga oshirayotgan militsiya xodimlarini bir kecha-kunduzda xabardor qilish;

v) boshqa aholi manzilgohiga borganida va u yerda bir kecha-kunduzdan ko‘proq vaqt turib qolganida mahalliy ichki ishlar organlari bo‘limida ro‘yxatdan o‘tish;

g) «Jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma‘muriy nazorati to‘g‘risida» gi Qonunning 5-moddasida nazarda tutilgan, unga nisbatan qo‘llanilgan cheklashlarga rioya etish.

Cheklashlar ro‘yxati qat‘iy hisoblanadi, bu ro‘yxatni kengaytirish mumkin emas.

Sudyaning qarori **ma‘muriy nazorat o‘rnatilishi uchuy asos** hisoblanadi. Sudya ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o‘tayotgan shaxslarga nisbatan jazoni ijro etish hududidagi yoki shaxs yashayotgan ichki ishlar organi boshlig‘ining jazoga hukm qilingan shaxsning tuzalish va halol mehnat qilib kun kechirish yo‘liga o‘tishni aslo istamaganligidan dalolat beruvchi taqdimnoma olingan paytdan boshlab o‘n kundan kechiktirmay qaror chiqaradi.

Sudya ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risidagi qarorda nazorat belgilanishiga nimalar sabab bo'lganligi, nazorat muddatini, nazorat ostidagi shaxsga nisbatan qo'llaniladigan cheklashlarni, agar ma'muriy nazorat jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatishda belgilangan bo'lsa, uning tanlangan yashash joyiga etib kelish muddati ko'rsatiladi.

Ma'muriy nazorat olti oydan bir yilgacha muddatga belgilanadi. Nazoratni amalga oshirish muddati og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ularning jazoni o'tash davridagi xulq-atvori tuzalish va halol mehnat qilib kun kechirish yo'liga o'tishni aslo istamaganliklaridan dalolat bersa yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxslarga nisbatan yashash joyiga etib kelgan paytdan boshlab, shuningdek, og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta hukm etilgan, jazo muddatini o'tab bo'lganlaridan so'ng ichki ishlar idoralarining jamiyat uchun zararli kun kechirishni to'xtatish to'g'risidagi ogohlantirishiga qaramay, jamoat tartibini muntazam buzayotgan va fuqarolarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazayotgan shaxslarga nisbatan sudya ma'muriy nazorat o'rnatish to'g'risida qaror chiqargan paytdan boshlab hisoblanadi.

Ma'muriy nazorat muddati ichki ishlar idoralarining taqdimnomasiga binoan har safar yana olti oyga uzaytirilishi mumkin, lekin uzaytirilgan nazorat muddati mazkur jinoyat uchun belgilangan sudlanganlik muhlatining tugashi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi uchun qonunda nazarda tutilgan muddatlardan oshmasligi lozim.

Ma'muriy nazorat quyidagi hollarda, ya'ni:

1) ma'muriy nazorat olib borish uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin, agar uni uzaytirishga asos bo'lmasa;

2) muddatidan ilgari, basharti nazorat ostida bo'lgan shaxs tuzalish yo'liga qat'iy o'tganligi, ishda va turmushda o'zini yaxshi tomondan ko'rsatganligi aniqlangan bo'lsa;

3) sudlanganlik muhlati tugagan yoki sudlanganligi olib tashlangan

hollarda **to'xtatiladi**.

«Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati to'g'risida»gi Qonunning biron-bir bandi buzilgan paytdan e'tiboran jinoyat **tugallangan** hisoblanadi. Basharti ma'muriy nazorat qoidalari xuddi shunday qilmishi uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, u JK 226-moddasi 1-qismi bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Uni kvalifikatsiya qilishda jinoyatni sodir etish **motivi** va ko'zlangan **maqsad** ahamiyatga ega emas.

Jinoyat **subyeksi** 18 yoshga to'lgan ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxs hisoblanadi.

JK 226-moddasi 2-qismida:

a) ma'muriy nazoratdan bo'yin tovlash maqsadida o'z istiqomat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish;

b) ma'muriy nazorat ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilish vaqtida shaxsga nisbatan o'rnatilgan bo'lib, u o'zi tanlagan yashash joyiga uzrli sabablarsiz muayyan muddatda etib kelmaganligi tufayli ma'muriy nazorat qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Istiqomat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish deganda, ustidan ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxsning ma'muriy nazoratni amalga oshirayotgan ichki ishlar idoralarining rasmiy ruxsatisiz istiqomat joyidan ketib qolishini tushunish lozim.

Aybdorning qilmishini **JK 226-moddasining 2-qismi** bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun uning ma'muriy nazoratdan qanday maqsadni ko'zlab bo'yin tovlaganini aniqlash zarur, aks holda aybdorning xatti-harakatini **JK 226-moddasi 2-qismi «a» bandi** bo'yicha kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi.

24-§. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni, avtomototransport vositalarining va ular tirkamalarining (yarim tirkamalarining) davlat raqam belgilarini egallash, nobud qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirish (JK 227-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyeksi** sifatida qonun bilan o'rnatilgan rasmiy

hujjatlarni qayd etish, yuritish va ularni saqlash tartibi, shuningdek, avtomototransport vositalari va ularning tirkamalari (yarim tirkamalari)ning davlat raqami belgilarini berish, ulardan foydalanish va ularni almashtirish tartibini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi.

Qonunga ko'ra, mazkur jinoyatning **predmeti** korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarning qat'iy hisobidagi hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar, shuningdek, avtomototransport vositalari va ularning tirkamalari (yarim tirkamalari)ning davlat raqami belgilari hisoblanadi.

«Hujjat» tushunchasi yuqorida keltirilgan JK 209-moddasining tahlili doirasida yoritilgan.

NOTA BENE !

Shtamp — hujjatlarni tayyorlashda nusxa qoldirish uchun xizmat qiluvchi ayrim matndan iborat bo'lgan va qoida tariqasida, korxonalar, muassasalar, tashkilotning to'liq nomi, ular joylashgan manzili, hujjat yuborilgan sanasi, uning raqami, telefon, faks, manzil va hokazolar haqidagi ma'lumotlarni aks ettirgan bosma qolip (bo'rtma bosma tasvir). Ko'pincha shtampning mazmuni milliy gerbning tasviri bilan to'ldiriladi.

NOTA BENE !

Muhr — korxonalar, muassasalar, tashkilot yoki jismoniy shaxsning to'liq nomini aks ettirgan va zarur hollarda rasm bilan to'ldiriladigan matnning bo'rtma, teskari (releflilik yoki o'yama) tasvirdan iborat bo'lgan va qog'ozda, saqichda, plastilinda yoki boshqa materiallarda nusxa qoldirish uchun xizmat qiluvchi, qoida tariqasida, doira shakliga ega bo'lgan asbob (bosma qolip).

Shtampning bosmasidan farqli o'laroq, muhrning bosmasiga tuzatish va qo'shimchalar kiritish mumkin emas. Muhrlarning alohida turini markazida O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tushirilgan to'g'ri doira shakliga ega bo'lgan gerbli muhrlar tashkil etadi.

NOTA BENE !

Blanka — bu burchak yoki markazida shtamp bosmasi tushirilgan yoki istalgan usulda shtamp matni bosilgan yoki boshqa matnli (matnli rasm) bo‘lgan hamda hujjatni tayyorlash uchun foydalaniladigan qog‘oz varag‘i (litsenziya, pasport, guvohnoma, so‘rovnoma, ariza va boshqalar blankasi) yoki ayrim shakldagi juzlangan kitobchalar (pasport, harbiy bilet va boshqalar blankasi).

Bular orasida qat‘iy hisobdagi blankalar ajralib turadi, ular belgilangan usullardan biri orqali ro‘yxatdan o‘tkazilgan, alohida tartib raqami (seriyasi) va maxsus foydalanish rejimiga ega. Tahlil qilinayotgan jinoyat predmetiga faqat qat‘iy hisobdagi blankalar kiradi.

Qat‘iy hisobdagi blanka — qisman yozilgan matndan iborat bo‘lgan va qolgan bo‘sh qismida to‘ldirilishi va majburiy ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan, foydalanish maxsus (yoki maxfiy) rejimiga (diplom, mehnat daftarchasi blankalari) hamda foydalanish rejimidan chiqarishning alohida shartlariga (ularni yo‘qotib qo‘yish, talon-toroj qilish, ularga shikast yetkazish va hokazo hollarda) ega bo‘lgan qog‘oz varag‘i.

Avtomototransport vositalari va ularning tirkamalari (yarim tirkamalari)ning davlat rakami belgilari **ko‘rib chiqilayotgan jinoyatning alohida predmeti hisoblanadi.**

Transport vositalarini qayd etish va davlat raqami belgilarini berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 26 maydagi 256-son qarori¹ bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida avtomototransport vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning hisobini olib borish, milliy davlat raqami belgilarini berish va ularni almashtirish qoidalari»da belgilangan.

Transport vositalarini qayd etish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshqarmalarining ro‘yxatdan o‘tkazish va imtihon olish bo‘lim

¹Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 26 майдаги «Автомототранспорт воситаларини рўйхатдан ўтказиш, қайта рўйхатдан ўтказиш ва уларнинг ҳисобини олиб бориш, миллий давлат рақами белгиларини бериш ва уларни алмаштириш ишларини тартибга солиш ҳақида»ги 256-сон қарори.

(bo‘linma)lari, tumanlararo ro‘yxatdan o‘tkazish va imtihon olish bo‘lim (bo‘linma)lari tomonidan amalga oshiriladi.

Dvigatelining ish hajmi 50 kub sm va undan ortiq hamda konstruktsiyasida ko‘rsatilgan tezligi soatiga 50 km va undan ortiq transport vositalari, ular uchun ishlab chiqarilgan tirkamalar va yarim tirkamalar DYHXX organlari tomonidan ro‘yxatga olinadi.

Ro‘yxatdan o‘tkazilgan avtomobillarga bir juft davlat raqami belgisi, mototransport vositalari, tirkama va yarim tirkamalarga esa bir dona davlat raqami belgisi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 11 dekabrda 472-son qarori¹ bilan tasdiqlangan «Yo‘l harakati qoidalarini»ning 28.2-bandiga muvofiq mexanik transport vositalari (tramvay, trolleybuslardan tashqari) va tirkamalarning ko‘zda tutilgan joylarida tegishli namunadagi raqam belgilari o‘rnatilgan bo‘lishi shart.

Hukumatning 2007 yil 27 iyundagi 131-son qarori² bilan avtomototransport vositalariga beriladigan ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarining hududiy kodlari taqsimoti, avtomototransport vositalari va ularning tirkamalariga beriladigan ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarining tiplari hamda ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarida qo‘llanadigan raqamlar va lotin alifbosi harflarining namunalari tasdiqlangan.

Mazkur qarorga binoan avtomototransport vositalariga va ularning tirkamalariga beriladigan ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarining quyidagi tiplari mavjud: I tip; II tip, III tip, IV tip, V tip, VI tip, VII tip, VIII tip, IX tip, X tip, XI tip, XII tip, XIII tip, XIII A tip, IA tip, IIA tip, IIIA tip, IVA tip, VA tip, VIA tip, VIIA tip, VIIIA tip, IXA tip, XA tip.

Alohida ta’kidlab o‘tish lozim, yuqorida ko‘rsatilgan O‘zbekiston Respublikasida avtomototransport vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish va ularning hisobini olib borish, milliy davlat raqami belgilarini berish va ularni almashtirish qoidalariga asosan **bir transport**

¹ Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами, 2000 й., 12-сон, 75-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2006 й., 46-47-сон, 459-модда; 2007 й., 9-10-сон, 86-модда; 41-42-сон, 419-модда.

² Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 25-26-сон, 264-модда; 2008 й., 37-38-сон, 381-модда.

vositasiga birlashtirilgan davlat raqami belgilarini boshqa transport vositasiga o'rnatib foydalanish qat'iy man etiladi.

JK 227-moddasida ko'zda tutilgan jinoyatning **obyektiv tomoni** korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarning qat'iy hisobidagi hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar, avtomototransport vositalari va ularning tirkamalari (yarim tirkamalari)ning davlat raqami belgilarini egallash, shuningdek, ularni nobud qilish, ularga shikast yetkazish, ularni yashirishdan iborat.

Tahlil qilinayotgan modda nuqtai nazaridan, **egallash** deganda, qat'iy hisobdagi hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar, avtomototransport vositalari va ularning tirkamalari (yarim tirkamalari)ning davlat raqami belgilarini o'zining yoki boshqa shaxsning foydasiga qonunga zid va haq to'lamay qaratib olishning barcha shakllari tushuniladi. Egallash usuli har qanday bo'lishi mumkin. Qoida tariqasida, u talon-toraj qilish orqali (**o'g'rilik, talonchilik, bosqinchilik, tovlamachilik, firibgarlik, o'zlashtirish yoki rastrata**) amalga oshiriladi.

Egallash paytida zo'rlik ishlatilmagan hollarda qilmish mustaqil tarzda kvalifikatsiya qilinadi, zo'rlik ishlatilgan hollarda esa mazkur qilmishni jinoyatlar majmui tariqasida kvalifikatsiya qilish zarur.

Mazkur jinoyat qat'iy hisobdagi hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar, avtomototransport vositalari va ularning tirkamalari (yarim tirkamalari)ning davlat raqami belgilari haqiqatda ham aybdor ixtiyoriga o'tgan paytdan e'tiboran **tugallangan** hisoblanadi.

Qat'iy hisobdagi hujjat, shtamp, muhr, blanka, avtomototransport vositalari va ularning tirkamalari (yarim tirkamalari)ning davlat raqami belgisini **nobud qilish** deganda, ulardan xizmat maqsadida foydalanish imkoniyatini qoldirmaydigan, tiklanmas **buzilishi** tushuniladi.

Ko'rsatib o'tilgan predmetlarga **shikast yetkazish** — ularni identifikatsiya qilish mumkin bo'lgan, ammo ularni qayta tiklamay turib, xizmat maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lmaydigan holatga keltirgan zarar yetkazishdir.

Kdyd etilgan predmetlarni nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish jinoyati ularni shunday holatga keltirgan paytdan e'tiboran **tugallangan**

hisoblanadi.

Tahlil qilinayotgan jinoyatning predmetlarini **yashirish** deganda, **JK 227-moddasining** dispozitsiyasida ko'rsatilgan predmetlarni ulardan xizmat maqsadlarida foydalanish uchun manfaatdor shaxs yoki tashkilotlarga taqdim etmaslik tushuniladi.

Yashirish qayd etilgan predmetlar yashirib qo'yilgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

JK 227-moddasining 2-qismida:

a) pasport, harbiy bilet yoki boshqa muhim shaxsiy hujjatlarga nisbatan yoxud o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarga nisbatan sodir etilgan;

b) og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan ko'rsatilgan moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar uchun javobgarlik belgilangan.

Muhim hujjatlar deb, ularning egasining shaxsini, uning subyektiv huquqlarini yoki u uchun muhim bo'lgan boshqa ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni e'tirof etish lozim (pasport, mehnat daftarchasi, ma'lumot to'g'risidagi diplom va hokazolar).

NOTA BENE !

Pasport — O'zbekiston Respublikasida va qator chet el mamlakatlarida shaxsni va fuqarolikni tasdiqlovchi umumiy rasmiy hujjat.

Boshqa muhim shaxsiy hujjatlar qatoriga quyidagilar kiradi: alohida kategoriyali fuqarolar uchun pasport vazifasini bajaruvchi hujjatlar (harbiy xizmatchining shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma, tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma, harbiy bilet, pensiya guvohnomasi va hokazo); ayrim xorijiy yurtlarda pasport vazifasini bajaruvchi hujjatlar (haydovchilik guvohnomasi, sug'urta kartochkasi va boshqalar); shakllangan huquqiy tatbiq etish amaliyotiga ko'ra muhim shaxsiy hujjatlar sirasiga kiradigan boshqa hujjatlar (oliy o'quv yurtini bitirganlik to'g'risidagi diplom, ilmiy daraja va ilmiy unvonlarni tasdiqlovchi diplom va attestatlar, xizmat guvohnomasi, mehnat daftarchasi va hokazolar).

JKning 227-moddasi ikkinchi kismi «b» bandi nuqtai nazaridan **og'ir**

oqibatlarga davlat sirlarining oshkor etilishi, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatidagi to'xtashlar, ularga juda ko'p moddiy zarar keltirish, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazishni kiritish mumkin.

Subyektiv tomonidan JKning 227-moddasida **nazarda tutilgan jinoyat** to'g'ri qasddan **sodir etiladi**.

Motiv ko'rib chiqilayotgan jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi bo'lib, g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlar (o'ch olish, hasad, shuhratparastlik, mulkiy majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish va boshqalar)dan iborat. Bilmagan holda jabrlanuvchining mulki o'rniga hujjatni **g'ayriqonuniy egallash** shaxsiy mulkni talon-toroj qilish sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Talon-toroj qilingan buyumlar ichida shaxsiy hujjatlar yoki muhim hujjatlar mavjud bo'lsa-da, agar aybdorning shaxsiy yoki muhim hujjatlarni egallashga qasdining mavjud bo'lmashligi sodir etilgan qilmishni **JK 227-moddasi 2-qismi «a» bandi** bo'yicha kvalifikatsiya qilinishiga olib kelmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

25-§. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish (JK 228-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyeksi** hujjatlar, shtamp, muhr, blankalarni, ya'ni biron-bir faktni tasdiqlovchi, biron huquq yoki majburiyatlarni o'rnatuvchi yoki ulardan ozod etuvchi moddiy jismlarning aylanishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Tahlil qilinayotgan jinoyatning **predmeti** hujjat, shtamp, muhr va blankalar hisoblanadi.

JK 228-moddasi 1-qismida javobgarlik belgilangan qilmishning **obyektiv tomoni** muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan rasmiy hujjatni (korxonalar, muassasalar, tashkilot shtampi, muhri, blankasini) tayyorlash, rasmiy hujjatni (korxonalar, muassasalar, tashkilot shtampi, muhri, blankasini) qalbakilashtirish, tayyorlangan, qalbakilashtirilgan rasmiy hujjatni (korxonalar, muassasalar, tashkilot shtampi,

muhri, blankasini) sotishda ifodalanadi.

Rasmiy hujjatni (korxonada, muassasa, tashkilot shtampi, muhri, blankasini) **tayyorlash** — bu asl hujjatning (korxonada, muassasa, tashkilot shtampi, muhri, blankasi) nusxalarini g‘ayriqonuniy tayyorlash yoki ularni aslida mavjud bo‘lmagan yuridik shaxs yoki fuqarolar nomidan normativ hujjatlarda o‘rnatilgan talablarni buzgan holda tayyorlash, shuningdek, aytib o‘tilgan hujjatlarning shakli va mazmuniga ularning huquqiy maqomini o‘zgartiruvchi tuzatishlar, o‘zgartirishlar, qo‘shimchalar va hokazolarni kiritish.

Rasmiy hujjatni (korxonada, muassasa, tashkilot shtampi, muhri, blankasini) **qalbakilashtirish** — bu asl hujjatning (korxonada, muassasa, tashkilot shtampi, muhri, blankasi) mazmuni yoki shaklini to‘liq yoki qisman g‘ayriqonuniy modifikatsiyalashtirish (o‘zgartirish). Qalbakilashtirish usullari jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyat kasb etmaydi. Qalbakilashtirish o‘chirish, qo‘shib yozish, tuzatishlar kiritish hamda mazmuni (matni)ning bir qismini yo‘q qilish, qo‘shimcha ma‘lumotlarni kiritish yo‘li bilan sodir etilishi mumkin (masalan, pasportga xorijga chiqish ruxsatini beradigan stikerning qalbakisini yopishtirish).

Qalbaki hujjatni (korxonada, muassasa, tashkilot shtampi, muhri, blankasini) **sotish** — bu begonalashtirish shaklidan qat‘i nazar, uni begonalashtirish uchun qilingan har qanday harakat. Sotish har qanday usulda: sotuv, almashtirish, hadya etish va hokazo usullar orqali amalga oshirilishi mumkin. Sotish qalbakilashtiruvchining o‘zi tomonidan yoki boshqa, qalbakilashtirish uchun javobgar bo‘lmagan, lekin hujjatning (korxonada, muassasa, tashkilot shtampi, muhr blankasining) qalbakiligini anglamagan shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Agar shaxs hujjatning qalbakiligini anglamagan yoki anglashi mumkin ham bo‘lmagan bo‘lsa, u JK 228-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Aytilgan predmetlar tayyorlangan, qalbakilashtirilgan yoki sotilgan paytdan boshlab jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan sharhlanayotgan jinoyat aybdorda **to‘g‘ri qasd**

mavjudligi bilan tavsiflanadi. Aybdor rasmiy hujjatni (korxonada, muassasa, tashkilot shtampi, muhri, blankasini) tayyorlayotgani, qalbakilashtirayotganini angelaydi va buni xohlaydi.

Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish jinoyati tarkibi subyektiv tomonining zaruriy belgisi — soxtalashtiruvchining o‘zi yoki boshqa shaxs tomonidan undan foydalanish maqsadi bo‘lishi lozim. Agar aybdorda bunday maqsad bo‘lmagan bo‘lsa, unga JK 228-moddasi qo‘llanishi mumkin emas. Qalbaki hujjat, shtamp, muhr, blankalarni sotish uchun javobgarlik sotish maqsadidan qat’i nazar kelib chiqadi.

Jinoyat **subyekt** 16 yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

JK 228-moddasi 2-qismi:

- a) takroran yoki xavfli retsdivist tomonidan;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirilib sodir etilganligi uchun javobgarlik belgilaydi.

Hujjatning qalbaki ekanligini bila turib undan foydalanish JK **228-moddasi 3-qismida** nazarda tutilgan jinoyatni tashkil etadi.

Hujjatning qalbaki ekanligini bila turib undan foydalanish — bu aybdorning ushbu hujjatdan kelib chiqqan huquqlarga ega bo‘lish yoki majburiyatlardan ozod bo‘lish uchun qilgan harakatlaridir. Foydalanish, sirtidan qalbaki hujjatni namoyish etish (ko‘rsatish) yoki uni tashkilot va alohida shaxslarga haqiqiydek taqdim etish (uzatish, yuborish) orqali ifodalanishi mumkin. Hujjatni tayyorlagan yoki qalbakilashtirgan shaxsning o‘zi hujjatning qalbaki ekanligini bila turib undan foydalansa, aybdorning harakatlarini JK 228-moddasi 3-qismi bo‘yicha kvalifikatsiya etish zarur, chunki shaxs tomonidan ayni bir moddaning turli qismlarida nazarda tutilgan harakatlar sodir etilganlik uchun jinoyatlar majmuini belgilashda javobgarlik shu moddaning og‘irroq jazo nazarda tutilgan qismi bo‘yicha yuzaga keladi.

JK 228-moddasi 3-qismida ko‘zda tutilgan jinoyat muayyan xuquqqa ega bo‘lish yoki muayyan majburiyatlardan ozod bo‘lish paytidan e’tiboran **tugallangan** hisoblanadi. Hujjatning qalbaki ekanligini bila turib

undan foydalanishning **subyektiv tomoni to'g'ri qasdda** ifodalanadi. Aybdor hujjatning mazmuni haqiqatga to'g'ri kelmasligini, o'ziga qandaydir huquqlarni ta'minlovchi yoki biror majburiyatdan ozod etuvchi hujjatning qalbaki ekanligini bila turib foydalanayotganligini anglaydi va buni xohlaydi.

26-§. Davlat proba tamg'alarini tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalarini buzish (JK 228¹-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** — proba nazorati inspeksiyalari tomonidan tamg'alanishi shart bo'lgan va qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlar bilan muomala qilishni tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyat **predmeti** — **davlat proba tamg'asi**, ya'ni zargarlik buyumlarida va boshqa predmetlarda zargarlik buyumlari ishlab chiqariladigan oltin, kumush va platinaning miqdorini aniqlovchi tamg'a yoki belgi. Davlat proba tamg'asi tasdiqlash belgisi va proba belgisidan tashkil topib, ular birga yoki alohida tushunilishi mumkin. Ushbu belgi zargarlik buyumi yoki boshqa predmetlar proba nazorati inspeksiyasida tekshirilgan va tamg'ada ko'rsatilgan probadan kam bo'lmagan probaga egaligini bildiradi.

Davlat proba tamg'asining shakli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat g'arazgo'ylik yoki boshqa shaxsiy manfaatlarni ko'zlab davlat proba tamg'asini qonunga xilof ravishda tayyorlash, o'tkazish yoki undan foydalanish, shuningdek, uni qalbakilashtirishda ifodalanadi.

Tahlil qilinayotgan modda dispozitsiyasi blanket xarakterga ega.

O'zbekiston Respublikasi 2001 yil 7 dekabrda «Qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlarning asillik darajasi va tamg'alanishi to'g'risida»gi Qonunining maqsadi realizatsiya qilishga mo'ljallangan qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlarning asillik darajasini (probasini) aniqlash va tamg'alash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir.

NOTA BENE !

Tamg'alash — tarkibida qimmatbaho metallar miqdori bo'lgan, belgilangan usulda oldindan tekshirilgan zargarlik va boshqa maishiy buyumlarga davlat proba tamg'asining nusxasini tushirish bilan bog'liq texnologiya jarayonidir.

Qonunga xilof ravishda tayyorlash deganda, davlat proba tamg'alarini rasmiy ruxsatsiz tayyorlashni tushunish lozim.

Qonunga xilof ravishda o'tkazish deganda, davlat proba tamg'alarini va qonunga xilof ravishda tayyorlangan proba tamg'alarini sotish, sovg'a qilish, almashish va boshqa g'ayriqonuniy harakatlar orqali begona shaxslar ixtiyoriga o'tkazishga qaratilgan harakatlarni sodir etish tushuniladi.

Davlat proba tamg'asidan qonunga xilof ravishda foydalanish deganda, davlat proba tamg'asidan foydalangan holda belgilangan tartibga xilof ravishda yoki g'ayriqonuniy tayyorlangan proba tamg'alaridan foydalanib, qimmatbaho metallardan tayyorlangan buyumlarga tamg'a tushirishni tushunish lozim.

Davlat proba tamg'asini qalbakilashtirish deganda, davlat proba tamg'asining har qanday belgisiga qandaydir o'zgartirishlar kiritishni tushunish lozim.

Ushbu modda dispozitsiyasida nazarda tutilgan har qanday xatti-harakat (tayyorlash, o'tkazish, foydalanish, qalbakilashtirish) sodir etilgan paytdan e'tiboran jinoyat **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi.

G'arazgo'ylik yoki boshqa shaxsiy manfaatdorlik **motivi** jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi.

16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs jinoyat **subyekt** bo'lishi mumkin.

JK 228¹-moddasining 2-qismida davlat proba tamg'alarini tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalarining buzilishi:

takroran;

bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

27-§. O‘zboshimchalik (JK 229-moddasi)

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekti** fuqarolarning o‘z huquqlarini qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlaydigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. **Qo‘shimcha bevosita obyekt** sifatida boshqa fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlari yoki qonuniy manfaatlarini, shuningdek, ularga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini ta’minlaydigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Jinoyat **obyektiv tomondan** fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘luvchi haqiqiy yoki faraz qilingan huquqlarni **o‘zboshimchalik** bilan amalga oshirishda ifodalanadi.

O‘zboshimchalik faqat **faol harakatlar** bilan sodir etiladi, harakatsizlik bilan o‘zboshimchalikni sodir etib bo‘lmaydi.

O‘zboshimchalik asosida aybdor belgilangan tartibga zid ravishda harakat qilib, o‘zining haqiqiy yoki faraz qilingan huquqi (masalan, kvartiraga ko‘chirib kiritish yoxud undan ko‘chirib chiqarish, jabrlanuvchini olgan qarzni qaytarishga majbur qilish maqsadida o‘zboshimchalik bilan o‘zganing mulkini olib qo‘yish va h.k.lar)ni amalga oshiradi.

O‘zboshimchalikni sodir etish vaqtida aybdor o‘zicha, ya’ni qonun tomonidan berilgan biron-bir vakolatsiz harakat qiladi.

O‘zboshimchalik deganda, biror-bir harakatni sodir etish (yo‘lda to‘siqlar qurish, hisob raqamidan pul olish va hokazo) yoki aybdor huquqiy hujjat yoki shartnomaga binoan harakat qilishi shart bo‘lganda, qonuniy hujjat bilan o‘rnatilgan biror huquqqa ega bo‘lish yoki uni amalga oshirish tartibini buzgan hollardagi xavfsizligi (pul o‘tkazishdan, boshqa bir buyumni keltirib berishdan, qaytarishdan qochish, bo‘yin tovlash va hokazolar) tushuniladi.

Bunday tartib O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari hamda umumiy amal qiladigan boshqa huquqiy hujjatlar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari qarorlari va hokazolar)

orqali o‘rnatilgan bo‘lishi mumkin.

Aytish joizki, ayrim hollarda huquqqa ega bo‘lish yoki undan foydalanishning o‘rnatilgan tartibini buzish boshqa bir mustaqil jinoyatlar tarkibini yuzaga keltirishi mumkin: fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish (JK 142-moddasi), fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 144-moddasi), mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish (JK 149-moddasi) va hokazolar. Bu holda aybdor shaxslarning harakatlarini Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilish zarur.

O‘zboshimchalik obyektiv tomonning muhim belgisi bo‘lib, shaxs tomonidan ayni o‘zining haqiqiy yoki faraz qilingan huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan harakatlarni bajarish tushuniladi.

NOTA BENE !

Haqiqiy huquq — shaxsga qonun yoki boshqa normativ hujjatga asosan tegishli, lekin belgilangan tartibga rioya qilmagan holda amalga oshirilgan huquq. Masalan, jabrlanuvchini qarzini qaytarib berishga majbur etish maqsadida bironing mulkini o‘zboshimchalik bilan tortib olish.

Ayrim hollarda sudlar aybdorning qonuniy huquqi bo‘lgan va jabrlanuvchi tomonidan g‘ayriqonuniy ravishda ushlab turilgan mulkni zo‘rluk ishlatib tortib olish hollarini xato tarzda bosqinchilik, talonchilik va tovlamachilik deb kvalifikatsiya qilishadi. Bunday harakatlar o‘zboshimchalik deb kvalifikatsiya qilinishi zarur. O‘zboshimchalik sodir etilganda jismoniy yoki ruhiy kuch ishlatishni shaxsga qarshi jinoyat va o‘zboshimchalik jinoyatlari majmui tariqasida kvalifikatsiya qilish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaroriga binoan: «...qonunga binoan (JKning 165-moddasi) tovlamachilik o‘zganing mulkini yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo‘sindagi harakatlar sodir etishni taqozo qilishini sudlar e’tiborga olishlari kerak. Shu sababli, qarzdordan qarzni talab qilish Jinoyat kodeksining 165-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin

emas, lekin ayrim hollarda o'zboshimchalik (JKning 229-moddasi) tariqasida baholanishi lozim. Qarzdor va qarz beruvchi o'rtasida foizlar to'lash bo'yicha oldindan kelishuv bo'lmagan bo'lsa, berilgan qarz uchun foiz talab qilish tovlamachilik jinoyati tarkibini tashkil qiladi».

NOTA BENE !

Faraz qilingan huquq — bu shaxs tomonidan xato tarzda o'ziga qonuniy ravishda tegishli deb hisoblanadigan, lekin qonunga muvofiq unga tegishli bo'lmagan huquq (masalan, birovning kvartirasiga ko'chib kelish va hokazo).

Fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga **ko'p miqdorda** zarar yoki **jiddiy ziyon** yetkazish o'zboshimchalik obyektiv tomonining zaruriy belgisidir.

Etkazilgan ziyonning jiddiyligi har bir holda sodir etilgan jinoyatning alohida holatlarini nazarda tutib aniqlanadi. Masalan, jiddiy ziyon deb fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining buzilishi tan olinishi mumkin.

Ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazmagan o'zboshimchalik, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 200-moddasiga muvofiq, ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

O'zboshimchalik sodir etilganda jismoniy yoki ruhiy kuch ishlatishni esa shaxsga qarshi jinoyat va o'zboshimchalik jinoyatlari majmui tariqasida kvalifikatsiya qilish lozim.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyat fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat mafaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishi kabi oqibatlar kelib chiqqandan keyin **tugallangan** deb topiladi.

O'zboshimchalikning **subyektiv tomoni** o'zboshimcha harakatlarga nisbatan to'g'ri qasd va fuqarolar, davlat hamda jamiyat huquq va manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon keltirgan oqibatlarga nisbatan qasd yoki ehtiyotsizlik bilan tavsiflanadi.

Jinoyat sodir etishning **motivi** va **maqsadi** kvalifikatsiya qilishda

ahamiyatga ega emas.

Jinoyat **subyekt**i 16 yoshga to'lgan aqli raso, mansabdor bo'lmagan shaxs bo'lishi mumkin.

O'zboshimcha harakatlar sodir etib, huquqiy hujjatda belgilangan tartibni buzgan mansabdor shaxs, qonunda ko'rsatilgan tegishli belgilar mavjud bo'lganda, JK 205- yoki 206-moddalari bo'yicha mansab vakolatlarini suiiste'mol qilganlik yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqqanlik uchun javobgarlikka tortiladi.

28-§. Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish (JK 229¹-moddasi)

Jinoyatning bevosita obyekti er uchastkalarini boshqarish yoki taqsimlanishini tartibga solishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat, shunday harakatlari uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng, yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olishda ifodalanadi.

Yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan egallab olish deganda, tegishli vakolatga ega bo'lgan davlat boshqaruv idoralarining ruxsatisiz yerning o'zlashtirilishi yoxud unda inshootlar qurishga qaratilgan harakatlar tushuniladi.

Erni o'zlashtirishga, unda inshootlar qurishga qaratilgan har qanday harakatlar sodir etilgan paytdan e'tiboran jinoyat **tugallangan** deb topiladi.

Shuni nazarda tutish kerakki, modda ma'muriy preyuditsiyaga ega, ya'ni yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish, xuddi shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa, aybdor jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan egallab olayotganligini angelaydi va buni xohlaydi.

Uni kvalifikatsiya qilishda jinoyatni sodir etish **motivlari** va undan ko'zlangan **maqsad** ahamiyatga ega emas.

Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish **subyekt**i 16

yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Mansabdor shaxs o'z mansabidan foydalanib, yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan egallab olgan bo'lsa, uning qilmishi, ish holatlaridan kelib chiqib, JK 205-moddasi yoki JK 206-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

29-§. Diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish (JK 229²-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekti** diniy ta'limotlardan saboq berishning belgilangan tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat, shunday harakatlari uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng, maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limotdan saboq berish va xususiy tartibda diniy ta'limotdan saboq berish kabi harakatlarda ifodalanadi.

Mazkur modda ma'muriy preyuditsiyaga ega, ya'ni shaxsni JK 229²-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun aybdor maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib, ayni vaqtda diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatini olmay, diniy ta'limotdan saboq berganligi uchun ilgari ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lishi shart.

Basharti shaxs diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatini olgan, ammo maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib diniy ta'limotlardan saboq berayotgan bo'lsa, bunday holda uni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas.

Diniy ta'limotlardan saboq berish xususiy tartibda olib borilganda, ya'ni bunday faoliyat aybdor shaxs tomonidan diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz amalga oshirilganda ham JK 229²-moddasi bo'yicha javobgarlik kelib chiqadi.

Basharti, aybdor shaxs diniy ta'limotlardan saboq berish vaqtida milliy, irqiy, etnik yoki diniy mansubligiga qarab aholi guruhlariga nisbatan adovat, murosasizlik yoki qadr-qimmatni kamsituvchi, diniy e'tiqodiga yoki e'tiqod qilmasligiga qarab fuqarolarning his-tuyqularini ifodalovchi harakatlarni sodir etayotgan bo'lsa, uning harakatlari jinoyatlar majmui

tariqasida JK 229²-moddasi va JK 156-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi zarur.

Maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limotdan saboq berila boshlangan paytdan e'tiboran jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan diniy ta'limotdan saboq berish tartibining buzilishi **to'g'ri qasddan** sodir etiladi. Jinoyat motivi va undan ko'zlangan maqsad kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Jinoyat **subyeksi** 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

30-§. Belgilangan taqiqlarni (cheklovlarni) buzgan holda binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash (JK 229³-moddasi)

Mazkur jinoyatning **obyeksi** binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashga taqiqlar (cheklovlar) belgilangan zonalarda ushbu ishlarni bajarishda ifodalanadi.

Mazkur modda ma'muriy preyuditsiyaga ega, ya'ni shaxsni JKning 229³-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun aybdor shaharsozlik kodeksida belgilangan va boshqa shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashga taqiqlar (cheklovlar) belgilangan zonalarda ushbu ishlarni bajarganligi uchun ilgari tegishli tartibda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 99-moddasi bilan javobgarlikka tortilgan bo'lishi shart. Agarda shaxs avval ma'muriy javobgarlikka tortilmagan bo'lsa, uni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas.

Ushbu jinoyatning tarkibini aniqlashda shaharsozlik bilan bog‘liq qonun hujjatlaridan kelib chiqib quyidagi tushunchalarga e‘tibor qaratish muhimdir:

bino – funksional maqsadiga qarab odamlar yashashi yoki bo‘lishiga va har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga mo‘ljallangan, yopiq hajmni tashkil etuvchi tayanch, to‘sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruktsiyalardan iborat qurilish tizimi;

inshoot – har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga, materiallar, buyumlar, asbob-uskunalarni saqlashga, odamlarning vaqtincha bo‘lishiga, odamlar, yuklar va boshqa narsalarni olib o‘tishga mo‘ljallangan, tayanch, to‘sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruktsiyalardan iborat hajmiy, yassi yoki chiziq tarzidagi qurilish tizimi;

shaharsozlik – aholi punktlarini, aholi punktlararo hududlarni rejalashtirish hamda qurishning ijtimoiy-iqtisodiy, qurilish-texnika, arxitektura-badiiy va sanitariya-gigiyenaga oid yechimlarining yig‘indisini ta‘minlovchi nazariyasi va amaliyoti¹;

Shaharsozlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta‘mirlashga taqiqlar (cheklovlar) belgilangan zonalarda ushbu ishlarni bajara boshlangan paytdan e‘tiboran jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan ushbu jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi.

Jinoyatning **motivi** va undan ko‘zlangan **maqsad** kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas.

Jinoyatning **subyekti** 16 yoshga to‘lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin.

«Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Mansabdor shaxsning o‘zining vakolatlaridan qonunga xilof tarzda foydalanishi qanday harakatlarda ifodalanadi?

¹ Батафсил қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Шаҳарсозлик кодекси.

2. JK 205-moddasi (Xokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish) mazmunida ko'p miqdorda zarar yetkazish va jiddiy ziyon yetkazilishi deganda nimani tushunasiz?

3. Kim mansabdor shaxs deb e'tirof etiladi?

4. Mas'ul mansabdor shaxs tushunchasiga ta'rif bering.

5. Xokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish bilan mansab vakolatini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyati o'rtasida qanday farqlar bor?

6. Xokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishning hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqishdan farqi nimada?

7. JK 206-moddasi (Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish)da nazarda tutilgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlikning kelib chiqish shartlari qanday? Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqishning qanday turlari bor?

8. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash deganda nima tushuniladi? U nimada namoyon bo'ladi?

9. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash jinoyati uchun shaxsni javobgarlikka tortish shartlari.

10. Mansabga sovuqqonlik bilan qarashning mansabdor shaxsning o'z vazifalariga loqaydlik yoki vijdotsizlarcha munosabatda bo'lish oqibatida ularni bajarmaslikdan qanday farqi mavjud?

11. Hokimiyat harakatsizligi belgilarini ko'rsating. Ushbu jinoyat uchun javobgarlikning vujudga kelishida qanday shartlar mavjud?

12. Mansab soxtakorligi nimada ifodalanadi? Uning qanday turlari bor?

13. Pora olish deganda nima tushuniladi? Pora olishning qanday usullari hamda shakllari bor?

14. Tovlamachilik yo'li bilan pora olishning tovlamachilikdan farqi nimada?

15. Pora berishning belgilarini ayting.

16. Pora berish va pora olishning qanday umumiy belgilari bor?

17. Qanday hollarda pora bergan shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi?

18. Pora olish va berishdagi vositachilik tushunchasi. U qanday shaklda ifodalanadi, shaxsni ushbu jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilishning

shartlari.

19. Pora berishning xizmatchini pora evaziga og‘dirishdan farqi nimada?

20. Xizmatchini pora evaziga og‘dirish qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?

21. Tovlamachilik yo‘li bilan haq berishni talab qilishning alomatlarini ko‘rsating.

22. Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish nimada ifodalanadi?

23. Faoliyati O‘zbekiston Respublikasida taqiqlangan jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash uchun javobgarlikka tortish shartlari.

24. Diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish usullari.

25. Yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar o‘tkazish deganda nimani tushunasiz? O‘tkazish tartibini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik vujudga kelishi shartlari.

26. Taqiqlangan ish tashlashga rahbarlik qilish yoki favqulodda holat sharoitida korxonada, muassasa yoxud tashkilotlar ishiga to‘sqinlik qilish jinoyati uchun jinoiy javobgarlik vujudga kelishi shartlari.

27. Hokimiyat vakiliga yoki fuqarolik burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko‘rsatish nimada ifodalanadi?

28. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlarni tavsiflab bering. Ushbu jinoyatdan jabrlanuvchini aniqlang. Mazkur jinoyat shaxsga qarshi jinoyatlarning ayrim turlaridan nima bilan farq qiladi?

29. JK 221-moddasi (Jazoni ijro etish muassasasi ma‘muriyatining qonuniy talablariga bo‘ysunmaslik) mazmunida bo‘ysunmaslik nimani anglatadi?

30. Jazoni ijro etish muassasasi ma‘muriyatining qonuniy talablariga bo‘ysunmaslik uchun jinoiy javobgarlikka tortishning o‘ziga xos xususiyatlari.

31. Ozodlikdan mahrum qilish joylari, dastlabki qamoq, qamoq joylariga nimalar kiradi? Qo‘riqlov ostidagi saqlash joyidan qochish deganda nimani tushunasiz?

32. Qonunga xilof tarzda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish deganda nimani tushunish lozim?

33. Qaysi hollarda shaxs qonunga xilof tarzda chet elga chiqqanligi yoki

O‘zbekiston Respublikasiga kirganligi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi?

34. O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzish nimalarda ifodalanishi mumkin?

35. JK 224-moddasi (O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzish)da javobgarlik belgilangan jinoyat subyektining qanday xususiyatlari mavjud bo‘lishi lozim?

36. Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo‘yin tovlash nimada namoyon bo‘ladi? Bo‘yin tovlash usullari va sabablari mazkur jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta’sir ko‘rsatadimi?

37. Ma’muriy nazorat belgilarini ayting. Uning qoidalarini buzish nimalarda ifodalanadi? JK 226-moddasi (Ma’muriy nazorat qoidalarini buzish)da nazarda tutilgan jinoyat subyektining xususiyatlarini ayting.

38. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalarni egallash, nobud qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirish deganda nima tushuniladi?

39. Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish qanday g‘ayriqonuniy harakatlarda ifodalanishi mumkin?

40. O‘zboshimchalik deganda nimani tushunish kerak? JK 229-moddasi (O‘zboshimchalik) mazmunidagi «haqiqiy huquq» va «faraz qilingan huquq» tushunchalari nimani anglatadi? O‘zboshimchalik uchun jinoiy javobgarlikning kelib chiqish shartlarini ayting.

41. Yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish uchun jinoiy javobgarlikning kelib chiqish xususiyatlarini ayting. Bu jinoyatning o‘zboshimchalikdan farqi nimada?

42. Diniy ta’limotdan saboq berish tartibini buzish nimada namoyon bo‘ladi? Bu jinoyat JK 145-moddasi (Vijdon erkinligini buzish)da nazarda tutilgan jinoyatdan nima bilan farq qiladi?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Алтухов С.А. Преступления сотрудников милиции. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. — 271 В.

Ахроров Б.Д. Уголовно-правовые и криминологические проблемы

борьбы со злоупотреблениями властью или служебным положением (по материалам УзССР). Автореф. дисс. канд. юрид. наук. — Т.: 1989.

Волженкин Б.В. Коррупция. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 1998.

Волженкин Б.В. Служебные преступления: Комментарий законодательства и судебной практики. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2005. — 560 В.

Галахова А.В. Превышение власти или служебных полномочий. — М.: «Юридическая литература», 1978.

Динка В.И. Ответственность за должностные преступления: Учебное пособие. — М.: 1998.

Дубонос Е.С. Провокация взятки либо коммерческого подкупа: Лекция. — М.: ЮИ МВД РФ, «Книжный мир», 2002. — 35 В.

Здравомыслов Б.Д. Должностные преступления: понятие и квалификация. — М.: «Юридическая литература», 1975.

Zufarov R.A., Xidoyatov B.B., Maxkamov O.M. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 210-214-moddalariga sharh. —Т.: TDYuU, 2017. — 48 б.

Максимов С.В. Коррупция. Закон. Ответственность. — М.: Учебно-консультационный центр «ЮрИнфор», 2000. — 143 В.

Радачинский С.Н. Уголовная ответственность за провокацию взятки либо коммерческого подкупа. — М.: «Ростов н/Д», 2003.

Ilmiy maqolalar

Абзалова Х.М. Концептуальные основы противодействия коррупции // *Korrupsiyaga qarshi kurashning dolzarb muammolari. Ilmiy-maqolalar to‘plami* Актуальные проблемы борьбы с коррупцией // Сборник научных статей. — Т.: TDYuU, 2016. — В.133-160.

Абзалова Х.М. Основные направления противодействия коррупции с учетом изучения опыта отдельных зарубежных стран // *O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy javobgarlikka oid qonunchilikni liberallashtirish masalalari. Respublika davra suhbat materiallari to‘plami.* —Т.: TDYuU, 2016.

Axrarov B.D. Ayrim iqtisodiy va boshqaruv tartibiga qarshi

mansabdorlik jinoyat qonunlarini unifikatsiya qilish masalalari // Sud-huquq islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida jinoyat kodeksini unifikatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: TDYuU nashriyoti, 2015. – B. 23-27.

Ахраров Б.Д. Вопросы возникновения и развития понятий должностного лица в уголовном праве // Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish masalalari: milliy va xorijiy tajriba. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, TDYuU, 2014. – B. 40-54.

Ахраров В.Д. О‘zbekiston Respublikasida mansabdorlik jinoyatlari va ularning korrupsion jinoyatlar bilan aloqadorligi // Korrupsiyaga qarshi kurashning dolzarb muammolari. Ilmiy-maqolalar to‘plami Актуальные проблемы борьбы с коррупцией. Сборник научных статей. – T.: TDYuU, 2016. – B. 6-31.

Ахраров Б.Д. Криминологическая характеристика должностных преступлений и лиц, их совершивших. // J. Qonun nomi bilan. 2002. № 1–2. — 123–124-b.

Ахраров Б.Д. Проблемы либерализации законодательства по должностным преступлениям. // Ж. Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Ўзбекистон. — Нукус: 2002, № 1–2. — 79–80-b.

Ахраров Б.Д. Соотношение злоупотребления властью и служебным положением и смежных преступлений // Проблемы совершенствования мер борьбы с преступностью. — T.: ТашГУ, 1986.

Жаглина М. Понятие «представитель власти» в уголовном праве // Ж. Следователь. 1998. № 5.

Жариков В.В., Швыркин А.А. Некоторые аспекты ответственности за злоупотребление полномочиями // Власть: криминологические и правовые проблемы. — M.: 2000.

Засов К.Л. Понятие должностного лица в законодательстве и юридической науке // Ж. Современное право. 2003. № 8.

Зубкова В.И., Тяжкова И.М. Некоторые вопросы квалификации посредничества во взяточничестве // Вестник Московского университета. Серия 11: Право. 2003. № 3.

Зуфаров Р.А. К вопросу о коррупции // *J. Ho‘jalik va qonun.* 2001. № 3. — 6–7-b.

Зуфаров Р.А. Криминологическая характеристика взяточничества // *J. Davlat va huquq.* 2002. № 3. — 45–47-b.

Зуфаров Р.А. Либерализация уголовного законодательства и проблемы назначения наказания за взяточничество // *Ж. Зангер.* Алматы: 2003. № 4. — 25–26-b.

Зуфаров Р.А. Международно-правовые проблемы борьбы с коррупцией // *J. Qonun nomi bilan.* 2001. № 1–2.

Зуфаров Р.А. Некоторые вопросы разграничения получения взятки от других смежных преступлений // *J. Qonun nomi bilan.* 1999. № 2.

Зуфаров Р.А. Некоторые проблемы о предмете взятки. // *J. Qonun nomi bilan.* 2000. № 1. — 28–31-b.

Зуфаров Р.А. О некоторых квалифицирующих признаках взяточничества // *J. Davlat va huquq.* 2001. № 4. — 48–50-b.

Зуфаров Р.А. Обстоятельства, отягчающие ответственность за взяточничество // *Korrupsiyaga qarshi kurashning dolzarb muammolari. Iltiy-maqolalar to‘plami* Актуальные проблемы борьбы с коррупцией. Сборник научных статей. – Т.: TDYuU, 2016. – В. 31-55.

Зуфаров Р.А. Проблемы наказуемости взяточничества в свете либерализации уголовного законодательства // *J. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi.* 2002. № 3–4. — 51–54-b.

Зуфаров Р.А. Разграничение взяточничества и смежных составов преступлений // *J. Davlat va huquq.* 2002. № 1. — 27–31-b.

Иванов В.Д. Коммерческий подкуп и его правовые последствия // *Юридический вестник.* — Ростов-на-Дону: 1997. № 2.

Изосимов С. К вопросу о разграничении понятия должностного лица и лица, выполняющего управленческие функции в коммерческой или иной (некоммерческой) организации // *Ж. Юрист.* 1999. № 7.

Изосимов С.В. Злоупотребление должностными полномочиями: проблемы законодательного определения и квалификации // *Ж. Российский судья.* 2003. № 4.

Канунников В.А., Мельниченко А.Б. Объект и предмет служебного подлога в уголовном праве // *Ж. Юрист-правоведь.* 1998. № 1.

Кравец Ю. Ответственность за преступления против интересов службы в коммерческих и иных организациях // Ж. Российская юстиция. 1997. № 7.

Краснопеева Е. Квалификация посредничества и соучастия во взяточничестве // Ж. Законность. 2002. № 2.

Нарбутаев Э.Х. Об основных факторах, способствующих на формирование и развитие коррупционных отношений // Ж. Huquq-Pravo-Law. 2002. № 8. — 29–33-b.

Salaev N.S. “Korrupsiya” tushunchasini aniqlash va unga qarshi kurashning ayrim jihatlari // Kriminologiyaning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2014 yil 18 yanvar). – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – B.36-40.

Salaev N.S. Korrupsiyaga qarshi kurash: xalqaro hamkorlik va ba’zi xorijiy mamlakatlar tajribasi // Korrupsiyaga qarshi kurashish – jamiyat va davlat xavfsizligining garovi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. (2015 yil 26 noyabr). O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016 yil. – B. 133-139.

Стренин А. Проблемы ответственности за умышленное неисполнение должностным лицом своих служебных полномочий // Ж. Уголовное право. 2003. № 1.


Халилов Э.Х., Зуфаров Р.А. Взятничество — тяжкое преступление // Ж. Экономика и жизнь. 1992. № 21. — 3–7-b.

Ermatov G.O. Korrupsiya jinoyatida subyekt va jinoyatchi shaxsi // Korrupsiyaga qarshi kurashning dolzarb muammolari. Ilmiy-maqolalar to‘plami Актуальные проблемы борьбы с коррупцией. Сборник научных статей. – T.: TDYuU, 2016. – B. 83-113.

Эрматов F.O. Фальсификация документов как один из способов сокрытия преступления // Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish masalalari: milliy va xorijiy tajriba. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: TDYuU, 2014. – B.115-118.

VII BOB. ODIL SUDLOVGA QARSHI JINOYATLAR

10-sxema



1-§. Aybsiz kishini javobgarlikka tortish (JK 230-moddasi)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga muvofiq, «jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish

uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi»¹.

Jinoyatning **bevosita obyekt**i surishtiruv, dastlabki tergov bosqichlarida odil sudlovning manfaatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar hamda shaxsning huquq va erkinliklari hisoblanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, jinoyatning obyekt i sifatida bundan tashqari surishtiruv, dastlabki tergov yoki prokuratura idoralarining normal faoliyati, obro'yi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni ham kiritish mumkin.

Jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq surishtiruvchi shaxsni jinoyat protsessida ayblanuvchi sifatida jalb qilishga haqli emas va bu uning vakolat doirasiga kirmaydi. Bu surishtiruvchining vazifasi doirasiga taalluqli emas (Jinoyat-protsessual kodeksining 39-moddasi).

Jinoyat-protsessual kodeksining 342-moddasi 2-qismi 2-bandiga ko'ra, surishtiruvchi gumon qilinuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki muayyan shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslar aniqlangan bo'lsa, qonunda belgilangan muddatlarga qaramasdan darhol ish hujjatlarini tergovchiga jo'natishi lozim.

Obyektiv tomondan jinoyat aybsizligi ayon bo'lgan shaxsni ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganlikda ayblab jinoiy javobgarlikka tortishda ifodalanadi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисmlарига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 11-б.

Aybsizligi ayon bo'lgan shaxs deganda, aybini yetarli darajada aniq isbot etadigan ishonchli dalillar to'planmagan shaxslar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida shaxs qonun bilan belgilangan asoslarda va tartibda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin deb uqtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi JK 16-moddasi 2-qismiga muvofiq, «Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi».

NOTA BENE !

Aybsiz deganda, harakatlarida jinoyat tarkibi bo'lmagan shaxsni yoxud qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar mavjud bo'lgan yoxud jinoyat sodir etganligi dalillar bilan yetarlicha isbotlanmagan shaxsni tushunish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga ko'ra, **jinoiy javobgarlikka tortish** deganda, shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganligidan dalolat beruvchi yetarli asoslar bo'lgani holda uni ayblanuvchi sifatida jalb etish haqida surishtiruvchi, tergovchi tomonidan chiqarilgan qarorni tushunish zarur.

Aksariyat hollarda, aybsizligi oldindan ayon bo'lgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish ayblovchi dalillarni sun'iy ravishda yasash yo'li bilan ham sodir etiladi. So'roq qaydnomasini qalbakilashtirish, guvohning yolg'on ko'rsatmalaridan foydalanish, dalillarni moslashtirish va h.k.lar shular jumlasidandir.

Agar bila turib, aybsiz kishini javobgarlikka tortishdan oldin uning aybsizligini bilgan holda qonunga xilof ravishda qamoqqa olingan bo'lsa, bu harakatlarni JKning 230-moddasi va 234-moddasi (Qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish) bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilish lozim.

Ushbu qilmish formal tarkibli bo'lib, aybsizligi oldindan ayon bo'lgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan paytdan, ya'ni tegishli vakolatga ega bo'lgan shaxs unga nisbatan ayblanuvchi sifatida ishga jalb etish haqida

qaror chiqargan va uni taqdim etgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

JPK 361-moddasiga muvofiq, shaxsni ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortish ikkita bir-biriga bog‘liq bo‘lgan protsessual aktlardan tashkil topadi: shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb etish to‘g‘risida unga qo‘yilayotgan aybni asoslab va qilmishni huquqiy kvalifikatsiya qilib qaror chiqarish hamda shaxsga bu qarorni taqdim etib, ayblovning mohiyatini, ayblanuvchining huquq va majburiyatlarini tushuntirish. Agar shaxsga javobgarlikka tortilayotganligi to‘g‘risidagi qaror u yoki bu sababdan taqdim etilmagan bo‘lsa, shaxsni javobgarlikka tortish amalga oshmagan deb tan olish kerak. Keyingi qarorning bekor qilinishi, ishning to‘xtatilishi, aybsizlik haqida hukm chiqarilishi va hokazolar sharhlanayotgan jinoyatning tarkibi mavjudligiga ta‘sir etmaydi, biroq jinoyat oqibatlari darajasi moddaning sanktsiyasi chegaralarida jazoni tayinlashda hisobga olinishi mumkin.

Subyektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri qasd bilan sodir etilishi mumkin, bu to‘g‘risida surishtiruvchi, tergovchi va prokuror o‘z harakatlari boshidan g‘ayriqonuniyligini bilishi, ya‘ni jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning aybi yo‘qligini bilgan bo‘lishi kerak. Shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘lgan hodisaning yo‘qligi yoki qilmishda jinoyat tarkibi mavjud emasligi, jinoyat boshqa shaxs tomonidan sodir etilganligi, javobgarlikka tortilgan shaxsning aybi isbotlanmaganligi bu yerda ahamiyat kasb etmaydi.

Jinoyatni sodir etish motivlari turlicha bo‘lishi mumkin: shuhratparastlik niyatida, bunda shaxs o‘zining layoqati pastligi, ishning obyekt murakkabligi yoki haqiqiy aybdorni topishga harakat qilish bilan o‘zini qiynashni xohlamaganligi uchun aybsizligini bilgan shaxsni javobgarlikka tortadi; shaxsiy motivlar yoki o‘ch olish motivi, bunda shaxs jabrlanuvchi bilan yomon munosabatlarda bo‘lgani uchun, u bilan hisob-kitob qiladi; g‘arazli niyatda, masalan, javobgarlikka tortilgan shaxsning mulkiga egalik qilish, kvartirasiga ega bo‘lish, jinoyat ishini tugatganligi uchun kelajakda shaxsdan pora olish va hokazolar. Ushbu jinoyat tarkibi, shuningdek, xizmat manfaatlarini noto‘g‘ri tushungan holda aybsiz kishini

javobgarlikka tortganda ham mavjuddir. Jinoyat motivlari kvalifikatsiya uchun ahamiyatga ega emas, lekin bularni jazo tayinlashda e'tiborga olish kerak.

Jinoyatning **subyekti** faqat qonun bilan shaxsni ayblanuvchi sifatida javobgarlikka tortish huquqi berilgan shaxslar — taalluqliligidan qat'i nazar surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror bo'lishi mumkin.

JKning 230-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni dastlabki tergov qilish vaqtida barcha shu jinoiy qilmishlarda ishtirok etgan shaxslar javobgarlikka tortilayotganligiga ahamiyat berish kerak.

JK 230-moddasi 2-qismida aybsiz kishini og'ir yoki o'ta og'ir ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganlikda ayblab, jinoiy javobgarlikka tortganlik uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

Aybsiz kishini javobgarlikka tortish boshqa og'irroq jinoyatni sodir etish bilan, masalan, pora olish (JK 210-moddasi), qiynoqlar va boshqa dahshatli, g'ayriinsoniy, qadr-qimmatni kamsituvchi harakatlar va jazolarni qo'llash (JK 235-moddasi) va hokazolar bilan birga sodir etilganda, javobgarlik jinoyatlar majmui bo'yicha belgilanadi.

Bunday jinoyatning xavfi yuqoriroq ekanligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi, chunki u jabrlanuvchiga qamoqqa olinish, uzoqroq vaqtga ozodlikdan mahrum qilinish, qattiqroq rejimli koloniyaga yuborilish kabi nisbatan o'qirroq oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda og'ir jazo sifatida besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi (JK 15-moddasi).

2-§. Dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) (JK 230¹-moddasi)

Sharhlanayotgan jinoyatning **jamiyat uchun xavfliligi** shundaki, soxta (sun'iy) dalillar mavjudligida sud tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini asossiz poymol qilinishi bilan bog'liq noto'g'ri hukm chiqarishiga olib kelishi bilan ifodalanadi.

Sudning normal faoliyati, odil sudlovning manfaatlari, prokuratura, dastlabki tergov va surishtiruv organlarining normal faoliyatini ta'minlash bo'yicha munosabatlar ko'rib chiqilayotgan jinoyatning **bevosita asosiy obykti** hisoblanadi. Jinoyatning bevosita fakultativ obykti – fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlaridir.

Obyektiv tomondan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 230¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat, tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishlari materiallari bo'yicha dalillarni to'plash, ularni tekshirish va baholashda g'arazli yoki boshqa past niyatlarda, hujjatlar yoki predmetlarga bilan turib yolg'on ma'lumotlar yoki tuzatishlar kiritishda ifodalangan, isbotlashni amalga oshiruvchi yoki isbotlashda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar tomonidan dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish)dan iborat.

Soxtalashtirish (qalbakilashtirish) – ashyoviy yoki yozma dalillar hisoblangan haqiqiy ma'lumotlarning buzilishini anglatadi.

Soxtalashtirish (qalbakilashtirish)ni sodir etish usullari: bu dalilni yo'q qilish; hujjatga avvaldan bila turib yolg'on ma'lumotlarni kiritish; to'liq qalbakilashtirilgan dalilni tuzish; o'tkazilmagan so'roq bayonnomasini tuzish; ekspert xulosasini qalbakilashtirish; mazmuniga ko'ra yolg'on yozma dalillarni tuzish; bayonnomalar yoki boshqa hujjatlarga yolg'on ma'lumotlarni kiritish; ularni qalbakilashtirish, tuzatish kiritish, boshqa sana bilan belgilash; yolg'on dalillarni yasash (ayblanuvchining xonadoniga, mashinasiga, kiyimiga va boshqalarga giyohvandlik moddalarini, patronlarni tashlab qo'yish va boshqa ko'plab usullar).

O'zbekiston Respublikasi Jinoiy-protsessual kodeksining 81-moddasi dalillarning quyidagi turlarini belgilaydi: jinoyat ishi bo'yicha haqiqiy ma'lumotlar dalillar hisoblanadi, ularning asosida surishtiruv, tergov va sud organi qonun bilan belgilangan tartibda jamiyat uchun xavfli qilmishning mavjudligini, bu qilmishni sodir etgan shaxsning aybliligini, va ish bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilish uchun ahamiyatli boshqa holatlarni aniqlaydi.

Bu ma'lumotlar guvoh, jabrlanuvchi, gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ko'rsatmalari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar,

ovozli, videoyozuv va kino-fototasvirlar materiallari, tergov va sud harakatlari bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi.

Isbotlash ishning qonuniy, asoslangan va adolatli hal etilishi uchun ahamiyatga molik holatlari haqidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iborat (O'R JPKning 85-m).

Isbotlashni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud amalga oshiradi.

Gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, himoyachi, jamoat ayblovchisi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar va ularning vakillari isbotlashda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, xolislar, shuningdek mazkur Kodeksda nazarda tutilgan tartibda dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bilan bog'liq huquqlarni amalga oshiruvchi va majburiyatlarni bajaruvchi boshqa fuqarolar va mansabdor shaxslar isbotlashda ishtirok etishga jalb qilinadilar (O'zR JPKning 86-m).

Hujjatlarga bila turib yolg'on ma'lumotlar kiritish va boshqa buzilishlar (O'R JKning 209-moddasining sharhiga qarang).

Dalillar tergov va sud harakatlari: gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi, ekspertlarni so'roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko'rsatish; hodisalarni voqea joyida tekshirish; olib qo'yish; tintuv o'tkazish; guvohlantirish; murdani eksqumatsiya qilish; eksperimentlar; ekspertiza tadqiqotlari uchun namunalar olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan predmet va hujjatlarni qabul qilish; telefonlar va shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlari orqali boshqa so'zlashuv qurilmalaridagi so'zlashmalarni eshitish yo'li bilan to'planadi (O'zR JPKning 87-m).

Dalillarni to'plash, tekshirish va baholash jinoyat jarayoni ilmida isbotlash jarayonining bosqichlari hisoblanadi.

Dalillarni to'plash – vakolatli shaxslar tomonidan qonun bilan o'rnatilgan tartibda dalillarni aniqlash, talab qilib olish, olib qo'yish va mustahkamlashga yo'naltirilgan tergov va boshqa protsessual harakatlarini amalga oshirishida ifodalanadi. Qonunchilikdagi yangiliklarga asosan, isbotlashni amalga oshiruvchi shaxslardan tashqari, himoya tomonining ishtirokchisi sifatida advokatga ham dalillarni to'plash huquqi

berilganligini ta'kidlash joiz. Shunday qilib, dalillarni to'plash sodir bo'lgan hodisaning mavjud izlarini obyektiv qabul qilinishi va ularning protsessual qayd qilinishiga yo'naltirilgan harakatlar tizimidan iborat.

Tergovga qadar tekshiruv hujjatlari– jinoyat haqida kelib tushgan ariza yoki xabar bo'yicha jinoyat alomatlari mavjudligini tekshirish yuzasidan harakatlarni amalga oshirish davomida to'planadigan hujjatlar bo'lib, ularga tekshirilayotgan hodisaga aloqador shaxslarning tushuntirish xatlari, shaxsni ushlab bayonnomasi, shaxsiy tintuv va olib qo'yish, voqea joyini ko'zdan kechirish, ekspertiza tayinlash qarori va ekspert xulosasi, taftish tayinlash qarori va uning xulosasi, xizmat tekshiruvi hujjatlari, shuningdek boshqa qo'shimcha hujjatlar kiradi.

Faqatgina sinchkovlik bilan, to'liq, har tomonlama va xolisona tekshirilgan dalillargina ish bo'yicha qaror asosiga qo'yilishi mumkin.

Dalillarni tekshirish – jinoyatlar haqidagi ma'lumotlarning haqqoniyligini va manbaning yaxshi sifatligini tergov va protsessual harakatlarni amalga oshirish orqali olishdan, shuningdek olingan dalillar va yangi holatlarni taqqoslashdan iborat bo'lgan isbotlash jarayonining mustaqil bosqichi hisoblanadi. U protsessning barcha bosqichlaridagi isbotlash davomida amalga oshirilishi mumkin.

Tekshiruv tadqiq qilinayotgan dalillar tasdiqlanishi yoki inkor etilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha dalillarning to'planishidan iborat (O'zR JPKning 94-m).

Dalillarni baholash – bu isbotlashning mazmuni va shaklini tahlil qilish va umumlashtirishdan, hamda har bir dalilning tegishliligi, maqbulligi, haqqoniyligi va protsessual qaror qabul qilish uchun dalillar majmuasining yetarliligi haqidagi yakuniy xulosadan iborat bo'lgan tafakkurga oid faoliyat. Isbotlashni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar dalillarni qonun va huquqiy ongga tayangan holda, ishning barcha holatlarini sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'liq va obyektiv tadqiq qilishga asoslangan ichki e'tiqodga ko'ra baholaydilar.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud dalillarni qonun va huquqiy ongga tayangan holda, ishning barcha holatlarini sinchkovlik bilan, har

tomonlama, to‘liq va obyektiv tadqiq qilishga asoslangan ichki e‘tiqodgaga ko‘ra baholaydilar.

Soxtalashtirish (qalbakilashtirish) tegishli “dalillar” ish hujjatlariga qo‘shish uchun taqdim qilinganida **tugallangan** jinoyat deb e‘tirof etiladi. Bu “dalil”ning natijada nomaqbul ekanligining e‘tirof etilishi sodir etilgan qilmishning tugallangan jinoyat kabi malakalanishiga ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Ya‘ni, tergovchi, prokuror yoki surishtiruvni amalga oshirayotgan shaxs tomonidan dalillarning qalbakilashtirilishi vaqtidan jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Aybdor u yoki bu usulda dalillarni buzayotganini anglaydi va bu dalillarni qo‘llashni istaydi.

Maqsad va niyat g‘arazli yoki boshqa past niyatlarda bo‘lishi mumkin (ishning borishidan shaxsiy manfaatdorlik, hasad, xizmat manfaatlarining yolg‘on tushunchasi, qasos, yaqinlari, qarindoshlarga yordam berish istagi, aybsizni hukm qilish, aybdorni javobgarlikdan ozod qilish va hokazolar).

Jinoyat subyekti surishtiruvni amalga oshiruvchi yoki isbotlashga jalb qilingan shaxslar bo‘lishlari mumkin (O‘zR JPKning 86-m.).

Isbotlashni amalga oshiruvchi shaxslar – isbotlashning isbotlash vazifasiga ishtirokchilarning, ya‘ni tergov va boshqa protsessual harakatlarni o‘tkazish yo‘li bilan isbotlashni amalga oshiruvchi shaxslarning doirasi. Sud, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi O‘zbekiston Respublikasining jinoiy-protsessual qonunchiligi bo‘yicha isbotlashni amalga oshiruvchi shaxslar hisoblanadi.

Isbotlashda ishtirok etuvchi shaxslar – ishning hal etilishidan shaxsiy manfaatdor va shaxsiy manfaatdor bo‘lmagan va dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashda qo‘shimcha vazifalarni amalga oshiruvchi, shuningdek o‘zlarining lavozim, kasbiy vazifalari yoki fuqarolik burchlarini vijdonan bajarishga mas‘ul shaxslardan iborat ishtirokchilar doirasi. Gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, himoyachi, jamoat ayblovchisi, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari O‘zbekiston Respublikasining jinoiy-protsessual qonunchiligi bo‘yicha isbotlashni amalga oshirishda ishtirok etish huquqiga ega, guvohlar, ekspertlar,

mutaxassislar, tarjimonlar, xolislar, shuningdek mazkur Kodeksda nazarda tutilgan tartibda dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bilan bog'liq huquqlarni amalga oshiruvchi va majburiyatlarni bajaruvchi boshqa fuqarolar va mansabdor shaxslar esa isbotlashda ishtirok etishga jalb qilinuvchi shaxslar hisoblanadilar.

Bir guruh shaxslar bilan oldindan til biriktirib deyilganda surishtiruvni amalga oshirayotgan yoki isbotlashda ishtirok etishga jalb qilingan ikki yoki undan ortiq shaxslarning soxtalashtirish (qalbakilashtirish)da ishtirok etishi tushuniladi.

Guruh ishtirokchilarining faqat biri JKning 230¹-moddasidagi subyekt tushunchasiga tushib, boshqasi (boshqalari) tushmagan holatlarda soxtalashtirish (qalbakilashtirish)da ishtirokchilik yuzaga keladi.

Ushlash – jinoyat sodir etganlikda gumonlanuvchi (ayblanuvchi) shaxsning jinoiy faoliyatini oldini olish, qochishi, dalillarni yashirishi yoki yo'q qilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, jamiyatdan qisqa muddatli izolyatsiya qilinishidan iborat protsessual majburlov chorasi. Bu chora tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergovni amalga oshirayotgan organlar, shuningdek jinoiy-protsessual qonunchilikda nazarda tutilgan ishga layoqatli har qanday shaxs tomonidan qo'llanilishi mumkin. Ushlash jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar va jinoyat ishi qo'zg'atilganidan so'ng, ya'ni surishtiruv, dastlabki tergov va ish bo'yicha sud muhokamasi davrida ham o'tkazilishi mumkin (O'R JPKning 226-moddasiga qarang).

Qamoqqa olish – jinoyat ishi bo'yicha ushlangan gumonlanuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qo'llaniladigan, uning jinoyat ishi sudga ko'rilguniga va sud hukm qilguniga qadar vaqtincha izolyatsiya qilinishida ifodalangan ehtiyot chorasi. Qamoqqa olish ehtiyot chorasi sifatida sud tomonidan surishtiruvchi yoki tergovchining (prokuror bilan kelishgan holda) yoki sudga qadar bosqichda prokurorning iltimosnomasiga ko'ra tayinlanadi, ishning sud bosqichlarida mazmunan ko'rib chiqilishida sud (sudya) qamoqqa olish ehtiyot chorasining qo'llanilishi haqidagi masalani mustaqil hal etadi (O'R JPKning 245-moddasiga qarang).

Og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar tushunchasi (O‘R JKning 15-moddasi va unga izohlarga qarang).

Dalillarning og‘ir oqibatlarga olib kelgan soxtalashtirilishi (qalbakilashtirilishi) deganda, qamoqda noqonuniy saqlash, uzoq muddat qamoqda saqlash, shaxsning asossiz oqlanishi, noqonuniy sudlangan shaxsning o‘z joniga qasd qilishi, aybdor bo‘lsada, haqiqiy dalillarning baholanishida yengilroq jazoga hukm qilinishi lozim bo‘lib, juda qattiq jazo chorasining qo‘llanilishi va boshqalarni tushunish lozim.

3-§. Tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirish (qalbakilashtirish) (JK 230²-moddasi)

Soxtalashtirish (qalbakilashtirish) tushunchasini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 230¹-moddasining sharhlariga qarang.

Tezkor-qidiruv faoliyat – O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda “Tezkor-qidiruv faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni bilan belgilangan maxsus vakolatli davlat organlarining tezkor bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turi.

Dastlabki tergov va surishtiruv organlarining normal faoliyati, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha munosabatlar **ko‘rib chiqilayotgan jinoyatningobyekti** hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazilishiga vakolatli shaxslar tomonidan, shaxsning jinoyatni sodir etishga aloqador emasligini bila turib, uni jinoiy ta‘qib qilish maqsadida yoxud shaxsning or-nomusi, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘sigacha zarar yetkazish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyat natijalarining soxtalashtirilishi (qalbakilashtirilishi)dan iborat.

“Tezkor-qidiruv faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunidan kelib chiqqan holda, tezkor-qidiruv faoliyat yordamida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari, jismoniy va yuridik shaxslar mulkchiligi himoyasining, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligining ta‘minlanishi; jinoyatlarni oldini olish, aniqlash, jinoyatlarni ochish, shuningdek, jinoyatlarga tayyorgarlik ko‘rish va sodir etishga aloqador shaxslarni aniqlash amalga oshiriladi;

jinoiy jazodan bo‘yin tovlash maqsadida surishtiruv, tergov va suddan yashirib yurgan shaxslarning qidiruvini amalga oshiriladi (“Tezkor-qidiruv faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasiga qarang).

Tezkor-qidiruv faoliyati turlari – so‘rov, ma’lumotlar to‘plash; qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yig‘ish; tekshirish uchun xarid qilish; nazorat ostida olish; predmetlarni va hujjatlarni tekshirish; tezkor kuzatuv; shaxsning aynanligini aniqlash; turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini va transport vositalarini tekshirish; pochta, kurerlik jo‘natmalarini, telegraf xabarlarini va boshqa xabarlarni nazorat qilish; telefonlar va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitish; aloqaning texnik kanallaridan axborot olish; tezkor kiritish; nazorat ostida yetkazib berish; niqoblangan operatsiya; tezkor eksperiment–bu ro‘yxat mukammal hisoblanadi.

Tezkor-qidiruv faoliyat natijalarining soxtalashtirilishi (qalbakilashtirilishi) bilan **jinoiyat tugallanadi**. Soxtalashtirish uchun dalillar e’tirof etilganligi, ularning ish yakuniga ta’siri yoki boshqa holatlari ahamiyatga ega emas.

Subyektiv tomondan jinoiyat to‘g‘ri g‘araz niyatda sodir etiladi, maqsad:

1) jinoiyat sodir etishga aloqador emasligi ma’lum bo‘lgan shaxsni jinoiy ta’qib qilish;

2) shaxsning or-nomusi, qadr-qimmat va ishchanlik obro‘sigacha zarar yetkazish.

Or-nomus, qadr-qimmat va ishchanlik obro‘si – qonun bilan himoyalangan ijtimoiy farovonlik bo‘lib, uning buzilishi noqulay taassurotni yuzaga keltirish orqali harakat erkinligi va jamiyatdagi o‘rniga jiddiy ruhiy zarar yetkazishdan iborat.

Or-nomus – jamiyat fikri tomonidan shaxsga nisbatan ijtimoiy ahamiyatga molik ijobiy baho.

Qadr-qimmat – bu shaxs tomonidan axloqiy, professional va boshqa jihatlarning baholanishi. Shunday qilib, or-nomus fuqaroning qadr-qimmatini o‘lchami kabi hisoblanadi.

Ishchanlik obro‘si – jamoat ongida shaxsning ishchanlik jihatlarini ifodalash bilan kuzatiladigan baho. Ishchanlik jihatlari – bu shu fuqaro tomonidan jamoat ehtiyojlarini, yoki bu faoliyatda samarali ishtirokini qanoatlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatni ta‘minlaydi.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishga vakolatli shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, davlat bojxona qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi soliq, valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish va jinoiy daromadlarni legalizatsiya qilish Departamenti **jinoyat subyekt**i hisoblanadi.

Boshqa davlat organlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tezkor-qidiruv faoliyatni amalga oshirilishi taqiqlanadi.

Ma‘lumotlarni xufyona olish uchun mo‘ljallangan **maxsus texnik vositalar** deganda, video, audio texnikalar, kino, foto apparaturalar va boshqa texnik vositalarni tushunish zarur (barcha turdagi telefonlar, eshitish uchun qurilmalar va b.).

4-§. Adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish (JK 231-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekt**i odil sudlov organlarining normal faoliyati, sud hokimiyatining obro‘yi, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlari, shuningdek, korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning manfaatlari hisoblanadi.

Jinoyatning **predmet**i sudya tomonidan qabul qilinadigan huquqiy hujjatlar: hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror hisoblanadi.

NOTA BENE !

Hukm — sudlanuvchining aybdor yoki aybdor emasligi masalasi bo‘yicha va unga jinoiy jazoni qo‘llash yoki qo‘llamaslik to‘g‘risidagi birinchi instansiya yoki apellatsiya instansiyasi sudi tomonidan chiqarilgan hujjatdir.

O‘zbekiston Respublikasida hukm O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi va u qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishi shart (JPK 454–455-

moddalariga qarang). Sud oqlov (sudlanuvchining aybsizligini belgilovchi) yoki ayblov (sudlanuvchining aybdorligini belgilovchi) hukmi chiqarishi mumkin.

NOTA BENE !

Hal qiluv qarori — birinchi instansiya fuqarolik va xo‘jalik sudining fuqarolik ishini yoki xo‘jalik nizosini bevosita hal qiladigan hujjatidir. Xal qiluv qarori ham O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilib, qonuniy va asoslangan bo‘lishi kerak.

Protsessual qonunchilikka binoan (jinoyat, fuqarolik, xo‘jalik) **ajrim** deganda, birinchi instansiya sudi tomonidan hukm yoki hal qiluv qaroridan tashqari chiqarilgan istalgan sud akti tushuniladi.

Masalan, ehtiyot chorasini qo‘llash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi ajrim, ishni tugatish to‘g‘risidagi ajrim, ishni yopiq majlisda ko‘rish to‘g‘risida ajrim, ishni ko‘rib chiqish uchun boshqa sudga yuborish to‘g‘risidagi ajrim, ishni qo‘shimcha tergovga yuborish to‘g‘risidagi ajrim, xususiy ajrim va hokazolar.

Ajrimlarga, shuningdek, ikkinchi instansiya sudlarining barcha qarorlari hamda yuqori pog‘ona (sudlar rayosatidan tashqari) sudlar tomonidan qonuniy kuchga kirmagan (apellatsiya instansiyasida ish ko‘rishda) yoxud qonuniy kuchga kirgan (kassatsiya, nazorat yoki yangidan ochilgan holatlar munosabati bilan aytib o‘tilgan sud hujjatlarini qayta ko‘rish) hukm, ajrim va qarorlarni qayta ko‘rish paytida qabul qilingan qarorlar kiradi.

NOTA BENE !

Qaror — bu qonuniy kuchga kirgan sud hukmlari, ajrimlari va qarorlarini qayta ko‘rib chiqish natijasida sud rayosatining qabul qilgan qarori hamda sud hukmidan tashqari sudyaning yakka tartibda qabul qilgan har qanday qarori (masalan, ish yuritishni to‘xtatish to‘g‘risidagi qaror).

Bundan tashqari, ma'muriy huquqbuzarlik masalasi yuzasidan qabul qilingan sud qarori ham qarorlar toifasiga kiradi.

Jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi — hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorning (sud hujjatining) adolatsizligi.

Hukm yoki boshqa sud hujjatlari agar u qonunda belgilangan tartib va shartlarga asoslanib qabul qilinganda hamda uning barcha qismlari qonunning barcha talablariga javob berganda **adolatli** yoki **qonuniy** deb topiladi.

Sud xulosasi — bu sodir etilgan jinoyatning barcha holatlarini, aybdor shaxsi, jinoyatning tavsifi va adolatli jazo tayinlashni belgilab beruvchi jinoyat ishida mavjud bo'lgan dalillarga sudya tomonidan berilgan subyektiv baholar natijasidir.

Shuning uchun, sud hujjatlari qonuniylik va asoslanganlik belgilarini talab qiladi. Xukm, qaror yoki boshqa sud hujjatlari qonuniylik, adolat va asoslanganlik talablariga javob bersa adolatli hisoblanadi. Ushbu belgilardan loqal bittasiga mos kelmaydigan sud hujjati adolatsiz deb topiladi.

NOTA BENE !

Adolatsiz sud hujjati deb, ishning aniqlangan holatlariga zid ravishda yoki moddiy yoxud protsessual qonunni jiddiy buzgan holda qabul qilingan sud hujjati tushuniladi. Adolatsiz sud hujjati jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual hamda xo'jalik-protsessual qonunga asosan bekor qilinishi lozim.

Jinoyat ishlari bo'yicha qabul qilingan adolatsiz hukmlarning eng ko'p uchraydigan turlariga quyidagilar kiradi: ayblovning isbot etilmaganligi (aybsiz shaxsning sudlanganligi); aybdorning aybi isbot etilganda uni oqlab chiqarish; jinoyatni og'irlashtirish yoki yengillashtirish tarafiga oldindan noto'g'ri kvalifikatsiya qilish; jinoyatni noto'g'ri kvalifikatsiya qilish oqibatida yoki mustaqil tarzda asossiz juda og'ir yoki juda yengil jazo tayinlash va hokazo.

Sanab o'tilgan adolatsiz hukm turlari moddiy qonunning jiddiy buzilishi

bilan tavsiflanadi.

Shuningdek, jinoyat-protsessual qonun-qoidalarining jiddiy buzilishi (sudlanuvchining himoyaga bo‘lgan huquqining buzilishi, himoyachi bilan ta’minlamaslik, oxirgi so‘z berilmasligi va boshqa holatlar) oqibatida ham **hukm adolatsiz hisoblanadi.**

Fuqarolik ishi yoki xo‘jalik nizosi bo‘yicha sudning hal qiluv qarori da’vo asossiz qanoatlantirilganda, fuqarolik yoxud xo‘jalik ishi boshqacha tarzda noto‘g‘ri hal etilganda, shuningdek, fuqarolik-protsessual qonunchilik jiddiy ravishda buzilganda (masalan, tomonlarning teng huquqlilik prinsipi buzilganda) **adolatsiz deb topiladi.**

Ish ko‘rish jarayonida yuzaga keluvchi turli xil masalalar bo‘yicha birinchi instansiya sudining ajrimi ham adolatsiz bo‘lishi mumkin, masalan, ehtiyot chorasini o‘zgartirish, ishni to‘xtatish, kvalifikatsiyani o‘zgartirish, dalillarni ta’minlash choralari o‘zgartirish haqida va hokazo.

Apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudlarining ajrimi va qarorlari, masalan, ular tomonidan qonuniy hukm va qarorlar asossiz bekor qilinsa yoki o‘zgartirilsa yoxud aksincha, noqonuniy sud hujjatlari kuchida qoldirilganda adolatsizdir. Ma’muriy ishlar bo‘yicha sud qarori, masalan, sud vakolatlari doirasidan tashqari yo‘sinda chiqarilsa yoki ish yuritish tili haqidagi qoidalar buzilgan taqdirda, adolatsiz deb topiladi.

Sud hujjatlarining adolatsizligi ishning mohiyatiga ko‘ra hal qilishga ta’sir etuvchi moddiy yoki protsessual qonunning miqdoriy buzilishi bilan izohlanadi. Ishni mazmunan to‘g‘ri hal qilishga ta’sir etmaydigan hamda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini va jamiyat manfaatlarini buzmaydigan kam ahamiyatli (rasmiy) buzilishlar jinoiy qilmish deb tan olinishi mumkin emas.

Jinoyat aktiv harakatlar orqali sodir etiladi. Sanab o‘tilgan huquqni qo‘llashga daxldor bo‘lgan hujjatlar sudya (sudyalar, shu jumladan ularning toifasiga kiradigan maslahatchilari) tomonidan tayyorlanadi. Bunday aktning sudya (sudyalar) tomonidan imzolanishi paytida jinoyat **tugallangan** hisoblanadi. Ular imzolangunga qadar faqat ana shu jinoyatni sodir etishga suiqasd qilish haqida gapirish mumkin. Jinoyatning

tugallanganligini aniqlashda adolatsiz hujjat qonuniy kuchga kirganligi fakti ahamiyatga ega emas.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd, ya'ni aybdor adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qabul qilayotganida, ana shu qarorning adolatsiz ekanligini oldindan anglaganligi va buni xohlaganligi bilan tavsiflanadi.

JK 231-moddasi bo'yicha javobgarlik faqat **adolatsizligi oldindan ayon bo'lgan** sud hujjatlarini chiqarganlik uchun belgilanadi. Adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorning ehtiyotsizlik oqibatida qabul qilinishi ushbu modda bo'yicha javobgarlikni istisno etadi, lekin tegishli holatlar mavjudligida qilmish JK 207-moddasi bo'yicha mansabga sovuqqonlik bilan qarash deb kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Ko'rib chiqilayotgan jinoyatni «oldindan ayon bo'lishi» belgisi bo'yicha intizomiy qoida buzishdan farqlamoq lozim.

Jinoyatni sodir etish **motivlari** (G'arazli, shaxsiy adovat yoki do'stona munosabatlar, noto'g'ri tushunilgan xizmat manfaatlari, shuhratparastlik va hokazolar) jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi, lekin javobgarlikni individuallashtirishda hisobga olinishi shart.

Adolatsiz hukm chiqarganlik uchun pora olish ushbu jinoyat tarkibiga kirmaydi va pora olganlik uchun jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak (JK 210-moddasi va JK 231-moddasi).

Jinoyatning **subyekti** muayyan ish yuzasidan sudyaning odil sudlovni amalga oshirish huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan shaxslardir. Sudyalar, shuningdek, jinoyat protsessidagi xalq maslahatchilari bu shaxslar sifatida gavdalanadi.

Jinoyatning maxsus subyekti yosh chegaralariga ega. Jinoyat subyektlari 18 yoshga to'lgan (harbiy sudlar xalq maslahatchilari uchun) va 25 yoshga to'lgan (umumiy yurisdiksiya sudlari xalq maslahatchilari, shuningdek, barcha sudlarning sudyalari uchun) shaxslar bo'lishi mumkin.

Adolatsiz hukm aktining chiqarilishi odam o'limiga yoki boshqa og'ir oqibatlarga olib kelgan hollar bilan bog'liq harakatlar **JK 231-moddasi 2-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi. Odam o'limi adolatsiz sud hujjatining chiqarilishi bilan bevosita (masalan, aybsiz sudlanganga o'lim jazosi

tayinlash) yoxud ushbu holat bilan bilvosita bog‘liq bo‘lishi mumkin (masalan, o‘zini o‘zi o‘ldirish natijasida).

Boshqa og‘ir oqibatlarga: shaxsni og‘ir, o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etishda ayblash, ruhiy kasalliklarni keltirib chiqarish, bir necha shaxsning noqonuniy hukm qilinishi, aybsiz sudlangan shaxsning oilasi uchun og‘ir oqibatlarga olib kelish, ko‘p miqdorda zarar yetkazish va aytib o‘tilganlar bilan teng o‘qirlikdagi boshqa oqibatlarni kiritish mumkin.

4-§. Sud hujjatini ijro etmaslik (JK 232-moddasi)

Jinoyat **obyekti** sudning va sud hujjatlarini ijro etish bilan shug‘ullanadigan davlat organlarining normal faoliyatini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan sharhlanayotgan jinoyat muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o‘zini tiyish majburiyatini yuklovchi sud hujjatini bajarishdan bo‘yin tovlashni ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin davom ettirish, shuningdek, sud hujjatining ijro etilishiga to‘sqinlik qilishda ifodalanadi.

NOTA BENE !

Sud hujjatini bajarishdan bo‘yin tovlash deganda, ijro uchun kelib tushgan sud hujjatini amalga oshirish bevosita funktsiyalariga kiradigan shaxsning harakatsizligi, tegishli sud hujjatlarida ifoda etilgan ko‘rsatma, talab yoki qoidalarga rioya etmaslik tushuniladi. Xususan, qonunning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmasiga muvofiq, sud hujjati ijrochini muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o‘zini tiyish majburiyatini yuklashi mumkin.

Mazkur jinoyat obyektiv tomonining belgilarini aniqlash sud hujjatining protsessual shakli (hukm, hal qiluv qarori, ajrim, qaror) va mazmuniga, uning predmetiga, ijro muddati va boshqalariga bog‘liq bo‘ladi.

Xususan, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni tayinlash to‘g‘risidagi sud hukmiga nisbatan sud hukmi bilan mazkur shaxs tomonidan amalga oshirilishi yoki egallanishi taqiqlangan faoliyatni

amalga oshirish yoki mansabni egallash bilan bog‘liq ishga shaxsni qabul qilish bo‘yicha harakatlar yoxud bunday hukm chiqarilgan shaxsni ishdan bo‘shatmaslik mazkur jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etadi.

Yoki, masalan, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning qarorini ijro etmaslikda buxgalter ijro varaqasini olganida javobgarning ish haqidagi tegishli ajratmalarni, chegirmalarni amalga oshirmaydi.

Qilmishni JKning 232-moddasiga ko‘ra kvalifikatsiya qilishda sud hujjatini qonuniylik, asoslanganlik va adolatlilik tamoyillariga javob berishi, mazmuni aniq, tushunarli bo‘lishi va tayinlanish maqsadiga alohida e‘tibor berish kerak. Mazkur talablarga javob bermaydigan sud qarorini sud tomonidan takroran talab qilingan taqdirda ham bajarmaslik bilan bog‘liq harakatlarni qasddan sud hujjatini bajarmaslik deb topib bo‘lmaydi.

Muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o‘zini tiyish majburiyatini yuklovchi sud hujjatini bajarishdan bo‘yin tovlash shaxsga ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin davom ettirilgan taqdirdagina sharhlanayotgan modda bo‘yicha javobgarlikni vujudga keltiradi.

NOTA BENE !

Sud hujjatining ijro etilishiga to‘sqinlik qilish deganda, aybdor tomonidan tegishli organlar yoki mansabdor shaxslarga qarshi harakat qilishini, sud hujjatini ijro qilishga to‘siqlar yaratishini, sud hujjatining ijro etilishini istisno qiladigan harakatlarni bajarishini (hujjatlarni nobud qilish, ularga shikast yetkazish, ularni buzish, almashtirish) anglatadi. Sud hujjatini bajarishdan bo‘yin tovlashdan farqli ularoq, uning ijro etilishiga to‘sqinlik qilish xulq-atvorning faol shaklini nazarda tutadi.

Agar sud hujjatini bajarishga to‘sqinlik qilish sud hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi, qarorini bajarayotgan shaxsga nisbatan zo‘rluk ishlatish yoki shunday zo‘rluk ishlatish bilan tahdid qilish orqali ifodalangan harakatlarda namoyon bo‘lsa, bunday hollarda tegishli jinoyat tarkiblari bilan jinoyatlar jami tariqasida qilmishni kvalifikatsiya qilish lozim.

Sud hal qiluv qarorini bajarmaslik Jinoyat kodeksida formal tarkibli jinoyat sifatida shakllantirilgan.

Sudning tegishli hujjatini bajarish uchun qonunda ko'rsatilgan muddat tugagan yoxud uning bajarilishiga to'sqinlik qilishga qaratilgan harakat sodir etilgan paytdan e'tiboran sharhlanayotgan jinoyat **tugallangan** deb hisoblanadi. Bunda qandaydir oqibatlarining kelib chiqishi talab etilmaydi, biroq bular sud tomonidan e'tiborga olinishi mumkin.

JK 232-moddasida ko'rsatilgan jinoyat **subyektiv tomondan to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor sud hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi, qarorini bajarmayotganligini yoxud bajarishga to'sqinlik qilayotganligini anglaydi va bu harakatlarni amalga oshirishni xohlaydi.

Bu holatda **motiv** ahamiyatga ega bo'lmaydi, bu g'arazli niyat, shaxsiy mafaatdorlik, noto'g'ri tushunilgan xizmat manfaatlari, birodarlik tuyg'usi va hokazolar bo'lishi mumkin.

Jinoyat **subyektiv** JK 232-moddasi birinchi qismi bo'yicha 18 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar, ikkinchi qismi bo'yicha esa faqat mansabdor shaxslar — yuborilgan sud hujjatlarini bajarish vakolati doirasiga kiruvchi tashkilot, korxonalar, muassasalarning rahbarlari bo'lishi mumkin.

JKning **232-moddasi 2-qismida** mansabdor shaxs tomonidan sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlash yoxud sud hujjatining ijro etilishiga to'sqinlik qilish uchun javobgarlik belgilangan.

Mazkur jinoyat tarkibining subyektiv faqatgina mansabdor shaxslar, ya'ni kelib tushadigan sud hujjatlarini ijro etish vakolati doirasiga kiradigan tashkilot, korxonalar, muassasalarning rahbarlari bo'lishi mumkin.

Band solingan mulk bilan bog'liq bo'lgan sud hujjatini mansabdor shaxs tomonidan qasddan bajarilmasligi yoki bajarilishiga to'sqinlik qilish harakatlari JKning 233-moddasi bilan qamrab olinadi va bu harakatlarni qo'shimcha ravishda JKning 232-moddasi bilan tavsiflash talab qilinmaydi.

5-§. Band solingan mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etish (JK 233-moddasi)

Begona mol-mulkka nisbatan jinoyat sodir etilganda yoki mulkiy zarar yetkazilganda, shuningdek, jazoni ijro etishni yoki fuqaroviy da'voni

ta'minlash tartibida jarima ko'rinishidagi jazoni moddaning sanksiyasi o'z ichiga olgan barcha hollarda jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni davlat daromadiga o'tkazish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi JPK 290-moddasiga muvofiq, hukmning fuqaroviy da'voga va boshqa mulkiy undirishlarga doir qismining ijrosini ta'minlash uchun surishtiruvchi, tergovchi yoki sud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki fuqaroviy javobgarning yoxud jinoiy yo'l bilan topilgan mulki bo'lgan shaxslarning mol-mulkini xatlashi shart.

FPK 248- va 249-moddalariga (XPK 76-,77-moddalariga) muvofiq, sud yoki sudya ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga binoan yoki o'z tashabbusi bilan yoxud javobgarga tegishli bo'lgan va uning o'zida yoki boshqa shaxsda turgan mol-mulk yoxud pul mablag'larini xatlash, javobgarning muayyan harakatlarni amalga oshirishini taqiqlash tarzidagi da'voni ta'minlash choralarini ko'rishi mumkin.

Band solingan mol-mulk protsessual qonunchilik talablariga rioya qilgan holda xatlanadi. Bunda, xatlangan mol-mulk jinoyat ishi yuzasidan vakolatli shaxs ko'rsatmasiga muvofiq, saqlash uchun o'zini o'zi boshqarish organlari yoki boshqa organga yoxud shu mol-mulkning egasiga yoki oila a'zolaridan voyaga etgan shaxsga topshiriladi. Ushbu mol-mulkning saqlanishi uchun qonunda nazarda tutilgan javobgarlik tushuntiriladi va tilxat olinadi. Pul qo'yilmalarini xatlash to'g'risida qaror bankning tegishli bo'limiga yuboriladi, qaror olingandan so'ng bu qo'yilma bo'yicha bank operatsiyalari to'xtatiladi. Da'voni ta'minlash tartibidagi fuqarolik ishi bilan bog'liq mulkni xatlash yoki ro'yxatga olishda shunga o'xshash oqibatlar kelib chiqadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va fuqaroviy javobgar oilasining normal turmushini ta'minlash uchun zarur bo'lgan uy-joy, kvartira, uy anjomlari va jihozlari, kiyim va buyumlar xatlanmaydi.

Xatlash mulkdorga yoki mol-mulkning egasiga mol-mulkni tasarruf qilish, zarur hollarda esa undan foydalanish man etilganligini e'lon qilishdan yoxud mol-mulkni tortib olishdan va uni saqlab turish uchun boshqa shaxslarga topshirishdan iborat.

Agar shaxs tomonidan qamoqqa olish ko'rinishidagi ehtiyot chorasini

qo‘llash mumkin bo‘lmagan jinoyat sodir etilsa, tergov organi unga nisbatan yengilroq chora qo‘llashi mumkin, ulardan biri garov hisoblanadi.

Garov ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qarindoshlari, boshqa fuqarolar yoki yuridik shaxslar tomonidan dastlabki tergov organi yoki sud depozit hisobvarasiga topshiriladigan pul mablag‘i yoki qimmatbaho buyumlardan iborat. Garov tariqasida ko‘chmas mol-mulk ham qabul qilinishi mumkin. Shaxs tomonidan JPK 46-moddasida ko‘rsatilgan majburiyatlar bajarilmagan holda, garov sud ajrimi bilan davlat mulkiga aylantiriladi.

Jinoyatning **bevosita obyekti** sud idoralarining normal faoliyati hisoblanadi. Bu jinoyatning qo‘shimcha obyekti aybdordan xatlangan mol-mulk hisobidan qoplanishi mumkin bo‘lgan u yoki bu summa foydasiga undirilgan davlat (agar so‘z davlat daromadi yoki mulkiga aylantirish to‘g‘risida borsa) yoki boshqa mulkdorlar huquqlari bo‘ladi. Qonunga xilof ravishda o‘zlashtirish, sarf qilish, yashirish, nobud qilish yoki unga shikast yetkazishda obyekt sifatida sud va tergov organlarining nufuzi ham e‘tirof etilishi lozim.

Mazkur jinoyatning **predmeti** band solingan va garovga qoldirilgan mol-mulkdir.

Xatlangan mol-mulk — tasarruf qilinishi joriy protsessual qonunchilik asosida taqiqlab qo‘yilgan mulk.

NOTA BENE !

Xatlash mulkdorga yoki mol-mulkning egasiga mol-mulkni tasarruf qilish, zarur hollarda esa undan foydalanish man etilganligini e‘lon qilishdan yoxud mol-mulkni tortib olishdan va uni saqlab turish uchun boshqa shaxslarga topshirishdan iborat.

Garovga qo‘yilgan mol-mulk — bu surishtiruv va tergov organlariga ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonidan o‘ziga qo‘yilgan majburiyatlarni bajarishning moddiy kafolati sifatida beriladigan mol-mulk. Fuqarolik-huquqiy majburiyatlarni bajarish usuli sifatidagi garov garovga qo‘yilgan mol-mulkka kiritilmaydi.

NOTA BENE !

JPKning 249-moddasiga ko‘ra **garov** ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qarindoshlari, boshqa fuqarolar yoki yuridik shaxslar tomonidan dastlabki tergov organi yoki sudning depozit hisobvarag‘iga topshiriladigan pul mablag‘i yoki qimmatbaho buyumlardan iboratdir. Garov tariqasida ko‘chmas mulk ham qabul qilinishi mumkin.

Obyektiv tomondan jinoyat ro‘yxatga olingan yoki xatlangan yoxud garov predmeti bo‘lgan mol-mulkni o‘zlashtirish, sarf qilish, yashirish, nobud qilish yoki unga shikast yetkazish, xuddi shuningdek, bank yoki boshqa kredit tashkiloti xodimi tomonidan band solingan pul mablag‘lari (omonatlari) bilan bank operatsiyalarini amalga oshirishda ifodalanadi.

O‘zlashtirish deganda, mol-mulk saqlashga topshirilgan shaxs tomonidan xatlangan yoxud garovga qo‘yilgan mol-mulkning aybdor yoki uchinchi shaxs foydasiga o‘zlashtirilishini tushunish lozim.

Rastrata qilish deganda, mol-mulkning uni saqlashga topshirilgan shaxs tomonidan begonalashtirilishi tushuniladi.

Ro‘yxatga olingan yoki xatlangan mol-mulkni **yashirish** deganda, mol-mulkning saqlash uchun boshqa shaxslarga yoxud boshqa joyga joylashtirilishi, bu haqdagi xabarni vakolatli organlar (tergovchi yoki sudya)dan yashirilishi tushuniladi.

Nobud qilish deganda, mulkning to‘liq yaroqsiz, undan asl maqsadda foydalanish imkonini bermaydigan, shuningdek, uni ta‘mirlash yordamida ham oldingi holatiga keltirishning iloji bo‘lmagan holga keltirilishini tushunish lozim.

Mol-mulkka shikast yetkazish deganda, mol-mulkni qisman yaroqsiz holga keltirish tushuniladi.

Ancha miqdorda zarar yetkazilishi sharhlanayotgan ijtimoiy xavfli qilmish obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

Xatlangan yoki garovga qo‘yilgan mol-mulkka ko‘p miqdorda zarar yetkazishga sabab bo‘lgan o‘zlashtirish, rastrata qilish, yashirish, nobud qilish yoki unga shikast yetkazish harakati sodir etilgan paytdan boshlab jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor mol-mulkni o'zlashtirish, sarf qilish, yashirish, nobud qilish yoki unga shikast yetkazish bilan bog'liq harakatlarning noqonuniyligini anglaydi va ularni amalga oshirishni xohlaydi. Mol-mulk ehtiyotsizlik oqibatida nobud qilingan holatda aybdorni JK 172-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortish masalasini qo'yish mumkin.

Bu jinoyatning **motivi** g'arazgo'ylik, shaxsiy yoki boshqa manfaatdorlik va boshqa bo'lishi mumkin, ammo bu qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi.

Jinoyat **subyekti** mol-mulk saqlashga topshirilgan 16 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs, shuningdek, uning mulkdori, egasi yoki oila a'zolari va boshqalar bo'lishi mumkin.

JK 233-moddasi 2-qismi, aybdor yetkazilgan moddiy zararni uch baravar miqdorda qoplagan holda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum etish jazosini qo'llashni man qiluvchi rag'batlantiruvchi normani belgilab beradi.

6-§. Qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish (JK 234-moddasi)

Konstitutsiyaning 25-moddasiga muvofiq, «har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas»¹. Konstitutsiyaning ana

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган

shu moddasiga ko‘ra shaxsni ushlab turish tarzida ozodlikdan mahrum qilish, hibsga olish yoki hibsdan saqlash asoslari bo‘lganida va qonunda ko‘zda tutilgan hollardagina mumkin bo‘ladi.

Shuning uchun hibsga olish faqat qonunda belgilangan asoslarga muvofiq amalga oshirilib, qolgan vaziyatlarda bu qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish deb topiladi.

Jinoyatning **bevosita obyekti** surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud idoralarining normal faoliyati va obro‘yi, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini hisoblanadi.

JK 234-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan **jinoiyatning obyektiv tomoni** qonunga xilof ravishda ushlab turishda, ya‘ni shaxs erkinligini qisqa muddatga cheklashda ifodalanadi.

Jinoyatning obyektiv tomoni **faol harakat** orqali sodir etiladigan qilmish sifatida baholanadi.

Mazkur jinoiyat obyektiv tomonida nazarda tutilgan ushlab turish deganda, jinoiyat-protsessual majburlov chorasi nazarda tutiladi.

NOTA BENE !

JPKning 220-moddasiga muvofiq, **ushlab turish** jinoiyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishiga barham berish, qochib ketishi, dalillarni yashirishi yoki yo‘q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan iboratdir.

Mazkur holatda **ushlab turish deganda**, jinoiyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsning jinoiyatga aloqadorligini va (zarur hollarda) uni qamoqqa olish masalasini hal etishda shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan qisqa muddatli jinoiyat-protsessual majburlov chorasi tushuniladi. Ma‘muriy qamoq tarzidagi ushlab turish chorasi qonunga xilof ravishda deb kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas, chunki bunday ushlab turish aynan surishtiruvchi, tergovchi va prokuror tomonidan amalga oshirilishi

қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 11-б.

lozim.

Ushlab turish jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham, ish qo'zg'atilganidan keyin ham amalga oshirilishi mumkin. So'nggi holda ushlab turishga faqat tergovchi, surishtiruvchi, prokurorning qaroriga yoki sudning ajrimiga muvofiq yo'l qo'yiladi.

JPK 221-moddasiga muvofiq, jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxs quyidagi asoslar mavjud bo'lganda ushlab turilishi mumkin:

1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa;

2) jinoyat guvohlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar;

3) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;

4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa.

Ushlab turish jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham, ish qo'zg'atilgandan keyin ham amalga oshirilishi mumkin bo'lib, o'z navbatida, oxirgi holatda ushlab turish faqat surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaroriga va sudning ajrimiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushlab turish ushlab turilgan shaxs militsiya yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan vaqtdan boshlab etmish ikki soatdan ortiq davom etishi mumkin emas, mustasno holat sifatida qidiruvda bo'lgan shaxsni tergov o'tkaziladigan joyga yetkazishni hisobga olib, prokuror ushlab turish muddatini 48 sutkaga uzaytirishi mumkin. Ushlab turish muddati tugagunga qadar va asoslar mavjud bo'lganda, shaxs ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi, unga ayb e'lon qilinishi, JPK 109–112-moddalari qoidalariga muvofiq, so'roq qilinishi va JPK 236–240-moddalari qoidalariga amal qilgan holda ehtiyot chorasini tanlash haqidagi masala hal qilinishi zarur.

Har qanday holatda jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni ushlab turish uchun olib borilgan joyda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi ushlab turish bayonnomasini tuzib, unda quyidagilarni bayon

qilishi kerak: kim tomonidan, qachon, qanday holatda, qonunda belgilangan qanday asoslarda ushlangan; ushlab turilgan shaxs qanday jinoyatni sodir etishda gumon qilinmoqda; qanday vaqtda u militsiya yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organga olib kelingan. Bayonnomani ushlab turish uchun asos bo'lgan holatlarni tekshiruvchi ichki ishlar organi yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni ushlagan vakolatli shaxs yoki fuqaro, xolislari va ushlab turilgan shaxs imzolaydi.

Ushlab turilgan shaxs quyidagi hollarda ozod qilinishi mumkin, agar:

jinoyat sodir etilganligi haqidagi gumon tasdiqlanmasa;

ushlab turilgan shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llash zarurati bo'lmasa;

ushlab turishning belgilangan muddati o'tganda.

Ushlab turilgan shaxsni ozod qilish surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori va sudning ajrimiga asosan ushlab turilganlar saqlanayotgan joyning boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi. Ozod qilish to'g'risidagi qaror yoki ajrim ushlab turilganlar saqlanadigan joyga kelib tushishi bilan darhol ijro etiladi.

Qonunga xilof ravishda ushlab turish deganda, JPK 221-moddasida nazarda tutilgan qonuniy asoslar mavjud bo'lmagan va qonun shartlarini buzgan holda qisqa muddatli ozodlikdan mahrum qilishni tushunish lozim.

Qonuniy asoslar mavjud bo'lmaganligi nafaqat ushlab turish uchun asoslarning mavjud bo'lmashligi, balki uni davom ettirish bilan bog'liq asoslar yo'qligi bilan ham izohlanadi, masalan, jinoyat sodir etilganligi to'g'risidagi gumon o'z tasdig'ini topmaganda. Qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida tegishli qaror chiqarmasdan ushlab turishni amalga oshirish ham qonuniy asoslarsiz ushlab turish deb baholanadi.

Bundan tashqari, JPK muayyan doiraga kiruvchi shaxslarni ushlab turishga nisbatan immunitet belgilaydi, xususan, deputatlar, sudyalari, prokurorlar jinoyat ustida yoki uni sodir qilib bo'lgan zahoti qo'lga olinganlarida ushlab turilishlari mumkin. Mazkur shaxslarning boshqa asoslarga ko'ra ushlab turilishini ham qonuniy asoslarsiz ushlab turish sifatida baholash lozim. Shuningdek, diplomatik immunitetdan

foydalanayotgan shaxslarni ham ushlab turish noqonuniy ushlab turish sifatida baholanishi lozim. Bunda deputat, sudya yoki prokurorning immunitetidan farqli o'laroq, diplomatik immunitetga ega shaxs har qanday asos mavjud bo'lgan taqdirda ham ushlab turilishi mumkin emas.

Tahlil qilinayotgan jinoyatda ushlab turish haqidagi bayonnoma tuzilgan va bu haqda ushlab turilgan shaxsga e'lon qilingan paytdan e'tiboran, ushlab turish haqidagi bayonnoma tuzishga doir qonun talablari buzilgan holda esa, shaxs haqiqatda huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgan paytdan e'tiboran jinoyat **tugallangan** hisoblanadi.

Agar jinoyat qisqa muddatli ozodlikdan mahrum qilish tarzida davom etib, kelgusida yuqorida keltirilgan protsessual majburlov chorasi qo'llash uchun asoslar mavjud bo'lmasa, jinoyat tegishli asoslar mavjud bo'lmagan holat aniqlangan vaqtda tugallangan deb hisoblanishi lozim. Bu tergov harakatlari, tezkor qidiruv faoliyati va boshqalar aks etgan ish materiallarida bayon etiladi yoki aniqlanadi.

Qonunga xilof ravishda ushlab turish **subyektiv tomondan to'g'ri qasd** bilan sodir etilib, aybdor o'zi amalga oshirayotgan ushlab turish noqonuniy ekanligini anglaydi, biroq shunga qaramasdan yoki boshqa motivlar bilan ushlab turishni amalga oshirishni xohlaydi yoxud ushlab turilgan shaxsni belgilangan joyda tegishli muddatdan ortiq muddatga ushlab turadi. Agar noqonuniy ushlab turish ehtiyotsizlik orqasida amalga oshirilgan bo'lsa (masalan, aybdor shaxsiga nisbatan xatolikka yo'l qo'yilganda), unda aybdor shaxsni mansabga sovuqqonlik bilan qaraganlik uchun jinoiy javobgarlikka (JK 207-moddasi) yoki anglashilmovchilikka yo'l qo'yanlik uchun intizomiy javobgarlikka tortish masalasini qo'yish mumkin.

Jinoyatning **motivi** shaxsiy manfaatdorlik, o'ch olish, g'arazli maqsadlar va boshqalar bo'lishi mumkin, ular qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi, biroq jazo tayinlashda ular hisobga olinishi mumkin.

Jinoyat **subyekti** faqat maxsus shaxslar, ya'ni surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror bo'lishi mumkin. Qonunga xilof ravishda ushlab turish mazkur harakatlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lmagan mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilganda, ularning harakati JK 206-moddasi

bilan hokimiyat yoki mansab vakolatidan chetga chiqish deb kvalifikatsiya qilinadi.

Bundan tashqari, ushlab turish mansabdor shaxs yoki mas'ul mansabdor shaxs bo'lmagan fuqaro tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, tegishli belgilar mavjud bo'lgan taqdirda, shaxsning harakatlari JK 229-moddasi bo'yicha o'zboshimchalik yoki JK 138-moddasi bo'yicha zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Tahlil qilinayotgan moddaning 2-qismida qonunga xilof ravishda hibsga olish yoki hibsdan saqlash uchun javobgarlik belgilangan.

JK 234-moddasi 2-qismining **obyektiv tomoni** ayblanuvchi yoki gumonlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qonunga xilof ravishda tanlashda ifodalanadi, shuningdek, qonunda belgilangan muddatlardan ortiq muddat ushlab turish uchun tegishli asoslar bo'lmagani holda shaxsni qonunga xilof ravishda hibsdan muddatidan ortiq ushlab turishda ifodalanadi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 242-moddasiga muvofiq, Jinoyat kodeksida qasddan sodir etilib, uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan hamda ehtiyotsizlik orqasida sodir etilib, Jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzida jazo nazarda tutilgan jinoyatlar uchun ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish nazarda tutilgan. Alohida hollarda mazkur ehtiyot chorasi qasddan sodir etilgan jinoyatlarda uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan, shuningdek, ehtiyotsizlik orqasida sodir etilib, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ham qo'llanishi mumkin.

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi faqat ushlab turilgan gumon qilinuvchiga yoki ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxsga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish faqat sud sanksiyasiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Qamoq tarzida ushlab turish chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, sudya quyidagi ajrimlardan

birini chiqaradi: 1) qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida; 2) qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashni rad qilish to'g'risida; 3) taraflar qo'shimcha dalillarni taqdim etishlari uchun ushlab turish muddatini uzaytirish to'g'risida.

Bundan tashqari, jinoyat-protsessual qonunchiligi mazkur ehtiyot chorasini alohida shaxslar uchun qo'llashning qo'shimcha shartlarini belgilaydi, xususan:

— O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputati, viloyat kengash deputatlari, shahar va tuman xalq kengashi deputatlariga nisbatan — qoida tariqasida tegishli vakillik organi roziligi bilan;

— O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sudyasiga nisbatan — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining roziligi bilan;

— O'zbekiston Respublikasining boshqa sudlari sudylariga nisbatan — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi yoki O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumi roziligi bilan;

— Prokuratura organlari prokurorlari va tergovchilariga nisbatan — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan.

Agar hibsga olish jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsga nisbatan ehtiyot chorasi sifatida qo'llangan bo'lsa, bu holda unga o'n kun ichida ayb e'lon qilinishi kerak. Ushbu vaqt mobaynida ayb e'lon qilinmasa, shaxsga nisbatan qo'llangan ehtiyot chorasi bekor qilinadi (JPK 226-moddasi). Ayblanuvchiga nisbatan hibsga olish shaklidagi ehtiyot chorasi uch oydan oshib ketmasligi lozim. Bu muddat O'zbekiston Respublikasi JPKning 245-moddasidagi holatlarga ko'ra uzaytirilishi mumkin.

Agar ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi shaxsga nisbatan qonunda ko'rsatilgan asoslar, shuningdek, alohida shaxslarga nisbatan qo'shimcha shartlarga amal qilmagan holda va qonunda belgilangan protsessual shaklga rioya etmagan tarzda tanlansa, **qonunga xilof ravishda hibsga olish** deb topiladi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan alohida hollardan tashqari hibsdan saqlash uchun belgilanmagan joylarda hibsdan saqlash ham

qonunga xilof ravishda hibsdan saqlash deb hisoblanadi. Bundan tashqari, diplomatik immunitetga ega bo'lgan shaxslarni qamoqqa olish yoki hibsdan ushlab turish har qanday holatda ham noqonuniy hibsdan saqlash hisoblanadi.

Jinoyat shaxs qonunga xilof ravishda qamoqqa joylashtirilgandan yoki bu ehtiyot chorasini uning qonuniy muddatlari o'tib ketgandan keyin ham aybdorga ayb e'lon qilmasdan yoki tegishli muddatlar uzaytirilmasdan o'z kuchida qoldirgan vaqtdan **tugallangan** deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat hibsga olishning yoki hibsdan saqlashning noqonuniyligini oldindan bilgan holda **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi.

Agar qonunga xilof ravishda hibsga olish yoki hibsdan saqlash ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan bo'lsa (masalan, hibsga olingan shaxsning saqlanayotgan muddati «unutilgan» bo'lsa), bunday holda mazkur xizmatchini mansabga sovuqqonlik bilan qaraganlik (JK 207-moddasi) uchun jinoiy javobgarlikka yoki tegishli ravishda intizomiy javobgarlikka tortish masalasi qo'yilishi mumkin.

Jinoyatning **motivi** shaxsiy yoki boshqacha xususiyatga ega manfaat bo'lishi mumkin.

Bila turib, qonunga xilof ravishda hibsga olish jinoyatining **subyektiv** faqat sudya bo'lishi mumkin.

JPK 315-moddasiga muvofiq, «bila turib, qonunga xilof ravishda hibsdan saqlash» jinoyatining subyektiv, agar bunday saqlash JPKning tegishli tartibi bilan uzaytirilmagan bo'lsa, belgilangan ehtiyot chorasi muddati tugashi bilan hibsdan turgan shaxslarni darhol ozod qilish bo'yicha o'ziga yuklatilgan majburiyatni u yoki bu motivlarga binoan bajarmagan hibsdan ushlab turilgan joy boshlig'i ham bo'lishi mumkin.

Agar qonunga xilof ravishda hibsga olish yoki qonunga xilof ravishda hibsdan saqlash mazkur harakatlarni amalga oshirish vakolatiga kirmagan mansabdor shaxs yoki hokimiyat vakili tomonidan amalga oshirilsa, bu holatda mazkur shaxsning harakatlari JK 206-moddasi bo'yicha hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

7-§. Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llash (JK 235-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida: «hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas»¹, — deb mustahkamlab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning ushbu 26-moddasi 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 5-moddasiga mos keladi.

Konstitutsiya qiynoqqa solish, shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi hisoblangan muomala hamda jazo turlarini qo‘llashni taqiqlashni talab qiluvchi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida amalga oshirilishiga zamin yaratadi. Qiynoqqa solish, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlari xalqaro hamjamiyat tomonidan g‘ayriinsoniy va yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan holat sifatida tan olinadi. Amalda qiynoqqa solish, masalan, 1949 yil 12 avgustdagi harbiy asirlar bilan qilinadigan muomala to‘g‘risidagi Konventsiya, 1966 yil 19 dekabrda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt, 1995 yil 26 maydagi Insonning asosiy huquq va erkinliklari to‘g‘risidagi MDH Konvensiyasi, 1984 yil

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартиришлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартиришлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартиришлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 11-б.

10 dekabrda Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konventsiya va boshqa qator hujjatlarda taqiqlangan. Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlarini qo'llashni hech bir mansabdor shaxsning buyrug'i, hech qanday favqulodda holat, urush holati yoki urush xavfi, milliy xavfsizlikka tahdidi, ichki siyosiy beqarorlik yoki boshqa har qanday tasodif bilan oqlab bo'lmaydi.

Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlarini qo'llash jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi harakat hisoblanadi. Qiynoqqa solish faktining o'zi xalqaro hamjamiyat tomonidan xalqaro huquqning asosiy prinsiplari va normalarini buzuvchi og'ir huquqbuzarlik, insonga qarshi jinoyat sifatida tan olinadi.

Mustaqil O'zbekistonning Jinoyat kodeksi qiynoq sifatida tan olingan harakatni amalga oshirgani uchun javobgarlikni avval boshdanoq xalqaro huquq talablariga asosan belgilagan. Lekin xalqaro huquqning amalda qiynoqni taqiqlash va aybdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishni talab qiluvchi normalarining implementatsiyasi tarqoq va tizimga solinmagan edi. Xususan, «qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlari» tushunchasi bo'lmagan. O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 30 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni jinoyat qonunchiligidagi mazkur kamchilikni bartaraf etdi hamda unga izchillik va tizimlilik baxsh etdi.

Jinoyatning **asosiy bevosita obyekt** shaxsning qadr-qimmatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, har bir shaxsning o'ziga nisbatan insoniy munosabatda bo'lishni talab qilish huquqi, shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergovning qonunda belgilangan o'tkazilish tartibi hisoblanadi. **Qo'shimcha bevosita obyekt** qiynoqqa solingan shaxsning hayoti yoki sog'lig'i, uning sha'ni va qadr-qimmatidir.

Mazkur jinoyatni sodir etilishida: ma'muriy qamoqqa olingan shaxs, gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi, mahkum, jinoiy protsessning boshqa ishtirokchisi, yoxud ularning yaqin qarindoshlari **jabrlanuvchi** bo'lishlari mumkin.

Ma'muriy qamoqqa olingan shaxs tushunchasi (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 29-moddasiga qarang).

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga asosan shaxs:

gumon qilinuvchi — jinoyat sodir etgani to'g'risida ma'lumotlar bor bo'lsa-da, bu ma'lumotlar uni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli bo'lmagan shaxsdir. Shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida e'tirof etish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror qaror chiqaradi (JPK 47-moddasi);

ayblanuvchi — JPKda belgilangan tartibda ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi haqida qaror chiqarilgan shaxsdir. Ayblanuvchi sudda sudlanuvchi deb, hukm chiqarilganidan keyin esa, mahkum yoki oqlangan deb ataladi (JPK 45-moddasi);

guvoh — jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan biror holatni bilishi mumkin bo'lgan har qanday shaxs guvoh sifatida ko'rsatuv berish uchun chaqirilishi mumkin (JPK 65-moddasi). Guvohlik ko'rsatmalari berishga jalb qilinmagan shaxslar guvoh bo'la olmaydi (JPK 115-moddasi). Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining yaqin qarindoshlari guvoh tariqasida faqat o'zlarining roziliklari bilan so'roq qilinishi mumkin;

jabrlanuvchi — jinoyat natijasida ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazilgan deb hisoblash uchun dalillar bo'lgan shaxs. Jabrlanuvchi deb e'tirof etish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi (JPK 54-moddasi);

jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar — JPK 6-bobida ko'rsatilgan shaxslardan biri: ekspert mutaxassis, tarjimon, xolislar. Boshqa shaxslar jinoyat ishiga aloqadorliklaridan qat'i nazar jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari deb tan olinmaydi;

mahkum — sud muhokamasidan so'ng unga nisbatan ayblov hukmi

chiqarilgan va shu asosda muayyan jazo turi va miqdori belgilangan shaxs. O'ukm ijrosi boshlangan paytdan shaxs jazo o'tayotgan hisoblanadi, bu haqda hukm chiqargan sudning tegishli farmoyishi chiqariladi. Shaxsni sharhlanayotgan modda mazmuni bo'yicha jazoni o'tayotgan deb tan olish unga tayinlangan jazoning turi va miqdori bilan bog'liq emas, bu shu kabi toifadagi jinoiy ishlarni ko'rib chiqishda sud-tergov organlari tomonidan hisobga olinishi kerak.

(Yaqin qarindoshlar tushunchasi to'g'risida Jinoyat kodeksi Maxsus qismining VIII bo'limiga qarang.)

Obyektiv tomondan sharhlanayotgan jinoyat qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazoning qo'llanilishida, ya'ni ma'muriy qamoqqa olingan shaxsga, gumonlanuvchi, ayblanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi yoki jinoiy protsessning boshqa ishtirokchisiga yoxud jazoni o'tayotgan mahkum yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan tahdid qilish, zarba berish, urish-tepish, qiynoqqa solish, azob berish yoki boshqa noqonuniy harakatlarni sodir etish orqali noqonuniy ruhiy, psixologik yoki jismoniy ta'sir o'tkazishda ifodalanadi.

Sharhlanayotgan modda matnidagi **qiynoq** sifatida jabrlanuvchi shaxsga nisbatan qasddan yetkazilgan kuchli og'riq, jismoniy yoki ma'naviy azob berish tarzidagi har qanday harakat tushuniladi. Bunda shuni inobatga olish kerakki, «shafqatsiz, insoniylikka zid muomala va jazo»dan farqli o'laroq, qiynoq anchagina kuchli va shafqatsiz azob berish bilan tavsiflanadi. «Qiynoq» tushunchasi bilan «insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala» tushunchasi o'rtasidagi farq azob berish intensivligi har xilligida ifodalanadi. Qiynoq shafqatsiz muomalaning nisbatan og'ir turi hisoblanadi. Bundan tashqari, qiynoq har doim qadr-qimmatni kamsituvchi muomala bo'lgan.

Muntazam ravishda insoniylikka zid yoki shafqatsiz muomalaning qo'llanilishi, u oddiy qiynoqdagiga xos bo'lgan jiddiy oqibatlarni keltirib chiqarmasa ham, qiynoq sifatida tan olinishi kerak.

G'ayriinsoniy muomala yoki jazo deganda, intensivlik nuqtai nazaridan qiynoq paytida yetkazilgan azobga nisbatan zaif bo'lgan kuchli

jismoniy yoxud ruhiy azob berishni tushunish kerak. Shafqatsiz yoki g'ayriinsoniy muomala turlari jabrlanuvchining uzluksiz vaqt mobaynida yomon sanitariya sharoitida bo'lishi va unga tibbiy yordam zarur bo'lgan sharoitda tibbiy yordamsiz qolishi, uzoq vaqt mobaynida oziq-ovqat, suv va boshqalardan mahrum etish orqali jiddiy ma'naviy azob berishdan iborat bo'lishi mumkin.

Qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo — bu jabrlanuvchini haqoratlash, kamsitish yoki jismoniy va ma'naviy qarshiligini sindirish uchun qo'rquv, tushkunlik va nomukammallik hissini uyg'otishga qaratilgan muomala. Qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlariga misol tariqasida jabrlanuvchining qonuniy harakatini ta'minlash uchun zarur hisoblanmagan jismoniy kuch yoki ruhiy ta'sir o'tkazishni ko'rsatish mumkin.

Muomala va jazolashning qiynoq hamda insoniylikka zid, shafqatsiz yoxud qadr-qimmatni kamsituvchi turlari ham jismoniy, ham ruhiy ta'sir, psixologik bosim o'tkazish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur holatda **bosim o'tkazish** deganda, jabrlanuvchiga uning xohishiga qarshi amalga oshiriladigan va unga aniq jismoniy yoxud ruhiy azob beradigan, ya'ni zo'ravonlik hisoblanadigan ta'sir etishni tushunish kerak.

Jinoyat kodeksining sharhlanayotgan moddasi dispozitsiyasida jismoniy, ruhiy zo'rlik yoxud psixologik bosim o'tkazish usullari ko'rsatilgan: qo'rqitish, urish, do'pposlash, qiynash, azob berish va boshqalar. Mazkur ro'yxat mukammal hisoblanmaydi va boshqa harakatlar ham jismoniy, ruhiy yoxud psixologik bosim ta'sirlar tushunchasiga mos tushishi mumkin, ularning noqonuniy xarakterda ekanligi belgilaridan aniqlanadi. Masalan, sharhlanayotgan moddaga asosan ta'qib qilinadigan xatti-harakat deb, shuningdek, oziq-ovqat va suvdan mahrum qilish, shovqin orqali ta'sir o'tkazish, uyqudan mahrum qilish, devor oldida turishdan tortib va tergov harakatini olib borish tartibi hamda shartlarini buzish va boshqalar hisoblanadi.

(Jismoniy yoxud ruhiy zo'rlik hamda muomala haqida batafsilroq JK 164-moddasi tahliliga qarang.)

Shuni nazarda tutish lozimki, jabrlanuvchiga faqat qonuniy sanksiya orqali yuzaga keluvchi, ushbu sanksiyalardan ajratib bo'lmaydigan yoki ular orqali tasodifan yetkazilgan og'riq va azoblar qiynoq, g'ayriinsoniy, shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo hisoblanmaydi.

Psixologik bosim – bu boshqa insonning tanasiga emas, balki boshqa odamlarning ruhiy holatiga, hissiyotlariga, xayoliga ta'sir ko'rsatishdir.

Qiynoqqa solish, shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoxud jazolar jabrlanuvchiga faqat qonuniy sanksiyalar natijasida, bu sanksiyalardan ajralmagan holda yoki ular tomonidan qo'qqisdan yuzaga keladigan og'riq va azob yetkazish hisoblanmasligini inobatga olish lozim.

Shaxsning xatti-harakatlarini qiynoq sifatida, shuningdek, g'ayriinsoniy, shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlari deb tan olish uchun jismoniy yoki ruhiy ta'sirning yo'naltirilishini aniqlash zarur. Qonunda to'g'ri ko'rsatilganidek, jismoniy yoki ruhiy ta'sirni sharhlanayotgan modda bo'yicha kvalifikatsiya qilinadigan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilish uchun u bir guruh shaxslarga, ya'ni, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi yoki jinoyat protsessining boshqa ishtirokchisi yoxud jazoni o'tayotgan mahkum yoki ularning yaqin qarindoshlariga qarshi qaratilgan bo'lishi lozim. Mazkur shaxslarning ro'yxati tugal va kengaytirib talqin etish mumkin emas. Mazkur shaxslar barcha jinoyat protsessi faoliyatining subyektini hisoblanadi va ularning qonuniy maqomi amaldagi qonunchilik orqali tartibga solingan.

Ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan jismoniy yoki ruhiy ta'sir o'tkazish ham bevosita, ham unga yaqin kishilarga nisbatan amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchining qonuniy vakillariga, himoyachiga yoki boshqa shaxslarga ta'siri qiynoq sifatida tan olinadi. Bunda ta'sirni jabrlanuvchiga nisbatan qiynoq sifatida, ta'sirning bevosita obyektini hisoblangan boshqa shaxsga nisbatan esa shaxsga nisbatan tegishli jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilish kerak. Masalan, ayblanuvchini o'ziga qarshi ko'rsatuv berishga majbur qilish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi

organ xodimi tomonidan uning homiysi sog‘lig‘iga zarar yetkazilgan, natijada ayblanuvchi o‘ziga qarshi ko‘rsatuv berishga majbur bo‘lgan. Xodimning harakati amaldagi JK 235-moddasi bo‘yicha ayblanuvchiga nisbatan qiynoq va homiyning sog‘lig‘iga qarshi jinoyat sifatida Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Subyektiv tomondan sharhlanayotgan jinoyat **to‘g‘ri qasd** va subyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblangan maxsus **maqsadning** mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, qonun tomonidan jinoyatni sodir etish maqsadi muqobil tartibda aniqlanadi, ya‘ni harakatni **JK 235-moddasi** bo‘yicha jinoyat deb tan olish uchun subyekt quyidagi maqsadlarga erishishga harakat qilishi lozim:

- a) biror-bir axborot olish;
- b) jinoyat sodir etganlikka iqror bo‘lish;
- v) sodir qilingan jinoyat uchun o‘zboshimchalik bilan jazolash;
- g) jabrlanuvchini muayyan harakatlarni sodir etishga majburlash.

Maqsadning konkret yo‘naltirilganligi jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta‘sir etmaydi, lekin sud tomonidan jazoni individuallashtirish paytida inobatga olinishi mumkin. Qilmishning **motivi** ham jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta‘sir etmaydi, lekin jazoni individuallashtirishda inobatga olinishi mumkin. Qoida tariqasida g‘arazgo‘ylik, moddiy manfaatdorlik, mansabparastlik, noto‘g‘ri tushunilgan adolat hissi, o‘zini namoyon qilishga intilish va boshqalar motiv bo‘lishi mumkin.

Jinoyat surishtiruvchi; tergovchi; prokuror yoki huquqni muhofaza qiluvchi organning boshqa xodimi, jazoni ijro etish muassasasi yoki boshqa davlat organi xodimi tomonidan, yoxud boshqa shaxslar davlat yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimining roziligi yoki ig‘vogarligi bilan sodir etilishi mumkin.

Surishtiruvchi — surishtiruv organining boshlig‘i yoki shunday organlarning mansabdor shaxsiga surishtiruv organi boshlig‘ining topshirig‘iga binoan: jinoyatning oldini olish yoki unga yo‘l qo‘ymaslik; dalillarni to‘plash va saqlash; jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish; jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta‘minlash uchun

kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yurituvchi shaxs. Surishtiruv organlarining ro'yxati JPK 38-moddasida ko'rsatilgan va bu ro'yxat to'liq hisoblanadi.

Tergovchi — vazifasi dastlabki tergovni olib borish bo'lgan, qonunda belgilangan tartibda prokuror, ichki ishlar, Davlat xavfsizlik xizmati organlaridan tayinlangan shaxs.

Prokuror — bu prokuratura organlarining surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxs.

Shuni nazarda tutish kerakki, sharhlanayotgan moddaning matnidagi shaxsni surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror sifatida, faqat ish bo'yicha shaxslarga nisbatan jinoyat subyektini tomonidan jismoniy yoki ruhiy akt hisoblangan qiynoq yoki shafqatsiz, insoniylikka zid, uning qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar sodir etilayotgan jinoyat ishi bo'yicha mas'ul bo'lsalargina, tan olinishi mumkin. Aks holda, shaxs huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa xodimi sifatida tan olinishi kerak.

Masalan, qiynoqqa solish:

— tergovchi tomonidan sodir etilgan deb — agar aybdor mansabdor shaxs bo'lib, dastlabki tergov yuritilayotgani ma'lum bir aniq ish bo'yicha mas'ul bo'lsagina;

— huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa shaxslari tomonidan sodir etilgan deb — garchi u shtat jadvalida tergovchi lavozimida turib, jinoyat ishlarini tergov qilayotgan bo'lsa-da, muayyan bir ish bo'yicha dastlabki tergovni yuritishda mas'ul hisoblanmasa, topiladi.

Huquqni muhofaza qilish organlarining boshqa xodimlari deb, huquqni muhofaza qilish organlarining shtat xodimi hisoblangan, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi, lekin yuritilayotgan jinoiy ish uchun mas'ul bo'lmagan shaxslar tushunilishi mumkin. Bunday xodimlar jumlasiga oddiy militsiya xodimlari, soliq xizmati, Milliy xavfsizlik xizmati va texnik funksiyalarni amalga oshiruvchi boshqa: gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini qo'riqlash, nazorat qilish va boshqa ishlarni bajaruvchi shaxslar kiradi.

Jazoni ijro etish muassasasining xodimi deb, mansab vakolatidan qat'i

nazar, mazkur muassasaning shtat jadvali bo'yicha xodim hisoblangan shaxslarni, agar ular qiynoqdan jabrlanganga bog'liq bo'lgan jinoiy ish bo'yicha surishtiruvchi bo'lmasalargina, hisoblash lozim. Aks holda, mazkur shaxs surishtiruvchi hisoblanishi kerak. Masalan, jazoni ozodlikdan mahrum etish tarzida o'tash koloniyasi rahbari jazoni ijro etish muassasasi xodimi sifatida tan olinishi lozim, lekin koloniyada jinoyat sodir etilsa, u bu ish bilan bog'liq bo'lgan shaxsga (jabrlanuvchi, gumonlanuvchi, guvohga) nisbatan surishtiruvchi maqomiga ega bo'ladi.

O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga binoan quyidagilar jazoni ijro etish bo'yicha muassasalardir:

— sud (ijrochilari)— jarima tarzidagi jazoga nisbatan;

— ichki ishlar organlari — muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari, ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish kabi jazolarni ijro etish bo'yicha. Muayyan huquqdan mahrum etish tarzidagi hukm talablari sudlanganning ish joyi ma'muriyati tomonidan, shuningdek, muayyan ish faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat berish huquqiga ega bo'lgan organlar tomonidan bajariladi;

— harbiy qism boshliqlari — xizmat bo'yicha cheklash tarzidagi jazoni ijro etish bo'yicha harbiy xizmatchilarga nisbatan;

— maxsus tashkil etilgan harbiy qismlar — intizomiy qismga jo'natish tarzidagi jazoga nisbatan;

— unvon bergan organ — harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish ko'rinishidagi jazoga nisbatan, muassasalar hisoblanadi.

Agar tahlil qilinayotgan jinoyat huquqni muhofaza qilish organi xodimi bo'lmagan shaxs tomonidan (masalan, tergovchining jamoatchi yordamchisi, surishtiruvchi yoxud uning qarindoshlari va boshqalar), lekin surishtiruvchi, tergovchi yoki huquqni muhofaza qilish organi boshqa xodimining fitnasi, ig'vosi, ruxsati yoki nomiga roziligi bilan sodir etilgan bo'lsa, uning harakati JK 28-moddasi 5-qismi, 235-moddasi bo'yicha jinoyat sodir etishda vositalarni yetkazib berganlik belgisiga ko'ra qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazo turlarini qo'llashda yordamchilik qilish

sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Surishtiruvchini, tergovchini yoki huquqni muhofaza qilish organlari boshqa xodimini, o'z navbatida, jinoyat sodir etishda boshqa vositalardan foydalanish belgisiga ko'ra, JK 235-moddasi bo'yicha ishtirokchi sifatida javobgarlikka tortish kerak (JK 28-moddasi 2-qismi).

Tahlil qilinayotgan jinoyat formal tarkibli qilmish sifatida belgilanadi, ya'ni uni tugallangan jinoyat sifatida tan olish uchun qonunga xilof biror-bir oqibat kelib chiqishi talab etilmaydi.

Jinoyat jismoniy yoki ruhiy ta'sir ko'rsatilgan paytdan boshlab **tugallangan** hisoblanadi.

JK 235-moddasining 2-qismi ko'rib chiqilayotgan jinoyatning kvalifikatsiyalovchi turlarini sodir etganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Kvalifikatsiyalovchi belgilar sifatida quyidagilar namoyon bo'ladi:

a) hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlikni qo'llagan holda yoxud shunday zo'rlikni qo'llash tahdidi bilan;

b) milliy, irqiy, diniy yoki ijtimoiy kamsitish zamiriga asoslangan har qanday sabab bo'yicha;

v) bir guruh shaxslar tomonidan;

g) takroran;

d) keksa shaxsga yoki nochor ahvoldagi shaxsga, voyaga etmagan shaxsga yoxud homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan;

e) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

j) hayotga va sog'liqqa zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ashyolar qo'llanilib;

z) dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) maqsadida.

Qariyalar deganda pensiya yoshidagi shaxslar tushuniladi (60 yoshga to'lgan erkaklar, 55 yoshga to'lgan ayollar).

Predmet deganda – ayblanuvchi tomonidan JK 235-moddasida ko'rsatilgan jinoiy harakatlarni sodir etishi natijasida kishining hayoti va sog'lig'i uchun amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday predmetlarni tushunish lozim.

Soxtalashtirish (qalbakilashtirish) tushunchasi (O‘zR JKning 230¹ –moddasining sharhiga qarang).

JKning **235-moddasi 3-qismiga ko‘ra**, ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar badanga og‘ir shikast yetkazilishiga yoxud boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lgan hollarda javobgarlik belgilangan.

Badanga og‘ir tan jarohatlari yetkazilishi holatlarida aybdorning harakatlari JKning 104-moddasi zimmasiga qo‘yilmagan holda, O‘zR JKning **235-moddasi 3-qismiga ko‘ra** malakalanadi.

Boshqa og‘ir oqibatlar deganda so‘roq qilinayotgan shaxslarning ko‘rsatmalarni noqonuniy yo‘l bilan olishga norozilik belgisi sifatida o‘zini o‘ldirishini tushunish zarur.

8-§. Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish (JK 236-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasida «O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi», 112-moddasida esa «Sudlar mustaqildirlar, faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi»¹, deyilgan.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-

Shu munosabat bilan odil sudlovni amalga oshirish borasidagi sud faoliyatiga hech kimning u yoki bu ko‘rinishda aralashishga haqqi yo‘q.

Jinoyatning **bevosita obykti** sudning odil sudlovni amalga oshirish bo‘yicha faoliyati mustaqilligini, shuningdek, prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchining ishni har tomonlama, to‘liq va xolis tergov qilish bo‘yicha faoliyati mustaqilligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlardir.

NOTA BENE !

Tergov – bu jinoyat protsessining bir bosqichi bo‘lib, prokuror nazorati ostida jinoyat hodisasi yuz bergan-bermaganligi, jinoyat sodir etishda aybdor shaxslarni, jinoyatda ularning ayb darajasi, jinoyat oqibatida kelib chiqqan zararining xususiyati va miqdori, jinoyatning sabablari hamda ish uchun ahamiyatga ega boshqa holatlarni aniqlash uchun surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashdan iborat faoliyat. Tergov jinoyat ishini bekor qilish yoki ishni sudga yuborish bilan tamomlanadi (tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash uchun sudga yuborishni ham o‘z ichiga oladi).

NOTA BENE !

Sud ishlarini hal etish — bu maxsus vakolatli davlat organi — sud tomonidan sud majlisida to‘plangan yoki taraflar taqdim etgan dalillar asosida o‘tkaziladigan tekshirish jarayoni. Sud ishlarini hal etish maxsus hujjat: hukm, hal qiluv qarori, ajrim va qaror qabul qilish bilan tamomlanadi.

Sud ishlari deganda, nafaqat birinchi instansiya sudida ko‘riladigan ishlar, balki apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ish yuritish, shuningdek, yangi ochilgan holatlar bo‘yicha ish yuritish ham tushunilishi kerak.

Obyektiv tomondan jinoyat ishning har tomonlama, to‘la va xolisona

моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 60, 65-б.

o'rganilishiga to'sqinlik qilish maqsadida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorga yoxud adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrimi yoki qaror chiqarilishiga erishish maqsadida sudyaga turli shaklda qonunga xilof ravishda ta'sir o'tkazishda ifodalanadi.

Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish — bu jismoniy shaxslar tomonidan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya (shuningdek, sudyalar hay'ati va xalq maslahatchisi) ning faoliyatiga ta'sir etish.

Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish tergov organi, prokuratura yoki sud binosi yonida shior yozilgan plakatlar bilan yoxud ish tashlash bilan bog'liq namoyish, miting yoki namoyish o'tkazish, tergov, prokuratura yoki sud organlari binosi yonida ochlik e'lon qilish, ommaviy axborot vositalarida kampaniyalar tashkil etish va boshqalarda namoyon bo'lishi mumkin.

Aralashish turli shaklda bo'lishi mumkin: tergovni boshqa yo'nalishda olib borish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurordan iltimos yoki talab qilish; sudya yoki xalq maslahatchisidan va'da berilgan foyda yoxud manfaat evaziga ishni muayyan yo'nalishda olib borishni talab qilish; tahdid qilish bilan qo'rqitish; o'zi yaxshi taniydigan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya yoki xalq maslahatchisi orqali tergov yoki sud ishini o'zining foydasiga hal etishga urinish; maslahat berish yoki davlat hokimiyati mansabdor shaxsi orqali yo'l-yo'riq berish va boshqalar.

Aybdorning harakatini kvalifikatsiya qilishda aralashishning aniq shakli — ishni tugatishni iltimos qilish, oqlash, aybni yengillashtirish yoki, aksincha, og'irlashtirish, boshqa shaxslarni javobgarlikka jalb qilish, ishni da'vogar yoki javobgar foydasiga hal etish va hokazolar ahamiyatga ega emas. Aralashish yoki ta'sir ko'rsatish dastlabki tergovning barcha bosqichiga, to'plangan yoki jinoyat, fuqarolik, ma'muriy yoxud xo'jalik ishiga qo'shilgan dalillarga tegishli bo'lishi mumkin.

Aralashish yoki ta'sir etish, ular aniq bir ishga taalluqli bo'lsa, jinoyat tarkibini tashkil etadi. Jazo chorasini kuchaytirish yoki kamaytirishga, umuman yoki biron-bir jinoyat turini aniqlashga qaratilgan aralashish tergov qilish yoki sud ishlarini hal etishga aralashish deb topilmaydi.

Fuqarolar yoki korxonalar, muassasa va tashkilotlar boshliqlarining tergov yoxud sud organlariga mehnat jamoasi a'zosiga nisbatan boshqa ehtiyot chorasini qo'llash, shartli hukm qilish, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni qo'llash yoki, ularning fikricha, ishga daxldor boshqa hujjatlarni taqdim etish bilan bog'liq murojaatnomalari yoxud iltimosnomalari tergov qilish yoki sud ishlarini hal etishga aralashish deb topilmaydi.

Bundan tashqari, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat to'g'risida xabar berish, ishga daxldor yangi dalillarni keltirish, mansabdor shaxslar ustidan shikoyat berish tergov, prokuror, sud organlarining faoliyatiga aralashish deb topilmaydi.

Iltimos qilish, maslahat yoki taklif qilish umumiy ko'rinishga ega bo'lsa (misol uchun, biron-bir sudning jinoiy siyosat sohasidagi ishlarini nashr qilish yoki majlisda tanqidiy fikr bildirish), tergov qilish yoki sud ishlarini hal etishga aralashish deb hisoblanmaydi. Aybdor, uning yaqin qarindoshlari, himoyachining ish holatlari bo'yicha dastlabki tergov organlari yoki prokuror yoxud sud majlisida sudga shikoyat, norozilik shaklidagi iltimoslarni bildirishini aralashish deb hisoblab bo'lmaydi.

Agar surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya ishlariga aralashish yoki qarshilik ko'rsatish bilan bog'liq ta'sir ko'rsatish harakatlari o'ldirish bilan qo'rqitish yoki zo'rlik ishlatish tahdidi asosida aks ettirilsa bu harakatlarni JKning 112-moddasi va 236-moddasi jinoyatlar jami tariqasida tavsiflash lozim.

Shuni aytish lozimki, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya faoliyatiga moddiy manfaat ko'rsatishni taklif qilib aralashish jinoyatlar majmui tariqasida JK 211-moddasi 1-qismi va JK 236-moddasi 1-qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilishga olib keladi.

Sharhlanayotgan jinoyat surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya faoliyatiga qonunsiz aralashish harakati bevosita boshlanishi hamon **tugallangan** deb topiladi. Aybdorning harakatlarini kvalifikatsiya qilishda jinoyatni tugallangan deb topish yuqoridagi shaxslar faoliyatiga yoki aybdorning harakatlari tegishli qaror qabul qilinishiga ta'sir etishi talab qilinmaydi.

Subyektiv tomondan tergov qilish yoki sud ishlarini hal etishga aralashish **to'g'ri qasddan** sodir etiladi, ya'ni shaxs o'z harakatlarining ijtimoiy xavfliligini biladi, qonunga zid va adolatsiz qaror chiqarilishini xohlaydi.

Ushbu jinoyatning **motivi** shaxsiy manfaatdorlik, g'arazli niyat va boshqalar bo'lishi mumkin.

Subyektiv tomonning zaruriy belgisi aralashish qanday **maqsadda** sodir etilganligi hisoblanadi. Agar aralashish jinoyat ishini tergov qilishda amalga oshirilsa, maqsad tergovning to'liq va har tomonlama olib borilishiga to'sqinlik qilish hisoblanadi. Sud ishlarini hal etishga aralashishning maqsadi adolat qaror topishiga to'sqinlik qilish: ish bo'yicha sudyalari (yoki sudya) tomonidan qonuniy va adolatli qaror (hukm, ajrim, qaror va hal qiluv qarori) qabul qilish hisoblanadi.

Jinoyat **subyeksi** — 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs.

JK 236-moddasi 2-qismida tergov qilish yoki sud ishlarini hal etishga aralashish mansabdor shaxs tomonidan sodir etilsa, og'irroq javobgarlikni keltirib chiqarishi ko'rsatilgan.

Mansabdor shaxs deganda, ishni tergov qilish yoki hal etishga aralashishga bevosita vakolati bo'lgan shaxsni tushunish lozim. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudya ham qoida bo'yicha mansabdor shaxs hisoblanadi. Eng avvalo, davlat mansabini egallagan shaxslar mansabdor shaxslardir. Bundan tashqari, sudya mansab vakolati bilan bog'liq bo'lmagan holda, u bilan aloqador shaxslar, masalan, sudya, prokuror yoki tergovchining farzandlari ta'lim olayotgan maktab direktori, sudya yoki uning qarindoshi yashayotgan uyning, mahallaning oqsoqoli va boshqalar ham mansabdor shaxs deb topiladi.

Prokurorning tergovchi, surishtiruvchiga ko'rsatmalari, shuningdek, yuqori turuvchi prokurorning quyi turuvchi prokurorga tergov qilinayotgan ish bo'yicha ko'rsatmalari jinoyat-protsessual qonuni bo'yicha ishni tergov qilishga aralashish deb topilmaydi. O'zbekiston Respublikasi JPK 37-moddasi doirasida tergov bo'limi boshliqining ko'rsatmalari ushbu jinoyat tarkibini tashkil qilmaydi.

9-§. Yolg'on xabar berish (JK 237-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekt**i odil sudlov organlarining normal faoliyati, fuqarolarning qonun bilan himoya qilinadigan huquq va manfaatlari hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat to'g'risida bila turib, jinoyat sodir etilgani haqida yolg'on xabar berishda ifodalanadi.

Yolg'on xabar berish deganda, yozma yoki og'zaki ravishda bevosita aybdor yoki boshqa shaxs tomonidan sodir etilgan, tugallangan jinoyat haqidagi yoki jinoyatga tayyorgarlik ko'rilayotganligi yoxud tajovuz haqidagi haqiqatga to'g'ri kelmaydigan xabar berishni tushunish zarur. Odatda, bunday xabarlar jinoiy ish qo'zg'atish huquqiga ega bo'lgan idoralarga kelib tushadi. Prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, soliq organlari, davlat hokimiyati organlari va hokazolar shular jumlasidandir.

Yolg'on xabarda aybdor tomonidan jinoyatni sodir etgan shaxs ko'rsatilishi yoxud jinoyat sodir etilganligi haqidagi fakt ma'lum qilinishi mumkin.

Bila turib yolg'on xabar berish oqibatlari (jinoiy ish qo'zg'atilgani yoki qo'zg'atilmagani)dan qat'i nazar, bu qilmish tegishli organlarga xabar qilingan paytdan e'tiboran **tugallangan** deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Yolg'on xabar bergan shaxs o'zi ma'lum qilgan ma'lumotlarning haqiqatga to'g'ri kelmasligini yaxshi bilishi lozim. Aybdor xabar qilingan axborotni baholashda haqiqatdan ham adashgan bo'lsa, uni sharhlanayotgan modda bo'yicha javobgarlikka tortib bo'lmaydi.

Yolg'on xabar berilishining **motivlari** har xil: bir-birini ko'ra olmaslik, o'ch olish, hasad, g'arazgo'ylik bo'lishi mumkin.

Bila turib yolg'on xabar berishdan ko'zlangan **maqsad**, aksariyat hollarda, jinoyatni sodir etishda ayblanayotgan shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish xohishidir.

Jinoyatning **subyekt**i 16 yoshga to'lgan, aqli raso har qanday jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Shuningdek, JKning **237-moddasi 2-qismida** quyidagi yolg'on xabar berganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan:

- a) ayblovning sun'iy dalillarini vujudga keltirgan holda;
- b) g'arazgo'ylik niyatlarida;
- v) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab;
- g) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etilgan bo'lsa.

Ayblovning sun'iy dalillarini vujudga keltirish deganda, jinoyatga aloqasi bo'lgan dalillarning soxtalashtirilishini (soxta guvohlar, qandaydir hujjatlar, yozuvlar, fotosuratlar keltirilishi va h.k.larni) tushunish zarur.

Agar xabar beruvchi tomonidan guvoh yoki boshqa shaxsning pora evaziga o'ziga og'dirish, uni shantaj, jismoniy kuch ishlatishni qo'llash tahdidi, mulkni yo'q qilish va hokazolar orqali ko'rsatma berishga majburlash aniqlangan taqdirda, u JKning 237-moddasi va 238-moddasi 2-qismi (yolg'on guvohlik berish)da nazarda tutilgan jinoyatlar yig'indisi bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Og'ir, o'ta og'ir jinoyatlar tushunchasi haqida O'zR JKning 15-moddasi izohiga qarang.

Sharhlanayotgan moddaning 3-qismida og'ir oqibatlariga olib kelgan yolg'on xabar uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Og'ir oqibatlar deganda, yolg'on xabar sodir etilgan shaxsning ruhiy holatining buzilishi, o'zini o'zi o'ldirishi tushuniladi.

10-§. Yolg'on guvohlik berish (JK 238-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyekt**i sud ishlarini yuritishda dalillarni shakllantirish tartibini belgilovchi ijtimoiy munosabatlardir. Jinoyatning **fakultativ obyekt**i jinoyat protsessi ishtirokchilari, shuningdek, boshqa manfaatdor shaxslarning qonuniy manfaatlari, xavfsizligi va huquqlari hisoblanadi.

JK 238-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan **jinoyat obyektiv tomondan** guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishida, ekspertning bila turib noto'g'ri xulosa berishida, tarjimonning bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto'g'ri tarjima qilishida ifodalanadi.

Ko'rsatuv berish deganda, jinoyat yoxud fuqarolik ishi yuzasidan aniqlanishi kerak bo'lgan holatlar haqida axborot berishni tushunish zarur.

Ishning haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yoxud buzilgan holatlari haqidagi

ko'rsatuv yolg'on ko'rsatuv hisoblanadi. Masalan, isbotlash ahamiyatiga molik ma'lum dalillarni xabar qilmaslik yoxud o'ylab topilgan dalillarni ma'lum qilish.

(«Guvoh» va «jabrlanuvchi» tushunchalari haqida JK 235-moddasi tahliliga qarang.)

Guvoh yoki jabrlanuvchi tomonidan ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar haqida atayin aytmaslik, guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilish huquqiga ega bo'lgan sud va boshqa ishtirokchilarning bergan biron-bir savollariga javob bermasligi haqida aytmagan taqdirdagina, JK 238-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortishga asos bo'lishi mumkin. Guvoh yoki jabrlanuvchi yoxud ekspertning ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar to'g'risida ko'rsatuv berishdan bosh tortishi, JK 240-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Guvohlar yoki jabrlanuvchining bir ish yuzasidan takror ravishda (ya'ni, bir necha marotaba) dastlabki tergov bosqichlari va sud majlisida bergan yolg'on ko'rsatmalarini alohida-alohida mustaqil jinoyatlar sifatida e'tirof etib bo'lmaydi. Bu davomli jinoyat sifatida e'tirof etiladi.

Jinoyat norma dispozitsiyasida ko'rsatib o'tilgan qilmishlar sodir etilishi bilan tugallangan hisoblanadi. Agar ko'rsatma, xulosa yoki tarjima og'zaki qilinadigan bo'lsa, jinoyat ko'rsatma, xulosa berish va tarjimaning oxiriga etishi bilan **tugallangan** hisoblanadi. Agar ular yozma ravishda beriladigan bo'lsa, so'roq bayonnomasiga imzo qo'ygandan, tarjima yoki xulosani imzolash va uni sud organiga berish bilan jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Jinoyatni tugallangan deb topish uchun hech qanday oqibat kelib chiqishi, masalan, sudlanuvchining mahkum bo'lishi yoki oqlanishi, tarjima, xulosalar dalil sifatida olinib, aybdorga nisbatan javobgarlik vujudga kelishi va boshqalar talab qilinmaydi.

Ekspert — jinoiy, ma'muriy, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha vujudga keladigan fan, texnik va boshqa maxsus masalalar bo'yicha xulosa berish uchun zarur bilimga ega bo'lgan har qanday shaxs. U maxsus bilimlarini ishlatgan holda, obyektiv va har tomonlama tekshiruv asosida o'z nomidan xulosa tuzadi va taqdim etgan xulosasiga javobgardir (JPK

67-moddasi).

Ekspert xulosasi — vakolatga ega bo'lgan shaxs tomonidan tekshiruvga taqdim etilgan holatning biron-bir tomoni haqida maxsus bilimlar asosida taqdim etilgan xulosa. Xulosani faqat vakolatga ega bo'lgan shaxs taqdim qilishi mumkin.

Noto'g'ri ekspert xulosasi — ekspertning ish materiallariga (hujjatlar, daliliy ashyolarga) noto'g'ri baho berishi. Shuningdek, ekspertiza davrida aniqlangan holatlar bo'yicha faktlarni buzib ko'rsatish, ushbu faktlarni xulosada ko'rsatmaslik noto'g'ri tushuntirish berish ham noto'g'ri xulosa deb topiladi. Xulosa berilgan vaqtdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Tarjima — bir tildagi biron-bir ma'lumotlar, axborotlarni boshqa tilda bayon etishga qaratilgan faoliyat. Til deganda, nafaqat so'zlashuv («tovushli») tili, balki maxsus bilimlarni talab qilmaydigan keng tarqalgan va qo'llanadigan belgilar tili (misol uchun, kar-soqovlar tili) ham tushunilishi mumkin (jumladan, qadimgi Misr tili, qandaydir shifr).

Tarjima bir tildan boshqasiga yozma yoki og'zaki, bitta yoki bir necha tarjimonlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shuni ta'kidlash zarurki, bila turib noto'g'ri tarjima qilganlik uchun faqat muayyan ishda tarjimonlar sifatida jalb qilingan shaxslarni javobgarlikka tortish mumkin.

Noto'g'ri tarjima qilish yozma yoki og'zaki nutqning mazmunini bir tildan ikkinchi tilga buzib, noto'g'ri tarjima qilishda ifodalanadi. Noto'g'ri tarjimaga ish holatlari bo'yicha ma'lum bir holatlar bo'yicha sukut saqlash ham kiritiladi. Noto'g'ri tarjima qilish bilan bog'liq biror-bir harakatlar sodir etilgan vaqtdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi.

Jinoyatning **subyektiv tomoni to'g'ri qasdda** ifodalanadi. Sanab o'tilgan shaxslar o'zlari berayotgan ko'rsatma, xulosa yoki tarjima haqiqatga mos kelmasligini anglaydi va ularni noto'g'ri ma'lumot sifatida sud yoxud odil sudlovni amalga oshiruvchi boshqa organlarga berishga harakat qiladi.

Oldindan bilish belgisi sharhlanayotgan jazoga loyiq xulq-atvorni jazo belgilanmaydigan ehtiyotsiz qilmishdan ajratadi. Bu, masalan, jabrlanuvchi yoki guvohning esdan chiqqani, chalg'igani tufayli haqiqatga

to'g'ri kelmaydigan ko'rsatma berishi yoxud bilimsiz ekspert yoki tarjimonning noto'g'ri xulosa yoxud tarjimasi bo'lishi mumkin. Jinoyatning **motivi** (g'arazli, o'ch olish, shaxsiy salbiy munosabatlar) qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi.

Jinoyat **subyeksi** maxsus bo'lib, 16 yoshga to'lgan, qonun bo'yicha ishda guvoh, jabrlanuvchi, ekspert yoki tarjimon sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan shaxs hisoblanadi. 16 yoshga to'lmaganlar va ishga guvoh va jabrlanuvchi sifatida jalb qilingan shaxslar mazkur jinoyat subyeksi hisoblanmaydi.

JK 238-moddasi 2-qismining obyektiv tomoni:

1) surishtiruv olib borish, dastlabki tergov, ishni sudda ko'rish vaqtida guvoh yoki jabrlanuvchining yolg'on ko'rsatuv berishi yoki ekspertning yolg'on xulosa berishi yoxud tarjimonni noto'g'ri tarjima qilishi uchun pora evaziga og'dirib olishdan;

2) ularga yoki ularning yaqin qarindoshlariga ruhiy yoki jismoniy tazyiq o'tkazish orqali yolg'on guvohlik berishga majburlashdan iboratdir.

Pora evaziga og'dirib olish — bu yolg'on guvohlik berish evaziga aybdorlarning shaxsan o'ziga yoki vositachilari orqali ko'rsatilgan shaxslarga pul, qimmatli qog'oz, boshqa mulk berish yoki mulkiy xarakterda bo'lgan xizmatlarni, ishni dastlabki tergovda yoki sud majlisida ko'rish vaqtida, yolg'on guvohlik berish uchun bajarishda ifodalanadi.

Jinsiy aloqaga kirishishga taklif qilish poraning predmeti bo'la olmaydi. Mulkiy xarakterda bo'lmagan manfaat va foydali xizmatlarni bajarish (ishga joylashtirish va boshqalar) mazkur jinoyat tarkibini tashkil qilmaydi. Moddiy yo'sindagi xizmatlar sirasiga qarzdin voz kyechish, qandaydir imtiyozlarni berish va h.k.larni kiritish mumkin. Pora miqdori jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

Guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, tarjimonni pora evaziga og'dirish aytib o'tilgan shaxslarga muayyan moddiy mukofot berilgan paytdan e'tiboran **tugallangan** jinoyat hisoblanadi.

JKning 238-moddasi 2-qismi bilan yolg'on guvohlik berishga ruhiy, jismoniy, psixologik zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ruhiy tazyiq va psixologik ta'sir o'tkazish aybdor tomonidan sharhlanayotgan jinoyatning sodir etilishini sog'liq yoki mulkka zarar yetkazish bilan qo'rqitish orqali talab qilishda ifodalanadi.

Ruhiy tazyiq o'tkazish yo'li bilan yolg'on guvohlikka majburlash po'pisa qilingan paytdan boshlab, aybdor istagan natijasiga erishganmi yoki yo'qmi, bundan qat'i nazar, jinoyat hisoblanadi.

Jismoniy tazyiq o'tkazish jabrlanuvchini urish orqali unga yengil tan jarohati yetkazishda ifodalanadi. Jabrlanuvchiga o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati yetkazilganda, aybdorning qilmishi sog'liqqa zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan moddalarga asosan jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak (JK 104-, 105-moddalari). O'ldirish bilan qo'rqitish yolg'on guvohlik berish bilan birga jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak (JK 112- va 238-moddalari).

Subyektiv tomondan jinoyat to'g'ri qasddan sodir etiladi.

Jinoyatning sodir etilish **motivlari** jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega emas. Jinoyatni sodir etishdan ko'zlangan **maqsad** — guvoh, jabrlanuvchi, ekspertni yolg'on ko'rsatuv yoki xulosa berishga, tarjimonni noto'g'ri tarjima qilishga og'irishdan iboratdir.

16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxs JK 238-moddasining 2-qismida javobgarlik belgilangan **jinoyatning subyekt**i bo'lishi mumkin.

Sharhlanayotgan **moddaning 3-qismida** uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlangan holda (*uyushgan guruh manfaatlari tushunchasi haqida O'zR JKning 164-moddasining sharhiga qarang*) yoxud og'ir va o'ta og'ir jinoyatni sodir etishda ayblashda (*og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar tushunchasi haqida O'zR JKning 15-moddasining sharhiga qarang*) yolg'on guvohlik berish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

11-§. Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilish (JK 239-moddasi)

Jinoyatning **bevosita obyektini** dastlabki tergov va surishtiruv organlarining normal faoliyat yuritishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.

Obyektiv tomondan surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning ruxsatisiz oshkor qilishda ifodalanadi.

Oshkor etish deganda, ishdagi ma'lumotlarning oshkor qilinishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi haqida tergovchi tomonidan ogohlantirilgan jabrlanuvchi, guvoh, himoyachi yoxud boshqa shaxslarning ana shunday axborotni uchinchi shaxslarga har qanday ko'rinishda oshkor qilishini tushunish zarur.

Aksariyat hollarda, surishtiruv, dastlabki tergovning oshkor qilib bo'lmaydigan ma'lumotlariga muayyan ishdagi jiddiy ahamiyatga molik axborotlar (guvohlarning ko'rsatuvlari, ekspert xulosasi va h.k.lar) ham kiradi.

Surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirish jarayonida olingan ma'lumotlar jinoyat **predmeti** hisoblanadi.

Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlari deb, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida olingan, so'roq, yuzlashtirish, tintuv, tergov eksperimentlari bayonnomalarida, ekspertiza materiallari va boshqa hujjatlarda mavjud ma'lumotlarga aytiladi. Biroq sharhlanayotgan modda nuqtai nazaridan **ma'lumotlar** deganda, faqat surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida olinib, ularga nisbatan tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror ularni ovoza qilganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirgan hamda bu haqda tegishli tilxat olingan ma'lumotlarga tushuniladi.

Agar shaxs ma'lumotlarni ovoza qilganligi uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilmagan bo'lsa, uni sharhlanayotgan modda bo'yicha javobgarlikka jalb qilish mumkin emas.

Bu ma'lumotlar, shuningdek, boshqa yo'l bilan (masalan, shohid, guvoh, boshqa shaxslar bilan suhbatlashuv natijasida) olingan bo'lishi mumkin. Biroq surishtiruv va dastlabki tergovga oid ma'lumot sifatida e'tirof etilishi uchun ularga nisbatan aybdordan JPK 353-moddasiga binoan tilxat olingan bo'lishi shart. Bunda bu ma'lumotlar kimga yoki nimaga taalluqliligi ahamiyatga ega bo'lmaydi. Masalan, ekspert o'zi o'tkazgan ekspertiza ma'lumotlarini, guvoh — o'z ko'rsatmalarini ovoza qilish

huquqiga ega emas. JPK 353-moddasi 1-qismiga ko'ra, «tergovchi jinoyat ishidagi barcha ma'lumotlarni yoki uning muayyan qismidagi ma'lumotlarni oshkor qilinmaydigan deb e'tirof etishga haqli. Ana shu asosda u tergov harakatlarida ishtirok etayotgan yoki tergov harakatlarini bajarishda hozir bo'lgan yoxud tergov materiallari bilan tanishayotgan shaxslardan ularning zimmasiga ishda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni uning ruxsatisiz oshkor qilmaslik to'g'risida majburiyat yuklatilgani haqida tilxat olishi mumkin».

Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlari oshkor qilingan, ana shu axborotlar begona shaxslar mulkiga aylangan paytdan e'tiboran jinoyat **tugallangan** deb e'tirof etiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasddan** sodir etilishi mumkin. Aybdor ma'lum etilishi taqiqlangan ma'lumotlarni oshkor etayotganligini anglaydi va buni xohlaydi.

Bu jinoyatning **motivi** va **maqsadi** turlicha, masalan, o'zining xabardorligi bilan maqtanish, g'arazli yoki boshqa shaxsiy manfaatlar bo'lishi mumkin, ular kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi.

Jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan, surishtiruv, dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilsa, jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan ogohlantirilgan, har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

Shuningdek, guvoh, jabrlanuvchi, fuqarolik da'vogari yoki javobgari, advokat, ekspert, mutaxassis va h.k.lar ham jinoyatning subyeksi bo'lishi mumkin.

12-§. Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o'z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo'yin tovlashi (JK 240-moddasi)

Mazkur **jinoyatning bevosita obyeksi** jinoyat ish yurituvda isbotlash jarayonini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Obyektiv tomondan jinoyat guvoh yoki jabrlanuvchining surishtiruv, dastlabki tergov jarayonida yoki sudda guvohlik berishdan, yo bo'lmasa ekspertning xulosa berishni rad etishi yoki bu ishdan bo'yin tovlashidan iborat bo'ladi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligiga (JPK 117-moddasiga) muvofiq, guvoh yoki jabrlanuvchining shaxsi aniqlangandan va unga protsessual huquq hamda majburiyatlari tushuntirilgandan keyin u ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik va bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ogohlantirilib, bu haqda so'roq bayonnomasi yoki sud majlisi bayonnomasiga yozib qo'yiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari **ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik** uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantirilmaydilar.

«Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan aniqlanayotgan holatlar o'zida davlat sirlarini yoki kasb sirini yoxud guvon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoxud boshqa shaxslar hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettirganligini bahona qilib, guvoh va jabrlanuvchi ko'rsatuv berishdan bosh tortishga haqli emas» (JPK 118-moddasi).

Ko'rsatuv berishdan bosh tortish — bu guvohga yoki jabrlanuvchiga ma'lum bo'lgan sud ishini to'g'ri hal qilishda ahamiyatga ega bo'lgan ishga taalluqli faktlar va holatlar haqida ma'lumotlarni aytmalikda namoyon bo'ladi.

Guvoh yoki jabrlanuvchining ko'rsatma berishdan bosh tortishi og'zaki yoki yozma tarzda bevosita ariza berish bilan amalga oshirilishi mumkin.

Guvoh yoki jabrlanuvchi ko'rsatma bera turib, ishning ba'zi jihatlari yuzasidan yolg'on guvohlik bersalar, ularning harakatlari, shuningdek, qisman yolg'on xulosa bergan ekspert harakatlari yolg'on guvohlik berish sifatida JK 238-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Guvoh, jabrlanuvchining ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlashi deganda, ko'rsatma berishdan bosh tortish maqsadida biron-bir uzrsiz sabablarni izlab topish tushuniladi (o'zini kasal qilib ko'rsatish, og'ir oilaviy ahvolini vaj qilish va hokazo).

Ekspertning xulosa berishdan bo'yin tovlashi deganda, o'z malakasi pastligi, o'zini yomon sezayotganligi, achinish hissini keltirib chiqarish istagi kabilar tushuniladi.

Uzrli sabablarsiz ko'rsatuv berish yoxud xulosa chiqarishdan bosh tortish yoki bo'yin tovlash ma'lum qilingan paytdan e'tiboran ushbu

jinoyat tugallangan deb hisoblanadi.

Surishtiruv, dastlabki tergov organi yoki sudga guvoh, jabrlanuvchi yoki ekspert sifatida chaqirilgan shaxslar jinoyat **subyekt**i bo‘lishi mumkin.

(«Guvoh», «jabrlanuvchi» va «ekspert» tushunchalari haqida JKning 235- va 238-moddalari tahliliga qarang.)

Jinoyat kodeksi 240-moddasining 2-qismiga muvofiq, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yaqin qarindoshlari guvohlik ko‘rsatuvi berishni rad etganligi yoki bundan bo‘yin tovlaganligi uchun, shuningdek, guvoh o‘ziga qarshi ko‘rsatuv berishni rad etganda javobgarlikka tortilmaydilar.

13-§. Jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish (JK 241-moddasi)

Jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirishning **bevosita obyekt**i — mazmuni odil sudlovni amalga oshiradigan sud, prokuratura, dastlabki tergov yoki surishtiruv idoralarining bir me‘yordagi faoliyatidan iborat bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar.

Obyektiv tomondan JK 241-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat tayyorgarlik ko‘rilayotgan yoki sodir etilgan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat haqida aniq bilgani holda xabar bermaslikdan iboratdir.

NOTA BENE !

Xabar bermaslik deganda, o‘z faoliyati munosabati bilan yoxud boshqa sabablarga ko‘ra qandaydir shaxslar tomonidan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik ko‘rilayotganligi yoxud tugallangan jinoyatdan xabar topgan shaxsning shu haqdagi axborotni davlat hokimiyati, huquqni muhofaza qilish organlariga yetkazmasligini tushunish zarur.

Tayyorlanayotgan jinoyat — bu ijtimoiy xavfli bo‘lgan qilmishni sodir etishni tayyorlashga qaratilgan harakatlar. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish zarur qurol, portlovchi moddalar, vaziyatni o‘rganish, ishtirokchilarni qidirish va hokazolarda ifodalanishi mumkin.

Sodir etilgan jinoyat — jinoyatning tugallangan tarkibini tashkil qiluvchi harakatdir. Sodir etilgan jinoyat kabi, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish ham sharhlanayotgan modda doirasida ko‘rib chiqilishi kerak.

Tayyorlanayotgani aniq ma‘lum bo‘lgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida ayblanuvchi huquqni muhofaza qilish organlari: surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sudga xabar bermagan holdagina xabar bermaslikni tan olish mumkin. Bunday organlarga xabar berish yozma yoki o‘zaki; shaxsan yoki vositachi orqali; anonim yoki ochiq tarzda amalga oshirilishi mumkin, xabar berishning shakli va turi ahamiyatga ega emas.

Mazkur modda bo‘yicha javobgarlik yuzaga kelishining muhim sharti — ma‘lumotlar aybdorga aniq ma‘lum bo‘lishi lozimligi.

Shaxsda ularning haqiqiylikiga ishonch tug‘diradigan xarakterli manbalardan olingan ma‘lumotlar **aniq ma‘lumotlar** deb hisoblanadi.

Qonunda shaxs unga ma‘lum bo‘lgan, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida ma‘lumot berishi muddati ko‘rsatilmagan. Bunday muddat deb, shaxsga jinoyat haqida ma‘lum bo‘lganidan keyingi eng qisqa muddat tan olinadi. Shu muddat mobaynida shaxs tegishli organlarga bu haqda ma‘lumot berish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

(«Og‘ir» yoki «o‘ta og‘ir» jinoyatlar tushunchalari haqida JKning 230-moddasi tahliliga qarang.)

Aniq bilgani holda tayyorgarlik ko‘rilayotgan yoki sodir etilgan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat haqida **xabar bermaslik** shaxs ana shu faktlarni ma‘lum qilish harakatini ko‘rmagan paytdan e‘tiboran **tugallangan** jinoyat deb hisoblanadi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to‘g‘ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor unga qonun tomonidan yuklatilgan burchini — aniq ma‘lum bo‘lgan, tayyorlanayotgan, sodir etilgan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat haqida xabar berishni — bajarmayotganligini biladi va shuni xohlaydi.

Ushbu jinoyatning sodir etilish sabablari turli bo‘lishi mumkin: boshqalarning ishiga «aralashishni» xohlamaslik; taxmin qilingan tajovuzdan qo‘rqish, g‘arazgo‘ylik va hokazo. Ammo ular qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta‘sir qilmaydi, biroq sud tomonidan jazo

tayinlashda hisobga olinishi mumkin.

Jinoyatning sodir etilish **motivi** har xil (jinoyatni sodir etgan shaxsni yashirib qolish, guvoh sifatida ishtirok etishni istamaslik va h.k.) bo'lishi mumkin.

Tahlil qilinayotgan jinoyatning **subyeksi** 16 yoshga to'lgan, har qanday aqli raso shaxs bo'lishi mumkin. O'z xizmat vazifalariga ko'ra o'zlariga ma'lum bo'lgan, tayyorlanayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyatlar haqida xabar berishga majbur bo'lgan va ular haqida xabar bermayotgan mansabdor shaxslar mansab sovuqqonligi yoki hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlikka tortiladi.

JK 241-moddasi 2-qismi og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni oldindan va'da bermasdan yashirish uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

NOTA BENE !

Yashirish deganda, jinoyatchi, jinoyat izlari, sodir etilgan jinoyat qurollari va vositalari, jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan predmetlarning yashirilishini tushunish zarur. Yashirish uy-joyini, qiyofasini o'zgartirish uchun kiyim-kechak berishdan, shaxsni biron-bir hujjat bilan ta'minlashdan, qon izlarini, barmoq izlarini yo'qotishdan va h.k.lardan iborat bo'lishi ham mumkin.

Yashirish **obyektiv tomondan** jinoyatchini, uning jinoyati izlarini, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatni sodir etishdagi vosita va qurol-yarog'ini yoxud og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatni sodir etish natijasida olingan buyum va qimmatbaho narsalarni berkitishda ifodalanishi mumkin.

Jinoyatchini yashirish — bu unga boshpana, transport vositalari berish, qalbaki hujjatlar bilan ta'minlash, tashqi qiyofasini o'zgartirishda yordam berish.

Jinoyat sodir etish quroli va vositalarini yashirish — jinoyat sodir etilgan qurol va boshqa narsalarni yashirish, berkitish yoki ularni yo'q qilish yoki o'zgartirish.

Jinoyat izlarini yoki jinoyat yo'li bilan olingan narsalarni yashirish ularni berkitish, boshqa joyga olib borish, yo'q qilish, tashqi ko'rinishini

o'zgartirish, zavod tamg'asi detal nomerini qalbakilashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Jinoyat predmetlarini yashirish harakatlari natijasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan boshqa obyektlarga ham zarar yetkazilgan taqdirda qilmish tegishli moddalar bilan jinoyatlar jami tariqasida tavsiflanadi. Masalan, jinoyat predmeti bo'lgan o'qotar qurolni yashirish harakatlarini JK 241-moddasi va 248-moddalari (qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish) bilan jinoyatlar jami tariqasida tavsiflash lozim.

Mazkur jinoyat faqatgina **faol harakat** orqali sodir etilishi mumkin.

Yordamchi tarzidagi ishtirokchilikdan farqli ravishda, mazkur modda ma'nosida yashirish og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etilgandan so'ng aybdor tomonidan amalga oshiriladi, shuning uchun u sodir etilgan jinoyat va uning oqibatlarini bilan sababiy bog'lanishda emas. Bundan tashqari, og'ir jinoyat yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etilguncha aybdor u haqida bilmaydi va jinoyat izlarini oldindan yo'q qilishga va'da bermaydi.

Agar yashirish doimiy xususiyatga ega bo'lsa, bu bajaruvchini jinoyatni sodir etishda yordamlashganlik deb hisobga olish uchun asos bo'ladi va uning harakatlarini ishtirokchilik sifatida kvalifikatsiya qilish lozim.

Shaxs jinoyatchini jinoyat sodir etish quroli va vositalarini, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatni sodir etish natijasida olingan narsa va qimmatbaho buyumlarni yashirishga yo'naltirilgan harakatlarni amalga oshirganda, jinoyat **tugallangan** deb topiladi.

Subyektiv tomondan jinoyat **to'g'ri qasd** bilan tavsiflanadi. Shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatni yashirayotganini biladi va buni xohlaydi.

Jinoyatning **motivi** turlicha (g'arazgo'ylik, jinoyatchidan qo'rqish, odil sudlov organlaridan o'ch olish, yashirilayotgan shaxs bilan qarindoshlik, yaqin do'stlik munosabatlari va hokazolar) bo'lishi mumkin. Ammo bu motivlar jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ta'sir etmaydi.

Yashirish maqsadi va motivi jinoyat tarkibi chegarasidan tashqarida bo'ladi va sud tomonidan jazo tayinlashda hisobga olinadi.

16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs ushbu jinoyat **subyekt** bo'lishi mumkin.

JK 31-moddasi 3-qismiga ko‘ra, «Oldindan va‘da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaganlik yoki jinoyatni yashirganlik uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yaqin qarindoshlari javobgarlikka tortilmaydi».

(«Yaqin qarindoshlar» tushunchasi haqida JK VIII bo‘limiga qarang.)

Agar oldindan va‘da bermagan holda jinoyatlarni yashirish mansabdor shaxs tomonidan o‘z xizmat vakolatlaridan foydalangan holda sodir etilsa jinoyatni JKning 241-moddasi va 205-moddalari jami tariqasida kvalifikatsiya qilish lozim.

14-§. Jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirish (JK 241¹-moddasi)

Jinoyat ishini qo‘zg‘atishga sabab bo‘luvchi arizalar, xabarlar va boshqa jinoyat haqidagi ma‘lumotlarning taqdim etilishi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bu ma‘lumotlarni sinchiklab o‘rganib chiqish va bu ish bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atish borasidagi masalani ko‘rib chiqishga yo‘naltiradi.

Jinoyatlarni ro‘yxatga olishni qasddan yashirish eng avvalo, jinoyatni ochishda to‘siq bo‘ladi, fuqarolarni odil sudlov ishida qatnashish imkoniyatini cheklaydi, unga bo‘lgan ishonchni so‘ndiradi, shu bilan birga jinoyat sodir etgan shaxslarning jazolanmay qolishiga olib keladi.

Shu bilan bog‘liq ravishda O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi organi JKga jinoyatlarni ro‘yxatga olishni qasddan yashirganlik uchun javobgarlikni o‘rnatuvchi yangi norma — **241¹-moddani** qo‘shish to‘g‘risida qonun qabul qildi.

Jinoyatning bevosita obykti — jinoyat haqidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma‘lumotlarni qabul qilish va ko‘rib chiqishni belgilab beruvchi jinoyat-protsessual qonunchiligi bilan o‘rnatilgan tartibni belgilab beruvchi ijtimoiy munosabatlar. Jinoyatning **fakultativ obykti** sifatida bu yerda jinoiy tajovuzlardan muhofazalanishga bo‘lgan fuqarolarning huquq va manfaatlarini o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy munosabatlar namoyon bo‘ladi.

Jinoyatning predmeti bo‘lib ariza (aybdorning arizasi yoki shaxs arizasi), xabar (korxonalar, muassasa, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va

mansabdor shaxslarning xabarlari, shuningdek, OAVlarining xabarlari), jinoyat ishini qo'zg'atishga vakolatli bo'lgan davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan bevosita aniqlangan boshqa jinoyat haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Shaxslarning jinoyat to'g'risidagi arizalari yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin. Yozma ariza arz qiluvchi shaxs tomonidan imzolangan bo'lishi lozim. Og'zaki ariza bayonnomada qayd etiladi (JPK 324-moddasi).

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar jinoyat to'g'risida bergan xabarlar xizmat xati yoki tasdiqlangan telefonogramma, telegramma yoxud radiogramma shaklida bo'lishi lozim. Xabar yuboruvchi sodir etilgan jinoyatga oid holatlarni tasdiqlovchi o'z ixtiyoridagi hujjatlarni xabarga ilova qilib yuborishi mumkin (JPK 326-moddasi).

Muayyan jinoyat to'g'risida matbuot, radio va televideniya, hujjatli kinofilmlardagi, shuningdek, ommaviy axborot vositalariga yo'llangan, lekin e'lon qilinmagan xatlardagi xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'ladi.

Jinoyat to'g'risidagi xabarni e'lon qilgan yoki tegishli joylarga yuborgan ommaviy axborot vositalari, shuningdek, bu xabar mualliflari surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning talabiga asosan o'z ixtiyorlarida bo'lgan hujjatlarni va xabarni tasdiqlovchi boshqa materiallarni taqdim qilishlari shart (JPK 327-moddasi).

Jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlarning bevosita aniqlanishi quyidagi hollarda jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'lishi mumkin:

1) surishtiruvchi ma'muriy vazifani amalga oshirayotganida yoki boshqa jinoyatga doir ish bo'yicha surishtiruv o'tkazish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida;

2) tergovchi boshqa jinoyatga doir ish bo'yicha dastlabki tergov yuritish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida;

3) prokuror qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish paytida yoki boshqa jinoyatga doir ish bo'yicha dastlabki tergov olib borish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida;

4) sudya ma'muriy huquqbuzarlikka doir ishni yuritish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida;

5) sud fuqaroviy ishni yoki boshqa jinoyatga doir ishni yuritish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida (JPK 328-moddasi).

JK 241¹-moddasining **obyektiv tomoni** jinoyatni ro'yxatga olishni **yashirish**, ya'ni tegishli mansabdor shaxs hech qanday asoslarsiz arizani (xabarni) qabul qilishdan bosh tortishi yoki ro'yxatga olishni rad etishiga qaratilgan jinoiy harakatsizligida namoyon bo'ladi; jinoyat haqidagi aniqlangan ma'lumotlarni yo'q qilish; ariza, xabar yoki ma'lumotlarni o'rganib chiqmaslik, jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani hal qilish uchun tegishli bo'lgan va o'rganib chiqish zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'rganib chiqmaslik yoki ushbu ma'lumotlarni o'rganib chiqish natijalari bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi asoslanmagan qaror chiqarishdan iborat harakatdan iborat.

JPK 329-moddasi 1-qismiga ko'ra, jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi va darhol, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini bevosita yoxud surishtiruv organlari yordamida tekshirish zarurati bo'lgan taqdirda esa, o'n sutkadan kechiktirmasdan hal qilishi lozim. Ushbu muddat jinoyatga oid ma'lumotlar olingan paytdan boshlab hamda to ishni qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqarilguniga qadar yoxud tergovga qadar tekshiruv materiallari JPK 587-moddasiga muvofiq prokurorga yuborilguniga qadar bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

Mazkur jinoyat aybdorning jinoyat haqidagi arizani (xabar) qabul qilishni rad etgan yoki jinoyat haqida olingan (bevosita aniqlangan) ma'lumotlarni yo'q qilgan yoxud yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarni ko'rib chiqish yoki ro'yxatga olish uchun o'rnatilgan qonuniy muddatlarning o'tishi bilan **jinoyat tugallangan** hisoblanadi.

Jinoyatni ro'yxatga olishni qasddan yashirish jinoyati **subyektiv tomondan to'g'ri qasd** bilan tavsiflanadi. Aybdor o'z harakati (harakatsizligi)ning jinoiyligini oldindan biladi va jinoyatni ro'yxatga olishdan yashirishni xohlaydi. Bu holatda subyekt g'arazgo'ylik niyatlarda biron-bir shaxsdan o'ch olish yoki manfaatdor shaxslarning bevosita yoki

bilvosita ko'rsatmalarini bajarish orqali jinoyat sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikdan olib qolish maqsadalarida harakat qilishi mumkin.

Jinoyatning **motivi** va **maqsadi** qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi, faqatgina uni ta'minlaydi.

Agar jinoyat ehtiyotsizlik orqali sodir etilsa, bu holatda aybdor mansabdor shaxsni JKning 207-moddasiga ko'ra (Mansab sovuqqonligi) javobgarlikka tortish lozim.

Qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tilganidek, mazkur jinoyatning **subyeksi** maxsus bo'lib, unga aynan jinoyat haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish yoki ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish xizmat majburiyatiga kiruvchi mansabdor shaxslar kiradi. Ish holatlariga qarab, u surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya bo'lishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, JK **241¹-moddasida** ko'rsatilgan jinoyat o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra mansab yoki hokimiyat vakolatlarini suiiste'mol (JK 205-moddasi) qilish jinoyatining bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Bu ikki jinoyat tarkibi bir-biri bilan umumiy va maxsus o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, jinoyatni ro'yxatga olishni qasddan yashirish jinoyatini qo'shimcha ravishda JK 205-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish mumkin emas. Agar jinoyatni ro'yxatga olishni qasddan yashirish bilan bir vaqtda aybdor mansab yoki hokimiyat vakolatlarini suiiste'mol qilishga qaratilgan biror-bir harakatlarni sodir etadigan bo'lsa, u holda jinoyatlar jami tariqasida qilmishni tavsiflash mumkin.

Xuddi shuningdek, agar aybdor biror-bir moddiy manfaatlar ostida jinoyatni qasddan yashiradigan bo'lsa, u holda qilmishni jinoyatlar jami tariqasida tegishli JK normalari bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Sharhlanayotgan moddaning 2-qismida takroran, bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa yoki og'ir oqibatlariga olib kelgan taqdirda javobgarlik nazarda tutilgan.

Takroran jinoyatni sodir etishning tushunchasini JK 32-moddasi (Takroran jinoyatni sodir etish) sharhiga qarang.

Bir guruh shaxslar deganda jinoyat sodir etilishida ko'rib

chiqilayotgan moddaning subyektlari bo‘lmish ikki va undan ortiq shaxslarning ishtirokini tushunish lozim.

Hisobga olishdan qasddan yashirishning **og‘ir oqibatlar**i deb jinoiy qilmishlari yashiringan shaxs tomonidan qayta jinoyat sodir etilishini tushunish lozim.

«Odil sudlovga qarshi jinoyatlar» mavzusi bo‘yicha nazorat savollari

1. Odil sudlovga qarshi jinoyatlarning turlari.
2. Obyektiv tomondan aybsiz kishini javobgarlikka tortish qanday harakatlarda ifodalanadi?
3. Aybsiz kishi deganda nima tushuniladi?
4. Adolatsiz hukm chiqarish deganda nima tushuniladi?
5. Qanday qarorlar adolatsiz chiqarilgan hisoblanadi?
6. Sud qarorlarini bajarmaslik subyektiv tomondan qanday sodir etiladi?
7. Kimlar qonunga muvofiq ushlab turilishi mumkin?
8. Ko‘rsatuv berishga majbur etish jinoyati obyektiv tomondan qanday harakatlarda ifodalanadi?
9. Qanday harakatlar tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish deb kvalifikatsiya qilinadi?
10. Yolg‘on xabar berish yoki yolg‘on guvohlik berish jinoyati qachon tugallangan hisoblanadi?
11. Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma‘lumotlarini oshkor qilish harakatlari nimada ifodalanadi?
12. Jinoyat haqida xabar bermaslik qachon tugallangan hisoblanadi?
13. Jinoyatni yashirish qachon tugallangan hisoblanadi?
14. Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma‘lumotlarini oshkor qilish uchun jinoiy javobgarlikning kelib chiqish shartlari qanday?
15. Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o‘z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo‘yin tovlashi nimada namoyon bo‘ladi?
16. JK 240-moddasi (Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o‘z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo‘yin tovlashi) bo‘yicha javobgarlikdan ozod qilish shartlarini ayting.
17. Jinoyat haqida xabar bermaslik belgilarini yoritib bering. Jinoyatni

yashirish deganda nima tushuniladi?

18. Jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirish nimada ifodalanadi? Kim uning subyekti bo'lishi mumkin?

19. Aybdor jinoyatni hisobga olishdan yashirishiga qaysi omillar turtki berishi mumkin? Bu omillar qilmishni kvalifikatsiya qilishga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Глистин В.К. Транспортные преступления. — М.: 1981.

Алтухов С.А. Преступления сотрудников милиции. — СПб.: «Юридический центр Пресс». 2001. — 271 В.

Блинников В.А., Устинов В.С. Лжесвидетельство: уголовно-правовые, криминологические, уголовно-процессуальные и криминалистические аспекты. — Ставрополь: 1999.

Горелик А.С., Лобанова Л.В. Преступления против правосудия. — СПб.: «Юридический центр Пресс». 2005. — 460 В.

Гулямов З.Х. Преступления против правосудия, посягающие на авторитет и деятельность судебной власти и органов следствия. Учебное пособие. — Т.: Академия МВД Республики Ўзбекистан, 1996.

Гулямов З.Х. Преступления против правосудия, совершаемые дознавателями, следователями, прокурорами и судьями. Учебное пособие. — Т.: Академия МВД Республики Ўзбекистан, 1996.

Гулямов З.Х. Преступления против правосудия. Учебное пособие. — Т.: Академия МВД Республики Ўзбекистан, 1996.

Гулямов З.Х. Уголовная ответственность за несообщение о преступлении или его укрывательство. Учебное пособие. — Т.: Академия МВД Республики Ўзбекистан, 1997.

Дворянсков И.В. Уголовно-правовая охрана процессуального порядка получения доказательств / Отв. ред. А.И. Чучаев. — Ульяновск: 2001.

Денисов С.А. Преступления против правосудия. Теория и практика

применения уголовного закона. — СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002.

Друзин А.И. Воспрепятствование исполнению судебного акта / Отв. ред. А.И. Чучаев. — Ульяновск, 2001.

Кулешов Ю.И. Преступления против правосудия: понятие, система, юридический анализ и проблемы квалификации: Учебное пособие. — Хабаровск: 2001.

Лобанова Л.В. Преступления против правосудия: теоретические проблемы классификации и законодательной регламентации. — Волгоград: 1999.

Лобанова Л.В. Уголовная ответственность за ложную информацию и понуждение к нарушению обязанности содействовать правосудию. — Волгоград: 1997.

Чучаев А.И. Преступления против правосудия. Научно-практический комментарий. — Ульяновск: 1997.

Ilmiy maqolalar

Гулямов З.Х. Атака на правосудие? // Ж. Экономика и статистика. 1998. № 7. — 60–62-б.

Гулямов З.Х. Вынесение неправосудного приговора // Ж. Именем закона. 1997. № 4. — 72–76-б.

Гулямов З.Х. Вынесения неправосудного решения, определения или постановления // Ж. Именем закона. 1998. № 3. — 144–148-б.

Гулямов З.Х. Вынесения неправосудного решения, определения или постановления. (Продолжение) // Ж. Именем закона. 1998. № 2. — 89–91-б.

Гулямов З.Х. На пути к независимому суду // Ж. Именем закона. 1997. № 3. — 83–86-б.

Гулямов З.Х. Общественная опасность и социальная обусловленность ответственности за посягательства на правосудие // Ж. Ницц-Право-Law. 2002. № 3. — 54–59-б.

Гулямов З.Х. Общественная опасность и социальная обусловленность ответственности за посягательства на правосудие. (Продолжение) // Ж. Ницц-Право-Law. 2002. № 4. — 60–63-б.

Гулямов З.Х. Преступления против правосудия // Ж. Экономика и статистика. 1997. № 1. — 66–67-б.

Гулямов З.Х. Уголовная ответственность за незаконное распоряжение имуществом, подвергнутым аресту // Ж. Хозяйство и право. 1997. № 4. — 76–79-б.

Гулямов З.Х. Уголовно-правовая ответственность за неисполнение судебного решения // Ж. Хозяйство и право. 1997. № 4. — 83–86-б.

Karimov X. Qiynoqqa solganlik uchun javobgarlikning huquqiy asoslarini takomillashtiri: qiyosiy-huquqiy tahlil // Обзор законодательства Ўзбекистана. – 2016. № 4. – В. 77-80.

Мирзаев А.А. Анализ уголовно-правовых норм, устанавливающих ответственность за совершение преступлений против правосудия // Jinoyat huquqining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami (2014 yil 22 fevral). – Т.: O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2014. – В.13-19.

Николаев М. Привлечение к уголовной ответственности за заведомо ложный донос // Ж. Законность. 2000. № 8.

Сверчков В. Заведомо ложные показания, заключения эксперта или неправильный перевод // Ж. Законность. 2002. № 11.

Сверчков В. Фальсификация доказательств // Ж. Законность. 2001. № 11.

Стуканов А. Уголовные дела о лжесвидетельстве // Ж. Законность. 1996. № 1.

Чучаев А., Дворянсков И. Фальсификация доказательств // Ж. Уголовное право. 2001. № 2.

RUSTAMBAYEV MIRZAYUSUP XAKIMOVICH

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist,
yuridik fanlar doktori, professor

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT HUQUQI K U R S I

IV tom

MAXSUS QISM

IQTISODIYOT SOHASIDAGI JINOYATLAR. EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLAR. HOKIMIYAT, BOSHQARUV VA JAMOAT BIRLASHMALARI ORGANLARINING FAOLIYAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR

Oliy ta‘lim muassasalari uchun darslik
(2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan)

«Complex Print» nashriyoti, Toshkent, 2018

Muharrir: O.Rahimov

Texnik muharrir: Murakayeva Z.I.

Korrektorlar: Qosimjonova D.R., Rasulov Z.F.

Dizayner: Gabbasov B.R.

Bosishga ruxsat berildi 12.12.2018. Buyurtma № 3-и Format 60x84/16

Times New Roman garniturasida bilan raqamli usuli bilan bosildi.

Hajmi: 26.31 sh.-b.t. 27.37 n.-x.t. Adadi 80 nusxa

Nashriyot lisenziyasi Ai №004, 20.07.2018 y.

«Complex Print» nashriyoti, Toshkent sh., A.Navoiy ko‘ch., 24.

Tel.: +998 71 244 40 89

«Complex Print» bosmaxonasida chop etildi.

Lisenziya № 10-3606, 10.12.2016 y.

Toshkent sh., A.Navoiy ko‘ch., 24.

Tel.: +998 71 244 40 89